colloid [ˈkɔlɔɪd] **1.** *n* kolloid (*kristallanmaydigan, suvda quyuq eritma hosil qiladigan oqsil kraxmal, yelim singari modda*); **2.** *a* kolloidlarga oid.
colloidal [kəˈlɔɪdl] *a* kolloidlarga oid.
colloquial [kəˈləukwɪəl] *a* so'zlashuvga oid.
colloquialism [kəˈləukwɪəˌlɪzm] *n* so'zlashuvga oid ibora.
colloquy [ˈkɔləkwɪ] *n* suhbat; gaplashish.
collusion [kəˈlu:ʒn] *n* maxfiy kelishuv, til biriktirish.
cologne [kəˈləun] *n* odekolon, atir.
Colombian [kəˈlɔmbɪən] **1.** *a* Kolumbiya va kolumbiyaliklarga oid; **2.** *n* kolumbiyalik kishi (*ayol*).
colon [ˈkəulən] *n* 1) ikki nuqta; 2) *anat.* yo'g'on ichak.
colonel [ˈkə:nl] *n* polkovnik.
colonelcy [ˈkə:nlsɪ] *n* polkovnik unvoni.
colonial [kəˈləunɪəl] *a* mustamlakachilikka oid.
colonialist [kəˈləunɪəlɪst] *n* mustamlakachi.
colonist [ˈkɔlənɪst] ko'chmanchi (*yangi joyga ko'chib, borib o'rnashgan kishi*).
colonization [ˌkɔlənaɪˈzeɪʃn] *n* mustamlakaga aylantirish.
colonize [ˈkɔlənaɪz] *v* mustamlakaga aylantirmoq (*mustamlaka qilib olmoq*).
colonizer [ˈkɔlənaɪzə] *n* mustamlakachi.
colony [ˈkɔlənɪ] *n* mustamlaka, qaram mamlakat.
colophony [kəˈlɔfənɪ] *n* kanifol (*ignabargli daraxt yelimidan* (*shirasidan olinadigan sarg'ish shaffof modda*).
color [ˈkʌlə] = **colour.**
coloration [ˌkʌləˈreɪʃən] *n* bo'yash.
colorific [ˌkɔləˈrɪfɪk] *a* bo'yoqqa (rangga) oid.
colossal [kəˈlɔsl] *a* juda katta, ulkan, azim.
colossus [kəˈlɔsəs] *n* juda katta haykal (*ustun va sh.k.*).
colour [ˈkʌlə] **1.** *n* rang; **2.** *v* bo'yamoq, rang bermoq.
coloured [ˈkʌləd] *a* rangli; bo'yalgan.
colour-blindness [ˈkʌləˌblaɪndnəs] *n* ba'zi rang-tuslarni farq qila olmaslik kasalligi (*daltonizm*).
colourcast [ˈkʌləkɑ:st] *n* rangli televizor.
coloured [ˈkʌləd] *a* rangli.
colour film [ˈkʌləˌfɪlm] *n* rangli film.
colourful [ˈkʌləfəl] *a* yorqin bo'yoqlar bilan ishlangan.
colouring [ˈkʌlərɪŋ] *n* bo'yash.
colourless [ˈkʌlələs] *a* rangsiz.
colour-man [ˈkʌləmən] *n* bo'yoq sotuvchi kishi.
colt [kəult] *n* toycha, toy.
colter [ˈkəultə] *n q-x.* chimqirqar.
coltish [ˈkəultɪʃ] *a* toychaga xos bo'lgan (*oid*).
coluber [ˈkɔljubə] *n zool.* chipor ilon.
column [ˈkɔləm] *n me'mor.* ustun.
columnar [kəˈlʌmnə] *a* ustun shaklidagi.
columned [ˈkɔləmd] = **columner.**
columnist [ˈkɔləmnɪst] *n amer.* sharhlovchi.
colza [ˈkɔlzə] *n bot.* surepitsa (*urug'idan moy olinadigan o'simlik*).
colza-oil [ˈkɔlzəˌɔɪl] *n* surepitsa moyi.
coma [ˈkəumə] *n tib.* koma (*og'ir behushlik holati*).
comatose [ˈkəuməˌtəus] *a tib.* komaga (*og'ir behushlik holatiga*) oid.
comb [kəum] **1.** *n* taroq; **2.** *v* taramoq.
combat [ˈkɔmbæt] **1.** *n* jang qilish, urushish; jang, urush; **2.** *v* jang qilmoq, urushmoq.
combatant [ˈkɔmbətənt] *n* jangchi, jang qatnashchisi.
comber [ˈkəumə] *n to'qim.* tituvchi, tarovchi.
combination [ˌkɔmbɪˈneɪʃn] *n* birikma, birikish.
combine [ˈkɔmbaɪn] **1.** *n q-x.* kombayn (*bir yo'lda bir necha ishni bajaradigan murakkab mashina*); **2.** [kəmˈbaɪn] *v* birlashtirmoq.
combined [kəmˈbaɪnd] *a* birlashtirilgan.
combings [ˈkəumɪŋz] *n* titish (tarash) ishlari.
comb-out [ˈkəumaut] *n* taroq bilan tozalash.
combustibility [kəmˌbʌstəˈbɪlətɪ] *n* tez o't olish, tez yonib ketish.
combustible [kəmˈbʌstəbl] **1.** *a* yonadigan; **2.** *n pl* yonilg'i.
combustion [kəmˈbʌstʃən] *n* yonish, kuyish.
come [kʌm] *v* (**came; come**) kelmoq; ~ **about** yuz bermoq; sodir bo'lmoq; ~ **again** qaytib kelmoq; ~ **away** ketmoq; ~ **back** qaytib kelmoq; ~ **before** biror kimsa yoki narsadan oldin o'tmoq; ~ **down** yog'moq (*qor va yomg'ir to'g'risida*); ~ **forward** ochiq joyga (*yoki oldinga*) surilmoq; ~**in** kirmoq; ~ **of** yuz bermoq (*sodir bo'lmoq*); ~ **off** tushmoq (*yuqoridan pastga*); ~ **on** yaqinlashmoq; ~ **out** chiqmoq; ~ **round** yo'l-yo'lakay kirib o'tmoq; ~ **through** ichiga kirmoq; ~ **to** o'ziga kelmoq; ~ **up** ko'tarilmoq; ~ **upon** kutilmaganda hujum qilmoq.
come-and-go [ˌkʌmənd ˈgəu] **1.** *n* orqa oldinga harakat qilish; **2.** *attr.*: ~ **people** kelib-ketuvchi odamlar.
come-back [ˈkʌmbæk] *n* qaytish.
come-between [ˌkʌmbɪ ˈtwi:n] *n* dallol.
comedian [kəˈmi:dɪən] *n* komik (*kulgili rollarni ijro etuvchi aktyor*).
come-down [ˈkʌmdaun] *n* pasayish, tushish.
comedy [ˈkɔmədɪ] *n* komediya (*kulgili sahna asari*).
comeliness [ˈkʌmlɪnəs] *n* yoqimlilik, chiroylilik, go'zallik.
comely [ˈkʌmlɪ] *a* chiroyli, go'zal, barno.
come-off [ˈkʌmɔf] *n* tugatish, bitirish, oxiriga yetkazish.

comer [ˈkʌmə] *n* keluvchi.
comet [ˈkɔmɪt] *n astr.* kometa (*dumli yulduz*).
comfort [ˈkʌmfət] **1.** *n* yupatish, tasalli berish; **2.** *v* yupatmoq, tasalli bermoq.
comfortable [ˈkʌmfətəbl] *a* qulay, shinam.
comforter [ˈkʌmfətə] *n* yupatuvchi, tasalli beruvchi.
comforting [ˈkʌmfətɪŋ] *a* yupatadigan, tasalli beradigan.
comfortless [ˈkʌmfətləs] *a* 1) qayg'uli; 2) noqulay.
comfy [ˈkʌmfɪ] *a* qulay, shinam.
comic [ˈkɔmɪk] *a* kulgili, qiziqarli.
comical [ˈkɔmɪkl] *a* kulgili.
comicality [ˌkɔmɪ ˈkælətɪ] *n* kulgililik.
comics [ˈkɔmɪks] *n pl* komiks (*qisqa teksi va rasmlar berilgan adabiy asar*).
coming [ˈkʌmɪŋ] **1.** *n* kelish, yetib kelish; **2.** *a* yaqinlashayotgan, kelayotgan.
coming-in [ˌkʌmɪŋˈɪn] *n* tashqaridan mol keltirish.
coming-out [ˌkʌmɪŋˈaut] *n* chetga mol chiqarish.
comity [ˈkɔmətɪ] *n* xushmuomalalik, muloyimlik.
comma [ˈkɔmə] *n* vergul.
command [kəˈmɑ:nd] **1.** *n* buyruq; **2.** *v* buyurmoq.
commandant [ˌkɔməndænt] *n* 1) harbiy o'quv yurtining rahbari; 2) boshliq (*shahar va umuman aholi yashaydigan nuqtalarga harbiylarning intizomi uchun javobgar boshliq*); 3) komendant (*jamoat uylarining boshqaruvchisi*).
commandeer [ˌkɔmənˈdɪə] *v* qo'mondonlik qilmoq, qo'mondonlikka tayinlamoq.
commander [kəˈmɑ:ndə] *n* komandir; boshliq.
Commander-in-Chief [kəˌmɑndərɪnˈtʃi:f] *n* bosh qo'mondon.
commanding [kəˈmɑ:ndɪŋ] *a* qo'mondonlik qiluvchi.
commandment [kəˈmɑ:ndmənt] *n* buyruq.
commando [kəˈmɑ:ndəu] *n* tezkor hujumchi guruh.
commemorate [kəˈmemərеɪt] *n* bayram qilmoq, nishonlamoq (*yubileyni*).
commemoration [kəˌmemәˈrеɪʃn] *n* bayram qilish, nishonlash (*yubileyni*).
commemorative [kəˈmemərətɪv] *n* xotira uchun belgilangan.
commence [kəˈmens] *v* boshlamoq, boshlab yubormoq.
commencement [kəˈmensmənt] *n* boshlanishi.
commend [kəˈmend] *v* maqtamoq.
commendable [kəˈmendəbl] *a* maqtashga arziydigan.
commendation [ˌkɔmenˈdeɪʃn] *n* maqtov.
commensal [kəˈmensl] *n* birga (*bir dasturxonda*) ovqatlanuvchi, hamtovoq.
commensurable [kəˈmenʃərəbl] *a* o'lchovdosh, umumiy o'lchovli.
commensurate [kəˈmenʃərət] *a* ...ga mos (to'g'ri) keladigan.
comment [ˈkɔment] **1.** *n* mulohaza, fikr; **2.** *v* 1) (*tanqidiy*) mulohazalar bildirmoq; 2) sharhlamoq.
commentary [ˈkɔməntərɪ] *n* sharh, tushuntirish.
commentation [ˌkɔmənˈteɪʃn] *n* sharhlash, tushuntirib berish.
commentator [ˈkɔmenteɪtə] *n* sharhlovchi.
commerce [ˈkɔmə:s] *n* savdo, savdo-sotiq.
commercial [kəˈmə:ʃl] *a* savdo-sotiqqa oid.
commingle [kɔˈmɪŋgl] *v* 1) aralashmoq, qorishmoq; 2) aralashtirmoq, qorishtirmoq.
comminute [ˈkɔmɪnju:t] *v* maydalamoq, yanchmoq.
commiserate [kɔˈmɪzəreɪt] *v* 1) hamdard bo'lmoq; 2) ta'ziya bildirmoq.
commiseration [kəˌmɪzəˈreɪʃn] *n* 1) hamdard bo'lish; 2) ta'ziya bildirish.
commissar [ˌkɔmɪˈsɑ:] *n* komissar (*harbiy komissarlikning boshlig'i*).
commissary [ˈkɔmɪsərɪ] *n* komissariat.
commission [kəˈmɪʃn] **1.** *n* 1) vakolat; 2) vakolatnoma; 3) komissiya (*ayrim masala yuzasidan tuzilgan muvaqqat yoki doimiy tashkilot*); **2.** *v* 1) biror vazifaga tayinlamoq; 2) vakolat bermoq.
commissioned [kəˈmɪʃnd] *a* vakolatli; ishonilgan.
commissioner [kəˈmɪʃnə] *n* 1) maxsus vakil; 2) komissiya a'zosi.
commit [kəˈmɪt] *v* 1) (*jinoyat*) sodir qilmoq; **to ~ suicide** o'z joniga qasd qilmoq; 2) fikrini ochiq ifoda etmoq; 3) va'da bermoq.
commitment [kəˈmɪtmənt] *n* majburiyat, burch.
committee [kəˈmɪtɪ] *n* 1) komitet (*saylanma organ*); 2) *yur.* vasiy.
committee-man [kəˈmɪtɪmən] *n* komissiya yoki komitetning a'zosi.
commixture [kəˈmɪkstʃə] *n* aralashma; qorishma.
commode [kəˈməud] *n* komod (*kiyim-kechak turadigan qutili javon*).
commodious [kəˈməudɪəs] *n* keng.
commodity [kəˈmɔdətɪ] *n* mahsulot.
commodore [ˈkɔmədɔ:] *n deng.* 1-rang kapitan.
common [ˈkɔmən] **1.** *a* 1) umumiy; 2) oddiy; **2.** *n* umumiy hol, umumiylik.
commoner [ˈkɔmənə] *n* oddiy odam.
common law [ˌkɔmənˈlɔ:] *n* urf-odatlarga asoslangan (odatiy) huquq.
commonly [ˈkɔmənlɪ] *adv* odatga ko'ra.
commonplace [ˈkɔmənpleɪs] **1.** *a* siyqasi chiqqan, ko'p chaynalgan; **2.** *n* siyqasi chiqqanlik (*ibora, fikr haqida*).
commonplace-book [ˈkɔmənpleɪsˌbuk] *n* umumiy daftar.
common-room [ˈkɔmənru:m] *n* umumiy xona (*jamoat tashkilotlarida*).
commons [ˈkɔmənz] *n* 1) oddiy xalq; 2) (**the C**) parlamentning quyi palatasi (*Angliyada*).
commonweal [ˈkɔmənwi:l] *n* umumiy manfaat.
commonwealth [ˈkɔmənwelθ] *n* 1) mamlakat, davlat; 2) hamdo'stlik; 3) ittifoq, uyushma.

commotion [kə ˈməuʃn] *n* (*yurakdagi*) g'ashlik; iztirob, g'ulg'ula.
communal [ˈkɔmjunl] *a* jamoaga qarashli.
commune **1.** *n* [ˈkɔmju:n] 1) kommuna (*mulk va mehnatni umumlashtirish asosida tuzilgan kishilar jamoasi*); 2) jamoa; **2.** *v* [kəˈmju:n] muomala qil-moq, aralashib yurmoq.
communicable [kəˈmju:nɪkəbl] *a* odamga el bo'-ladigan, dilkash.
communicate [kəˈmju:nɪkeɪt] *v* xabar qilmoq.
communicating [kəˈmju:nɪkeɪtɪŋ] *a* yonma-yonlik (*xona to'g'risida*).
communication [kə,mju:nɪˈkeɪʃn] *n* axborot, xabar.
communicative [kəˈmju:nɪkətɪv] *a* odamga el bo'-ladigan.
communicatory [kəˈmju:nɪkeɪtərɪ] *a* axborot be-radigan.
communion [kəˈmju:nɪən] *n* 1) aloqa qilish, alo-qada bo'lish; 2) umumiylik, bir xillik.
communiqué [kəˈmju:nɪkeɪ] *fr. n* rasmiy xabar.
communism [ˈkɔmju,nɪzm] *n* kommunizm.
communistic [,kɔmjuˈnɪstɪk] *a* kommunizmga va kommunistlarga oid.
community [kəˈmju:nətɪ] *n* 1) jamoa; 2) umumiy-lik.
commutable [kəˈmju:təbl] *a* almashtirishga yaray-digan, almashtirsa bo'ladigan (*samolyot, poyezd va boshqalarning chiptalari haqida*).
commutation [,kɔmjuˈteɪʃn] *n* almashtirish.
commutator [ˈkɔmjuteɪtə] *n* kommutator (*tele-fon apparatlarini uzib-ulab turadigan qurilma*).
commute [kəˈmju:t] *v* almashtirmoq.
compact [ˈkɔmpækt] **1.** *n* bitim, kelishuv; shart-noma; **2.** *a* zich, g'uj; **3.** *v* zichlamoq.
companion [kəmˈpænjən] **1.** *n* o'rtoq, og'ayni; **2.** *v* o'rtoq bo'lmoq.
companionable [kəmˈpænjənəbl] *a* odamga el bo'ladigan, dilkash.
company [ˈkʌmpənɪ] *n* shirkat; jamiyat.
comparable [ˈkɔmpərəbl] *a* taqqoslab (solishtirib) bo'ladigan.
comparative [kəmˈpærətɪv] **1.** *a* qiyosiy, solishtir-ma; chog'ishtirma; **2.** *n gram.* cho'g'ishtirma da-raja.
comparatively [kəmˈpærətɪvlɪ] *adv* nisbatan.
compare [kəmˈpeə] *v* qiyoslamoq, solishtirmoq, taqqoslamoq.
comparison [kəmˈpærɪsn] *n* qiyoslash, taqqos-lash.
compartment [kəmˈpɑ:tmənt] *n* kupe (*temir yo'l vagonlarida; ayrim xona*) bo'lma.
compass [ˈkʌmpəs] **1.** *n* 1) kompas; 2) *pl* sirkul, pargar; **2.** *a* kompasga oid; **3.** *v* amalga oshirmoq, yuzaga chiqarmoq.
compassion [kəmˈpæʃən] *n* rahm; shafqat.
compassionate [kəmˈpæʃənət] **1.** *a* rahmdillikni ifodalovchi; **2.** *v* rahm (shafqat) qilmoq.
compatibility [kəm,pætəˈbɪlətɪ] *n* bir-biriga to'g'-ri (mos) kelish.
compatible [kəmˈpætəbl] *a* birga (ayni bir vaqt-da) bo'la oladigan, bir-biriga to'g'ri (mos) kela-digan, sig'ishadigan, mos.
compatriot [kəmˈpætrɪət] *n* vatandosh.
compeer [ˈkɔmpɪə] *n* tengdosh, o'rtoq, jo'ra.
compel [kəmˈpel] *v* majbur qilmoq, zo'rlamoq.
compelling [kəmˈpelɪŋ] *a* yengib bo'lmaydigan.
compendium [kəmˈpendɪəm] *n* 1) konspekt; 2) qisqa xulosa, qisqacha mazmun, yakun.
compendious [kəmˈpendɪəs] *a* qisqa; qisqartirilgan.
compensate [ˈkɔmpənseɪt] *v* mukofotlamoq.
compensation [,kɔmpenˈseɪʃn] *n* mukofotlash.
compensator [,kɔmpənˈseɪtə] *n fiz. el.* transforma-tor (*o'zgaruvchan elektr tokining kuchlanishini pasaytiradigan yoki oshiradigan moslama*).
compére [ˈkɔmpɛə] *n* konferansye (*dasturni olib boruvchi va ora-sira qiziq gaplar bilan tomo-shabinlarni mashg'ul qiluvchi artist*).
compete [kəmˈpi:t] *v* musobaqalashmoq, bellash-moq.
competence [ˈkɔmpɪtəns] *n* mahorat; qobiliyat.
competent [ˈkɔmpɪtənt] *a* 1) yetarli ma'lumotga ega bo'lgan, puxta bilimli, yaxshi biladigan, xabardor; 2) asosli, e'tiborli, diqqatga sazovor.
competition [,kɔmpəˈtɪʃn] *n* musobaqa.
competitioner [,kɔmpəˈtɪʃnə] *n* musobaqa qat-nashchisi.
competitive [kəmˈpetətɪv] *a* 1) raqobatlashadi-gan, raqobatga ega; 2) raqobatbardosh.
competitor [kəmˈpetɪtə] *n* raqib.
compilation [,kɔmpɪˈleɪʃn] *n* quramachilik (*bosh-qalarning ishlaridan ulab-qurab asar yozish*).
compile [kəmˈpaɪl] *v* tuzmoq (*lug'at va b.*).
compiler [kəmˈpaɪlə] *n* tuzuvchi.
complacence, -cy [kəmˈpleɪsns, -sɪ] *n* 1) o'ziga ishonib ketish, mag'rurlik; 2) muloyimlik.
complacent [kəmˈpleɪsnt] *a* 1) o'ziga ishonib ket-gan, mag'rur; 2) ko'ngilchan.
complain [kəmˈpleɪn] *v* shikoyat qilmoq.
complainant [kəmˈpleɪnənt] *n* shikoyatchi.
complaint [kəmˈpleɪnt] *n* 1) shikoyat; 2) norozilik.
complaisance [kəmˈpleɪzns] *n* xushmuomalalik, iltifot.
complaisant [kəmˈpleɪznt] *a* xushmuomala, iltifotli.
complement [ˈkɔmplɪmənt] *n gram.* to'ldiruvchi.
complementary [,kɔmplɪˈmentərɪ] *a* qo'shimcha qilingan.
complete [kəmˈpli:t] **1.** *a* mukammal, to'liq; **2.** *v* tugatmoq, oxiriga yetkazmoq.
completely [kəmˈpli:tlɪ] *adv* mutlaqo.
completeness [kəmˈpli:tnəs] *n* mukammallik.
completion [kəmˈpli:ʃn] *n* oxiriga yetkazish, tu-gatish.
completive [kəmˈpli:tɪv] *a* yakunlovchi, oxirgi, so'nggi.

complex [ˈkɔmpleks] **1.** *a* murakkab; **2.** *n* kompleks (*uyg'un birlik tashkil etgan predmetlar, voqea-hodisalar, harakat, belgi va sh. k. majmuyi*).
complexion [kəmˈplekʃn] *n* betning tusi (rangi).
complexity [kɔmˈpleksətɪ] *n* murakkablik.
compliance [kəmˈplaɪəns] *n* rozilik.
compliant [kəmˈplaɪənt] *a* yon beradigan, gapga ko'nadigan.
complicacy [ˈkɔmplɪkəsɪ] = **complexity.**
complicate [ˈkɔmplɪkeɪt] *v* murakkablashtirmoq, mushkullashtirmoq, qiyinlashtirmoq.
complicated [ˈkɔmplɪkeɪtɪd] *a* murakkab.
complication [ˌkɔmplɪˈkeɪʃn] *n* murakkablik.
complicity [kəmˈplɪsɪtɪ] *n* birga qatnashish (*jinoyat va b.*).
compliment 1. *n* [ˈkɔmplɪmənt] maqtov; xushomad; **2.** *v* [ˈkɔmplɪment] maqtamoq; xushomad qilmoq.
complimentary [ˌkɔmplɪˈmentərɪ] *a* tabriklashga oid.
comply [kəmˈplaɪ] *v* (**with**) 1) bajarmoq, ijro etmoq; 2) bo'ysunmoq; **to ~ with the rules** qoidalarga rioya qilmoq; 3) ko'nmoq, rozi bo'lmoq; 4) biror narsadan kechmoq, bahridan o'tmoq, bermoq, in'om qilmoq.
component [kəmˈpəunənt] *a* tarkibiy qism.
comport [kəmˈpɔ:t] *v* 1) o'zini yaxshi tutmoq; 2) muvofiq kelmoq.
compose [kəmˈpəuz] *v* 1) tuzmoq; 2) yozmoq, ijod qilmoq, yaratmoq (*musiqali yoki badiiy asarni*).
composed [kəmˈpəuzd] *a* 1) yuvosh, beozor; o'zini tuta biladigan; 2) yozilgan.
composer [kəmˈpəuzə] *n* bastakor.
composing-room [kəmˈpəuzɪŋrum] *n poligr.* harf terish sexi.
composing-stick [kəmˈpəuzɪŋstɪk] *n poligr.* harf teriladigan taxtakach, verstatka.
composite [ˈkɔmpəzɪt] **1.** *n* aralashma, qorishma; **2.** *a* murakkab.
composition [ˌkɔmpəˈzɪʃn] *n* musiqali *yoki* adabiy (badiiy) asar.
composition-metal [kɔmpəˈzɪʃnˌmetl] *n* jez (*mis va rux qotishmasi*).
compositive [kəmˈpɔzɪtɪv] *a* sintez usuliga asoslangan, sintetik.
compositor [kəmˈpɔzɪtə] *n* harf teruvchi.
compost [ˈkɔmpɔst] *n q-x.* kompost (*har xil chiqindilardan tuproq yoki torfda chiritib tayyorlangan organik o'g'it*).
composure [kəmˈpəuʒə] *n* 1) xotirjamlik, og'irlik, bosiqlik; 2) sovuqqonlik.
compote [ˈkɔmpəut] *n fr.* kompot.
compound 1. *n* [ˈkɔmpaund] 1) birikma, aralashma, tarkib; 2) *ling.* murakkab so'z; **2.** *a* [ˈkɔmpaund] 1) qo'shma; murakkab; 2) *gram.* bog'langan qo'shma gap; **3.** *v* [kəmˈpaund] aralashtirmoq.
comprador [ˌkɔmprəˈdɔ:] *n* komprador (*chet el kapitali bilan mahalliy bozor o'rtasida vositachilik qiluvchi yerlik savdogar*).
comprehend [ˌkɔmprɪˈhend] *v* tushunmoq, anglamoq.
comprehensible [ˌkɔmprɪˈhensəbl] *a* tushunarli, tushunsa bo'ladigan.
comprehension [ˌkɔmprɪˈhenʃn] *n* tushunish, anglash.
comprehensive [ˌkɔmprɪˈhensɪv] *a* 1) mufassal; 2) har tomonlama.
compress 1. *n* [ˈkɔmpres] *tib.* kompress (*og'rigan joyga biror dorili suvga botirib yoki quruq holda bog'lanadigan latta, paxta va h.*); **2.** *v* [kəmˈpres] siqmoq, bosmoq.
compressed [kəmˈprest] *a* siqilgan, qisilgan.
compressibility [kəmˌpresəˈbɪlətɪ] *n* siqilish xususiyati.
compression [kəmˈpreʃn] *n* siqish, qisish.
compressor [kəmˈpresə] *n tex.* kompressor (*dam beradigan, bosim ostida havo, gaz, bug' yuboradigan mashina*).
comprise [kəmˈpraɪz] *v* ichiga olmoq.
compromise [ˈkɔmprəmaɪz] **1.** *n* bir-biriga yon berish (*murosa*); komprimes, kelishuv; **2.** *v* murosa qilmoq.
compromiser [ˈkɔmprəmaɪzə] *n* kelishuvchi, murosachi.
comptometer [ˌkɔmpˈtɔmɪtə] *n* arifmometr (*arifmetik amallarni bajaradigan sodda hisoblash mashinasi*).
comptroller [kəmˈtrəulə] = **controller.**
compulsion [kəmˈpʌlʃn] *n* majbur qilish, zo'rlash.
compulsive [kəmˈpʌlsɪv] *a* majburiy.
compulsory [kəmˈpʌlsərɪ] *a* majburiy.
compunction [kəmˈpʌŋkʃn] *n* vijdon azobi.
computable [kəmˈpju:təbl] *a* hisoblanadigan, sanaladigan.
computation [ˌkɔmpjuˈteɪʃn] *n* hisoblash.
compute [kəmˈpju:t] *v* sanamoq, hisoblamoq.
computer [kəmˈpju:tə] *n* kompyuter.
computerization [kəmˌpju:tərəɪˈzeɪʃn] *n* hisoblash mashinasidan foydalanish; kompyuterlashtirish.
comrade [ˈkɔmreɪd] *n* o'rtoq, do'st.
comrade-in-arms [ˌkɔmreɪdɪnˈɑ:mz] *n pl* qurolдosh.
comradely [ˈkɔmreɪdlɪ] *a* do'stona, o'rtoqlarcha.
comradeship [ˈkɔmreɪdʃɪp] *n* do'stlik munosabatlar.
con I [kɔn] *v* yodlab olmoq.
con II [kɔn] **1.** *n* 1) firibgar, qallob, muttaham; 2) firibgarlik, qalloblik; muttahamlik; **2.** *a* qalloblikdan iborat bo'lgan; **3.** *v* qalloblik (muttahamlik) qilmoq.
concatenate [kənˈkætəneɪt] *v* ulamoq, bog'lamoq.
concatenation [kɔnˌkætəˈneɪʃn] *n* 1) *tex.* zanjir; 2) ulash, bog'lash.

concave [ˌkɔn´keɪv] **1.** *a* ichiga botgan, bukilgan, egilgan; **2.** *v* bukmoq, egmoq; **3.** *n* chuqur, chuqurcha.
concavity [ˌkɔn´kævətɪ] *n* botiqlik, egilganlik.
conceal [kən´si:l] *v* berkitmoq, yashirmoq.
concealer [kən´si:lə] *n* yashiruvchi, berkituvchi.
concealment [kən´si:lmənt] *n* yashirish.
concede [kən´si:d] *v* 1) yon bermoq; 2) ruxsat etmoq.
conceit [kən´si:t] *n* manmanlik, o'ziga ortiqcha ishonish.
conceited [kən´si:tɪd] *a* o'ziga bino qo'ygan, mag'rur.
conceivable [kən´si:vəbl] *a* aqlga to'g'ri keladigan (sig'adigan).
conceivably [kən´si:vəblɪ] *adv* taxminan.
conceive [kən´si:v] *v* fikr yuritmoq; ko'z oldiga keltirmoq, tasavvur etmoq, o'ylamoq.
conceiving [kən´si:vɪŋ] **1.** *pres. p.* **conceive** *dan*; **2.** *n* homilador bo'lish.
concentrate [´kɔnsəntreɪt] *v* 1) to'plamoq, jamlamoq; 2) to'planmoq, jamlanmoq.
concentrated [´kɔnsəntreɪtɪd] *a* bir yerga to'plangan.
concentration [ˌkɔnsən´treɪʃn] *n* to'plash.
concentre [kɔn´sentə] *v* bir yerda to'plamoq (*biror narsaga qaratmoq fikr va b.*).
concentric [kən´sentrɪk] *a* konsentrik (*bitta umumiy markazga ega bo'lgan*).
concentrically [kɔn´sentrɪklɪ] *adv* kontsentrik (*bitta umumiy markazga ega bo'lgan*).
concentricity [ˌkɔnsən´trɪsətɪ] *n* bitta umumiy markazga egalik, konsentriklik.
concept [´kɔnsept] *n* tushuncha, g'oya.
conception [kən´sepʃn] *n* tushunish.
conceptual [kən´septʃuəl] *a* tajribaga asoslanmagan, sinalmagan.
concern [kən´sə:n] **1.** *n* 1) munosabat, aloqa; **it is no ~ of mine** bu mening ishim emas; **to have no ~ with ...** ga hech qanday aloqasi bo'lmaslik; 2) tashvishlanish, g'amxo'rlik; **to show ~ for an invalid** nogironga g'amxo'rlik qilish; 3) ishtirok etish, qiziqish; 4) firma, korxona; **paying ~** daromadli korxona; 5) muhimlik, ahamiyatlilik; **matter of great ~** o'ta muhim masala; **2.** *v* 1) aloqador bo'lmoq, daxldor bo'lmoq; **That doesn't ~ you at all.** Uni sizga hech qanday aloqasi yo'q; 2) tashvishlanmoq, g'amxo'rlik qilmoq; 3) qiziqmoq, shug'ullanmoq.
concerned [kən´sə:nd] **1.** *p. p.* **concern 2** *dan*; **2.** *a* 1) aloqador bo'lgan (*biror narsaga*); bog'liq bo'lgan (*biror narsa bilan*); manfaatdor; **all ~** barcha manfaatdor shaxslar; 2) tashvishli, tashvishlangan; 3) band bo'lgan, mashg'ul (*biror narsa bilan*).
concerning [kən´sə:nɪŋ] **1.** *p. p.* **concern 2** *dan*; **2.** *prep.* 1) haqida, to'g'risida; xususida; 2) taalluqli, tegishli.
concernment [kən´sə:nmənt] *n* 1) ish, korxona; 2) munosabat; **matter of private ~** xususiy tusdagi ish; 3) muhimlik; **of vital ~** hayotiy muhim; 4) ishtirok etish, manfaatdorlik.
concert 1. *n* [´kɔnsət] *n* 1) konsert; 2) rozilik, kelishish; **2.** *v* [kən´sə:t] kelishmoq.
concerted [kən´sə:tɪd] **1.** *p. p.* **concert 2** *dan*; **2.** *a* kelishib olingan.
concertina [ˌkɔnsə´ti:nə] *n* konsertino (*1. olti qirrali garmon; 2. konsert tipidagi sodda musiqa asari*).
concerto [kən´tʃeətəu] *n ital.* konsert (*musiqa asari*).
concession [kən´seʃn] *n* 1) yon berish (*ko'nish, rozi bo'lish*); 2) yer, kon, korxona va sh.k. dan foydalanish haqida davlat bilan ayrim kapitalist *yoki* firma o'rtasida tuziladigan shartnoma (*konsessiya*).
concessionaire [kənˌseʃə´neə] *n fr.* konsessioner.
concessive [kən´sesɪv] *a* 1) yon beradigan, gapga ko'nadigan; 2) *gram.* to'siqsiz.
conch [kɔŋk] *n* chig'anoq.
concha [´kɔŋkə] *n anat.* quloq chanog'i (*suprasi*).
concilia [kən´sɪlɪə] *pl* **concilium** *dan.*
conciliate [kən´sɪlɪeɪt] *v* 1) murosaga keltirmoq, yarashtirmoq; 2) tinchlantirmoq, yupatmoq.
conciliation [kənˌsɪlɪ´eɪʃn] *n* murosaga keltirish, yarashtirish.
conciliatory [kən´sɪlɪətərɪ] *a* murosaga keltiruvchi, yarashtiruvchi.
concilium [kən´sɪlɪəm] *n* konsilium (*og'ir yoki noaniq kasallikni aniqlash va uni davolash choralarini belgilash uchun chaqiriladigan shifokorlar kengashi*).
concise [kən´saɪs] *a* qisqartirilgan, qisqa, lo'nda.
conciseness [kən´saɪsnəs] *n* qisqalik, qisqachalik, lo'ndalik.
concision [kən´sɪʒn] = **conciseness.**
conclave [´kɔŋkleɪv] *n* maxfiy kengash.
conclude [kən´klu:d] *v* 1) tugatmoq, yakunlamoq; **to ~ a lecture** ma'ruzani yakunlamoq; 2) tuzmoq; **to ~ a treaty** shartnoma tuzmoq; 3) xulosaga kelmoq, xulosa chiqarmoq; 4) hal qilmoq, qarorga kelmoq (*biror narsa qilishga*).
conclusion [kən´klu:ʒn] *n* 1) tugatish, yakunlash; **the ~ of a speech** nutqning yakuniy qismi; 2) tuzish; **~ of truce** yarash ahdi tuzish; 3) xulosa; **to draw a ~** xulosa chiqarmoq; 4) yakun, natija; 5) *yur.* sud qarori.
conclusive [kən´klu:sɪv] *a* 1) yakunlovchi, so'nggi, oxirgi; 2) hal qiluvchi.
concoct [kən´kɔkt] *v* 1) ovqat tayyorlamoq (pishirmoq, qilmoq); 2) o'ylab topmoq, to'qimoq.
concoction [kən´kɔkʃn] *n* 1) qaynatma ovqat, suyuq osh; 2) uydirma, to'qima, bo'lmagan, yolg'on; 2) o'ylab topish.
concomitance [kən´kɔmɪtəns] *n* birga yurish, bir vaqtda sodir bo'lish.

concomitant [kən´kɔmıtənt] **1.** *a* birga yuradigan, bir vaqtda sodir bo'ladigan; **2.** *n* ketidan keladigan ahvol.

concord [´kɔŋkɔ:d] *n* 1) rozilik; 2) bitim, shartnoma.

concordance [kən´kɔ:dəns] *n* moslik, muvofiqlik.

concordant [kən´kɔ:dənt] *a* rozi bo'lgan, rozilik bergan.

concordat [kən´kɔ:dæt] *n* shartnoma, bitim.

concourse [´kɔŋkɔ:s] *n* 1) omma to'planadigan ochiq joy; 2) xalqning yog'ilib kelib to'planishi, olomon.

concrescence [kən´kresəns] *n biol.* bitish, ulanish, bitgan (ulangan) joy.

concrete [´kɔnkri:t] **1.** *n* beton (*sement, qum va qorib tayyorlangan qurilish materiali*); **2.** *a* 1) aniq, ravshan; 2) betondan ishlangan; **3.** *v* betonlamoq, beton bilan mustahkamlamoq.

concrete-mixer [ˌkɔnkri:t´mıksə] *n* betonqorg'ich, beton yoradigan mashina.

concretion [kən´kri:ʃn] *n* bitish, ulanish.

concretize [´kɔnkritaız] *v* aniqlamoq.

concubinage [kɔn´kju:bınıdʒ] *n* nikohsiz birga yashash.

concubine [´kɔŋkjubaın] *n* o'ynash, nikohsiz xotin, jazman.

concupiscence [kən´kju:pısəns] *n* 1) zo'r istak, xohish, orzu; suqlanish; 2) nafs, hirs, shahvat.

concupiscent [kən´kju:pısənt] *a* shahvatparastlarcha, shahvoniy.

concur [kən´kə:] *v* 1) to'g'ri kelmoq; 2) rozi bo'lmoq.

concurrence [kɔn´kʌrəns] *n* 1) mos kelish, o'xshashlik (*fikr va b.*); 2) rozilik.

concurrent [kən´kʌrənt] **1.** *n* ajralmas qism; **2.** *a* 1) bir-biriga to'g'ri keladigan; 2) bir vaqtda yoki birgalikda amalga oshadigan.

concuss [kən´kʌs] *v* 1) tebratmoq; 2) majbur qilmoq (*nimagadir*).

concussion [kɔn´kʌʃn] *n* 1) titrash; chayqalish; turtki; **~ of the brain** miyaning chayqalib lat yeyishi; 2) kontuziya; 3) *yur.* do'q yoki zo'ravonlik bilan biror narsa qilishga majburlash.

condemn [kən´dem] *v* 1) ayblamoq, tanbeh bermoq; 2) *yur.* hukm qilmoq; 3) yaroqsiz deb topmoq; **to ~ to death** o'limga hukm qilmoq; 4) musodara qilmoq, hibsga olmoq.

condemnation [ˌkɔndem´neıʃn] *n* qoralash, ayblash; hukm.

condemnatory [kən´demnətərı] *a* ayblash bilan bog'liq bo'lgan.

condemned [kən´demd] *a* jazoga hukm qilingan.

condensation [ˌkɔnden´seıʃn] *n* quyulish, zichlanish.

condense [kən´dens] *v* quyultirmoq, zichlashtirmoq.

condensed [kən´denst] *a* quyultirilgan, zichlangan; **~ milk** quyultirilgan sut.

condenser [kən´densə] *n* kondensator (*1. elektr to'playdigan asbob; 2. bug'ni sovitib suyuqlikka aylantiradigan kondensat to'playdigan asbob*).

condescend [ˌkɔndı´send] *v* marhamat ko'rsatmoq; iltifot qilmoq.

condescending [kɔndı´sendıŋ] *a* marhamatli, iltifotli, iltifot bilan qilingan.

condescension [ˌkɔndı´senʃn] *n* ko'ngilchanlik, ko'ngli bo'shlik.

condign [kən´daın] *a* loyiq, sazovor (*jazoga*).

condiment [´kɔndımənt] *n* ziravor (*ovqatni xushxo'r qilish uchun ishlatiladigan narsa*).

condition I [kən´dıʃn] *n* 1) holat, ahvol; **in good ~** iste'molga yaroqli; 2) *pl* muhit, shart-sharoit; **~ s of life** turmush shart-sharoitlari; 3) shart; **to meet the ~ s** shartlarni bajarmoq.

condition II [kən´dıʃn] *v* shart qo'ymoq, talab qo'ymoq.

conditional [kən´dıʃnl] *a* shartli, o'zaro shart qilingan.

conditioned [kən´dıʃnd] *a* shart qilingan.

conditioning [kən´dıʃnıŋ] *a sport.* chiniqtirish; umumrivojlantiruvchi mashqlar.

condolatory [kən´dəulətrı] *n* xayrixoh.

condole [kən´dəul] *v* 1) hamdard bo'lmoq; 2) ta'ziya bildirmoq.

condolence [kən´dəuləns] *n* dardiga (qayg'usiga) sherik bo'lish, ta'ziya bildirish.

condominium [ˌkɔndə´mınıəm] *n* kondominium (*bir hududning bir necha davlat tomonidan birgalikda tasarruf qilinishi, boshqarilishi*).

condonation [ˌkɔndə´neıʃn] *n* chidab turishlik (*asosan, er-xotinning xiyonatida*).

condone [kən´dəun] *v* murosa qilmoq, ko'nikmoq; chidamoq.

condor [´kɔndɔ:] *n zool.* kondor (*Janubiy Amerikada yashaydigan o'limtikxo'r yirik yirtqich qush*).

conduce [kən´dju:s] *v* imkon (imkoniyat) tug'dirmoq.

conducive [kən´dju:sıv] *a* yaxshi ta'sir ko'rsatadigan.

conduct 1. *n* [´kɔndʌkt] 1) yurish-turish, xulq-atvor; **good (bad) ~** yaxshi (yomon) xulq-atvor; 2) yuritish, rahbarlik qilish; **~ of a business** ishni boshqarish; **2.** *v* [kən´dʌkt] 1) olib bormoq, hamroh bo'lmoq; 2) boshqarmoq, rahbarlik qilmoq; **to ~ a meeting** majlisni boshqarmoq; 3) dirijorlik qilmoq (*orkestrga, xorga*).

conductance [kən´dʌktəns] = **conduction.**

conduction [kən´dʌkʃn] *n fiz.* o'tkazuvchanlik, o'tkazish qobiliyati.

conductivity [ˌkɔndʌk´tıvətı] *n fiz.* elektr o'tkazuvchi.

conductor [kɔn´dʌktə] *n* 1) chipta sotuvchi, konduktor (*tramvay, avtobusda*); 2) yo'l ko'rsatuvchi, gid, rahbar; **~ of a party** guruh rahbari; 3) dirijor; 4) *fiz.* o'tkazgich.

conductress [kən'dʌktrəs] *n* chipta sotuvchi ayol (*avtobus, tramvay va b.*).
conduit ['kɔndɪt] *n* 1) suv quvuri. 2) truboprovod (*uzoq masofaga quvur orqali gaz, suv yoki suyuqlik o'tkazadigan inshoot*).
cone [kəun] *n* 1) *mat.* konus; 2) *bot.* so'ta (*ignabargli daraxtlarning so'tasimon to'p guli*).
coney ['kəunɪ] = **cony.**
confabulate [kən'fæbjuleɪt] *v* suhbatlashmoq; gaplashmoq.
confabulation [kən,fæbju'leɪʃn] *n* 1) do'stona suhbat; 2) bekorchi gap.
confection [kən'fekʃn] **1.** *n* shirinliklar (*qandqurs*); **2.** *v* shirinliklar tayyorlamoq (pishirmoq).
confectionary [kən'fekʃnərɪ] qandolat mahsulotlari.
confectioner [kən'fekʃnə] *n* qandolatchi, shakarpaz.
confectionery [kən'fekʃnərɪ] *n* 1) qandolat do'konі; 2) qandolatchilik.
confederacy [kən'fedərəsɪ] *n* konfederatsiya (*ba'zi tashkilotlarning ittifoqi, birikmasi*).
confederate 1. *n* [kən'fedərət] 1) ittifoqchi; 2) konfederatsiya a'zosi; **2.** *a* [kən'fedərət] o'zaro birlashgan; ittifoq tuzgan; **3.** *v* [kən'fedəreɪt] o'zaro birlashmoq, ittifoq tuzmoq.
confederation [kən,fedə'reɪʃn] *n* ittifoq, uyushma.
confer [kən'fə:] *v* 1) bermoq, bag'ishlamoq; 2) (*ilmiy daraja va b.*) bermoq; 3) maslahatlashmoq, kengashmoq.
conferee [,kɔnfə'ri:] *n* kengash qatnashchisi.
conference ['kɔnfərəns] *n* kengash, konferensiya.
conferment [kən'fə:mənt] *n* 1) unvon berish; 2) (*ilmiy daraja*) berish.
confess [kən'fes] *v* 1) tan olmoq, e'tirof qilmoq; 2) e'tiqod (amal, rioya) qilmoq.
confession [kən'feʃn] *n* 1) bo'yniga olish; iqror bo'lish (*xatosini, aybini*); 2) *cherk.* tavba, gunohlariga tavba qilish.
confessor [kən'fesə] *n* tavbani qabul qiluvchi ruhoniy.
confetti [kən'fetɪ] *n it.* konfetti (*bayramlarda kishilar ustidan sochiladigan rangli qog'oz tangachalar*).
confidant ['kɔnfɪdænt] *n* sirdosh (yaqin) do'st, ishonchli shaxs.
confidante ['kɔnfɪdænt] *n* sirdosh (yaqin) dugona.
confide [kən'faɪd] *v* ishonmoq.
confidence ['kɔnfɪdəns] *n* ishonch, ishonish.
confident ['kɔnfɪdənt] *a* 1) ishonch bilan qilingan; 2) o'ziga ishongan.
confidential [,kɔnfɪ'denʃl] *a* maxfiy.
confidentially [,kɔnfɪ'denʃɪ'ælɪlɪ] *adv* maxfiy ravishda, yashirincha.
configuration [kən,fɪgju'reɪʃn] *n* tashqi ko'rinish (qiyofa, shakl).
confine [kən'faɪn] *v* cheklamoq, cheklanmoq.
confined [kən'faɪnd] *a* chegaralangan, cheklangan.
confinement [kən'faɪnmənt] *n* chegaralash, cheklash.
confines ['kɔnfaɪnz] *n pl* chegaralar, hududlar.
confirm [kən'fə:m] **1.** *v* tasdiqlamoq; **2.** *n* tasdiqlash.
confirmation [,kɔnfə'meɪʃn] *n* tasdiq, isbot, tasdiqlash.
confirmative [kən'fə:mətɪv] *a* tasdiqlaydigan, tasdiqlovchi.
confirmed [kən'fə:md] *a* 1) uzoq davom etadigan (cho'ziladigan); 2) qat'iy ishongan.
confiscate ['kɔnfɪskeɪt] *v* musodara qilmoq.
confiscation [,kɔnfɪs'keɪʃn] *n* musodara qilish.
confiture ['kɔnfɪtjə] *n* murabbo, qiyom.
conflagration [,kɔnflə'greɪʃn] *n* katta yong'in.
conflict 1. *n* ['kɔnflɪkt] 1) nizo, mojaro; 2) to'qnashuv; 3) ziddiyat, qarama-qarshilik; **2.** *v* [kən'flɪkt] 1) qarshi chiqmoq; 2) kurashmoq.
conflicting [kən'flɪktɪŋ] **1.** *pres. p.* **conflict 2** *dan*; **2.** *a* qarama-qarshi, zid, teskari.
confluence ['kɔnfluəns] *n* 1) daryoning tutashgan joyi; 2) xalqning yog'ilib kelib to'planishi; 3) yo'llar kesishib o'tgan joy (chorraha).
confluent ['kɔnfluənt] *n* irmoq, jilg'a.
conform [kən'fɔ:m] *v* to'g'ri (muvofiq) kelmoq.
conformable [kən'fɔ:məbl] *a* to'g'ri (muvofiq) keladigan.
conformation [,kɔnfɔ:'meɪʃn] *n* tuzilish.
conformity [kən'fɔ:mətɪ] *n* to'g'ri kelish (*munosiblik*).
confound [kən'faund] *v* 1) uyaltirib qo'ymoq; 2) adashtirmoq; 3) buzmoq, barbod qilmoq (*reja, orzu-umidni*).
confounded [kən'faundɪd] *a so'zl.* o'taketgan, ashaddiy.
confoundedly [kən'faundɪdlɪ] *adv* favqulodda, haddan tashqari.
confraternity [,kɔnfrə'tə:nətɪ] *n* do'stlik, qardoshlik.
confront [kən'frʌnt] *v* yuzma-yuz turmoq, qarshi turmoq.
confrontation [,kɔnfrʌn'teɪʃn] *n* qarshi kurashish, qarshilik ko'rsatish, konfrantatsiya.
confuse [kən'fju:z] *v* adashtirmoq, chalkashtirmoq.
confused [kən'fju:zd] *a* 1) chigal, chalkash-chulkash; 2) xijolatda (uyalib) qolgan.
confusedly [kən'fju:zɪdlɪ] *adv* xijolat bo'lib, uyalib, xijolatda.
confusion [kən'fju:ʒn] *n* 1) xijolat bo'lish, uyalib qolish; 2) tartibsizlik.
confutation [,kɔnfju'teɪʃn] *n* rad (etish) qilish.
confute [kən'fju:t] *v* rad qilmoq, noto'g'riligini isbot qilmoq.
congeal [kən'dʒi:l] *v* muzlatmoq.
congelation [,kɔndʒɪ'leɪʃn] *n* muzlatish.

congeneric(al) [ˌkəndʒɪˊnerɪk(əl)] *a* bir turdagi, o'xshash.
congenerous [kənˊdʒenərəs] *a* 1) bir turdagi, o'xshash; 2) qarindoshlikka oid.
congenial [kənˊdʒi:nɪəl] *a* munosib, bop, muvofiq.
congeniality [kənˌdʒi:nɪˊælətɪ] *a* 1) yaqinlik; 2) o'xshashlik.
congenital [kənˊdʒenɪtl] *a* tug'ma, zotida bo'lgan.
conger [ˊkɔŋgə] *n zool.* dengiz ilonbalig'i.
congeries [kənˊdʒɪəri:z] *n* 1) (*pl o'zgarishsiz*) juda ko'p; bir talay; 2) yig'ish, to'plash, jamg'arish.
congest [kənˊdʒest] *v* 1) ortiqcha yuklamoq; 2) to'ldirib yubormoq.
congested [kənˊdʒestɪd] **1.** *p. p.* **congest** *dan*; **2.** *a* aholisi g'oyat ko'p (*rayon va b.*).
congestion [kənˊdʒestʃən] *n* aholining juda zichligi, aholining tig'iz joylashganligi.
conglobate [ˊkɔnŋləubeɪt] *a* sharsimon, dumaloq.
conglomerate 1. *n* [kənˊglɔmərət] konglomerat (*xilma-xil narsalarning tartibsiz, tasodifiy yig'indisi*); **2.** *v* [kənˊglɔməreɪt] yig'moq, to'plamoq.
conglomeration [kənˌglɔməˊreɪʃn] *n* yig'ish, to'plash.
conglutination [kənˌglu:tɪˊneɪʃn] *n* yopishtirish, yelimlab ulash.
congou [ˊkɔŋgu:] *n* Xitoy qora choyining bir navi.
congratulate [kənˊgrætʃuleɪt] *v* tabriklamoq, qutlamoq.
congratulation [kənˌgrætʃuˊleɪʃn] *n* tabriklash, qutlash.
congratulatory [kənˌgrætʃuˊlertərɪ] *a* tabriklashga (qutlashga) oid.
congregate [ˊkɔŋgrɪgeɪt] *v* yig'moq, yig'ilmoq.
congregation [ˌkɔŋgrɪˊgeɪʃn] *n* yig'in, yig'ilish.
congress [ˊkɔŋgres] *n* 1) kongress (*siyosiy, ilmiy yoki jamoat tashkilotlarining xalqaro majlisi, kengashi*); 2) qurultoy.
congressional [kənˊgreʃnl] *a* kongressga oid.
Congressman [ˊkɔŋgresmən] *n amer.* kongress a'zosi.
congruence [ˊkɔŋgruəns] *n* bir-biriga to'g'rilik, moslik, muvofiqlik, birdamlik, hamjihatlik, kelishilganlik.
congruent [ˊkɔŋgruənt] = **congruous.**
congruous [ˊkɔŋgruəs] *a* mos, muvofiq, munosib, loyiq, tog'ri keladigan.
conic(al) [ˊkɔnɪk(əl)] *a* konusga oid, konusga o'xshagan.
conifer [ˊkɔnɪfə] *n* ignabargli daraxt.
coniferous [kəuˊnɪfərəs] *a bot.* ignabargli daraxtga oid, ignabargli daraxtdan olingan.
coniform [ˊkəunɪfɔ:m] = **conic(al).**
conjectural [kənˊdʒekʧrəl] *a* taxminiy, chamalab belgilangan.
conjecture [kənˊdʒekʧə] **1.** *n* taxmin, faraz; **2.** *v* taxmin (faraz) qilmoq, chamalamoq.
conjee [ˊkɔndʒɪ] *n* yovg'on xo'rda.
conjoin [kənˊdʒɔɪn] *v* qo'shilmoq, birlashmoq.
conjoint [kɔnˊdʒɔɪnt] *a* qo'shilgan, birlashgan.
conjugal [ˊkɔndʒugəl] *a* nikohga (er-xotinlikka) oid.
conjugality [ˌkɔndʒuˊgælətɪ] *n* er-xotinlik.
conjugate [ˊkɔndʒugət] *a gram.* tuslamoq (*grammatik shakllar bo'yicha o'zgartirmoq*).
conjugation [ˌkɔndʒuˊgeɪʃn] *n gram.* tuslanish.
conjunct [ˊkəndʒʌŋkt] *a* 1) *gram.* bog'lovchi; 2) birikish, qo'shilish.
conjunction [kənˊdʒʌŋkʃn] *a* 1) qo'shilish; aloqa; **in ~** birgalikda; 2) *amer.* bog'lovchi.
conjunctive [kənˊdʒʌŋktɪv] *a* 1) bog'laydigan, bog'lovchi; 2) *gram.* bog'lovchili, bog'lovchi orqali bog'langan.
conjuncture [kənˊdʒʌŋkʧə] *n* voqealarning birbiriga to'g'ri kelib qolishi, zamonaning zayli.
conjuration [ˌkɔndʒuəˊreɪʃn] *n* sehrgarlik, jodugarlik.
conjure [ˊkʌndʒə] *v* sehrlamoq, sehr-jodu qilmoq.
conjurer, conjuror [ˊkʌndʒərə] *n* sehrgar, jodugar, afsungar.
conk [kɔŋk] **1.** *n* 1) burun; 2) burunga urish; 3) dvigatelning ishdan chiqishi; **2.** *v* 1) burunga urmoq; 2) o'lmoq; **~ out** buzilib qolmoq (*mashina haqida*).
connate [ˊkɔneɪt] *a* tug'ma, zotida bor.
connect [kəˊnekt] *v* bog'lamoq, ulamoq.
connected [kəˊnektɪd] *a* bog'langan, aloqador.
connecting [kəˊnektɪŋ] *n* bog'lanish.
connecting-link [kəˊnektɪŋlɪŋk] *n* bog'lovchi bo'g'in.
connecting-rod [kəˊnektɪŋrɔd] *n tex.* shatun (*porshen va dvigatelni birlashtiruvchi detal*).
connection [kəˊnekʃn] *n* bog'lanish, aloqa.
connective [kəˊnektɪv] **1.** *a* biriktiruvchi, bog'lovchi; **2.** *n gram.* biriktiruvchi so'z.
connexion [kəˊnekʃn] = **connection.**
conning tower [ˊkɔnɪŋˌtauə] *n deng.* jangovar rubka (*rubka – kema palubasi ustiga qurilgan va kemani boshqarish postlari turadigan joy*).
connivance [kəˊnaɪvns] *n* erkalatib yuborish, erk berish.
connive [kəˊnaɪv] *v* erkalatib yubormoq, erk bermoq.
connoisseur [ˌkɔnəˊsə:] *n fr.* yaxshi biladigan (bilimdon, bilarmon) kishi.
connotation [ˌkɔnəˊteɪʃn] *n* qo'shimcha ma'no.
connote [kəˊnəut] *v* qo'shimcha ma'noga ega bo'lmoq (*so'z to'g'risida*).
connubial [kəˊnju:bɪəl] *a* er-xotinga *va* er-xotinlikka oid.
conquer [ˊkɔŋkə] *v* 1) zabt etmoq; 2) yengmoq, g'alaba qilmoq.
conqueror [ˊkɔŋkərə] *n* 1) zabt etgan kishi; 2) g'olib (*yengib chiqqan kishi*).

conquest [ˈkɔŋkwest] *n* 1) zabt etish; 2) g'alaba.
consanguine [kɔnˈsæŋgwɪn] = **consanguineous.**
consanguineous [ˌkɔnsæŋˈgwɪnɪəs] *a* qon-qarindosh, qondosh.
consanguinity [ˌkɔnsæŋˈgwɪnətɪ] *n* qon-qarindosh, qondoshlik.
conscience [ˈkɔnʃəns] *n* 1) vijdon; **clear (good)** ~ toza vijdon; **freedom (liberty) of** ~ vijdon erkinligi; 2) ong; **public** ~ ijtimoiy ong.
conscienceless [ˈkɔnʃənsləs] *a* or-nomusni bilmaydigan, vijdonsiz, insofsiz.
conscientious [ˌkɔnʃɪˈenʃəs] *a* halol, vijdonli, insofli.
conscientiously [ˌkɔnʃɪˈenʃəslɪ] *adv* vijdonan, insof bilan.
conscious [ˈkɔnʃəs] *a* 1) anglaydigan, tushunadigan; 2) sezadigan; ~ **of pain** og'riqni sezadigan; 3) *predic.* aql-hushi o'zida bo'lgan.
consciousness [ˈkɔnʃəsnəs] *n* 1) tushunish, bilish, anglash; 2) onglilik, ong.
conscript [ˈkɔnskrɪpt] **1.** *n* harbiy xizmatga chaqirilgan kishi; **2.** *a* harbiy xizmatga chaqirilgan.
conscription [kɔnˈskrɪpʃn] *n* majburiy harbiy xizmat.
consecrate [ˈkɔnsɪkreɪt] **1.** *a* bag'ishlangan; **2.** *v* bag'ishlamoq; **3.** *n* bag'ishlash.
consecration [ˌkɔnsɪˈkreɪʃn] *n* bag'ishlash; **the ~ of one's life to study** hayotini fanga bag'ishlash.
consecution [ˌkɔnsɪˈkju:ʃn] *n* ketma-ketlik.
consecutive [kənˈsekjutɪv] *a* ketma-ket (birin-ketin) sodir bo'ladigan.
consenescence [ˌkɔnsɪˈnesns] *n* keksayish, qarib qolish.
consensus [kənˈsensəs] *n* rozilik, kelishuv.
consent [kənˈsent] **1.** *n* rozilik; 2) ijozat, ruxsat; **2.** *v* rozi bo'lmoq.
consentaneity [kənˌsentəˈni:ɪtɪ] *n* bir-biriga to'g'rilik, moslik.
consentaneous [ˌkɔnsenˈteɪnɪəs] *a* bir-biriga mos, muvofiq.
consentient [kənˈsenʃənt] *a* yakdillik bilan qabul qilingan, yakdil, hamjihat.
consequence [ˈkɔnsɪkwəns] *n* 1) oqibat, natija; 2) xulosa, yakun; 3) ahamiyatga ega bo'lgan ish, ahamiyat, imkoniyat; **a matter of great** ~ muhim, ahamiyatga ega bo'lgan narsa.
consequent [ˈkɔnsɪkwənt] **1.** *a* ketma-ket sodir bo'ladigan; **2.** *n* natija.
consequential [ˌkɔnsɪˈkwenʃl] *a* muhim.
consequently [ˈkɔnsɪkwəntlɪ] *adv* shunday qilib.
conservation [ˌkɔnsəˈveɪʃn] *n* saqlash.
conservatism [kənˈsə:vəˌtɪzm] *n* konservatizm, eskilikka yopishib olish.
conservative [kənˈsə:vətɪv] **1.** *a* eskilikni yoqlovchi, eskilikka yopishib olgan; **2.** *n* eskilik tarafdori.
conservatoire [kənˈsə:vətwɑ:] *n fr.* konservatoriya.
conservatory [kənˈsə:vətrɪ] *n* 1) issiqxona; 2) *amer.* konservatoriya (*oliy musiqa o'quv yurti*).
conserve [kənˈsə:v] *v* saqlamoq, asramoq.
consider [kənˈsɪdə] *v* 1) ko'rib chiqmoq; 2) e'tiborga olmoq; 3) hisoblamoq, deb bilmoq, tushunmoq.
considerable [kənˈsɪdərəbl] *a* muhim, ahamiyatli, zarur.
considerate [kənˈsɪdərət] *a* xushmuomala.
consideration [kənˌsɪdəˈreɪʃn] *n* 1) ko'rib chiqish, muhokama qilish; 2) fikr, mulohaza; 3) e'tibor, hurmat.
considering [kənˈsɪdərɪŋ] *prep.* nazarga (e'tiborga, hisobga) olib.
consign [kənˈsaɪn] *v* zimmasiga yuklamoq, topshirmoq.
consignee [ˌkɔnsaɪˈni:] *n* yukni oluvchi kishi, vazifa yuklangan kishi.
consigner [kənˈsaɪnə] = **consignor.**
consignment [kənˈsaɪnmənt] *n* yuk; bir to'p mol.
consignor [kənˈsaɪnə] *n* yuk jo'natuvchi kishi.
consilience [kənˈsɪlɪəns] *n* bir-biriga to'g'ri kelish.
consilient [kənˈsɪlɪənt] *a* bir-biriga to'g'ri keladigan.
consist [kənˈsɪst] *v* ... dan iborat bo'lmoq, tuzilgan bo'lmoq, tarkib topmoq.
consistence [kənˈsɪstəns] *n* qalinlik, zichlik.
consistency [kənˈsɪstənsɪ] *n* 1) ketma-ketlik; 2) doimiylik, o'zgarmaslik.
consistent [kənˈsɪstənt] *a* 1) to'g'ri keladigan, uyg'unlashadigan; 2) izchil, mantiqiy, tadrijiy.
consolation [ˌkɔnsəˈleɪʃən] *n* yupatish so'zlari, taskin beradigan so'zlar.
consolatory [kənˈsɔlətərɪ] *a* yupatadigan, taskin beradigan.
console [kənˈsəul] *v* yupatmoq, taskin bermoq.
console-mirror [ˈkɔnsəulˌmɪrə] *n* tosh oyna, tikka turadigan katta tosh oyna.
consolidate [kənˈsɔlɪdeɪt] *v* 1) mustahkamlamoq; mustahkamlanmoq; 2) birlashtirmoq; birlashmoq.
consolidation [kənˌsɔlɪˈdeɪʃn] *n* mustahkamlash.
consols [kənˈsɔlz] *n pl* uzoq muddatga aylantirilgan davlatning qisqa muddatli qarzlari; konsolidatsiya qilingan renta.
consonance [ˈkɔnsənəns] *n* 1) hamohanglik, ohangdoshlik; 2) *mus.* tovuslarning o'zaro ohangdoshligi.
consonant [ˈkɔnsənənt] **1.** *a* to'g'ri keladigan, bir xil; **2.** *n fon.* undosh tovush.
consort 1. *n* [ˈkɔnsɔ:t] er; xotin (*asosan, qirol oilalarida*); **2.** *v* [kənˈsɔ:t] aloqada bo'lmoq, muomala qilmoq (*kim bilandir*).
consortium [kənˈsɔ:tɪəm] *n* konsorsium (*bir necha bank yoki bankirlarning yirik moliyaviy operatsiyani amalga oshirish uchun tuzgan muvaqqat bitimi, monopolistik birlashmasi*).
conspicuous [kənˈspɪkjuəs] *a* ko'zga ko'ringan, atoqli, taniqli.

conspiracy [kən'spirəsi] *n* fitna, til biriktirish.
conspirator [kən'spirətə] *n* fitnachi, til biriktiruvchi.
conspiratorial [kən,spirə:'tɔ:riəl] *a* makkorona.
conspire [kən'spaiə] *v* til biriktirmoq.
constable ['kʌnstəbl] *n* politsiyachi, mirshab (*lavozim*).
constabulary [kən'stæbjuləri] *a* politsiyaga oid.
constancy ['kɔnstənsi] *n* doimiylik.
constant ['kɔnstənt] **1.** *a* doimiy; **2.** *n mat.* o'zgarmas miqdor, kattalik.
constellation [,kɔnstə'leiʃn] *n astr.* yulduzlar turkumi (*burj*).
consternation [,kɔnstə'neiʃn] *n* qo'rquv.
constipation [,kɔnsti'peiʃn] *n tib.* ich qotish (*qabziyat*).
constituency [kən'stitjuənsi] *n* 1) saylovchilar; 2) saylov okrugi.
constituent [kən'stitjuənt] **1.** *a* 1) saylovga oid; 2) tarkibiy, tarkibli, murakkab; **2.** *n* 1) saylovchi; 2) tarkibiy qism.
constitute ['kɔnstitju:t] *v* 1) yaratmoq, hosil qilmoq; 2) tayinlamoq, belgilamoq.
constitution [,kɔnsti'tju:ʃn] *n* 1) *siyos.* konstitutsiya (*asosiy qonun*); 2) qaddi-qomat, bo'ybast; 3) tuzilish.
constitutional [,kɔnsti'tju:ʃnəl] *n* 1) konstitutsion, kostitutsiyaga oid; 2) *tib.* organik.
constitutor ['kɔnstitju:tə] *n* joriy etuvchi, tuzuvchi, asos soluvchi.
constrain [kən'strein] *v* majbur qilmoq; zo'rlamoq; qamamoq.
constrained [kən'streind] **1.** *p. p.* **constrain** *dan*; **2.** *a* noiloj, majburiy.
constrainedly [kən'streinədli] *adv* g'ayriixtiyoriy; majburan.
constraint [kən'streint] *n* majbur qilish, zo'rlash.
constrict [kən'strikt] *v* qattiq (siqib) bog'lamoq.
constriction [kən'strikʃn] *n* qattiq (tortib, siqib) bog'lash.
constrictor [kən'striktə] *n zool.* oddiy bo'g'ma ilon.
construct [kən'strʌkt] *v* 1) qurmoq; 2) yaratmoq, ishlab chiqmoq.
construction [kən'strʌkʃn] *n* 1) qurish, bino qurish, qurilish; 2) inshoot, qurilayotgan bino.
constructional [kən'strʌkʃnəl] *a* qurilishga (binokorlikka) oid.
constructive [kən'strʌktiv] *a* 1) qurilishga (binokorlikka) oid; 2) ijodiy, ijod qilishga oid.
constructor [kən'strʌktə] *n* quruvchi, binokor.
construe [kən'stru:] *v* sintaktik tahlil qilmoq.
consul ['kɔnsl] *n* konsul (*biror davlatning boshqa bir davlat shahariga o'z davlatining fuqarolarining manfaatlarini himoya qilish uchun qo'ygan rasmiy vakili*).
consular ['kɔnsjulə] *a* konsulga va konsullikka oid.
consulate ['kɔnsjulət] *n* 1) konsulxona; 2) konsullik vazifasi.
consulship ['kɔnsəlʃip] *n* konsullik vazifasi.
consult [kən'sʌlt] *v* 1) maslahat olmoq, maslahatlashmoq; 2) maslahat bermoq.
consultant [kən'sʌltənt] *n* maslahatchi.
consultation [,kɔnsəl'teiʃn] *n* 1) konsultatsiya (*biror masala yuzasidan mutaxassis maslahati*); 2) kengash (*maslahat majlisi*).
consultative [kən'sʌltətiv] *a* maslahat beruvchi.
consume [kən'sju:m] *v* iste'mol qilmoq, ehtiyojga ishlatmoq; sarf qilmoq.
consumer [kən'sju:mə] *n* iste'molchi, iste'mol qiluvchi.
consummate **1.** *a* [kən'sʌmət] tugatilgan; **2.** *v* ['kɔnsəmeit] tugatmoq.
consummately [kən'sʌmətli] *adv* mutlaqo, g'oyat.
consummation [,kɔnsə'meiʃn] *n* ishni tugatish.
consumption [kən'sʌmpʃən] *n* 1) iste'mol qilish, ehtiyojga ishlatish; 2) *tib.* o'pka sili.
consumptive [kən'sʌmptiv] *a* sil kasaliga oid.
contact ['kɔntækt] **1.** *n* 1) aloqada (muomalada) bo'lish; 2) aloqa, munosabat; **2.** *v* aloqa o'rnatmoq, kim bilandir.
contagion [kən'teidʒən] *n* 1) yuqumli kasalliklarni tarqatuvchi mikroblar; 2) infeksiya (*kasallikning yuqishi*).
contagious [kən'teidʒəs] *a* yuqumli, yuqadigan.
contain [kən'tein] *v* o'z ichiga olmoq.
container [kən'teinə] *n* 1) konteyner (*yuk joylab avtomobilga yoki temir yo'l platformasiga ortiladigan maxsus quti*); 2) biror narsa saqlanadigan idish.
contaminate [kən'tæmineit] *v* iflos (kir) qilmoq.
contamination [kən,tæmi'neiʃn] *n* iflos (kir) qilish.
contemplate ['kɔntəmpleit] *v* 1) o'ylamoq, fikr yuritmoq; mulohaza qilmoq; 2) xayoliga keltirish, eslamoq.
contemplation [,kɔntəm'pleiʃn] *n* 1) xayoliga keltirish, eslash; 2) o'ylash, fikr yuritish.
contemplative [kən'templətiv] *a* 1) xayolotga beriluvchi, o'z fikr-xayoliga cho'madigan; 2) o'ychan.
contemporaneity [kən,tempərə'ni:əti] *n* zamonaviylik, zamon talabiga moslik.
contemporary [kən'tempərəri] **1.** *a* zamonaviy, hozirgi kundagi; **2.** *n* zamondosh, asrdosh.
contempt [kən'tempt] *n* nafratlanish, jirkanish.
contemptible [kən'temptəbl] *a* jirkanch, razil.
contemptuous [kən'temptjuəs] *a* nafrat (*yoki* jirkanish)ni ifodalaydigan.
contemptuously [kən'temptjuəsli] *adv* nafratlanib, nafrat bilan; jirkanib.
contend [kən'tend] *v* 1) kurashmoq; 2) tasdiqlamoq.
contender [kən'tendə] *n* raqib (*saylov va b.*).
content I ['kɔntent] *n* ichidagi narsalar, ichidagi bor narsalar.

content II [kən´tent] **1.** *a* mamnun, xursand, shod; **2.** *v* mamnun (xursand) qilmoq.
contented [kən´tentɪd] **1.** *p. p.* **content II, 2.** *dan*; **2.** *a* mamnun, xursand, shod.
contention [kən´tenʃən] *n* 1) bahs, kurash; 2) musobaqa.
contentious [kən´tenʃəs] *a* munozarali.
contentment [kən´tentmənt] *n* mamnunlik, xursandlik; mamnuniyat.
contents [´kɔntents] *pl* mazmun; mundarija (*kitobda*).
conterminous [kɔn´tə:mɪnəs] *a* yonma-yon, chegaradosh.
contest 1. *n* [kən´test] 1) bahs; 2) musobaqa; **2.** *v* [´kɔntest] bahslashmoq, musobaqalashmoq, ko'rik o'tkazmoq; kurashmoq.
contestant [kən´testənt] *n* raqib.
contestation [,kɔntes´teɪʃn] *n* 1) musobaqa; 2) kurash.
contested [kən´testɪd] **1.** *p. p.* **contest 2.** *dan*; **2.** *a* bahsga qatnashgan, kurashgan; **~ election** *amer.* bir nechta nomzodlarning nomlari ko'rsatilgan saylov.
context [´kɔntekst] *n* 1) kontekst (*nutq yoki asarning tugal fikr anglatuvchi parchasi*); 2) vaziyat.
contextual [kən´tekstjuəl] *a* kontekstdan kelib chiqadigan.
contexture [kən´tekstʃə] *n* to'qish, to'qib yasash.
contiguity [,kɔntɪ´gjuətɪ] *n* yonma-yonlik, qo'shnilik.
contiguous [kən´tɪgjuəs] *n* chegaradosh, qo'shni.
continence [´kɔntɪnəns] *n* o'zini tuta bilish, vazminlik.
continent I [´kɔntɪnənt] *a* o'zini tuta biladigan, og'ir, bosiq.
continent II [´kɔntɪnənt] *n* materik, qit'a.
continental [,kɔntɪ ´nentl] *n* qit'aga (materikka) oid.
contingency [kən´tɪndʒənsɪ] *n* tasodifiy (kutilmagan) hol.
contingent [kən´tɪndʒənt] *n* 1) miqdor; 2) *harb.* shaxsiy tartib.
continual [kən´tɪnjuəl] *a* doimiy.
continuance [kən´tɪnjuəns] *n* davom etish (cho'zilish) muddati (uzunlik, uzoqlik).
continuant [kən´tɪnjuənt] *n fon.* sirg'aluvchi undosh tovush.
continuation [kən,tɪnju´eɪʃn] *n* davom (etish) ettirish (*biror narsaning davomi*).
continue [kən´tɪnju:] *v* 1) davom ettirmoq; 2) davom etmoq.
continued [kən´tɪnju:d] **1.** *p. p.* **continue** *dan*; **2.** *a* uzluksiz, to'xtovsiz.
continuity [,kɔntɪ ´nju:ətɪ] *n* uzluksiz.
continuous [kən´tɪnjuəs] *a* 1) uzluksiz, to'xtovsiz; 2) doimiy harakatdagi; 3) *gram.* uzoq davom (etadigan) etgan; davomli.
contort [kən´tɔ:t] *v* 1) egib (qiyshaytirib) yubormoq, egmoq, bukmoq; 2) noto'gri talqin qilmoq, buzib ko'rsatmoq.
contortion [kən´tɔ:ʃn] *n* 1) egib (qiyshaytirib) yuborish, egish, bukish; 2) noto'g'ri talqin qilish, buzib ko'rsatish.
contortionist [kən´tɔ:ʃnɪst] *n* akrobat.
contour [´kɔntuə] *n* 1) yotiq chiziq; 2) sirtqi ko'rinish (shakl; chiziq).
contra- [´kɔntrə-] *pref. qo'shma so'zlarda* «qarshi» *ma'nosini bildiradi.*
contraband [´kɔntrəbænd] **1.** *n* kontrabanda (*davlat chegarasidan yashirincha, boj to'lamasdan mol o'tkazish*); **2.** *a* kontrabandaga oid.
contrabandist [´kɔntrəbændɪst] *n* kontrabanda bilan shug'ullanuvchi kishi.
contrabass [,kɔntrə´beɪs] *n mus.* kontrabas.
contraception [,kɔntrə´sepʃn] *n* homilador bo'lishdan saqlaydigan vositalardan foydalanish.
contraceptive [,kɔntrə´septɪv] *a* homilador bo'lishdan saqlanadigan dori (*vosita*); homila bo'lishga qarshi.
contract 1. *n* [´kɔntrækt] shartnoma, bitim; **2.** *v* [kən´trækt] 1) shartnoma (bitim) tuzmoq; 2) toraymoq; 3) qisqarmoq.
contracted [kən´træktɪd] *a* shartnoma asosidagi; shartnomadan kelib chiqadigan.
contractile [kən´træktaɪl] *a* kamayuvchan, qisqaradigan.
contractility [,kɔntræk´tɪlətɪ] *n fiz.* siqilish qobiliyati.
contracting parties [kən,træktɪŋ´pɑ:tɪz] *n* bitim tuzuvchi tomonlar.
contraction [kən´trækʃn] *n* 1) qisqarish, qisqartirish; 2) siqish, qisish.
contractor [kən´træktə] *n* pudratchi.
contractual [kən´træktuəl] *a* shartnoma asosidagi.
contradict [,kɔntrə´dɪkt] *v* 1) qarshi chiqmoq, e'tiroz bildirmoq; 2) rad qilmoq.
contradiction [,kɔntrə´dɪkʃn] *n* ziddiyat, qarama-qarshilik.
contradictor [,kɔntrə´dɪktə] *n* raqib; muxolif.
contradictory [,kɔntrə´dɪktərɪ] *a* qarama-qarshi, zid, tezkor.
contradistinction [,kɔntrədɪs´tɪŋkʃən] *n* 1) qarshi (zid, tezkor) qo'yish; 2) farq qilish.
contradistinguish [,kɔntrədɪ´stɪŋgwɪʃ] *v* 1) qarshi (teskari) qo'ymoq; 2) farq qilmoq.
contrail [´kɔntreɪl] *n* samolyotning o'rin almashishdagi izi.
contraindication [,kɔntrəɪndɪ´keɪʃn] *n tib.* (*biror dori yoki davolashni*) yoqmasligini yoki to'g'ri kelmasligini ko'rsatuvchi belgi.
contralto [kən´trɑ:ltəu] *n* kontralto (*ayollarning eng past, yo'g'on ovozi*).
contraposition [,kɔntrəpə´zɪʃn] *n* qarama-qarshi qo'yish.

contraption [kən´træpʃn] *n so'zl.* makkorlik bilan o'ylab chiqarilgan narsa (*ish, gap va b.*).
cultivated ['kʌltiveitid] **1.** *p. p.* **cultivate** *dan*; **2.** *a* 1) ishlov berilgan; 2) tarbiya ko'rgan.

cultivation [,kʌlti 'veiʃn] *n* 1) ishlov berish; 2) ekish, o'stirish; yetishtirish.

cultivator ['kʌltiveitə] *n* 1) dehqon, ziroatchi; 2) *q.x.* kultivator (*haydalgan yerni yumshatish, begona o'tlarni yo'qotish va ekin qator oralarini ishlash uchun xizmat qiladigan qishloq xo'jalik mashinasi*).

cultural ['kʌltʃrəl] *a* 1) madaniy, madaniyat...; madaniyatga oid, madaniyatli, keng ma'lumotli, ma'rifatli; ~ **centre** madaniyat markazi, madaniyat saroyi; ~ **achievements** madaniyat sohasidagi yutuqlar; 2) *q.x.* ishlanadigan, ishlov beriladigan (*yer*).

culture ['kʌltʃə] **1.** *n* 1) madaniyat; **Uzbek** ~ O'zbek madaniyati; 2) qishloq xo'jalik ekini, ~ **of cotton** paxta ekini; 3) ko'paytirish, boqish, qarash (*asalari, ipak qurti va b.lar*); **2.** *v* 1) yerga ishlov bermoq; 2) ekmoq, o'stirmoq.

cultured ['kʌltʃəd] *a* madaniyatli.

culver ['kʌlvə] *n* yovvoyi kaptar (kabutar).

culvert ['kʌlvət] *n kon.* yerning zaxini qochirish maqsadda qurilgan quvur.

cum [kʌm] *prep.* shuningdek, shu bilan birga.

cumber ['kʌmbə] **1.** *n* qiynalish; **2.** *v* qiynab qo'ymoq.

cumbersome ['kʌmbəsəm] *a* 1) beso'naqay, beo'xshov; 2) malol keladigan, malollik keltiradigan, og'ir, qiyin.

Cumbrian [ˈkʌmbrɪən] **1.** *n* Kamberlendda yashovchi kishi; **2.** *a* Kamberlendga oid.
cumbrous [ˈkʌmbrəs] = **cumbersome.**
cumin [ˈkʌmɪn] *n* zira (*o'simlik va uning urug'i*).
cummer [ˈkʌmə] *n* cho'qintirgan ona.
cumulate 1. *a* [ˈkju:mjulət] to'plangan; **2.** *v* [ˈkju:mjuleɪt] jamg'armoq, to'plamoq.
cumulation [ˌkju:mju ˈleɪʃn] *n* to'plash.
cumulative [ˈkju:mjulətɪv] *a* birgalikdagi.
cumulo-nimbus [ˌkju:mjulə ˈnɪmbəs] *n* to'p-to'p yomg'ir bulutlari.
cuneiform [ˈkju:nɪəfɔ:m] *a* ponasimon.
cunning [ˈkʌnɪŋ] **1.** *n* makkorlik; **2.** *a* makkor.
cup [kʌp] *n* 1) piyola; **china ~s and saucers** chinni piyolalar va tarelkalar; 2) musallas, vino; **to be fond of the ~** ichishni yaxshi ko'rmoq; 3) *sport.* kubok, sovrin; **to win the ~** kubokni yutmoq, sovrinni qo'lga kiritmoq; 4) qismat, taqdir; **bitter ~** achchiq qismat.
cup and ball [ˌkʌpənˈbɔ:l] *n* bilboke (*o'yin*).
cup-bearer [ˈkʌpˌbɛərə] *n tar.* sharbatdor, soqiy.
cupboard [ˈkʌbəd] *n* 1) shkaf, javon, sandiq; 2) devorga ishlangan shkaf.
cupful [ˈkʌpful] *n* bir piyola to'la (*narsa*).
Cupid [ˈkju:pɪd] *n afs.* sevgi tangrisi va uning haykalchasi.
cupidity [kju:ˈpɪdətɪ] *n* ochko'zlik, xasislik.
cupola [ˈkju:pələ] *n* gumbaz, qubba.
cuppa [ˈkʌpə] *n so'zl.* bir piyola choy.
cupping-glass [ˈkʌpɪŋglɑ:s] *n tib.* banka.
cupreous [ˈkju:prɪəs] *a* misga oid, tarkibida mis bo'lgan.
cupriferous [kju:ˈprɪfərəs] *a* misli, tarkibida mis bo'lgan.
cuprite [ˈkju:praɪt] *n* qizil misli ruda.
cuprous [ˈkju:prəs] *a kim.* tarkibida bir valentli mis bo'lgan; **~ chloride** mis oksidi.
cuprum [ˈkju:prəm] *n kim.* mis.
cur [kə:] *n* ko'ppak it.
curability [ˌkjuərəˈbɪlɪtɪ] *n* davosi borlik.
curable [ˈkjuərəbl] *a* tuzaladigan, davosi bor.
curacao [ˌkjuərəsəu] *n* kuraso likori.
curacy [ˈkjuərəsɪ] *n* 1) ruhoniylik mansabi (unvoni; darajasi); 2) qavm (*biror butxonaga qatnovchi dindorlar*).
curate [ˈkjuərət] *n* pop yordamchisi.
curative [ˈkjuərətɪv] *a* shifobaxsh, shifoli, davo bo'ladigan, dorivor.
curator [kju ˈreɪtə] *n* muzeyni qo'riqlovchi (soqchi).
curb [kə:b] **1.** *n* yugan, jilov, jilovlash; **~ to violence** zo'ravonlikka barham berish; **2.** *v* 1) jilovlamoq, yuganlamoq (*otni*); 2) bo'ysundirmoq, tiymoq; **to ~ one's temper** jahlini tiymoq, o'zini bosmoq.
curb roof [ˈkə:bru:f] *n* qiya shipli boloxona tomi.
curd [kə:d] *n* suzma.
curdle [ˈkə:dl] *v* ivimoq, quyulmoq; ivib qolmoq (*qon, sut to'g'risida*).
curdy [ˈkə:dɪ] *a* ivitgan, suzmaga aylantirgan.
cure I [kjuə] **1.** *n* 1) dori, dori-darmon, vosita; **~ for a cough** yo'talga qarshi vosita; 2) davolash, davolash kursi; **to undergo a ~** davolash kursini o'tamoq; 3) davolanish, sog'ayish; **2.** *v* 1) davolamoq, sog'aytirmoq; 2) tayyorlamoq, konservalamoq, tuzlamoq; quritmoq.
cure II [kjuə] *jarg. n* g'alati (tentaksimon) odam, qiziq tabiatli odam.
cure-all [ˈkjur,ɔ:l] *n* panasiya (*ming dardga davo, har balodan qutqaradigan vosita deb qaraladigan narsa*).
cureless [ˈkjuələs] *n* tuzatib bo'lmaydigan, bedavo.
curfew [ˈkə:fju:] *n* komendant soati (*harbiy yoki qamal sharoitida ko'chalarda ruxsatsiz yurish man qilingan soatlar*).
curie [ˈkjuərɪ] *n fiz.* kuri (*radioaktivlikning o'lchov birligi*).
curing [ˈkjuərɪŋ] *n* davolash, davolanish; davo; muolaja.
curio [ˈkjuərɪəu] *n* (*pl* **-os** [-əuz]) antiqiy (qadimiy; noyob va qummatbaho) buyum.
curiosity [ˌkjuərɪˈɔsətɪ] *n* qiziquvchanlik, sinchkovlik.
curious [ˈkjuərɪəs] *a* har narsani bilishga intiluvchi, qiziquvchan.
curiously [ˈkjuərɪəslɪ] *adv* kishini ajablantiradigan bir tarzda (ajib; g'alati).
curium [ˈkjuərɪəm] *n kim.* kuriy (*sun'iy yo'l bilan qilingan radioaktiv kimyoviy element*).
curl [kə:l] **1.** *n* chirmashmoq; **2.** *v* jingalak soch (zulf).
curlew [ˈkə:lju:] *n* uzunburun balchiqchi, chonguldoq (*qush*).
curlicue [ˈkə:likju:] *n* jimjimador gulbezak.
curling [ˈkə:lɪŋ] *n* chirmashish.
curling-irons [ˈkə:lɪŋˌaɪənz] *n pl* jingalak qiladigan qisqich.
curling-tongs [ˈkə:lɪŋtɔŋz] = **curling-irons.**
curl-paper [ˈkə:l,peɪpə] *n* papilotka (*sochni jingalak qilish uchun ishlatiladigan qog'oz yoki latta*).
curly [ˈkə:lɪ] *a* jingalak (*soch haqida*).
curmudgeon [kə:ˈmʌdʒən] *n so'zl.* 1) qo'rs (qo'pol muomalali) odam; 2) xasis (ziqna) odam.
curmudgeonly [kə:ˈmʌdʒənlɪ] *a* 1) qo'rs, qo'pol; 2) xasis, ziqna.
currant [ˈkʌrənt] *n* 1) smorodina, qorag'at (*butasi yoki mevasi*); 2) korinka (*qora kishmish navi*).
currency [ˈkʌrənsɪ] *n* 1) qo'llanuvchanlik, tarqalganlik; **words in common ~** keng tarqalgan (*ko'p ishlatiladigan*) so'zlar; **to give ~ to smth** biror narsani muomalaga (ishlatishga) kiritmoq; 2) pul muomalasi; 3) valuta, pul; **paper ~** qog'oz pul; **gold (silver) ~** oltin (kumush) valuta; 4) davomiyligi, amalda bo'lish muddati (*biror narsaning*); **during the ~ of contract** shartnoma amalda bo'ladigan muddat mobaynida.

current [ˈkʌrənt] **1.** *a* 1) joriy, shu kungi, zamonaviy; ~ **month** joriy (shu) oyda; 2) amalda (ishlatilishda) bo'lgan, muomalada bo'lgan; ~ **coin** ishlatilishda (muomalada) bo'lgan tanga; 3) *og'z.* silliq (*uslub to'g'risida*); **2.** *n* 1) oqim; **great ocean ~s such as the Gulf Stream** Golfstrim kabi kuchli okean oqimlari; 2) borish, oqim; **the ~ of events** voqealarning borishi.

curricle [ˈkʌrɪkl] *n* qo'sh otli fayton, yengil arava.

curricula [kə ˈrɪkjulə] *pl* **curriculim** *dan.*

curriculum [kəˈrɪkjuləm] *n* (*pl* **-la**) 1) o'quv kursi; 2) o'quv rejasi (*maktab, institut, universitetda*).

currish [ˈkə:rɪʃ] *a* tarbiyasiz, dag'al, qo'pol.

curry [ˈkʌrɪ] *v* 1) ot qashlagich bilan qashlamoq (tozalamoq); 2) terisini shilmoq (ajratmoq); 3) urmoq, do'pposlamoq, po'stagini qoqmoq.

curry-comb [ˈkʌrɪkəum] *n* otqashlagich.

curse [kə:s] **1.** *n* 1) la'nat, nafrat, qarg'ish; **to call down ~ s upon smb.** birovga la'natlar yog'dirmoq; 2) so'kish; 3) ofat, kulfat; **2.** *v* 1) la'natlamoq, qarg'amoq; **He ~ d the day he was born.** U tug'ilganiga la'natlar o'qirdi; 2) so'kinmoq; **He ~d loudly.** U bor ovozi bilan so'kinadi; 3) dinni tahqirlamoq, shakkoklik qilmoq.

cursed 1. [ˈkə:st] *p. p.* **curse 2** *dan*; **2.** *a* [ˈkə:sɪd] la'natlangan, la'nati.

cursedly [ˈkə:sɪdlɪ] *adv* yoqimsiz bir holda.

cursive [ˈkə:sɪv] **1.** *n* sodda tez yozuv (*qadimiy qo'lyozmalarda*); **2.** *a* 1) tez yozish usuliga asoslangan; 2) qo'lyozmaga oid.

cursor [ˈkə:sə] *n tex.* strelka, mil, ko'rsatkich.

cursorial [kə:ˈsɔ:rɪəl] *a* yuguradigan, chopadigan (*qushlar to'g'risida*).

cursory [ˈkə:srɪ] *a* naridan beri qilingan, yuzaki.

curst [kə:t] qo'zg'atilgan.

curt [kə:t] *a* qisqa, lo'nda (*javob haqida*).

curtail [kə: ˈteɪl] *v* qisqartirmoq.

curtailment [kə: ˈteɪlmənt] *n* qisqartirish, ixchamlashtirish.

curtain [ˈkə:tn] **1.** *n* parda; **2.** *v* parda tutib qo'ymoq.

curtain-call [ˈkə:tnkɔ:l] *n* (*sahnaga*) aktyorni chaqirish, taklif qilish (*qarsaklar ostida*).

curtain-fire [ˈkə:tn,faɪə] *n harb.* o't parda.

curtilage [ˈkə:təlɪdʒ] *n yur.* uyga taqalib (yaqin) turadigan yer maydoni.

curtsey [ˈkə:tsɪ] *n* tiz cho'kib ta'zim qilish.

curtsy [ˈkə:tsɪ] = **curtsey.**

curvature [ˈkə:vətʃə] *n* 1) egrilik, qiyshiqlik; 2) qiyshaygan (bukilgan) joy.

curve [kə:v] **1.** *v* 1) egmoq, bukmoq; 2) egilmoq, bukilmoq; **2.** *n* egri (qiyshiq) chiziq.

curve piece [ˈkə:vpi:s] *n qur.* gumbaz qolipi (*gumbaz qurish uchun qilingan yoy shaklidagi qolip*).

curvet [kə:ˈvet] **1.** *n* otning oldingi oyoqlarini bukib sakrashi; **2.** *v* oldingi oyoqlarini bukib sakramoq (*ot haqida*).

curvilinear [ˌkɔ:vɪˈlɪnɪə] *a* egri chiziqli, qing'irqiyshiq.

cushat [ˈkʌʃət] *n* govkaptar.

cushion [ˈkuʃən] **1.** *n* 1) divan yostig'i; 2) bilyard stolining yon devori (*borti*); **2.** *v* yostiq qo'ymoq.

cushiony [ˈkuʃnɪ] *a* yostiqqa o'xshagan yumshoq.

cushy [ˈkuʃɪ] *a* yengil va yaxshi to'lanadigan; **a ~ job** issiq joy; ~ **wound** yengil jarohat.

cusp [kʌsp] *n* tog' cho'qqisi.

cuspid [ˈkʌspɪd] *n anat.* qoziqtish, so'yloqtish.

cuspidal [ˈkʌspɪdl] *a* uchi o'tkir, uchli.

cuspidate(d) [ˈkʌspɪdeɪt(ɪd)] *a* uchi o'tkir, uchli.

cuspidor [ˈkʌspɪdɔ:] *n amer.* tupdon (*tupurish uchun ishlatiladigan idish*).

cuss [kʌs] **1.** *n so'zl.* qarg'ish, la'nat; **2.** *v* so'kishmoq, urishmoq.

cussed [ˈkʌsɪd] *a so'zl.* o'jar, qaysar.

custard [ˈkʌstəd] *n* (*tuxum va sutdan qilingan*) shirin krem.

custodian [kʌs ˈtəudɪən] *n* qorovul, soqchi; qo'riqchi.

custody [ˈkʌstədɪ] *n* 1) vasiylik, vasiylik qilish; **to be in the ~** vasiyligida bo'lmoq; 2) saqlash, asrash, qo'riqlash; **to place securities ~** boyliklarni saqlashga qo'ymoq; 3) qamoqqa (hibsga) olish; **to commit to ~** hibsga (qamoqqa) olmoq.

custom [ˈkʌstəm] **1.** *n* 1) urf-odat, udum; 2) odat, o'rganish; **2.** *v amer.* buyurtma asosida tayyorlangan.

customary [ˈkʌstəmərɪ] *a* 1) oddiy, odatdagi; 2) odat bo'lib qolgan, odatga aylangan.

custom-built [ˌkʌstəmˈbɪlt] *a amer.* maxsus buyurtma asosida qurilgan.

customer [ˈkʌstəmə] *n* xaridor (*odatda doimiy*), mijoz.

custom-house [ˈkʌstəmhaus] *n* bojxona.

custom-made [ˌkʌstəmˈmeɪd] *a* buyurtma asosida tayyorlangan (qilingan, qurilgan).

customs [ˈkʌstəms] *n pl* bojxona boji; ~ **free** bojsiz; **to pass through the ~** bojxona nazoratidan o'tmoq; **the C** bojxona boshqarmasi.

cut [kʌt] **1.** *v* (**cut; cut**) 1) kesmoq, qirqmoq, to'g'ramoq; 2) sochini olmoq; 3) qisqartirmoq; ~ **at** zarba bermoq (*qilich va b.*); ~ **away** qirqib (kesib) olmoq; ~ **down** qisqartirmoq (*maqola va b.*); ~ **in** qo'shilmoq, aralashmoq; ~ **off** kesib (qirqib) tashlamoq; ~ **out** kesib (qirqib) olmoq; ~ **over** o'rmondagi daraxtlarni kesmoq; ~ **under** arzonroq narxda sotmoq; ~ **up** bo'laklarga bo'lmoq; **2.** *n* 1) kesilgan (tilingan) joy; 2) qirqib olingan narsa; 3) qisqartirish; **3.** *a* kesilgan, qirqilgan.

cutaneous [kju ˈteɪnɪəs] *tib.* teriga oid.

cut-away [ˈkʌtəweɪ] *n* vizitka.

cutback [ˈkʌtbæk] *n* qisqartirish.

cute [kju:t] *a so'zl.* 1) aqlli; 2) jozibali, ko'rkam.

cut-glass [ˈkʌtglɑ:s] qirrali (qirralangan) shisha (*oynak*).

cutler [ˈkʌtlə] *n* arrakash.
cutlery [ˈkʌtlərɪ] *n* vilka-qoshiq.
cutlet [ˈkʌtlət] *n* to'qmoqlangan go'shtdan tayyorlangan kotlet.
cut-off date [kʌtɔfˈdeɪt] *n* oxirgi (so'nggi) muhlat
cut-out [ˈkʌtaut] *n el.* saqlagich.
cut sugar [ˈkʌt,ʃugə] *n* chaqmoq qand.
cutter [ˈkʌtə] *n* o'ymakor usta, o'ymakor naqqosh.
cutthroat [ˈkʌtθrəut] *n* kallakesar, qotil.
cutting [ˈkʌtɪŋ] **1.** *n* kesish, qirqish; **2.** *a* o'tkir, keskir.
cutting area [ˈkʌtɪŋ,eərɪə] *n* o'rmonning daraxt kesilayotgan joyi.
cutting room [ˈkʌtɪŋrum] *n* yig'ish usta xonasi.
cuttle [ˈkʌtl] *n zool.* karakatitsa (*dengiz molluskalarining bir turi*).
cutty [ˈkʌtɪ] *n* 1) kalta qoshiq; 2) *so'zl.* axloqsiz ayol.
cutty-stool [ˈkʌtɪstu:l] *n* pastak stul.
cutwater [ˈkʌt,wɔ:tə] *n deng.* suv keskich (*kemaning tumshug'i*).
cuvette [kju:ˈvet] *n rasm.* fotoplastinka, fotoqog'oz yuviladigan vannacha.
cyanic [saɪˈænɪk] *a kim.* sianli, tarkibida sian bo'lgan, sian; ~ **acid** sian kislota.
cyanide [ˈsaɪənaɪd] *n kim.* sianid.
cyanogen [saɪˈænədʒən] *n kim.* sian (*tussiz zaharli gaz*).
cyanosis [ˌsaɪəˈnəusɪs] *n tib.* ko'karib qolgan joy (*badanda*).
cybernated [ˌsaɪbɔ ˈneɪtɪd] *a* kompyuterlar bilan jihozlangan.
cybernetics [ˌsaɪbɔ ˈnetɪks] *n* kibernetika (*avtomatik boshqarish sistemalari va usullari haqidagi fan*).
cyclamen [ˈsɪkləmən] *n bot.* siklamen (*Alp binafshasi*).
cycle [ˈsaɪkl] **1.** *n* 1) sikl, davr, davra; **the ~ of the seasons** yil fasllarining davriy almashishi; 2) davriylik; 3) uzoq davr, asr; 4) *so'zl.* velosiped; **2.** *v* 1) rivojlanish davrini o'tmoq; davriy takrorlanmoq; 2) doira bo'ylab harakat qilmoq; 3) velosipedda uchmoq.
cycle-car [ˈsaɪklkɑ:] *n* mototsiklning kolaskasi.
cycler [ˈsaɪklə] = **cyclist.**
cyclic(al) [ˈsɪklɪk(əl)] *a* davriy, ma'lum davrda bo'ladigan.
cycling [ˈsaɪklɪŋ] *n* velosipedda yurish; velosport.
cyclist [ˈsaɪklɪst] *n* velosipedchi.
cycloid [ˈsaɪklɔɪd] *n mat.* sikloida (*nuqtalar bilan ko'rsatilgan doirasimon chiziq*).
cyclometer [saɪ ˈklɔmɪtə] *n* siklometr (*asbob*).
cyclone [ˈsaɪkləun] *n meteor.* siklon (*atmosfera girdobi; bo'ron; dovul*).
cyclonic [saɪ ˈklɔnɪk] *a* siklonga oid, siklonsimon.
cyclop(a)edia [ˌsaɪkləuˈpi:dɪə] *n* ensiklopediya, qomus.
cyclop(a)edic [ˌsaɪkləuˈpi:dɪk] *a* ensiklopediya (qomus)ga oid.
Cyclopean [ˌsaɪkləuˈpi:ən] *a* juda katta, zo'r, azim.
Cyclopes [saɪ ˈkləunpi:z] *pl* **Cyclops** *dan.*
Cyclops [ˈsaɪklɔps] *a* (*pl* **-opes**) siklop (*qadimgi grek afsonalarida bir ko'zli pahlavon*).
cyclotron [ˈsaɪkləutrɔn] *n fiz.* tsiklotron (*yadro tadqiqotida zaryadlangan og'ir mikrozarrachalarni tezlatadigan qurilma*).
cyder [ˈsaɪdə] = **cider**
cygnet [ˈsɪgnət] *n* kichkina oqqushcha.
cylinder [ˈsɪlɪndə] *n mat.* silindr.
cylindrical [səˈlɪndrɪkl] *a* silindrsimon, silindr shaklidagi.
cymbal [ˈsɪmbl] *n* 1) *mus.* kimval, chang (*bir-biriga urib chalinadigan to'garak yog'och yoki mis asbobi*); 2) *mus. pl* zil (*tarelka*).
cyme [saɪm] *n bot.* to'pgul.
cymograph [ˈsaɪməugrɑ:f] *n* kimograf (*organizmdagi fiziologik jarayonlarni egri chiziq shaklida yozib oladigan apparat*).
cymometer [saɪˈmɔmɪtə] *n el.* to'lqin o'lchagich.
cymoscope [ˈsaɪməskəup] *n el.* tebranish indikatori.
cynic [ˈsɪnɪk] *n* beadab (uyatsiz, hayosiz, surbet) odam.
cynical [ˈsɪnɪkl] *a* beadab, uyatsiz, hayosiz, surbet.
cynicism [ˈsɪnɪ,sɪzm] *n* beadablik, uyatsizlik.
cynosure [ˈsɪnəzjuə] *n* 1) qutb yulduzi; 2) yo'l ko'rsatadigan yulduz, yo'lchi yulduz.
cypher [ˈsaɪfə] = **cipher.**
cypress [ˈsaɪprəs] *n bot.* sarv.
Cypriote [ˈsɪprɪəut] *n* Kipr fuqarosi, kiprlik.
Cyrillic [səˈrɪlɪk] *a* : ~ **alphabet** kirill alifbosi.
cyst [sɪst] *n* 1) *anat.* pufak, qovuq; 2) *tib.* kista (*sariq suv olgan shish, o'sma*).
cystic [ˈsɪstɪk] *a anat.* siydik pufagiga oid, qovuqqa oid.
cystitis [sɪˈstaɪtɪs] *n tib.* siydik pufagining yallig'lanishi.
cytology [saɪˈtɔlədʒɪ] *n biol.* sitologiya (*hujayralarning tuzilishi, rivojlanishi va funksiyalarini o'rganadigan fan*).
cytoplasm [ˈsaɪtəu,plæzm] *n biol.* sitoplazma.
czar [zɑ:] *n rus.* podsho.
czardas[ˈtʃɑ:dæʃ]*n* chardash (*vengrcha raqs va shu raqs musiqasi*).
czarevitch [ˈzɑ:rɪvɪtʃ] *n rus.* shahzoda.
czarina [zɑ:ˈri:nə] *n rus.* malika.
Czech [tʃek] **1.** *a* chexlarga oid; **2.** *n* chex, chex ayoli.
Czechoslovak [ˌtʃekəuˈsləuvæk] **1.** *n* Chexoslovakiyada yashovchi kishi; **2.** *a* Chexoslovakiyada ishlab chiqilgan, Chexoslovakiyaga oid.
Czekh [tʃek] = **Czech.**

Dd

D, d [di:] *n* (*pl* **Ds, D's** [di:z]) ingliz tili alifbosining to'rtinchi harfi.
da [dɑ:] *so'zl.* dada, ota, ada.
dab I [dæb] **1.** *n* yengil zarba; **2.** *v* sekingina tegmoq; urmoq; tushirmoq.
dab II [dæb] *n* 1) *zool.* yorsh balig'i; 2) *so'zl.* yaxshi biladigan, bilag'on, bilimdon, bilarmon, usta, omilkor; o'z ishining ustasi.
dabble ['dæbl] *v* 1) shapillatmoq, sachratmoq (*suvni*); 2) (*loy*) sachratib iflos qilmoq.
dabbler ['dæblə] *n* 1) ishqiboz, o'ch; havaskor, shunchaki qiziquvchi; 2) yaxshi biladigan, bilag'on, bilimdon, bilarmon, usta, omilkor; o'z ishining ustasi, mutaxassis.
dabby ['dæbɪ] *a* nam, zax, ho'l, zaxkash.
dace [deɪs] *n* qizilko'z (*chuchuk suvda yashaydigan mayda baliq turi*).
dachshund ['dæksnd] *n nem.* taksa (*oyoqlari katta, gavdasi uzun bir xil it*).
dactyl ['dæktɪl] *n* daktil (*urg'u birinchi bo'g'inga tushadigan uch bo'g'inli turoq*).
dactylic [dæk'tɪlɪk] *n* 1) daktilik; 2) daktilik she'r, bayt, misra.
dactyliography [ˌdæktɪlɪ'ɔgrəfɪ] *n* o'ymakorlik san'atining tarixi (*qimmatbaho toshlar va uzuklarda*).
dactylogram [dæk 'tɪləgræm] *n* barmoq izi.
dactylography [ˌdæktɪ'lɔgrəfɪ] *n* daktiloskopiya (*barmoq izlari va ularga qarab kishilarning shaxsini aniqlash*).
dactylology [ˌdæktɪ'lɔlədʒɪ] *n* daktilologiya, barmoq tili (*kar-soqovlarning imo-ishoralariga asoslangan o'zaro tili*).
dad, daddy [dæd, 'dædɪ] *n so'zl.* dada, ota, ada.
daddylonglegs [ˌdædɪ 'lɔŋlegz] *n* uzunoyoqlar, ikki qanotli hasharot (*karam zararkunandasi*).
dado ['deɪdəu] **1.** *n* sokol (*devorning pastki qalinroq qismi*); **2.** *v* panel (*devorning pastki qismini yog'och-taxta bilan qoplash yoki bo'yab qo'ymoq*).
daedal ['di:dəl] *a shoir.* mohir, usta, mahoratli, ustasi farang.
Daedalian [dɪ'deɪlɪən] *n* murakkab tarkibli, qo'shma; chigal; aqli o'tkir, ziyrak, topqir, tadbirkor, makkor, hiylagar.
daemon ['di:mən] = **demon.**
daemonic [di:'mɔnɪk] = **demonic.**
daffodil ['dæfədɪl] *n bot.* nargiz, narkas (*gul*).
daffodilly ['dæfədɪlɪ] = **daffodil.**
daffy ['dɑ:fɪ] = **daft.**
daft [dɑ:ft] *a so'zl.* aqli kam, aqli past, aqldan ozgan, jinni, telba, devona; **to go** ~ aqldan ozmoq.
dag [dæg] *n* 1) *tar.* katta to'pponcha; 2) bir tutam jun.
dagger ['dægə] **1.** *n* xanjar; **2.** *v* xanjar sanchmoq (suqmoq, tiqmoq).
daggle ['dægl] *v* loy (balchiq, botqoq) bilan sudramoq (tortmoq).
dago ['deɪgəu] *n amer.* dago (*italyan, ispan va portugallarning laqabi*).
dahlia ['deɪlɪə] *n bot.* kartoshkagul.
Dail (Eireann) [ˌdɔɪl (ɛərən)] *n* Irlandiya Respublikasi parlamentining quyi palatasi.
daily ['deɪlɪ] **1.** *adv* kun sayin, har kuni; **2.** *a* har kungi, kundalik; **3.** *n* kundalik ro'znoma (*gazeta*).
daintiness ['deɪntɪnəs] *n* nafislik, noziklik, nazokat.
dainty ['deɪntɪ] **1.** *n* shirinlik, shiravor; **2.** *a* shirin, totli, mazali, lazzatli, xushxo'r.
dairy ['deərɪ] *n* 1) moy ishlab chiqaradigan korxona; 2) sut mahsulotlari do'koni; ~ **products** sut-qatiq mahsulotlari.
dairy-farm ['deərɪfɑ:m] *n* sutchilik xo'jaligi.
dairying ['deərɪɪŋ] *n* sutchilik xo'jaligi.
dairymaid ['deərɪmeɪd] *n* sutchilik fermasidagi ishchi ayol; sut sog'uvchi; sigir sog'uvchi ayol.
dairyman ['deərɪmən] *n* sutchilik fermasining ishchisi *yoki* egasi.
dais ['deɪɪs] *n* taxtasupa, minbar, ko'prik taxtasi; tepalik, balandlik, baland joy.
daisied ['deɪzɪd] *a* dastorgul bilan qoplangan.
daisy ['deɪzɪ] *n* dastorgul.
daisy-cutter ['deɪzɪˌkʌtə] *n* yugurayotganda oyog'ini zo'rg'a ko'taradigan ot.
dak [dɑ:k] *n hind.* almashinuvchi hammollar (*yuk tashuvchilar*) *yoki* otlar.
dak bungalow [ˌdɑ:k'bʌŋgələu] *n* pochta bekatidagi mehmonxona (*Hindiston va Pokistonda*).
Dalai Lama [ˌdælaɪ 'lɑ:mə] *n* Dalay-Lama (*Tibet hokimi va bosh ruhoniysi*).
dale [deɪl] *n* vodiy.
dalesman ['deɪlzmən] *n* vodiy aholisi, vodiyda yashovchi (*Shimoliy Angliyada*).
dalle [dæl] *n* kafel, koshin; plitka, kichkina plita (*pol qilish uchun*).
dalliance ['dælɪəns] *n* 1) bekor (behuda) vaqt o'tkazish; 2) o'yin-kulgi; 3) (*nimagadir*) jiddiy munosabatda bo'lmaslik.
dally ['dælɪ] *v* imillamoq, sustkashlik qilmoq.
daltonism ['dɔ:ltənɪzm] *n tib.* daltonizm (*ba'zi rang-tuslarni farq qila olmaslik kasalligi*).
dam [dæm] **1.** *n* damba, ko'tarma, to'g'on; **2.** *v* bo'g'moq, to'smoq, bog'lamoq.
damage ['dæmɪdʒ] **1.** *n* zarar, ziyon, shikast, buzilish; **2.** *v* ziyon (zarar) yetkazmoq; ziyon keltirmoq.
damaged ['dæmɪdʒd] *a* zararlangan; buzuq.
damaging ['dæmɪdʒɪŋ] *a* zarar yetkazadigan, shikastlaydigan.
damask ['dæməsk] **1.** *n* ipak kimxob; **2.** *a* kimxob gulli, guldor; **3.** *v* gul solib gazlama to'qimoq.
dame [deɪm] *n* ayol, xotin.
dame-school ['deɪmsku:l] *n* yosh bolalar maktabi (*ayollar boshqaradigan*).

damn [dæm] **1.** *n* la'nat, nafrat, qarg'ish; **2.** *v* so'kmoq, urishmoq, koyimoq.
damnably ['dæmnəblɪ] *adv* yoqimsiz bir holda, juda xunuk, juda yomon.
damnation [dæm'neɪʃn] **1.** *n* la'nat, nafrat, qarg'ish; **2.** *int.* la'nati!
damned [dæmd] *a* jazoga hukm etilgan.
damnific [dæm'nɪfɪk] *a* zarar keltira oladigan, zararli, juda zararli.
damnification [ˌdæmnɪfɪ'keɪʃn] *n yur.* zarar yetkazish.
damnify ['dæmnɪfaɪ] *v* zarar yetkazmoq.
Damocles ['dæməkli:z] *n grek. mif.* Damokl.
damp [dæmp] **1.** *a* namlik, zaxlik, ho'llik; **2** *n* nam, zax, ho'l, zaxkash; **3.** *v* ho'llamoq, namlamoq, ivitmoq.
damp course ['dæmpkɔ:s] *n* nam o'tkazmaydigan qilish.
dampen ['dæmpən] *v* 1) namlamoq, ho'llamoq; 2) susaytirmoq.
damper ['dæmpə] *n* namlagich, ho'llagich.
damping ['dæmpɪŋ] *n* namlash, ho'llash, nam berish; namlanish, nam bo'lish.
dampish ['dæmpɪʃ] *a* nam, zax, ho'l, zaxkash.
damp-proof ['dæmppru:f] *a* suv (nam) o'tkazmaydigan, suv (nam) o'tmaydigan.
dampy ['dæmpɪ] *a* nam, zax, ho'l, zaxkash.
damsel ['dæmzl] *n hazil.* bo'yi yetgan qiz.
damson ['dæmzn] *n* tikan olxo'ri.
damson-coloured ['dæmzn,kʌləd] *a* qizil-ko'k (*olxori rangi*).
Dan [dæn] *n esk. shoir.* xo'jayin, taqsir, janob.
dan [dæn] *n deng.* bo'y (*suvda sayozlik, yo'l va h.k.larni ko'rsatadigan qalqovich belgi*).
dance [dɑ:ns] **1.** *n* raqs, o'yin va unga moslab yozilgan musiqa; **2.** *v* raqsga tushmoq, o'yinga tushmoq, o'ynamoq.
dancer ['dɑ:nsə] *n* raqqos, raqqosa, o'yinchi.
dancing ['dɑ:nsɪŋ] **1.** *n* raqslar, o'yinlar; o'yin, raqs; **2.** *attr.* raqsga oid; ~ **master** raqs o'qituvchisi; ~ **party** raqs kechasi.
dancing-hall ['dɑ:nsɪŋhɔ:l] *n* qahvaxona-restoranlarda (*o'yinga tushadigan zal*).
dandelion ['dændɪlaɪən] *n* momaqaymoq, qoqi o't.
dander ['dændə] *n* g'azablanish; jahli chiqish, qoni qaynash.
dandiacal [dæn'daɪəkəl] *a* oliftalarcha (oliftalardek, satanglardek) kiyingan.
dandified ['dændɪfaɪd] *a* juda chiroyli, kelishgan.
dandify ['dændɪfaɪ] *v* olifta kiyinmoq; yasantirmoq, bezattirmoq, yasatmoq.
dandle ['dændl] *v* 1) (*bolani*) tizzada *yoki* qo'lda tebratmoq; 2) erkalatmoq.
dandruff ['dændrəf] *n* qazg'oq, bosh kepagi.
dandy I ['dændɪ] **1.** *n* olifta, yasanchoq (*kiyimga zeb beradigan*) odam; **2.** *a* juda chiroyli, kelishgan.
dandy II ['dændɪ] *n* 1) *deng.* bir machtali yelkanli kema; 2) *hind.* qayiqchi, qayiq haydovchi (*Gang daryosida*).
dandy-brush ['dændɪbrʌʃ] *n* ot-qashlagich; qattiq cho'tka (*otlarni tarash uchun kit mo'ylovidan qilingan*).
dandyish ['dændɪɪʃ] *a* olifta.
dandyism ['dændɪɪzm] *n* oliftalik, bashanglik; olifta kiyinish.
Dane [deɪn] *n* daniyalik kishi.
Danelagh ['deɪnlɔ:] = **Danelaw.**
Danelaw ['deɪnlɔ:] *n tar.* Daniya qonunlari (*Britaniyaning shimoliy sharqida X asrda joriy etilgan*).
dang [dæŋ] *v* : ~ **it!** jin ursin!
danger ['deɪndʒə] *n* xavf, tahdid, xavf-xatar, xatar, qo'rqinch; **out of** ~ xatardan xoli.
danger arrow ['deɪndʒər,ærəu] *n* zigzag (*siniq chiziq shaklidagi*) o'q; chaqmoq alomati.
dangerous ['deɪndʒrəs] *a* xavfli, tahdid soluvchi, xatarli, tahlikali, qaltis, yomon.
danger-signal ['deɪndʒə,sɪgnl] *n* xavf (xatar) signali (xabari).
dangle ['dæŋgl] *v* osilib turmoq, osilib tushmoq.
dangle-dolly ['dæŋgl,dɔlɪ] *n* avtomashinalarga osiladigan o'yinchoq.
dangler ['dæŋglə] *n* ishyoqmas (bekorchi, tanbal) kishi.
dangling ['dæŋglɪŋ] *a* osilib turgan, osib qo'yilgan, osilib tushgan.
Danish ['deɪnɪʃ] **1.** *a* Daniyaga va daniyaliklarga oid; **2.** *n* daniyaliklar tili.
dank [dæŋk] *a* nam, ho'l.
dap [dæp] **1.** *n* irg'ib ketish, sakrab ketish, irg'ib tushish (*koptok haqida*); **2.** *v* qarmoq bilan baliq tutmoq (*baliq ovlamoq*).
daphne ['dæfnɪ] *n bot.* mevasi zaharli buta.
dapper ['dæpə] *a* ozoda, toza, pokiza.
dapple ['dæpl] *v* yozib (*chizib*) tashlamoq, olabula qilib yubormoq.
dapple-bay ['dæplbeɪ] *n* oriq ot.
dappled ['dæpld] *a* xol-xol, olachipor, dog'li.
dapple-grey [ˌdæpl'greɪ] **1.** *a* kulrang, ko'kimtir, bo'z (*ot to'g'risida*); **2.** *n* kulrang chavkar ot.
darby ['dɑ:bɪ] *n* suvoqchilik (gilkorlik) qoidasi; g'isht teruvchi ustaning belchasi.
dare [deə] **1.** *v* botinmoq, jur'at etmoq, yuragi betlamoq; jazm qilmoq; **2.** *n* chaqiriq, chaqiruv, taklif, da'vat.
dare-devil ['deə,devl] **1.** *n* dovyurak odam; botir odam; **2.** *a* botir, jasur, mard, dovyurak, qo'rqmas, jur'atli, jasoratli, mardonavor, mardlarcha.
daring ['deərɪŋ] **1.** *n* dadillik, botirlik, jasurlik, mardonavorlik; **2.** *a* jasur, botir, qo'rqmas, dovyurak; jasoratli, jur'atli.
dark [dɑ:k] **1.** *a* qorong'i, qora, qoramtir, to'q; noma'lum, tushunarli bo'lmagan; ~ **eyed** qorako'z; **2.** *n* qorong'ilik, qorong'i; kechki payt; zulmat.

darken [ˈdɑ:kən] *v* qorong'ilashtirmoq, qorong'i qilmoq, to'smoq.
darkening [ˈdɑ:kənɪŋ] *n* qoraytirish (zoklash), bo'yash.
darkey [ˈdɑ:kɪ] *n* negr, qoracha, qorachadan kelgan.
dark lantern [ˈdɑ:k,læntən] *n* maxfiy fonus, shishali chiroq.
darkle [ˈdɑ:kl] *v* qoraymoq, qorayib qolmoq; qorong'ilashmoq, qorong'i tushmoq.
darkling [ˈdɑ:klɪŋ] *a* qoraytiradigan, qorong'ilashtiradigan, qoraytiradigan.
darkly [ˈdɑ:klɪ] *adv* dushmanlik ko'zi bilan, g'azab bilan, yomon, yovuz, achchiqlanib.
darkness [ˈdɑ:knəs] *n* qorong'ilik, qorong'i; tim-qorong'ilik, zimiston, zim-ziyo; kechki payt.
darksome [ˈdɑ:ksəm] *a* qorong'i, qora, qoramtir, to'q.
darling [ˈdɑ:lɪŋ] *n* 1) sevimli, sevikli, sevilgan, sevgan, oshiq, muhabbat qo'yilgan, mehr qo'yilgan, ishqi tushgan; mahbub; 2) dilrabo, dilbar, jonon, yoqimli, aziz, chiroyli, go'zal, iltifotli.
darn [dɑ:n] **1.** *n* to'rlab yamalgan joy; to'rlash, to'rlab yamash; **2.** *v* to'rlab yamamoq; to'rlamoq.
darnel [ˈdɑ:nl] *n bot.* mastak (*begona o't*).
darner [ˈdɑ:nə] *n* to'rlovchi (*usta*); to'rlovchi ayol.
darning [ˈdɑ:nɪŋ] *n* to'rlash, to'rlab yamash.
darning-needle [ˈdɑ:nɪŋ,ni:dl] *n* to'rlab yamaydigan igna.
dart [dɑ:t] **1.** *n* irg'itiladigan (otiladigan) o'q, nayza; **2.** *v* irg'itmoq, tashlamoq, otmoq; ~ **glances** nazar tashlamoq.
darting [ˈdɑ:tɪŋ] *a* 1) jadal (ildam, tez, juda tez, shiddatli, shitob) bilan olib boriladigan; 2) g'ayrati ichiga sig'maydigan.
dartre [ˈdɑ:tə] *n tib.* temiratki.
Darwinian [dɑ:ˈwɪnɪən] **1.** *n* darvinist, darvinchi, darvinizm tarafdori; **2.** *a* darvinchilarga oid, darvinistlarga oid.
Darwinism [ˈdɑ:wɪn,ɪzm] *n* Darvin ta'limoti (nazariyasi).
Darwinist [ˈdɑ:wɪnɪst] = **Darvinism.**
dash [dæʃ] **1.** *n* 1) tez (ildam, jadal) harakat; **to make a ~ against the enemy** dushmanga shiddat bilan tashlanmoq; 2) tire; **2.** *v* 1) irg'itmoq; uloqtirmoq; 2) chopqillamoq.
dash-board [ˈdæʃbɔ:d] *n* asbob-uskuna taxtasi.
dasher [ˈdæʃə] *n* zo'r muvaffaqiyat bilan hayratda qoldiruvchi inson.
dashing [ˈdæʃɪŋ] *a* epchil, chaqqon, abjir, uchqur.
dash-pot [ˈdæʃpɔt] *n tex.* havoli *yoki* moyli bufer, amortizator.
dastard [ˈdæstəd] *n* 1) qo'rqoq (yuraksiz) kishi; 2) yaramas (razil, ablah) kishi.
dastardly [ˈdæstədlɪ] *a* qo'rqoq, yuraksiz, qo'rqoqlik, razil, qabih, yaramas, pastkash.
data [ˈdeɪtə] *n pl* ma'lumotlar, dalillar.
data-sheet [ˈdeɪtəʃi:t] *n* 1) tasniflash; 2) tafsilotli ro'yxat.
date [deɪt] **1.** *n* 1) sana (*oyning kuni*), kun, tarix; ~ **of birth** tug'ilgan kun; 2) muddat; **out of ~** eskirgan; 3) uchrashuv; **to make a ~** uchrashuv belgilamoq; **2.** *v* sanasini ko'rsatmoq.
dated [ˈdeɪtɪd] *a* sanasi yozilgan; sanasi bor.
dateless [ˈdeɪtləs] *a* sanasi yozilmagan, sanasi yo'q.
date-palm [ˈdeɪtpɑ:m] *n* xurmo daraxti.
dative [ˈdeɪtɪv] *n gram.* jo'nalish kelishigi.
datum [ˈdeɪtəm] *n* (*pl* **data**) *mat.* 1) berilgan kattalik, ma'lum kattalik; 2) ma'lumot.
datum line [ˈdeɪtəmlaɪn] *n* baza chizig'i.
datura [də ˈtjuərə] *n bot.* bangidevona.
daub [dɔ:b] **1.** *n* 1) yomon chizilgan rasm; 2) suvoq; **2.** *v* surkamoq, surtmoq, bo'yamoq, suvamoq; suvamoq.
dauber [ˈdɔ:bə] *n* no'noq rassom, yomon rassom.
dauby [ˈdɔ:bɪ] *a* yomon chizilgan (*rasm to'g'risida*).
daughter [ˈdɔ:tə] *n* qiz (*farzand*).
daughter-in-law [ˈdɔ:tərɪnlɔ:] *n* o'g'lining xotini, kelini, kelinoyi, yanga.
daughterly [ˈdɔ:təlɪ] *a* qiz (*farzand*)ga oid; qiz (*farzand*)larga xos bo'lgan.
daunt [dɔ:nt] *v* 1) qo'rqitmoq, qo'rqitib qo'ymoq, cho'chitmoq; 2) hayvonlarni bo'ysundirmoq.
dauntless [ˈdɔ:ntləs] *a* jasoratli, jasur, qo'rqmas.
dauphin [ˈdɔ:fɪn] *n tar.* shahzoda *(1830-yildan ilgarigi Fransiyada).*
davenport [ˈdævnpɔ:t] *n* 1) kichkina yozuv stoli; 2) *amer.* divan-karavot.
daw [dɔ:] *n* zog'cha.
dawdle [ˈdɔ:dl] *v* 1) sudralib yurmoq, imillamoq; 2) vaqtini behuda o'tkazmoq.
dawdler [ˈdɔ:dlə] *n* dangasa, yalqov.
dawn [dɔ:n] **1.** *n* sahar, azon, tong, tong payti; **2.** *v* tong otmoq; tong yorishmoq.
day [deɪ] **1.** *n* kun, muhim sana, g'alaba; ~ **and night** erta-yu kech; **2.** *a* kunduzgi.
day-and-night [ˈdeɪən(d)ˈnaɪt] *a* kecha-kunduz davom etadigan, kecha-kunduz to'xtamaydigan.
day-bed [ˈdeɪbed] *n* pastak, keng divan.
day-blindness [ˈdeɪ,blaɪndnəs] *n tib.* kunduz kuni hech narsani ko'ra olmaslik (ajrata olmaslik).
day-book [ˈdeɪbuk] *n* 1) kundalik daftar; 2) *hisob.* jurnal.
day-boy [ˈdeɪbɔɪ] *n* qatnab o'qiydigan o'quvchi.
daybreak [ˈdeɪbreɪk] *n* tong, tong payti, tong yorishgan payt.
day-dream [ˈdeɪdri:m] *n* shirin xayol, orzu.
day-dreamer [ˈdeɪdri:mə] *n* xayol suruvchi, xayolparast kishi.
day-fly [ˈdeɪflaɪ] *n zool.* qisqa umrlilar, juda qisqa (*masalan, bir yoki bir necha kungina umr ko'radigan hasharotlar*).

day-girl [ˈdeɪgə:l] *n* qatnab o'qiydigan o'quvchi qiz.
day-labour [ˈdeɪˌleɪbə] *n* kunbay ish.
day-labourer [ˈdeɪˌleɪbərə] *n* kunbay ishlaydigan ishchi, mardikor.
daylight [ˈdeɪlaɪt] *n* tong, tong payti, tong yorishgan payt.
daylight-saving [ˌdeɪlaɪtˈseɪvɪŋ] *n* (*elektr energiyani tejash maqsadida*) soat milini yozda bir soat oldinga surish.
day-lily [ˈdeɪˌlɪlɪ] *n bot.* lolagul.
day-long [ˈdeɪlɔŋ] *adv* kun bo'yi, ertalabdan kechgacha.
day nursery [ˈdeɪˌnə:sərɪ] *n* bolalarning kunduzgi bog'chasi.
day-school [ˈdeɪsku:l] *n* qatnab o'qiydigan o'quvchilarning maktabi; kunduz kuni o'qiydigan maktab; oddiy maktab.
day-shift [ˈdeɪʃɪft] *n* kunduzgi smena.
daysman [ˈdeɪzmən] *n* kunbay ishchi, mardikor.
day-spring [ˈdeɪsprɪŋ] *n shoir.* shafaq, tong, subh.
day-star [ˈdeɪstɑ:] *n* tong yulduzi.
daytaler [ˈdeɪtələ] *n* kunbay ishchi, kunbay ishlaydigan ishchi (*asosan, ko'mir konlarida*).
day-time [ˈdeɪtaɪm] *n* kun, kunduz kun.
day-to-day [ˌdeɪtəˈdeɪ] *a* kunda bo'ladigan, har kungi.
day-work [ˈdeɪwə:k] *n* kundalik ish.
daze [deɪz] **1.** *v* hayron (qoyil) qoldirmoq, mahliyo qilmoq; **2.** *n* hayron bo'lish, qoyil qolish.
dazedly [ˈdeɪzɪdlɪ] *adv* hayron qolib, mahliyo bo'lib.
dazzle [ˈdæzl] **1.** *n* 1) ko'zni qamashtirish; 2) yorqin nur; **2.** *v* ko'zni qamashtirmoq.
d-d [di: ˈdi:] (**damned** *so'zining qisqartirilgan shakli*) *a* jazoga hukm etilgan kishi.
D-day [ˈdi:deɪ] *n harb.* operatsiya (harbiy harakat)ning boshlanish kuni.
de- [ˌdi:-, dɪ-, də-] *pref.* 1) quyidagilarni ko'rsatadi: a) dan ajratish, dan mahrum etish; 2) yomon sifat, yetishmovchilik; 3) so'zlarga teskari (aks) ma'no beradi.
deacon [ˈdi:kən] *n* dyakon (*pravoslav cherkovida*).
deaconess [ˌdi:kəˈnes] *n* dyakon xotini *(dyakon pravoslav cherkovida ruhoniylarning quyi unvoni).*
dead I [ded] **1.** *n* o'lik, murda, jasad; **2.** *a* o'lik, o'lgan, jonsiz.
dead II [ded] *adv* to'la, to'liq, mutlaqo, g'oyat.
dead-alive [ˌdedəˈlaɪv] *a* o'lik, jonsiz, ruhsiz.
dead-beat [ˌdedˈbi:t] *a so'zl.* o'lgudek charchagan, tinkasi qurigan.
dead centre [ˌdedˈsentə] *n fiz. tex.* 1) turish nuqtasi; 2) *ko'ch.* ish to'xtagan, jilmay qolgan payt.
dead colour [ˈdedˌkʌlə] *n* xomaki bo'yoq berib chiqmoq.
deaden [ˈdedn] *v* 1) pasaytirmoq, yumshatmoq (*ovozni*); 2) pasaytirmoq (*kasallikni*).
dead(-)end [ˌdedˈend] **1.** *n* tupik, boshi berk ko'cha; **2.** *a* hech qayoqqa jilmay o'tkaziladigan.
deadfall [ˈdedfɔ:l] *n amer.* qopqon, tuzoq.
dead ground [ˌdedˈgraund] *n harb.* o'q tushmaydigan (tegmaydigan) fazo.
dead-hand [ˈdedhænd] = **mortmain.**
deadhead [ˈdedhed] *n* teatrga bepul kiruvchi kishi.
dead letter [ˌdedˈletə] *n* o'zgartirilmagan, ammo amalda joriy etilmaydigan qonun.
dead-level [ˌdedˈlevl] *n* tekislik, tekis yer.
dead lift [ˌdedˈlɪft] *n* behuda zo'r berish (*og'ir ko'tarishda*).
deadlight [ˈdedlaɪt] *n deng.* ochilmaydigan oyna.
deadline [ˈdedlaɪn] = **dead-line.**
dead-line [ˈdedlaɪn] *n* so'nggi muddat.
dead load [ˌdedˈləud] *n tex.* keraksiz yuk, ortiqcha yuk.
deadlock [ˈdedlɔk] boshi berk ko'cha.
deadly [ˈdedlɪ] **1.** *a* o'limga (halokatga) olib boradigan, halokatli; **2.** *adv* o'lar (tuzalishdan umid yo'q) darajada.
dead man's handle [ˌdedmənzˈhændl] *n* elektr poyezdlarda avtomatik ravishdagi tormoz (*haydovchi to'satdan kasal bo'lib qolsa, yoki o'lib qolsa, poyezdni to'xtatadigan tormoz*).
dead march [ˈdedmɑ:tʃ] *n* motam marshi.
dead-office [ˈdedˌɔfɪs] *n* janoza, janoza marosimi.
dead-pan [ˈdedpæn] *n* xotirjam ko'rinish.
dead-point [ˌdedˈpɔɪnt] = **dead centre.**
dead reckoning [ˌdedˈrekənɪŋ] *n av.* navigatsion hisoblash (*yo'lni*).
dead set [ˌdedˈset] **1.** *n ov.* ovchi itning ovni payqab qotib turishi; **2.** *a* to'la jur'at etilgan, bir qarorga kelib bo'lingan.
dead short [ˈdedʃɔ:t] *n el.* to'liq qisqa tutashuv.
dead shot [ˈdedʃɔt] *n* 1) xato ketmaydigan o'q; 2) bexato otadigan mergan.
dead-spot [ˌdedˈspɔt] *n radio.* sukunat mintaqasi (doirasi).
dead wall [ˌdedˈwɔ:l] *n* teshik-tuynugi (derazasi) yo'q devor.
dead-water [ˈded,wɔ:tə] *n* ko'lmak suv.
dead weight [ˌdedˈweɪt] *n* to'la yuk ko'tarish qobiliyati *(kemaning).*
dead-wind [ˌdedˈwɪnd] *n* qarama-qarshi tomondan esayotgan shamol.
dead-wood [ˈdedwud] *n* qurib qolgan daraxt.
deaf [def] *a* qulog'i og'ir, kar, garang.
deaf-and-dumb [ˌdefnˈdʌm] *n* gung, kar-soqov.
deafen [ˈdefn] *v* kar (*garang*) qilmoq.
deafening [ˈdefnɪŋ] *a* juda qattiq, quloqni kar qiladigan, quloqni qomatga keltiradigan.
deaf-mute [ˌdefˈmju:t] *n* gung, kar-soqov.
deafness [ˈdefnəs] *n* garanglik, qulog'i og'irlik, karlik.
deal [di:l] **1.** *n* biroz miqdordagi, bir necha; **a great ~ of** ko'p; **2.** *v* (**dealt; dealt**) 1) tarqatmoq; taqsimlamoq; 2) shug'ullanmoq.
dealer [ˈdi:lə] *n* olibsotar.
dealing [ˈdi:lɪŋ] *n* 1) taqsimlash (*nimanidir kimningdir orasida*); 2) harakat, muomala, ish.

dealt [delt] *past., p.p.* **deal 2.** *dan.*

dean [di:n] *n* 1) *cherk.* bosh ruhoniy; 2) dekan; ~ **of the faculty** fakultet dekani.

deanery [ˊdi:nərɪ] *n* 1) dekanlik; 2) dekanat.

dear [dɪə] **1.** *a* sevikli, dildan sevgan, yurakdan urgan, qadrdon; **~est** jonajon, suyukli; 2) qimmat; **2.** *n* oshiq, mashuqa.

dearborn [ˊdɪəbɔ:n] *n amer.* to'rt g'ildirakli yengil arava.

dear-bought [ˊdɪəbɔ:t] *a* qimmatga topiladigan, topib bo'lmaydigan; qimmatga sotib olingan.

dearly [ˊdɪəlɪ] *adv* muloyimlik bilan, mehribonlik bilan, xushmuomalalik bilan.

dearth [dɔ:θ] *n* oziq-ovqatning yetishmasligi, ochlik.

deary [ˊdɪərɪ] *n so'zl.* (*murojaatda*) azizim, jonim.

death [deθ] *n* ajal, o'lim, qazo, vafot; ~ **sentence** o'lim jazosi; **~less** o'lmas, abadiy yashaydigan.

death-agony [ˊdeθ,ægənɪ] *n* o'lim oldidagi jon talvasasi.

deathbed [ˊdeθbed] *n* o'lim oldidagi damlar (lahzalar); o'lim to'shagi.

death-bell [ˊdeθbel] *n* dafn marosimi qo'ng'irog'i.

death-blow [ˊdeθbləu] *n* halokatli (qattiq) zarba.

death-cup [ˊdeθkʌp] *n* rangsiz qurbaqasalla (*zaharli zamburug'*).

death-damp [ˊdeθdæmp] *n* sovuq ter (*jon berayotgan odamda*).

death-feud [ˊdeθfju:d] *n* ashaddiy dushmanlik.

death-hunter [ˊdeθ,hʌntə] *n* kafanduzd (*jang maydonida o'lgan va yarador bo'lganlarni talovchi odam*).

deathless [ˊdeθləs] *a* abadiy yashaydigan, o'lmaydigan, boqiy.

deathly [ˊdeθlɪ] **1.** *a* o'ldiradigan, halokatli, halokatga (o'limga) olib boradigan; **2.** *adv* o'lar (tuzalishidan umid yo'q) darajada.

death-rate [ˊdeθreɪt] *n* o'lim soni, miqdori.

death-rattle [ˊdeθ,rætl] *n* o'lish oldidagi xiralashish.

death-roll [ˊdeθrəul] *n* o'lganlar ro'yxati.

death's-head [ˊdeθshed] *n* bosh suyagi (*ajal timsoli*).

death-struggle [ˊdeθ,strʌgl] *n* o'lim talvasasi, jon talashish.

death-trap [ˊdeθtræp] *n* 1) xavfli (xatarli) joy; 2) halokatli (borsa-kelmas) joy.

deb [deb] (**debutante** *so'zining qisqartmasi*) *n so'zl.* birinchi marta chiquvchi (boshlovchi), ilk bor ishtirok etuvchi.

debacle [deɪ ˊbɑ:kl] *fr. n* tor-mor qilish, tor-mor bo'lish.

debar [dɪ ˊbɑ:] *v* taqiqlamoq, man qilmoq.

debark [dɪˊbɑ:k] *v* 1) tushmoq, tushib qolmoq, tushib ketmoq; 2) tushirmoq, tushirib qo'ymoq.

debarkation [ˌdɪbɑ:ˊkeɪʃn] *n* yukdan bo'shatish; yukni tushirish.

debase [dɪˊbeɪs] *v* 1) tushirmoq, arzonlashtirmoq (*narxni*); 2) pasaytirmoq (*narxni, sifatni*).

debasement [dɪˊbeɪsmənt] *n* 1) kamsitish, xo'rlash; 2) narxlarning pasayishi; 3) sifatning yomonlashishi.

debatable [dɪ ˊbeɪtəbl] *a* janjalli, munozarali.

debate [dɪˊbeɪt] **1.** *n* munozara, muzokara, bahs, tortishuv; **2.** *v* muhokama qilmoq; munozara qilmoq; bahslashmoq.

debater [dɪˊbeɪtə] *n* bahs qatnashuvchisi (ishtirokchisi).

debauch [dɪˊbɔ:tʃ] **1.** *n* urish-janjal, mushtlashish, to'polon; **2.** *v* axloqini buzmoq, axloqsizlikni o'rgatmoq; yo'ldan ozdirmoq; **~ed** axloqi buzuq; **~ery** yomon yo'lga kirganlik, axloqi buzilganlik.

debauched [dɪˊbɔ:tʃt] *a* buzuq (yomon yo'lga kirib ketgan).

debauchee [ˌdebɔ:ˊtʃi:] *n* buzuq kishi, xotinboz, yomon yo'lga kirgan kishi.

debauchery [dɪˊbɔ:tʃərɪ] *n* araqxo'rlik, ichkilikbozlik.

debenture [dɪ ˊbentʃə] *n* qarz olish-berish bilan bog'liq bo'lgan majburiyatlar.

debilitate [dɪˊbɪlɪteɪt] *n tib.* kuch-quvvatdan qoldirmoq, zaiflashmoq, bequvvat qilib qo'ymoq.

debilitation [dɪˌbɪlɪˊteɪʃn] *n tib.* zaiflashib ketish, kuch-quvvatdan qolish, kuchsizlik.

debility [dɪˊbɪlətɪ] *n* kuchsizlik, zaiflik, darmonsizlik, kasalmandlik.

debit [ˊdebɪt] **1.** *n his.* debet, kirim; **2.** *v* debetga yozib qo'ymoq.

debonair [ˌdebəˊneə] *n* xushfe'l, xushmuomala, muloyim, ko'ngli ochiq, quvnoq.

debouch [dɪˊbautʃ] *v* daradan ochiq joyga chiqmoq (*daryo to'g'risida*).

debouchment [dɪˊbautʃmənt] *n* daradan chiqish (*yo'li*).

debris [ˊdebri:] *n* 1) xaroba, vayrona, xarobazor; 2) asorat, qoldiq.

debt [det] *n* qarz; nasiya; **get into** ~ qarzga botmoq.

debtor [ˊdetə] *n* qarzdor; **~'s prison** qarzdorlar qamoqxonasi.

debunk [ˌdi:ˊbʌŋk] *n so'zl.* 1) obro'yini ketkazmoq, fosh qilmoq, sharmandasini chiqarmoq; 2) taxtdan tushirmoq.

debus [di:ˊbʌs] *v* 1) mashinadan tushmoq, tushib qolmoq; 2) tushirmoq; 3) avtomashinadan yukni tushirmoq.

debusing-point [di:ˊbʌsɪŋˊpɔɪnt] *n* mashinadan tushish joyi.

debut [ˊdeɪbu:] *n* birinchi marta chiqish (boshlash); **to make one's** ~ birinchi marta chiqmoq (boshlamoq).

debutant [ˊdebjutɑ:ŋ] *n fr.* boshlovchi, birinchi marta chiquvchi, ilk bor ishtirok etuvchi.

debutante [ˊdebjutɑ:nt] *n fr.* boshlovchi (*ayol*).

deca- [ˊdekə-] *pref.* o'n, o'nta, o'nov.

decachord [ˈdekəkɔ:d] *n mus.* arfa (*qadimgi greklarda: chertib chaladigan katta musiqa asbobi*).
decadal [ˈdekədəl] *a* o'n yilda bir marta bo'ladigan.
decade [ˈdekeɪd] *n* 1) o'nta, o'n dona, o'n nafar; 2) o'n yillik muddat (*vaqt*); o'n yillik marosim.
decadence [ˈdekədəns] *n* pasayish, tushish, zaiflashish, kuchsizlanish.
decadency [ˈdekədənsɪ] = **decadence.**
decadent [ˈdekədənt] **1.** *n* dekadent (*dekadentlik oqimi namoyandasi*); **2.** *a* 1) tushkunlikka tushgan; 2) inqirozga uchragan.
decaffeinated [ˌdi:ˈkæfɪneɪtɪd] *a* kofein qo'shilmagan, kofeinsiz (*kofein – kofe urug'i yoki choy bargidan olinadigan alkogol*).
decagon [ˈdekəgən] *n* o'nburchakli (*shakl*).
decagonal [deˈkægənəl] *a* o'n burchakli.
decagram(me) [ˈdekəgræm] *n* dekagramm (*o'n gramm*).
decahedral [ˌdekəˈhi:drəl] *a* o'n yoqlik (*shakl*).
decalitre [ˈdekəˌli:tə] *n* dekalitr (*o'n litr*).
Decalogue [ˈdekəlɔg] *n bibl.* dinda *(diniy kitoblarda)* buyurilgan o'nta din amri.
decametre [ˈdekəˌmi:tə] *n* dekametr (*o'n metr*).
decamp [dɪˈkæmp] *v* 1) qochib ketmoq, qochib qolmoq, qutulib qolmoq; 2) yashirinmoq; 3) lagerdan chiqmoq.
decampment [dɪˈkæmpmənt] *n* 1) lagerdan chiqish; 2) qochish, qochib ketish.
decanal [dɪ ˈkeɪnl] *a* dekanga oid, dekan.
decangular [deˈkæŋgjulə] *a* o'n burchakli.
decant [dɪˈkænt] *v* suzg'ichdan o'tkazmoq, suzmoq, g'alvirdan o'tkazmoq, saralamoq.
decanter [dɪˈkæntə] *n* 1) grafin; 2) boshini urish, kallasini olish.
decaphyllous [ˌdekəˈfɪləs] *a bot.* o'n bargli (*o'simlik*).
decapitate [dɪˈkæpɪteɪt] *v* 1) boshini uzmoq, kallasini olmoq, boshini tanidan judo qilmoq; 2) boshliqsiz (rahbarsiz) qoldirmoq.
decapod [ˈdekəpɔd] *n zool.* 1) o'n oyoqli qisqichbaqa; 2) o'n oyoqli.
decarbonate [diːˈkɑ:bəneɪt] *v* uglerodsizlantirmoq.
decarbonize [di:ˈkɑ:bənaɪz] = **decarbonate.**
decasualize [di:ˈkæʒjuəlaɪz] *v* qo'nimsiz ishchi kuchlarni yo'qotish.
decathlon [dɪˈkæθlən] *n sport.* o'nkurash (*sportning o'n turini o'z ichiga olgan musobaqa*).
decay [dɪˈkeɪ] **1.** *n* 1) chirish, yemirilish; parchalanish; 2) inqiroz, tanazzul; **2.** *v* yiringlamoq, chirimoq; **~ed** chirigan.
decease [dɪˈsi:s] **1.** *n* o'lim, vafot; qazo, ajal; **2.** *v* vafot etmoq, jon bermoq.
deceased [dɪˈsi:st] *n* rahmatli, marhum.
decedent [dɪ ˈsi:dnt] *n yur.* tinch, osoyishta.
deceit [dɪˈsi:t] *n* makr, aldash, pand berish, muttahamlik.
deceitful [dɪ ˈsi:tfl] *a* 1) yolg'on, noto'g'ri; 2) kishini aldaydigan.
deceitfully [dɪˈsi:tflɪ] *adv* makkorona, xiyonatkorona, xoinona.
deceive [dɪ ˈsi:v] *v* aldamoq, chalg'itmoq; avramoq, tovlamoq; laqillatmoq; **~d** adashgan.
deceiver [dɪˈsi:və] *n* yolg'onchi, ko'z bo'yamachi, qallob.
decelerate [ˌdi:ˈseləreɪt] *v* 1) sekinlashtirmoq, sekinlatmoq; 2) tezlikni pasaytirmoq.
deceleration [ˌdi:seləˈreɪʃn] *n* 1) sekinlashtirish, sekinlashish, susaytirish; 2) tormoz berish, to'xtatish.
December [dɪˈsembə] **1.** *n* dekabr; **2.** *attr.* dekabrda bo'ladigan.
Decembrist [dɪ ˈsembrɪst] *n tar.* dekabrist.
decenary [dɪ ˈsenərɪ] = **decennary.**
decency [ˈdi:snsɪ] *n* odob, tartib, xushxulqlik.
decennary [dɪ ˈsenərɪ] *n* o'n yillik vaqt, muddat, o'n yil.
decenniad [dɪ ˈsenɪæd] = **decennary.**
decennial [dɪ ˈsenɪəl] *a* o'n yil davom etadigan.
decent [ˈdi:snt] *a* 1) odobli, tartibli, tarbiyali; 2) vijdonli, insofli, nomusli, to'g'ri, halol.
decently [ˈdi:sntlɪ] *adv* 1) insof bilan, odob bilan; 2) yoqimli qilib, iltifot bilan.
decentralize [di:ˈsentrəlaɪz] *v* markazlashgan tizimdan markazlashmagan tizimga o'tmoq *yoki* o'tkazmoq.
deception [dɪˈsepʃn] *n* firibgarlik, tilyog'lamachilik; aldash, firib berish.
deceptive [dɪ ˈseptɪv] *a* 1) yolg'on, yolg'ondan iborat bo'lgan; 2) kishini aldaydigan, chalg'itadigan, ishonib bo'lmaydigan.
deceptively [dɪˈseptɪvlɪ] *adv* yolg'ondakam, yolg'ondan.
deci- [desɪ-] *pref.* o'ndan bir.
decibel [ˈdesɪbel] *n fiz.* detsibel.
decide [dɪˈsaɪd] *v* hal qilmoq, qaror qilmoq, botinmoq.
decided [dɪˈsaɪdɪd] *a* 1) hal bo'lgan, hal etilgan; 2) qaror qilingan.
decidedly [dɪ ˈsaɪdɪdlɪ] *adv* qat'iy, qat'iyat bilan, tortinmay, ikkilanmay.
deciduous [dɪ ˈsɪdjuəs] *a bot.* bargi to'kiladigan (*daraxt to'g'risida*).
decigram(me) [ˈdesɪgræm] *n* o'ndan bir gramm; gramning o'ndan biri.
decilitre [ˈdesɪˌli:tə] *n* o'ndan bir litr; litrning o'ndan biri.
decimal [ˈdesɪməl] **1.** *n* o'nli kasr; **2.** *a* o'nli.
decimalism [ˈdesɪməlɪzm] *n* o'nli sistemalarni qo'llash, ishlatish.
decimalize [ˈdesɪməlaɪz] *v* o'nga bo'lmoq.
decimally [ˈdesɪməlɪ] *adv* o'nli usulga ko'ra.
decimate [ˈdesɪmeɪt] *v* har o'n kishidan bittasini o'ldirmoq (*qatl etmoq*).

decimation [ˌdesəˊmeɪʃən] *n* har o'n kishidan bittasini qatl etish.
decimetre [ˊdesɪˌmiːtə] *n* detsimetr, o'ndan bir metr.
decimosexto [ˌdesɪməuˊsekstəu] *n poligr.* 1/16 varaqdagi kitob hajmi.
decipher [dɪˊsaɪfə] *v* topib o'qimoq (*shartli belgilar, raqamlar bilan yozilgan xat va shu kabilarni*).
decipherable [dɪˊsaɪfərəbl] *a* (*topib*) o'qisa bo'ladigan.
decision [dɪˊsɪʒn] *n* qaror, hukm, xulosa, fikr.
decisive [dɪˊsaɪsɪv] *a* hal qiluvchi.
deck [dek] *n deng.* paluba, paroxod (*kema*) sahni.
deck alighting [ˊdekəˌlaɪtɪŋ] *n deng.* kema sahniga chiqish.
deck-bridge [ˊdekbrɪdʒ] *n* ustida mashinalar yuradigan ko'prik.
deck-cabin [ˌdekˊkæbɪn] *n* kema sahnidagi (kayuta) xona.
deck-cargo [ˊdekˌkɑːgəu] *n* kema sahnidagi yuk.
deck-chair [ˊdektʃɛə] *n* yengil kreslo (*kema sahnidagi yo'lovchilar uchun*).
-decker [-dekə] murakkab so'zlarda: shuncha paluba borligini bildiradi.
deck-hand [ˊdekhænd] *n* dengizchi.
deck-house [ˊdekhaus] *n deng.* kema sahni ustiga qurilgan va kemani boshqarish postlari turadigan joy.
decking [ˊdekɪŋ] **1.** *n* 1) bezak, zeb-ziynat; 2) bezatish; **2.** *v* kema sahnini bezatmoq.
deck landing [ˊdekˌlændɪŋ] = **deck alighting.**
deckle [ˊdekl] *v* qog'ozlarning chekkalarini qirqmoq.
deckle-edged [ˌdekl'edʒd] *a* chekkalari tekis bo'lmagan (*qog'oz to'g'risida*).
deck-light [ˊdeklaɪt] *n deng.* paluba.
deck-passage [ˊdekˌpæsɪdʒ] *n* palubaga o'tish (*kayutadan foydalanmasdan*).
deck start [ˊdekstɑːt] *n deng.* kema sahnidan uchish.
declaim [dɪˊkleɪm] *v* jo'shqinlik bilan nutq so'zlamoq.
declamation [ˌdeklə ˊmeɪʃn] *n* deklamatsiya, badiiy o'qish.
declamatory [dɪˊklæmətərɪ] *a* 1) notiqlikka oid; notiqlik; 2) ifodali o'qishga oid; 3) balandparvoz, dabdabali.
declarant [dɪˊkleərənt] *n yur.* ariza yozuvchi kishi.
declaration [ˌdeklə ˊreɪʃn] *n* bayonot, bayonnoma.
declarative [dɪˊklærətɪv] *a* tantanali; ~ **sentence** *gram.* darak gap.
declaratory [dɪ ˊklærətərɪ] *a* tushuntirish uchun yozilgan; tushuntirib beradigan..
declare [dɪˊkleə] *v* e'lon qilmoq, bildirmoq, aytmoq.
declared [dɪ ˊkleəd] *a* 1) e'lon qilingan; 2) tan olingan.
declasse [deɪˊklæseɪ] = **declassed.**
declassed [ˌdɪˊklɑːst] *a fr.* sinfsizlashgan, o'z sinfidan (*ijtimoiy hayotdan*) tamoman uzilgan, tubanlikka tushgan.
declassify [diːˊklæsɪfaɪ] *v* sirni oshkor qilmoq, ma'lum qilmoq.
declension [dɪ ˊklenʃn] 1) *gram.* turlash, turlanish; 2) pasayish, kamayish, tushish; 3) yomonlashish.
declensional [dɪ ˊklenʃnəl] *a gram.* turlash bilan bog'liq bo'lgan; turlanishga oid.
declinable [dɪˊklaɪnəbl] *a gram.* turlanadigan, turlanuvchi.
declination [ˌdeklɪˊneɪʃn] *n* 1) og'ish, chetga chiqish; 2) magnit og'ish burchagi; 3) *gram.* turlash, turlanish.
declinator [ˊdeklɪneɪtə] *n* deklinator *(magnit og'ish burchagini o'lchaydigan asbob).*
declinatory [dɪˊklaɪnətərɪ] *a* 1) og'adigan; 2) rad qilingan, qabul qilmaydigan.
decline [dɪˊklaɪn] **1.** *n* 1) qisqarish; 2) arzonlashish (*narx*); **2.** *v* 1) rad qilmoq, qaytarmoq; 2) egilmoq; egmoq; yomonlashmoq (*sog'liq haqida*); tushmoq (*xarorat*).
declining [dɪˊklaɪnɪŋ] **1.** *p. p.* **decline 2** *dan*; **2.** *a* keksaygan, keksayib qolgan; ~ **years** keksaygan yillar.
declinometer [ˌdeklɪˊnɔmɪtə] *n* deklinometr (*magnit og'ish burchagini o'lchaydigan asbob*).
declivitous [dɪˊklɪvətəs] *a* ancha tik tushib boradigan (*qiyalik to'g'risida*).
declivity [dɪ ˊklɪvətɪ] *n* qiyalik, nishablik.
declivous [dɪˊklaɪvəs] *a* qiya, nishab.
declutch [diːˊklʌtʃ] *v tex.* ajratib (uzib) qo'ymoq.
decoct [dɪˊkɔkt] *v* qaynatmoq, qaynatib pishirmoq.
decoction [dɪ ˊkɔkʃn] *n* 1) qaynatish, tayyorlash; 2) (*shifobaxsh*) qaynatma (*qaynatib pishirilgan narsaning mazasi chiqqan suvi*).
decode [ˊdiːkəud] *v* topib o'qimoq (*shartli belgilar, raqamlar bilan yozilgan xat va shu kabilarni*).
decollate [dɪˊkɔleɪt] *v esk.* kallasini olmoq, boshini tanidan judo qilmoq.
decollation [ˌdiːkəˊleɪʃn] *n* kallasini olish, boshini tanasidan judo qilish.
decollete [deɪ ˊkɔlteɪ] *a fr.* dekolte yoqali (*dekolte – ayollar ko'ylagining chuqur o'yilgan yoqasi va shunday yoqali ko'ylak*).
decolo(u)r [diːˊkʌlə] = **decolo(u)rize.**
decolo(u)rant [diːˊkʌlərənt] *n* rangini (yo'qotadigan) o'chiradigan modda.
decolo(u)ration [diːˌkʌləˊreɪʃn] *n* rangini (yo'qotish) o'chirish.
decolo(u)rize [diːˊkʌləraɪz] *v* rangini yo'qotmoq, o'chirmoq.
decompensation [diːˌkɔmpenˊseɪʃn] *n tib.* kompensatsiyaning buzilishi (*kompensatsiya – orga-*

nizmda buzilgan muvozanatning birmuncha tiklanishi, nuqson o'rnining to'lishi).

decomplex [ˌdi:kəmˈpleks] *a* 1) ikki baravar murakkab; 2) murakkab qismlardan iborat bo'lgan.

decompose [ˌdi:kəmˈpəuz] *v* tarkibiy qismlarga ajralmoq, parchalanmoq.

decomposite [di:ˈkɔmpəzɪt] **1.** *a* murakkab qismlardan iborat bo'lgan; **2.** *n* tarkibiy qismlardan iborat bo'lgan qandaydir narsa (*modda, so'z va b.*).

decomposition [ˌdi:kɔmpəˈzɪʃn] *n* 1) *fiz. kim.* ajralish, ajratish, parchalanish; 2) buzilish, chirish.

decompound [ˌdi:kəmˈpaund] *v* tarkibiy qismlardan iborat bo'lmoq.

decompress [ˌdi:kəmˈpres] *v* bosimni pasaytirmoq.

deconsecrate [ˌdi:ˈkɔnsɪkreɪt] *v* davlat mulkiga aylantirmoq (*cherkov yeri yoki mulkini*).

decontaminate [ˌdi:kənˈtæmɪneɪt] *v* zararsizlantirmoq, zararli mikroblardan tozalamoq.

decontrol [ˌdi:kənˈtrəul] *n* davlat nazoratidan (chiqarish) ozod qilish.

decor [ˈdeɪkɔ:] *n fr.* 1) bezash, bezatish (*ko'rgazma va b.*); 2) *teatr.* dekoratsiya (*sahna manzarasini hosil qiluvchi anjom va bezaklar*).

decora [dɪˈkɔ:rə] *pl* **decorum** *dan.*

decorate [ˈdekəreɪt] *v* 1) bezatmoq; 2) orden bilan taqdirlamoq.

decorated [ˈdekəreɪtɪd] **1.** *p. p.* **decotrate** *dan*; **2.** *a* 1) bezalgan, bezatilgan; 2) taqdirlangan.

decoration [ˌdekəˈreɪʃn] *n* 1) bezak; 2) mukofot.

decorative [ˈdekərətɪv] *a* 1) savlat bag'ishlaydigan, fayzli; 2) bezash (*zeb-ziynat berish uchun xizmat qiladigan*).

decorator [ˈdekəreɪtə] *n* 1) bo'yoqchi; 2) mebel qoplovchi usta.

decorous [ˈdekərəs] *a* odobli, axloqli, axloq qoidalari doirasidagi.

decorticate [ˌdi:ˈkɔ:tɪkeɪt] *v* yulib olmoq, uzib ol-moq, shilmoq, shilib olmoq (*po'st, po'stloq va b.*).

decorum [dɪˈkɔ:rəm] *n* odob, tartib, xushxulqlik.

decoy **1.** *n* [ˈdi:kɔɪ] qarmoq, tuzoq, qopqon; **2.** *a* [dɪˈkɔɪ] aldab chaqirmoq.

ditto ['dɪtəu] *a* bir xil.
ditty ['dɪtɪ] *n* ashula, qo'shiq.
ditty-bag ['dɪtɪbæg] = **ditty-box.**
ditty-box ['dɪtɪbɔks] *n* quticha, xaltach (*nina, iplar uchun*).
diuresis [ˌdaɪju 'ri:sɪs] *n tib.* diurez.
diuretic [ˌdaɪju 'retɪk] **1.** *a tib.* siydik haydovchi; **2.** *n* siydik haydovchi dori.
diurnal [daɪ'ə:nl] *a astr.* 1) bir kecha-kunduzlik; 2) kunduzgi; 3) har kungi, kundalik.
diva ['di:və] *n* primadonna (*yetakchi rollarni bajaruvchi opera ashulachisi*).
divagate ['daɪvəgeɪt] *v* achimoq, bijg'imoq, oshmoq (*xamir haqida*).
divagation [ˌdaɪvə'geɪʃn] *n* bir joydan ikkinchi joyga natijasiz yurish.
divalent [daɪ'veɪlent] *a kim.* ikki valentli.
divan [dɪ 'væn] *n* divan.
divan-bed [dɪ'vænbed] *n* kushetka (*yumshoq kursi*).
divaricate [daɪ'værɪkeɪt] *a* to'g'ri kelmaslik, farq.
divarication [daɪˌværɪ'keɪʃn] *n* 1) tarmoqlanish; 2) shoxobcha, tarmoq.
dive [daɪv] **1.** *n* suvga (*sakrash*) sho'ng'ish; **2.** *v* sho'ng'imoq.
dive-bomb ['daɪvbɔm] *v harb.* bomba tashlamoq (*pastga*).
dive-bomber ['daɪvbɔmə] *n* pastga qarab bomba otuvchi.
diver ['daɪvə] *n* g'avvos (*suv tagiga tushuvchi*), sho'ng'uvchi.
diverge [daɪ'və:dʒ] *v* 1) tarqalmoq, tarqalib ketmoq; 2) o'zini olib qochmoq.
divergence [daɪ 'və:dʒəns] *n* 1) farq, tafovut, ayirma, kelishmovchilik, to'g'ri kelmaslik, ixtilof; 2) tarqalish, ayrilish, sochilish.
divergency [daɪ 'və:dʒənsɪ] = **divergence.**
divergent [daɪ 'və:dʒənt] *a* tarqaladigan; tevateskari, qarama-qarshi.
divers ['daɪvəz] *a* har xil, turli, turlicha, boshqa-boshqa, turli-tuman.
diverse [daɪ 'və:s] *a* 1) turli; 2) har xil.
diversified [daɪ'və:sɪfaɪd] *a* turli-tuman, xilma-xil, rang-barang, ko'p qirrali.
diversify [daɪ'və:sɪfaɪ] *v* turli tusga kirmoq.
diversion [daɪ'və:ʃn] *n* chetga burilish, og'ish, chalg'itish.
diversity [daɪ'və:sətɪ] *n* ayirma, farq, tafovut, o'zgalik, har xillik, farq qilish.

divert [daɪˊvə:t] *v* 1) rad qilmoq, qaytarmoq, qabul qilmaslik; 2) boshqa tomonga tortmoq, chalg'itmoq.
diverting [daɪˊvə:tɪŋ] **1.** *pres. p.* **divert** *dan*; **2.** *a* ko'ngil ochadigan.
divertissement [ˌdi:veəˊti:smɑ:ŋ] *n fr.* 1) ko'ngilli uchish, tomosha qilish; 2) divertisment (*spektaklga yoki konsertga qo'shimcha qilingan mayda o'yin va ashulalar*).
Dives [ˊdaɪvi:z] *n* boy, badavlat odam.
divest [daɪˊvest] *v* 1) yechintirmoq, kiyimini yechmoq, yechib qo'ymoq; 2) mahrum qilmoq, tortib olmoq, judo qilmoq.
divestiture [daɪˊvestɪtʃə] *n* 1) kiyimini yechish, yechintirish; 2) mahrum qilish (*huquq va b.q.*).
divestment [daɪˊvestmənt] = **divestiture.**
divide [dɪˊvaɪd] *v* 1) bo'lmoq, ajratmoq; 2) qismlarga bo'lmoq; 3) turkumlamoq.
divided [dɪˊvaɪdɪd] **1.** *p. p.* **divide** *dan*; **2.** *a* bo'lingan, taqsimlangan.
dividend [ˊdɪvɪdend] *n* 1) *iqt.* divident (*aksiyadan kelgan daromad*); 2) *mat.* bo'linuvchi.
dividend-warrant [ˊdɪvɪdendˌwɔrənt] *n* divident olish uchun guvohnoma.
divider [dɪˊvaɪdə] *n* 1) bo'luvchi kishi; 2) serkul, pargar.
dividing [dɪˊvaɪdɪŋ] *n* bo'luvchi.
dividual [dɪˊvɪdjuəl] *a* 1) alohida; ba'zi; 2) bo'linadigan.
divination [ˌdɪvɪˊneɪʃn] *n* bashorat qilish.
divine [dɪˊvaɪn] **1.** *n* teolog (*din bo'yicha mutaxassis*); **2.** *a* 1) ilohiy; 2) dinga oid, diniy; 3) a'lo, afzal, juda yaxshi; **3.** *v* oldindan aytmoq, kelajakdan xabar bermoq.
diving [ˊdaɪvɪŋ] **1.** *pres. p.* **dive 2** *dan*; **2.** *n* 1) sho'ng'ish; 2) yuqoridan suvga tashlash.
diving-bell [ˊdaɪvɪŋbel] *n* suv tagiga tushishga oid qo'ng'iroq.
diving board [ˊdaɪvɪŋbɔ:d] *n* tramplin (*suvga sakrash uchun*).
diving-dress [ˊdaɪvɪŋdres] *n* skafandr (*suv o'tmaydigan kiyim*) kiyib suv tagiga tushish.
diving-rudder [ˊdaɪvɪŋˌrʌdə] *n* balandlik *yoki* chuqurlik ruli.
divining-rod [dɪˊvaɪnɪŋrɔd] *n* 1) ilohiy, ilohiy kaltakcha; 2) xivich, chiviq, novda.
divinity [dɪˊvɪnətɪ] *n* ilohiyot, xudo, Alloh, iloh.
divinize [ˊdɪvɪnaɪz] *v* ilohiylashtirmoq, xudo deb bilmoq, si'g'inmoq.
divisibility [dɪˌvɪzəˊbɪlətɪ] *n* bo'lish, ajratish, taqsimot, ajralish, tafovut.
divisible [dɪˊvɪzəbl] *a* bo'linadigan.
division [dɪˊvɪʒn] *n* 1) *harb.* diviziya; 2) taqsimlash; 2) kafedra; bo'lim.
divisional [dɪˊvɪʒnəl] *a* 1) *harb.* diviziyaga oid; 2) bo'linishga oid; 3) kasrga oid.
divisive [dɪˊvaɪsɪv] *a* orani buzuvchi, ajratib yuboruvchi, bir-biridan judo qiluvchi.
divisor [dɪˊvaɪzə] *n mat.* bo'luvchi.
divorce [dɪˊvɔ:s] **1.** *n* taloq; **2.** *v* ajrashmoq.
divorcee [dɪˌvɔ:ˊsi:] *n* ajrashgan (*er yoki xotin*).
divorcement [dɪˊvɔ:smənt] *n* ajralish (*er-xotin haqida*).
divot [ˊdɪvət] *n* chim, chimzor.
divulgation [ˌdaɪvʌlˊgeɪʃn] *n* oshkor qilish, hammaga bildirib qo'yish.
divulge [daɪˊvʌldʒ] *v* oshkor qilmoq, hammaga ma'lum qilmoq, ovoza qilmoq, oshkor qilmoq (*sirni*).
divvy [ˊdɪvɪ] **1.** *n* haq, hissa, ulush; **2.** *v* bo'lishmoq; o'rtoqlashmoq, baham ko'rmoq.
dixie, dixy [ˊdɪksɪ] *n harb.* oshxona qozoni.
dizain [dɪˊzeɪn] *n* o'n qatorli she'r.
dizzily [ˊdɪzɪlɪ] *adv* bosh aylanish, miya aynish
dizziness [ˊdɪzɪnəs] *n* bosh aylanish.
dizzy [ˊdɪzɪ] **1.** *a* boshi aylanayotgan; **2.** *v* boshni aylantirmoq.
do [du:] *v* (**did; done**) bajarmoq, amalga oshirmoq, qilmoq.
doable [ˊdu:əbl] *a* bajarsa bo'ladigan.
do-all [ˊdu:ɔ:l] *n* har tomonlama mohir.
dobbin [ˊdɔbɪn] *n* kichkina krujka.
doc [dɔk] *n so'zl.* doktor, shifokor.
docile [ˊdəusaɪl] *a* gapga kiradigan, gapga quloq soladigan, itoatkor.
docility [dəuˊsɪlətɪ] *n* gapga quloq solish.
dock [dɔk] *n* 1) *bot.* shovul; 2) dok (*kema va paroxodlarni ta'mirlaydigan ishxona*); 3) kesilgan dum.
dockage [ˊdɔkɪdʒ] *n* kemalarning turadigan joyi.
docker [ˊdɔkə] *n deng.* bandargohda ishlaydigan ischi.
docket [ˊdɔkɪt] *n* hujjatning ustiga yozilgan yozuv.
dock-master [ˊdɔkˌmɑ:stə] *n* dok boshlig'i.
dockyard [ˊdɔkjɑ:d] *n* kemasozlik zavodi.
doctor [ˊdɔktə] *n* doktor, shifokor.
doctoral [ˊdɔktərəl] *a* doktorlik darajasiga oid; doktorlik.
doctorate [ˊdɔktərət] *n* doktorlik darajasi.
doctrinal [dɔkˊtraɪnl] *a* aqidaparastlikka oid.
doctrine [ˊdɔktrɪn] *n* ta'limot; nazariya.
document [ˊdɔkjumənt] *n* hujjat, guvohnoma.
documentary [ˌdɔkjuˊmentərɪ] *a* hujjatli, hujjatlarga asoslangan; ~ **film** hujjatli film.
documentation [ˌdɔkjumenˊteɪʃn] *n* hujjat, rasmiy qog'oz.
dodder [ˊdɔdə] *v* oqsoqlanmoq, sudralmoq, oyoqlarini sudrab qadam bosmoq.
doddered [ˊdɔdəd] *a* bargi to'kilgan, shipshiydon bo'lgan (*daraxtlar haqida*).
doddery [ˊdɔdərɪ] *a* 1) tentak, ahmoq; 2) oyoqda tura olmaydigan.
doddle [ˊdɔ:dl] *n* oson ish.
dodecagon [dəuˊdekəgən] *n* o'n ikki burchakli.
dodecahedron [ˌdəudekəˊhi:drən] *n* o'n ikki oyoqli.

dodge [dɔdʒ] **1.** *n* hiyla, nayrang; **2.** *v* chap bermoq, o'zini chetga olmoq, chalg'itmoq.
dodger [ˊdɔdʒə] *n* hiylagar, ayyor, mug'ambir.
dodgery [ˊdɔdʒərɪ] *n* bahona, vaj, hiyla-nayrang.
dodgy [ˊdɔdʒɪ] *n* ayyor, hiylakor, shayton.
dodo [ˊdəudəu] *n* (*pl* **-oes, -os** [-əuz]) johil (qoloq, nodon) kishi.
doe [dəu] *n* urg'ochi, moda, makiyon (*bug'u, quyon*).
doer [ˊdu:ə] *n* amalga oshiruvchi, bajaruvchi, ijrochi.
does [dʌz] **do** *fe'lining hozirgi zamon shakli bo'lib III shakl birlik sonda ishlatiladi*; **he ~ his homework everyday** u har kuni uy ishini bajaradi.
doeskin [ˊdəuskɪn] *n* 1) bug'uning terisi; 2) zamsh (*bug'u, qo'y va boshqa mollarning terisidan tayyorlangan yumshoq baxmalsimon charm*).
doff [dɔf] *v* yechmoq, yechib qo'ymoq, yechib tashlamoq (*kiyimni*).
dog [dɔg] **1.** *n* 1) it, kuchuk; 2) erkak (*bo'ri, tulki va b.lar*); **2.** *v* 1) ketma-ket bormoq; (*birovning orqasidan*) kuzatmoq, izidan bormoq; 2) it bilan ta'qib qilmoq; itga oldirmoq.
dog-bane [ˊdɔgbeɪn] *n bot.* kendir (*tolali ko'p yillik o'tsimon o'simlik*).
dog-bee [ˊdɔgbi:] *n* 1) erkak asalari; 2) dangasa, ishyoqmas, tekinxo'r.
dogberry [ˊdɔgberɪ] *n bot.* ituzum (*yeb bo'lmaydigan mayda mevali o'simlik*).
dog-biscuit [ˊdɔg,bɪskɪt] *n* itlarga beriladigan qotirilgan kulcha non.
dog-box [ˊdɔgbɔks] *n* yuk vagonlarida itlar uchun ajratilgan maxsus bo'linma.
dogcart [ˊdɔgkɑ:t] *n* it qo'shilgan aravacha.
dog-cheap [ˊdɔgtʃi:p] *a amer. so'zl.* arzon, juda arzon.
dog-collar [ˊdɔg,kɔlə] *n* bo'yinbog', bo'yinga taqiladigan tasma, qayish (*hayvonlar uchun*).
dog-days [ˊdɔgdeɪz] *n pl* yozning issiq kunlari.
dog-eared [ˊdɔgɪəd] : **a ~ book** titilgan (eskirgan) kitob.
dogface [ˊdɔgfeɪs] *n amer. so'zl.* 1) piyoda askarlar; 2) rekrut (*chor Rossiyasida askarlikka olingan yangi askar*).
dog-fancier [ˊdɔg,fænsɪə] *n* 1) itboqar; 2) itboz.
dogfight [ˊdɔgfaɪt] *n harb.* 1) havo jangi; 2) qo'l jangi.
dogfish [ˊdɔgfɪʃ] *n zool.* akula, nahang.
dog-fox [ˊdɔgfɔks] *n* nar (*erkak*) tulki.
dogged [ˊdɔgɪd] **1.** *p. p.* **dog 2** *dan*; **2.** *a* o'jar, qaysar; **3.** *adv* juda, juda ham, haddan tashqari, o'ta, favqulodda.
dogger [ˊdɔgə] *n* 1) *deng.* Gollandiyaning baliq ovlaydigan ikki minorali (machtali) kemasi; 2) *geol.* mezozoy erasining ikkinchi davri.
doggerel [ˊdɔgrəl] **1.** *n* bo'lar-bo'lmas she'rlar, yomon yozilgan she'rlar; **2.** *a* yomon, nojo'ya, nobop, ma'nosiz, mazmunsiz (*she'r haqida*).
doggery [ˊdɔgərɪ] *n* itning arqoni, boshvog'i, tasmasi.
doggie [ˊdɔgɪ] *n* kuchuk, kichkina it.
doggish [ˊdɔgɪʃ] *a* 1) qo'rs, qo'pol, dag'al; 2) itga oid, itniki.
doggo [ˊdɔgəu] *adv* yashirinib, bekinib; **to lie ~** yashirinmoq, bekinmoq.
doggone [ˊdɔgɔn] *int.* attang!, afsus!, esizgina!
doggy [ˊdɔgɪ] **1.** *n* kichkina it, kuchukcha; **2.** *a* itlarni yaxshi ko'radigan.
dog-hole [ˊdɔghəul] *n* itning uychasi.
dog-house [ˊdɔghaus] *n* itning uychasi.
dog-in-the-manger [ˌdɔgɪnðəˊmeɪndʒə] *n* na o'ziga qiladi, na birovga; o'ziga ham qilmaydi, birovga ham bermaydi.
dog-lead [ˊdɔgli:d] *n* itning yetaklash ipi, arqoni, jilovi.
dog-licence [ˊdɔglaɪsns] *n* itni ro'yxatdan o'tkazilganligi haqidagi guvohnoma.
dogma [ˊdɔgmə] *n* (*pl* **as** [-əz], **-ata**) 1) aqida; 2) din aqidalari; 3) qotma, qotib qolgan.
dogmata [ˊdɔgmətə] *pl* **dogma** *dan.*
dogmatic [dɔgˊmætɪk] *a* 1) dogmatik, aqidalarga asoslangan; 2) qotib qolgan.
dogmatically [dɔgˊmætɪklɪ] *adv* qat'iy, uzil-kesil.
dogmatics [dɔgˊmætɪks] *n pl* (*sing dek ishlatiladi*) aqidaparastlik.
dogmatize [ˊdɔgmətaɪz] *v* aqidalarga ko'r-ko'rona ishontirmoq.
dog nail [ˊdɔgneɪl] *n* 1) qo'ltiqtayoq; 2) qoziq mix.
dog-poor [ˊdɔgpɔ:] *a* gadoy, tilanchi.
dog-rose [ˊdɔgrəuz] *n* na'matak, itburun.
dog-salmon [ˊdɔg,sæmən] *n zool.* gorbusha (*dengiz baliqlaridan bir turi*).
dog's-grass [ˊdɔgzgrɑ:s] *n bot.* yerga yoyilib o'sadigan g'allasimon o'simlik.
dog-sick [ˊdɔg,sɪk] *a* noxush his qilish; **he was ~** u o'zini noxush (*yomon*) his qildi.
dogskin [ˊdɔgskɪn] *n* layka (*mayin teri*).
dog-sleep [ˊdɔgsli:p] *n* hushyor (sezgir) uyqu.
dog's letter [ˊdɔgz,letə] *n* «**R**» harfining eski nomi.
dog's-meat [ˊdɔgzmi:t] *n* 1) o'limtik, o'laksa; 2) itga beriladigan go'sht.
Dog's Tail [ˊdɔgzteɪl] *n astr.* Kichik Ayiq, Kichik Yetti og'ayni (*yulduz turkumi*).
Dog-Star [ˊdɔgstɑ:] *n astr.* Sirius (*yulduz*).
dog tag [ˊdɔgtæg] *n* itning qaydga olish raqami.
dog-tired [ˌdɔgˊtaɪəd] *a* tinkasi qurigan, itdek charchagan.
dog-tooth [ˊdɔgtu:θ] *n* qoziq tish, so'yloq tish.
dogtrot [ˊdɔgtrɔt] *n* yo'rtib chopish, yelish.
dog-violet [ˊdɔg,vaɪələt] *n* yovvoyi binafsha.
dog-weary [ˌdɔg ˊwɪərɪ] = **dog-tired.**
dogwood [ˊdɔgwud] *n bot.* qizil mevali buta va uning nordon mevasi.
doily [ˊdɔɪlɪ] *n* qo'l sochiq (*mato va qog'ozdan*).

doing [ˈduːɪŋ] **1.** *n* yumush; **2.** *a* 1) amaldagi, faol ishtirok etayotgan; 2) qo'yilayotgan (*kino, teatrda*). **What's ~ tonight?** Kechqurun nima qo'yilyapti?

doings [ˈduːɪŋz] *n pl* ish, harakat, muomala; qiliq.

doit [dɔɪt] *n* 1) mayda-chuyda; 2) mayda pul.

doited [ˈdɔɪtɪd] *a shotl.* qarib aqldan ozgan.

doldrums [ˈdɔldrəmz] *n* ma'yuslik, g'amginlik, umidsizlik.

dole [dəul] *n* qayg'u, g'am, dard-alam.

doleful [ˈdəulfl] *a* qayg'uli, g'amgin, achinarli, motamsaro.

doll [dɔl] **1.** *n* qo'g'irchoq; **2.** *v* yasantirmoq, kiyintirmoq.

dollar [ˈdɔlə] *n* dollar; **the ~** pullar, boylik.

dollish [ˈdɔlɪʃ] *a* qo'g'irchoqqa oid, qo'g'irchoqqa o'xshagan.

doll-like [ˈdɔllaɪk] *a* qo'g'irchoqsimon, qo'g'irchoqqa o'xshagan.

dollop [ˈdɔləp] *n* bo'lak, parcha, tishlam.

dolly [ˈdɔlɪ] **1.** *n* kichkina qo'g'irchoq; **2.** *a so'zl.* 1) qo'g'irchoqqa oid; bolalarga xos; 2) oson, yengil.

dolly-bag [ˈdɔlɪbæg] *n* ayollarning kichkina sumkachasi.

dolly-shop [ˈdɔlɪʃɔp] *n* matroslar do'koni.

dolly-tub [ˈdɔlɪtʌb] *n* tog'ora, jom.

dolman [ˈdɔlmən] *n* gusarlarning mentikli kiyimi.

dolomite [ˈdɔləmaɪt] *n min.* dolomite (*mineral*).

dolorous [ˈdɔlərəs] *a* qayg'uli, g'amgin.

dolose [dəuˈləus] *a yur.* badniyat, niyati buzuq.

dolour [ˈdɔlə] *n* qayg'u, g'am, xafagarchilik.

dolphin [ˈdɔlfɪn] *n zool.* delfin.

dolt [dəult] *n* ahmoq, tentak, nodon kishi.

doltish [ˈdəultɪʃ] *a* tentaknamo, ahmoqroq.

domain [dəu ˈmeɪn] *n* mulk, yer-suv.

dome [dəum] *n* gumbaz, ravoq, qubba.

domed [dəumd] *a* 1) gumbazsimon; 2) gumbaz bilan bezatilgan.

Domesday Book [ˈduːmzdeɪbuk] *n* kadastr daftari (*kadastr – biror narsa haqidagi ma'lumotlar*).

domestic [dəˈmestɪk] **1.** *a* uyga oid, oilaviy; oilaviy hayotni yoqtiradigan; ichki, mamlakat ichidagi; **~ industry** hunarmandchilik sanoati; **2.** *n* oqsoch, xizmatkor ayol, uy xizmatchisi.

domesticable [dəˈmestɪkəbl] *a* qo'lga o'rgatsa bo'ladigan; xonakilashtirish mumkin bo'lgan (*hayvonlar haqida*).

domesticate [dəˈmestɪkeɪt] *v* 1) qo'lga o'rgatib olmoq (*hayvonlarni*); 2) yangi sharoitga (iqlimga) o'rgatmoq.

domestication [dəuˌmestɪˈkeɪʃn] *n* 1) uyga, oilaviy hayotga odatlanish; 2) qo'lga o'rgatish (*hayvonni*).

domesticity [ˌdəumesˈtɪsətɪ] *n* 1) oilaviy hayot; 2) oilaviy hayotga muhabbat.

domett [dəuˈmet] *n* yarimjun mato.

domic(al) [ˈdəumɪk(əl)] *a* gumbazsimon; qubbaga o'xshagan.

domicile [ˈdɔmɪsaɪl] *n* 1) doimiy turar joy; 2) *yur.* shaxs *yoki* firmaning yuridik manzili.

domiciliary [ˌdɔmɪˈsɪlərɪ] *a* uy, turar joy bo'yicha; **~ visit** uyni tintuv qilish.

dominance [ˈdɔmɪnəns] *n* hukmronlik, hokimlik, ustunlik; saltanat.

dominant [ˈdɔmɪnənt] *a* hukmron, ustuvor, hokim.

dominate [ˈdɔmɪneɪt] *v* 1) hukmronlik qilmoq, ustuvorlik qilmoq; 2) o'zini tiymoq.

domination [ˌdɔmɪˈneɪʃn] *n* hukmronlik, ustuvorlik.

domineer [ˌdɔmɪˈnɪə] *v* idora qilmoq, boshqarmoq, hukmronlik qilmoq.

domineering [ˌdɔmɪˈnɪərɪŋ] *a* mustabidlarcha; so'zini o'tkazadigan; e'tirozga yo'l qo'ymaydigan.

dominical [dəˈmɪnɪkl] *a cherk.* qaytadan vujudga keladigan, qayta tiriladigan.

dominie [ˈdɔmɪnɪ] *n* 1) *shotl.* maktab o'qituvchisi; 2) *amer.* ruhoniy.

dominion [dəˈmɪnjən] *n* hokimlik, hukmronlik, hokimiyat, saltanat.

domino [ˈdɔmɪnəu] *n* 1) domino (*maskarad kiyimi*); maskarad ishtirokchisi; 2) domino *(o'yin).*

dominoed [ˈdɔmɪnəud] *a* domino (maskarad) kiyimi kiygan.

don [dɔn] **1.** *n* 1) **(D)** don (*ispan unvoni*); 2) o'qituvchi, kollej kengashining a'zosi *(Oksford va Kembrijda);* **2.** *v esk.* taqib (ilib, osib) olmoq.

dona(h) [ˈdəunə] *n* 1) xotin kishi; 2) mahbuba, ma'shuqa.

donate [dəuˈneɪt] *v* tortiq qilmoq, sovg'a qilib bermoq, armug'on etmoq.

donation [dəu ˈneɪʃn] *n* 1) tortiq, hadya, sovg'a; 2) sadaqa.

donative [ˈdəunətɪv] **1.** *n* hadya, in'om, sovg'a, tuhfa; **2.** *a* hadya qilish bilan bog'liq bo'lgan.

donatory [ˈdəunətərɪ] *n* hadya, sovg'ani oluvchi kishi, shaxs.

done I [dʌn] *p. p.* **do** *dan.*

done II [dʌn] *a* 1) qilingan, bajarilgan; **~ in English** ingliz tilida bajarilgan (*rasmiy hujjat haqida*); 2) yaxshi tayyorlangan, pishirilgan; **~ to a turn** ajoyib tayyorlangan.

donee [dəuˈniː] *n* sovg'ani oluvchi kishi.

donga [ˈdɔŋgə] *n* dara.

donjon [ˈdɔndʒən] *n* bosh minora (*qasrda*).

donkey [ˈdɔŋkɪ] *n* 1) eshak; 2) *amer.* demokratik partiya laqabi.

donkey-engine [ˈdɔŋkɪˌendʒɪn] *n* chig'ir (*yuqoriga yuk ko'taradigan eng oddiy mashina*).

donnish [ˈdɔnɪʃ] *a* takabbur, gerdaygan, dimog'dor.

donor [ˈdəunə] *n* 1) qurbonlik qilgan odam; 2) *tib.* donor (*yarador va bemorlarga o'z qonini beruvchi kishi*).

do-nothing [ˈduːˌnʌθɪŋ] *n* bekorchi, ishyoqmas kishi.

don't [dəunt] = **do not.**
doodle [ˈdu:dl] *n* ahmoq kishi.
doom [du:m] **1.** *n* 1) taqdir, qismat; 2) halok bo'lish, yo'q bo'lish; **2.** *v* mahkum qilmoq, ayblamoq.
dooms [du:mz] *adv shotl.* juda, juda ham, g'oyat, nihoyatda, haddan tashqari; ortiq darajada.
doomsday [ˈdu:mzdeɪ] *n din.* qiyomat, qiyomat kuni.
door [dɔ:] *n* eshik, eshikcha; **a ~ to success** muvaffaqiyat yo'li; **next ~** qo'shni uy; **~ step** ostona; **~man** darvozabon.
doorbell [ˈdɔ:bel] *n* eshik qo'ng'irog'i.
door-case [ˈdɔ:keɪs] *n* eshik kesakisi.
door-frame [ˈdɔ:freɪm] = **door-case.**
door-keeper [ˈdɔ:ki:pə] *n* darbon, darvoza (*eshik*) qorovuli.
door's-man [ˈdɔz:mən] = **door-keeper.**
doormat [ˈdɔ:mæt] *n* 1) oyoq artiladigan latta; 2) *ko'chma.* irodasiz (bo'shashgan) kishi.
door-plate [ˈdɔ:pleɪt] *n* eshik taxtachasi (*familiya va b.lar yozilgan*).
doorstep [ˈdɔ:step] *n* ostona, bo'sag'a.
door-stone [ˈdɔ:stəun] *n* toshtaxta; eshik oldi (*uyga kiraverishdagi soyabonli pillapoya*).
doorway [ˈdɔ:weɪ] *n* kirish yo'li, kiraverish.
dope [dəup] **1.** *n* narkotik modda; **2.** *v* gangitmoq, miyasini aynitmoq, ongini zaharlamoq; aldamoq.
dope-fiend [ˈdəupfi:nd] *n* narkoman, bangi (*giyohvand, nashavand, ko'knori odam*).
dop(e)y [ˈdəupɪ] *a so'zl.* 1) lanj, shalpaygan; bo'shashgan; 2) gangigan, ongini zaharlagan; 3) madaniyatsiz, ahmoq; 4) mast, karaxt.
dor [dɔ:] *n* qo'ng'iz, go'ngqo'ng'iz, tillaqo'ng'iz.
dor-beetle [ˈdɔ:bi:tl] = **dor.**
dor-bug [ˈdɔ:bʌg] = **dor.**
Dorcas [ˈdɔ:kəs] *n* kambag'allarni kiyim-kechak bilan ta'minlovchi ingliz ayollar jamiyatining nomi.
dorhawk [ˈdɔ:hɔ:k] *n zool.* tentakqush.
Dorian [ˈdɔ:rɪən] *a* Dorida (*Yunonistonning Dorida viloyati*)ga oid.
Doric [ˈdɔrɪk] *a* Dorida (*Yunonistonning Dorida viloyati*)ga oid; **~ order** *me'mor.* dorida uslubi.
Dorking [ˈdɔ:kɪŋ] *n* dorking (*angliyaning go'shtdor tovuq zoti*).
dormancy [ˈdɔ:mənsɪ] *n* 1) harakatsizlik holati; 2) mudrash, mudroq bosish, pinak. mudroq.
dormant [ˈdɔ:mənt] *a* 1) uyqudagi; 2) harakatsiz; 3) yashirin (*qobiliyat, kuch va b.lar to'g'risida*); **to lie ~** harakatsiz (*yashirin*) holatda bo'lmoq; uyquda bo'lgan (*hayvonlar to'g'risida*); 4) daromad keltirmaydigan (*sarmoya to'g'risida*); **~ capital** daromad (foyda) keltirmaydigan boy lik.
dormer (window) [ˈdɔ:mə(ˌwɪndəu)] *n* tuynuk (*havoni yangilash va yorug'lik tushishi uchun cherdak, minora kabilarda qurilgan tuynuk*).
dormice [ˈdɔ:maɪs] *pl* **dormouse** *dan.*
dormitory [ˈdɔ:mɪtrɪ] *n esk.* umumiy yotoqxona (*yopiq o'quv yurtlarida*), yotoqxona.
dormouse [ˈdɔ:maus] *n zool.* sonya (*qishda uzoq vaqt uyquda bo'ladigan olmaxonga o'xshagan hayvon*).
dorp [dɔ:p] *n jar. afr.* qishloq.
dorsal [ˈdɔ:sl] *a anat.* orqadagi, orqa.
dorse [dɔ:s] *n zool.* treska (*shimol dengizlaridagi baliqning bir turi*).
dorter, dortour [ˈdɔ:tə] *n* monastirning umumiy yotoqxonasi.
dory [ˈdɔ:rɪ] *n* baliqchilarning tagi yassi qayig'i (*Shimoliy Amerikada*).
dosage [ˈdəusɪdʒ] *n tib.* doza, o'lchovli miqdor (*dori-darmon va b.*).
dose [dəus] **1.** *n* 1) doza, o'lchovl; 2) *so'zl.* biror narsaning, ko'pincha ovqatning muayyan *mas.* bir kishiga mo'ljallangan miqdori; **2.** *v* dozalamoq, dozalarga bo'lmoq.
dosimeter [dəuˈsɪmɪtə] *n* dozimetr (*radioaktiv nurlanish darajasini o'lchaydigan asbob*).
doss [dɔs] **1.** *n* 1) karavot, osma karavot (*tunaydigan joylarda*); 2) uyqu, uxlash; **2.** *v* 1) tunamoq (*tunaydigan joylarda*); 2) uxlamoq.
dossal [ˈdɔsəl] *n cherk.* mehrob ortidagi parda.
doss-house [ˈdɔshaus] *n* tunash joyi.
dossier [ˈdɔsɪeɪ] *fr. n* biror ish, masala *yoki* shaxsga doir hujjatlar to'plami, shaxsiy varaqa.
dot [dɔt] **1.** *n* 1) nuqta; 2) kichkina narsa; 3) kichkina dog'; **2.** *v* nuqta qo'ymoq.
dotage [ˈdəutɪdʒ] *n* qarilikdagi (*qarigandagi, keksalarga xos bo'lgan*) aqli zaiflik.
dot and go one [ˌdɔtənˈgəuwʌn] *n* oqsoqlanib yurish, oyoqlarni sudrab bosish.
dotard [ˈdəutəd] *n* aqldan ozgan qariya.
dote [dəut] *v* haddan tashqari sevmoq (*yaxshi ko'rmoq*).
doting [ˈdəutɪŋ] *a* 1) haddan ortiq sevadigan; 2) qarilikdagi aqli zaiflikdan azob chekayotgan.
dotted line [ˈdɔtɪdlaɪn] *n* nuqtali, nuqtalardan iborat chiziq.
dotterel [ˈdɔtrəl] *n* rjanka (*Amerika, Hindiston, Eron, Avstraliya va boshqa yerlarda tarqalgan, loyxo'raklar turiga mansub qush*).
dottle [ˈdɔtl] *n* chala chekilgan trubkada qolgan tamaki qoldig'i.
dotty [ˈdɔtɪ] **1.** *a* aqldan ozgan, jinni, telba, devona; **2.** *v* aqldan ozmoq, jinni bo'lmoq.
double [ˈdʌbl] **1.** *a* 1) ikkita, qo'shaloq, ikkilangan; **~ bed** ikki kishilik karavot; 2) ikki xil; ikkiyuzlamachi; **2.** *n* ikki miqdor; **3.** *adv* ikki marta; **4.** *v* ikki baravar oshirmoq.
double-acting [ˈdʌblˌæktɪŋ] *n* ikki baravar ko'p harakat qilish (*mexanizm haqida*).
double-barrelled [ˌdʌblˈbærəld] *a* 1) qo'shog'iz; **~ gun** qo'shog'iz miltiq; 2) ikki ma'noli.
double-bass [ˌdʌblˈbeɪs] *n mus.* kontrabass (*skripkaga o'xshagan katta cholg'u asbobi*).

double-bedded [ˌdʌbl´bedɪd] *a* 1) ikkita karavotga ega bo'lgan (*xona to'g'risida*); 2) ikki kishilik (*mehmonxonadagi xona haqida*).
double-breasted [ˌdʌbl´brestɪd] *a* ikki yoqlama tugmali (*kastum haqida*).
double-charge [ˌdʌbl´tʃɑ:dʒ] *v* ikki hissa o'qlamoq.
double-cross [ˌdʌbl ´krɔs] *v* aldab ketmoq, firib bermoq.
double-dealer [ˌdʌbl´di:lə] *n* aldoqchi, aldamchi, firibgar, yolg'onchi.
double-dealing [ˌdʌbl´di:lɪŋ] *n* munofiqona xatti-harakat, munofiqlik, xoinlik, sotqinlik.
double-decker [ˌdʌbl´dekə] *n* 1) ikki qavatli avtobus; 2) ikki palubali kema.
double eagle [ˌdʌbl´i:gl] *n* 1) ikki boshli burgut; 2) *amer.* 20 dollarlik eski oltin tanga.
double-edged [ˌdʌbl´edʒd] *a* ikki tomoni o'tkir.
double entendre [ˈdu:blɑ:ŋ tɑ:ŋdr] *n* ikki ma'noli ibora; ikki ma'nolilik.
double entry [ˌdʌbl´entrɪ] *n tij.* ikki yoqlama buxgalteriya (*ikkiyuzlamachilik, munofiqona, ikki tomonga ishlash*).
double-event [ˌdʌblɪ´vent] *n* ikkikurash (*sportning ikki guruhini o'z ichiga olgan musobaqa*).
double-faced [ˈdʌblfeɪst] *a* ikkiyuzlama, munofiq, riyokor.
double-first [ˌdʌbl´fə:st] *n* Angliya universitetini darajali diplom bilan ikki mutaxassislik bo'yicha bitirgan kishi.
double-hearted [ˌdʌbl´hɑ:tɪd] *a* 1) ikkiyuzlama, munofiq, riyokor; 2) xiyonatkor, bevafo.
double-lock [ˈdʌblɪɔk] *v* qulfni kalitini ikki marta burab qulflamoq (bekitmoq).
double-manned [ˌdʌbl´mænd] *a harb.* ikki baravar.
double meaning [ˈdʌblˌmi:nɪŋ] **1.** *n* ikki ma'nolilik, ikki ma'noli gap; **2.** *a* aldaydigan, aldamchi.
double-minded [ˌdʌbl´maɪndɪd] *a* qat'iyatsiz, ikkilanadigan.
double-quick [ˌdʌbl´kwɪk] *a* juda tez; tezkor, tezlik bilan bo'ladigan, ko'paytirilgan shaxsiy tarkib bilan.
double-stop [ˌdʌbl´stɔp] *v* tor simlarini baravar bosmoq (*skripka chalganda*).
doublet [ˈdʌblət] *n* juft narsa; nusxa.
double time [ˈdʌbltaɪm] *n amer.* jadallashtirilgan yurish.
double-tongued [ˌdʌbl´tʌŋd] *a* 1) yolg'onchi, aldamchi; 2) yolg'ondakam, soxta, yasama, qalbaki.
doubling [´dʌblɪŋ] **1.** *pres. p.* **double 4** *dan*; **2.** *n* 1) takrorlash (*biror narsani*); 2) ikki marta oshish; *ikki baravar ko'paytirish.*
doubloon *[dʌb´lu:n] n tar. dublon (ispan oltin tangasi).*
doublure [du:´blə:] *n fr.* muqovaning ich qismiga yopishtiriladigan ipak (*teri va b. lar*).
doubly [´dʌblɪ] *adv* ikki hissa qilib, ikki marta ortiq, ikki baravar ko'p.
doubt [daut] **1.** *n* shubha, gumon, ikkilanish, qat'iyatsizlik, noaniqlik; **no ~** shubhasiz; **2.** *v* shubhalanmoq, shubha qilmoq.
doubtful [ˈdautful] *a* shubhali, dargumon, ishonib bo'lmaydigan.
doubtless [´dautləs] *adv* shubhasiz, shak-shubhasiz, shubha tug'dirmaydigan.
douce [du:s] *a shotl.* tinch, xotirjam, osoyishta.
douceur [du:´sə:] *fr. n* pora; «choy puli».
douche [du:ʃ] **1.** *n* 1) dush; 2) ustidan (*ustiga*) to'kib yuborish, quyish, sepish; **2.** *v* 1) dush qabul qilmoq; 2) o'z ustidan suv quymoq.
dough [dəu] *n* xamir.
doughboy [´dəubɔɪ] *n* 1) uzma, pilak, pilakcha; 2) *amer.* piyoda askar.
doughtily [´dautɪlɪ] *adv* mardlarcha, jasurona, qahramonlarcha.
doughtiness [´dautɪnəs] *n* jasorat, botirlik, qahramonlik.
doughty [´dautɪ] *a* jasur, botir, qo'rqmas, dovyurak.
doughy [ˈdəuɪ] *a* 1) xamirsimon, xamirga o'xshagan; yomon pishirilgan; 2) befahm, tushunmaydigan (*kishilar haqida*).
dour [duə] *a* qattiqqo'l, qahri qattiq, berahm.
douse [daus] *v* suvga sho'ng'imoq, suvga kirmoq.
dove [dʌv] *n* kabutar, kaptar; **~ of peace** tinchlik kabutari.
dove-colour [´dʌvˌkʌlə] *n* ko'k, ko'kimtir rang.
dove-cot(e) [ˈdʌvkəut] *n* kaptarxona, kaptar uyasi.
dove-eyed [ˌdʌv´aɪd] *a* 1) begunoh ko'rinish; 2) beozor qarash.
dove-like [ˈdʌvlaɪk] *a* nozik, muloyim, yumshoq.
dovetail [ˈdʌvteɪl] *v* to'g'ri kelmoq, mos kelmoq, munosib bo'lmoq.
dowager [ˈdauədʒə] *n* (*martabasi ulug' kishining*) bevasi.
dowdy [ˈdaudɪ] *a* modadan qolgan, eski modadagi, eski bichimdagi, eskicha (*kiyim haqida*).
dowdyish [´daudɪɪʃ] *a* kelishmagan, beo'xshov.
dowel [´dauəl] *n* katta yog'och mix, mixcho'p; betonga qoqiladigan mix (*dubel*).
dower [ˈdauə] *n* 1) bevaga tegishli qism (*merosda*); 2) sep, sep-sidirg'a.
down [daun] **1.** *n* 1) qiya, qiyalik, nishablik; **ups and ~s** balandlik va pastliklar; 2) g'arazgo'ylik, xush ko'rmaslik, yoqtirmaslik; **to have a ~ on smb.** biror narsaga g'araz bilan qaramoq; **2.** *a* pastga yo'nalgan, tushayotgan; **3.** *adv* 1) past tomonga *bo'lgan harakatni anglatadi*; **to come ~** pastga tushmoq; **the shades are ~** pardalar *tushirilgan; 2) miqdor, hajmning kamayishini,* pasayishini, zaiflashishini, yomonlashishini anglatadi **to go ~** kamaymoq, pasaymoq, zaiflashmoq, aynimoq, yomonlashmoq; **to bring ~ the price** narxni tushirmoq; **4.** *prep.* past tomonga harakatni anglatadi; **to walk ~ the hill** tepalikdan tushmoq; **to fall ~ the stairs** zinadan

yiqilib tushmoq; **4.** *v* 1) tushirmoq, tashlamoq; **to ~ one's opponent** raqibning yelkasini yerga tekizmoq; 2) yutmoq; **to ~ medicine** dorini yutmoq; 3) yengmoq, bo'ysundirmoq, tinchitmoq **to ~ opposition** qarshilikni yengmoq.

downcast [ˈdaunkɑ:st] *a* 1) pastga qaratilgan; 2) g'amgin, xafa, ma'yus, g'amga botgan.

down-draught [ˈdaundrɑ:ft] *n tex.* pastki tyaga (*tyaga – mexanizmning tortish quvvatini bir qismidan ikkinchisiga uzatib berib turuvchi uzun o'q*).

downfall [ˈdaunfɔ:l] *n* 1) jala, sharros yomg'ir; 2) qattiq qor yog'ish, qorning qattig' yog'ishi.

down-grade [ˈdaungreɪd] *n* 1) nishablik, qiyalik, nishab; 2) pasayish, tushish; 3) tushkunlik, inqiroz.

down-hearted [ˌdaunˈhɑ:tɪd] *a* ruhan tushgan.

downhill [ˌdaunˈhɪl] **1.** *adv* 1) tog'ning tagida, tog'ning tagiga; 2) ostga, pastga, quyiga; **go ~** yomonlashmoq (*sog'lik haqida*); **2.** *a* qiya, nishab.

Downing Street [ˈdaunɪŋstri:t] *n* Dauning-strit (*Londonda tashqi ishlar vaziri va bosh vazir qarorgohi joylashgan ko'cha*).

downpour [ˈdaunpɔ:] *n* jala, qattiq yomg'ir, sel.

downright [ˈdaunraɪt] **1.** *a* halol, pok, vijdonli, to'g'ri, sofdil; **2.** *adv* mutlaqo, batamom.

downstage [ˌdaunˈsteɪdʒ] *a* 1) do'stona, do'stlikka oid; 2) sahna oldiga (*peshsahnaga*) oid.

downstairs [ˌdaunˈsteəz] **1.** *a* pastda; pastki qavatda joylashgan; **2.** *adv* pastga, quyiga, tubga; **to go ~** pastga tushmoq; **to wait ~** pastda kutib turmoq.

downstream [ˌdaunˈstri:m] *adv* oqimga qarab pastga.

downthrow [ˈdaunθrəu] *n geol.* uzilma (*tog' jinslarining uzilib tushishi*); uzilib siljib tushgan tog' jinsi.

downtime [ˈdauntaɪm] *n* noilojlik, bekor turib qolish.

downtown [ˌdaun ˈtaun] **1.** *n* 1) shahar markazi; 2) shaharning savdo markazi; **2.** *a* shahar markazida joylashgan.

downtrodden [ˈdauntrɔdn] *a* ruhan ezilgan, g'amgin, boshi qotgan.

downturn [ˈdauntə:n] *n* 1) bukilgan joy, bukik, egik; 2) (*iqtisod*) inqiroz, tanazzul.

downward [ˈdaunwəd] **1.** *a* 1) tushuvchi, pasayuvchi, pastga yo'nalgan, qiya; **~ movement** past tomon harakat; **~ tendency** pasayishga moyillik; 2) pasayib borayotgan, tanazzulga yuz tutgan; **~ career** martabada (*lavozimda*) pasayish; 3) ezilgan, g'amgin, qayg'uli; **~ thoughts** noxush xayollar; **2.** *adv* 1) pastga, qiyalik bo'ylab; 2) borgan sari yomon, yomondan-yomon.

downy [ˈdaunɪ] *a so'zl.* 1) parli, momiqli, tivitli; 2) ayyor, hiylagar, quv, shayton, mug'ambir, shum.

dowry [ˈdaurɪ] *n* 1) sep; qalin; 2) qobiliyat, iste'dod.

dowse [dauz] *v* tol novdasi vositasida yerosti suvlari *yoki* minerallar borligini aniqlamoq.

dowsing-rod [ˈdauzɪŋrɔd] *n* yerosti suvlari *yoki* mineral borligini aniqlaydigan (tol novdasi) sehrli novda (*qadimgi afsonalarda*).

doxy [ˈdɔksɪ] *n* 1) ta'limot, nazariya; 2) ishonch, e'tiqod, maslak; 3) fohisha, buzuq, g'ar.

doyen [ˈdɔɪən] *fr. n* oqsoqol, boshliq (*diplomatlar hay'atida*).

doze [dəuz] **1.** *n* mudroq, pinak, uyqusirash; **2.** *v* mudroq bosmoq, mudramoq, uyqusiramoq.

dozen [ˈdʌzn] *n* dujina (*o'n ikki dona*).

dozy [ˈdəuzɪ] *a* mudroq bosgan, uyqu aralash, uyqudagi, uyqusiragan, mudragan.

drab [dræb] **1.** *a kit.* sarg'ish-jigarrang; xira jigarrang mato; **2.** *n* 1) isqirt ayol; 2) *og'z.* fohisha, buzuq, g'ar.

drabbet [ˈdræbɪt] *n* oqartirilmagan (yaxshi ishlanmagan) mato.

drabble [ˈdræbl] *v* kir qilmoq, ifloslamoq, sachratmoq.

drachma [ˈdrækmə] *n* (*pl* **-mae, -mas** [-məz]) draxma (*qadimgi Gretsiya tangasi*).

Draco [ˈdreɪkəu] *n* 1) *astr.* Ajdar (*yulduzlar turkumidan biri*); 2) *zool.* qanotli kaltakesak.

Draconian, Draconic [dre ˈkəunɪən, drə ˈkɔnɪk] *a* juda qattiq, shafqatsiz, yovuz.

draft [drɑ:ft] **1.** *n* 1) reja, chizma; **~ for a machine** mashina chizmasi; 2) loyiha, qoralama, eskiz; **first ~** dastlabki (*qoralama*) loyiha; **2.** *v* eskiz tayyorlamoq, qoralama qilmoq; reja (loyiha) tuzmoq; **to ~ drawing** tasvirini chizmoq.

draftee [drɑ:fˈti:] *n harb.* harbiy xizmatga chaqiriluvchi.

drafter [ˈdrɑ:ftə] *n* aravaga qo'shiladigan ot.

drafting [ˈdrɑ:ftɪŋ] *n* 1) tuzish (*hujjat, qonun loyihasini*); 2) chizmachilik.

draftsman [ˈdrɑ:ftsmən] *n* 1) chizmachi, chizmakash; 2) qonun loyihasining muallifi.

draftsmanship [ˈdrɑ:ftsmənʃɪp] *n* chizmachilik, chizmachilik san'ati.

drag [dræg] *v* 1) tashimoq, sudramoq; **to ~ a net** to'rni tortmoq; 2) sudrab olib kelmoq; 3) azoblamoq, ezmoq.

dragee [dræˈʒeɪ] *n fr.* mayda dumaloqlangan narsa, konfet, vitamin va b.lar.

draggle [ˈdrægl] *v* bulg'amoq, kir qilmoq.

draggle-tail [ˈdrægleɪl] *n* 1) kir etak (*bar*); 2) isqirt (*ko'pincha bolalar haqida*).

drag-net [ˈdrægnet] *n* 1) to'r (*baliq ovlaydigan*); 2) to'r (*qush ovlaydigan*).

dragoman [ˈdrægəmən] *n* tilmoch, tarjimon (*sharq mamlakatlaridagi Yevropa elchixonalarida*).

dragon [ˈdrægən] *n* 1) ajdaho, ajdar; 2) iblis, shayton; 3) beshafqat kishi, qattiqqo'l kishi.

dragon-fly [ˈdrægənflaɪ] *n* ninachi.

dragon's-blood ['drægənzblʌd] *n* ajdar *yoki* ilon qoni (*drakon daraxtining qizil smolasi*).
dragon's teeth ['drægənzti:θ] *n* 1) *mif.* ajdaho tishi; 2) *harb.* tankka qarshi to'siq.
dragoon [drə'gu:n] *n* dragun (*chor armiyasi va ba'zi chet el armiyalarida: ham otda, ham piyoda harakat qila olgan otliq askar*).
drain [dreɪn] *v* quritmoq, zaxini qochirmoq (*yerni*).
drainage ['dreɪnɪdʒ] *n* 1) yerning zaxini qochirish, quritish; 2) kanalizatsiya (*axlat, chiqindi va yog'in suvlari oqiziladigan quvurlar tarmog'i*).
drainage-tube ['dreɪnɪdʒtju:b] *n tib.* drenaj naychasi.
drake [dreɪk] *a* o'rdak.
dram[dræm] **1.** *n* ho'plam, qultum; **2.** *v* spirtli ichimlik ichmoq.
drama ['drɑ:mə] *n* drama.
dramatic [drə'mætɪk] *a* 1) dramatik, teatrga oid, dramaturgiyaga oid; **~ performance** teatr tomoshasi; **~ reading** badiiy o'qish; 2) og'ir, mushkul, jiddiy; 3) kuchli taassurot qoldiradigan, dabdabali.
dramatics [drə'mætɪks] *n* 1) drama san'ati; 2) spektakl.
dramatis personae ['drɑ:mətɪspə:'səunaɪ] *n pl lot.* ishtirok etuvchilarning ro'yxati.
dramatist ['dræmətɪst] *n* drama yozuvchi adib, dramaturg.
dramatization [ˌdræmətaɪ'zeɪʃn] *n* dramalashtirish.
dramatize ['dræmətaɪz] *v* 1) sahnalashtirmoq; 2) vahima qilmoq.
dramaturge ['dræmətə:dʒ] = **dramatist.**
dramaturgic [ˌdræmə'tə:dʒɪk] *a* dramaturgiyaga oid.
dramaturgist ['dræmətə:dʒɪst] = **dramatist.**
dramaturgy ['dræmətə:dʒɪ] *n* dramaturgiya (*dramatik asarlar yozish nazariyasi va san'ati*).
dram-drinker ['dræmˌdrɪŋkə] *n* araqxo'r, ichkilikboz.
dram-shop ['dræmʃɔp] *n* 1) bar (*kichkina restoran, mayxona*); 2) pivoxona.
drank [dræŋk] *past.* **drink 2** *dan.*
drape [dreɪp] **1.** *v* parda tutmoq; parda va gilamlar tutib yasatmoq; **2.** *n* 1) gazmol; mato; 2) eshik parda.
drapery ['dreɪpərɪ] *n* gazlama, gazmol, to'qima.
drastic ['dræstɪk] *a* qattiq (*kuchli*) ta'sir qiladigan (*dori haqida*).
drastically ['dræstɪkəlɪ] *adv* dadil, jasur, qat'iy, tortinmay, keskin.
dratted ['drætɪd] *a* la'nati, la'natlangan, la'nat o'qilgan.
draught [drɑ:ft] *n* 1) tortish; **beasts of ~** ot ulov; ish hayvonlari; 2) qultum; **~ of water** bir qultum suv; 3) yelvizak, yutish, yutinish; 4) *pl* shashka.
draughtboard ['drɑ:ftbɔ:d] *n* 1) shashka taxtasi; 2) chizma chizish taxtasi.
draughtsman ['drɑ:ftsmən] *n* chizmachi, chizmakash.
draughty ['drɑ:ftɪ] *a* yelvizakda joylashgan.
draw I [drɔ:] **1.** *n* 1) tortish, tortib chiqarish; sug'urib chiqarish; **2.** *v* **(drew; drawn)** 1) tortmoq, sudramoq; **to ~ a train** poyezdni tortmoq; **to~ a net** to'rni tortmoq; 2) tortib (*surib*) qo'ymoq, yaqinlashtirmoq; **to ~ a book towards oneself** kitobni o'zi tomon tortib (surib) qo'ymoq; 3) tortmoq; **to ~ a rope** arqonni tortmoq; 4) o'ziga tortmoq, jalb qilmoq; **to ~ smb.'s attention** birovning e'tiborini jalb qilmoq; 5) tortib olmoq, sug'urib olmoq; **to ~ a nail** mixni sug'urib olmoq; **to ~ a tooth** tishni sug'urmoq.
draw II [drɔ:] *v* **(drew; drawn)** rasm solmoq, rasm chizmoq; **to ~ cartoons** hajviy rasm chizmoq.
drawback ['drɔ:bæk] *n* 1) kamchilik, nuqson; 2) to'siq, g'ov.
drawbridge ['drɔ:brɪdʒ] *n* ko'tarma (*ikki tomonga ajraladigan*) ko'prik.
drawer ['drɔ:ə] *n* 1) bufetchi, ofitsiant; 2) chizmachi, chizmakash; 3) hujjat tuzuvchi; 4) tortma (*stol, javon va b.larda*).
drawers [drɔ:z] *n* ishton (*erkaklar ishtoni*).
drawing ['drɔ:ɪŋ] *n* 1) chizmachilik; 2) chizma, rasm, tasvir; **~ of a tree** daraxtning tasviri.
drawing-bench ['drɔ:ɪŋbentʃ] *n tex.* cho'zadigan dastgoh.
drawing-block ['drɔ:ɪŋblɔk] *n* rasm daftar.
drawing-board ['drɔ:ɪŋbɔ:d] *n* chizmachilik taxtasi.
drawing card ['drɔ:ɪŋkɑ:d] *n* dasturning eng muhim (qiziq) joyi.
drawing-knife ['drɔ:ɪŋnaɪf] *n* randa, o'roqranda.
drawing-machine ['drɔ:ɪŋməˌʃi:n] *n tex.* 1) yuk ko'taradigan mashina; 2) chizadigan moslama.
drawing-paper ['drɔ:ɪŋˌpeɪpə] *n* rasm chizish *yoki* chizmachilik qog'ozi.
drawing-pen ['drɔ:ɪŋpen] *n* reysfeder (*tush bilan chiziq chizadigan asbob*).
drawing-pin ['drɔ:ɪŋpɪn] *n* chizmachilik *yoki* konselariya knopkasi.
drawing-room ['drɔ:ɪŋrum] *n* 1) mehmonxona; mehmonlar; 2) rasmiy qabul (*ayniqsa saroyda*); 3) chizma chizishga mo'ljallangan zal.
drawl [drɔ:l] **1.** *n* cho'ziq talaffuz; **2.** *v* so'zni cho'zib talaffuz qilmoq.
drawn [drɔ:n] *a* 1) buzilgan, o'zgarib ketgan; **~ face** o'zgarib ketgan yuz; 2) erigan; **~ butter** erigan moy.
draw-well ['drɔ:wel] *n* quduq (*arqondagi chelagi bilan*).
dray [dreɪ] *n* arava, ot arava.
dray-horse ['dreɪhɔ:s] *n* aravaga qo'shiladigan ot, aravakash ot.
drayman ['dreɪmən] *n* kirakash arava haydovchisi.
dread [dred] **1.** *n* qo'rqinch; vahima; **2.** *v* qo'rqmoq; vahima qilmoq.

dreadful ['dredfl] *a* 1) dahshatli, dahshatga soladigan, qo'rqinchli; vahimali; ~ **monster** dahshatli mavjudot; 2) yaramas, juda yomon; ~ **weather** juda yomon ob-havo.

dreadnought ['dednɔ:t] *n* 1) *deng.* zirhli katta harbiy kema; 2) qalin movutdan tikilgan palto.

dream [dri:m] **1.** *n* 1) tush, tush ko'rish, uyqu; **to awake from a** ~ uyqudan uyg'onmoq; 2) orzu; **the land of ~s** orzular mamlakati; 3) rohat-farog'at, go'zallik; ~ **of delight** jannat lazzati; **2.** *v* (**dreamed; dreamt**) 1) ~ **about** tush ko'rmoq; **you must have ~t** tushingda ko'rgan bo'lsang kerak; 2) ~ **of** orzu qilmoq, xayol surmoq; **to** ~ **of happiness** baxtli bo'lishni orzu qilmoq.

dreamer ['dri:mə] *n* xayolparast, hayotdan uzilib qolgan kishi, orzu-xayollarga beriluvchan odam.

dream-hole ['dri:mhəul] *n* minorada yoritishni yaxshilashga xizmat qiladigan tuynuk.

dreamily ['dri:mılı] *adv* 1) xayol surgan, (*xayolga botgan, orzu-xayollarga cho'mgan*) holda; 2) tushdagidek.

dream-land ['dri:mlænd] *n* afsonaviy mamlakat.

dreamlike ['dri:mlaık] *a* afsonaviy, xayoliy.

dreamt [dremt] *past., p. p.* **dream 2** *dan.*

dream-world ['dri:mwə:ld] = **dream-land**.

dreamy ['dri:mı] *a* xayolparast, o'ychan, xayolchan, orzu-xayollarga beriluvchan.

drear [drıə] **dreary** *ga qarang.*

dreary ['drıərı] *a* qayg'uli, g'amgin, ma'yus, xafa, noxush.

dredge [dredʒ] **1.** *n tex.* suv ostidagi oltin, kumush kabi metallarga boy jinslarni oladigan, shuningdek suv ostini kovlaydigan mashina; **2.** *v* 1) draga yordamida suv ostidan foydali qazilma olmoq *yoki* suv ostini chuqurlatmoq; 2) suv ostini chuqurlashtirish ishlarini olib bormoq.

dredger ['dedʒə] *n* 1) suv havzalarini chuqurlashtirib loy-balchiqlarni chiqarib tashlaydigan mashina (*ekskavator*); 2) qopqog'i teshikli idish (*murchdon singari; shakar yoki un sepish uchun kichkina teshigi bo'lgan idish*).

dree [dri:] *v og'z.* qiynalmoq, azoblanmoq, chidamoq, dosh bermoq.

dreg [dreg] *n pl* chiqitlar, qoldiqlar, sarqitlar; ~ **of a society** jamiyat sarqitlari.

dreggy ['dregı] *a* loyqa, loyqalangan; axlatli.

dregs [dregz] *n* qoldiq, yuvindi.

drench [drentʃ] **1.** *n* 1) bo'kish, ho'l bo'lish; 2) jala, sharros yomg'ir; **2.** *v* 1) jala yog'moq, sharros yomg'ir yog'moq; 2) suv o'tkazmoq, nam tortmoq; namlamoq, ho'llamoq.

drencher ['drentʃə] *n* 1) jala, sharros yomg'ir; 2) yomg'ir yog'dirish moslamasi; 3) dori quyishga mo'ljallangan moslama (*hayvonlar og'ziga*).

dress [dres] **1.** *n* 1) ko'ylak, kiyim; **morning** ~ uyda kiyiladigan ko'ylak, xalat-ko'ylak; **fancy** ~ maskarad kiyimi; 2) libos, qatlam, qatlama; **spring** ~ bahorgi libos (*daraxtlarda*); **2.** *v* 1) kiyintirmoq, yasantirmoq; **to** ~ **a child** bolani kiyintirmoq; 2) bezamoq, yasatmoq; **to** ~ **a shop-window** vitrinani bezamoq.

dressage ['dresɑ:ʒ] *n fr.* otni minishga o'rgatish, minib sovitish.

dress-circle [ˌdres'sə:kl] *n* ikkinchi qavat, boloxona.

dress coat [ˌdres'kəut] *n* 1) frak (*oldingi etagi qisqa, orqa etagi uzun erkaklar kiyimi*); 2) *harb.* parad libosi.

dresser ['dresə] *n* 1) bezatuvchi; 2) *teatr.* kiyim-kechak mutasaddisi; 3) *tib.* yordamchi (*operatsiya, yarani bog'lash vaqtida*); jarrohlik hamshirasi; 4) tokchali oshxona stoli; oshxona javoni (*idish-tovoq uchun*); 5) pardoz stoli *yoki* ko'zguli javon.

dress-guard ['dresgɑ:d] *n* (*ayollar velosipedidagi*) saqlash to'ri.

dressing ['dresıŋ] *n* 1) kiyim kiyish (*jarayon*); 2) kiyim; 3) yara bog'laydigan material.

dressing-bag ['dresıŋbæg] = **dressing-case**.

dressing-bell ['dresıŋbel] *n* tushlik uchun kiyinish vaqti bo'lganligini anglatuvchi qo'ng'iroq.

dressing-case ['dresıŋkeıs] *n* bog'lash materiallarini soladigan quti.

dressing down [ˌdresıŋ'daun] *n* qattiq gap, koyish, tanbeh, jazolash.

dressing-gown ['dresıŋgaun] *n* 1) xalat; 2) ayollarning uyqudan turganda kiyib oladigan yengil yaktak bichim ko'ylagi.

dressing-room ['dresıŋru:m] *n* pardoz xonasi.

dressing station ['dresıŋˌsteıʃn] *n harb.* maxsus bog'lash joyi; birinchi yordam ko'rsatish joyi.

dressing-table ['dresıŋˌteıbl] *n* 1) pardoz stoli; 2) bog'lash stoli.

dressmaker ['dresˌmeıkə] *n* tikuvchi ayol, chevar.

dressmaking ['dresmeıkıŋ] *n* ayollar ko'ylagini tikish.

dress rehearsal [ˌdresrı'hə:sl] *n* oxirgi (*so'nggi*) tayyorgarlik (*repetitsiya*).

dress-shield ['dresʃi:ld] *n* qo'ltiqlik, qo'ltiqqa tikiladigan narsa.

dressy ['dresı] *a* 1) yaxshi kiyinishni yoqtiradigan; 2) zamonaviy (*kiyim to'g'risida*).

drew [dru:] *past.* **draw I, II** *dan.*

drey [dreı] *n* olmaxon uyasi.

dribble ['drıbl] *v* 1) tommoq, tomchilamoq; 2) so'lagini oqizmoq.

dribblet ['drıblət] *n* 1) oz miqdordagi pul; 2) qittak, ozgina; **by (in)** ~ **s** oz-ozdan tomchilab.

dried [draıd] *a* quritilgan qoqi; ~ **melon(s)** qovun qoqi; ~ **milk** sut kukuni.

drier ['draıə] *n* quritiladigan modda, quritgich, quritish moslamasi.

drift [drıft] **1.** *n* 1) oqim, **to be on the** ~ oqim bo'ylab suzish; 2) yo'nalish; **2.** *v* 1) olib ketmoq, oqizib ketmoq (*shamol, suv bilan*); 2) oqim bo'ylab suzmoq.

drift apart [drɪftə´pɑ:t] *v* tarqalib ketmoq.
driftage [´drɪftɪdʒ] *n* 1) kema, muzlik va sh. k.ning shamol va oqim bilan siljib yurishi; 2) oqizib ketish (*kema to'g'risida*); 3) dengiz qirg'ogiga chiqarib tashlangan narsalar.
drifter [´drɪftə] *n* 1) drifter (*baliqchilik kemasi*); 2) drifterda suzuvchi baliqchi; 3) *amer. so'zl.* hech narsaga arzimaydigan odam; bemaqsad, sandiraqlab yuruvchi odam; 4) *amer.* daydi.
drift-ice [´drɪftaɪs] *n* suzib yuruvchi muz.
drift-wood [´drɪftwud] *n* oqiziladigan yog'och.
drill I [drɪl] **1.** *n tex.* parma, burg'u, drel; **2.** *v* parmalamoq, teshik ochmoq, burg'ilamoq.
drill II [drɪl] **1.** *n* mashq, mashg'ulot; **to do one's ~** mashqlarni bajarmoq; **2.** *v* mashq qildirmoq.
drill III [drɪl] **1.** *n q.x.* 1) qatorlab ekadigan seyalka; 2) qatorlab ekish; 3) egat, ariq, jo'yak; **2.** *v* ekmoq; qatorlab ekmoq.
drill IV [drɪl] *n* tik (*gazlama*).
driller [´drɪlə] *n* 1) parmalovchi, burg'ilovchi (*ishchi*); 2) parmalash dastgohi.
drill ground [´drɪlgraund] *n harb.* mashq maydoni, harbiy mashq o'tkaziladigan maydon.
drillhole [´drɪlhəul] *n* burg'ilangan quduq.
drilling [´drɪlɪŋ] *n* 1) parmalash, burg'ilash; 2) mashq qildirish, o'rgatish.
drink [drɪŋk] **1.** *n* 1) ichish, ichimlik; **food and ~** oziq-ovqat va ichimlik; 2) ichimlik; **soft ~** spirtsiz ichimliklar; 3) qultum, yutum; **~ of water** bir qultum suv; **2.** *v* (**drank; drunk**) 1) ichmoq; **to ~ a glass dry** qatra qoldirmay ichmoq; 2) ichmoq, ichkilikbozlik qilmoq; **to ~ hard** surunkali ichmoq; 3) ho'plamoq, totmoq, tatib ko'rmoq; **to ~ the cap of suffering** g'am-kulfat kosasini shimirmoq.
drinkable [´drɪŋkəbl] *a* ichishga yaroqli; ichsa bo'ladigan.
drinker [´drɪŋkə] *n* ichuvchi, ichkilikboz.
drinking-bout [´drɪŋkɪŋbaut] *n* surunkasiga ichish, bir ichsa ichaverish, mayparastlik, to'xtovsiz ichish.
drinking fountain [´drɪŋkɪŋ,fauntɪn] *n* suvi ichiladigan (ichib bo'ladigan) favvoracha.
drinking-horn [´drɪŋkɪŋhɔ:n] *n* shoxqadah (*hayvon shoxidan qilingan qadah*).
drinking-song [´drɪŋkɪŋsɔŋ] *n* ziyofatlarda jo'rlikda aytiladigan qo'shiq.
drinking-water [´drɪŋkɪŋ,wɔ:tə] *n* ichiladigan suv.
drip [drɪp] **1.** *n* tomish, tomchilash; tomchi; **2.** *v* tommoq, tomchilamoq, oqib tushmoq; **the tap is ~ ping** jo'mrakdan suv tomchilayapti.
drip-dry [,drɪp ´draɪ] *n* tez quriydigan mato.
dripping [´drɪpɪŋ] *n* tomish, tomchilab tushish.
dripping-pan [´drɪpɪŋpæn] *n* tunuka tova; tova.
drive [draɪv] **1.** *n* 1) yurish; sayr, safar (*otda, transportda*); **full ~** to'la tezlikda; **within two hour's ~ of Oxsford** Oksforddan ikki soatlik masofada; **to go for a ~** aylanib kelgani ketmoq; 2) yo'lka, xiyobon; so'qmoq; 3) haydash, quvish, ta'qib qilish (*dushmanni, hayvonni*); 4) hujum, zarba; 5) poyga, shoshilish; **armament(s) ~** qurollanish poygasi; **2.** *v* (**drove; driven**) 1) haydamoq, boshqarmoq; **to ~ car** mashina haydamoq; **to ~ in a car** mashinada ketmoq (*yurmoq*); 2) haydamoq, quvmoq; **to ~ cattle** mollarni haydamoq; **to ~ the clouds** bulutlarni haydamoq; 3) yelmoq, yeldek uchmoq; juda tez bormoq; **the ship drove across the waves** kema to'lqinlarni kesib yeldek uchib borardi; 4) haydab (*urib*) kirgizmoq; sanchmoq; **to ~ a wedge** a) pona qoqmoq; b) *harb.* suqilib kirmoq; 5) tezlashtirmoq, qistovga olmoq; **to ~ a committee** komissiyani shoshiltirmoq (*qistovga olmoq*); 6) ta'qib qilmoq, haydamoq; haydab chiqarmoq, chekintirmoq (*dushmanni*); **to ~ the invader across the border** bosqinchilarni mamlakat hududidan haydab chiqarmoq; 7) yuritmoq, olib bormoq (*ish va b.larni*); **to ~ a trade** savdoni boshqarmoq.
drive-in [´draɪvɪn] *n* (*mijozlarga bevosita avtomobilda xizmat ko'rsatiladigan*) do'kon, bank *yoki* ustaxona.
drivel [´drɪvl] *n* bekorchi gap, safsata, bema'ni gap.
driveler [´drɪvlə] *n amer.* tentak vaysaqi, tentak, esi past, ovsar odam.
driven [´drɪvn] *p.p.* **drive 2** *dan.*
driver [´draɪvə] *n* 1) haydovchi; 2) izvoshchi, kucher; 3) haydovchi (*mol, poda*); 4) operator; **crane ~** kranchi; 5) *tex.* dvigatel.
driveway [´draɪvweɪ] *n* yo'l; o'tiladigan (transport yuradigan) yo'l.
driving [´draɪvɪŋ] **1.** *n* 1) (*otda, aravada, mashinada*) yurish, sayr qilish; 2) haydash (*avtomobilni*); 3) *tex.* uzatmaga oid, uzatma; **2.** *a* 1) haydayotgan; 2) harakatlantiruvchi; harakatga keltiruvchi; **~ age** shiddatli (*jo'shqin*) zamon; 3) kuchli, juda kuchli, quturgan; **~ storm** dovul; **~ rain** kuchli yomg'ir; 4) *tex.* yetaklovchi (*harakatga keltiruvchi*); **~ machine** dvigatel.
driving-axle [´draɪvɪŋ,æksl] *n* yetaklovchi o'q.
driving-belt [´draɪvɪŋbelt] *n* uzatma tasmasi (qayishi).
driving force [´draɪvɪŋfɔ:s] *n* harakatlantiruvchi kuch.
drizzle [´drɪzl] **1.** *n* maydalab yog'gan yomg'ir; shivillab yog'gan mayda yomg'ir; **2.** *v* maydalab yog'moq, tomchilab yog'moq.
droit [drɔɪt] *n* yuridik huquq; alohida huquq.
droll [drəul] **1.** *n* qiziqchi, hazilkash, masxaraboz; **2.** *a* qiziq, ajib, g'alati, kulgili, alomat; **3.** *v* hazillashmoq, hazil qilmoq, masxarabozlik qilmoq.
drollery [´drəulərɪ] *n* hazil-mutoyiba, hazil.
drome [drəum] = **aerodrome.**
dromedary [´drʌmədərɪ] *n zool.* nortuya, bir o'rkachli tuya.

drone [drəun] **1.** *n* 1) erkak asalari; 2) tekinxo'r, haromtomoq; 3) *av.* uchuvchisiz hujum vositasi; boshqariladigan snaryad; uchuvchisiz samolyot: **2.** *v* 1) bekor yurmoq, birovning hisobiga yashamoq; 2) sarflamoq, bemaqsad sarflamoq; 3) g'uvillamoq.

droningly ['drəunɪŋlɪ] *adv* bir xil, bir zayldagi.

drool [dru:l] *v* so'lagini oqizmoq.

droop [dru:p] **1.** *n* 1) qiyalik; pasayish; 2) bukurlik, bukchayganlik; **to walk with a ~** bukchayib yurmoq; **2.** *v* 1) egilmoq, engashmoq, osilib turmoq; **the branches ~ ed over the water** novdalar suv ustida osilib turardi; 2) tushmoq, sirpanib tushmoq.

drop [drɔp] **1.** *n* 1) tomchi; **~ of rain** yomg'ir tomchisi; 2) bir tomchi; qultum, ozgina; **~ of tea** bir qultum choy; 3) *pl tib.* tomchilar; 4) obaki; **chocolate ~s** shokolatga belangan obaki; 5) tushish, pasayish; **a great ~ in prices (temperature)** narxlarning (*haroratning*) keskin tushishi; **2.** *v* 1) tomchilamoq, tomib tushmoq; 2) tushmoq, tushib ketmoq, tushirib yubormoq; **to ~ a book** kitobni tushirib yubormoq; 3) tashlamoq, tushirmoq; **to ~ anchor** langar tashlamoq; 4) yiqilmoq, tashlamoq, tushmoq; **to ~ into a chair** stulga o'tirmoq; 5) o'lmoq, vafot etmoq **(~ off) men ~ ped like flies** odamlar pashshadek qirildi; 6) toshmoq, pasaymoq, kamaymoq, tinchimoq; **the production of oil ~ ped** neft qazib olish pasaydi; 7) tushmoq, tushirmoq; **her eyes ~ ped** u ko'zlarini tushirdi; **~ across** tanbeh bermoq; jazolamoq; **~ away** tomchilab oqib ketmoq; bitta-bittadan bo'lib ketmoq; **~ back** *sport. harb.* chekinmoq, orqaga qaytmoq; **~ behind** orqada qolmoq; **~ in** kirmoq, ko'rgani kirmoq; **~ off** chiqmoq; bittadan bo'lib ketmoq.

drop-curtain ['drɔp,kə:tn] *n teatr.* tushiriladigan parda.

drop-hammer ['drɔp,hæmə] *n* kopyor (*1. qurilishlarda qoziq qoqadigan qurilma; 2. laboratoriyalarda materiallarning zarbga chidamliligini aniqlaydigan moslama*).

drop-leaf ['drɔpli:f] *n* qaytarma taxta (*stolda*).

droplet ['drɔplət] *n* mayda tomchi.

drop-letter ['drɔp,letə] *n amer.* mahalliy xat.

drop-out ['drɔpaut] *n so'zl.* chiqarib yuborilgan (haydalgan) odam.

dropping ['drɔpɪŋ] *n* tomish, tomchilash.

dropping-gear ['drɔpɪŋgɪə] *n av.* bomba tashlagich.

dropsical ['drɔpsɪkl] *a tib.* shishgan, shishib ketgan.

dropsy ['drɔpsɪ] *n tib.* istisqo (*kasallik*).

dross [drɔs] *n tex.* metall zaki, to'pon.

drought [draut] *n* qurg'oqchilik, quruqchilik, yomg'irsizlik.

drove I [drəuv] *n* poda, gala; **~ of horses** otlar uyuri.

drove II [drəuv] *v past.* **drive 2.** *dan.*

drover ['drəuvə] *n* 1) podachi, mol haydovchi; 2) mollarni semirtirib sotuvchi.

drown [draun] *v* 1) cho'kmoq, cho'ktirmoq; **to be ~ed** cho'kib ketmoq; 2) botirmoq, suv bosmoq; **to ~ the land** joyni suv bosmoq.

drowned [draund] *a* 1) cho'kkan, cho'kib ketgan; 2) botgan, suvga botgan.

drowse [drauz] **1.** *v* mudramoq, pinakka ketmoq, ko'zi ilinmoq; **2.** *n* mudroq, pinak, mudrash.

drowsily ['drauzɪlɪ] *adv* uyquli (*uyqusiragan, uyqu bosgan*) holda.

drowsy ['drauzɪ] *a* 1) uyquga oid, uyqudagi; 2) uyqusiragan, uyqu bosgan.

drub [drʌb] *v* urmoq, taqillatmoq, qoqmoq.

drubbing ['drʌbɪŋ] **1.** *pres. p.* **drub** *dan*; **2.** *n* urish, kaltaklash..

drudge [drʌdʒ] **1.** *n* og'ir ishni bajaradigan kishi; **2.** *v* og'ir ishni bajarmoq.

drudgery ['drʌdʒərɪ] *n* og'ir ish.

drudgingly ['drʌdʒɪŋlɪ] *adv* qunt qilib, harakat qilib.

drug [drʌg] *n* 1) dori-darmon, dori, dorivor; 2) narkotik, giyohvand modda; **~ plant** dorivor o'simliklar.

druggist ['drʌgɪst] *n* dorixona egasi, dorixona xodimi; dorishunos.

drugstore ['drʌgstɔ:] *n amer.* dorixona.

drum [drʌm] **1.** *n* 1) do'mbira; nog'ora; 2) *anat.* quloq pardasi; **2.** *v* 1) do'mbira (nog'ora) chalmoq; 2) g'ong'illamoq (*hasharotlar to'g'risida*).

drumbeat ['drʌmbi:t] *n* do'mbira chalish; 2) payt, lahza.

drumfire ['drʌm,faɪə] *n harb.* dovuldek o'q yog'dirish, o'q yomg'iri; yomg'irdek yoqqan o'q.

drumhead ['drʌmhed] *n* do'mbira terisi.

drum major ['drʌmmeɪdʒə] *n* polkning katta barabanchisi.

drummer ['drʌmə] *n* 1) nog'orachi, do'mbirachi.

drumstick ['drʌmstɪk] *n* 1) baraban (nog'ora) cho'pi; 2) qaynatilgan *yoki* qovurilgan parrandaning oyog'i.

drunk [drʌŋk] **1.** *p. p.* **drink 2** *dan*; **2.** *predic.* 1) mast; **blind ~** o'lguday mast, g'irt mast; 2) zavqi oshgan, mast bo'lgan; 3) beqaror.

drunkard ['drʌŋkəd] *n* ichkilikboz, araqxo'r.

drunken ['drʌŋkən] *a* mast, shirakayf.

drupaceous [dru:'peɪʃəs] *a bot.* danakli (*meva to'g'risida*).

drupe [dru:p] *n bot.* danakli meva.

drupel(et) ['dru:pl(ɪt)] *n bot.* danak.

dry [draɪ] **1.** *n* 1) quruq; qurg'oqchilik; quruq obhavo; 2) quruqlik; 3) (*pl* **drys** [draɪz]) *amer. so'zl.* spirtli ichimliklarni taqiqlash tarafdori; **2.** *a* 1) quruq; **~ clothing** quruq kiyim; **with ~ eyes** ko'z yoshisiz; 2) namsiz; suvi qochirilgan; **~ weight** quritilgan material og'irligi; **~ concrete** qattiq

beton; 3) surilmagan, yog'siz, murabbosiz; ~ **bread** yog' surilmagan non; 4) quruq, namgarchilik kam bo'lgan; ~ **year** namgarchilik kam bo'lgan yil; ~ **summer** quruq yoz; 5) qurigan, qurib qolgan; 6) quruq, muloyim, sovuq; ~ **answer** quruq (*vazmin*) javob; ~ **facts** quruq dalillar; 7) quruqlikda; quruqlikda bo'lgan; 8) qattiq, to'kiladigan (*suyuq emas*); **3.** *v* 1) quritmoq; namini qochirmoq; **to ~ herbs** o'tlarni quritmoq; 2) artmoq (*quruq qilib*); **to ~ one's hands (an a towel)** qollarni artmoq (*sochiq bilan*); 3) sog'ishni to'xtatmoq; sut bermay qo'ymoq (*sigir to'g'risida*).

dry-bob ['draɪbɔb] *n* 1) sport bilan shug'ullanuvchi (*suv sporti bilan emas*); 2) sportni yaxshi ko'radigan kishi (*suv sportini emas*).

dry-cargo ship [ˌdraɪkɑ:gəu'ʃɪp] *n* quruq yuk tashiydigan kema.

dry-clean [ˌdraɪ'kli:n] *v* kimyoviy yo'l bilan tozalamoq.

dry-cleaners [ˌdraɪ 'kli:nəz] *n pl* kimyoviy yo'l bilan tozalaydigan joy.

dry-cleaning [ˌdraɪ'kli:nɪŋ] **1.** *pres. p.* **dry-clean** *dan*; **2.** *n* kimyoviy tozalash (*jarayon*).

dryer ['draɪə] *n* 1) qurituvchi; 2) quritadigan apparat.

dry-fly ['draɪflaɪ] *n* yolg'ondakam pashsha (*baliq tutishda ishlatiladi*).

dry goods ['draɪgudz] *n* gazmol, mato; attorlik mollari.

dryish ['draɪɪʃ] *a* quruq, namsiz, qaqragan, qurg'oq.

dry-nurse [ˌdraɪ'nɔ:s] **1.** *n* enaga, bolaga qaraydigan ayol; **2.** *v* yosh bolaga qaramoq, enagalik qilmoq.

dry-point ['draɪpɔɪnt] *n* kislotasiz o'yib rasm solish uchun igna.

dry-rot [ˌdraɪ'rɔt] *n* 1) ma'naviy tushkunlik, zavol; 2) ma'naviy (axloqiy) buzuqlik.

dry-salter ['draɪˌsɔ:ltə] *n* 1) bo'yoqchilik mollari sotuvchisi; 2) quritilgan mahsulotlar va konservalar sotuvchi kishi.

drysaltery ['draɪˌsɔ:ltərɪ] *n* 1) bo'yoqchilik mollari do'koni; 2) bo'yoqchilik mollari savdosi.

dry-shod [ˌdraɪ'ʃɔd] *a* suvga tegizmasdan; **to pass over** ~oyoqlarni ho'l qilmay o'tmoq.

dry wall ['draɪwɔ:l] *n* loysiz g'isht terib qurilgan devor.

dual ['dju:əl] **1.** *a* 1) ikkilangan; ~ **nationality (citirenship)** ikki (*qo'sh*) fuqarolik; 2) ikki xil; ikki taraflama; ~ **personality** *tib.* o'zini boshqa odam deb fahmlash (*ruhiy kasallik turi*); ~ **ownership** qo'sh egalik, birgalikda egalik qilish; **2.** *n gram.* ikkilik son.

dualism ['dju:əlɪzm] *n* 1) *fals.* dualizm (*dunyoning negizi materiya bilan ruh deb biluvchi idealistik falsafiy ta'limot*); 2) ikki taraflamalik.

duality [dju:'ælətɪ] *n* ikki taraflamalik, ikkilanganlik, ikkilanish.

dualize ['dju:əlaɪz] *v* ikkiga (bo'lmoq) ajratmoq.

dub [dʌb] **1.** *v* 1) kesmoq, kesib tashlamoq; 2) filmga ovoz bermoq, dublaj qilmoq; **2.** *n amer.* beso'naqay odam, noshud (*qo'pol*) odam.

dubbin, dubbing ['dʌbɪn, 'dʌbɪŋ] *n* teriga suriladigan yog'.

dubiety [dju'baɪətɪ] *n* shubha, gumon, ikkilanish.

dubious ['dju:bɪəs] *a* shubhali, shubha tug'diradigan; ~ **character** shubhali shaxs.

ducal ['dju:kl] *n* gersoglarga (oid) qarashli; gersoglik.

ducat ['dʌkət] *n tar.* dukat (*ba'zi G'arbiy Yevropa mamlakatlarida: qadimgi kumush yoki oltin pul, tanga*).

duchess ['dʌtʃɪs] *n* gersoginya (*gersog xotini yoki qizi*).

duchy ['dʌtʃɪ] *n* gersoglik; ~ **rights** gersoglik huquqi.

duck [dʌk] **1.** *n* 1) *zool.* o'rdak; 2) suvga sho'ng'ish, kalla tashlash; suvga botirish; 3) dag'al mato, gazlama; **2.** *v* suvga sho'ng'imoq, kalla tashlamoq.

duckbill ['dʌkbɪl] *n zool.* o'rdakburun (*Avstraliyada: tuxumidan bola ochadigan bir xil sutemizuvchi hayvon*).

duck-boards ['dʌkbɔ:dz] *n pl* taxta to'shama, yog'och kat.

ducket ['dʌkɪt] *n* 1) lotereya chiptasi; 2) *amer.* kasaba uyushmasining bileti.

duck-hawk ['dʌkhɔ:k] *n zool.* bo'ktargi (*yirtqich qush*).

ducking ['dʌkɪŋ] **1.** *pres. p.* **duck 2** *dan*; **2.** *n* sho'ng'ish.

duckling ['dʌklɪŋ] *n* o'rdak bolasi.

duck-out ['dʌkaut] *n harb.* qochoqlik, qochish.

duck's-egg ['dʌkseg] *n* 1) o'rdak tuxumi; 2) nol hisobi (*kriket o'yinida*).

duck's meat ['dʌksmi:t] = **duckweed.**

duckweed ['dʌkwi:d] *n bot.* baqato'n.

ducky ['dʌkɪ] *n* jonginam, azizam.

duct [dʌkt] *n* 1) *anat.* yo'l, tomir; 2) daryo shaxobchasi, irmoq.

ductile ['dʌktaɪl] *a* 1) egiluvchan, qayishuvchan, cho'ziladigan; 2) bo'ysunadigan, itoatgo'y odam.

ductility [dʌk 'tɪlətɪ] *n* 1) egiluvchanlik; 2) itoatkorlik.

dud [dʌd] *a* foydasiz, yaroqsiz narsa, keraksiz.

dude [dju:d] *n* olifta, satang; quruq savlatli kishi.

dudgeon ['dʌdʒən] *n* 1) *tar.* xanjarning yog'ochli (sopi) dastasi; 2) xafalik, dilsiyohlik, ranj.

due [dju:] **1.** *n pl* yig'imlar, soliqlar, bojlar; badallar; **custom ~s** bojxona boji; **2.** *a* 1) kerak bo'lgan, tegishlicha; ~ **process of law** qonuniy tartib; **in ~ course** navbati bilan; tegishli vaqtda;

2) *predic.* talab etilgan, majbur; **he is ~ at his office on Monday** u idorasiga dushanba kuni kelishi kerak; 3) to'lanishi lozim bo'lgan; **~ date** qarzni to'lash muddati; 4) mos, tegishlicha; **~ penalty** munosib jazo.

duel [ˈdju:əl] *n* duel, yakkama-yakka olishuv; **to fight a ~** duelda olishmoq.

duellist [ˈdju:əlɪst] *n* duel qatnashchisi.

duenna [djuˈenə] *n* murabbiya (*boy oilalarda yosh bolalarni tarbiyalash uchun yollangan ayol*).

dues [dju:z] *n* to'lov, boj.

duet [dju: ˈet] *n mus.* duet (*1. ikki soz yoki ovoz uchun yozilgan musiqa asari; 2. shunday asarni ijro etish va uning ijrochilari*).

duett [dju ˈet] = **duet**.

duetto [djuˈetəu] = **duet.**

duff [dʌf] **1.** *n* 1) xamir; 2) chirindi; 3) ko'mir kukuni; **2.** *v* 1) yangilamoq; 2) aldamoq.

duffel [ˈdʌfəl] *n* jundan *yoki* ipdan paxmaytirib to'qilgan yumshoq mato; jundan ishlangan gazlama.

duffel-bag [ˈdʌfəlbæg] *n* xalta, qopcha, to'rva.

duffer [ˈdʌfə] *n* zehni yo'q, befarosat, befahm, esi past.

duffle [ˈdʌfl] = **duffel.**

duffle-coat [ˈdʌflkəut] *n* jungli (pahmoq) palto.

dug I [dʌg] *n* yelin, emchak (*hayvonlarniki*).

dug II [dʌg] *past., p. p.* **dig** *dan.*

dug-out [ˈdʌgaut] *n* 1) moki (*to'quv dastgohida*); 2) *harb.* bombapana; yerto'la.

duiker [ˈdaɪkə] *n zool.* antilopa, ohu.

duke [dju:k] *n* gersog (*G'arbiy Yevropada: yuqori tabaqa knazlarga va dvoryanlarga beriladigan unvon*).

dukedom [ˈdju:kdəm] *n* gersoglik (*1. gersog boshchiligidagi davlat; 2. gersog unvoni*).

dulcet [ˈdʌlsɪt] *a* 1) *she'r.* yoqimli, xushovoz, nozik; 2) *og'z.* shirin.

dulcify [ˈdʌlsɪfaɪ] *v* yoqimli, ko'ngildagidek qilmoq.

dulcimer [ˈdʌlsɪmə] *n mus.* simbal (*changsimon cholg'u asbobi*).

dull [dʌl] **1.** *a* 1) anqov, ongsiz, bema'ni; **~ brain** aqli past; 2) ezilgan, g'amgin; **~ mood** ma'yus kayfiyat; 3) zerikarli, zeriktiradigan; 4) o'tmas, charxlanmagan; **2.** *v* 1) shalpaytirmoq, lanj qilmoq; 2) o'tmaslashtirmoq; 3) xiralashtirmoq.

dullard [ˈdʌlɔd] *n* befarosat, befahm, esi past kishi.

dullish [ˈdʌlɪʃ] *a* 1) tentaknamo, ahmoqona; 2) o'tmaslashgan; 3) zerikarli.

duly [ˈdju:lɪ] *adv* kerakli tarzda, tegishlicha; o'z vaqtida; **to pay ~** o'z vaqtida (*muddatida*) to'lamoq.

dumb [dʌm] *a* 1) gung, kar-soqov; **~ from birth** tug'ma soqov; 2) tilsiz; **~ animals** tilsiz hayvonlar; 3) indamas, kamgap; sukut saqlaydigan; **to remain ~** sukut saqlamoq; 4) indamay *yoki* ovozsiz amalga oshiriladigan; **~ show** pantomima.

dumb-bell [ˈdʌmbel] **1.** *n sport.* gantel, gimnastika toshi; **2.** *v* gantellar bilan mashqlar bajarmoq.

dumbfound [dʌmˈfaund] *v* qattiq taajjublantirmoq, hayratga solmoq.

dumbfounded [dʌmˈfaundɪd] *a* esankirab qolgan, dovdirab qolgan.

dumbly [ˈdʌmlɪ] *adv* gapirmasdan, indamay.

dumbness [ˈdʌmnəs] *n* gunglik, soqovlik, tilsizlik.

dumb-waiter [ˌdʌmˈweɪtə] *n* ovqatni bir qavatdan boshqasiga yuborish uchun ishlatiladigan oshxonadagi kichkina lift.

dummy [ˈdʌmɪ] **1.** *n* qo'g'irchoq, tulum, model; **2.** *a* haqiqiy bo'lmagan, qalbaki, yasama, yolg'ondakam; **~ watch** o'yinchoq soat; **~ cartridge** *harb.* mashq patroni.

dump [dʌmp] **1.** *n* 1) axlat uyumi; 2) axlatxona; 3) *amer.* muvaqqat yog'och ombori; 4) *harb.* dala ombori; **2.** *v* 1) uymoq, to'plamoq; 2) chiqarib tashlamoq, ag'darmoq, tushirmoq; **to ~ coal** ko'mirni tushirmoq, ag'darmoq; 3) *iqt.* bozorni arzon mollar bilan to'ldirib yubormoq.

dump-car(t) [ˈdʌmpkɑ:(t)] *n* ag'darma arava *yoki* vagonetka.

dumping [ˈdʌmpɪŋ] *n* 1) ag'darish, tushirish, uyumlab (*betartib*) tushirish; 2) *iqt.* chet el bozorlarida molni arzon sotish.

dumpish [ˈdʌmpɪʃ] *a* qayg'uli, xafa, ma'yus.

dumpling [ˈdʌmplɪŋ] *n* 1) uzma pilak, pilakcha; 2) *og'z.* pakana, past bo'yli ayol.

dumps [dʌmps] *n pl* og'ir ahvol.

dumpy [ˈdʌmpɪ] *a* 1) baqaloq, yo'g'on; 2) ma'yus, g'amgin.

dun [dʌn] *n* qarzni to'lashni qat'iy talab qilish.

dunce [dʌns] *a* ovsar, esi past, befahm, befarosat, zehni past.

dunderhead [ˈdʌndəhed] *n* ahmoq, galvars, kallavaram.

dune [dju:n] *n* qumtepa (*shamol uchirib yuradigan qum uyumlari*).

dung [dʌŋ] **1.** *n* go'ng, o'g'it; **2.** *v* o'g'itlamoq, go'ng solmoq.

dungaree [ˌdʌŋgəˈri:] *n* dag'al ip gazlama.

dungarees [ˌdʌŋgəˈri:z] *n* kombinezon (*shimi bilan ko'ylagi birga qo'shib tikilgan ish kiyimi, korjoma*).

dung-beetle [ˈdʌŋˌbi:tl] *n* go'ngqo'ng'iz.

dungeon [ˈdʌndʒən] *n* zindon, yer ostidagi qamoqxona.

dung-fork [ˈdʌŋfɔ:k] *n* go'ng yuklaydigan panshaxa.

dunghill [ˈdʌŋhɪl] *n* go'ngto'da, go'ng uyumi.

dungy [ˈdʌŋɪ] *a* 1) go'ngga oid; 2) kir, iflos.

duniwassal [ˈdu:nɪwɔsəl] *n shotl.* kichik dvoryanin.

dunk [dʌŋk] *v* botirmoq, botirib olmoq; ho'llamoq, namlamoq, cho'ktirmoq.
dunnage [dʌnɪdʒ] *n* yukning tagiga solinadigan narsa.
duo [ˊdju:əu] *n mus.* duet (*1. ikki soz yoki ovoz uchun yozilgan musiqa asari; 2. shunday asarni ijro etish va uning ijrochilari*).
duodecimal [ˌdju:əu ˊdesɪml] *n* o'n ikkinchi qism.
duodecimo [ˌdju:əuˊdesɪməu] *n* varaqning 12 dan bir qismi shaklidagi kitob shakli.
duodenal [ˌdju:əu ˊdi:nl] *a anat.* : **~ ulcer** o'n ikki barmoqli ichakning yarasi.
duodenitis [ˌdju:əudi:ˊnaɪtɪs] *n tib.* o'n ikki barmoqli ichakning yallig'lanishi.
duodenum [ˌdju:əu ˊdi:nəm] *n anat.* o'n ikki barmoqli ichak.
duologue [ˊdju:əlɔg] = **dialogue.**
dupable [ˊdju:pəbl] = **dupeable.**
dupe [dju:p] **1.** *n* aldangan kishi; **2.** *v* 1) aldamoq; 2) ahmoq qilmoq.
dupeable [ˊdju:pəbl] *a* yolg'on gapga laqqa tushadigan.
duple [ˊdju:pl] *a mat.* ikki hissa ortiq, ikki marta ko'p.
duplex [ˊdju:pleks] *a* 1) ikki tomonlama, ikki taraflama; 2) ikki marta ko'p, ikki hissa.
duplicate 1. *n* [ˊdju:plɪkət] nusxa, ko'chirma; **2.** *v* [ˊdju:plɪkeɪt] nusxa ko'chirmoq.
duplication [ˌdju:plɪˊkeɪʃn] *n* 1) nusxa ko'chirish; 2) ikki baravar ko'paytirish.
duplicator [ˊdju:plɪkeɪtə] *n* nusxa ko'chiradigan apparat.
durability [ˌdjuərəˊbɪlətɪ] *n* mustahkamlik, qattiqlik, chidamlilik, sabotlilik, bardosh.
durable [ˊdjuərəbl] *a* mustahkam, ishonchli; chidamli, ustuvor.
duramen [dju ˊreɪmen] *n bot.* o'zak, mag'iz.
duration [dju ˊreɪʃn] *n* davom etish (cho'zilish) muddati.
durbar [ˊdə:bɑ:] *n hind.* tantanali kutib olish, dabdabali kutib olish.
duress(e) [dju ˊres] *n* 1) ozodlikdan mahrum qilish; 2) majbur qilish, zo'rlash; **to do smth. under ~** nimanidir majburiyat yuzasidan bajarmoq.
during [ˊdjuərɪŋ] *prep.* davomida, vaqtida, mobaynida.
durst [də:st] *past.* **dare 1.** *dan.*
dusk [dʌsk] **1.** *n* oqshom, kechqurungi g'ira-shira vaqt; **2.** *a* qorong'i, g'ira-shira; **3.** *v* qorong'i tushmoq, qorong'ilashmoq.
duskiness [ˊdʌskɪnəs] *n* qorong'i, qorong'ilik.
dusky [ˊdʌskɪ] *a* qorong'i, g'ira-shira qorong'i, g'ira-shira.
dust [dʌst] **I.** *n* chang, to'zon, gard; **2.** *v* 1) changitmoq; 2) changni artmoq, artib tozalamoq.
dustbin [ˊdʌstbɪn] *n* axlat qutisi, axlat tashlaydigan idish.
dust-coat [ˊdʌstkəut] *n* jangdan saqlaydigan yupqa plash.
dust-colour [ˊdʌstˌkʌlə] *n* och-jigarrang.
duster [ˊdʌstə] *n* chang artadigan latta.
dust-hole [ˊdʌsthəul] *n* axlat tashlaydigan chuqur.
dusting [ˊdʌstɪŋ] *n* changni artish.
dustpan [ˊdʌstpæn] *n* kurakcha, xokandoz.
dust-proof [ˊdʌstpru:f] *a* chang o'tkazmaydigan.
dust-shot [ˊdʌstʃɔt] *n* eng mayda sochma o'q.
dust-storm [ˊdʌststɔ:m] *n* to'zonli bo'ron (dovul), changli qattiq shamol.
dust-up [ˊdʌstʌp] *n* 1) *so'zl.* shovqin, shov-shuv, g'alva; 2) g'uvullagan tovush; 3) janjal, g'ovg'a, mojaro.
dusty [ˊdʌstɪ] *n* changli, to'zonli, chang bosgan.
Dutch [dʌtʃ] **1.** *a* Niderlandiyaga oid; **2.** *n* 1) **(the ~)** niderlandiyaliklar; 2) gollandiyaliklar.
dutch [dʌtʃ] *n so'zl.* xotin, rafiqa; **my old ~** mening kampirim (*xotin to'g'risida*).
Dutchman [ˊdʌtʃmən] *n* niderlandiyalik kishi.
Dutchwoman [ˊdʌtʃˌwumən] *n* niderlandiyalik ayol.
dutiful [ˊdju:tɪfl] *a* itoatli, bo'ysunadigan, qobil, sharafli.
duty [ˊdju:tɪ] *n* 1) burch, xizmat, vazifa; 2) majburiyat; 3) navbatchilik; **I am on ~ today** Bugun men navbatchi; 4) hurmat.
duty-free [ˌdju:tɪˊfri:] *a* boj to'lanmaydigan, bojdan ozod (*tovar, mahsulot, mollarga nisbatan*).
duvet [ˊdu:veɪ] *n* adyol.
dwarf [dwɔ:f] *a* pak-pakana odam, mitti (*pakana*) kishi.
dwarfish [ˊdwɔ:fɪʃ] *a* 1) kichkina, mitti, pakana; 2) hali o'sib yetilmagan, yaxshi o'smagan.
dwell [dwel] *v* **(dwelt; dwelt)** yashamoq, kun kechirmoq.
dweller [ˊdwelə] *n* turuvchi, yashovchi (*kishi*).
dwelling [ˊdwelɪŋ] *n* uy-joy, turar joy, makon.
dwelling-house [ˊdwelɪŋhaus] *n* odam yashaydigan uy.
dwelling-place [ˊdwelɪŋpleɪs] *n* yashash joyi.
dwelt [dwelt] *past., p. p.* **dwell** *dan.*
dwindle [ˊdwɪndl] *v* 1) kichraytirmoq, qisqartirmoq; 2) mazmunini yo'qotmoq; 3) yomonlashmoq, inqirozga uchramoq.
dyad [ˊdaɪæd] *n* 1) juft, ikki; 2) *kim.* ikki valentli element.
dye [daɪ] **1.** *n* bo'yoq, rang; **2.** *v* bo'yamoq.
dye-house [ˊdaɪhaus] *n* bo'yoqxona.
dyeing [ˊdaɪɪŋ] **1.** *pres. p.* **dye 2** *dan*; **2.** *n* bo'yoq (bo'yash) ishlari.
dyer [ˊdaɪə] *n* bo'yoqchi.
dye-stuff [ˊdaɪstʌf] *n* bo'yoq moddalar.
dye-works [ˊdaɪwə:ks] *n* bo'yoqxona, bo'yash fabrikasi.
dying [ˊdaɪɪŋ] **1.** *pres. p.* **die** *dan*; **2.** *n* o'lish, o'lim; **3.** *a* o'layotgan.
dyke [daɪk] *n* to'g'on.

dynamic [daɪˈnæmɪk] *a* 1) dinamik, dinamikaga oid; 2) faol, g'ayratli, serg'ayrat, serharakat.
dynamics [daɪˈnæmɪks] *n* 1) dinamika; 2) qo'zg'atuvchi kuch.
dynamite [ˈdaɪnəmaɪt] *n* dinamit (*portlovchi modda*).
dynamitic [ˌdaɪnəˈmɪtɪk] *a* dinamitli, dinamitga oid.
dynamo [ˈdaɪnəməu] *n* dinamo-mashina, o'zgarmas tok generatori.
dynasty [ˈdɪnəstɪ] *n* sulola; xonadon.
dysentery [ˈdɪsntrɪ] *n tib.* ichburug'.
dyslexia [dɪsˈleksɪə] *n* disleksiya.
dyslexic [dɪsˈleksɪk] *a* disleksiya bilan kasallangan kishi.
dyspepsia [dɪsˈpepsɪə] *n tib.* dispepsiya (*me'da va ichaklarda ovqatning singmasligi va shuning oqibatidagi kasallik*).
dyspeptic [dɪsˈpeptɪk] **1.** *a* ovqatni yomon hazm bo'lishidan qiynalayotgan; **2.** *n* ovqat yomon hazm bo'lishi natijasida azob chekayotgan odam.
dyspnoea [dɪspˈniːə] *n tib.* nafas qisish, nafas siqilish, harsillash.
dystrophy [ˈdɪstrəfɪ] *n tib.* distrofiya (*to'qima va a'zolarda modda almashuvining buzilishi*).

Ee

E, e [iː] *n* 1) ingliz tili alifbosining beshinchi harfi; 2) *mus.* mi; 3) *deng.* ikkinchi darajali kema.
each [iːtʃ] **1.** *pron. indef.* har bir; har qaysi; ~ **student has to learn it by heart** har bir talaba buni yoddan bilishi kerak; **2.** *n* har bir kishi, har kim.
each other [ˌiːtʃ ˈʌðə] *pron. recip.* bir-birini, bir-biroviga (*odatda ikki kishi haqida*).
eager [ˈiːgə] *a* (**for, after, about**) jon-jahdi bilan intiladigan; sabrsiz; intiluvchan; intizor.
eagerness [ˈiːgənəs] *n* g'ayrat, jo'shqinlik, ishtiyoq, intilish.
eagle [ˈiːgl] *n* 1) *zool.* burgut; 2) *amer. esk.* o'n dollarli oltin tanga; 3) burgut (*AQSH gerbi va emblemasi*).
eagle-eyed [ˌiːglˈaɪd] **1.** *n* burgutko'z; o'tkir ko'z; sinchkovlik; **2.** *a* o'tkir, ziyrak, sezgir; o'tkir qarash bilan.
eagle-owl [ˈiːglaul] *n zool.* ukki (*qush*).
eaglet [ˈiːglət] *n* burgutcha, burgut bolasi.
eagre [ˈeɪgə] *n* daryoning quyilish joyidagi ko'tariladigan to'lqin.
ear [ɪə] **1.** *n* 1) quloq; 2) eshitish, eshitish qobiliyati; 3) boshoq, so'ta, makkajo'xori; **2.** *v* boshoqlamoq, boshoq chiqarmoq.
ear-ache [ˈɪəreɪk] *n* quloq og'rig'i.
ear-drops [ˈɪədrɔps] *n* quloq tomchi dorisi, tomizib ichiladigan dori (*quloq og'riganda*).
ear-drum [ˈɪədrʌm] *n anat.* quloq pardasi.
ear-flaps [ˈɪəflæps] *n* quloqchin.
earl [əːl] *n* graf (*Angliyada*).
ear-lap [ˈɪəlæp] *n anat.* solinchak (*quloqda*).
earldom [ˈəːldəm] *n* graflik unvoni.
earless [ˈɪəlɪs] *a* 1) quloqsiz, qulog'i yo'q; 2) tutqichsiz, dastasiz (*idish to'g'risida*).
ear-lobe [ˈɪələub] = **ear-lap**.
ear-lock [ˈɪəlɔk] *n* kokil soch, quloq ostidagi gajak.
early [ˈəːlɪ] **1.** *a* 1) barvaqt, erta, vaqtli; ~ **morning** tong saharda; **in ~ spring** erta bahorda; 2) oldindan; 3) yaqin, yaqin kelajakda kutilayotgan, tez orada; **at an ~ date** yaqin orada; 4) vaqtidan oldin, muddatidan oldin; ~ **death** bevaqt o'lim; **2.** *adv* erta, vaqtli; **to be up** ~ vaqtli turmoq; ~ **in life** yoshlikda; ~ **in the year** yilning boshida.
earmark [ˈɪəmɑːk] **1.** *n* 1) hayvon qulog'idagi tamg'a; 2) farqlovchi belgi, kimgadir tegishlilikni bildiruvchi belgi; 3) sahifaning bukilgan burchagi; **2.** *v* tamg'alamoq, tamg'a bosmoq; 2) belgilamoq; **to ~ a page** sahifa burchagini bukib qo'ymoq; 3) mo'ljallamoq; muayyan maqsad uchun ajratib qo'ymoq.
earn [əːn] *v* 1) ishlab topmoq; daromad keltirmoq; **how much do you ~?** qancha maosh olasiz? **to ~ one's living** tirikchilik uchun ishlab topmoq; 2) sazovor bo'lmoq, qozonmoq, erishmoq; **to ~ a fame** shuhrat qozonmoq.
earner [ˈəːnə] *n* maosh oluvchi shaxs.
earnest [ˈəːnɪst] **1.** *a* 1) jiddiy, muhim; 2) samimiy, qat'iy ishongan; 3) jonkuyar, g'ayratli, tirishmoq; **2.** *n* 1) bay puli (*zakalat*); 2) garovga qo'yilgan (*yoki* olingan) narsa.
earnestly [ˈəːnɪstlɪ] *adv* qattiq turib, qat'iy sur'atda.
earnings [ˈəːnɪŋz] *n* 1) ishlab topilgan pul, maosh, mablag'; 2) daromad, tushum.
ear-phone [ˈɪəfəun] = **head-phone**.
ear-ring [ˈɪərɪŋ] *n* zirak, baldoq, isirg'a.
earshot [ˈɪəʃɔt] *n* ovozni eshitib bo'ladigan uzoqlikdagi masofa.
ear-splitting [ˈɪəˌsplɪtɪŋ] *a* juda qattiq; quloqni kar qiladigan.
earth [əːθ] **1.** *n* 1) yer, yer shari; ~**'s surface** yer sathi; 2) (**the Earth**) Yer (*sayyora*); **The Earth does round the sun.** Yer Quyosh atrofida aylanadi; 3) yer, tuproq; 4) in, uya; **to run to** ~ inida yashirinmoq; **2.** *v* 1) chopmoq, yerni chopiq qilmoq, egat olmoq; 2) iniga haydab kiritmoq; yerga kirib ketmoq; 3) ko'mmoq; dafn qilmoq.
earth-born [ˈəːθbɔːn] *a* o'ladigan, odam (kishi; inson)ga oid, yerdan yaralgan; **creatures ~ ... not spirits** ruh emas yer farzandi.
earth-bound [ˈəːθbaund] *a* 1) yer, dunyoviy, hayotiy; 2) yerga oid; yer bilan bog'liq; yerga yo'nalgan.

earthen [ˈə:θn] *a* tuproqli, loyli, yerlik; loydan qilingan (yasalgan).
earthenware [ˈə:θnwɛə] *n* 1) loy, tuproq; 2) loydan yasalgan idish, sopol idish.
earth-flax [ˈə:θflæks] *n* toshpaxta, asbest.
earth-light [ˈə:θlaɪt] = **earth-shine**.
earthly [ˈə:θlɪ] *a* yerga oid; yer...; ~ **globe** yer shari.
earth-nut [ˈə:θnʌt] *n* yeryong'oq.
earthquake [ˈə:θkweɪk] *n* yer qimirlash, zilzila.
earth-shine [ˈə:θʃaɪn] *n astr.* kumushrang nur (*Oyning*).
earthward(s) [ˈə:θwəd(z)] *adv* yerga yo'nalgan.
earthwork [ˈə:θwə:k] *n* yer qazish ishlari.
earth-worm [ˈə:θwə:m] *n* 1) *zool.* chuvalchang; 2) *ko'ch.* xushomadgo'y, laganbardor.
earthy [ˈə:θɪ] *a* 1) yerga oid, sertuproq; 2) hayotiy, dunyoviy.
ear-wax [ˈɪəwæks] *n* quloq kiri.
earwig [ˈɪəwɪg] *n zool.* uxovyortka (*to'g'ri qanotli hasharot*).
ease [i:z] **1.** *n* tinchlik, osoyishtalik, orom, huzur-halovat; **to take one's** ~ dam olmoq; **2.** *v* 1) yengillashtirmoq (*azob va b.larni*); tinchitmoq, qoldirmoq (*og'riq va b.larni*); 2) bo'shashtirmoq, yumshatmoq (*og'riqni*).
easel [ˈi:zl] *n* 1) molbert (*rassomlarning dastgohi*); 2) kitob uchun taglik; 3) nota va kitob qo'yadigan qiya moslama.
easeful [ˈi:zfl] *a kitob.* tinchitadigan, tinchlantiradigan.
easel [ˈi:zl] *n* 1) molbert (*rassomlarning dastgohi*); 2) kitob uchun taglik; 3) nota va kitob qo'yadigan qiya moslama.
easement [ˈi:zmənt] *n* qulaylik, o'ng'aylik; 2) yengillatish, yumshatish, tinchitish.
easily [ˈi:zɪlɪ] *adv* osonlik bilan, osongina, qiyinchiliksiz, qiynalmay, bemashaqqat, bemalol; **They can** ~ **do it.** Ular buni osonlik bilan bajara oladilar; 2) bajonidil, qarshilik ko'rsatmay; **We agreed** ~ Biz bajonidil rozi bo'ldik.
easiness [ˈi:zɪnəs] *n* yengillik, osonlik, o'ng'aylik.
east [i:st] **1.** *n* 1) sharq; **to the** ~ sharqqa; **Far East** Uzoq Sharq; **Near East** Yaqin Sharq; 2) sharqiy shamol; **2.** *a* 1) sharqiy; ~ **wind** sharqiy shamol; 2) sharqqa qaragan, sharqqa chiqadigan; ~ **window** sharqqa qaragan deraza; **3.** *adv* 1) sharqqa; 2) sharqiy yo'nalishdan (*shamol haqida*); **to blow** ~ sharqdan esmoq.
East End [ˌi:stˈend] *n* Ist-End; Londonning sharqiy (*kambag'al*) qismi.
Easter [ˈi:stə] *n cherk.* Pasxa (*bayram*).
easterly [ˈi:stəlɪ] **1.** *a* sharqqa oid, sharqdagi; **2.** *n* sharqiy shamol; **3.** *adv* sharqqa; sharqdan (*shamol to'g'risida*).
eastern [ˈi:stən] **1.** *a* sharqiy; **2.** *n* sharq fuqarosi, sharqda yashovchi kishi.
easterner [ˈi:stənə] *n* AQSHning sharqiy qismida yashovchi kishi.
easternmost [ˈi:stənməust] *a* eng sharqiy.
Eastertide [ˌi:stəˈtaɪd] *n cherk.* Pasxa haftasi.
East India Company [ˌi:stɪndɪəˈkʌmpənɪ] *n* Sharqiy Hindiston shirkati.
easting [ˈi:stɪŋ] *n deng.* sharq tomonga yo'l olish, yurish (*kemalarning yo'nalishlari haqida*).
East Side [ˌi:stˈsaɪd] *n* Nyu-Yorkning sharqiy (*kambag'al*) qismi.
eastward [ˈi:stwəd] **1.** *a* sharqqa harakat qiluvchi (qiladigan); **2.** *adv* sharqqa, sharq tomonga; **3.** *n* sharq tomon.
easy [ˈi:zɪ] **1.** *a* 1) oson, yengil, qiyin bo'lmagan; ~ **task** yengil topshiriq; ~ **path** qulay so'qmoq; 2) yengil, og'irlik qilmaydigan; **on** ~ **terms** yengil shartlarda; ~ **book** *max.* kichik yoshdagi bolalarga mo'ljallangan kitob; 3) qulay, yoqimli; ~ **coat** keng palto; 4) tinch, osoyishta, xotirjam; **make your mind** ~ hayajonlanmang, o'zingizni bosing; 5) shoshilmay, bemalol; **to travel by** ~ **stages** dam olish uchun to'xtab-to'xtab sayohat qilish; 6) chiqishadigan, ko'nuvchan, yumshoq tabiatli; ~ **disposition** yumshoq tabiat; 7) erkin, bemalol, tabiiy; ~ **manners** tabiiy xatti-harakat; 8) ta'minlangan, badavlat; ~ **circumstances** moddiy ta'minlanganlik; **2.** *adv* osonlik bilan, qiyinchiliksiz.
easy chair [ˌi:zɪˈtʃɛə] *n* yumshoq kreslo.
easy-going [ˌi:zɪˈgəuɪŋ] *a* 1) yengil, osoyishta (*otning yurishi to'g'risida*); 2) xushmuomala, quvnoq; 3) parvosiz, beparvo, beg'am.
eat [i:t] (**ate; eaten**) *v* yemoq, yeb qo'ymoq.
eatable [ˈi:təbl] *a* yeyishli, yesa bo'ladigan, ovqatga ishlatiladigan.
eatables [ˈi:təblz] *a pl* yemoq-ichmoq uchun belgilangan, yegulik, oziq-ovqat.
eaten [ˈi:tn] *p. p.* **eat** *dan.*
eater [ˈi:tə] *n* 1) ovqatlanuvchi har bir kishi, xo'randa; 2) iste'molchi.
eatery [ˈi:tərɪ] *n* 1) ovqatxona, yemakxona (*xonadonda*); 2) oshxona; 3) gazakxona.
eating [ˈi:tɪŋ] **1.** *pres. p.* **eat** *dab*; **2.** *n* ovqat, oziq, taom; ovqat yeyish; **3.** *a* **:** ~ **apple** yeyiladigan olma; ~ **club** (*yoki* **hall**) *amer.* universitet oshxonasi.
eating-house [ˈi:tɪŋhaus] *n* oshxona; arzon restoran.
eats [i:ts] *n pl so'zl.* ovqat, oziq, taom.
eau-de-cologne [ˌəudəkəˈləun] *n* odekolon, atir.
eau-de-vie [ˌəudəˈvi:] *n fr.* konyak, araq, viski.
eaves [i:vz] *n* karniz.
eavesdrop [ˈi:vzdrɔp] *v* bildirmay yashirincha quloq solmoq, eshitib olmoq (*shuningdek, mikrofon vositasida ham*).
eavesdropper [ˈi:vzdrɔpə] *n* yashirincha quloq soluvchi; josus, ayg'oqchi.
ebb [eb] **1.** *n* 1) orqaga qaytish (*suvning, to'lqinning*); 2) *ko'ch.* tushkunlik, tanazzul, yomonlashish; **to be at an** ~ qiyin ahvolda bo'lmoq; **2.** *v*

1) chekinmoq (*to'lqinning qaytishida dengiz to'g'risida*); kamaymoq (*suv to'g'risida*); 2) zaiflashmoq, so'nmoq, o'lmoq; 3) suvning qaytishida ovlamoq (*baliqni*).

ebb-tide [ˌeb'taɪd] *n* suvning, to'lqinning orqaga qaytishi.

ebon ['ebən] **ebony 2.** *dan.*

ebony ['ebənɪ] **1.** *n* 1) *lot.* qora *yoki* obnus daraxti; 2) *amer.* negr, zangi, habash; **2.** *a* 1) qora *yoki* obnus daraxtidan qilingan; 2) mumdek qora.

ebullience [ɪ'bʌlɪənsɪ] *n* 1) qaynash, biqirlab qaynash; 2) shodiyona, hayajonlanish, (*to'lib-toshgan*) g'ayrat, tashabbus.

ebulliency [ɪ 'bʌlɪənsɪ] = **ebullience.**

ebullient [ɪ 'bʌlɪənt] *a* 1) oshib-toshgan, ichiga sig'maydigan (*xursandchilik va b.lar haqida*); 2) qaynayotgan.

ebullition [ˌebə'lɪʃn] *n* 1) qaynash; tutaqish; 2) birdan qizishib ketish (*his-tuyg'u, ehtiros*).

ecarte [eɪ'kɑ:teɪ] *n fr.* ekarte (*qarta o'yinining bir turi*).

ecaudate [ɪ:'kɔ:deɪt] *a zool.* quyruqsiz, dumsiz.

eccentric [ɪk'sentrɪk] **1.** *a* g'alati, ajib, qiziq; **2.** *n* g'alati (ajib, qiziq) inson.

eccentricity [ˌeksen'trɪsətɪ] *n* ajiblik, qiziqlik; g'alatilik.

ecclesiastic [ɪˌkli:zɪ'æstɪk] *n* ruhoniylarga mansub kishi, ruhoniy.

ecclesiastical [ɪˌkli:zɪ 'ætɪkl] *a* 1) cherkovga oid; 2) ruhoniy, diniy.

echelon ['eʃəlɔn] *n harb.* echelon (*birin-ketin joylashgan qo'shinlar qatori*).

echidna [ɪ 'ekɪdnə] *n zool.* 1) yexidna (*Avstraliyada va uning atrofidagi ba'zi orollarda yashaydigan kirpisimon jonivor*); 2) yexidna (*Avstraliyada yashaydigan zaharli ilon*).

echini [ɪ 'kaɪnaɪ] *pl* **echinus** *dan.*

echinus [ɪ'kaɪnəs] *n* (*pl* **-ni**) *zool.* dengiz tipratikani.

echo ['ekəu] **1.** *n* aks sado; **2.** *v* aks sado bermoq.

echoic [e'kəuɪk] *a* tovushga taqlid yo'li bilan hosil qilingan, taqlidiy.

éclair ['eɪklɛə] *n fr.* ekler (*pirojniyning bir turi*).

éclat [eɪ'klɑ:] *n fr.* 1) mashhurlik, dongdorlik, buyuklik; 2) g'ulg'ula soladigan muvaffaqiyat; **with great ~** katta muvaffaqiyat bilan.

eclectic [ɪ'klektɪk] **1.** *n* eklektik (*elektizmga moyil odam*); **2.** *a* eklektizmga oid, eklektizmga asoslangan.

eclecticism [ɪ'klektɪsɪzm] *n* eklektika, eklektizm (*turlicha qarashlarni, nazariyalarni bir-biriga o'zboshimchalik bilan qorishtirib yuborish*).

eclipse [ɪ'klɪps] **1.** *n* 1) *astr.* tutilish; **total (partial) ~** to'la (*qisman*) tutilish; xiralashish; 3) shukuhini, dabdabasini yo'qotish, tanazzul, tushkunlik; **~ of feudalizm** feodalizmning inqirozi; **~ of one's power** holdan toyish; **2.** *v* 1) qorong'i qilmoq, to'smoq (*osmon jismi to'g'risida*); 2) ustun kelmoq, soyasida qoldirmoq; 3) tanazzulga yuz tutmoq, shuhratini yo'qotmoq, zaiflashmoq (*qudrat to'g'risida*).

ecliptic [ɪ'klɪptɪk] **1.** *n astr.* ekliptika (*Quyosh bir yilda aylanib chiqadigan katta fazoviy doira*); **2.** *a* ekliptikaga oid.

ecological [ˌi:kə'lɔdʒɪkl] *a* ekologiyaga oid, ekologik.

ecologist [ɪ'kɔlədʒɪst] *n* ekologiya mutaxassisi.

ecology [ɪ'kɔlədʒɪ] *n biol.* ekologiya (*tirik organizmlarning atrof-muhit bilan o'zaro munosabatini o'rganadigan biologik fan*).

economic [ˌi:kə'nɔmɪk] *a* 1) iqtisodiy; xo'jalikka, xalq xo'jaligiga oid; **~ policy** iqtisodiy siyosat; **~ forces** iqtisodiy omillar; **~ development** iqtisodiy rivojlanish; 2) tejamli; iqtisodiy foydali *yoki* maqsadga muvofiq; foyda keltiradigan; 3) amaliy; **~ botany** amaliy botanika, qishloq xo'jaligi botanikasi.

economical [ˌi:kə'nɔmɪkl] *a* tejamkor, rejali; **~ habits** tejamkorlik; tejash odatlari.

economically [ˌi:kə'nɔmɪklɪ] *adv* tejab-tergab, rejasi bilan, ehtiyotkorlik bilan.

economics [ˌi:kə'nɔmɪks] *n* 1) iqtisodiyot, xalq xo'jaligi; **planned ~** rejali (rejaga asoslangan) xo'jalik; 2) iqtisodiyot fani, siyosiy iqtisod fani; 3) xo'jalik hayoti; xo'jalik; **home ~** ro'zg'orshunoslik; **rural ~** qishloq xo'jaligi.

economist [i 'kɔnəmɪst] *n* 1) iqtisodchi; 2) rejali xo'jayin; tejamkor kishi.

economize [i 'kɔnəmaɪz] *v* tejamoq, iqtisod qilmoq, rejali sarflamoq.

economizer [i'kɔnəmaɪzə] *n tex.* suv isitgich, suv isitadigan asbob.

economy [i 'kɔnəmɪ] *n* 1) xo'jalik, iqtisodiyot; 2) tejamkorlik; 3) iqtisod, tejash; **political ~** siyosiy iqtisod.

ecru ['eɪkru:] *a fr.* qattiq bo'z rangi, och-jigarrang.

ecstasy ['ekstəsɪ] *n* jazava; o'zini yo'qotish darajasida zavqlanish (hayajonlanish); **in the ~ of** shodlikdan entikib.

ecstatic [ɪk'stætɪk] *a* g'azabi oshgan, hayajonlangan, asabiylashgan.

ectoplasm ['ektəuplæzm] *n biol.* ektoplazma.

écu [eɪ'kju:] *n fr.* ekyu (*oltin yoki kumush pul*).

Ecuadoran [ˌekwə'dɔ:rɪən] **1.** *a* Ekvadorga oid, Ekvador; **2.** *n* ekvadorlik, ekvadorlik ayol.

ecumenic(al) [ˌi:kju 'menɪk(əl)] *cherk. a* butun (jahon) dunyo (*asosan, xristianlar yig'ini haqida*).

eczema ['eksɪmə] *n tib.* eczema, chilla yara.

edacious [ɪ'deɪʃəs] *a* 1) ochko'z, suq; 2) yebto'ymaslik, badnafs.

edacity [ɪ'dæsətɪ] *n* 1) ochko'zlik, suqlik; 2) yebto'ymaslik, badnafslik.

Edam ['i:dæm] *n* Edam pishlog'i.

edaphology [ˌedə ˈfɔlədʒɪ] *n* tuproqshunoslik.
eddish [ˈedɪʃ] *n q-x.* 1) yangi o't, maysa; 2) ang'iz (*ekin o'rab olingan yer*).
eddy [ˈedɪ] **1.***n* girdob, quyun, dovul, uyurmali qattiq shamol, bo'ron; **2.** *v* 1) girdobga aylanmoq; 2) burqirab chiqmoq.
edelweiss [ˈeɪdlvaɪs] *n bot.* edelveys (*murakkabguldoshlar oilasiga mansub ko'p yillik tog' o'simligi va uning guli*).
Eden [ˈi:dn] *n cherk.* jannat, jannatmakon joy.
edge [edʒ] **1.** *n* 1) dam, yuz, tig'; **the knife has no ~** pichoq o'tmas bo'lib qoldi; 2) chet, qirg'oq; **~ of a wood** o'rmon chekkasida; **on the ~ of winter** qish bo'sag'asida; 3) chet, qirg'oq (*kitobda*); hoshiya (*sahifada*); 4) qirra, cho'qqi (*to'da*); tog'lar tizmasi; **~ of a mountain** tog' qirrasi; **2.** *a* 1) charxlamoq, o'tkirlamoq; 2) hoshiyalamoq, atrofini o'ramoq; 3) (*sekin*) ilgarilamoq; (*ohista*) yaqinlashmoq.
edge-bone [ˈedʒbəun] *n* dumg'aza suyagi.
edge-stone [ˈedʒstəun] *n* tegirmon toshi, tegirmontosh.
edge-tool [ˈedʒtu:l] *n* o'tkir, keskir, uchli, qirrali asbob; **to play with ~s** o't bilan o'ynashmoq.
edgeways | ˈedʒweɪz] *adv* uchi bilan; yoni bilan; **to get a word in ~ luqma tashlamoq, gapga aralashmoq, gap qistirmoq.
edgewise [ˈedʒwaɪz] = **edgeways**.
edging [ˈedʒɪŋ] *n* qirg'oq, chet.
edgy [ˈedʒɪ] *a* 1) o'tkir; kesuvchan; qirquvchan; keskir; 2) serjahl, serzarda.
edibility [ˌedəˈbɪlətɪ] *n* yesa bo'ladigan (yeyiladigan, ovqatga ishlatiladigan) narsa.
edible [ˈedəbl] *a* yeyishli, yesa bo'ladigan, ovqatga ishlatiladigan.
edict [ˈi:dɪkt] *n* farmon, oliy farmon; qonun; **~s of nature** tabiat qonunlari.
edification [ˌedɪfɪ ˈkeɪʃn] *n* nasihat, o'git, pandnasihat.
edifice [ˈedɪfɪs] *n* hashamatli bino, imorat, inshoot.
edify [ˈedɪfaɪ] *v* biror narsaga o'rgatmoq, ta'lim bermoq, yo'l-yo'riq ko'rsatmoq.
edit [ˈedɪt] *v* 1) tahrir qilmoq; nashrga tayyorlamoq; 2) muharrirlik qilmoq; **to ~ the newspaper** gazeta muharriri bo'lmoq; 3) montaj qilmoq (*kinofilmni*); 4) nashr qilmoq, chop etmoq; 5) *maxs.* tekshirmoq, tahlil qilmoq, tuzatishlar kiritmoq.
edition [ɪˈdɪʃn] *n* 1) nashr, bosma asar; **popular ~** ommaviy nashr; 2) alohida nashr; **evening ~** oqshomda chiqadigan (*gazeta*); 3) bosilgan nusxalar soni (*kitob, gazeta va b.*).
editor [ˈedɪtə] *n* 1) muharrir; 2) bosh maqolaning muallifi (*gazetada*).
editorial [ˌedɪˈtɔ:rɪəl] **1.***a* tahririy, muharrirga oid, tahrirga oid; **~ office** nashriyot bo'limi binosi; **~ staff** nashriyot xodimlari; **~ board** tahrir hay'ati; **2.** *n* bosh maqola.
editorialist [ˌedɪˈtɔ:rɪəlɪst] *n* bosh maqola yozadigan kishi.
editorialize [ˌedɪˈtɔ:rɪəlaɪz] *v amer.* xabarni g'arazli bayon qilish (*gazetada*).
editor-in-chief [ˌedɪtərɪnˈtʃi:f] *n* bosh muharrir.
educate [ˈedjukeɪt] *v* 1) bilim bermoq, tarbiyalamoq; 2) mashq qildirmoq, o'rgatmoq; **to ~ smb.'s taste in literature** adabiy didni o'stirmoq; **to ~ the ear** eshitish qobiliyatini o'stirmoq.
educated [ˈedjukeɪtɪd] *a* 1) bilimdon, (oliy) ma'lumotli; 2) o'rgatilgan, mashq qildirilgan; **~ animals** o'rgatilgan hayvonlar.
education [ˌedjuˈkeɪʃn] *n* 1) ma'lumot, ta'lim, o'qitish; **all-round ~** har tomonlama o'qitish; **higher ~** oliy ma'lumot; **compulsory ~** majburiy ta'lim; **the ~ of the will** irodani tarbiyalash; 2) ma'lumotlilik, madaniy (*inson*); 3) o'rgatish (*hayvonlarni*).
educational [ˌedjuˈkeɪʃənl] *a* 1) ta'limiy, tarbiyaviy; 2) o'quv, pedagogik; **~ book** darslik, o'quv qo'llanma; 3) ma'rifiy.
educationalist [ˌedjuˈkeɪʃnəlɪst] *n* pedagog, pedagogika nazariyachisi, xalq ta'limi arbobi.
educationally [ˌedjuˈkeɪʃnəlɪ] *adv* ta'lim nuqtayi nazaridan, pedagogika nuqtai nazaridan.
educationist [ˌedjuˈkeɪʃnɪst] = **educationalist**.
educative [ˈedjukətɪv] *a* tarbiyaviy, ta'limiy ahamiyatga ega bo'lgan.
educator [ˈedjukeɪtə] *n* tarbiyachi, tarbiyalovchi, pedagog, o'qituvchi, muallim.
eduction [ɪˈdʌkʃn] *n* 1) aniqlash (*qobiliyatlarni, imkoniyatlarni*); 2) xulosa; 3) aniqlangan narsa, aniqlangan natijalar.
edulcorate [ɪˈdʌlkəreɪt] *v kim.* kislota, tuz va b.lardan yuvib tozalamoq.
Edwardian [edˈwɔ:dɪən] *a* ingliz qirollari Eduardlardan birining davri.
eel [i:l] *n zool.* ilonbaliq.
eel-buck [ˈi:lbʌk] *n* chetan, qirtil (*baliq tutadigan voronkasimon savat*).
eel-spear [ˈi:lspɪə] *n* ilonbaliq ovlanadigan uch tishli ayri.
e'en [i:n] *n* oqshom, kech.
e'er [ɛə] *a* doimo, har doim.
eerie, eery [ˈɪərɪ] *a* dahshatli, vahimali, qo'rqinchli; mudhish.
efface [ɪˈfeɪs] *v* 1) o'chirmoq, siyqalanmoq; **the image on the coin is ~d** tangadagi tasvir siyqalanib o'chib ketgan; 2) o'chirmoq, chizib tashlamoq; **to ~ murals** devoriy rasmni ustidan bo'yab tashlamoq; 3) yo'q qilmoq, bekor qilmoq; **to ~ the boundaries** chegaralarni yo'q qilmoq (bekor qilmoq).
effacement [ɪˈfeɪsmənt] *n* artish, o'chirish, artib tashlash.
effect [ɪˈfekt] **1.** *n* 1) natija, oqibat; **cause and ~** sabab va oqibat; **~s of war** urush oqibatlari; **of no, to no ~, without ~** natijasiz; 2) maqsad;

mo'ljal, niyat; **to this** ~ bu maqsadda, buning uchun; 3) ta'sir; **the ~ of light** yorug'likning ta'siri; 4) amalga oshirish, bajarish; **to take** ~ kuchga kiritmoq; 5) ta'sir, taassurot; **for** ~ ta'sir etish (*taassurot qoldirish*), maqsadida; **general** ~ umumiy taassurot; **2.** *v* 1) amalga oshirmoq, ro'yobga chiqarmoq, bajarmoq, tadbiq qilmoq (*hayotga*); **to ~ payment** to'lamoq, to'lovni amalga oshirmoq; 2) tuzmoq, rasmiylashtirmoq (*bitimni*); **to ~ a marriage** nikohdan o'tmoq, nikohni rasmiylashtirmoq.

effective [ɪ ˈfektɪv] **1.** *n harb.* 1) jangchi; 2) *pl* jangovar tarkib; **2.** *a* 1) haqiqiy, amaliy, foydali, muvaffaqiyatli; **~ cooperation** foydali (*unumli*) hamkorlik; **~ control** samarali nazorat; **~ steps** amaliy qadamlar; 2) amaldagi, ishlab turgan, kuchga ega bo'lgan (*qonun va b.lar*); **to become** ~ kuchga kirmoq; **~ until the end of the year** faqat yilning oxirigacha amal qiladi.

effectless [ɪˈfektlɪs] *a* natijasiz; qonuniy kuchga ega bo'lmagan; bekor qilingan.

effector [eˈfektər] *n* ijrochi, bajaruvchi.

effectual [ɪˈfektʃuəl] *a* 1) ta'sirli, amaliy, haqiqiy, natija beradigan; **~ measure** amaliy chora; 2) amaldagi, ishlab turgan, qonuniy kuchga ega bo'lgan.

effectuate [ɪˈfektʃueɪt] *v* amalga oshirmoq, ijro qilmoq; **to ~ conclusion** xulosa chiqarmoq.

effectuation [ɪˌfektʃuˈeɪʃn] *n* bajarish, amalga oshirish, ijro etish.

effeminacy [ɪˈfemɪnəsɪ] *n* 1) noziklik, ipakoyimlik (*erkakda*); erkakka nomunosib noziklik (nazokat); 2) xotinchalishlik.

effeminate [ɪˈfemɪnət] **1.** *n* xotinchalish erkak, zaif odam; **2.** *a* xotinchalish, xotinlarga o'xshagan.

effervesce [ˌefəˈves] *v* vishillamoq, vijillamoq; ko'piklamoq, ko'pirmoq (*ichimlik to'g'risida*).

effervescence [ˌefəˈvesns] *n* vishillash, pishillash, shipillash, vijillash.

effervescency [ˌefəˈvesnsɪ] = **effervescence.**

effervescent [ˌefəˈvesnt] *a* 1) vishillaydigan, pishillaydigan; 2) qaynab toshgan, ko'pirib turgan.

effete [eˈfiːt] *a* kuchsiz, bo'sh, kuchi (quvvati, madori) yo'q.

efficacious [ˌefɪˈkeɪʃəs] *a* amaliy natija (foyda) beradigan, ta'sir ko'rsatadigan, ta'sirli, ta'sirchan.

efficacy [ˈefɪkəsɪ] *n* samaradorlik, foydalilik, ta'sir ko'rsatish, ta'sirchanlik.

efficiency [ɪˈfɪʃnsɪ] *n* 1) samaradorlik, unumdorlik, mahsuldorlik; **~ of labour** mehnat unumdorligi; 2) amaliylik, ta'sirlilik; 3) epchillik, g'ayratlilik, mahoratlilik.

efficient [ɪˈfɪʃnt] **1.** *n* 1) sabab, birinchi (bosh) sabab; 2) *matem.* faktor, ko'paytuvchi; **2.** *a* 1) samarali, ta'sirli, amaliy; g'ayratli, epchil; **~ worker** mohir va g'ayratli ishchi; 2) maqsadga muvofiq; **~ distribution** maqsadga muvofiq taqsimot.

effigy [ˈefɪdʒɪ] *n* tasvir, haykal, portret (*relyefli*); **wax** ~ mumdan yasalgan haykal.

effloresce [ˌeflɔːˈres] *v* gullay boshlamoq, gulga kirmoq, ochilmoq.

efflorescence [ˌeflɔːˈresns] *n* gullash, gul chiqarish, gul ochish, gullash mavsumi, gul ochilgan payt.

effluence [ˈefluəns] *n* 1) oqish, oqib ketish, oqib chiqish, oqib tamom bo'lish; 2) nurlanish, nur sochish, nur chiqarish.

effluent [ˈefluənt] **1.** *n* 1) boshqa daryo, ko'ldan oqib chiqadigan oqim; 2) tarnov, nov, ariq; **2.** *a* oqib (tushadigan) chiqadigan (*nimadandir*).

effluvia [eˈfluːvɪə] *pl* **effluvium** *dan.*

effluvium [eˈfluːvɪəm] *n* zaharli chirindi bug'lari.

efflux [ˈeflʌks] *n* oqib chiqib ketish, to'kilib kamayish (*suyuqlik, gazlar*).

effort [ˈefət] *n* zo'r berish, harakat qilish; urinish; **to make an** ~ harakat qilib ko'rmoq.

effortless [ˈefətləs] *a* 1) sust, sustkash; 2) oson, yengil.

effrontery [eˈfrʌntərɪ] *n* surbetlik, bezbetlik, uyatsizlik, behayolik.

effulgence [eˈfʌldʒəns] *n* 1) nur, yog'du, shu'la; 2) nurga to'lalik, nurafshonlik, nurlilik.

effulgent [eˈfʌldʒənt] *a* 1) nurga to'la, nurafshon, nurli; 2) porloq, yorqin.

effuse **1.** *n* [eˈfjuːs] to'kish, to'kilish; **much ~ of blood** katta qon to'kish; **2.** *v* [ɪˈfjuːz] to'kmoq, quymoq; to'kilmoq, ag'darmoq, oqizmoq.

effusion [ɪˈfjuːʒn] *n* to'kilish, oqish; **~ of blood** qon oqish.

effusive [ɪˈfjuːsɪv] *a* o'zini tiya olmaydigan, tez qizishib ketadigan.

eft [eft] *n zool.* triton (*ham suvda, ham quruqlikda yashaydigan kaltakesaksimon jonivor*).

egad [ɪˈgæd] *int. so'zl.* xudo haqi, xudo ursin; chindan, rostdan ham;

egalitarian [ɪˌgælɪˈteərɪən] *a* teng huquqlilik uchun kurashuvchi.

egg [eg] **1.** *n* tuxum; **hen's** ~ tovuq tuxumi; **powdered ~s** tuxum kukuni; **2.** *v* 1) tuxum sarig'ini surmoq; 2) *so'zl.* palag'da tuxumlarni otmoq.

egg-beater [ˈegˌbiːtə] *n* 1) tuxum ko'pirtirgich; 2) *so'zl. amer.* vertolyot.

egg-dance [ˈegdɑːns] *n* 1) ko'zlar bog'langan holda qo'yib chiqilgan tuxumlar o'rtasida raqs tushish; 2) og'ir vazifa (*topshiriq*); qaltis ish.

egg-flip [ˈegflɪp] = **egg-nog.**

egghead [ˈeghed] *n* aqlli (esli) kishi; o'qimishli, ziyoli kishi.

egg-nog [ˈegˌnɔg] *n* vino qo'shib ko'pchitilgan; tuxum qo'shilgan ichimlik.

egg-plant [ˈegplɑːnt] *n bot.* baqlajon, patinjon.

egg-shaped [ˈegʃeɪpt] *a* tuxum shaklidagi, tuxumga o'xshagan.

egg-shell [ˈegʃel] *n* 1) tuxum po'chog'i; 2) tez sinadigan narsa: **to walk upon ~s** juda ehtiyotkorlik bilan harakat qilmoq.
egg-wife [ˈegwaɪf] *n* tuxum sotuvchi ayol.
egg-white [ˈegwaɪt] *n* tuxumning oqi.
eglantine [ˈeglənta:n] *n* na'matak, itburun.
ego [ˈegəu] *n* xudbinlik, o'z manfaatini ko'zlash.
egocentric [ˌi:gəuˈsentrɪk] *a* egoistik; xudbinlikka oid.
egoism [ˈegəuˌɪzm] *n* xudbinlik, o'z manfaatini ko'zlash.
egoist [ˈi:gəuɪst] *n* xudbin (faqat o'z manfaatini ko'zlaydigan) odam.
egoistic(al) [ˌi:gəuˈɪstɪk(əl)] *a* xudbinlikka oid.
egotism [ˈegəutɪzm] *n* manmanlik, dimog'dorlik, o'ziga o'ta bino qo'yishlik.
egotist [ˈegəutɪst] *n* o'taketgan xudbin, manman.
egregious [ɪˈgri:dʒəs] *a* ashaddiy, o'taketgan, uchiga chiqqan; **~ error** qo'pol xato; **~ fool** o'taketgan ahmoq.
egress [ˈi:gres] *n* 1) chiqish; 2) *geol.* yer sathiga chiqish.
egression [iˈgreʃn] *n* chiqish, chiqish yo'li, chiqaverish.
egret [ˈi:grət] *n zool.* oq qo'ton.
Egyptian [ɪˈdʒɪpʃn] **1.** *a* Misrga, misrliklarga oid; **2.** *n* misrlik, misrlik ayol.
Egyptology [ˌi:dʒɪpˈtɔlədʒɪ] *n* misrshunoslik.
eh [eɪ] *int* (*so'roq, hayratda qolish, tinglovchining roziligiga umid qilishni ifodalaydi*) a? nima? qanday? nima dedingiz? hali shunaqami? shunday emasmi?
eider [ˈaɪdə] *n zool.* gaga (*Shimoliy qutb suvlarida yashaydigan qimmatbaho patli o'rdak*).
eider-down [ˈaɪdədaun] *n* gaga pari.
eidolon [aɪ ˈdəulɔn] *n* xayoliy sharpa, ko'lanka, arvoh; xayolda ko'rinish.
eight [eɪt] **1.** *num. card.* sakkiz; **2.** *n* sakkiz raqami.
eighteen [ˌeɪ ˈti:n] *num. card.* o'n sakkiz.
eighteenth [ˌeɪˈti:nθ] **1.** *num.ord.* o'n sakkizinchi; **2.** *n* o'n sakkizinchi qism.
eighth [eɪtθ] **1.** *num. ord.* sakkizinchi; **2.** *n* sakkizinchi qism.
eighties [ˈeɪtɪz] *n pl* (**the~**) saksoninchi yillar.
eightieth [ˈeɪtɪəθ] **1.** *num. ord.* saksoninchi; **2.** *n* saksoninchi qism.
eighty [ˈeɪtɪ] *num. card.* sakson.
eirenicon [aɪˈri:nɪkɔn] *n grek.* 1) yarashishga da'vat; 2) tinchlikni qo'llab-quvvatlash rejasi.
eisteddfod [aɪˈstedfəd] *n* (*Uelsda*) har yili bo'ladigan baxshi (bard)lar festivali.
either [ˈaɪðə] **1.** *pron. ind.* 1) har bir; 2) qaysinisi bo'lsa ham; **2.** *n* 1) ikkalasidan bittasi; yo unisi *yoki* bunisi; **~ of the two pupils may go to London** bu ikkala o'quvchidan bittasi Londonga borishi mumkin; 2) unisi ham bunisi ham; **3.** *a* 1) u yoki bu, unisi yoki bunisi, ikkalasidan bittasi; 2) ikki kishidan har biri, har qaysi; **4.** *adv* yoki.
either ...or [ˈaɪðə ...ɔ:] *cj.* yoki; **~ come in or go out** yo kiring yoki chiqing.
ejaculate [ɪˈdʒækjuleɪt] *v* 1) chaqirmoq, hayqirmoq, na'ra tortmoq; xitob qilmoq; 2) otilib chiqmoq, toshib chiqmoq (*suyuqlik haqida*).
ejaculation [ɪˌdʒækjuˈleɪʃn] *n* xitob, nido, undov, na'ra, hayqiriq; xitob qilish, hayqirish, undash.
eject [ɪˈdʒekt] *v* 1) haydamoq, quvmoq, quvib (surib) chiqarmoq; 2) *yur.* surgun qilmoq (**from**).
ejection [ɪˈdʒekʃn] *n* 1) *yur.* surgun, badarg'a, quvg'in; 2) otilib chiqish (*tutun va h.lar*); 3) vazifasidan (mansabidan) ozod qilish.
ejectment [ɪˈdʒektmənt] *n yur.* bir joydan ikkinchi joyga ko'chirish.
ejector [ɪˈdʒektə] *n tex.* ejektor (*bug' kuchi bilan ishlaydigan mexanizm*).
eke [i:k] *adv so'zl.* hamda, yana, shuningdek, shu bilan birga.
el [el] **1.** *n* «L» harfining nomi; **2.** *amer. so'zl.* (El) yer ostidagi temir yo'l.
elaborate 1. *v* [ɪ ˈlæbəreɪt] batafsil, puxta ishlab chiqmoq; **to ~ a plan** rejani puxta ishlab chiqmoq; **2.** *a* [ɪ ˈlæbərət] puxta, mufassal ishlab chiqilgan.
elaboration [ɪˌlæbəˈreɪʃn] *n* puxta ishlab chiqish, tayyorlash (*rejani, loyihani*); 2) rivojlantirish, aniqlik kiritish, takomillashtirish.
elan [eɪˈlɔ:ŋ] *fr. n* tezlik, shiddatlilik; shiddat, shitob.
eland [ˈi:lənd] *n zool.* kanna (*sharqiy va janubiy Afrikada yashaydigan uzun shoxli katta kiyik*).
elapse [ɪˈlæps] *v* tezda o'tib ketmoq, tugab qolmoq (*vaqt haqida*); tugamoq (*muddat haqida*).
elastic [ɪˈlæstɪk] **1.** *n* rezina; rezinalangan tasma; rezinalangan shnur; **2.** *a* egiluvchan, qayishqoq, prujinasimon.
elasticity [ˌi:læsˈtɪsɪtɪ] *n* egiluvchanlik, qayishqoqlik.
elastic-sides [ɪˈlæstɪksaɪdz] *n pl* erkaklarning bo'g'ichli rezina botinkasi.
elate [ɪˈleɪt] *v* kayfiyatni ko'tarmoq, shodlantirmoq.
elated [ɪˈleɪtɪd] *a* ruhi ko'tarilgan holda, ko'tarinki (kayfiyat) ruh bilan.
elation [ɪˈleɪʃn] *n* katta zavq-shavq, xursandlik, ruhiy bardamlik, zo'r quvonch.
elbow [ˈelbəu] **1.** *a* tirsak; **2.** *v* tirsak bilan itarmoq.
elbow-chair [ˌelbəu ˈtʃeə] *n* suyanchiqli kreslo.
elbow-grease [ˈelbəugri:s] *n* og'ir mehnat, og'ir ish.
elbow-rest [ˈelbəurest] *n* tirsakqo'ygich, tirsaklagich (*kursining tirsak qo'yiladigan yondori*).
elbow-room [ˈelbəuru:m] *n* kenglik, yalanglik, sayxon yer (*harakat qilish uchun*).
eld [eld] *n so'zl.she'r.* 1) keksalik; qarilik; 2) qadim, o'tmish; **monuments of ~** o'tmish yodgorliklari.

elder [ˈeldə] **1.** *n pl* kattalar, katta yoshlilar; **2.** *a* katta (*yoshi yoki mavqeyi jihatidan*); **the ~ brother** katta aka.

elderly [ˈeldəlɪ] *a* yoshi qaytgan, qariy boshlagan, keksaygan; yoshi ulg'aygan, ulug', keksa.

eldest [ˈeldɪst] *a* eng katta, to'ng'ich.

eldritch [ˈeldrɪtʃ] *a* 1) dahshatli; vahimali; 2) aql bovar qilmaydigan, mo'jizaviy.

elect [ɪˈlekt] **1.** *a* 1) saylangan; tanlangan, saralangan, eng yaxshisi; 2) saylangan; **the mayor ~** yangi (*endigina saylangan*) mer; **2.** *v* 1) saylamoq (*ovoz berish yo'li bilan*); 2) tanlamoq.

electable [ɪˈlektəbl] *a* 1) saylash huquqiga ega bo'lgan; 2) saylanishga arziydigan.

electee [ˌɪlekˈtiː] *n* saylangan (*ovoz berish yo'li bilan*).

election [ɪˈlekʃn] *n* saylov, saylash; **general ~** umumiy saylovlar.

electioneering [ɪˌlekʃəˈnɪərɪŋ] *n* saylov oldi kampaniyasi.

elective [ɪˈlektɪv] **1.** *n amer.* fakultativ fan (*maktabda, kollejda*); **2.** *a* 1) saylovga oid; saylanadigan; saylovga taalluqli; **~ office** saylov yo'li bilan tayinlanadigan vazifa; 2) saylash huquqiga ega bo'lgan; **an ~ body** saylovchilar; 3) fakultativ, majburiy bo'lmagan.

elector [ɪˈlektə] *n* 1) saylovchi; 2) saylashga vakil qilingan kishi.

electoral [ɪˈlektərəl] *a* saylovga oid, saylov; **~ law** saylov qonuni.

electorate [ɪˈlektərət] *n* 1) saylovchilar tarkibi, saylovchilar; 2) saylov okrugi.

electric [ɪˈlektrɪk] *a* 1) elektrga oid; 2) to'lqinlantiruvchi, ajoyib, hayajonlantiruvchi.

electrical [ɪˈlektrɪkl] *a* elektrga oid, elektr, elektrik; **~ engineering** elektrotexnika (*elektrdan amaliy maqsadlar uchun foydalanish to'g'risidagi fan*).

electric blue [ɪˌlektrɪkˈbluː] *n* ko'kimtir kulrang.

electric chair [ɪˌlektrɪkˈtʃeə] *n* elektr stul (*Amerikada: o'lim jazosiga hukm qilinganlarni qatl qilish uchun qo'llaniladigan moslama*).

electrician [ɪˌlekˈtrɪʃn] *n* 1) elektrotexnik (*elektrotexnika mutaxassisi*); 2) elektromontyor.

electricity [ɪˌlekˈtrɪsətɪ] *n* elektr, elektr quvvati, elektr yorug'i, elektr chiroqlari.

electrification [ɪˌlektrɪfɪˈkeɪʃən] *n fiz.* elektr energiya bilan ta'minlash, elektrlash.

electrified [ɪˈlektrɪfɪəd] *v* 1) elektr bilan ta'minlamoq; 2) ruhlantirmoq.

electrify [ɪˈlektrɪfaɪ] *v* 1) elektrlashtirmoq; 2) zaryadlamoq; 3) ilhomlantirmoq, kuch bag'ishlamoq, hayajonlantirmoq.

electrization [ɪˌlektrɪˈzeɪʃn] *n* 1) *fiz.* elektrlash; zaryadlash; 2) *tib.* elektr bilan davolash.

electrize [ˈelektraɪz] = **electrify.**

electrochemistry [ɪˌlektrəuˈkemɪstrɪ] *n* elektrokimyo (*kimyoning elektrik va kimyoviy jarayonlarining o'zaro bog'lanishini o'rganadigan bo'limi*).

electrocute [ɪˈlektrəkjuːt] *v* 1) elektr toki bilan o'ldirmoq; 2) elektr stulida o'ldirmoq.

electrocution [ɪˌlektrəˈkjuːʃn] *n* elektr toki (quvvati) bilan o'ldirish.

electrode [ɪˈlektrəud] *n* elektrod.

electrolier [ɪˌlektrəuˈlɪə] *n* qandil, chilchiroq.

electrolysis [ˌɪlekˈtrɒləsɪs] *n* 1) elektroliz (*moddani, shu modda eritmasi orqali elektr toki o'tkazib, tarkibiy qismlarga ajratish*); 2) elektr toki vositasida yo'q qilish (*o'simta, tosh va b. larni*).

electrolyte [ɪˈlektrəulaɪt] *n* elektrolit (*elektr toki o'tkazilganda tarkibiy qismlarga ajraladigan kimyoviy modda*).

electromagnet [ɪˌlektrəuˈmægnɪt] *n* elektromagnit.

electromagnetic [ɪˌlektrəumægˈnetɪk] *a* elektromagnitizmga oid, elektromagnitizm; **~ waves** elektromagnitik to'lqinlar.

electrometallurgy [ɪˌlektrəumeˈtælədʒɪ] *n* elektrometallurgiya.

electrometer [ɪlekˈtrɒmɪtə] *n* elektrometr (*elektr kuchlanishini o'lchaydigan asbob*).

electromotive [ɪˌlektrəuˈməutɪv] *a* elektr (toki) hosil qiluvchi; **~ force** elektr (toki) hosil qiluvchi kuch.

electromotor [ɪˌlektrəuˈməutə] *n* elektrodvigatel.

electron [ɪˈlektrɒn] *n fiz.* electron (*manfiy elektr zaryadli elementlar, zarracha*).

electronic [ˌelekˈtrɒnɪk] *a* elektronga oid, elektron...

electronics [ˌelekˈtrɒnɪks] elektronika (*fizikaning elektron jarayonlar haqidagi bo'limi*).

electropathy [ɪˌlekˈtrɒpəθɪ] *n tib.* elektr (toki) bilan davolash.

electroplate [ɪˈlektrəupleɪt] *n* galvanivatsiya qilmoq (*1. tib. galvani toki bilan davolash; 2. tex. galvani toki yordamida biror metalning sirtini boshqa metall bilan qoplash*).

electroscope [ɪˈlektrəskəup] *n* elektroskop (*elektr zaryadlarini aniqlaydigan asbob*).

elegance [ˈelɪgəns] *n* nafislik, ozodalik; **to dress with ~** did bilan kiyinmoq.

elegancy [ˈelɪgənsɪ] = **elegance.**

elegant [ˈelɪgənt] *a* 1) nafis, zebo; 2) bashang (orasta) kiyingan.

elegantly [ˈelɪgəntlɪ] *adv* bashang (orastalik) bilan; bashang, orasta.

elegiac [ˌelɪˈdʒaɪək] *a* mungli, g'amgin.

elegy [ˈelədʒɪ] *n* 1) elegiya; 2) mungli ohang, mungli lirik she'r.

element [ˈelɪmənt] *n* 1) element, tarkibiy qism; 2) *kim.* element.

elemental [ˌelɪˈmentl] *a* 1) tabiiy, tabiat kuchi bilan bo'ladigan; 2) asosiy, eng muhim.

elementary [ˌelɪˈmentərɪ] *a* boshlang'ich, ibtidoiy, dastlabki.

elephant ['elɪfənt] *n* 1) *zool.* fil; 2) *og'z.* fil suyagi.
elephantine [ˌelɪ 'fæntaɪn] *a* filga oid, fil.
elevate ['elɪveɪt] *v* 1) ko'tarmoq, oshirmoq (*lavozimda, unvonda*); **to ~ the voice** ovozini ko'tarmoq; 2) qo'zg'altirmoq, zavq-shavqini oshirmoq.
elevated ['elɪveɪtɪd] **1.** *a* 1) baland, yuqori; 2) ko'tarinki, yuksak, buyuk; **2.** *v* baland qilmoq, ko'tarmoq.
elevating ['elɪveɪtɪŋ] **1.** *pres. p.* **elevate** *dan*; **2.** *a* 1) ko'taradigan, oshiradigan; 2) ma'rifiy, tarbiyaviy.
elevation [ˌelɪ'veɪʃn] *n* 1) ko'tarilish, oshish; **~ and depressions** yuksalishlar va tushishlar; 2) yuksaklik, ulug'vorlik; **~ of style** uslubning ulug'vorligi; 3) tepalik, balandlik; 4) balandlik (*dengiz sathidan*).
elevator ['elɪveɪtə] *n* 1) yuk ko'targich (*mashina, mexanizm, qurilma*); 2) *amer.* lift.
eleven [ɪ 'levn] *n num. card.* o'n bir.
eleventh [ɪ'levnθ] *n num. ord.* o'n birinchi.
elf [elf] *n* 1) *folk.* elf (*qadimqi Skandinaviyada: ruh, pari kabi afsonaviy maxluq*); 2) juda past bo'yli odam; 3) to'polonchi, shum (*kishi*).
elf-lock ['elflɔk] *n* chigal sochlar.
elicit [ɪ'lɪsɪt] *v* 1) olmoq, aniqlamoq; talab qilmoq; **to ~ truth by discussion** bahslashib haqiqatni aniqlamoq; 2) erishmoq; **to ~ reply** javob olishga erishmoq.
failed [ˈfeɪld] *a* 1) muvaffaqiyatsiz, ishi o'ngidan kelmagan; 2) singan, inqirozga uchragan; ~ **firm** singan firma.

failing [ˈfeɪlɪŋ] **1.** *p. p.* **fail** *dan*; **2.** *n* nuqson, illat, ayb, kamchilik; **We all have our ~s.** Hammamizni o'z kamchiligimiz bor; **3.** *a* 1) yetishmaydigan; 2) zaiflashayotgan; ~ **sight** ko'rishning zaiflashishi; **4.** *prep.* yo'qligi tufayli, yo'q bo'lgan taqdirda; ~ **his arrival we shall stay here** u kelmay qolgan taqdirda, biz shu yerda qolamiz.

faille [feɪl] *n fr. to'qim.* fay (*bir turli shoyi yoki jun gazlama*).

failure [ˈfeɪljə] *n* 1) muvaffaqiyatsizlik, barbod bo'lish; **dead ~** butkul barbod bo'lish; **to end in ~** muvaffaqiyatsizlik bilan yakunlanmoq; 2) yetishmaslik, yo'q bo'lish (*biror narsaning*); **~ of rain** qurg'oqchilik, yomg'irsizlik; **crop ~** hosilsizlik; 3) omadsiz, ishi o'ngidan kelmaydigan odam; **he was a ~ in art** u san'atda omadsiz edi; 4) bajarmaslik, amalga oshmaslik; ~ **to keep a promise** va'dani buzish; 5) *tex.* buzilish, avariya, shikastlanish, ishlamay qolish; ~ **of a pomp** nasosning buzilishi.

fain [feɪn] *a* majbur bo'lgan, ilojsiz qolgan; **she was ~ to keep silence** u gapirmasligi kerak edi, u og'zini ochmaslikka majbur edi; **she was ~ to comply** u rozi bo'lishga majbur edi.

faineant [ˈfeɪnɪənt] **1.** *a* yalqov, dangasa, tanbal; **2.** *n* yalqov (dangasa, tanbal, ishyoqmas) kishi.

faint [feɪnt] **1.** *n* hushidan (o'zidan) ketish, behush bo'lib yotish, hushsizlik, behushlik; **2.** *a* 1) kuchsiz, bo'sh, zaif, kuch-qudrati oz; 2) rangi ketgan, xira; **3.** *v* hushidan (o'zidan) ketmoq.

faint-heart [ˈfeɪnthɑ:t] *n* qo'rqoq, yuraksiz, quyon yurak.

faint-hearted [ˌfeɪntˈhɑ:tɪd] *a* qo'rqoq, yuraksiz, qo'rqoq kishi.

faint-heartedly [ˌfeɪntˈhɑ:tɪdlɪ] *adv* qo'rqib, hadiksirab.

fainting-fit [ˈfeɪntɪŋfɪt] *n* hushidan (o'zidan) ketish, behush bo'lib qolish.

faintly [ˈfeɪntlɪ] *adv* rangi oqarib, bo'zarib, zo'rg'a.

fair [feə] **1.** *n* yarmarka, bozor, ko'rgazma; **world ~** jahon ko'rgazmasi; **2.** *a* 1) vijdonli, adolatli, beg'araz, qonuniy; **by ~ means** qonuniy yo'l bilan; ~ **price** adolatli (haqiqiy) narx; 2) durustgina, chidasa bo'ladigan; **in ~ condition** durust (yaxshi) holatda; **a ~ number of** yetarli miqdorda; 3) oq malla, sarg'ish; ~ **hair** sarg'ish

sochli; 4) toza, dog' tushmagan; ~ **name** pok (*yaxshi*) nom; 5) ochiq va quyoshli kun; ~ **sky** musaffo osmon; ~**ly** xiyla, ancha; **3.** *adv* 1) aniq, aynan, to'g'ri; 2) ro'yirost, halollik bilan.

fair-dealing ['feə,di:liŋ] *n* vijdonlilik, to'g'rilik, halollik, poklik.

fair-haired ['feəheəd] *a* sarg'ish sochli, oq malla.

fairing ['feəriŋ] *n* 1) yarmarkadan sovg'a (*ko'pincha meva-cheva*); 2) *tex.* obtekatel.

fairly ['feəli] *adv* 1) haqqoniy ravishda, odilona, haqqoniylik (odillik, adolat) bilan, to'g'ri; 2) ancha, yetarli darajada; 3) mutlaqo, juda, g'oyat; 4) *amer.* albatta, so'zsiz, shak-shubhasiz.

fairness ['feənəs] *n* 1) adolatlilik, haqqoniylik, odillik, to'g'rilik; 2) ozodalik, pokizalik, tozalik; **in all** ~ vijdonan gapirganda, ochig'ini (rostini) aytganda.

fair-spoken [,feə'spəukən] *a* xushmuomala, muloyim, yumshoq.

fairway ['feəwei] *n* farvater (*suvning kemalar yura oladigan chuqur joyi, kema yo'li*); kema qatnaydigan kanal.

fair-weather ['feəweðə] *a* faqat yaxshi ob-havoda kerak bo'ladigan (*foydalanadigan*); ~ **friends** ishonchsiz do'stlar; ~ **sailor** tajribasiz dengizchi.

fairy ['feəri] **1.** *n* sehrgar (jodugar) ayol; **2.** *a* sehrli, sehrlab qo'yadigan (*maftun qiladigan go'zal*); afsonaviy.

Fairyland ['feərilænd] *n* afsonaviy mamlakat.

fairy-mushroom ['feəri,mʌʃrum] *n* qurbaqasalla (*zaharli qo'ziqorin*).

fairy-tale ['feəriteil] *n* afsona, ertak.

fait accompli [,feitə'kɔmpli:] *n fr.* bo'lgan voqea.

faith [feiθ] *n* 1) ishonch, ishonish; **to have** ~ **in smth.** biror narsaga ishonish; **to place one's ... in smth.** biror narsaga ko'r-ko'rona ishonish; 2) e'tiqod, din; **the Muhammedan** ~ islom dini; 3) maslak, nuqtayi nazar, qarash; **political** ~ siyosiy maslak; **to keep one's** ~ o'z nuqtayi nazarida qat'iy turmoq; 4) sodiqlik, sadoqatlilik, tarafdorlik; **in good** ~ chin qalbdan, toza vijdon bilan; 5) va'da qilish, kafil bo'lish, so'z berish; **to keep (one's)** ~ so'zida turmoq; ~**ful** sodiq, ishonchli, vafodor.

faithful ['feiθfəl] *a* 1) chin, saodatli; ~ **friend** sadoqatli do'st; 2) aniq ishongan, ishonch qozongan; 3) vijdonli.

faithfully ['feiθfəli] *adv* vijdonan, to'g'ri, halollik bilan; **to serve smb.** ~ kimgadir vijdonan xizmat qilmoq.

faithfulness ['feiθfəlnəs] *n* sodiqlik, vafodorlik, sadoqat, vafo, sidqidillik.

faithless ['feiθləs] *a* ahdini buzuvchi, o'z so'zida turmaydigan, bevafo.

fake [feik] **1.** *n* 1) qalbaki, soxta, yasama; 2) yolg'onchilik, firibgarlik, g'irromlik; **2.** *v* 1) qalbaki narsa yasamoq; 2) aldamoq.

faked [feikt] *a* soxta, qalbaki, yasama, qalbakilashtirilgan; ~ **diamonds** soxta olmoslar; ~ **report** qalbaki hisobot.

faker ['feikə] *n* firibgar, qallob, muttaham.

Falangist [fə'lɑ:ndʒist] *n* falangist, falangachi (*Ispaniyada: fashistik partiya a'zosi*).

falcate ['fælkeit] *a max.* o'roqqa o'xshash, o'roqsimon.

falcated ['fækeitid] = **falcate.**

falchion ['fɔ:ltʃən] *n* kalta enli egri qilich, shamshir.

falciform ['fælsifɔ:m] *a* egik, ilgaksimon, o'roqsimon.

falcon ['fɔ:lkən] *n* lochin.

falconer ['fɔ:lkənə] *n* lochin bilan ov qiladigan ovchi.

falconet ['fɔ:lkənət] *n zool.* qarqunoq, olato'g'anoq.

falconry ['fɔ:lkənri] *n* lochin ovi.

falderal ['fældə,ræl] *n* mayda-chuyda bezak, buyum, zeb-ziynat, pardoz.

faldstool ['fɔ:ldstu:l] *n* 1) episkopning buklanadigan kreslosi; 2) buklanadigan kichkina qiya stol.

fall [fɔ:l] **1.** *n* 1) pasayish, tushish; 2) pastga tushishi; ~ **in temperature** haroratning pasayishi; 3) sharshara; **the** ~ **s of Niagara** Niagara sharsharasi; 4) pastlik, qiyalik, qoya; 5) to'kilish (*soch*); 6) *amer.* kuz; **2. (fell; fallen)** *v* 1) tushmoq, tushib ketmoq; pasayib ketmoq; 2) halok bo'lmoq; **to** ~ **in battle** jangda halok bo'lmoq; ~ **about** *so'zl.* qattiq kulgidan ichagi uzilmoq, kulaverib ichagi uzilmoq; ~ **breast** dan orqada qolmaslik; ~ **across** to'satdan uchrashib qolmoq; ~ **away** tashlab ketmoq; **all his old friends fell away** hamma qadrdon do'stlari uni tashlab ketdilar; ~ **off** tushmoq; **all the leaves have** ~ **en off** hamma barglar to'kilib bo'ldi.

fallacious [fə'leiʃəs] *a* xato, noto'g'ri; ~ **argument** noto'g'ri dalil (isbot).

fallacy ['fæləsi] *n* xatolik, xato; xato fikr, noto'g'ri xulosa.

fal-lal [fæ'læl] *n* bezak, zeb-ziynat, yarqiroq taqinchoqlar.

fallen ['fɔ:lən] **1.** *p. p.* **fall 2** *dan*; **2.** *a* yiqilgan, qulagan, yiqilib tushgan; **3.** *n* **(the** ~**)** *pl* urushda halok bo'lganlar.

fall-guy ['fɔ:lgai] *n jarg.* hamma baloga to'g'anoq odam; boshqalarning aybiga javobgar bo'lib qolgan odam.

fallibility [,fælə'biləti] *n* xatolik, noto'g'rilik, yang-lishlik, xato, nuqson, kamchilik.

fallible ['fæləbl] *a* xato qilgan, xato qilishi mumkin bo'lgan.

falling ['fɔ:liŋ] **1.** *pres. p.* **fall 2.** *dan*; **2.** *n* 1) yiqilish, yiqilib tushish; 2) tushish, pasayish.

falling sickness [,fɔ:liŋ'siknəs] *n tib.* epilepsiya, tutqanoq, quyonchiq (*kasallik*).

fall-out [ˈfɔ:laut] *n* yog'ilgan radioaktiv zarralar.
fallow [ˈfæləu] **1.** *n q.x.* ekilmagan, dam berib qo'yilgan yer (*shudgor qilib, bir yoz bo'sh qoldirilgan yer*); **2.** *v* shudgor qilmoq; **3.** *a* qizg'ish-sariq.
fallow-deer [ˈfæləudɪə] *n* lan (*bug'ularga mansub juft tuyoqli hayvon*).
false [fɔ:ls] *a* 1) soxta, qalbaki; ~ **pride** qalbaki mag'rurlik; 2) yasama; ~ **hair** yasama soch (*parik*).
false arch [ˈfɔ:lsɑ:tʃ] *n qur.* manzarali ravoq.
false-hearted [ˌfɔ:ls ˈhɑ:tɪd] *a* ahdini buzuvchi, o'z so'zida turmaydigan, ahdidan qaytuvchi; bevafo.
falsehood [ˈfɔ:lshud] *n* yolg'on, yolg'on (noto'g'ri) gap; **He never told ~s.** U hech qachon yolg'on gapirmagan.
falsely [ˈfɔ:lslɪ] *adv* soxta, yolg'ondakam, yasama.
falseness [ˈfɔ:lsnəs] *n* xatolik; yolg'onchilik, makkorlik.
falsetto [fɔ:lˈsetəu] *n mus.* falset (*ashula aytishda: juda baland ovoz*).
falsework [ˈfɔ:lswə:k] *n* havoza (*qurilishlarda ko'tarib ishlangan ish joyi*).
falsification [ˌfɔ:lsɪfɪˈkeɪʃn] *n* soxtalashtirish, qalbakilashtirish.
falsify [ˈfɔ:lsɪfaɪ] *v* soxtalashtirmoq, qalbakilashtirmoq, buzib ko'rsatmoq.
falsity [ˈfɔ:lsətɪ] *n* 1) yolg'onlik, soxtalik, xatolik; 2) ahdini buzish.
falter [ˈfɔ:ltə] *v* 1) noto'g'ri harakat qilmoq; 2) ikkilanmoq.
faltering [ˈfɔ:ltərɪŋ] **1.** *pres. p.* **falter** *dan*; **2.** *a* ikkilanuvchi, jur'atsiz; ishonchsiz; ~ **steps** ishonchsiz (noto'g'ri) harakat.
fame [feɪm] **1.** *n* shon-sharaf, shuhrat, dong; **to make** ~ sharafga erishmoq; **2.** *v* mashhur bo'lmoq.
famed [feɪmd] **1.** *p. p.* **fame 2.** *dan*; **2.** *a* mashhur, nomi chiqqan, tanilgan.
familiar [fəˈmɪlɪə] **1.** *a* yaqin, qalin, qadrdon; ~ **friends** qadrdon do'stlar; **2.** *n* yaqin do'st, qadrdon o'rtoq, sirdosh o'rtoq.
familiarity [fəˌmɪlɪˈærətɪ] *n* yaqin (do'stona) munosabat.
familiarization [fəˌmɪlɪəraɪˈzeɪʃn] *n* 1) o'zlashtirish, bilib olish (*biror narsani*); 2) tanishish, tanishtirish.
familiarize [fəˈmɪlɪəraɪz] *v* tanishtirmoq, ko'rsatmoq; **to ~ smb. with a new job** yangi ish bilan tanishtirmoq.
familiarly [fəˈmɪlɪəlɪ] *adv* tortinmasdan, surbetlik bilan, uyalmay, surbetlarcha.
family [ˈfæməlɪ] **1.** *n* oila, oila a'zolari, urug'; ~ **likeness** oilaviy o'xshashlik; ~ **hotel** oila uchun mehmonxona; ~ **friend** oila do'sti; ~ **name** familiya; **2.** *attr.* 1) oilaga oid, oilaviy, oila...; **a man of** ~ oilali kishi; **a man of good** ~ yaxshi oiladan chiqqan kishi; 2) *max.* oila; **cat** ~ *zool.* mushuksimonlar oilasi; 3) hamdo'stlik, birlashma, uyushma.
famine [ˈfæmɪn] *n* ochlik, tabiiy ofat; ocharchilik; **to die of** ~ ochlikdan o'lmoq.
famish [ˈfæmɪʃ] *v* 1) och qolmoq, ochiqmoq; **I'm ~ing** *og'z.* Men ochlikdan o'lyapman; 2) ochdan o'ldirmoq.
famished [ˈfæmɪʃt] *a* och, och qolgan.
famous [ˈfeɪməs] *a* atoqli, shonli, mashhur; **he is a ~ English writer** u atoqli ingliz yozuvchisi; **he has a ~ appetite** Uning ishtahasi zo'r; **that's** ~ zo'r, a'lo; **to be ~ for** biror narsa bilan mashhur bo'lmoq.
famously [ˈfeɪməslɪ] *adv* juda, juda ham, rosa; **They dined ~ in a Chinese restaurant.** Ular Xitoy restoranida zo'r tushlik qilishdi.
famuli [ˈfæmjulaɪ] *pl* **famulus** *dan.*
famulus [ˈfæmjuləs] *n* (*pl* **-li**) professorning yordamchisi.
fan I [fæn] **1.** *n* 1) yelpig'ich, buklama yelpig'ich; 2) shamol parrak; **electric** ~ elektr shamol parrak; **2.** *v* 1) yelpimoq, yelpib (*shopirib*) tozalamoq (*donni*); 2) puflamoq.
fan II [fæn] *n* 1) jonboz, tashabbuskor; 2) ishqiboz, havasmand; **He is a football** ~ U futbol ishqibozi; **film** ~ film ishqibozi.
fanatic [fəˈnætɪk] *n* 1) o'taketgan mutaassib; 2) o'ta ishqiboz, biror ish yoki g'oyaga jondili bilan berilgan odam.
fanatical [fəˈnætɪkl] *a* mutaassib bo'lgan.
fanaticism [fəˈnætɪsɪzm] *n* fanatizm, o'taketgan mutaassib.
fancier [ˈfænsɪə] *n* yaxshi biladigan, bilag'on; bilimdon, bilarmon, usta, omilkor.
fanciful [ˈfænsɪfəl] *a* 1) serxarxasha, injiq; ~ **child** injiq bola; 2) xayoliy, serhasham, aqlga to'g'ri kelmaydigan.
fancy [ˈfænsɪ] **1.** *n* xayol, faraz, o'y, tasavvur; **2.** *a* 1) havasmand, ishqiboz; 2) zamonaviy; ~ **goods** zamonaviy mahsulotlar; 3) gul solib tikilgan, gulli; **3.** *v* 1) tasavvur qilmoq; **I can't ~ him as soldier.** Men uni askar bo'lganini tasavvur qilolmayman; 2) yoqtirmoq; **I don't ~ this place at all.** Men bu joyni umuman yoqtirmayman; 3) kerilmoq, manmanlik qilmoq.
fancy-ball [ˌfænsɪˈbɔ:l] *n* maskarad (*niqob va maxsus kiyimlar kiyib o'tkaziladigan sayil*).
fancy-dress [ˌfænsɪˈdres] *a* teatr libosi kiygan, teatr libosidagi.
fancy-free [ˌfænsɪˈfri:] *a* oshiq bo'lmagan, sevmagan.
fancy-work [ˈfænsɪwə:k] **1.** *v* gul tikib bezamoq; **2.** *n* kashta tikish, kashtado'zlik.
fandango [fænˈdæŋgəu] *n* 1) fandango (*ispancha raqs*); 2) *amer. so'zl.* katta bazm, o'yin-raqs kechasi.
fane [feɪn] *n* ibodatxona, butxona.

fanfare [ˈfænfɛə] *n mus.* fanfara (*puflab chalinadigan musiqa asbobi*).

fanfaronade [ˌfænfærəˈneɪd] *n* maqtanchoqlik, lofchilik, kekkayishlik, maqtanish, gerdayish, lof urish.

fang [fæŋ] *n* 1) qoziq tish, so'yloq tish; 2) zaharli tish (*ilonlarda*); 3) tishning ildizi.

fan-light [ˈfænlaɪt] *n me'mor.* yelpig'ich shaklidagi deraza (*eshik tepasida*).

fanner [ˈfænə] *n* shamolmashina (*don sovuradigan mashina*).

fanny [ˈfænɪ] *n* quyruq qism, quyruq, dum, orqa.

fantasia [fænˈteɪzɪə] *n mus.* fantaziya (*erkin shaklda yozilgan musiqa asari*).

fantastic(al) [fænˈtæstɪk(əl)] *a* antiqa, g'aroyib, ajoyib; ~ **idea** g'aroyib o'ylab topilgan narsalar; ~ **fears** yolg'ondakam qo'rquv; ~ **profit** juda katta foyda.

fantasticality [fænˌtæstɪˈkælətɪ] *n* ajoyiblik, g'aroyiblik, antiqalik.

fantasy [ˈfæntəsɪ] *n* 1) xayol; 2) ko'z bo'yash; 3) injiqlik.

fantasize [ˈfæntəsaɪz] *v* o'ylamoq, tasavvur qilmoq, xayoliga keltirmoq.

fantoccini [ˌfæntəˈtʃi:nɪ] *n it. pl* 1) qo'g'irchoqlar teatri; 2) qo'g'irchoqlar.

fan tracery [ˈfænˌtreɪsərɪ] *n me'mor.* gumbaz (qubba) qirrasi.

far [fɑ:] **1.** *adv* (**farther, further; farthest, furthest**) uzoq, yiroq; anchagina xiyla; ~ **back in the past** uzoq o'tmishda; ~ **and near** hamma yoqda; **he saw ~ and wide** dunyoqarashi keng inson; **as ~ as** qancha bo'lmasa, ... shuncha; **2.** *a* uzoqdagi, olisdagi; ~ **East** Uzoq Sharq.

farad [ˈfærəd] *n el.* farada (*elektr sig'imi birligi*).

faradization [ˌfærədɪˈzeɪʃn] *n* induksion (*induksiyalangan*) tok bilan davolash.

far-away [ˌfɑ:rəˈweɪ] *a* 1) uzoq, yiroq, olis; uzoqdagi, yiroqdagi, olisdagi; 2) ma'nosiz, befarq; ~ **look** ma'nosiz qarash.

far-between [ˌfɑ:bɪˈtwi:n] *a* siyrak, kam; **Father's visits were few and ~.** Otam onda-sonda kelardi.

farce I [fɑ:s] *n* 1) qo'pol hazil, maynabozchilik; 2) *teatr.* kichik hajviy pyesa.

farce II [fɑ:s] **1.** *n* qiyma (*go'sht qiymasi*); **2.** *v* qiyma solmoq, qiyma bilan to'ldirmoq.

farcical [ˈfɑ:sɪkl] *a* masxarabozlarcha, qiziqchilarcha.

farcy [ˈfɑ:sɪ] *n* manqa (*otlarda bo'ladigan yuqumli kasallik*).

fardel [ˈfɑ:dl] *n* 1) tugun, bo'xcha; 2) og'ir yuk.

fare [fɛə] *n* 1) yo'l haqi; yo'l haqi qiymati; **What is the ~?** Yo'l haqi (chipta) qancha turadi?; 2) yo'lovchi; **to pick up** ~ yo'lovchi olmoq; 3) oziq-ovqat; **simple** ~ oddiy ovqat; **spiritical** ~ ma'naviy oziq.

Far-Eastern [ˌfɑ:rˈi:stən] *a* Uzoq-Sharqdagi, Uzoq-Sharqqa oid.

farewell [ˌfɛəˈwel] **1.** *n* xayrlashish, vidolashish; **to make one's ~s** xayrlashmoq; **2.** *a* xayrlashuvga oid.

far-famed [ˈfɑ:ˌfeɪmd] *a* dong'i chiqqan, dong taratgan, mashhur.

far-fetched [ˌfɑ:ˈfetʃt] *a* sun'iy, yasama, notabiiy.

far-flung [ˌfɑ:ˈflʌŋ] *a* 1) keng, yoyilgan; 2) bepoyon.

far-gone [ˌfɑ:ˈgɔn] *a* uzoqqa cho'zilish, chuqurlashish; **sitting in the ~ night** yarim tungacha o'tirish; 2) g'irt mast; 3) qarzga botgan.

farina [fəˈri:nə] *n* 1) un; 2) kukun; 3) bug'doy yormasi; 3) kraxmal, kartoshka uni.

farinaceous [ˌfærɪˈneɪʃəs] *a* kraxmalli, unli, serkraxmal, un solingan.

farinose [ˈfærɪnəus] *a* kraxmalli, unli, tarkibida un *yoki* kraxmal bo'lgan.

farm [fɑ:m] **1.** *n* 1) ferma, xo'jalik; **milk** ~ sut fermasi, sut xo'jaligi; **collective** ~ jamoa xo'jaligi; 2) dehqon xo'jaligi; **individual** ~ yakka xo'jalik; 3) niholxona, qo'riqxona; 4) fermadagi turar joy; **2.** *v* 1) qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanmoq; 2) ishlov bermoq (*yerga*); 3) ijaraga olmoq, ijaraga bermoq.

farmer [ˈfɑ:mə] *n* fermer; **cattle** ~ chorvador; chorvachilik fermasining egasi; **collective** ~ jamoa xo'jaligida ishlovchi kishi; 2) ijarachi, ijaraga oluvchi.

farm-hand [ˈfɑ:mhænd] *n* qishloq xo'jaligi ishchisi.

farm-house [ˈfɑ:mhaus] *n* qishloq xo'jaligidagi turar joy (uy).

farming [ˈfɑ:mɪŋ] *n* 1) qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanish, dehqonchilik; 2) qishloq xo'jaligi.

farmstead [ˈfɑ:msted] *n* 1) qo'rg'oncha, qishloqcha; 2) hovli-joy; 3) qo'rg'on (*jamoa xo'jaligining uy-joylar va xo'jalik binolari bo'lgan shahar tipidagi qishloq*).

farmyard [ˈfɑ:mjɑ:d] *n* ferma hovlisi.

faro [ˈfɛərəu] *n* faraon (*qarta o'yinining bir turi*).

far-off [ˌfɑ:rˈɔf] *a* 1) uzoq, ilgari, allaqachon; **it happened in those ~ days** bu ilgari bo'lib o'tgan; 2) uzoq, olis, yiroq, uzoqdagi, yiroqdagi.

farouche [fəˈru:ʃ] *a fr.* 1) odamovi; kishilarga aralashmaydigan, yovvoyi; 2) xo'mraygan, badqovoq.

far-out [ˌfɑ:rˈaut] *a* hayotdan ajralib qolgan; atrofda bo'layotganlardan bexabar.

farraginous [fəˈrædʒɪnəs] *a* aralash, terma, yig'ma, terilgan, terib olib tuzilgan.

farrago [fəˈrɑ:gəu] *n* aralashma, har xil narsalar, olamdagi bor narsalar, qorishma.

far-reaching [ˌfɑ:ˈri:tʃɪŋ] *a* 1) keng qo'llaniladigan; 2) keng tatbiq etilgan, keng joriy qilingan.

farrier [ˈfærɪə] *a* temirchi, taqachi.

farriery [ˈfærɪərɪ] *n* 1) temirchilik, taqachilik; 2) temirchilik ishxonasi.

farrow [ˈfærəu] **1.** *n* bolalash, tug'ish (*cho'chqa haqida*): **2.** *v* bolalamoq, tug'moq; **3.** *a amer.* qisir (*sigir haqida*).

far-seeing [ˌfɑːˈsiːɪŋ] *a* uzoqni ko'ruvchi, sinchkov, oldindan ko'ra biluvchi.

far-sighted [ˌfɑːˈsaɪtɪd] *a* uzoqni ko'ra biladigan.

farther [ˈfɑːðə] *a* 1) ancha uzoq, olis; **at the ~ shore** narigi qirg'oqda; 2) qo'shimcha; **Have you anything ~ to say?** Yana biror narsa qo'sha olasizmi?

farthermost [ˈfɑːðəməust] *a* eng uzoq, juda yiroq; **the ~ point** eng oxirgi nuqta.

farthest [ˈfɑːðɪst] *a* eng uzoqdagi, eng oxirgi.

farthing [ˈfɑːðɪŋ] *n esk.* farting (*1/4 pens*); **the utter most ~** oxirgi tanga; **it's not worth a ~** bir chaqaga qimmat; **not to care a brass ~** tupurmoq.

fascia [ˈfeɪʃə] *n* (*pl* **-iae**) 1) chiziq, chiziqcha; 2) korxona, muassasa va sh.k.ning nomi yozilgan va kiraverishdagi osib qo'yilgan lavha.

fasciae [ˈfeɪʃɪiː] *pl* **fascia** *dan.*

fascicle [ˈfæsɪkl] *n bot.* bir bog', bir bosh, bir shingil.

fascicule [ˈfæsɪkjuːl] = **fascicle.**

fascinate [ˈfæsɪneɪt] *v* hayratda qoldirmoq, asir qilmoq; maftun qilmoq, jalb etmoq.

fascinating [ˈfæsɪneɪtɪŋ] **1.** *pres. p.* **fascinate** *dan*; **2.** *a* o'ziga tortuvchi, o'ziga qaratadigan, asir qiladigan.

fascination [ˌfæsɪˈneɪʃn] *n* ko'rkamlik, go'zallik, jozibа maftun etish.

fascinator [ˈfæsɪneɪtə] *n* 1) sehrgar, jodugar; 2) dilrabo, dilbar, maftunkor, jozibali.

fascine [fæˈsiːn] *n* shox-shabba *yoki* qamish bog'lami (*to'g'on uchun ishlatiladi*).

Fascism [ˈfæʃɪzm] *n* fashizm (*siyosiy oqim*).

fascist [ˈfæʃɪst] *n* fashist.

fash [fæʃ] **1.** *n* tashvishlanish, bezovtalik, ranjish; **2.** *v* bezovtalanmoq, tashvishlanmoq; **never ~ yourself with me** mendan xavotir bo'lmang.

fashion [ˈfæʃən] *n* 1) harakat (muomala) tarzi; **he behaved in a strange ~** u o'zini g'alati tutdi, 2) fason, bichim, shakl; **the two cups are made after the same ~** ikkala piyolaning shakli bir xil; 3) uslub, rusum, moda; **he was dressed in the Easten ~** u sharqona rusumda kiyingandi; **to come (to bring, to grow) into ~** rusum (*moda*) bo'lmoq; **to be in the ~** modaga rioya qilmoq; **out of ~** modadan chiqqan.

fashionable [ˈfæʃnəbl] *a* zamonaviy; modadagi; rasm bo'lgan; **~ dressmaker** zamonaviy tikuvchi.

fashioner [ˈfæʃənə] *n* tikuvchi, chevar.

fashion-monger [ˈfæʃnˌmʌŋgə] *n* zamonaviy, modaga berilgan kishi, olifta (bashang) kishi.

fashion-paper [ˈfæʃnˌpeɪpə] *n* modalar jurnali.

fashion-plate [ˈfæʃnpleɪt] *n* zamonaviy rasm (tasvir).

fast I [fɑːst] **1.** *n* zanjir, zulfin, tamba; **2.** *a* 1) qattiq, pishiq, mustahkam; **~ rocks** qattiq qoyalar; **hard and ~ rule** qattiq qoida; 2) mustahkam, pishiq biriktirilgan; 3) sabotli, matonatli, sodiq; **~ friend** sodiq do'st.

fast II [fɑːst] **1.** *a* 1) tezkor, chaqqon; **~ horse** uchqur ot; **~ tank** tezyurar tank; **he is a ~ worker** u tez ishlaydi; 2) tez yurish *yoki* tez harakatlanishga moslangan; **~ trank** poyezdning tez yurishiga moslangan yo'l; 3) oldin ketish (*soat to'g'risida*); **my watch is 5 minutes ~** soatim 5 minut oldin; 4) yengiltak, mulohazasiz, oqibatini o'ylamaydigan; **to lead a ~ life** sayoq yashamoq; **~ woman** suyuqoyoq ayol; **2.** *n din.* ro'za; **a day for a general ~** ro'za kuni.

fasten [ˈfɑːsn] *v* 1) bog'lamoq, tugmoq; **to ~ shoelaces** tufli ipini bog'lamoq; **to ~ a boat to a tree** qayiqni daraxtga bog'lamoq; 2) mustahkamlamoq, biriktirmoq 3) yopmoq; **~ the window** derazani yoping (*deraza sumbasini solish*); 4) qotmoq, yopishmoq; **the plaster ~ s slowly** suvoq sekin qotadi; 5) jamlamoq, to'plamoq, qaratmoq (*diqqatni, e'tiborni*); **he ~ ed his eyes on the picture** u rasmdan ko'zini uzmasdi; 6) **(on, upon)** majburan qabul qildirmoq, bo'yniga ortmoq, o'tqazmoq; **to ~ the blame upon smb.** aybni birovga ag'darmoq.

fastener [ˈfɑːsnə] *n* 1) qulf, ilgak, zanjir, zulfin, tamba, tirgak; 2) qisqich, iskanja; 3) qog'oz qisqichi.

fastening [ˈfɑːsnɪŋ] *n* biriktirish, bog'lash, qistirib qo'yish.

faster-than-sound [ˈfɑːstəðənˈsaund] *a* tovushdan tez uchadigan; **~ aircraft** tovushdan tez uchadigan samolyot.

fasti [ˈfæstiː] *n lot.* solnoma, yilnoma (*zamondoshlar tomonidan yilma-yil yozib borilgan tarix*).

fastidious [fæˈstɪdɪəs] *a* 1) farqiga boradigan, tanlaydigan, talabchan, injiq; **don't be so ~** bunchalik injiq bo'lma; 2) nozik, nafis; **~ hands** bejirim qo'llar.

fasting [ˈfɑːstɪŋ] **1.** *n* ro'za; **2.** *a* ro'za tutgan; **3.** *adv* och qoringa.

fastness [ˈfɑːstnəs] *n* 1) pishiqlik, mustahkamlik; 2) chidamlilik; 3) qal'a, qo'rg'on, istehkom; 4) *biol.* organizmning ayrim zaharlarga qarshilik ko'rsatish qobiliyati.

fat [fæt] **1.** *n* 1) yog', moy; **vegetable ~** o'simlik yog'i; 2) semizlik, to'lalik, yo'g'onlik; **to be inclined to ~** semirishga moyil bo'lmoq; 3) eng yaxshi qismi (*biror narsaning*); **to live on the ~ of the land** dabdabali yashamoq, barcha qulayliklardan foydalanmoq; **2.** *a* 1) yog'li, moyli; **~ soup** yog'li sho'rva; 2) semiz, yo'g'on, to'la; **with years he was grown ~** yillar o'tib u semirib ketdi; 3) bo'rdoqiga boqilgan, semirtirilgan; **~ ox** semirtirilgan buqa; 4) hosildor, semiz (*yer*); 5) mo'l-ko'l, boy, serob; **~ larder** to'la

ombor; 6) *so'zl.* foydali, daromadli; ~ **job** daromadli ish.

fatal ['feɪtl] *a* 1) peshanaga yozilgan, taqdirdagi; 2) halokatli, falokatli, mash'um; o'ldiradigan.

fatalism ['feɪtəl,ɪzm] *n* fatalizm (*taqdirga ishonish*).

fatality [fə'tælətɪ] *n* 1) baxtsizlik, halokat, o'lim (*urushda, baxtsiz hodisadan va shu kabilarda*); 2) taqdir, qismat; peshana; **to believe in** ~ taqdirga ishonmoq.

fata morgana ['fɑ:təmɔ:'gɑ:nə] *n* 1) sarob; 2) Morgana sarobi (*bunda suv o'rnida turli narsalar ko'ringanday bo'ladi*).

fate [feɪt] *n* taqdir, qismat, peshana.

fated ['feɪtɪd] *a* oldindan belgilangan, peshanasiga yozilgan.

fateful ['feɪtfəl] *a* muqarrar, peshanaga yozilgan.

fat-guts ['fætgʌts] *n so'zl.* semiz odam, yo'g'on odam.

fat-head ['fæthed] *n* ahmoq, tentak, nodon.

father ['fɑ:ðə] *n* 1) ota; **adoptive** ~ tutingan ota; **natural** ~ nikohsiz tug'ilgan bolaning otasi; 2) yaratuvchi, ijodkor; 3) katta a'zo (oqsoqol); **city** ~ shahar otalari; shahar boshqaruvi a'zolari; 4) ma'naviy ota, ruhoniy.

fatherhood ['fɑ:ðəhud] *n* otalik, ota bo'lish.

father-in-law ['fɑ:ðərɪnlɔ:] *n* qaynata (*xotini yoki erining otasi*).

fatherland ['fɑ:ðəlænd] *n* vatan, yurt.

fatherless ['fɑ:ðələs] **1.** *a* otasiz qolgan, otasiz; **2.** *n* otasizlik.

fatherly ['fɑ:ðəlɪ] *a* otalarcha, otaga xos; ~ **responsibility** otalik javobgarligi.

fathom ['fæðəm] **1.** *n* 1) dengiz sarjini (= *6 fut yoki 182 sm.*); 2) izobata (*xaritalarda: dengiz, daryo, ko'l chuqurligi birday bo'lgan joylarni birlashtiruvchi chiziqlar*) ~ **line** *deng.* lot (*chuqurlikni o'lchash asbobi*); **2.** *v* 1) chuqurligini o'lchamoq (*suvni*); 2) tushunmoq; **I can't** ~ **his meaning** u nima demoqchiligini men tushuna olmayman.

fathometer [fæ'θɔmɪtə] *n deng.* exolot (*dengiz chuqurligini elektroakustik usul bilan o'lchaydigan asbob*).

fathomless ['fæðəmləs] *a* 1) o'lchab bo'lmaydigan; tubsiz; **the** ~ **depths of the sea** dengizdagi tubsiz chuqurlik; 2) aql yetmaydigan, aqlga sig'maydigan, aql bovar qilmaydigan.

fatidic(al) [feɪ'tɪdɪk(əl)] *a* payg'ambarga oid, payg'ambarona.

fatigue [fə'ti:g] **1.** *n* 1) toliqish, charchash; 2) charchaganlik, charchatadigan ish; 3) *q.x.* oriqlash (*yerning*); **2.** *v* charchamoq, toliqmoq.

fatigue-dress [fə'ti:g,dres] *n harb.* askar korjomasi, askarning ishga kiyadigan kiyimi.

fatten ['fætn] *v* semirtirmoq, bo'rdoqiga boqmoq.

fatty ['fætɪ] *a* 1) yog'li, moyli; 2) to'la, yo'g'on, semiz; ~ **degeneration of the heart** yurakning yog' bosib ketishi.

fatuity [fə'tju:ətɪ] *n* ahmoqlik, befarosatlilik, bema'nilik.

fatuous ['fætjuəs] *a* ahmoqona, tentaknamo; ~ **smile** bema'ni tabassum.

fat-witted ['fæt,wɪtɪd] *a* ahmoq, esi past, tentak, befarosat, befahm.

faubourg ['fəubuəg] *n fr.* shahar atrofi, shahar chegarasiga tutashgan qishloq *yoki* posyolka.

fauces ['fɔ:si:z] *n pl anat.* jig'ildon, kekirdak, halqum.

faucet ['fɔ:sɪt] *n* 1) *amer.* vodoprovodning (suv quvurining) jo'mragi; 2) jo'mrak; 3) *tex.* vtulka; 4) tiqin.

faugh [fɔ:] *int* tuf! tfu! (*nafratni ifodalaydi*).

fault [fɔ:lt] *n* 1) kamchilik, nuqson; **a** ~ **in cloth** gazlamadagi nuqson; 2) ayb, gunoh; **in (at)** ~ aybdor; **I am not in** ~ men aybdor emasman; **whose** ~ **is it?** bunda kim aybdor? 3) xato; **there's your** ~ mana xatoyingiz nimada; 4) xato, nojo'ya ish, buzish (*qonun va b.larni*).

faultfinder ['fɔ:ltfaɪndə] *n* aybsituvchi, tirnoq ostidan kir izlaydigan odam.

faultfinding ['fɔ:ltfaɪndɪŋ] *n* asossiz ayblash, aybsitish, tirnoq ostidan kir izlash.

faultless['fɔ:ltləs] *a* xatosiz, benuqson, bekamko'st; beayb.

faultly ['fɔ:ltɪ] *a* 1) nuqsonli, xatoli, nomukammal; 2) noto'g'ri, xato; ~ **argument** noto'g'ri dalil; 3) buzilgan, shikastlangan, yaroqsiz.

fauna ['fɔ:nə] *n* fauna (*ma'lum joy yoki davrga oid hayvonot dunyosi*).

faux pas [fəu 'pɑ:] *n* noto'g'ri qadam.

favor ['feɪvə] = **favour**.

favorable ['feɪvərəbl] = **favourable**.

favorite ['feɪvərɪt] = **favourite.**

favour ['feɪvə] **1.** *n* 1) xayrixohlik, moyillik, mayl; **to find** ~ **in smb's eyes** birovning iltifotiga sazovor bo'lmoq; **to be in hight** ~ **with smb** birovga juda yoqmoq; 2) iltifot ko'rsatish, iltifot, marhamat; **do me (him) a** ~ menga (*unga*) iltifot ko'rsatsangiz; **to heap ~s upon smb.** kimnidir marhamatlar bilan ko'mib tashlamoq; afzallik berish, homiylik qilish (*nufuzli kishi tomonidan*); **to gain a position by** ~ **more than by merit** mansab (*mavqe*) ga xizmati tufayli emas, balki homiylik tufayli erishmoq; 4) qo'llab-quvvatlash; yordam, ko'mak; 5) ruxsat, ijozat; **by (with) your** ~ ijozatingiz bilan; 6) xabar, xat; **your** ~ **of yesterday** sizning kechagi xatingiz; **2.** *v* 1) marhamat qilmoq, muruvvat ko'rsatmoq; **fortune ~s the brave** baxt botirlarga yo'ldosh bo'ladi; **please** ~ **me with answer** iltifot qilib savolimga javob bersangiz; 2) qulaylik tug'dirmoq, yordam bermoq; **the darkness** ~ **ed his escape** qorong'ilik uning qochishiga qo'l keldi; 3) qo'llab-quvvatlamoq, homiylik qilmoq; 4) biror narsani eslatmoq, o'xshash bo'lmoq; **the child ~s his mother** bola onasiga o'xshaydi.

favourable [ˈfeɪvərəbl] *a* 1) qulay, muvofiq keladigan: ~ **wind** muvofiq shamol; 2) xayrixoh, moyil, ko'ngli yaqin; **He was quite ~ to our project** U bizning loyihamizga xayrixohlik bilan qaradi; 3) ma'qullaydigan, ijobiy; ~ **answer** ijobiy javob.

favoured [ˈfeɪvəd] **1.** *p. p.* **favour 2.** *dan;* **2.** *a* 1) imtiyozli, imtiyozlardan foydalanadigan; afzal ko'radigan: ~ **friend** sevimli do'st; 2) rohatbaxsh, orombaxsh (*iqlim va b. lar haqida*).

favourer [ˈfeɪvərə] *n* homiy, tarafdor.

favourite [ˈfeɪvrət] **1.** *a* sevimli, jonajon, yaxshi ko'rgan; **2.** *n* eng yaxshi ko'rgan narsa.

favouritism [ˈfeɪvərɪtɪzm] *n* favoritizm, favoritchilik, afzallik, ortiq (afzal) ko'rish.

fawn [fɔ:n] **1.** *n* 1) bug'u bolasi (*bir yoshgacha*); 2) sarg'ish-jigarrang; 3 *og'z.* qullarcha xushomad qilish, qullarcha tiz cho'kish; **2.** *v* 1) dumini likillatmoq, suykalmoq (*it haqida*); 2) xushomad qilmoq, tiz cho'kmoq.

fawner [ˈfɔ:nə] *a* xushomadgo'y, laganbardor.

fax [fæks] **1.** *n* faks; **2.** *v* faks orqali jo'natmoq (yubormoq).

fay [feɪ] **1.** *n* 1) ishonch, e'tiqod; 2) sodiqlik, vafodorlik, sadoqat, vafo; 3) maftun qiladigan (sehrlab qo'yadigan) go'zal ayol; pari (*G'arbiy Yevropa afsonasida*); **2.** *v* zich biriktirmoq.

faze [feɪz] *v amer.* 1) bezovta qilmoq; 2) ranjitmoq.

fealty [ˈfi:əltɪ] *n tar.* qaram bo'lgan kishining feodalga sodiqligi.

fear [fɪə] **1.** *n* 1) qo'rqish, cho'chish; **needless ~s** o'rinsiz cho'chishlar; **to be in** ~ qo'rqmoq, **the ~ of death was upon him** o'lim dahshati uni chulg'ab olgandi; 2) xavfsirash, cho'chish; **there is not the slightest ~ of rain today** bugun yomg'ir yog'ishidan darak beradigan hech qanday xavf-xatar yo'q; **2.** *v* 1) qo'rqmoq; **never** ~ qo'rqmang; 2) xavfsiramoq, kutmoq (*biror noxushlikni*).

fearful [ˈfɪəfəl] *a* dahshatli, qo'rqinchli; ~ **to do smth.** qo'rqib bir narsa qilmoq.

fearfulness [ˈfɪəfulnəs] *n* qo'rqoqlik, qo'rqinchlilik, dahshatlilik.

fearless [ˈfɪələs] *a* qo'rqmas, dadil, mard, jasur.

fearlessness [ˈfɪələsnəs] *n* mardlik, botirlik, qo'rqmaslik.

fear-monger [ˈfɪə,mʌŋgə] *n* vahimachi.

fearnought [ˈfɪənɔ:t] *n* patli qalin movut.

fearsome [ˈfɪəsəm] *a* dahshatli, qo'rqinchli, dahshatga soladigan.

feasibility [ˌfi:zəˈbɪlətɪ] *n* bajarsa bo'ladiganlik, amalga oshadiganlik.

feasible [ˈfi:zəbl] *a* bajarilishi (amalga oshirilishi) mumkin bo'lgan.

feast [fi:st] **1.** *n* 1) to'y, bazm, ziyofat; 2) bayram; **a ~ for the eyes** yoqimli tomosha; **2.** *v* bayram qilmoq.

feast-day [ˈfi:stdeɪ] *n* oilaviy tantana, oilaviy bayram.

feat [fi:t] **1.** *n* 1) jasorat; ~ **of arms** harbiy jasorat; 2) mahorat, chaqqonlik, san'at; **2.** *a esk.* epchil, chaqqon, abjir.

feather [ˈfeðə] *n* 1) pat, par (*parrandaniki*); **as light as a** ~ pardek yengil; 2) *ov.* parranda; 3) biror yengil narsa, arzimas narsa.

feather-bed [ˈfeðəˈbed] **1.** *n* parto'shak; 2) qulay joy; **2.** *v* erkalamoq, erkalatmoq.

feather-brain [ˈfeðəbreɪn] *n* yengiltak (betayin, yengil tabiat) odam.

feather-brained [ˈfəðəbreɪnd] *a* miyasi yo'q, esi past, ahmoq.

feather-grass [ˈfeðəgrɑ:s] *n bot.* kovil, chalov.

feather-headed [ˈfeðəhedɪd] = **feather-brained**

feathering [ˈfeðərɪŋ] *n* pat, qush patlari.

feather-pate [ˈfeðəpeɪt] = **feather-brain.**

feather-stitch [ˈfeðəstɪtʃ] *n* boshoqqa o'xshatib gul tikish.

feather-weight [ˈfeðəweɪt] *n* juda yengil odam *yoki* narsa.

feathery [ˈfeðərɪ] *a* patga o'xshagan.

feature [ˈfi:tʃə] **1.** *n* 1) yuz tuzilishi; **she had arcental ~s** uning yuz tuzilishi sharqona edi; 2) xususiyat, o'ziga xos belgi; **the geographical ~ of a district** joyning o'ziga xos xususiyatlari; 3) dastur, tomoshaning eng qiziqarli joyi; **the actress is the main ~ of the show** aktrisa tomoshaning tayanchi hisoblanadi; 4) maqola, ocherk (*gazetada, jurnalda*); 5) to'la metrajli film; **2.** *v* 1) o'ziga xos, farqlovchi xususiyat bo'lmoq; 2) tasvirlamoq, chizmoq; rasm solmoq; 3) ko'rsatmoq, namoyish qilmoq (*ekranda*); 4) gazetada bermoq (*ko'rinadigan joyda*).

feature-length [ˈfi:tʃələŋθ] *a kino.* to'la metrajli.

featureless [ˈf i:tʃələs] *a* hech narsa anglatmaydigan, ifodasiz.

febrifuge [ˈfebrɪfju:dʒ] **1.** *tib. n* isitmani pasaytiradigan (*dori*); **2.** *a* isitmani pasaytiradigan, haroratni tushiradigan.

febrile [ˈfi:braɪl] *a* isitma vaqtida bo'ladigan, isitmali; ~ **chill** isitma aralash titroq; ~ **state** isitma holati.

February [ˈfebruərɪ] *n* fevral; ~ **days** fevral kunlari.

feces [ˈfi:si:z] = **faeces.**

fecit [ˈfi:sɪt] *v lot.* bajarildi, ijro etildi; tayyorladi (*rassomnig imzosi*).

feck [fek] *n* 1) kuch; 2) aksariyat, ko'p qismi.

feckless [ˈfekləs] *a* 1) foydasiz, befoyda; 2) qo'lidan hech narsa kelmaydigan.

feculence [ˈfekjuləns] *n* quyqum, loyqa.

feculent [ˈfekjulənt] *a* loyqalangan.

fecund [ˈfekənd] *a* unumdor, hosildor.

fecundate [ˈfekəndeɪt] *v* 1) hosildor qilmoq; 2) *biol.* urug'lamoq, homilador qilmoq.

fecundity [fɪ´kʌndətɪ] *n* unumdorlik, hosildorlik.
fed [´fed] *past., p.p.* **feed 2.** *dan.*
federal [´fedərəl] *a* 1) federal, ittifoqchi; 2) *amer.* federal hukumat, umumdavlat.
federate [´fedərət] *a* federatsiyaga oid, federativ.
federation [ˌfedə´reɪʃn] *n* federatsiya (*davlatlarning*), ittifoq, birlashma.
federative [´fedərətɪv] *a* federal, federativ.
fedora [fɪ´dɔ:rə] *n amer.* yumshoq fetr shlapa (*fetr – a'lo nav yupqa namatsimon mato*).
fed-up [ˌfed´ʌp] *a* biror narsadan juda to'ygan, biror narsa joniga tekkan.
fee [fi:] **1.** *n* 1) qalam haqi, maosh, haq; **lawyer's ~** advokat haqi; **tuition ~s** o'qish haqi; 2) choy puli; **~ s are prohibited here** bu yerda choy puli berilmaydi (*yozuv*); 3) badal; **admission ~** kirish badali; **entrance ~** kirish haqi; **2.** *v* 1) qalam haqi *yoki* maosh to'lamoq; 2) choy puli bermoq.
feeble [´fi:bl] *a* 1) zaif, past, kuchsiz; bo'sh; **~ pulse** zaif puls; **to give a ~ moan** zaif ingramoq; **~ argument** ishonchsiz dalil; 2) zaif, kuchsiz, nimjon; **~ old man** kuchsiz qariya.
feeble-minded [ˌfi:bl´maɪndɪd] *a* aqli kam, aqli past (zaif).
feed [fi:d] **1.** *n* 1) ovqatlantirish, boqish; **to ~ the horse** otni boqmoq; 2) ozuqa, yem-xashak; **~ for sheep** qo'ylar uchun ozuqa; 3) yaylov, o't-loq; **to be out at ~** yaylovda boqilmoq; 4) *tex.* ta'minot, ta'minlash, materialni uzatish; **2.** *v* **(fed)** 1) ovqatlantirmoq, boqmoq; **~ a baby at the breast** bolani ko'krak suti bilan boqmoq; 2) boqmoq, ta'minlamoq, qarab turmoq; **He has a family of 8 to ~** U sakkiz kishilik oilani boqishi kerak.
feedback [´fi:dbæk] *n* fikr-mulohaza.
feeder [´fi:də] *n* 1) ovqatlanuvchi, xo'randa; 2) *tex.* ta'minlovchi, uzatuvchi mexanizm; 3) yordamchi osma avtobus *va b.lar* yo'li; 4) *q.x.* ozuqa, ekin.
feed-pipe [´fi:dpaɪp] *n tex.* ta'minlovchi quvur.
feed-pump [´fi:dpʌmp] *n tex.* ta'minlovchi nasos (*suyuqlik, gaz kabilar bilan*).
feed-screw [´fi:dskru:] *n tex.* harakatlantiruvchi parrak.
feed-stuff [´fi:dstʌf] *n* xashak, pichan, yem, ozuqa, don.
feed-tank [´fi:dtæŋk] *n* suv saqlanadigan katta idish.
feed-trough [´fi:drɔf] = **feed-tank.**
fee-faw-fum [´fi:fɔ:ˌfʌm] *n* fu-fo-fam! (*ingliz ertaklarida odamxo'rning xitobi*).
feel [fi:l] **1.** *n* 1) sezish, his qilish; 2) sezgi, tuyg'u, his; **2. (felt; felt)** *v* 1) sezmoq, his qilmoq; **I ~ ten years younger** O'zimni o'n yoshga yoshargandek his qilyapman; 3) idrok qilmoq, tushunmoq; 5) anglamoq; **He felt the truth of what was said.** U aytilganlarning haqiqatligini anglab turardi.
feeler [´fi:lə] *n zool.* qormovich, qisqich (*mo'ylov*).
feeling [´fi:lɪŋ] **1.** *pres. p.* **feel 2.** *dan*; **2.** *n* sezgi, hissiyot, nazar, his-hayajon; sezish; **3.** *a* sezgir, hushyor, ziyrak.
feelingly [´fi:lɪŋlɪ] *adv* hissiyot bilan, his-tuyg'u bilan.
feet [fi:t] *pl* **foot** *dan.*
feeze [fi:z] **1.** *n* 1) tashvish, xavotirlik; 2) hayajonlanish, to'lqinlanish; **2.** *v* bezovta qilmoq.
feign [feɪn] *v* 1) mug'ambirlik qilmoq, cho'chitmoq, o'zini biror ko'yga solmoq; 2) to'qimoq, o'ylab topmoq; **to ~ a story** hikoya to'qimoq.
feigned [feɪnd] **1.** *p. p.* **feign** *dan*; **2.** *a* yasama, yolg'ondakam, ayyorona; **~ smile** yolg'ondakam tabassum.
feigningly [´feɪnɪŋlɪ] *adv* yolg'ondakam, soxta, yasama, ayyorlarcha.
feint [feɪnt] *n* mug'ambirlik, ayyorlik, yasamalik; **to take a feint of doing smth.** o'zini nimadir qilayotgandek tutmoq.
feist [faɪst] *n amer.* kichkina kuchuk, kuchukcha.
feldspar [´feldspɑ:] *n min.* dala shpati (*silikatlar jinsiga mansub mineral*).
felicitate [fə´lɪsɪteɪt] *v* tabriklamoq, qutlamoq, baxt tilamoq.
felicitation [fəˌlɪsɪ´teɪʃn] *n* tabrik, qutlov, tabriknoma.
felicitous [fə´lɪsɪtəs] *a* muvaffaqiyatli, o'ngidan kelgan; omadli, baxtli.
felicity [fə´lɪsətɪ] *n* baxt, saodat, iqbol, omad.
feline [´fi:laɪn] **1.** *n zool.* mushuksimonlar oilasiga mansub bo'lgan hayvon; **2.** *a zool.* 1) mushuksimonlarga oid; 2) ayyor, makkor.
fell I [fel] *n* teri (*hayvonniki*).
fell II [fel] **1.** *n* kesish, daraxt kesish; **2.** *v* kesmoq, chopmoq, yormoq, tilmoq, arralamoq.
fell III [fel] *v past.* **fall** *dan.*
felling [´felɪŋ] *n* o'rmon (*daraxt*) kesish.
felloe [´feləu] *n* g'ildirak, g'ildirakning to'g'ini (tegarchigi).
fellow [´feləu] *n* o'rtoq, oshna, og'ayni; **my dear ~** qadrdonim; **I shall never find his ~** men hech qachon unga teng keladiganini topolmayman.
fellow-countryman [ˌfeləu´kʌntrɪmən] *n* hamshahar, hamqishloq, vatandosh.
fellow-feeling [ˌfeləu´fi:lɪŋ] *n* achinish, hamdardlik, rahm, shafqat.
fellowship [´feləuʃɪp] *n* o'rtoqlik, o'rtoqchilik.
fellow-traveller [ˌfeləu´trævlə] *n* yo'ldosh, hamroh.
felly [´felɪ] = **felloe.**
felo de se [ˌfi:ləudi:´si:] *n* o'zini-o'zi o'ldirgan (*o'z joniga qasd qilgan*) kishi.
felon I [´felən] **1.** *a* jinoiy, jinoyatkorona; **2.** *n yur.* jinoyatchi.
felon II [´felən] *n tib.* milkak (*tirnoq ostining yallig'lanib yiring boylashi*).

felones de se [ˌfeləuni:zdi:ˈsi:] *pl* **felo de se** *dan.*
felonious [fɪˈləunɪəs] *a yur.* jinoiy, jinoyatkorona.
felony [ˈfelənɪ] *n yur.* og'ir jinoyat, qattiq jinoyat.
felspar [ˈfelspɑ:] = **feldspar.**
felt I [felt] *n* kigiz, namat.
felt II [felt] *past., p.p.* **feel 2.** *dan.*
felucca [feˈlʌkə] *n deng.* feluga (*kichikroq, yelkanli ov kemasi*).
female [ˈfi:meɪl] *n* 1) ayol, xotin kishi; **~s** xotin-qizlar; 2) *zool.* urg'ochi; makiyon.
feminine [ˈfemənɪn] **1.** *a* xotin-qizlarga oid; **2.** *adv* xotin-qizlarcha.
femininity [ˌfemɔˈnɪnətɪ] *n* nazokat, zarofat, ayollik xislati; **~ general** *gram.* ayollar jinsi.
feminism [ˈfemə,nɪzm] *n* feminizm (*ayollarning erkaklar bilan teng huquqli bo'lishi uchun kurashuvchi xotin-qizlar harakati*).
feminist [ˈfemənɪst] *n* feminist (*feminizm tarafdori*).
femora [ˈfemərə] *pl* **femur** *dan.*
femoral [ˈfemərəl] *a anat.* songa oid, son.
femur [ˈfi:mə] *n* (*pl* **-s** [-s], **femora**) *anat.* son.
fen [fen] *n* botqoq, botqoqlik; **~ grass** botqoq o'ti.
fence [fens] **1.** *n* 1) devor, to'siq; panjara, g'ov; **green ~** yashil to'siq; 2) saqlovchi to'siq; 3) *sport.* qilichbozlik; **2.** *v* 1) to'smoq, o'rab olmoq; 2) qilichbozlik qilmoq; 3) to'g'ri javob berishdan qochmoq; 4) himoya qilmoq; **to ~ one's head from blows** boshini zarbalardan himoya qilmoq.
fenceless [ˈfensləs] *a* ochiq, yalang, to'siqsiz.
fence-month [ˈfensmʌnθ] *n* yilning ov qilish man etilgan fasli.
fencer [ˈfensə] *n* 1) qilichboz; 2) g'ov-to'siqlar osha poygada qatnashadigan ot.
fence-season [ˈfens,si:zn] = **fence-month.**
fencing [ˈfensɪŋ] *n* 1) o'rab olish, to'sib olish; 2) to'siq, devor; 3) qilichbozlik qilish.
fencing-cully [ˈfensɪŋ,kʌlɪ] *n* o'g'irlangan narsalarni yashirib saqlovchi *yoki* sotib oluvchi kishi.
fencing-ken [ˈfensɪŋken] *n* o'g'irlangan narsalarni yashirib qo'yiladigan *yoki* sotiladigan makon.
fend [fend] *v* 1) qaytarmoq, daf qilmoq; 2) qarshi zarba bermoq.
fender [ˈfendə] *n* 1) kamin panjarasi; 2) saqlovchi (himoyalovchi) panjara (*tramvay va b.larda*); 3) avtomobil qatnovi.
fen-fire [ˈfen,faɪə] *n* goh u yerda, goh bu yerda ko'rinadigan shu'lalar (*botqoqliklardagi metan gazining lip-lip yonib ko'rinadigan shu'lalari*).
fennel [ˈfenl] *n bot.* arpabodiyon (*soyabongul-doshlar oilasiga mansub efir moyli dorivor o'simlik*).
fenny [ˈfenɪ] *a* botqoqlik joylari ko'p bo'lgan, serbotqoq.
feoff [fef] *n tar.* len, feod (*o'rta asrlarda: feodal tomonidan o'zga qaram bo'lgan kishiga berilgan yer-suv, mulk va undan olinadigan soliq, o'lpon*).
ferae naturae [ˌfɪri:næˈturi:] *a lot.* yovvoyi, vahshiy, qo'lga o'rgatilmagan.
feral [ˈferəl] *a* 1) yovvoyi, vahshiy, qo'lga o'rgatilmagan; 2) dafn etishga (*ko'mishga*) oid; ko'mish; dafn, motam.
feretory [ˈferɪtərɪ] *n cherk.* 1) raka (*xristianlar cherkovida: avliyolar jasadi saqlanadigan maqbara*); 2) sag'ana, qabr.
ferial [ˈfɪərɪəl] *a* kundalik, har kungi, oddiy.
ferity [ˈferətɪ] *n* yovvoyilik, vahshiylik.
ferment 1. *n* [ˈfə:ment] achitqi, xamirturush; **2.** *v* [fəˈment] achitmoq.
fermentable [fəˈmentəbl] *a* to'polonchi, janjalkash.
fermentation [ˌfə:menˈteɪʃn] *n* 1) achish, bijg'ish, ko'pchish; 2) g'alayon, g'ulg'ula, shovshuv, to'polon.
fern [fə:n] *n bot.* qirqquloq.
fernery [ˈfə:nərɪ] *n* qirqquloqlar o'stiriladigan joy.
fern-owl [ˈfə:naul] *n zool.* tentakqush.
ferny [ˈfə:nɪ] *a bot.* qirqquloqdoshlar, qirqquloqsimonlar.
ferocious [fəˈrəuʃəs] *a* yovvoyi, vahshiy.
ferocity [fəˈrɔsətɪ] *n* yovvoyilik, vahshiylik, qahri qattiqlik, bag'ri toshlik, rahmsizlik.
ferret [ˈferɪt] *n* sassiq ko'zan.
ferriage [ˈferɪɪdʒ] *n* 1) sol *yoki* kemada daryodan suzub o'tiladigan joy; 2) (*transport vositasida*) narsalarni tashish.
ferric [ˈferɪk] *kim.* : **~ acid** temir kislotasi.
ferriferous [feˈrɪfərəs] *a* tarkibida temir bo'lgan, temirli.
ferroconcrete [ˌferəuˈkɔŋkri:t] *n* temir-beton.
ferromagnetic [ˈferəumægˈnetɪk] *a fiz.* tez va kuchli ravishda magnitlanadigan.
ferrous [ˈferəs] *a kim.* tarkibida temir bo'lgan.
ferruginous [feˈru:dʒɪnəs] *a* temirli, tarkibida temir bo'lgan.
ferrule [ˈferu:l] *n* gardish, chambarak, halqa.
ferry [ˈferɪ] **1.** *n* 1) kechuv, kechik (*sol yoki kemada daryodan suzib o'tiladigan joy*); 2) parom (*solsimon kichik kema*); **to cross the ~** boshqa qirg'oqqa o'tkazmoq; boshqa joyga o'tkazmoq; **2.** *v* (*daryodan*) olib o'tmoq.
ferry-boat [ˈferɪbəut] *n* parom; yassi kema.
ferry-bridge [ˈferɪbrɪdʒ] *n* kemalar to'xtaydigan joy bilan parom o'rtasidagi taxta, zina (*parom solsimon yassi kema*).
ferryman [ˈferɪmən] *n* daryodan o'tkazib qo'yuvchi, kemachi.
fertile [ˈfə:taɪl] *a* unumdor, hosildor, serhosil; **~ in resources** resurslarga boy.
fertility [fəːˈtɪlətɪ] *n* 1) unumdorlik, hosildorlik; 2) boylik, seroblik, mo'l-ko'llik.
fertilization [ˌfə:tɪlaɪˈzeɪʃn] *n* o'g'itlash, o'g'it solish.

fertilize [ˈfə:təlaɪz] *v* o'g'itlamoq, o'g'it (go'ng) solmoq.
fertilizer [ˈfə:təlaɪzə] *n* o'g'it, go'ng.
ferula [ˈferju:lə] = **ferule**.
ferule [ˈferu:l] *n* 1) chizg'ich, xivich (*o'quvchilarni jazolash uchun*); 2) maktab intizomi, qattiq tartib.
fervency [ˈfə:vnsɪ] *n* 1) qizg'inlik, qiziqqonlik, tezlik; 2) g'ayrat, ishtiyoq.
fervent [ˈfə:vnt] *a* otashin, qizg'in, jo'shqin, issiq, qaynoq; ~ **desire** jo'shqin orzu.
fervid [ˈfə:vɪd] *a* issiq, qaynoq, qizg'in, jo'shqin, g'ayratli.
fervour [ˈfə:və] *n* qizg'inlik, jo'shqinlik, g'ayrat, ishtiyoq.
fescue [ˈfeskju:] *n* 1) ko'rsatkich, tayoq; 2) *bot.* betaga (*g'allasimon o'simlik*).
festal [ˈfestl] *a* 1) bayramga oid; 2) xushchaqchaq.
fester [ˈfestə] *v* ilviramoq, yiringlamoq; **~ing** gazak.
festival [ˈfestəvl] *n* 1) tantanali bayram; 2) festival.
festive [ˈfestɪv] *a* 1) tantanali; quvnoq, xushchaqchaq; 2) bayramga oid, bayram; **~evening** bayram kechasi.
festivity [feˈstɪvətɪ] *n* tantanali bayram, xushchaqchaqlik.
festoon [fesˈtu:n] **1.** *n* gul (*barg, novda va shu k.*) o'rimi, tizmasi, marjoni; **2.** *v* gullar bilan bezamoq.
fetal [ˈfi:tl] *a zool.* embrionga oid, embrion holidagi, embrion...
fetch I [fetʃ] **1.** *n* 1) hiyla-nayrang, ayyorlik, makkorlik; **to cast a ~** tuzoq qo'ymoq; 2) zo'r berish; **to take a ~** zo'r bermoq, g'ayrat qilmoq; **2.** *v* 1) olib kelmoq; **to go and ~ a doctor** borib doktorni olib kelmoq; 2) qo'zg'amoq, sabab bo'lmoq (*ko'z yoshi va b.lar*); **to ~ a laugh from the audience** tomoshabinlarni kuldirmoq; 3) chiqarmoq, chiqishga majbur qilmoq; 4) urmoq, zarba bermoq; 5) *so'zl.* jalb qilmoq, maftun qilmoq.
fetch II [fetʃ] *n* xayoliy sharpa, ko'lanka, arvoh.
fetching [ˈfetʃɪŋ] **1.** *pres. p.* **fetch I, 2** *dan*; **2.** *a* yoqimli, jozibador, jozibali, dilbar, ko'rkam, istarasi issiq.
fete [feɪt] *fr* **1.** *n* tantanali bayram, ziyofat, tantana; **2.** *v* bayram qilmoq, nishonlamoq.
fetich(e) [ˈfi:tɪʃ] = **fetish.**
fetid [ˈfetɪd] *a* sassiq, badbo'y, qo'lansa; **~ breath** og'izdan keladigan sassiq hid.
fetish [ˈfi:tɪʃ] *n* 1) tumor; 2) but, sanam, sajdagoh.
fetishist [ˈfetɪʃɪst] *n* ko'r-ko'rona ishonuvchi, sajda qiluvchi.
fetlock [ˈfetlɔk] *n* ot to'pig'ining popugi.
fetor [ˈfi:tə]*n* sassiq hid, badbo'ylik.
fetter [ˈfetə] *n* 1) kishan, tushov (*otda*); 2) oyoqqa solinadigan kishan; **in ~ s** kishanlangan; 3) kishan, zanjir, band, asorat; **to best one's ~ s** kishanlarni parchalamoq, ozod qilmoq.
fetterless [ˈfetələs] *a* ozod, erkin, hur.
fetterlock [ˈfetələk] *n* ot kishani, tushovi.
fettle [ˈfetl] *n* ahvol, holat, vaziyat; **in good ~** yaxshi holatda.
feud [fju:d] *n* 1) uzoq vaqt davom etadigan (*yoki avloddan-avlodga o'tib ketadigan*)dushmanlik; **right of ~** xun olish huquqi; 2) o'zaro (ichki) urush, o'zaro (ichki) nizolar.
feudal [ˈfju:dl] *a* feodal va feodalizmga oid; **~ system** feodal tuzum.
feudalism [ˈfju:dəlɪzm] *n tar.* feodalizm (*feodallarning xususiy mulkchiligiga, dehqonlarning kuchidan foydalanishga asoslangan ijtimoiy tuzum*).
feudalist [ˈfju:dlɪst] *n* feodal.
feudality [fju: ˈdælətɪ] *n* feodalizm.
feudalize [ˈfju:dəlaɪz] *v* yerni feodal mulkiga aylantirmoq.
feudatory [ˈfju:dətərɪ] *a* qaram, tobe.
feu de joie [ˌfə:dəˈʒwɑ:] *fr. n* umumxalq tantanasida miltiqdan o'q uzib qutlash.
fever [ˈfi:və] *n* 1) issiq, harorat; **he has a high ~** uning harorati baland; 2) asab buzilishi.
fevered [ˈfi:vəd] *a* isitmali, bezovta, asabi buzilgan.
feverish [ˈfi:vərɪʃ] *a* 1) isitmali, isitma vaqtida bo'ladigan titrash; 2) hayajonlangan, iztirobli.
feverous [ˈfi:vərəs] = **feverish.**
few [fju:] **1.** *n* 1) ayrimlar, ba'zilar; **~ of them had travelled** ularning ayrimlarigina (*ba'zilarigina*) sayohat qilgan; 2) **the ~** ozchilik; imtiyozlilar, baxtlilar; **the fornate ~** sanoqli baxtlilar; **2.** *a* ozchilik, kamchilik; kam, oz; **He has but ~ chances.** Uning muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlari kam.
fewness [ˈfju:nəs] *n* ozchilik, kamchilik, uncha ko'p emaslik.
fey [feɪ] *a* halokatga mahkum, o'lishi aniq bo'lgan.
fez [fez] *a* feska, hojido'ppi (*ba'zi Sharq mamlakatlarida kiyiladigan popukli bosh kiyim*).
fiacre [fɪˈɑ:kr] *n* kirakash ekipaj *yoki* fayton (*G'arbiy Yevropa shaharlarida*).
fiance [fɪˈɔnseɪ] *n* unashtirilgan yigit, qalliq, kuyov.
fiancee [fɪˈɔnseɪ] *n* unashtirilgan qiz, qalliq, kelin, yor.
fiasco [fɪ ˈæskəu] *n* (*pl* **-os** [əuz]) muvaffaqiyatsizlik, ish unmaslik, omadsizlik.
fiat [ˈfi:æt] *n lot.* 1) dekret (*qonun kuchiga ega bo'lgan qaror, farmoyish*); 2) farmon, buyruq.
fib [fɪb] **1.** *n so'zl.* 1) uydirma, yolg'on, aldash; 2) zarba berish, urish; **to give a ~** urmoq, zarba bermoq; **2.** *v so'zl.* 1) uydirma to'qimoq, aldamoq; 2) zarbalarga ko'mib tashlamoq.
fibber [ˈfɪbə] *n* uydirmachi, aldoqchi.
fiber [ˈfaɪbə] = **fibre.**

fiberglass [ˈfaɪbəglɑ:s] *n* shisha tola.
fibre [ˈfaɪbə] *n* tola; ipak tolasi.
fibred [ˈfaɪbəd] *a* tolali, sertola
fibrin [ˈfaɪbrɪn] *n fiziol.* fibrin (*qon ivishi natijasida hosil bo'ladigan erimaydigan oqsil modda*).
fibroid [ˈfaɪbrɔɪd] *a* tolali, sertola.
fibroin [ˈfaɪbrəuɪn] *n kim.* fibrion (*ipak tolalarining muhim tarkibiy qismi bo'lgan oqsil modda*).
fibrous [ˈfaɪbrəs] *a* tolali, sertola.
fibula [ˈfɪbjulə] *n* (*pl* **-ae, -as** [-əz]) *anat.* kichik boldir suyagi.
fibulae [ˈfɪbjuli:] *pl* **fibula** *dan.*
fickle [ˈfɪkl] *a* 1) o'zgaruvchan, o'zgarib turadigan, vaqtinchalik; 2) ishonchsiz; ~ **friends** ishonchsiz do'stlar.
fictile [ˈfɪktaɪl] *a* 1) loydan qilingan; 2) kulolchilikka oid.
fiction [ˈfɪkʃn] **1.** *n* 1) badiiy asar; 2) uydirma, to'qima, afsona; **2.** *a* uydirma, to'qima, yolg'on.
fictional [ˈfɪkʃnəl] *a* o'ylab topilgan.
fictionalize [ˈfɪkʃənəlaɪz] *v* to'qimoq, o'ylab topmoq.
fiction-monger [ˈfɪkʃn,mʌŋgə] *n* uydirmachi, g'iybatchi.
fictitious [fɪkˈtɪʃəs] *a* 1) lof, to'qima, xayoliy, tasavvurdagi; ~ **being** afsonaviy mavjudot; 2) qalbaki, yolg'ondakam; ~ **marriage** qalbaki nikoh; 3) yolg'ondakam, soxta; ~ **tears** soxta ko'z yoshlari; ~ **fame** puch shuhrat.
fid [fɪd] *n* pona, qoziq.
fiddle [ˈfɪdl] **1.** *n og'z.* g'ijjak, skripka; **2.** *v* skripka chalmoq.
fiddle-de-dee [ˌfɪdldɪˈdi:] *n* safsata, bo'lmag'ur gap, bema'ni gap.
fiddle-faddle [ˈfɪdl,fædl] **1.** *n* bekorchi gap, safsata; **2.** *v* bekor yurmoq; **3.** *a* behuda, arzimas.
fiddler [ˈfɪdlə] *n* skripkachi, g'ijjakchi.
fiddlestick [ˈfɪdlstɪk] *n mus.* kamoncha, kamon.
fiddling [ˈfɪdlɪŋ] *a* quruq, bema'ni, behuda, ahamiyatsiz.
fidelity [fɪˈdelətɪ] *n* 1) sodiqlik, vafodorlik; 2) to'g'rilik.
fidget [ˈfɪdʒɪt] **1.** *v* tashvishli harakat qilmoq, hayajonlanmoq, asabiylashmoq; **2.** *n* 1) tashvishli (notinch) holat; 2) notinch kishi.
fidgety [ˈfɪdʒətɪ] *a* tinch turolmaydigan, sho'x; ~ **child** tinch turmaydigan bola.
fiducial [fɪˈdju:ʃɪəl] *a* ishonishga asos bo'ladigan.
fiduciary [fɪˈdju:ʃɪərɪ] *n* 1) vasiy; 2) *yur.* ishonchli odam.
fie [faɪ] *int.* tuf, tfu, tuf-e (*nafratlanish ma'nosida*).
fief [fi:f] *n tar.* feodalning yer-mulki.
field [fi:ld] **1.** *n* 1) dala, o'tzor, ekinzor; ~ **of wheat** bug'doyzor; **flowers of the** ~ dala gullari; 2) maydon, joy (*biror maqsadga mo'ljallangan*); **flying** ~ uchish maydoni; 3) *geol.* kon; **diamond** ~**s** olmos konlari; 4) jang maydoni; **in the** ~ safarda; urishda; harakatdagi armiyada; 5) soha, faoliyat sohasi; **a wide** ~ **for trade** savdo uchun keng imkoniyatlar; **he's the best man in his** ~ u o'z sohasining eng yaxshi mutaxassisi; 6) *max.* dala, maydon; **magnetic** ~ magnit maydoni; **2.** *v* 1) to'pni qabul qilmoq (kriket); 2) quritmoq (*dor va b.larni*); 3) garov o'ynamoq, dor qo'ymoq.
field-allowance [ˈfi:ldə,lauəns] *n harb.* dala ta'minoti, hajmi; dalada bo'lgani uchun to'lanadigan ustama haq.
field-artillery [ˈfi:ldɑ:,tɪlərɪ] *n* (*yengil*) dala artilleriyasi.
field-book [ˈfi:ldbuk] *n* yer o'lchamlari yozib boriladigan daftar.
field court martial [ˈfi:ldkɔ:t,mɑ:ʃl] *n* harbiy-dala sudi.
field crops [ˈfi:ldkrɔps] *n pl q.x.* dala ekinlari, dala ishlari.
food [fu:d] *n* oziq-ovqat, ozuqa, yemish, yem; **the ~ here is exellent** bu yerning ovqatlari juda yaxshi; **to become ~ for fishes** cho'kmoq, cho'kib ketmoq; **to become ~ for worms** o'lmoq (*qurt-qumursqaga yem bo'lmoq*).
food-card [ˈfu:dkɑ:d] *n* oziq-ovqat kartochkasi.
food-stuffs [ˈfu:dstʌfs] *n* oziq-ovqat mahsulotlari.
fool [fu:l] **1.** *n* ahmoq; tentak; devona; **2.** *v* aldamoq, ahmoq qilmoq; **~ about** ishsiz laqillatib yurmoq.
foolery [ˈfu:lərɪ] *n* ahmoqona xatti-harakat, ahmoqlik, tentaklik.
foolhardy [ˈfu:lhɑ:dɪ] *a* behudaga tavakkal qiladigan, o'zini behudaga xavf ostiga qo'yadigan.
foolish [ˈfu:lɪʃ] *a* kaltafahm, tentak, jinni; **~ness** tentaklik.
foolproof [ˈfu:lpru:f] *a* ishonchli, adashmaydigan.
foot [fut] *n pl* (**feet**) 1) oyoq (*to'piqdan pastki qismi*); 2) tovon; 3) fut (*uzunlik o'lchovi*); bir fut (*30,48 sm.ga teng*); **on ~** piyoda, yayov.

footage [ˈfutɪdʒ] *n* 1) filmning davomiyligi; 2) oyoq kaftida o'lchangan uzunlik.
football [ˈfutbɔ:l] *n* futbol.
footballer [ˈfutbɔ:lə] *n* futbolchi.
foot brake [ˈfutbreɪk] *n* oyoq tormozi.
footer [ˈfutə] *n so'zl.* futbol.
footfall [ˈfutfɔ:l] *n* qadam, qadam tashlash.
foothold [ˈfuthəuld] *n* tayanch, suyanchiq, tirgak.
footing [ˈfutɪŋ] *n so'zl.* 1) holat, vaziyat; 2) tik turish, muvozanat.
footle [ˈfu:tl] *v so'zl.* ahmoqlik (tentaklik) qilmoq, jinnilik qilmoq.
footlights [ˈfutlaɪts] *n* rampa (*sahna oldiga o'rnatilgan, yorug'i faqat sahnaga tushadigan chiroqlar*).
footling [ˈfutlɪŋ] *a* arzimas, ahamiyatsiz, behuda; oson.
footman [ˈfutmən] *n* yugurdak.
foot-mark [ˈfutmɑ:k] *n* iz, oyoq izi.
foot-note [ˈfutnəut] *n* (*sahifa ostidagi*) izoh.
foot-path [ˈfutpɑ:θ] *n* piyoda yurishga mo'ljallangan yo'l, so'qmoq, yo'l.
footprint [ˈfutprɪnt] *n* oyoq izi.
foot-race [ˈfutreɪs] *n* yugurish musobaqasi.
footsore [ˈfutsɔ:] *adv* yeyilgan (siyqalangan) oyoqlar bilan.
footstalk [ˈfutstɔ:k] *n bot.* poya, tana.
footstep [ˈfutstep] *n* 1) qadam, odim; 2) iz.
footstool [ˈfutstu:l] *n* oyoq ostiga qo'yiladigan kursicha.
foot-wear [ˈfutwɛə] *n* poyabzal, oyoq kiyim.
foozle [ˈfu:zl] *v* naridan-beri (chala-chulpa, palapartish) bajarmoq (*ish va b.*).
fop [fɔp] *n* olifta, satang, o'ziga bino qo'yuvchi odam.
foppery [ˈfɔpərɪ] *n* oliftalik, satanglik.
foppish [ˈfɔpɪʃ] *a* olifta, satang, havoyi, o'ziga bino qo'ygan.
for [fɔ:] *prep. cj.* 1) davomida, vaqtida; 2) uchun; 3) sababli; ~ **life** umrbod; ~ **ever** butunlay; abadiy; ~ **example** misol uchun, chunonchi; 4) ...ga qarshi; **medicine ~ a cough** yo'talga qarshi dori.
forage I [ˈfɔrɪdʒ] *n* yem-xashak.
forage II [ˈfɔrɪdʒ] *v* yem-xashak tayyorlamoq.
forasmuch as [fərəzˈmʌtʃæz] *adv* modomiki, hamonki; sababli, uchun.
foray [ˈfɔreɪ] *n* bosqin, hujum, bostirib kelish.
forbad, forbade [fəˈbædz] *past.* **forbid** *dan.*
forbear I [ˈfɔ:bɛə] *n* avlod; ajdod; ota-bobo.
forbear II [ˈfɔ:bɛə] **2.** *v* 1) (**forbore; forborne**) o'zini tiymoq (tutmoq, to'xtatmoq); 2) chidamli bo'lmoq.
forbearance [fɔ:ˈbɛərəns] *n* o'zini tiyishlik; sabr-toqat.
forbid [fəˈbɪd] *v* (**forbad, forbade; forbidden**) taqiqlamoq, man etmoq.
forbidden [fəˈbɪdn] *p. p.* **forbid** *dan.*
forbone [fɔ:ˈbɔ:n] *p. p.* **forbear II** *dan.*
forbore [fɔ:ˈbɔ:] *past.* **forbear II** *dan.*
forborne [fɔ:ˈbɔ:n] *p. p.* **forbear II** *dan.*
force [fɔ:s] **1.** *n* 1) kuch, zo'rlik; **the ~ of the blow** zarba kuchi; 2) majburlash; **by ~** kuch bilan; 3) harbiy guruh; **2.** *v* 1) majbur qilmoq, zo'rlamoq; **~ful** kuchli; 2) kuch bilan olmoq; **to ~ smb. to do smth.** kimnidir nimagadir majburlamoq; 3) tezlashtirmoq.
forced [fɔ:st] **1.** *p. p.* **force 2.** *dan*; **2.** *a* majbur bo'lgan, nochor, majburiy.
force-meat [ˈfɔ:smi:t] *n* qiyma.
forceps [ˈfɔ:seps] *n* jarrohlik qisqichi, pinset.
force-pump [ˈfɔ:spʌmp] *n tex.* dam beradigan nasos.
forcible [ˈfɔ:səbl] *a* 1) majburiy, zo'raki; 2) asosli, ishonchli (*fikrlar va b.lar*).
ford [fɔ:d] **1.** *n* kechuv, kechish; **2.** *v* kechib o't-moq.
fore [fɔ:] **1.** *n* yuz (old) tarafi; **2.** *a* yuz (old) tarafdagi.
fore-and-aft [ˌfɔ:rəndˈɑ:ft] *a deng.* bo'ylama, uzunasiga, bo'yiga.
forearm [ˈfɔ:rɑ:m] *n* bilak.
forebear [ˈfɔ:bɛə] = **forbear I.**
forebode [fɔ:ˈbəud] *v* 1) bashorat qilmoq, oldindan xabar bermoq; 2) oldindan sezmoq.
foreboding [fɔ:ˈbəudɪŋ] **1.** *pres. p.* **forebode** *dan*; **2.** *n* oldindan sezish, ko'ngil sezish.
forecast [ˈfɔ:kɑ:st] **1.** *n* bashorat, karomat, oldindan aytish; **2. (forecast, forecasted)** *v* oldindan aytib bermoq, bashorat qilmoq; **weather ~** ob-havo ma'lumoti.
forecastle [ˈfəuksl] *n deng.* bak (*ba'zi kemalarning old qismi*).
foreclose [fɔ:ˈkləuz] *v* oldini olmoq, ehtiyot chorasini ko'rmoq.
forecourt [ˈfɔ:kɔ:t] *n* tashqi hovli, bino oldidagi yalanglik.
forefather [ˈfɔ:fɑ:ðə] *n* ota-bobo, avlod-ajdod.
forefinger [ˈfɔ:fɪŋgə] *n* ko'rsatkich barmoq.
forefoot [ˈfɔ:fut] *n* hayvonlarning oldingi oyog'i.
forefront [ˈfɔ:frʌnt] *n* oldingi o'rin, muhim o'rin.
foregather [fɔ:ˈgæðə] *v* to'plamoq, yig'moq.
forego [fɔ:ˈgəu] *v* ilgari bo'lmoq, oldin yuz bermoq.
foregoing [fɔ:ˈgəuɪŋ] *a* ilgari, ilgarigi, oldingi, o'tgan, oldin bo'lgan.
foregone [fɔ:ˈgɔn] **1.** *p. p.* **forego** *dan*; **2.** *a* ilgarilab ketgan, oldinga o'tib ketgan.
foreground [ˈfɔ:graund] *n* 1) oldingi planda (*suratda*); 2) ko'zga yaqin joy, ko'zga tashlanadigan.
forehand [ˈfɔ:hænd] *n* o'ng tarafdan urish (*tennis va b.larda*).
forehead [ˈfɔrɪd] *n* peshana.
foreign [ˈfɔrən] *a* 1) chet el, xorijiy, tashqi; ~ **language** chet tili; ~ **affairs** tashqi aloqalar; 2) notanish, begona; ~ **trade** tashqi savdo.
foreigner [ˈfɔrənə] *n* chet ellik.

foreknowledge [ˌfɔːˈnɔlɪdʒ] *n* oldindan bilish, oldindan ko'rish.
foreland [ˈfɔːlənd] *n* 1) burun (*dengizga oid*); 2) dengiz bo'yi.
foreleg [ˈfɔːleg] *n* oldingi oyoq (*hayvonlarda*).
forelock [ˈfɔːlɔk] *n pl* peshana gajak.
foreman [ˈfɔːmən] *n* 1) usta, mutaxassis; 2) *yur.* sud maslahatchilari raisi.
foremast [ˈfɔːmɑːst] *n deng.* fok-machta (*kemaning old tomonidagi machta*).
foremost [ˈfɔːməust] **1.** *a* eng mashhur, eng taniqli; **2.** *adv* birinchi o'rinda, birinchi.
forename [ˈfɔːneɪm] *n* ism, ot, nom.
forenoon [ˈfɔːnuːn] *n* erta, ertalab, tong, sahar.
foresaw [fɔːˈsɔː] *past.* **foresee** *dan.*
foresee [fɔːˈsiː] *v* (**foresaw; foreseen**) oldindan ko'rmoq (bilmoq), bashorat qilmoq.
foreseeable [fɔːˈ siːəbl] *a* kutilayotgan, oldindan ko'riladigan, bilinadigan.
foreseen [fɔːˈsiːn] *p. p.* **foresee** *dan.*
foreshadow [fɔːˈʃædəu] *v* bashorat qilmoq.
foreshore [ˈfɔːʃɔː] *n* qirg'oqning suv bilan yuvilib turgan qismi.
foreshorten [fɔːˈʃɔːtn] *v* qisqartirib (kichraytirib) tasvirlamoq.
foresight [ˈfɔːsaɪt] *n* 1) oldindan ko'ra bilish, bashorat qilish, uzoqni ko'rish; 2) ehtiyotkorlik.
foreskin [ˈfɔːskɪn] *n* tana, badan.
forest [ˈfɔrɪst] **1.** *n* o'rmon; **2.** *v* o'rmonlashtirmoq; daraxt ekmoq.
forestall [fɔːˈstɔːl] *v* 1) ogohlantirmoq, xabar bermoq; 2) oldindan qilmoq, oldini olmoq.
forester [ˈfɔrɪstə] *n* o'rmon nazoratchisi.
forestry [ˈfɔrɪstrɪ] *n* o'rmonchilik, o'rmon xo'jaligi.
foretaste [ˈfɔːteɪst] *n* oldindan lazzatlanish yoki qayg'urish.
forethought [ˈfɔːθɔːt] *n* uzoqni rejalashtirish.
foretell [fɔːˈtel] *v* (**foretold**) oldindan aytmoq.
foretoken [fɔːˈtəukən] *v* bashorat qilmoq, oldindan aytib bermoq.
foretold [fɔːˈtəuld] *v* oldindan aytmoq, bashorat qilmoq.
forever [fər ˈevə] *adv* abadiy, doimiy.
forewarn [fɔː ˈwɔːn] *v* ogohlantirib qo'ymoq.
foreword [ˈfɔːwəːd] *n* so'z boshi, muqaddima.
forfeit [ˈfɔːfɪt] *n* musodara, huquqdan mahrum bo'lish.
forfeiture [ˈfɔːfɪtʃə] *n* konfiskatsiya, musodara, musodara qilish.
forgather [fɔːˈgæðə] *v* to'plamoq, yig'moq, yig'ilmoq.
forgave [fə ˈgeɪv] *past.* **forgive** *dan.*
forge [fɔːdʒ] **1.** *n* temirchi ustaxonasi; **2.** *v* 1) bolg'a bilan (*biror narsa*) yasamoq; 2) soxtalashtirmoq.
forger [ˈfɔːdʒə] *n* 1) temirchi; 2) soxta pul yasovchi.
forgery [ˈfɔːdʒərɪ] *n* 1) soxtalashtirish, qalbakilashtirish; 2) soxta imzo, qalbaki hujjat.
forget [fəˈget] *v* (**forgot; forgotten**) esdan chiqarmoq, unutmoq; **~ful** unutuvchan, faromushxotir.
forget-me-not [fəˈgetmɪnət] *n bot.* bo'tako'z (*gul*).
forgivable [fəˈgɪvəbl] *a* kechiriladigan, kechirsa bo'ladigan.
forgive [fəˈgɪv] *v* (**forgave; forgiven**) kechirmoq, gunohidan o'tmoq.
forgiven [fə ˈgɪvn] *p.p.* **forgive** *dan.*
forgiveness [fəˈgɪvnəs] *n* kechirish, gunohidan o'tish.
forgo [fɔːˈgəu] *v* (**forwent; forgone**) rad qilmoq, voz kechmoq, sabr-qanoat qilmoq, o'zini (nafsini) tiymoq, saqlanmoq.
forgone [fɔːˈgɔn] *p. p.* **forgo** *dan.*
forgot [fə ˈgɔt] *past.* **forget** *dan.*
forgotten [fə ˈgɔtn] *p. p.* **forget** *dan.*
fork [fɔːk] **1.** *n* 1) ayri, panshaxa; 2) vilka (*ovqat yeydigan*); 3) sanchqi; **2.** *v* panshaxa bilan ishlamoq.
forlorn [fəˈlɔːn] *a* yolg'iz, baxtsiz, umidsiz, tushkun.
form [fɔːm] **1.** *n* 1) ust-bosh, tashqi ko'rinish; 2) *harb.* tuzilma; 3) (*odam*) shakl, qomat; 4) usul (*adabiyot*) uslub; 5) toifa; tur; **~s of animal** hayvonlar turi; 6) holat; **2.** *v* 1) yaratmoq, 2) tuzmoq, 3) shakllantirmoq; **to ~ an opinion** fikrini shakllantirmoq; 4) qurmoq.
formal [ˈfɔːməl] *a* 1) rasmiy, qonuniy; **~ agreement** rasmiy kelishuv; 2) tashqi; **~ism** rasmiyatchilik.
formality [fɔːˈmælətɪ] *n* 1) rasmiyatchilik; 2) sinchkovlik.
formally [ˈfɔːməlɪ] *adv* rasmiy, rasman.
format [ˈfɔːmæt] *n* format, hajm; shakl; kitob formati.
formation [fɔːˈmeɪʃn] *n* tuzish, tashkil etish, yaratish, shakllanish.
formative [ˈfɔːmətɪv] *a* singitadigan, singiydigan, oqlaydigan.
former [ˈfɔːmə] **1.** *a* oldingi, sobiq; **in ~ time** oldingi paytlarda; **2.** *n* 1) qolib; 2) tuzuvchi, yaratuvchi.
formerly [ˈfɔːməlɪ] *adv* avval, ilgari, qachonlardir.
formic acid [ˌfɔːmɪkˈæsɪd] *n kim.* chumoli kislotasi.
formidable [ˈfɔːmɪdəbl] *a* 1) dahshatli; 2) yengish qiyin bo'lgan; 3) ulkan; **~ army** kuchli armiya.
formless [ˈfɔːmləs] *a* formasiz, shaklsiz.
formula [ˈfɔːmjulə] *n* formula, aniq ifoda, ta'rif.
formulate [ˈfɔːmjuleɪt] *v* ifodalamoq, tahrir qilmoq; **to ~ a proposal** taklifni ifoda etmoq.
formulation [ˌfɔmjuˈleɪʃn] *n* ifodalash, tahrir, tahrir qilish.
fornicate [ˈfɔːnɪkeɪt] *a* zino qilmoq.
forsake [fə ˈseɪk] *v* (**forsook; forsaken**) tashlab ketmoq; voz kechmoq, bahridan o'tmoq.

forsaken [fə ˈseɪkən] *p.p.* **forsake** *dan.*
forsook [fɔ ˈsuk] *past.* **forsake** *dan.*
forswear [fɔːˈswɛə] *v* (**forswore; forsworn**) inkor qilmoq; tonmoq; qaytmoq.
forswore [fɔː ˈswɔː] *past.* **forswear** *dan.*
forsworn [fɔːˈswɔːn] *a* qasamni buzgan, qasamxo'r.
fort [fɔːt] *n* qal'a, qo'rg'on.
forte [ˈfɔːteɪ] **1.** *n* kuchli tomon, kuchli jihat; **2.** *adv mus.* forte, qattiq, kuchli,
forth [fɔːθ] *adv* olg'a, oldinga; **and so ~** va boshqalar; va h.k.
forthcoming [fɔːθˈkʌmɪŋ] *a* 1) bo'lg'usi, kelgusi, kelajak; **~ book** yaqinda nashrdan chiqadigan kitob; 2) yaqinda bo'ladigan; kelajakdagi, kelgusi.
forthright [ˈfɔːθraɪt] *a* ochiq, beg'araz, halol.
forthwith [ˌfɔːθˈwɪθ] *adv* darrov, darhol, shu zahoti.
forties [ˈfɔːtɪz] *n pl* (**the ~**) qirqinchi yillar; **in the ~** qirqinchi yillarda.
fortieth [ˈfɔːtɪəθ] **1.** *num. ord.* qirqinchi; **2.** *n* qirqinchi qism.
fortification [ˌfɔːtɪfɪˈkeɪʃən] *n* mudofaa inshooti.
fortify [ˈfɔːtɪfaɪ] *v* 1) mustahkamlamoq; 2) kuchaytirmoq, oshirmoq.
fortissimo [fɔːˈtɪsɪməu] *adv mus.* fortissimo, juda kuchli, juda qattiq.
fortitude [ˈfɔːtɪtjuːd] *n* chidamlilik, bardoshlilik.
fortnight [ˈfɔːtnaɪt] *n* ikki hafta; **this day ~** roppa-rosa ikki haftadan so'ng; **this ~** so'nggi ikki hafta; **~ly** ikki haftada bir marta.
fortress [ˈfɔːtrəs] *n* qal'a, qo'rg'on.
fortuitous [fɔːˈtjuːɪtəs] *a* tasodifiy, tasodifan bo'lgan, nogahoniy, kutilmagan.
fortuity [fɔːˈtjuːɪtɪ] *n* voqea, hodisa.
fortunate [ˈfɔːtʃənət] *a* baxtli; o'ng'ay; muvaffaqiyatli; **~ly** baxtiga (baxtimga), xayriyat.
fortune [ˈfɔːtʃən] **1.** *n* 1) omad, baxt, taqdir, boylik, davlat, mulk; 2) **bad ~** omadsizlik; 3) **to come into a ~** merosga ega bo'lmoq; **to make a ~** boyib ketmoq; **2.** *v* 1) sodir bo'lmoq; 2) urilib ketmoq; urib olmoq; duch kelmoq.
fortune-teller [ˈfɔːtʃənˌtelə] *n* folbin, romchi; kinnachi.
forty [ˈfɔːtɪ] *num. card.* qirq.
forum [ˈfɔːrəm] *n* 1) anjuman, yig'in; 2) syezd, forum; 3) munozara, ochiq muloqot.
forward [ˈfɔːwəd] **1.** *n sport.* hujumchi (*futbolda*); **centre ~** hujum markazi; **2.** *a* 1) oldingi, ilg'or, birinchi; 2) eng yaxshi; **~ pupil** eng yaxshi o'quvchi; 3) erta, vaqtli; **~ spring** erta bahor; 4) tayyor; **3.** *adv* olg'a; **~!** olg'a!: 2) olg'a; uzoqroq, nariroq; **from this time ~** shu vaqtdan boshlab; **to look ~ for smth.** oldindan sezib zavqlanmoq; **to look ~ to see smb. soon** tez kunda biror kishi bilan ko'rishishga oshiqish; **4.** *v* 1) yordam bermoq; 2) jo'natmoq; **to ~ goods** yukni belgilangan joyga jo'natmoq.
forwent [fɔːˈwent] *past.* **forgo** *dan.*
fosse [fɔs] *n harb.* o'r, chuqur, xandaq, zovur.
fossil [ˈfɔsl] **1.** *n* toshga aylanganlik, toshday qotib qolganlik (*hayvon yoki o'simlik qoldig'i haqida*); **2.** *a* toshga aylangan, tosh bo'lib qolgan (*qadimgi hayvonlarning qoldiqlari haqida*).
foster [ˈfɔstə] *v* tarbiyalamoq, qaramoq; boqmoq; **~ brother** emikdosh (*sut emishgan*) aka yoki uka; **~ child** asrandi (*o'g'il yoki qiz*); **~-father** tutishgan ota; **~ling** asrandi; shogird; **~-mother** tutingan ona; enaga; birovning bolasini (*emizib*) boquvchi ayol.
foster-sister [ˈfɔstəˌsɪstə] *n* emikdosh singil.
fought [fɔːt] *past., p. p.* **fight 2** *dan.*
foul [faul] **1.** *a* 1) sassiq, badbo'y; 2) iflos, loy; 3) yoqimsiz bir holda, juda xunuk, juda yomon; 4) yomon, yaramas, xunuk, bemaza, rasvo; **2.** *n* qoidani buzish; **3.** *v* 1) buzmoq, shikast yetkazmoq, ishdan chiqarmoq; 2) chalkashtirmoq; 3) buzilmoq, ishdan chiqmoq.
foul-mouthed [ˈfaulmauðd] *a* behayo, beodob, nojo'ya, yomon.
found I [faund] *v* 1) barpo qilmoq (*shahar*) ; **to ~ a building** binoni barpo qilmoq; 2) yaratmoq; **to ~ a theory** nazariya yaratmoq; 3) asos solmoq; 4) ta'sis etmoq; **to be well ~ bounded** yaxshi asoslangan.
found II [faund] *a* ta'minlangan.
found III [faund] *past., p. p.* **find 1.** *dan.*
foundation [faunˈdeɪʃn] *n* 1) zamin, barpo etish, asos, negiz; **to lay the ~s of smth.** nimagadir zamin yaratmoq; 2) tashkilot; **the ~ of a library** kutubxona tashkiloti.
founder [ˈfaundə] **1.** *n* yaratuvchi, asoschi; **2.** *v* 1) oqsamoq; yiqilmoq; 2) judo bo'lmoq, o'lmoq.
foundling [ˈfaundlɪŋ] *n* tashlandiq bola.
foundry [ˈfaundrɪ] *n* metall quyish zavodi.
fount [faunt] *n* buloq, chashma.
fountain [ˈfauntɪn] *n* 1) favvora fontan; 2) buloq; chashma.
fountain-pen [ˈfauntɪnpen] *n* avtoruchka.
four [fɔː] *num. card.* to'rt; to'rtlik; **on all ~s** to'rt oyoqlab; **~ footed** to'rt oyoqli.
fourfold [ˈfɔːfəuld] *a* to'rt marta, to'rt karra.
four-footed [ˌfɔː ˈfutɪd] *a* to'rt oyoqli.
four-in-hand [ˌfɔːrɪnˈhænd] *n* to'rt kishidan iborat bo'lgan ekipaj.
four-seater [ˌfɔːˈsiːtə] *n* to'rt o'rinli mashina.
four-square [ˌfɔːˈskweə] *n* kvadrat (*tomonlari teng to'g'ri to'rtburchak*).
fourteen [ˌfɔːˈtiːn] *num. card.* o'n to'rt; **~th** o'n to'rtinchi.
fourth [fɔːθ] **1.** *num. ord.* to'rtinchi; **2.** *n* to'rtdan bir.
fowl [faul] **1.** *n* uy parrandalari; **2.** *v* qush ovlamoq.
fowling [ˈfaulɪŋ] *n* qush ovlash.
fowling-piece [ˈfaulɪŋpiːs] *n* ov miltig'i.
fox [fɔks] **1.** *n* tulki; **2.** *v* ayyorlik qilmoq.
fox-brush [ˈfɔksbrʌʃ] *n* tulkining dumi.
fox-earth [ˈfɔksəːθ] *n* tulki ini.

foxglove [ˈfɔksglʌv] *n bot.* digitalis (*dorivor o'simlik turi*).
foxhole [ˈfɔkshəul] *n* tulki ini.
foxy [ˈfɔksɪ] *a* 1) tulkiga oid; 2) mug'ambir.
foyer [ˈfɔɪeɪ] *n* foye (*teatrda*).
fracas [ˈfrækɑ:] *n* urish, janjal, nizo, araz.
fraction [ˈfrækʃn] *n* 1) kasr; 2) bo'lak; ulush.
fractional [ˈfrækʃnəl] *a mat.* kasriy, kasr.
fractionally [ˈfrækʃnəlɪ] *adv* juda kichik darajada, juda kichik miqdorda.
fractious [ˈfrækʃəs] *a* 1) injiq, serxarxasha, tantiq; 2) tez achchiqlanadigan, serjahl.
fracture [ˈfrækʧə] *n* siniq, sinish, singan joy.
fragile [ˈfrædʒaɪl] *a* mo'rt, tez sinadigan.
fragility [frəˈdʒɪlətɪ] *n* mo'rtlik, sinuvchanlik.
fragment [ˈfrægmənt] *n* parcha, bo'lak, qism.
fragmentary [ˈfrægməntərɪ] *a* uzilgan, bir-biriga bog'lanmagan, chala-chulpa.
fragmentation [ˌfrægmenˈteɪʃn] *n* snaryad parchasi.
fragrance [ˈfreɪgrəns] *n* xushbo'y hid, muattar hid.
fragrant [ˈfreɪgrənt] *a* xushbo'y, yaxshi hidli, muattar.
frail [freɪl] **1.** *a* nimjon; sinuvchan; **2.** *n* 1) qamish; 2) savat (*meva va sabzavotlar uchun*).
frame [freɪm] **1.** *n* 1) skelet, qobirg'a; 2 qaddi-qomat, gavda; 3) ramka; **2.** *v* 1) yasamoq; qurmoq; solmoq, barpo qilmoq, o'rnatmoq; **to ~ a plan** reja tuzmoq; 2) ramkaga solmoq.
framework [ˈfreɪmwə:k] *n* 1) kesish, kesilgan joy; 2) sinch; 3) rom, ramkaga solish, hoshiyalash; **within the ~ of** (***smth.***) biror narsa ichida.
franc [frænk] *n* frank (*pul birligi*).
franchise [ˈfantʃaɪz] *n* 1) saylash huquqi; 2) imtiyoz, yengillik.
frank [frænk] *a* 1) ochiq, oshkora, ochiqdan-ochiq; samimiy; sofdil; **a ~ look in the eyes** ochiq chehra; 2) saxiy.
frankness [ˈfræŋknəs] *n* ochiqlik, samimiylik.
frankfurter [ˈfræŋkfə:tə] *n* sosiska.
frantic [ˈfræntɪk] *a* jazavaga tushgan, g'azab va hayajondan o'zini bilmaydigan; shiddatli.
fraternal [frəˈtə:nl] *a* qardoshlikka oid, qardoshlik; do'stona.
fraternity [frəˈtə:nətɪ] *n* do'stlik, qardoshlik; birodarlik; **the ~ of all men** hammani qardoshligi, do'stligi.
fraternization [ˌfrætənaɪˈzeɪʃn] *n* do'stlashuv, birodarlashuv.
fraternize [ˈfrætənaɪz] *v* do'stona munosabat bog'lamoq, inoqlashmoq.
fratricidal [ˌfrætrɪˈsaɪdl] *a* yaqin kishilarning bir-birini o'ldirishiga (qirishiga) oid.
fratricide [ˈfrætrɪsaɪd] *n* qon-qarindoshlarning bir-birini o'ldirishi.
fraud [frɔ:d] *n* 1) qallob; muttaham, yolg'onchi; 2) yolg'on gap.
fraudulent [ˈfrɔ:djulənt] *a* aldamchilikka (firibgarlikka) asoslangan, aldovdan iborat bo'lgan.
fraught [frɔ:t] *a* to'la, to'lib-toshgan.
fray [freɪ] *v* 1) teshilmoq, to'zib ketmoq, eskirmoq (*kiyimga nisbatan*); 2) asablari charchamoq.
frazzle [ˈfræzl] *n* charchash, asabning charchashi.
freak [fri:k] *n* 1) injiqlik, g'aroyibot; 2) g'ayrita-biiy kishi; 3) nogiron odam.
freakish [ˈfri:kɪʃ] *a* injiq, serxarxasha, tantiq.
freckle [ˈfrekl] *n pl* sepkil.
freckled [ˈfrekld] *a* sepkilli, sepkil bosgan, sepkildor.
free [fri:] **1.** *a* 1) ozod, mustaqil, erkin; **~ country** ozod Vatan (mamlakat); **~ people** ozod xalq; 2) ko'ngilli, ixtiyoriy; **~ choice** ixtiyoriy saylov; 3) band bo'lmagan, bo'sh; **are you ~ in the afternoon** kunduzi siz bo'shmisiz?; 4) bo'sh, ochiq; **is the way ~?** yo'l ochiqmi (bo'shmi)? 5) bepul (*sovg'a sifatida*); **~ board and lodging** bepul yashash va ta'minlash; **~ education** bepul ta'lim (bilim); 6) neytral, xolis, betaraf, erkin; **~ flight** erkin uchish; *tex.* **~ position** betaraf (xolis) taraf; **2.** *v* ozod qilmoq, xalos qilmoq; **to ~ the land from oppression** jabr zulmdan mamlakatni ozod qilmoq.
freebooter [ˈfri:bu:tə] *n* dengiz qaroqchisi.
freedom [ˈfri:dəm] *n* 1) ozodlik, mustaqillik; **the ~ of a country** mamlakat mustaqilligi; 2) imtiyoz, yengillik; **~ of speech** so'z erkinligi; 3) erkin foydalanish.
freedom-loving [ˈfri:dəmˌlʌvɪŋ] ozodlikni sevuvchi, erksevar, xurriyatparvar.
freefone [ˈfri:fəun] *n* bepul qo'ng'iroq qilish tizimi
free-hand [ˈfri:hænd] *a* qo'lda chizilgan; **a ~ drawing** qo'lda chizilgan rasm.
free-handed [ˌfri:ˈhændɪd] *a* saxiy, qo'li ochiq, saxovatli, himmatli.
freeholder [ˈfri:həuldə] *n tar.* yer egasi.
freelance [ˈfri:lɑ:ns] *n* yollanma ishchi.
freely [ˈfri:lɪ] *adv* 1) erkin, bemalol, to'siqsiz, qiyinchiliklarsiz; 2) keng, mo'l, serob.
Freemason [ˈfri:meɪsn] *n* mason (*masonlik oqimning tarafdori, masonlar tashkilotining a'zosi*).
freepost [ˈfri:ˌpəust] *n* bepul pochta jo'natish.
free-thinker [ˌfri:ˈθɪŋkə] *n* hurfikr (erkin fikr qiluvchi) odam.
freeway [ˈfri:weɪ] *n amer.* avtostrada (*avtomobillar qatnovi uchun maxsus qurilgan va uskunalangan katta yo'l*).
freeze [fri:z] **1.** *n* sovuq; ayoz; **2.** *v* (**froze; frozen**) muzlatmoq, muzlamoq, yaxlamoq; tutmoq.
freezer [ˈfri:zə] *n* muzlatgich, muzxona.
freezing [ˈfri:zɪŋ] **1.** *pres. p.* **freeze 2.** *dan*; **2.** *n* muzlash.
freezing-point [ˈfri:zɪŋpɔɪnt] *n* muzlash nuqtasi.
freight [freɪt] *n* 1) (*kemada*) yuk tashish haqi, kira puli; 2) kemada tashiladigan yuk.
freighter [ˈfreɪtə] *n* yuk tashuvchi kema *yoki* samolyot.
French [frentʃ] **1.** *a* fransuzcha; fransuz; **2.** *n* fransuz tili; **~man** fransuz; **~ woman** fransuz ayoli.

frenzied [ˊfrenzɪd] *a* yovvoyi, vahshiy, darg'azab.
frenzy [ˊfrenzɪ] *n* aqldan ozishlik, quturish.
frequency [ˊfri:kwənsɪ] *n* tezlik; tez-tez qaytalanish, takrorlanish.
frequent 1. *a* [ˊfri:kwənt] tez-tez bo'ladigan, qaytalanib, takrorlanib turadigan; **2.** *v* [frɪ ˊkwent] tez-tez qatnashmoq.
frequentative [frɪˊkwentətɪv] *a gram.* takroriy.
fresco [ˊfreskəu] *n* (*pl* **-os, oes** [-əuz]) devorga ishlangan suratlar.
fresh [freʃ] *a* 1) yangi, endigina uzilgan, yangi chiqqan; 2) musaffo, toza; 3) tiniq, yorqin; 4) tetik, bardam.
freshen [ˊfreʃn] *v* 1) ochmoq, ko'rkamlashmoq, chiroy bag'ishlamoq; 2) kuchaymoq, shiddatlashmoq (*shamolga nisbatan*).
fresher [ˊfreʃə] *n* 1) yangi odam, endigina kelgan odam; 2) birinchi kurs talabasi.
freshet [ˊfreʃɪt] *n* daryoning toshishi.
freshly [ˊfreʃlɪ] *adv* yaqinda, yaqindagina, kechagina, hali, boya.
freshman [ˊfreʃmən] = **fresher.**
fret [fret] **1.** *n* 1) tor, parda (*dutor, gitara va sh.k da.*); 2) azob-uqubat, jafo, aziyat, ozor; **2.** *v* xavotirlanmoq, tashvishlanmoq.
fretful [ˊfretfəl] *a* tez achchiqlanadigan, darrov g'azablanib ketadigan, serjahl, serzarda.
fretwork [ˊfretwə:k] *n me'mor.* naqsh bilan bezatish.
friable [ˊfraɪəbl] *a* bo'sh, yumshoq (*yer*); mo'rt.
friar [ˊfraɪə] *n tar.* monax, rohib.
friary [ˊfraɪərɪ] *n* erkaklar monastiri.
fricative [ˊfrɪkətɪv] **1.** *a fonet.* frikativ, sirg'aluvchan; **2.** *n* frikativ; sirg'aluvchi tovush.
friction [ˊfrɪkʃn] *n* 1) ishqalanish; 2) *tib.* malhamning surtilishi; 3) *ko'ch.* kelishmovchilik.
frictional [ˊfrɪkʃnəl] friksion, ishqalanadigan, chig'iriqli.
Friday [ˊfraɪdeɪ] *n* juma.
fridge [frɪdʒ] *n* sovitgich, muzlatgich.
friend [frend] *n* 1) do'st, og'ayni; 2) tanish; **have you any ~s here** bu yerda tanishingiz bormi?
friendless [ˊfrendləs] *a* yakka, yolg'iz, tanho, boshqalardan ajralgan.
friendly [ˊfrendlɪ] *a* 1) do'stona; 2) samimiy munosabatdagi; **~ nation** do'st mamlakat.
friendship [ˊfrendʃɪp] *n* 1) do'stlik; 2) xayrixohlik, samimiyat.
frigate [ˊfrɪgət] *n deng.* fregat (*1. uch machtali yelkanli harbiy kema; 2. soqchi harbiy kema*).
frige [frɪdʒ] *n* sovitgich, muzlatgich.
fright [fraɪt] *n* qo'rqish, qo'rquv; **~ful** qo'rqinchli, vahimali; **to give smb. a ~** biror kimni qo'rqitmoq; **to have a ~** qo'rqib ketmoq.
frighten [ˊfraɪtn] *v* qo'rqitmoq, cho'chitmoq.
frightened [ˊfraɪtnd] **1.** *p. p.* **frighten** *dan*; **2.** *a* qo'rqqan, cho'chigan.
frightful [ˊfraɪtfəl] *a* vahimali, qo'rqinchli.
frightfully [ˊfraɪtfəlɪ] *adv* vahimali, dahshat.
frigid [ˊfrɪdʒɪd] *a* iltifotsiz, e'tiborsiz.
frigidity [frɪˊdʒɪdətɪ] *n* e'tiborsizlik, iltifotsizlik.
frill [frɪl] *n* 1) jabo (*yoqaning chetidagi to'r yoki matodan qilingan burma hoshiya*).
frilled [frɪld] *a* 1) burma bilan bezatilgan; 2) novanova; qat-qat; 3) qirrali kesilgan.
frilly [ˊfrɪlɪ] *n* burmali.
fringe [frɪndʒ] *n* 1) qo'shimcha nafaqa; 2) peshana gajak; 3) popuk, gajim shokila; **the ~ of curtain** pardadagi popuk; 4) jiyak, mag'iz; hoshiya.
frippery [ˊfrɪpərɪ] *n* zar ip, zar, bezak.
frisk [frɪsk] **1.** *v* tinmay o'ynamoq; o'ynoqlamoq; **2.** *n* chopqillash, sakrash.
fritter [ˊfrɪtə] **1.** *n* 1) qism; 2) oladya (*taom turi*); **2.** *v* maydalamoq, ushatmoq.
frivolity [frɪˊvɔlətɪ] *n* mulohazasizlik, yengiltaklik.
frivolous [ˊfrɪvələs] *a* mulohazasiz, yengiltak.
frizz [frɪz] **1.** *v* jiz-jiz qilmoq (*qovurganda*); **2.** *n* gajak qilish.
frizzle [ˊfrɪzl] *v* jaz-juz (jiz-jiz) qilib qovurmoq.
frizzy [ˊfrɪzɪ] *a* jingalak.
fro [frəu] *adv* **: to and ~** u yoqqa-bu yoqqa, orqaga va oldinga.
frock [frɔk] *n* ayollar ko'ylagi (libosi).
frock-coat [ˌfrɔk ˊkəut] *n* surtuk (*erkaklarning uzun belburma kamzuli*).
frog [frɔg] *n* baqa, qurbaqa.
frogman [ˊfrɔgmən] *n* g'avvos (*suv o'tkazmaydigan maxsus kiyimda suvosti ishlarini bajaruvchi ishchi*).
frolic [ˊfrɔlɪk] **1.** *v* sho'xlik qilmoq, to'polon qilmoq; **2.** *n* sho'xlik.
frolicsome [ˊfrɔlɪksəm] *a* sho'x, o'ynoqi, xushchaqchaq.
from [frɔm] *prep.* 1) ...dan; ...dan beri; 2) natijada, sababli; **~ morning till night** ertadan kechgacha.
front [frʌnt] **1.** *harb.* front, oldingi tomon; **look to your ~** oldinga qara; **2.** *a* oldingi; **~ teeth** oldingi tishlar; **3.** *v* oldinga chiqmoq.
frontage [ˊfrʌntɪdʒ] *n* fasad (*binoning old tomoni, oldi*).
frontal [ˊfrʌntl] *a* 1) *anat.* peshana (manglay) suyagi; 2) *harb.* old tomonda joylashgan, oldingi tarafdagi.
frontier [ˊfrʌntɪə] *n* 1) chegara; 2) chegara qal'asi.
frontispiece [ˊfrʌntɪspi:s] *n* frontispis (*1. imoratning old tomoni, peshtoqi; 2. kitobning birinchi betidan oldingi betdagi yoki birinchi betning matndan yuqoridagi rasm*).
frost [frɔst] **1.** *n* sovuq, ayoz; **ten degrees of ~** o'n daraja sovuq; **hard ~ (sharp ~, biting ~)** qattiq sovuq; **2.** *v* sovuq urib ketmoq; muzlamoq.
frost-bite [ˊfrɔstbaɪt] *n* sovuqqa oldirib (urdirib) qo'yilgan joy.

frost-bitten [ˈfrɔstbɪtn] *a* sovuqqa oldirilgan (urdirilgan).
frost-bound [ˈfrɔstbaund] *a* muzlatib qo'yilgan.
frost-hardy [ˈfrɔst,hɑ:dɪ] *a* sovuqqa chidaydigan, sovuqbardosh (*o'simliklar haqida*).
frostily [ˈfrɔstɪlɪ] *adv* sovuqqina, iltifotsiz.
frosting [ˈfrɔstɪŋ] **1.** *n* 1) sir; 2) shakar qiyom, shira; **2.** *v* sirlamoq; yaltiratmoq, jilo bermoq.
frost-work [ˈfrɔstwə:k] *n* oynalardagi muz naqshi (*sovuqdan oynalarga tushgan jim-jimador naqsh*).
frosty [ˈfrɔstɪ] *a* sovuq, muzlatadigan.
froth [frɔθ] **1.** *n* ko'pik; **2.** *v* ko'piklanmoq, ko'pirmoq.
frothy [ˈfrɔθɪ] *a* ko'pikli, ko'pikka o'xshash.
frown [fraun] **1.** *v* qovog'ini solmoq; norozi bo'lmoq; **2.** *n* qovog'ini solish; norozi bo'lish.
frowsty [ˈfraustɪ] *a* dim, dam, bo'g'iq.
frowzy [ˈfrauzɪ] *n* isqirt, iflos, to'zg'igan.
froze [frəuz] *past.* **freeze** *dan.*
frozen [ˈfrəuzn] *a* muzlagan, muzlatilgan.
frugal [ˈfru:gl] *a* 1) tejab (ehtiyotkorlik bilan) sarf qiladigan, tejamkor; 2) o'rtacha, mo'tadil.
frugality [fru:ˈgælətɪ] *n* tejab-tergash, ayash, tejamkorlik.
fruit [fru:t] *n* 1) meva; **to grow ~s** mevali daraxt o'stirmoq; **~er** meva daraxti; **~less** mevasiz, samarasiz; foydasiz, natijasiz; 2) natija.
fruiterer [ˈfru:tərə] *n* meva sotuvchi.
fruitful [ˈfru:tfəl] *a* mevali, samarali, hosildor; **~ tree** sermeva daraxt.
fruition [fruˈɪʃn] *n* orzuning ushalishi, rejaning amalga oshishi.
fruitless [ˈfru:tləs] *a* samarasiz, foydasiz.
frumpish [ˈfrʌmpɪʃ] *a* bichimi (modasi) eskirgan, eski modadagi, eskicha.
frustrate [frʌˈstreɪt] *v* buzmoq, barbod qilmoq; **to ~ plans** rejalarni buzmoq.
frustration [frʌˈstreɪʃn] *n* 1) barbod bo'lish, ostin-ustun bo'lish; **the ~ of smb's plans** kimningdir rejasining buzilishi; 2) halokat.
fry [fraɪ] **1.** *n* qovurdoq; **2.** *v* qovurmoq, qovurilmoq.
frying-pan [ˈfraɪŋpæn] *n* tova (*qovurma ovqat pishirish uchun xizmat qiladigan, gir atrofi qayrilgan yassi metall idish*).
fuddle [ˈfʌdl] *v* mast bo'lmoq, gangimoq.
fudge [fʌdʒ] *n* behuda gap, safsata, bema'ni (bo'lmagan) narsa, uydirma, to'qima.
fuel [fju:əl] *n* yoqilg'i, **oil ~** yonilg'i.
fugitive [ˈfju:dʒətɪv] *n* qochoq, qochqin.
fugue [fju:g] *n mus.* fuga (*bir musiqiy matnning bir necha ovozda izchil takrorlanishi*).
fulcrum [ˈfʌlkrəm] *n* tayanch nuqtasi.
fulfil [fulˈfɪl] *v* 1) bajarmoq, ro'yobga chiqarmoq; **to ~ a promise** va'dani bajarmoq; 2) tugatmoq.
fulfilment [fulˈfɪlmənt] *n* 1) bajarish, ro'yobga chiqarish; **the ~ of one's desires** xohishni bajarish; 2) tugatish.
full [ful] **1.** *a* 1) to'la; butun; **~ glass** to'la stakan; **~ audience** zal odamga to'la; 2) to'lin; **~ moon** to'lin oy; 3) keng; **~ skirt** keng yubka; 4) mo'l; serob; 5) to'q; 6) boy; 6) farovon; 7) eng yuqori darajaga yetgan; **2.** *adv* aniq, xuddi o'zi, rosa; **~ in the centre** qoq o'rtasida; **~ well** juda yaxshi; **~ soon** tez kunda; **3.** *v* kengaytirmoq, kattalashtirmoq.
full-blooded [ˌfulˈblʌdɪd] *a* to'laqonli, qoni ko'p, serqon.
full-blown [ˌfulˈbləun] *a* tamoman so'ligan (gul haqida).
full-length [ˌfulˈleŋθ] *a* 1) bor bo'yicha; 2) boshdan oxirigacha.
fullness [ˈfulnəs] *n* 1) to'lalik; 2) mo'l-ko'lchilik; 3) to'qlik.
fully [ˈfulɪ] *adv* butunlay, tamoman, batamom; tamomila, to'la, to'liq, to'la-to'kis.
fulminant [ˈfulmɪnənt] *a* 1) yashin tezligidagi; yashindek tez; shiddatli; 2) tez o'tib ketadigan, vaqtinchalik, bebaqo.
fulminate [ˈfulmɪneɪt] *v* 1) yarqiramoq, yaltiramoq; 2) guldiramoq; gumbirlamoq; **~ion** portlash
fulness [ˈfulnəs] = **fullness.**
fulsome [ˈfulsəm] *a* 1) samimiyatsiz, ikkiyuzlama, munofiq; 2) dag'al, qo'pol, to'rs.
fumble [ˈfʌmbl] *v* paypaslab topmoq, siypalamoq.
fume [fju:m] *n* tutun; bug'; bug'lanish.
fumes [fju:mz] *n* kuchli hid, achchiq tutun.
fumigate [ˈfju:mɪgeɪt] *v* dudlamoq, tutun bilan ishlamoq, tutatmoq.
fumigation [ˌfju:mɪˈgeɪʃn] *n* tutatish.
fumy [ˈfju:mɪ] *a* tutayotgan, tutab turgan.
fun [fʌn] *n* hazil; xursandchilik; **for ~** hazil, hazillashib; **we did it for ~** biz buni hazillashib qildik; **to make ~ of smb** birovning ustidan kulmoq.
function [ˈfʌŋkʃən] **1.** *n* vazifa, tayinlash, lavozim majburiyatlari; **2.** *v* vazifasini bajarmoq.
functional [ˈfʌŋkʃənəl] *a* funksiyaga oid, funksional.
functionary [ˈfʌŋkʃənərɪ] *a* amaldor.
fund [fʌnd] **1.** *n* fond; pul, mablag'; **2.** *v* mablag' chiqarmoq; mablag' ajratmoq.
fundamental [ˌfʌndəˈmentl] *n* asosiy, muhim, tub; **the ~ rules** asosiy qoidalar.
fund-raising [ˈfʌnd,reɪzɪŋ] *n* mablag' yig'ish.
funeral [ˈfju:nərəl] *n* ko'mish (dafn) marosimi; ko'mish, dafn etish.
fungous [ˈfʌŋgəs] *a* bulutsimon, g'alvirak, kovak, teshik-teshik.
fungus [ˈfʌŋgəs] *n* zamburug', qo'ziqorin.
funicular [fjuˈnɪkjulə] *a* kanatga (arqonga) oid, kanat, arqon.
funk [fʌŋk] **1.** *n* 1) qo'rqinch, vahima, dahshat, qo'rqish; 2) qo'rqoq, yuraksiz; **2.** *v* 1) qo'rqmoq, cho'chimoq; 2) o'zini chetga olmoq.
funnel [ˈfʌnl] *n* 1) voronka; 2) tutun chiqadigan quvur; mo'ri.

funny [ˈfʌnɪ] *a* qiziq; kulgili; ajoyib.
fur [fə:] *n* mo'yna; teri; jun.
furbish [ˈfə:bɪʃ] *v* 1) oynaday silliqlamoq, sayqallamoq; 2) yangilamoq, pardoz berib yangilamoq, tuzatib yangiday qilmoq.
furious [ˈfjuərɪəs] *a* qahrli, yovuz; shiddatli; qaqshatqich.
furl [fə:l] *v* o'ramoq, o'rab (yig'ishtirib) qo'ymoq.
furlong [ˈfə:lɔŋ] *n* milning sakkizdan bir qismi (= 201m).
furlough [ˈfə:ləu] 1. n harb. otpuska (mehnat ta'tili); 2. v (soldatlarga) otpuska bermoq.
furnace [ˈfə:nɪs] *n* pechka; **blast ~** domna pechka.
furnish [ˈfə:nɪʃ] *v* 1) ta'minlamoq, yetkazib bermoq; 2) jihozlamoq; **~ed rooms** jihozlangan xonalar.
furnishings [ˈfə:nɪʃɪŋz] *n* 1) uy jihozlari; 2) bezash, yasatish, bezatish.
furniture [ˈfə:nɪtʃə] *n* jihoz, mebel.
furore [fju ˈrɔ:rɪ] *n* dabdabali (zo'r) muvaffaqiyat, katta yutuq.
furrier [ˈfʌrɪə] *n* 1) mo'ynafurush; 2) mo'ynado'z.
furrow [ˈfʌrəu] *n* 1) egat, jo'yak; 2) ajin.
furrowed [ˈfʌrəud] *n* burushgan, ajin bosgan, burushiq.
furry [ˈfə:rɪ] *a* mo'ynali; tivitli.
further [ˈfə:ðə] **1.** *a* 1) keyingi, keyin keladigan, kelgusi; 2) qo'shimcha; **to obtain ~ information** to'liq ma'lumot olmoq; 3) uzoqroq; **2.** *v* siljitmoq; ko'maklashmoq, imkon tug'dirmoq.
furthest [ˈfə:ðɪst] = **farthest.**
furtive [ˈfə:tɪv] *a* yashirin, maxfiy.
furtively [ˈfə:tɪvlɪ] *adv* yashirincha, bekinib, sezdirmasdan.

Gg

G, g [dʒi:] *n* 1) ingliz tili alifbosining yettinchi harfi; 2) *mus.* sol notasi.
gab I [gæb] **1.** *n* 1) sergaplik; 2) ezmalik; **stop your ~!** *qo'pol.* bas qil! ovozingni o'chir; **2.** *v* vaysamoq, valdiramoq.
gab II [gæb] *n tex.* vilka, ilgak, ilmoq, zanjir.
gabardine [ˌgæbəˈdi:n] *n* gabardin (*palto yoki kastumbop jun mato*).
gabber [ˈgæbə] *n* sergap odam, ezma, safsataboz.
gabble [ˈgæbl] **1.** *n* 1) to'ng'illash, tushunib bo'lmaydigan tarzda so'zlashish; 2) g'ozlarning g'ag'alashi; **2.** *v* 1) ming'illamoq, g'udurlamoq; 2) g'ag'alamoq (*g'ozlar haqida*).
gabbler [ˈgæblə] *n* ming'irlab gapiruvchi odam.
gabby [ˈgæbɪ] *a* sergap, ezma.
gaberdine [ˌgæbəˈdi:n] *n* gabardin (*dag'al movutdan qilingan etaklari uzun chakmon*).
gabionade [ˌgeɪbɪəˈneɪd] *n* chiziq, qator, saf.
gable [ˈgeɪbl] *n me'mor.* 1) fronton (*bino fasadining uchburchak shaklida bo'lgan tepa qismi, shuningdek, derazalar tepasidagi shu shaklda ishlangan bezak*); 2) ikki yoqqa nishab tomning tepa qirrasi.
gabled [ˈgeɪbld] *a* uchi o'tkir, uchli, nayzador (*tom haqida*).
gaby [ˈgeɪbɪ] *n* soddadil odam, go'l odam.
gad [gæd] **1.** *int.* qo'ysang-chi, qo'y, bor-e, qani (*afsus, g'azab kabilarni ifodalaydi*); **2.** *v* tentiramoq, sang'imoq; **3.** *n* 1) o'tkir uch, uch; 2) *tar.* nayza; 3) *tex.* zubilo (*temir kesish, tosh tarashlash va sh.k. ishlarda qo'llaniladigan iskanasimon asbob*).
gadabout [ˈgædəˌbaut] *n* daydi, darbadar, miskin kishi.
gadder [ˈgædə] *n* darbadar, daydi, miskin kishi.
gad-fly [ˈgædflaɪ] *n* so'na; so'na pashsha.
gadget [ˈgædʒɪt] *n* moslama, asbob, buyum, jihoz.
gadoid [ˈgædɔɪd] **1.** *n* treska oilasiga mansub baliq; **2.** *a* treska oilasiga mansub bo'lgan.
fury [ˈfjuərɪ] *n* g'azab; jahl; qahr.
fuse [fju:z] **1.** *n* eritish; **2.** *v* eritmoq; erimoq.
fuselage [ˈfju:zəlɑ:ʒ] *n* fuzelaj (*samolyot korpusi, gavdasi*).
fusible [ˈfju:zəbl] *a* eruvchan, eriydigan.
fusion [ˈfju:ʒn] *n* eritish; eritma.
fuss [fʌs] **1.** *n* 1) asabiy holat; 2) behuda ovoragarchilik; **2.** *v* behudaga hayajonlanmoq, bezovta bo'lmoq.
fussy [ˈfʌsɪ] *a* 1) hovliqma, behalovat; 2) serhasham, bejamdor, balandparvoz.
fusty [ˈfʌstɪ] *a* 1) zax bosib qolgan, buzilgan, aynigan; 2) eskirgan.
futile [ˈfju:taɪl] *a* befoyda, yuzaki, jiddiy emas.
futility [fjuˈtɪlətɪ] *n* 1) bo'shlik, xolilik; 2) puchlik, behudalik, foydasizlik, natijasizlik.
future [ˈfju:tʃə] **1.** *a* kelgusi, bo'lg'usi; **~ tense** *gram.* kelasi zamon; **2.** *n* kelajak.
futurism [ˈfju:tʃərˌɪzm] *n* futurizm (*20-asr boshida san'at va adabiyotda hukm surgan formalistik oqim*).
futurist [ˈfju:tʃərɪst] *n* futurist, futurizm tarafdori.
futurity [fjuˈtjuərətɪ] *n* 1) kelajak, istiqbol; 2) *din.* narigi dunyodagi hayot.
fuze [fju:z] *n* 1) zapal, pilta; 2) pilik, dori (*eski vaqtdagi miltiq yoki to'plarda*).
fuzz [fʌz] *n* 1) par, pat, tivit, momiq; 2) tuk (odamda); 3) tuk, momiq (*o'simlikda*).
fuzzily [ˈfʌzɪlɪ] *adv* noaniq, xira, g'ira-shira, tushunib bo'lmaydigan; tushunarli emas.
fuzzy [ˈfʌzɪ] *a* 1) tushunib bo'lmaydigan; 2) qarovsiz; 3) parli, momiqli.
fylfot [ˈfɪlfɔt] *n* svastika (*uchlari qayrilgan salib – fashizm simvoli*).

gadolinium [ˌgædəˈlɪnɪəm] *n kim.* gadoliniy (*kimyoviy element, metall*).

gaff [gæf] *n* 1) baliq ovlaydigan changak, sanchqi; 2) *so'zl.* arzon teatr; 3) *n* bema'ni gap, safsata; **to blow the ~** sirini aytib qo'ymoq, og'zidan gullab qo'ymoq.

gaffe [gæf] *n* xato, xatolik, noto'g'ri qadam.

gaffer [ˈgæfə] *n so'zl.* qizim, hoy qizim (*murojaat shakli*).

gag [gæg] **1.** *n* tiqin; **2.** *v* 1) ovoz chiqarmaslikka majburlamoq; 2) aldamoq; 3) tiqin tiqmoq.

gaga [ˈgɑ:gɑ:] *a* aqli zaif, miyasi yo'q.

gage [geɪdʒ] **1.** *n* 1) garovga qo'yish; **to give on ~** garovga bermoq; 2) garov; **2.** *v* garovga bermoq.

gaggle [ˈgægl] **1.** *n* 1) g'ozlar galasi (*to'dasi*); 2) g'ozlarning g'ag'alashi; **2.** *v* g'aqillamoq, g'aq-g'aq qilmoq (*g'oz*).

gag-man [ˈgægmən] *n* hazil-mutoyiba, askiya to'qiydigan odam.

gaiety [ˈgeɪətɪ] *n* 1) vaqtichog'lik, xursandchilik; 2) quvnoq *yoki* ko'rkam ko'rinish.

gaily [ˈgeɪlɪ] *adv* vaqtichog'lik (xursandchilik) bilan, quvnab.

gain [geɪn] **1.** *v* 1) foyda keltirmoq; 2) ishlab topmoq; 3) erishmoq, qo'lga kiritmoq; **~ independence** mustaqillikni qo'lga kiritmoq; **~ weight** semirmoq; **~ confidence of smb.** biror kishining ishonchini qozonmoq; **~ experience** tajriba orttirmoq; **2.** *n* daromad; foyda, manfaat, naf.

gainful [ˈgeɪnfl] *a* daromadli, foydali; foyda keltiradigan.

gainings [ˈgeɪnɪŋz] *n pl* 1) ish haqi, ishlab topilgan pul; 2) yutuq.

gainsaid [ˌgeɪnˈsed] *past., p. p.* **gainsay** *dan.*

gainsay [geɪnˈseɪ] *v* rad qilmoq, qarshilik ko'rsatmoq.

gainst [genst] *prep.* **against** *dan.*

gait [geɪt] *n* yurish, qadam tashlash, oyoq qo'yish; **to know smb. by his ~** kimnidir yurishidan bilmoq.

gaiter [ˈgeɪtə] *n* gamashi (*boldirdan tovongacha qoplab turadigan, oyoq kiyim ustidan tushirib kiyiladigan issiq paypoq*); **ready to the last ~ button** to'la-to'kis tayyor qilib qo'yilgan.

gal [gæl] *n* qiz, qizcha, qiz bola.

gala [ˈgɑ:lə] **1.** *n* tantanali bayram; **2.** *a* bayramona, tantanali.

galactic [gəˈlæktɪk] *a astr.* galaktikaga, Somon yo'liga oid.

gala day [ˈgɑ:lədeɪ] *n* tantana, bayram.

gala night [ˈgɑ:lənaɪt] *n* tantanali kecha.

galanty show [gəˌlæntɪˈʃəu] *n* ekranga soyalar tushirib turli manzaralar hosil qilish yo'li bilan ko'rsatiladigan o'yin, tomosha.

galaxy [ˈgæləksɪ] *n astr.* Somon yo'li (*Quyosh sistemasini o'z ichiga olgan yulduzlar sistemasi*).

gale [geɪl] *n* 1) dovul, to'fon; **stiff (hard) ~** kuchli bo'ron; 2) renta pulini vaqti-vaqti bilan to'lash.

galeeny [gəˈli:nɪ] *n* sesarka (*tovuqsimonlar turkumidagi parranda*).

galena [gəˈli:nə] *n* yaltiroq qo'rg'oshin tosh (*qo'rg'oshin rudasi*).

galimatias [ˌgælɪˈmætɪəs] *fr. n* tuturiqsiz gap.

galipot [ˈgælɪpɔt] *n* ignabargli daraxtlarning smolali yelimi.

gall I [gɔ:l] *n* 1) o't, safro; 2) o't pufagi (qopchasi); 3) o'taka.

gall II [gɔ:l] *n* shilingan (timdalangan, sidirilgan, qirilgan) joy, chaqa (*badanda*).

gall III [gɔ:l] *n bot.* mozi (*yong'oqsimon o'simta, xalq tibbiyotida dori sifatida ishlatiladi*).

gallant [ˈgælənt] **1.** *a* botir, mard, jasur; **~ soldier** jasur soldat; **2.** *v* kuzatmoq (*ayolni*).

gallantry [ˈgælənrɪ] *n* mardlik, botirlik, jasurlik; **to display ~** jasurlik ko'rsatmoq.

gall-bladder [ˈgɔ:lˌblædə] *n anat.* o't pufagi (qopchasi), o'taka.

galleass [ˈgælɪæs] *n* uch machtali, ko'p eshkakli kema.

gallery [ˈgælərɪ] *n* 1) yerosti yo'li; 2) galereya; **picture ~** rasmlar galereyasi; 3) *teatr.* ayvon (*balkon*); 4) xor.

galley [ˈgælɪ] *n* ko'p eshkakli kema.

galley-proof [ˈgælɪpru:f] *n poligr.* granka (*sahifalanmagan terilgan harflardan tushirib olingan nusxa*).

galley-slave [ˈgælɪsleɪv] *n* 1) eshkakchi, eshkak eshuvchi; 2) og'ir ish qiluvchi qul.

Gallic [ˈgælɪk] *a* 1) gal(lar) ga oid, gal; 2) *hazil.* fransuzcha.

gallicism [ˈgælɪˌsɪzm] *n* gallitsizm (*fransuz tilidan qabul qilingan yoxud unga taqlid qilib tuzilgan so'z yoki ibora*).

galligaskins [ˌgælɪˈgæskɪnz] *n pl* keng ishton, shim, lozim.

gallimaufry [ˌgælɪˈmɔ:frɪ] *n* aralash-quralash narsa.

gallinaceous [ˌgælɪˈneɪʃəs] *a zool.* tovuqqa oid, tovuq.

galliot [ˈgælɪət] *n* galiot (*ko'p eshkakli yelkanli tezyurar kema*).

gallipot [ˈgælɪpɔt] *n* dorixona (apteka) bankasi, sirli banka.

gallium [ˈgælɪəm] *n kim.* galliy (*kimyoviy element, oq tusli nodir metall*).

gallivant [ˌgælɪvænt] *v* ishva qilmoq, noz-karashma qilmoq.

gall-nut [ˈgɔ:lnʌt] *n bot.* mozi (*yong'oqsimon o'simta*).

Gallomaniac [ˌgæləuˈmeɪnɪæk] *n* fransuzlar ixlosmandi.

gallon [ˈgælən] *n* gallon (*Angliya va AQSHda: suyuq va sochilma jismlar uchun 4,54 litrli o'lchov birligi*).

galloon [gəˈlu:n] *n* uqa (*bezak uchun gazmol buyumlar, kiyim-kechak va sh.k. narsalar chetiga tikib qadab qo'yilgan uzun ensiz mato*).

gallop [ˈgæləp] **1.** *n* sakrab chopish; **2.** *v* 1) otni qo'ymoq, yeldirmoq; 2) yelmoq, uchmoq (*ot haqida*).

galloper [ˈgæləpə] *n harb.* 1) navbatchi; 2) motosiklda yurib xat-xabar eltuvchi.

galloping [ˈgæləpɪŋ] **1.** *pres. p.* **gallo 2.** *dan*; **2.** *a* g'irillab (tez) olib keladigan.

galloway [ˈgæləweɪ] *n shotl.* bo'yi past, ammo kuchli ot.

gallows [ˈgæləuz] *n* 1) dor (*osishga hukm qilganlarni osadigan*); 2) shimni ko'tarib, tutib turish uchun ikki yelka osha tortib qo'yiladigan tasma.

gallows-bird [ˈgæləuzbə:d] *n* past (razil, qabih) odam.

gall-stone [ˈgɔ:lstəun] *n tib.* o'tdagi tosh.

Gallup poll [ˌgæləp ˈpəul] *n* turli masalalarda xalqning fikrini bilish (*masalan, saylov to'g'risida*).

galluses [ˈgæləsɪz] *n pl amer. so'zl.* 1) tortib taranglash, qattiqroq burab qo'yish; 2) shimni ko'tarib (*tutib*) turish uchun ikki yelka osha tortib qo'yiladigan tasma.

galoot [gəˈlu:t] *n* noshud (epsiz; qo'pol, beso'naqay) odam.

galop [ˈgæləp] *n* galop (*qadimgi sho'x raqs va uning kuyi*).

galore [gəˈlɔ:] **1.** *adv* juda ko'p, mo'l, serob; **2.** *n* mo'llik, mo'l-ko'llik, mo'lchilik, seroblik, serobgarchilik, to'kin-sochinlik.

galosh [gəˈlɔʃ] *n* 1) kalish; **to wear ~es** kalish kiymoq; 2) *amer.* rezina qayiq.

galumph [gəˈlʌmf] *v* xursandchilikdan sakramoq.

galvanic [gælˈvænɪk] *a* galvanik (*kimyoviy reaksiya natijasida olinadigan*).

galvanism [ˈgælvənɪzm] *n* 1) *fiz.* galvanizm; 2) *tib.* galvanizatsiya (*galvani toki bilan davolash*).

galvanization [ˌgælvənaɪˈzeɪʃn] *n tib.* galvanizatsiya (*tok bilan davolash*).

galvanize [ˈgælvənaɪz] *v* galvanizatsiya qilmoq.

galvanometer [ˌgælvəˈnɔmɪtə] *n* galvanometr (*kuchsiz toklarni o'lchaydigan asbob*).

gambade [gæmˈbeɪd] = **gambado**.

gambado [gæmˈbeɪdəu] *n* otning oldingi oyoqlarini bukib sakrashi.

gambit [ˈgæmbɪt] *n* gambit (*shaxmatda: tezroq hujumga o'tish uchun bir donani qurbon berib o'yin boshlash*).

gamble [ˈgæmbl] **1.** *n* qimor o'yini, qimor; **2.** *v* 1) qimor o'ynamoq; **I never ~** men hech qachon pulga o'ynamayman; 2) tavakkal qilmoq; **~ away** yutqazmoq.

gambler [ˈgæmblə] *n* 1) qartaboz, qimorboz; 2) firibgar, qallob, tovlamachi kishi.

gamboge [gæmˈbəudʒ] *n* bir xil tropik o'simliklarning sutsimon shirasi.

gambol [ˈgæmbl] *n* 1) irg'ish, sakrash; 2) o'yin-kulgi, xursandchilik.

game [geɪm] **1.** *n* 1) o'yin; **noisy ~** shovqinli o'yin; **football ~** futbol o'yini; 2) *pl* sport o'yinlari; **the Olimpic ~s** Olimpiada o'yinlari; 3) o'yinchoq; 4) tavakkal o'yin; **stock market ~** birja o'yini; 5) fokus (*ayyorlik*); 6) hazil, kulgi; **to speak in ~** hazil qilmoq; 7) o'yin-kulgi; 8) o'lja; **big ~** katta o'lja; (*yovvoyi hayvonlar go'shti*); **2.** *a* jasur, baquvvat; **3.** *v* tavakkal o'yinlar (qimor) o'ynamoq; **~ away** yutqazmoq.

game-bag [ˈgeɪmbæg] *n* ovchining sumkasi.

game-bird [ˈgeɪmbə:d] *n* ovlanadigan (*qanotli*) yovvoyi qushlar.

game-chicken [ˈgeɪmˌtʃɪkən] = **game-cock**.

game-cock [ˈgeɪmkɔk] *n* urushqoq xo'roz.

game-fish [ˈgeɪmfɪʃ] *n* ovlanadigan laqqa baliq.

gamekeeper [ˈgeɪmˌki:pə] *n* o'rmon qorovuli, o'rmon nazoratchisi.

game-laws [ˈgeɪmlɔ:z] *n pl* ov qoidalari.

game-preserve [ˌgeɪmprɪˈzə:v] *n* ovchilar qo'riqxonasi.

games-master [ˈgeɪmzˌmɑ:stə] *n* jismoniy tarbiya o'qituvchisi.

games-mistress [ˈgeɪmzˌmɪstrəs] *n* jismoniy tarbiyadan dars beradigan o'qituvchi ayol.

gamesome [ˈgeɪmsəm] *a* sho'x, xushchaqchaq, quvnoq, xursand, shod.

gamester [ˈgeɪmstə] *n* qimorboz, qimor o'ynovchi.

gamete [ˈgæmi:t] *n biol.* jinsiy hujayra.

gamin [ˈgæmɪn] *n* boqimsiz bola, qarovchisiz (ko'chada qolgan) bola.

gaming-house [ˈgeɪmɪŋhaus] *n* qimorxona, qimor o'ynaydigan joy.

gaming-table [ˈgeɪmɪŋˌteɪbl] *n* qimor stoli.

gamma [ˈgæmə] *n* gamma (*yunon alifbosining uchinchi harfi*).

gamma rays [ˈgæməreɪz] *n fiz.* gamma-nurlar.

gammer [ˈgæmə] *n* onajon, buviginam; onaxon (*katta yoshdagi xotinlarga murojaat shakli*).

gammon [ˈgæmən] **1.** *n* aldash, aldov; **2.** *v* aldamoq, yolg'on gapirmoq.

gammy [ˈgæmɪ] *a* cho'loq, oqsoq.

gamp [gæmp] *n* soyabon, zontik.

gamut [ˈgæmət] *n mus.* gamma (*bir pardadan ko'tarilib yoki tushib boruvchi tovushlar majmuyi*).

gamy [ˈgeɪmɪ] *a* 1) qushlarni ko'paytiradigan; 2) *so'zl.* mard, jasur, botir.

gander [ˈgændə] *n* 1) erkak g'oz; 2) *so'zl.* uylangan odam; 3) tentak, ahmoq.

gang [gæŋ] **1.** *n* 1) ishchilar guruhi; 2) o'g'rilar to'dasi; 3) guruh; **2.** *v* 1) *shotl.* yurmoq, ketmoq, bormoq, harakat qilmoq; 2) bosqinchilar to'dasini tuzmoq; 3) tashlanmoq (*guruh bo'lib*); **they ~ed (up) on me** ular menga tashlandilar.

ganger [ˈgæŋə] *n* 1) ishboshi, o'nboshi; 2) piyoda, yayov yuruvchi.

gangling [ˈgæŋglɪŋ] *a* 1) bo'yi uzun, novcha; 2) beso'naqay, qo'pol.

ganglion [ˈgæŋglɪən] *n anat.* asab tuguni.
gang-plank [ˈgæŋplæŋk] *n* 1) taxta zina (*kemadan tushish uchun*); kema narvoni; 2) samolyotga chiqib tushish uchun maxsus yasalgan ko'chma zina.
gangrene [ˈgæŋgri:n] *n tib.* biologik to'qima *yoki* a'zoning jonsizlanib tiriklayin chirishi; qorason kasalligi.
gangrenous [ˈgæŋgrɪnəs] *a* qorason kasalligiga duchor bo'lgan.
gang-saw [ˈgæŋsɔ:] *n* taxta tiladigan mashina (*arra*).
gangster [ˈgæŋstə] *n* bosqinchi, yo'lto'sar, qurollangan o'g'ri, bosmachi.
gangway [ˈgæŋweɪ] *n dengiz.* taxta zina (*kema, havoza va h .k. dan tushish uchun*).
ganoid [ˈgænɔɪd] *a* silliq va yaltiroq (*baliq terisidagi tangachalari to'g'risida*).
gantlet [ˈgæntlət] *n* qo'lqop.
gantry [ˈgæntrɪ] *n* porta, supacha (*kran, kema va b.da; kuzatish, boshqarish o'rni*).
gantry-crane [ˈgæntrɪˌkreɪn] *n* portalli kran.
gaol [dʒeɪl] **1.** *n* qamoqxona, turma; **2.** *v* qamamoq, qamoqqa olmoq.
gaol-bird [ˈdʒeɪlbə:d] *n* qamalgan, qamoqqa, hibsga olingan kishi, mahbus.
gaoler [ˈdʒeɪlə] *n* qamoqxona nazoratchisi.
gap [gæp] *n* 1) uzilish, farq, tafovut, oraliq; 2) kovak, tirqish, yoriq, teshik, yorilgan joy.
gape [geɪp] **1.** *n* esnoq, bir esnash; **2.** *v* esnamoq.
gaper [ˈgeɪpə] *n* anqov, sanqi, bekorchi.
gape-seed [ˈgeɪpsi:d] *n* maqsadsiz qarash, razm solish, tikilish.
gappy [ˈgæpɪ] *a* to'liq emas, to'lmagan, yarim.
garage [ˈgærɑ:ʒ] **1.** *n* garaj; **2.** *v* garajga qo'ymoq.
garb [gɑ:b] **1.** *n* 1) kiyim, sarpo, libos; **in the ~ of a sailor** matros kiyimida; **2.** *v* kiyinmoq.
garbage [ˈgɑ:bɪdʒ] **1.** *n* 1) axlat, chiqit, tashlandiq; 2) makulatura (*chiqindi qog'oz*); **2.** *v og'z.* chiqindi bilan oziqlanmoq.
garbage-collector [ˈgɑ:bɪdʒkəˌlektə] *n* farrosh, supurib-sidiradigan ishchi.
garble [ˈgɑ:bl] *v* buzib ko'rsatmoq, noto'g'ri talqin qilmoq (*dalil isbotlarni*).
garbled [ˈgɑ:bld] *a* tushunarsiz (*xabar, hikoya va b.larga nisbatan qo'llanadi*).
garçon [ˈgɑ:sɔŋ] *n fr.* garson, ofitsiant (*fransuz restoranida*).
garden [ˈgɑ:dn] *n* bog'; **botanical ~** botanika bog'i.
garden-bed [ˈgɑ:dnbed] *n* pushta, jo'yak, ariq.
garden city [ˌgɑ:dnˈsɪtɪ] *n* shaharbog'.
gardener [ˈgɑ:dnə] *n* bog'bon.
garden-frame [ˈgɑ:dnfreɪm] *n* parnik romi.
garden hose [ˈgɑ:dnhəuz] *n* bog' shlangi.
garden-house [ˈgɑ:dnhaus] *n* 1) shiyponcha; 2) bog'dagi kichkina uy.
gardening [ˈgɑ:dnɪŋ] *n* bog'dorchilik.
garden-party [ˈgɑ:dnˌpɑ:tɪ] *n* mehmonlarni bog'da kutish.
garden-plot [ˈgɑ:dnplɔt] *n* bog'dagi yer maydoni.
garden pruner [ˈgɑ:dnˌpru:nə] *n* tokqaychi; gulqaychi.
garden seat [ˈgɑ:dnsi:t] *n* bog'dagi joy (*skameyka, eshak*).
garden-stuff [ˈgɑ:dnstʌf] *n* 1) sabzavotlar; 2) mevalar, ho'l meva; 3) gullar; 4) ko'kat, rezavor.
garden-tillage [ˈgɑ:dnˌtɪlɪdʒ] *n* bog'dorchilik, bog'shunoslik.
garden truck [ˌgɑ:dnˈtrʌk] *n amer.* meva va sabzavotlar.
garfish [ˈgɑ:fɪʃ] *n* 1) dengiz cho'rtan balig'i; 2) zirhli baliq (*ustki qobig'i qattiq baliq*).
gargantuan [gɑ: ˈgæntjuən] *a* juda katta, kattakon, ulkan, azim.
garget [ˈgɑ:gɪt] *n* halqumning yallig'lanishi (*cho'chqalarda*).
gargle [ˈgɑ:gl] **1.** *n* (*tomoqni*) chayqash; **2.** *v* chayqamoq (*tomoqni*).
garibaldi [ˌgærɪ ˈbɔ:ldɪ] *n* ayollarning *yoki* bolalarning keng xonaki ko'ylagi (*bluza*).
garish [ˈgeərɪʃ] *a* ko'zni oladigan, ko'zni qamashtiradigan.
garland [ˈgɑ:lənd] **1.** *n* gul (*barg, novda va shu kabi*) o'rimi, tizmasi; marjon; **2.** *v* gulchambar bilan bezamoq.
garlic [ˈgɑ:lɪk] *n* sarimsoq, sarimsoqpiyoz.
garlicky [ˈgɑ:lɪkɪ] *a* sarimsoqqa oid, sarimsoqpiyozga oid.
garment [ˈgɑ:mənt] **1.** *n pl* kiyim, kiyim-bosh, libos; sarpo: **2.** *v* kiyinmoq.
garner [ˈgɑ:nə] **1.** *n* omborxona, g'alla ombori, g'allaxona; **2.** *v* omborga donni to'kmoq.
garnet [ˈgɑ:nɪt] 1) yoqut; 2) to'q-qizil rang.
garnish [ˈgɑ:nɪʃ] *n* 1) garnir; 2) bezak, zeb-ziynat, pardoz.
garniture [ˈgɑ:nɪtʃə] *n* bezash, bezatish.
garret [ˈgærət] *n* 1) cherdak (*ustki tom bilan pastki tom yoki shipning oralig'i*); 2) qiya shipli boloxona.
garreteer [ˌgærə ˈtɪə] *n* qiya shipli boloxonada yashovchi odam.
garrison [ˈgærɪsən] *n harb.* garnizon; **~ commander** garnizon boshlig'i.
garrotte [gəˈrɔt] **1.** *isp. n* bosqinchilik (o'g'rilik) qilish maqsadida bo'g'ish; **2.** *v* bosqinchilik (o'g'rilik) qilish maqsadida bo'g'ib o'ldirmoq.
garrulity [gæˈru:lətɪ] *n* sergaplik, ezmalik, vaysaqilik.
garrulous [ˈgærələs] *a* sergap, ezma, vaysaqi, ko'p gapiradigan.
garter [ˈgɑ:tə] *n* bog', bog'ich (*paypoqni tutib turadigan rezina bog'ich*).
garth [gɑ:θ] *n* 1) hovli, qo'ra; 2) bog'; 3) *q.x.* baliq ovlash uchun to'silgan (bo'g'ilgan) suv.

gas [gæs] **1.** *n* 1) gaz; **natural ~** tabiiy gaz; **to turn the ~ on** gazni yoqmoq; **to turn the ~ off** gazni o'chirmoq; 2) *amer. og'z.* benzin (*yoqilg'i*); 3) *og'z.* safsata; **that's all ~** bu hammasi safsata; **~ chamber** gaz kamerasi; **~ signal** *harb.* kimyoviy trevoga; **~ warfare** *harb.* kimyoviy urush; **2.** *v* 1) *harb.* kimyoviy moddalar bilan zaharlamoq; 2) gaz bilan to'ldirmoq; 3) *amer. og'z.* yonilg'i bilan avtomobilni ta'minlamoq; 4) vaysamoq, bemaza gaplar gapirmoq; **stop ~ sing!** vaysashni bas qil!

gas-alarm [ˌgæsə'lɑ:m] *n* kimyoviy trevoga (*xavfni bildiruvchi signal*).

gas-alert [ˌgæsə'lə:t] *n* kimyoviy shaylik (tayyorlik).

gasateria [ˌgæsə'tɪərɪə] *n amer.* o'z-o'ziga xizmat qilish usulida ishlaydigan mashinalarga yog' (*benzin*) quyish tarmog'i (*kolonkasi*).

gas attack ['gæsəˌtæk] *n* kimyoviy hujum (*hamla, tajovuz*).

gas-bag ['gæsbæg] *n* 1) gaz balloni; 2) *so'zl.* sergap, ezma kishi.

gas-bomb ['gæsbɔm] *n* kimyoviy bomba.

gasbracket ['gæsˌbrækɪt] *n* gaz rojogi (*rojog – ichi shox shaklida kengayib boruvchi naychasimon asbob*).

gas-burner ['gæsˌbə:nə] = **gas-jet**.

idiocy ['ɪdɪəsɪ] *n* 1) *tib.* esi pastlik, ovsarlik; 2) *so'zl.* ahmoqlik, tentaklik, ahmoqona ish.
idiom ['ɪdɪəm] *n* 1) idioma (*ma'nosi o'z tarkibidagi so'zlarning ma'nolariga bog'liq bo'lmagan yaxlit holda bir ma'no beruvchi ixcham ibora*); 2) idiomatik ibora.
idiomatic [ˌɪdɪə'mætɪk] *a* idiomaga oid, idiomaga boy bo'lgan.

idiosyncrasy [ˌɪdɪəu 'sɪŋkrəsɪ] *n tib.* idiosinkraziya (*organizmning ba'zi narsalar ta'sirini ko'tara olmasligi*).
idiot ['ɪdɪət] *n* esipast (ovsar, tentak, telba) odam.
idiotic [ˌɪdɪ 'ɔtɪk] *a* 1) esi past odamlarga oid; 2) *so'zl.* ahmoqona, bema'ni.
idle ['aɪdl] **1.** *a* 1) band bo'lmagan, ishlamaydigan, bo'sh; 2) yalqov, erinchoq; **2.** *v* 1) ishsiz yurmoq, vaqtni bekor o'tkazmoq; 2) dangasalik qilmoq.
idle-headed [ˌaɪdl 'hedɪd] *a* miyasi yo'q, esi past, ahmoq.
idleness ['aɪdlɪnəs] *n* bekorchilik, bekor (bo'sh) yurish; ishsizlik.
idler ['aɪdlə] *n* bekorchi, erinchoq, yalqov, tanbal, ishyoqmas.
idling ['aɪdlɪŋ] **1.** *pres. p.* **idle 2.** *dan*; **2.** *n* bekorchilik, bo'sh yurish.
idol ['aɪdl] *n* but, sanam.
idolater [aɪ 'dɔlətə] *n* butparast.
idolatry [aɪ 'dɔlətrɪ] *n* butparastlik.
idolize ['aɪdlaɪz] *v* 1) haddan tashqari sevmoq; 2) sajda qilmoq; 3) xudo deb bilmoq.
idyll ['ɪdɪl] *n* 1) *adab.* tabiat quchog'idagi tinch va osoyishta hayotni tasvirlovchi kichik she'riy asar; 2) *ko'ch.* tinch va osoyishta hayot, rohat va farog'at.
idyllic [ɪ 'dɪlɪk] *a* 1) rohat-farog'atdagi; 2) tinch, osoyishta; ~ **life** osoyishta hayot.
if [ɪf] *cj* 1) agar, agarda; 2) koshki; **as** ~ go'yo, go'yoki.
iffy ['ɪfɪ] *a amer.* noaniq, noma'lum.
igloo ['ɪglu:] *n* (*pl* **igloos**) iglu (*Shimoliy Amerika eskimoslarining muz plitalaridan qilingan uylari*).
igneous ['ɪgnɪəs] *a* 1) o'tga (*alangaga*) oid; alangali; 2) *geol.* otilib chiqqan.
ignite [ɪg'naɪt] *v* yoqmoq, yondirmoq, o't oldirmoq.
ignition [ɪg'nɪʃn] *n* yoqish, yondirish, o't oldirish.
ignoble [ɪg 'nəubl] *a* razil, qabih, yaramas, pastkash; ~ **person** razil odam.
ignominious [ˌɪgnə 'mɪnɪəs] *a* 1) uyatga qoldiradigan, isnod keltiradigan; 2) vijdonsiz, insofsiz, diyonatsiz.
ignominy ['ɪgnəmɪnɪ] *n* 1) badnom bo'lish; 2) vijdonsizlik, tubanlik.
ignoramus [ˌɪgnə'reɪməs] *lot. n* o'qimagan odam, nodon.
ignorance ['ɪgnərəns] *n* nodonlik, johillik, bilimsizlik.
ignorant ['ɪgnərənt] *a* johil, bilimsiz, nodon, o'qimagan.
ignore [ɪg'nɔ:] *v* e'tiborsiz qoldirmoq, mensimaslik.
ikon ['aɪkɔn] = **icon.**
ilex ['aɪleks] *n bot.* padub (*nayza bargli daraxtning bir turi*).
ilia ['ɪlɪə] *n pl anat.* qovurg'a bilan qorin orasidagi suyaklar.
iliac ['ɪlɪæk] *a anat.* qovurg'a bilan qorin orasidagi.
ilk [ɪlk] *n* nav, tur, xil.
I'll [aɪl] = **I will, I shall.**
ill [ɪl] **1.** *a* kasal, betob; **to be** ~ kasal bo'lmoq; **2.** *n* balo, ofat, zarar, ziyon; **3.** *adv* yomonlik bilan.
ill-advised [ˌɪləd 'vaɪzd] *a* yengiltak, o'ylamasdan ish qiladigan.
illation [ɪ 'leɪʃn] *n mant.* xulosa, natija.
illative [ɪ 'leɪtɪv] *a* yakunlovchi, so'nggi.
ill-bred [ˌɪl 'bred] *a* 1) dag'al, qo'pol, qo'rs; 2) yomon tarbiya olgan, tarbiyasi yomon, tarbiya ko'rmagan, beadab, tarbiyasiz.
ill-considered [ˌɪlkən 'sɪdəd] *a* yaxshi o'ylab ko'rilmagan, o'ylamasdan qilingan, bemulohaza.
illegal [ɪ'li:gl] *a* qonunga xilof, yashirin, maxfiy.
illegality [ˌɪli:'gælɪtɪ] *n* g'ayriqonuniylik, qonunga xiloflik.
illegibility [ɪˌledʒɪ'bɪlətɪ] *n* noaniqlik, o'qib bo'lmaydiganlik, tushunib bo'lmaydiganlik.

illegible [ɪ ˈledʒəbl] *a* o'qilishi qiyin (*yozuv haqida*).
illegitimate [ˌɪləˈdʒɪtəmət] *a* noqonuniy, g'ayriqonuniy, qonunga xilof.
ill-fated [ˌɪlˈfeɪtɪd] *a* baxtsiz, bebaxt, baxti qora, peshanasi sho'r.
ill-favoured [ˌɪlˈfeɪvəd] *a* xunuk, yoqimsiz, noxush, ko'ngilsiz, yomon.
ill-founded [ˌɪlˈfaundɪd] *a* asossiz, dalilsiz, asoslanmagan, noo'rin.
illiberal [ɪˈlɪbərəl] *a* o'qimagan, jaholatda qolgan, nodon.
illicit [ɪˈlɪsɪt] *a* 1) man etilgan; 2) qonunga xilof, g'ayriqonuniy.
illimitable [ɪˈlɪmɪtəbl] *a* cheklanmagan, cheksiz.
illiteracy [ɪˈlɪtərəsɪ] *n* savodsizlik.
illiterate [ɪˈlɪtərət] **1.** *n* o'qimagan (bilimsiz, ilmsiz, nodon) kishi; **2.** *a* savodsiz, o'qimagan.
ill-judged [ˌɪlˈdʒʌdʒd] *a* aqli yo'q, beaql, aqlsiz, kaltafahm.
ill-luck [ˌɪlˈlʌk] *n* sira omadi yurishmaslik, ishi yurishmaslik, omadsizlik, muvaffaqiyatsizlik.
ill-mannered [ˌɪlˈmænəd] *a* tarbiya ko'rmagan, tarbiyasiz, beadab.
illness [ˈɪlnəs] *n* kasallik, xastalik; illat, dard, betoblik, nosog'lik, og'riq.
illogical [ɪ ˈlɔdʒɪkəl] *a* mantiqsiz, bemantiq.
illogicality [ɪˌlɔdʒɪ ˈkælətɪ] *n* (*pl* **illogicalities**) mantiqsizlik, bemantiqlik.
ill-omened [ˌɪlˈəumend] *a* dahshatli, vahimali, mudhish.
ill-suited [ˌɪlˈsju:tɪd] *a* yaroqsiz, yaramaydigan, nomunosib, nobop, noqulay.
ill-tempered [ˌɪl ˈtempəd] *a* fe'li buzuq; serjahl.
ill-timed [ˌɪlˈtaɪmd] *a* yaroqsiz, layoqatsiz, nobop, ishga yaramaydigan.
ill-treat [ɪlˈtri:t] *v* yomon muomala qilmoq, qo'pol muomala qilmoq.
illume [ɪ ˈlu:m] = **illumine.**
illuminant [ɪ ˈlu:mɪnənt] *n* yorug'lik manbayi.
illuminate [ɪˈlu:mɪneɪt] *v* nur sochmoq, yoritmoq, munavvar qilmoq.
illumination [ɪˌlu:mɪˈneɪʃn] *n* yoritish, nur sochish.
illumine [ɪˈlju:mɪn] *v* nur sochmoq, yoritmoq, munavvar qilmoq.
illusion [ɪ ˈlu:ʒn] *n* 1) illuziya (*aldanish, soxta tushuncha*); 2) xayol, xayolot, xom xayol.
illusive [ɪˈlu:sɪv] *a* yolg'ondan iborat bo'lgan, yolg'on, puch, amalga oshirib bo'lmaydigan.
illusory [ɪˈlu:sərɪ] = **illusive.**
illustrate [ˈɪləstreɪt] *v* rasmlar bilan bezamoq.
illustration [ˌɪləsˈtreɪʃn] *n* rasmlar bilan bezash.
illustrative [ˈɪləstreɪtɪv] *a* tasviriy, ko'rgazmali.
illustrator [ˈɪləstreɪtə] *n* musavvir, kitob, jurnal va sh.k.ni bezovchi rassom.
illustrious [ɪˈlʌstrɪəs] *a* mashhur, atoqli, buyuk, taniqli.
ill-wisher [ˌɪlˈwɪʃə] *n* birovga yaxshilikni ravo ko'rmaydigan (yomonlik tilaydigan) odam, ichi qora odam.
I'm [aɪm] = **I am.**
image [ˈɪmɪdʒ] **1.** *n* ko'rinish, qiyofa, siymo, haykal, soya, obraz, namuna, tasvir, surat, rasm, shakl; **2.** *v* 1) tasvirlamoq, aks ettirmoq, ifoda etmoq; **a poet ~ s his hero** shoir o'z qahramonini aks ettirgan; 2) ta'riflamoq.
imagery [ˈɪmɪdʒərɪ] *n* ifodalilik, ta'sirchanlik, jonlilik.
imaginable [ɪ ˈmædʒɪnəbl] *a* xayolga keladigan, faraz qilinadigan.
imaginary [ɪˈmædʒɪnrɪ] *a* tasavvurdagi, faraz qilingan, tasavvur qilinadigan.
imagination [ɪˌmædʒɪ ˈneɪʃn] *n* 1) o'ylash, xayol qilish; 2) xayol, faraz, tasavvur.
imaginative [ɪˈmædʒɪnətɪv] *a* xayoliy, tasavvuriy.
imagine [ɪˈmædʒɪn] *v* 1) tasavvur qilmoq; ko'z oldiga (xayoliga) keltirmoq; 2) faraz qilmoq.
imbalance [ɪm ˈbæləns] *n* nomutanosiblik, mos emaslik.
imbecile [ˈɪmbəsi:l] *n* aqli kam, aqli past kishi.
imbecility [ˌɪmbə ˈsɪlətɪ] *n* aqli kamlik, aqli pastlik, aqli zaiflik.
imbed [ɪmˈbed] *v* ichiga o'rnatmoq, solmoq, ichiga o'yib (joylab) ishlamoq.
imbibe [ɪmˈbaɪb] *v* to'ydirmoq, to'yg'izmoq, qondirmoq.
imbroglio [ɪmˈbrəulɪəu] *n* (*pl* **-os** [-əuz]) chigallik, chalkashlik; tushunmovchilik.
imbrue [ɪmˈbru:] *v* qonga bo'yamoq, qonga belamoq, qon to'kmoq.
imbue [ɪmˈbju:] *v* 1) to'ydirmoq, to'yg'izmoq; 2) bo'yamoq (*matoni*).
imitate [ˈɪmɪteɪt] *v* 1) taqlid qilmoq; 2) o'xshatmoq; 3) qalbakilashtirmoq; **to ~ money** pulni qalbakilashtirmoq.
imitation [ˌɪmɪ ˈteɪʃn] *n* taqlid qilish; o'xshatish.
imitative [ˈɪmɪtətɪv] *a* taqlidga oid, taqlidiy, o'xshatiladigan; **~ art** tasviriy san'at.
imitator [ˈɪmɪteɪtə] *n* taqlidchi, taqlid qiluvchi.
immaculacy [ɪˈmækjuləsɪ] *n* ozodalik, pokizalik, tozalik, poklik.
immaculate [ɪˈmækjulət] *a* beg'ubor; dog' tushmagan; toza, ozoda, pokiza.
immanent [ˈɪmənənt] *a* o'ziga xos, odatdagi, doimiy.
immaterial [ˌɪməˈtɪərɪəl] *a* ahamiyatsiz, ahamiyati yo'q.
immature [ˌɪməˈtjuə] *a* yetilib pishmagan; xom; **~ fruit** pishmagan meva.
immeasurable [ɪ ˈmeʒərəbl] *a* beqiyos, behad, juda katta.
immediacy [ɪ ˈmi:dɪəsɪ] *n* 1) kechiktirilmaslik; 2) yaqinlik, bevositalik.
immediate [ɪˈmi:dɪət] *a* 1) tez, shoshilinch; **~ness** zudlik; 2) to'g'ridan-to'g'ri, bevosita.

immediately [ɪ´mi:dɪətlɪ] *adv* 1) darrov, shartta; 2) to'g'ridan-to'g'ri, bevosita.
immedicable [ɪ´medɪkəbl] *a* tuzatib bo'lmaydigan, davosi yo'q, bedavo.
immemorial [ˌɪmə´mɔ:rɪəl] *a* juda ilgari, qadim; **~ customs** qadimgi urf-odatlar.
immense [ɪ´mens] *a* 1) g'oyat katta, ulkan; **~ armies** ulkan armiya; 2) cheksiz, bepoyon.
immensely [ɪ´menslɪ] *adv* o'ta, juda ham, haddan tashqari, behad.
immensity [ɪ´mensətɪ] *n* beo'lchovlik, cheksizlik, bepoyonlik.
immerse [ɪ´mə:s] *v* botirmoq, sho'ng'itmoq, cho'ktirmoq, g'arq qilmoq.
immersion [ɪ´mə:ʃn] *n* botish, cho'kish, cho'ktirish, suv ostiga tushirish.
immigrant [´ɪmɪgrənt] *n* muhojir, ko'chib kelgan kishi.
immigrate [´ɪmɪgreɪt] *v* boshqa joyga ko'chirmoq.
immigration [ˌɪmɪ´greɪʃn] *n* ko'chish, ko'chib o'tish.
imminence [´ɪmɪnəns] *n* muqarrarlik, qochib (qutulib, oldini olib) bo'lmaydiganlik.
imminent [´ɪmɪnənt] *a* yaqin, yaqinlashib kelayotgan, xavf solib turgan.
immitigable [ɪ´mɪtəgəbl] *a* bir so'zli, qattiq, gapga unamaydigan.
immixture [ɪ´mɪkstʃə] *n* 1) aralashish, birga qatnashish; 2) daxldorlik, aloqadorlik.
immobile [ɪ´məubaɪl] *a* qimirlamaydigan, ko'chmaydigan, ko'chmas.
immobility [ˌɪməu´bɪlətɪ] *n* qimirlamaslik, qilt etmaslik, qotib qolishlik.
immoderate [ɪ´mɔdərət] *a* cheksiz, o'lchovsiz.
immodest [ɪ´mɔdɪst] *a* benomus, uyatsiz, hayosiz, beadab.
immodesty [ɪ´mɔdəstɪ] *n* bezbetlik, surbetlik, beadablik, hayosizlik.
immolate [´ɪməuleɪt] *v* qurbonlik qilmoq.
immolation [ˌɪməu´leɪʃn] *n* qurbonlik, qurbonlik qilish.
immoral [ɪ´mɔrəl] *a* axloqsiz, beadab.
immorality [ˌɪmɔ´rælətɪ] *n* axloqsizlik, intizomsizlik.
immortal [ɪ´mɔ:tl] *a* o'lmas, boqiy, o'lmaydigan, abadiy yashaydigan.
immortality [ˌɪmɔ:´tælətɪ] *n* mangulik; o'lmaslik, boqiylik, abadiylik.
immortalization [ɪˌmɔ:təlaɪ´zeɪʃn] *n* abadiy xotira qilib qoldirish, abadiylashtirish, abadiy nom qoldirish.
immortalize [ɪ´mɔ:təlaɪz] *v* abadiylashtirmoq, umrbod esdalik qilib qoldirmoq.
immortelle [ˌɪmɔ:´tel] *n bot.* o'lmas o't (*qurigan-da ham guli o'zgarmaydigan o't*).
immovable [ɪ´mu:vəbl] *a* 1) ko'chmas; 2) puxta, mahkam.
immune [ɪ´mju:n] *a* 1) kasal yuqmaydigan; 2) ozod (*nimadandir*).
immunity [ɪ´mju:nətɪ] *n* 1) *tib.* immunitet (*organizmning kasal yuqtirmasligi va kasalliklarga qarshi kurashish qobiliyati*); 2) daxlsizlik; 3) ozod qilish (*soliq to'lash va b.*).
immunization [ɪˌmjunaɪ´zeɪʃn] *n tib.* immunizatsiya (*organizmni kasal yuqmaydigan qilish*).
immunize [´ɪmjunaɪz] *v* 1) daxlsizlik huquqini bermoq; 2) kasal yuqmaydigan qilmoq.
immure [ɪ´mjuə] *v* qamamoq, qamab qo'ymoq, zindonga tashlamoq.
immurement [ɪ´mjuəmənt] *n* qamash, qamab qo'yish, zindonga tashlash.
immutability [ɪˌmju:tə´bɪlətɪ] *n* o'zgarmaydiganlik, o'zgarmaslik, doimiylik.
immutable [ɪˌmju:təbl] *a* o'zgarmaydigan, o'zgarmas, doimiy.
imp [ɪmp] *n* tirrancha, sho'x bola, shumtaka, shayton (*bola haqida*).
impact 1. *n* [´ɪmpækt] ta'sir, zarba, impuls (*ichki turtki*); **2.** *v* [ɪm´pækt] qismoq, qattiq mahkamlamoq.
impair [ɪm´peə] *v* 1) zaiflashtirmoq, kuch-quvvatdan qoldirmoq, kamaytirmoq; 2) pasaytirmoq (*sifatni*).
impale [ɪm´peɪl] *v* sanchmoq, tiqmoq.
impalpability [ɪmˌpælpə´bɪlətɪ] *n* sezmaydiganlik, sezilmaslik, his qilib bo'lmaydiganlik.
impalpable [ɪm´pælpəbl] *a* 1) sezilmaydigan, sezib bo'lmaydigan; eng kichik; 2) farq qilib bo'lmaydigan.
imparity [ɪm´pærɪtɪ] *n* tengsizlik, baravar emaslik.
impart [ɪm´pɑ:t] *v* 1) aytmoq, yetkazmoq; 2) bag'ishlamoq; 3) bermoq.
impartial [ɪm´pɑ:ʃl] *a* xolis; adolatli.
impartiality [ˌɪmpɑ:ʃɪ´ælətɪ *n* betaraflik, beg'arazlik, adolatlilik.
impartible [ɪm´pɑ:tɪbl] *a* bo'linmas, bo'linmaydigan.
impassable [ɪm´pɑ:səbl] *a* o'tib bo'lmaydigan, otish qiyin bo'lgan.
impasse [æm´pɑ:s] *n fr.* 1) qiyin ahvol; 2) boshi berk ko'cha.
impassible [ɪm´pæsɪbl] *a* ehtirossiz, hayajonsiz, beparvo.
impassioned [ɪm´pæʃnd] *a* qizg'in, jo'shqin, g'ayratli, yuragida o'ti bor.
impassive [ɪm´pæsɪv] *a* (*kishiga nisbatan*) vazmin, og'ir, hovliqmaydigan.
impaste [ɪm´peɪst] *v* qormoq, pishirmoq.
impatience [ɪm´peɪʃns] *n* sabrsizlik, besabrlik, toqatsizlik; **to wait with ~ for smb.** sabrsizlik bilan kimnidir kutmoq.
impatient [ɪm´peɪʃnt] *a* sabrsiz, besabr, betoqat.
impeach [ɪm´pi:tʃ] *v* ayb qo'ymoq, ayblamoq.
impeachment [ɪm´pi:tʃmənt] *n* 1) davlat oliy martabali shaxslarini javobgarlikka tortish; 2) ayblash.

impeccable [ɪm´pekəbl] *a* xato qilmaydigan, adashmaydigan.
impecunious [ˌɪmpɪ´kju:nɪəs] *a* 1) kambag'al, qashshoq; 2) pulsiz, naqd pul to'lanmay qilinadigan.
impede [ɪm´pi:d] *v* 1) to'sqinlik qilmoq, xalal bermoq; 2) og'irlashtirmoq (*yo'l harakatini, muzokara va b.*).
impediment [ɪmˌpedɪmənt] *n* to'siq, g'ov.
impel [ɪm´pel] *v* 1) harakatga keltirmoq; 2) biror ish qilishga undamoq.
impend [ɪm´pend] *v* xavf solib turmoq, tahdid qilmoq.
impendence [ɪm´pendns] *n* 1) yaqinlik; 2) qo'rqitish, do'q, po'pisa.
impending [ɪm´pendɪŋ] **1.** *pres. p.* **impend** *dan*; **2.** *a* 1) yaqinda bo'ladigan; 2) qo'rqitadigan, xavf soladigan.
impenetrability [ɪmˌpenɪtrə´bɪlətɪ] *n* 1) imkoni (iloji) yo'qlik, mumkin emaslik; 2) o'tib bo'lmaslik, o'tish qiyinlik.
impenetrable [ɪm´penɪtrəbl] *a* o'tib bo'lmaydigan, o'tish qiyin, o'tmaydigan.
imperative [ɪm´perətɪv] *a* buyruq tarzidagi; **~ mood** *gram.* buyruq mayli.
imperceptible [ˌɪmpə´septəbl] *a* sezilmaydigan, bilinmaydigan.
imperfect [ɪm´pə:fɪkt] **1.** *a* mukammal emas, tugallanmagan; **2.** *n gram.* tugallanmagan o'tgan zamon; **~ive** tugallanmagan.
imperfection [ˌɪmpə´fekʃn] *n* mukammal (barkamol, yetuk) emaslik, takomillashmaganlik, chala.
imperial [ɪm´pɪərɪəl] *a* 1) imperiyaga oid; 2) oliy.
imperialism [ɪm´pɪərɪəlɪzm] *n* imperializm.
imperialist [ɪm´pɪərɪəlɪst] *n* imperialist.
imperialistic [ɪmˌpɪərɪə´lɪstɪk] *a* imperializmga oid (*xos*).
imperil [ɪm´perəl] *v* xavf ostida bo'lmoq, xavf-xatarda qolmoq.
imperious [ɪm´pɪərɪəs] *a* buyruq (farmon, amr) tarzida, amirona.
imperishable [ɪm´perɪʃəbl] *a* buzilmas, buzilmaydigan, mustahkam; abadiy.
impermanent [ɪm´pə:mənənt] *a* o'zgaruvchan, o'zgarib turadigan.
impermeable [ɪm´pə:mɪəbl] *a* o'tkazmaydigan, o'tmaydigan.
impermissible [ˌɪmpə´mɪsəbl] *a* yo'l qo'yib bo'lmaydigan, nojo'ya.
impersonal [ɪm´pə:snl] *a gram.* shaxssiz, shaxsi topilmas, shaxsi noma"lum.
impersonate [ɪm´pə:səneɪt] *v* 1) biror narsaning timsoli bo'lmoq; 2) rol ijro etmoq.
impersonation [ɪmˌpə:sə´neɪʃn] *n* 1) jonlantirib tasvirlash; 2) rol ijro etish.
impersonator [ɪm´pə:səneɪtə] *n* birovning nomi *yoki* unvonini o'zicha o'zlashtirib olmoq.
impertinence [ɪm´pə:tɪnəns] *n* dag'allik, qo'pollik, qo'rslik.
impertinent [ɪm´pə:tɪnənt] *a* badfe'l, surbet, dag'al, qo'pol, qo'rs.
imperturbability [ˌɪmpətə:bə´bɪlətɪ] *n* og'irlik, vazminlik, yuragi kenglik; tinchlik, jimjitlik, sokinlik, osoyishtalik.
imperturbable [ˌɪmpə´tə:bəbl] *a* og'ir, vazmin, yuragi keng; tinch, jimjit, sokin, osoyishta.
impervious [ɪm´pə:vɪəs] *a* o'tkazmaydigan, o'tmaydigan.
impetuosity [ɪmˌpetju´ɔsətɪ] *n* 1) tezlik, shiddatlilik; 2) shiddat, shitob; 3) sezgirlik, ta'sirchanlik.
impetuous [ɪm´petɪuəs] *a* 1) shiddatli, juda tez, ildam; 2) g'ayratli, yuragida o'ti bor.
impetus [´ɪmpɪtəs] *n* 1) tezlik, shiddat, turtki; 2) harakatlantiruvchi kuch.
impiety [ɪm´paɪətɪ] *n* 1) xudoga ishonmaslik; 2) hurmatsizlik, behurmatlik.
impinge [ɪm´pɪndʒ] *v* urilmoq, urib olmoq, qoqinmoq, qoqinib ketmoq.
impingement [ɪm´pɪndʒmənt] *n* zarba, urinish, turtish.
impious [´ɪmpɪəs] *a* gunohli, murtad, betavfiq.
impish [´ɪmpɪʃ] *a* jahli yomon, battol, badjahl, jaholatli, qahri tez.
implacability [ɪmˌplækə´bɪlətɪ] *n* bir so'zlilik, qattiqlik.
implacable [ɪm´plækəbl] *a* 1) bir so'zli, qattiq, qat'iy; 2) shafqatsiz, berahm; gapga unamaydigan.
implant [ɪm´plɑ:nt] *v* joriy qilmoq, tarqatmoq, o'rnatmoq, yoymoq.
implantation [ˌɪmplɑ:n´teɪʃn] *n* o'tqazish, ekish.
implausible [ɪm´plɔ:zɪbl] *a* ishonarsiz, ishonib bo'lmaydigan, asossiz.
implement 1. *v* [´ɪmplɪment] bajarmoq, ta'minlamoq; **2.** *n* [´ɪmplɪmənt] qurol, asbob; **agricultural ~s** qishloq xo'jalik qurollari.
implementation [ˌɪmplɪmen´teɪʃn] *n* amalga oshirish, joriy etish.
implex [´ɪmpleks] *a* 1) murakkab, og'ir; 2) chigal, chalkashgan.
implicate [´ɪmplɪkeɪt] *v* aralashmoq, qo'shilib qolmoq.
implication [ˌɪmplɪ´keɪʃn] *n* aralashish, qo'shilib qolish.
implicit [ɪm´plɪsɪt] *a* 1) ko'zda tutilgan; 2) so'zsiz, shubhasiz.
implore [ɪm´plɔ:] *v* yalinmoq, yolvormoq; **I ~ you...** Men sizdan o'tinib so'rayman...
imploringly [ɪm´plɔ:rɪŋlɪ] *adv* yalinib, yolvorib, o'tinib.
imply [ɪm´plaɪ] *v* nazarda tutmoq, ko'zda tutmoq; ishora qilmoq.
impolicy [ɪm´pɔləsɪ] *n* beandisha muomala, qo'pol harakat.
impolite [ˌɪmpə´laɪt] *a* adabsiz, qo'pol, to'ng, dag'al, qo'rs.

imponderable [ɪmˊpɔndərəbl] *a* juda yengil.
import 1. *v* [ɪmˊpɔ:t] chet ellardan mol keltirmoq; **2.** *n* [ˊɪmpɔ:t] chet ellardan mol keltirish, chet ellardan keltirilgan mol.
importance [ɪmˊpɔ:təns] *n* muhimlik, ahamiyatlilik.
important [ɪmˊpɔ:tnt] *a* muhim, zarur, ahamiyatli.
importation [ˌɪmpɔ:ˊteɪʃn] *n* 1) chet eldan keltirilgan molar; 2) chet eldan mol keltirish.
importer [ɪmˊpɔ:tə] *n* chetdan mol oluvchi.
importless [ˊɪmpɔ:tlɪs] *a* uncha ahamiyati bo'lmagan, ahamiyatsiz.
importunate [ɪmˊpɔ:tjunət] *a* sabotli, quntli, tirishqoq, qattiq turib kurashuvchi.
importune [ˌɪmpəˊtju:n] *v* joniga tegmoq, zeriktirmoq; bezor qilmoq.
importunity [ˌɪmpəˊtju:nətɪ] *n* xiralik, shilqimlik.
impose [ɪmˊpəuz] *v* 1) zo'rlab, majburan qabul qildirmoq; 2) yuklamoq; 3) aldab sotmoq.
imposing [ɪmˊpəuzɪŋ] **1.** *pres. p.* **impose** *dan*; **2.** *a* haybatli, basavlat, zo'r taassurot tug'diradigan.
imposition [ˌɪmpəˊzɪʃn] *n* 1) ustiga qo'yish, yuklash; 2) yolg'on.
impossibility [ɪmˌpɔsəˊbɪlətɪ] *n* imkoni (iloji) yo'qlik, mumkin emaslik.
impossible [ɪmˊpɔsəbl] *a* amalga oshmaydigan, bo'lishi mumkin bo'lmagan.
impost [ˊɪmpəust] *n* soliq, o'lpon, to'lov.
impostor [ɪmˊpɔstə] *n* yolg'onchi, firibgar, qallob, aldoqchi.
imposture [ɪmˊpɔstʃə] *n* aldash, firib berish, yolg'on gapirish.
impotence [ˊɪmpətəns] *n* kuchsizlik, darmonsizlik; zaiflik.
impotent [ˊɪmpətənt] *a* kuch-quvvatdan qolgan, kuchsiz, darmonsiz, *tib.* zaif.
impound [ɪmˊpaund] *v* 1) yo'qolgan uy hayvonlari *yoki* taqiqlangan joylarga to'xtatib qo'yilgan avtomobillarni toki o'z egalari talab qilib olmaguncha biror joyda yig'moq va ushlab turmoq; 2) *yur.* musodara qilmoq.
impoundment [ɪmˊpaundmənt] *n* hovuz, suv havzasi.
impoverish [ɪmˊpɔvərɪʃ] *v* 1) zaif (kuchsiz) holga keltirmoq; 2) kambag'allashtirmoq.
impoverished [ɪmˊpɔvərɪʃt] *a* ozib ketgan, oriq; **~ soil** oriq yer.
impoverishment [ɪmˊpɔvərɪʃmənt] *n* kambag'allashish, qashshoqlashish.
impracticable [ɪmˊpræktɪkəbl] *a* amalga oshirib bo'lmaydigan, amalga oshmaydigan.
impractical [ɪmˊpræktɪkəl] = **impracticable.**
imprecate [ˊɪmprɪkeɪt] *v* so'kmoq, urishmoq, koyimoq.
imprecation [ˌɪmprɪˊkeɪʃn] *n* la'nat, nafrat, qarg'ish.
imprecise [ˌɪmprɪˊsaɪs] *a* xira, tiniq bo'lmagan, aniq emas; tushunib bo'lmaydigan.
impregnable [ɪmˊpregnəbl] *a* egallab bo'lmaydigan, ishg'ol qilib bo'lmaydigan, mustahkam.
impregnate [ˊɪmpregneɪt] *v* urug'lamoq, otalantirmoq, to'ldirmoq.
impregnation [ˌɪmpregˊneɪʃn] *v* 1) otalantirmoq, homilador qilmoq; 2) mahsuldor (samarador, unumli) qilmoq.
impresari [ˌɪmpreˊsɑ:ri:] *pl* **impresario** *dan.*
impresario [ˌɪmpreˊsɑ:rɪəu] *n it.* teatr, sirk va sh. k. xo'jayini.
imprescriptible [ˌɪmprɪˊskrɪptəbl] *a* ajratib (olib) bo'lmaydigan, ajralmas.
impress 1. *n* [ˊɪmpres] 1) barmoq izi; **an ~ of a foot** oyoq izi; 2) muhr (pechat), tamg'a, belgi; 3) iz; **2.** *v* [ɪmˊpres] 1) taassurot qoldirmoq; **to ~ smb.** kimdadir taassurot qoldirmoq; 2) tamg'a bosmoq, muhrlamoq.
impressibility [ɪmˌpresɪˊbɪlətɪ] *n* ta'sirlanuvchanlik, ta'sirchanlik.
impressible [ɪmˊpresəbl] *a* ta'sirlanuvchan, tez ta'sirlanuvchi.
impression [ɪmˊpreʃn] *n* taassurot, xotirada qolgan iz; **strong ~** zo'r taassurot.
impressionability [ɪmˌpreʃnəˊbɪlətɪ] *n* ta'sirchanlik, ta'sirlanuvchanlik.
impressionable [ɪmˊpreʃnəbl] *a* ta'sirlanuvchan, tez ta'sirlanuvchi.
impressive [ɪmˊpresɪv] *a* ta'sirli, zo'r taassurot qoldiradigan.
imprest [ˊɪmprest] *n* avans (*mehnatga oldindan to'lanadigan pul, haq, mablag'*).
imprimis [ɪmˊpraɪmɪs] *lot. adv* birinchidan, avvalo.
imprint 1. *n* [ˊɪmprɪnt] iz; tamg'a; **2.** *v* [ɪmˊprɪnt] 1) tamg'a bosmoq; 2) iz qoldirmoq.
imprison [ɪmˊprɪzn] *v* qamoqqa olmoq, qamab qo'ymoq.
imprisonment [ɪmˊprɪznmənt] *n* qamoqqa olish.
improbability [ɪmˌprɔbəˊbɪlətɪ] *n* bo'lishi mumkin emaslik, aqlga to'g'ri kelmaslik.
improbable [ɪmˊprɔbəbl] *a* aqlga to'g'ri kelmaydigan, mumkin bo'lmagan, aqlga sig'maydigan.
improbity [ɪmˊprəubətɪ] *n* vijdonsizlik, insofsizlik, diyonatsizlik.
impromptu [ɪmˊprɔmptju:] *n* ekspromt (*erkin shaklda yozilgan kichikroq musiqa asari*).
improper [ɪm ˊprɔpə] *a* 1) noo'rin, nomunosib, o'rinsiz; 2) yaramaydigan, to'g'ri kelmaydigan.
impropriety [ˌɪmprəˊpraɪətɪ] *n* (*pl* **impropriетries**) axloqsizlik, beadablik.
improve [ɪmˊpru:v] *v* yaxshilamoq; yaxshilanmoq; **to ~ in health** sog'ayib ketmoq; **to ~ in looks** yaxshiroq ko'rinmoq; **to ~ the opportunity** qulay imkoniyatdan foydalanib olmoq.
improved [ɪmˊpru:vd] **1.** *p. p.* **improve** *dan*; **2.** *a* mukammallashtirilgan, yaxshilangan.
improvement [ɪmˊpru:vmənt] *n* yaxshilash, mukammallashtirish.

improvidence [ɪm´prɔvɪdəns] *n* 1) ehtiyotsizlik, uzoqni ko'rmaydiganlik, kaltabinlik; 2) isrofgarchilik, nobudgarlik.
improvident [ɪm´prɔvɪdənt] *a* ehtiyotsiz, oxirini o'ylamay ish qiladigan.
improvise [´ɪmprəvaɪz] *v* 1) tayyorgarliksiz tashkil etmoq (uyushtirmoq); 2) tayyorgarliksiz aytmoq, yaratmoq.
impudence [´ɪmpjudəns] *n* dag'allik, qo'pollik, qo'rslik; noshukur, surbetlik, bezbetlik.
impudent [´ɪmpjudənt] *a* 1) yuzsiz, bezbet, surbet, betsiz; uyatsiz; qo'pol; 2) kaltafahm, ehtiyotsiz.
impugn [ɪm´pju:n] *v* shubha ostiga qoldirmoq.
impugnable [ɪm´pju:nəbl] *a* janjalli, munozarali.
impugnment [ɪm´pju:nmənt] *n* haq-huquq talashish, tortishish, janjallashish.
impulse [´ɪmpʌls] *n* 1) impuls, ichki turtki, biror ishga undovchi sabab; 2) harakat miqdori.
impulsion [ɪm´pʌlʃn] *n* istak, mayl, xohish; zarba, turtki.
impulsive [ɪm´pʌlsɪv] *a* 1) tashqi ta'sirlarga beriluvchi, sezgir, ta'sirchan; **~ness** sezgirlik, ta'sirchanlik; 2) beixtiyor; 3) ichki turtki tufayli yuzaga keladigan.
impunity [ɪm´pju:nətɪ] *n* jazosizlik, jazo ko'rmaslik.
impure [ˌɪm´pjuə] *a* nopok, kir, iflos.
impurity [ɪm´pjuərətɪ] *n* ifloslik, kirlik.
in [ɪn] **1.** *prep.* 1) o'rinni bildiradi; **~ town** shaharda; 1) paytni bildiradi; **~ summer** yozda; **~ time** o'z vaqtida; **2.** *adv* ichida, ichkarida; **father is ~** otam uy ichida, ichkarida; **to come ~** kirmoq.
inability [ˌɪnə´bɪlətɪ] *n* imkoni (iloji) yo'qlik, qurbi yetmaslik; **~ to pay** to'lashga qurbi yetmaslik.
in absentia [ˌɪnəb´sentɪə] *adv* yo'qligida, usiz, ularsiz.
inaccessible [´ɪnæk,sesəbl] *a* 1) erishib (yetishib, yaqinlashib, olib, egallab) bo'lmaydigan; 2) amalga oshirib bo'lmaydigan.
inaccuracy [ɪn´ækjurəsɪ] *n* 1) noaniqlik, noto'g'rilik, aniq emaslik; 2) xatolik, xato.
inaccurate [ɪn´ækjərət] *a* 1) notayin, noaniq, noto'g'ri; 2) xato, yanglish.
inaction [ɪn´ækʃn] *n* harakatsizlik, faoliyatsizlik, bekor turish, sustlik, g'ayratsizlik.
inactive [ɪn´æktɪv] *a* faoliyatsiz, harakatsiz, g'ayratsiz, sust.
inactivity [ˌɪnæk´tɪvətɪ] *n* faoliyatsizlik, harakatsizlik, g'ayratsizlik, faoliyat ko'rsatmay turish, sustlik.
inadaptability [ˌɪnədæptə´bɪlətɪ] *n* yaroqsizlik, layoqatsizlik, yaramaslik.
inadequacy [ɪn´ædɪkwəsɪ] *n* 1) yetmaslik, yetishmaslik, kamlik, ozlik; 2) talabga javob bermaslik.
inadequate [ɪn´ædɪkwət] *a* 1) talabga javob bermaydigan; 2) yetarli bo'lmagan.
inadhesive [ˌɪnəd´hi:sɪv] *a* yopishmaydigan, shirasi yo'q.
inadmissible [ˌɪnəd´mɪsəbl] *a* yo'l qo'yib bo'lmaydigan, nojo'ya.
inadvertence [ˌɪnəd´və:tns] *n* e'tiborsizlik, beparvolik; **by ~** beparvolik bilan.
inadvertency [ˌɪnəd´və:tnsɪ] = **inadvertence.**
inadvertent [ˌɪnəd´və:tnt] *a* diqqat-e'tiborsiz, beparvo, parishonxotir.
inadvisable [ˌɪnəd´vaɪzəbl] *a* bema'ni, mulohazasiz.
inalienability [ɪn,eɪljənə´bɪlɪtɪ] *n* 1) uzoqlashmaslik, begonalashmaslik, uzoqlashib ketmaslik; 2) daxlsizlik.
inalienable [ɪn´eɪljənəbl] *n* daxlsiz huquqlar, ajratib olib bo'lmaydigan, daxl qilib bo'lmaydigan, ajralmas, daxlsiz.
inalterable [ɪn´ɔ:ltərəbl] *a* o'zgarmaydigan, o'zgarmas, doimiy.
inamorata [ɪn,æmə´rɑ:tə] *it. n* o'ynash (jazman) xotin; sevikli yor.
inamorato [ɪn,æmə´rɑ:təu] *it. n* o'ynash, jazman erkak.
in-and-in [ˌɪnənd´ɪn] **~ marriage** yaqin qarindoshlar o'rtasidagi er-xotinlik.
in-and-out [ˌɪnənd´aut] *adv* goh tashqarida, goh ichkarida; goh (tashqariga) ichkariga.
inane [ɪ´neɪn] *a* 1) ichi bo'sh, hech narsasi yo'q, bo'sh, quruq, puch; 2) ma'nosiz, mazmunsiz.
inanimate [ɪn´ænɪmət] *a* jonsiz, joni yo'q, o'lik.
inanimation [ɪn,ænɪ´meɪʃən] *n* jonsizlik, joni yo'qlik, o'liklik.
inanition [ˌɪnə´nɪʃn] *n* ozib (*oriqlab*) ketish, ozib-to'zish, ozg'inlik.
inanity [ɪ´nænətɪ] *n* bo'shlik, xolilik, quruqlik, puchlik, hech narsasi yo'qlik.
inapplicability [´ɪn,æplɪkə´bɪlətɪ] *n* yaroqsizlik, layoqatsizlik, yaramaslik.
inapplicable [ˌɪnə´æplɪkəbl] *a* yaroqsiz, layoqatsiz, yaramaydigan, nobop.
inapposite [ɪn´æpəzɪt] *a* 1) to'g'ri kelmaydigan, mos kelmaydigan; 2) o'rinsiz, noo'rin, chakki, bemavrid.
inappreciable [ˌɪnə´pri:ʃəbl] *a* 1) sezilmaydigan, bilinmaydigan, ko'rinmaydigan; 2) kishi bilmaydigan; 3) qadrsiz.
inappreciation [´ɪnə´pri:ɪ´eɪʃn] *n* kamsitish, yetarli baho bermaslik, qadriga yetmaslik.
inapprehensible [ˌɪnæprɪ´hensəbl] *a* aql yetmaydigan, aqlga sig'maydigan, aql bovar qilmaydigan, tushunib bo'lmaydigan.
inapproachable [ˌɪnə´prəutʃəbl] *a* egallab bo'lmaydigan; olib (zabt etib) bo'lmaydigan.
inappropriate [ˌɪnə´prəupriət] *a* yaroqsiz, noloyiq, noo'rin, nomunosib.
inapt [ɪn´æpt] *a* tajribasiz, mahoratsiz, ishning uddasidan chiqa olmaydigan, ishning ko'zini bilmaydigan.

inaptitude [ɪn´æptɪtju:d] *n* bilmaslik, ishning uddasidan chiqa olmaslik, ish bilmaslik, noshudlik.
inarm [ɪn´ɑ:m] *v shoir.* quchoqlamoq, quchoqqa olmoq, bag'riga bosmoq.
inarticulate [ˌɪnɑ:´tɪkjulət] *a* 1) tushunib bo'lmaydigan, noaniq; 2) kamgap, indamas.
inartificial [ˌɪnɑ:tɪ´fɪʃl] *a* soxta emas, haqiqiy, tabiiy.
inattention [ˌɪnə´tenʃn] *n* diqqatsizlik, e'tiborsizlik, beparvolik.
inattentive [ˌɪnə´tentɪv] *a* diqqat-e'tiborsiz, beparvo.
inaudible [ɪn´ɔ:dəbl] *a* 1) noaniq, tushunib bo'lmaydigan, eshitib bo'lmaydigan; 2) past ovozda, eshitilmaydigan.
inaugural [ɪ´nɔ:gjurəl] *a* kirish, boshlang'ich.
inaugurate [ɪ´nɔ:gjureɪt] *v* 1) tantanali ravishda lavozimga qo'ymoq; 2) boshlamoq; 3) ochmoq (*ko'rgazma va b.*).
inauguration [ɪˌnɔ:gjə´reɪʃn] *n* 1) rasmiy ochilish; 2) lavozimga kirishish.
inauspicious [ˌɪnɔ:´spɪʃəs] *a* 1) shum, mash'um, mudhish; 2) o'ng'aysiz, yomon.
in-between [ˌɪnbɪ´twi:n] *n* ikki narsa orasidagi masofa, ora, oraliq; o'rta, o'rtalik; 2) vositachi, dallol.
inboard [´ɪnbɔ:d] *a* kema ichida joylashgan, kema ichidagi.
inborn [ˌɪn´bɔ:n] *a* tug'ma, tabiiy, zotida bo'lgan.
inbreak [´ɪnbreɪk] *n* 1) dushman hujumi; 2) bostirib borish, tajovuz, hujum, bostirib kirish.
inbreathe [ˌɪn´bri:ð] *v* nafas olmoq.
inbred [ˌɪn´bred] *a* tug'ma, tabiiy; zotida bor.
incalculable [ɪn´kælkjuləbl] *a* hisobsiz, sonsanoqsiz, beadad, behisob, hisobi yo'q.
incandescence [ˌɪnkæn´desns] *n* 1) ravshanlik, cho'g'lanish darajasi; 2) qizish, qizdirish.
incandescent [ˌɪnkæn´desnt] *a* 1) qizigan, qizdirilgan; 2) oppoq, oqarguncha qizigan (qizitilgan).
incantation [ˌɪnkæn´teɪʃn] *n* 1) afsungarlik, jodugarlik, sehrgarlik; 2) afsun, jodu, sehr.
incapable [ɪn´keɪpəbl] *a* 1) qobiliyatsiz, layoqatsiz; 2) qilolmaydigan, qo'lidan kelmaydigan.
incapacious [ˌɪnkə´peɪʃəs] *a* tor, ensiz, ingichka.
incapacitate [ˌɪnkə´pæsɪteɪt] *v* huquqdan mahrum qilmoq.
incapacity [ˌɪnkə´pæsətɪ] *n* 1) qobiliyatsizlik; 2) mumkin emaslik, iloji (imkoni) yo'qlik.
incarcerate [ɪn´kɑ:səreɪt] *v* qamamoq, ozodlikdan mahrum qilmoq.
incarceration [ɪnˌkɑ:sə´reɪʃn] *n* ozodlikdan mahruh etish.
incarnadine [ɪn´kɑ:nədaɪn] *a* alvon, qirmizi, och qizil.
incarnate [ɪn´kɑ:nət] *a* o'zida mujassamlantirgan, timsol bo'la oladigan.
incarnation [ˌɪnkɑ:´neɪʃn] *n* timsol, mujassam, biror narsaning timsoli.
incase [ɪn´keɪs] *v* o'ramoq, solmoq, joylamoq.
incautious [ɪn´kɔ:ʃəs] *a* loqayd, o'ylamasdan ish tutadigan, shoshqaloq, bemulohaza.
incendiarism [ɪn´sendɪərɪzm] *n* 1) o't qo'yish, yondirish; 2) g'alamislik, ig'vogarlik; ig'vo, fitna.
incendiary [ɪn´sendɪərɪ] *n* 1) qasddan o't qo'yib yuborgan odam; 2) g'alamis, ig'vogar.
incense [´ɪnsens] **1.** *n* isiriqsimon xushbo'y tutatqi; **~ plant** isiriq; **2.** *v* 1) isiriq tutatmoq; 2) maqtab yubormoq.
incensory [´ɪnsensərɪ] *n* isiriq (*ibodat vaqtida isiriq tutatiladigan idish*).
incentive [ɪn´sentɪv] **1.** *n* istak, mayl, xohish; **2.** *a* (*biror ish qilishga*) undaydigan.
inception [ɪn´sepʃn] *n* bosh, boshi, uchi, boshlanish joyi, boshlanishi.
inceptive [ɪn´septɪv] *a* boshlang'ich, eng boshdagi, dastlabki, ilk.
incertitude [ɪn´sɔ:tɪtju:d] *n* qat'iyatsizlik, jur'atsizlik; gumonsiraydiganlik, ishonmaydiganlik.
incessant [ɪn´sesnt] *a* uzluksiz, to'xtovsiz, surunkali.
incest [´ɪnsest] *n* yaqin qarindoshlarning jinsiy aloqada bo'lishi.
incestuous [ɪn´sestjuəs] *a* yaqin qarindoshlar bilan jinsiy aloqada bo'lgan.
inch [ɪntʃ] *n* 1) duym (*uzunlik o'lchovi 2,5 sm*); 2) *pl* bo'y, qad, qomat.
inchoate [ɪn´kəuət] *a* 1) kurtak holidagi; 2) boshlang'ich, ibtidoiy; 3) chalkashgan, adashgan.
incidence [´ɪnsɪdəns] *n* ko'lam, miqdor.
incident [´ɪnsɪdənt] *n* 1) voqea, hodisa; **daily ~** kundalik hodisa; 2) epizod; **an ~ in a play** asardagi epizod; **~al** kutilmagan, nogahoniy, tasodifiy; **~ally** tasodifan, kutilmaganda.
incinerate [ɪn´sɪnəreɪt] *v* yondirib kul qilmoq.
incineration [ɪnˌsɪnə´reɪʃn] *n* yoqish, yondirish, kuydirish.
incipient [ɪn´sɪpɪənt] *a* boshlang'ich, endi boshlanayotgan.
incise [ɪn´saɪz] *v* sal kesmoq, tilib qo'ymoq, kesmoq.
incision [ɪn´sɪʒn] *n* kesilgan (tilingan) joy.
incisive [ɪn´saɪsɪv] *a* kesadigan, qirqadigan, kesuvchi, qirquvchi.
incisor [ɪn´saɪzə] *n* oldingi tish, old tomondagi tish.
incite [ɪn´saɪt] *v* 1) qo'zg'atmoq, undamoq; 2) rag'batlantirmoq; qiziqtirmoq.
incitement [ɪn´saɪtmənt] *n* 1) rag'batlantirish; qiziqtirish; 2) yomon ishga undash; 3) turtki.
incivility [ˌɪnsə´vɪlətɪ] *n* (*pl* **incivilities**) qo'pollik, beandishalik, madaniyatsizlik.
inclement [ɪn´klemənt] *a* sovuq, og'ir (*ob-havo tog'risida*).

inclination [ˌɪnklɪˈneɪʃn] *n* ko'ngil, mayil, ishtiyoq.
incline [ɪnˈklaɪn] **1.** *n* qiya, tekislik, qiyalik, yonbag'ir, nishab; **to ~ one's ear to smb.** biror kishini quloq solib (*diqqat bilan*) eshitmoq; **2.** *v* engashmoq, engashtirmoq, egilmoq, egmoq.
inclined [ɪnˈklaɪnd] *a* ishtiyoqi (havasi) bo'lgan, moyil, ixlosmand.
include [ɪnˈklu:d] *v* o'z ichiga olmoq; **the book ~s essays** kitob asarlarni o'z ichiga oladi.
including [ɪnˈklu:dɪŋ] **1.** *pres. p.* **include** *dan*; **2.** *prep.* ichiga olgan holda, qamrab, qo'shib.
inclusion [ɪnˈklu:ʒn] *n* kiritish, o'z ichiga olish.
inclusive [ɪnˈklu:sɪv] *a* hammasini qamrab olgan, barchasini ichiga olgan.
incognito [ɪnˈkɔgnɪtəu] *a* yashirin, boshqa nom bilan.
incoherence [ˌɪnkəuˈhɪərəns] *n* mantiqsizlik, tuturiqsizlik.
incoherent [ˌɪnkəuˈhɪərənt] *a* 1) poyma-poy; 2) mantiqsiz, tuturiqsiz.
incombustible [ˌɪnkəmˈbʌstəbl] *a* o'tga chidamlili; yonmaydigan.
income [ˈɪnkʌm] *n* daromad, kirim; **monthly ~** oylik ish haqi.
income-tax [ˈɪnkəmtæks] *n* daromad solig'i.
incoming [ˈɪnˌkʌmɪŋ] *a* 1) kelayotgan; 2) yangi (yaqinda) saylangan.
incommensurable [ˌɪnkəˈmenʃərəbl] *a* umumiy o'lchovi yo'q; nisbatsiz.
incommensurate [ˌɪnkəˈmenʃərət] *a* umumiy o'lchovi yo'q, bir o'lchov bilan o'lchab bo'lmaydigan.
incommode [ˌɪnkəˈməud] *v* 1) bezovta qilmoq, ovora qilmoq; 2) qismoq, siqmoq.
incommodious [ˌɪnkəˈməudɪəs] *a* 1) jonga tegadigan, bezor qiladigan, shilqim; 2) qulayligi yo'q, nobop; noqulay.
incommunicable [ˌɪnkəˈmju:nɪkəbl] *a* ifodalab (tasvirlab, tushuntirib) bo'lmaydigan.
incomparable [ɪnˈkɔmpərəbl] *a* o'xshashi yo'q, beqiyos, tengsiz.
incompatibility [ˌɪnkəmpætəˈbɪlətɪ] *n* (*pl* **compatibilities**) nomuvofiqlik, nomutanosiblik, mos emaslik.
incompatible [ˌɪnkəmˈpætəbl] *a* bir-biriga to'g'ri kelmaydigan, mos emas, nomuvofiq.
incompetence [ɪnˈkɔmpɪtəns] *n* 1) bexabarlik, uncha yaxshi bilmaydiganlik, qobiliyatsizlik; 2) *tib.* yetishmovchilik (*biror organ faoliyatining yetarli emasligi*).
incompetent [ɪnˈkɔmpɪtənt] *a* 1) yetarli ma'lumotga ega bo'lmagan, bexabar; 2) noqobil.
incomplete [ˌɪnkəmˈpli:t] *n* chala, to'liqsiz, tugatilmagan.
incomprehensible [ɪnˌkɔmprɪˈhensəbl] *a* tushunarsiz, tushunib bo'lmaydigan.
incomprehension [ɪnˌkɔmprɪˈhenʃn] *n* tushunmaslik, anglamaslik, tushunib yetmaslik.
inconceivable [ˌɪnkənˈsi:vəbl] *a* aqlga sig'maydigan, aql bovar qilmaydigan, haddan tashqari.
inconclusive [ˌɪnkənˈklu:sɪv] *a* hal bo'lmagan; tugatilmagan.
incongruity [ˌɪŋkɔŋˈgru:ətɪ] *n* nomunofiqlik, nomunosiblik, noqulaylik.
incongruous [ɪnˈkɔŋgruəs] *a* nomunofiq, nomunosib, noqulay.
inconsequent [ɪnˈkɔnsɪkwənt] *a* mantiqqa (logikaga) to'g'ri kelmaydigan, mantiqsiz.
inconsequential [ɪnˌkɔnsɪˈkwenʃl] *a* 1) ahamiyatsiz, muhim bo'lmagan; 2) muntazam emas.
inconsiderable [ˌɪnkənˈsɪdərəbl] *a* arzimas, arzimaydigan, kichkina.
inconsiderate [ˌɪnkənˈsɪdərət] *a* o'zgalarga e'tiborsiz, o'zgalarni o'ylamaydigan; **~ness** o'zgalarga e'tiborsizlik.
inconsistent [ˌɪnkənˈsɪstənt] *a* 1) izchil bo'lmagan, doimo bir xil emas; 2) to'g'ri (mos) kelmaydigan; farq qiladigan.
inconsolable [ˌɪnkənˈsəuləbl] *a* yupanmaydigan, ovunmaydigan, taskin topmaydigan.
inconspicuous [ˌɪnkənˈspɪkjuəs] *adv* sezilmaydigan, ko'zga tashlanmaydigan.
inconstant [ɪnˈkɔnstənt] *a* o'zgaruvchan, o'zgarib turadigan, betayin, beqaror.
incontestable [ˌɪnkənˈtestəbl] *a* rad (inkor) qilib bo'lmaydigan, shak-shubhasiz.
incontinence [ɪnˈkɔntɪnəns] *n* tutib turolmaslik, qovug'i bo'shlik; ich ketish.
incontinent [ɪnˈkɔntɪnənt] *a* 1) qovug'i bo'sh, 2) ich o'tar.
incontrovertible [ˌɪnkɔntrəˈvɔ:təbl] *a* rad qilib bo'lmaydigan, aniq, shak-shubhasiz.
inconvenience [ˌɪnkənˈvi:nɪəns] **1.** *n* noqulaylik, o'ng'aysizlik, bezovtalik; **2.** *v* noqulaylik tug'dirmoq, bezovta qilmoq.
inconvenient [ˌɪnkənˈvi:nɪənt] *a* noqulay, o'ng'aysiz, nomunosib.
inconvertible [ˌɪnkənˈvɔ:təbl] *a* maydalanmaydigan, mayda qilib bo'lmaydigan (*pul haqida*).
incorporate [ɪnˈkɔ:pəreɪt] *v* 1) tarkibiga kirmoq; qo'shilmoq; 2) korporatsiya tashkil qilmoq.
incorporation [ɪnˌkɔ:pəˈreɪʃn] *n* birlashma, uyushma; tashkilot.
incorporeal [ˌɪnkɔ:ˈpɔ:rɪəl] *a* jismsiz, tanasiz, gavdasiz.
incorrect [ˌɪnkəˈrekt] *a* noto'g'ri, xato, yanglish.
incorruptibility [ˈɪnkəˌrʌptəˈbɪlətɪ] *n* vijdonlilik, poklik, halollik.
incorruptible [ˌɪnkəˈrʌptəbl] *a* 1) abadiy, mangu, umrbod; 2) vijdonli, vijdonini sotmaydigan.
increase 1. *v* [ɪnˈkri:s] 1) o'smoq; **to ~ one's knowledge** bilimi oshmoq; 2) ko'paytirmoq, oshirmoq; **~ the speed** tezlikni oshirmoq; **2.** *n* [ˈɪŋkri:s] *n* qo'shish, ko'paytirish, oshirish.
increased [ɪnˈkri:st] *a* ortib borayotgan.

increasingly [ɪn´kri:sɪŋlɪ] *adv* tobora (juda) ko'p.
incredible [ɪn´kredəbl] *a* 1) favqulodda, haddan tashqari, juda zo'r; 2) aqlga sig'maydigan, ehtimoldan uzoq.
incredibly [ɪn´kredəblɪ] *adv* g'oyat, juda ham, nihoyatda, haddan tashqari.
incredulity [ˌɪnkrə´dju:lətɪ] *n* ishonchsizlik, ishonmaslik, shubha bilan qarash.
increment [´ɪnkrɪmənt] *a* ko'paytirish, oshirish, kattalashtirish, yiriklashish.
incriminate [ɪn´krɪmɪneɪt] *v* ayblamoq, ayb qo'ymoq.
incrustation [ˌɪkrʌs´teɪʃn] *n* po'stloq, po'st, qobiq; ustki qatlam.
incubate [´ɪnkjubeɪt] *v* jo'ja ochirmoq.
incubation [ˌɪnkju´beɪʃn] *n* 1) tuxum bosib jo'ja ochib chiqish; 2) kasallikning yashirin davri.
incubator [´ɪnkjubeɪtə] *n* inkubator (*tuxumdan sun'iy yo'l bilan jo'ja ochiriladigan apparat*).
incubus [´ɪnkjubəs] *n* iblis, shayton; jin.
inculcate [´ɪnkʌlkeɪt] *v* joriy qilmoq, o'rnatmoq, tarqatmoq.
inculpate [´ɪnkʌlpeɪt] *v* 1) ayblamoq, kimsaga ayb qo'ymoq; 2) tanbeh bermoq.
incumbency [ɪn´kʌmbənsɪ] *n* majburiyat, burch, vazifa.
incumbent [ɪn´kʌmbənt] *n* 1) biror lavozimdagi shaxs; 2) ruhoniy.
incur [ɪn´kə:] *v* yo'liqmoq, duchor bo'lmoq, mubtalo bo'lmoq.
incurable [ɪn´kjuərəbl] *a* davosiz, bedavo, tuzatib bo'lmaydigan.
incurious [ɪn´kjuərɪəs] *a* diqqat-e'tiborsiz, beparvo, befarq.
incursion [ɪn ´kə:ʃn] *n* hujum, bosqin, tajovuz, bostirib kelish.
indebted [ɪn´detɪd] *a* qarzdor; **to be ~ to smb.** biror kishidan qarzdor bo'lmoq; **~ness** qarz, qarzdorlik.
indecent I [ɪn´di:snt] *n* adabsiz, behayo, uyatsiz.
indecent II [ɪn´di:snt] *a* odobdan tashqari, beadab, uyat.
indecision [ˌɪndɪ´sɪʒən] *n* ishonmovchilik, qat'iyatsizlik.
indecency [ɪn´di:snsɪ] *n* (*pl* **indecencies**) beadablik, bahayolik.
indecipherable [ˌɪndɪ´saɪfərəbl] *a* o'qib bo'lmaydigan, o'qilishi qiyin bo'lgan.
indecision [ˌɪndɪ´sɪʒn] *n* ikkilanish; ishonmovchilik; taraddudlanish, taraddud.
indecisive [ˌɪndɪ´saɪsɪv] *a* ikkilangan, ikkilanuvchi (*kishiga nisbatan*).
indeclinable [ˌɪndɪ´klaɪnəbl] *a gram.* turlanmaydigan.
indecorous [ɪn ´dekərəs] *a* beadab, qo'pol muomalali, nazokatsiz, xunuk.
indeed [ɪn´di:d] *adv* 1) haqiqatan, chindan ham; 2) nahotki, nahot, rostdanmi (*hayron bo'lish va shubhani ifoda etadi*).
indefatigable [ˌɪndɪ´fætɪgəbl] *a* hormas-tolmas, tinmaydigan, toliqmaydigan; **~ worker** tolmas ishchi.
indefeasible [ˌɪndɪ´fi:zəbl] *a* 1) ajralmas, daxlsiz; 2) rad qilib bo'lmaydigan, shak-shubhasiz.
indefensible [ˌɪndɪ´fensəbl] *a* 1) mudofaa uchun noqulay (*joy va b.*); 2) kechirib bo'lmaydigan.
indefinite [ɪn´defənət] *a* noaniq, noma'lum; **~ article** *gram.* noaniq artikl.
indelible [ɪn ´deləbl] *a* yuvib (ketkazib, tozalab) bo'lmaydigan, yuvgan bilan ketmaydigan.
indelicacy [ɪn´delɪkəsɪ] *n* beandishalik, qo'pollik, nazokatsizlik.
indelicate [ɪn´delɪkət] *a* odobni bilmaydigan, beandisha, qo'pol.
indemnify [ɪn´demnɪfaɪ] *v* xavfsizlantirmoq, xavfdan saqlamoq, xatarsiz qilmoq.
indemnity [ɪn´demnətɪ] *n* qoplash, kamini to'ldirish.
indent [ɪn ´dent] *v* 1) satr boshidan boshlamoq; 2) buyurtma bermoq.
indentation [ˌɪnden´teɪʃn] *n* belgi, nishon, tamg'a.
indenture [ɪn ´dentʃə] *n* yozma shartnoma.
independence [ˌɪndɪ ´pendəns] *n* mustaqillik, erkinlik.
independent [ˌɪndɪ´pendənt] *a* erkin, ozod, mustaqil; **~ state** mustaqil davlat.
independently [ˌɪndɪ´pendəntlɪ] *adv* mustaqil ravishda.
indescribable [ˌɪndɪ´skraɪbəbl] *a* ta'riflab bo'lmaydigan, ta'rifga sig'maydigan.
indestructible [ˌɪndɪ´strʌktəbl] *a* mustahkam, buzilmas.
indeterminate [ˌɪndɪ´tə:mɪnət] *a* noaniq, noma'lum, aniqlab bo'lmaydigan.
indetermination [´ɪndɪˌtə:mɪ´neɪʃn] *n* ikkilanish, botina olmaslik.
index [´ɪndeks] *n* indeks, ko'rsatkich; ro'yxat.
Indian [´ɪndɪən] **1.** *a* Hindistonga va hindlarga oid; **2.** *n* hindi, hindu; **~ summer** oltin kuz; **~ corn** makkajo'xori (*o'simligi va doni*).
indian cane [ˌɪndɪən´keɪn] *n bot.* bambuk (*qamishga o'xshash tropik o'simlik*).
Indian ink [ˌɪndɪən ´ɪŋk] *n* tush (*siyoh*).
india-rubber [ˌɪndɪə´rʌbə] *n* 1) rezina; 2) o'chirg'ich, rezinka.
indicate [´ɪndɪkeɪt] *v* 1) ko'rsatmoq; **to ~ the way** yo'lni ko'rsatmoq; 2) bildirmoq; 3) *tex.* mashinaning kuchini o'lchagich asbobi bilan o'lchamoq.
indication [ˌɪndɪ ´keɪʃn] *n* ko'rsatma, ko'rsatish, ma'lumot.
indicative [ɪn´dɪkətɪv] *a* ko'rsatuvchi, ko'rsatadigan; **~ mood** *gram.* fe'lning aniqlik mayli.
indicator [´ɪndɪkeɪtə] *n* ko'rsatkich.
indict [ɪn´daɪt] *v* jazoga hukm qilmoq, jazo bermoq.
indictment [ɪn´daɪtmənt] *n* 1) aybnoma; 2) biror narsaning yomonligini ko'rsatuvchi alomat, belgi.

indifference [ɪn´dɪfrəns] *a* beparvolik, e'tiborsizlik; loqaydlik, ahamiyat bermaslik.
indifferent [ɪn´dɪfrənt] *a* beparvo; bee'tibor, befarq, loqayd.
indigenous [ɪn´dɪdʒənəs] *a* mahalliy, shu yerli.
indigent [´ɪndɪdʒənt] *a* kambag'al, qashshoq, nochor.
indigestible [ˌɪndɪ´dʒestəbl] *a* singishi (hazm bo'lishi) qiyin.
indigestion [ˌɪndɪ´dʒestʃn] *n* dispensiya (*taom hazm bo'lmasligi natijasida paydo bo'ladigan og'riq*).
indignant [ɪn´dɪgnənt] *a* achchiqlangan, g'azablangan; nafratlangan, jahli chiqqan.
indignation [ˌɪndɪg´neɪʃn] *n* nafrat, achchiqlanish.
indignity [ɪn´dɪgnətɪ] *n* mensimaslik, pisand qilmaslik, nazarga ilmaslik.
indigo [´ɪndɪgəu] *n* (*pl* **-os** [-əuz]) 1) nil bo'yog'i; 2) to'q ko'k rang.
indirect [ˌɪndə´rekt] *a* 1) egri; vositali; 2) *gram.* ~ **speech** o'zlashtirma gap.
indiscernible [ˌɪndɪ´sə:nəbl] *a* ko'rib bo'lmaydigan, yaxshi ko'rinmaydigan.
indiscreet [ˌɪndɪ´skri:t] *a* beparvo, e'tiborsiz.
indiscretion [ˌɪndɪ´skreʃn] *n* beparvolik, e'tiborsizlik.
indiscriminate [ˌɪndɪ´skrɪmɪnət] *a* noaniq, chaplashib ketgan, o'qib bo'lmaydigan.
indispensable [ˌɪndɪ´spensəbl] *a* zaruriy, kerakli, zarur (kerak) bo'lgan.
indisposed [ˌɪndɪ´spəuzd] *a* kasal, xasta, bemor, betob.
indisposition [ˌɪndɪspə´zɪʃn] *n* yengil xastalik, biroz betob bo'lish.
indisputable [ˌɪndɪs´pju:təbl] *a* rad qilib bo'lmaydigan, e'tirozga o'rin qoldirmaydigan, aniq.
indissoluble [ˌɪndɪ´sɔljubl] *a* qismlarga bo'linmaydigan, bo'laklarga ajralmaydigan.
indistinct [ˌɪndɪ´stɪŋkt] *a* noaniq, xira.
indistinguishable [ˌɪndɪ´stɪŋwɪʃəbl] *a* 1) farqlab bo'lmaydigan, ajratib bo'lmaydigan; 2) ko'rinmaydigan, ko'rinmas.
indivertible [ˌɪndɪ´və:təbl] *a* muqarrar, albatta yuz beradigan, shak-shubhasiz bo'ladigan.
individual [ˌɪndɪ´vɪdʒuəl] **1.** *a* shaxsiy, ayrim, yakka, alohida, o'ziga qarashli; **the rights of the** ~ shaxsiy huquq; **2.** *n* shaxs, odam, kishi.
individualism [ˌɪndɪ´vɪdʒuəlɪzm] *n* shaxsiyatparastlik, o'zini boshqalardan yuqori qo'yish.
individuality [ˌɪndɪvɪdʒu´ælətɪ] *n* o'ziga xoslik, shaxsiyat.
individualize [ˌɪndɪ´vɪdʒuəlaɪz] *v* individual yondashmoq.
indivisible [ˌɪndɪ´vɪzəbl] *a* bo'linmas, bo'linmaydigan.
indoctrinate [ɪn´dɔktrɪneɪt] *v* ta'sir ko'rsatib ishontirmoq, uqtirmoq.
indoctrination [ɪnˌdɔktrɪ´neɪʃn] *n* ta'sir ko'rsatib ishontirish, uqtirish.
Indo-European [ˌɪndəujuərə´pi:ən] *a* hind-yevropa.
indolence [´ɪndələns] *n* 1) og'riqsizlik, og'ritmaslik; 2) dangasalik, tanballik.
indolent [´ɪndələnt] *a* yalqov, dangasa, tanbal.
indomitable [ɪn´dɔmɪtəbl] *a* kuchli, shiddatli, to'xtatib bo'lmaydigan.
Indonesian [ˌɪndəu´ni:zɪən] **1.** *n* indoneziyalik kishi *yoki* ayol; **2.** *a* indoneziya va indoneziyaliklarga oid.
indoor [´ɪndɔ:] *a* uy ichida, xonada bo'ladigan (turadigan, o'sadigan, yashaydigan).
indoors [ˌɪn´dɔ:z] *adv* ichkarida; ichkariga.
indubitable [ɪn´dju:bɪtəbl] *a* shubhasiz, aniq, begumon.
induce [ɪn´dju:s] *v* 1) majburlamoq, zo'rlamoq; 2) qo'zg'amoq, tug'dirmoq, sabab bo'lmoq.
inducement [ɪn´dju:smənt] *n* istak, xohish; niyat.
induction [ɪn´dʌkʃn] *n* 1) kirish, muqaddima; so'zboshi; 2) tanishish, tanishtirish.
induction-coil [ɪn´dʌkʃnkɔɪl] *n el.* induksion g'altak.
inductive [ɪn´dʌktɪv] *a* boshlang'ich, kirish.
indulge [ɪn´dʌldʒ] *v* ko'ngilchanlik qilmoq, bo'sh qo'ymoq.
indulgence [ɪn´dʌldʒəns] *n* 1) erk berish, bo'sh qo'yish, ko'ngliga qarash; 2) rohat, farog'at, huzur baxsh etuvchi.
indulgent [ɪn´dʌldʒənt] *a* marhamatli, ko'ngilchan, ko'ngli bo'sh.
industrial [ɪn´dʌstrɪəl] *a* sanoatlashgan, sanoati taraqqiy etgan; ~ **goods** sanoat mahsulotlari.
industrialist [ɪn´dʌstrɪəlɪst] *n* sanoatchi, korxona egasi.
industrialization [ɪnˌdʌstrɪəlaɪ´zeɪʃn] *n* sanoatlashtirish.
industrialize [ɪn´dʌstrɪəlaɪz] *v* sanoatlashtirmoq.
industrious [ɪn´dʌstrɪəs] *a* mehnatsevar, serg'ayrat.
industry [´ɪndəstrɪ] *n* sanoat, sanoat tarmog'i.
indwell [ɪn´dwel] *v* (**indwelt**) 1) istiqomat qilmoq, turmoq, yashamoq; 2) doimiy yashamoq.
indweller [´ɪnˌdwelə] *n* istiqomat qiluvchi, turuvchi, yashovchi kishi.
indwelling [ɪn´dwelɪŋ] **1.** *pres. p.* **indwell** *dan*; **2.** *n* yashash, yashab turish.
inebriate [ɪ´ni:brɪət] *n* alkogolizmga mubtalo bo'lgan kishi; piyanista.
inedible [ɪn´edəbl] *a* yeyilmaydigan, yeb bo'lmaydigan.
ineffable [ɪn´efəbl] *a* ta'riflab (tushuntirib) bo'lmaydigan, ta'rifga sig'maydigan.
ineffective [ˌɪnɪ´fektɪv] *a* natijasiz, samarasiz, befoyda, behuda.

ineffectual [ˌɪnɪˈfektʃuəl] *a* natijasiz, samarasiz, befoyda, behuda.
inefficiency [ˌɪnɪˈfɪʃnsɪ] *n* unumsizlik, samarasizlik.
inefficient [ˌɪnɪˈfɪʃnt] *a* beunum, unumi yo'q.
ineligibility [ɪnˈelɪdʒəˈbɪlətɪ] *n* noloyiqlik, layoqatsizlik.
ineligible [ɪnˈelɪdʒəbl] *a* to'g'ri kelmaydigan, noloyiq, layoqatsiz.
inept [ɪˈnept] *a* qobiliyatsiz, qo'lidan kelmaydigan, uddasidan chiqa olmaydigan.
inequality [ˌɪnɪˈkwɔlətɪ] *n* tengsizlik, farq, baravar emaslik.
inequitable [ɪnˈekwɪtəbl] *a* adolatsiz, nohaq.
ineradicable [ˌɪnɪˈrædɪkəbl] *a* yo'q qilib (yo'qotib) bo'lmaydigan, bitirib (barham berib) bo'lmaydigan, tuzalmas.
inert [ɪˈnɜ:t] *a* faoliyatsiz; sust, harakatsiz.
inertia [ɪˈnɜ:ʃə] *n* 1) *fiz.* inersiya (*jismlarning tashqi ta'sir bo'lmasa, tinch yoki tekis harakatdagi holatini saqlash xususiyati*); 2) harakatsizlik, sustlik, dangasalik.
inescapable [ˌɪnɪˈskeɪpəbl] *a* qochib bo'lmaydigan, muqarrar, oldini olib bo'lmaydigan.
inessential [ˈɪnɪˈsenʃl] *a* uncha ahamiyati yo'q, unchalik ahamiyatli emas, ikkinchi darajali.
inestimable [ɪnˈestɪməbl] *a* bebaho, qimmatli, qadrli.
inevitability [ɪnˌevɪtəˈbɪlətɪ] *n* muqarrarlik, ilojsizlik, iloji yo'qlik.
inevitable [ɪnˈevɪtəbl] *a* qochib qutulib bo'lmaydigan, o'zgartirib bo'lmaydigan, muqarrar.
inevitably [ɪnˈevɪtəblɪ] *n* muqarrarlik, o'zgartirib bo'lmaslik.
inexact [ˌɪnɪgˈzækt] *a* noaniq, noto'g'ri, xato, yanglish; 2) beparvo, e'tiborsiz.
inexcusable [ˌɪnɪkˈskju:zəbl] *a* kechirib bo'lmaydigan, unutib bo'lmaydigan.
inexhaustible [ˌɪnɪgˈzɔ:stəbl] *a* tamom bo'lmaydigan, bitmas-tuganmas.
inexorable [ɪnˈeksərəbl] *a* rahmsiz, shafqatsiz.
inexpedient [ˌɪnɪkˈspi:dɪənt] *a* maqsadga muvofiq bo'lmagan, nomuvofiq.
inexpensive [ˌɪnɪkˈspensɪv] *a* arzon, qimmat emas.
inexperience [ˌɪnɪkˈspɪərɪəns] *n* tajribasizlik, g'orlik.
inexperienced [ˌɪnɪkˈspɪərɪənst] *a* tajribasiz, g'o'r.
inexpert [ɪnˈekspɔ:t] *a* noshud; tajribasiz, mahoratsiz.
inexpiable [ɪnˈekspɪəbl] *a* ashaddiy, murosasiz.
inexplicable [ˌɪnɪkˈsplɪkəbl] *a* tushunarsiz, tushunib bo'lmaydigan, ta'riflab bo'lmaydigan.
inexplicit [ˌɪnɪkˈsplɪsɪt] *a* noaniq, noma'lum.
inexpressible [ˌɪnɪkˈspresəbl] *a* ifodalab bo'lmaydigan, tasvirlab bo'lmaydigan.
inexpressive [ˌɪnɪkˈspresɪv] *a* ifodasiz, hech narsa anglatmaydigan, ma'nosiz, ta'riflab bo'lmaydigan.
inextinguishable [ˌɪnɪkˈstɪŋgwɪʃəbl] *a* doimiy, mangu, to'xtovsiz, uzluksiz.
inextricable [ˌɪnekˈstrɪkəbl] *a* ajralmas, bo'linmas, ajratib bo'lmaydigan, uzviy bog'liq.
infallible [ɪnˈfæləbl] *a* 1) yanglishmaydigan, xato qilmaydigan, ko'zi pishgan; 2) ishonchli, ishonsa bo'ladigan.
infamous [ˈɪnfəməs] *a* 1) yomonlik bilan nomi chiqqan; 2) uyatga qoldiradigan, isnod keltiradigan.
infancy [ˈɪnfənsɪ] *n* 1) go'daklik, yoshlik; 2) *yur.* balog'atga yetmaganlik.
infant [ˈɪnfənt] **1.** *a* 1) boshlang'ich; 2) bolalarga xos bo'lgan; **2.** *n* go'dak; yosh bola, chaqaloq.
infanticide [ɪnˈfæntɪsaɪd] *n* bolalarni o'ldiradigan (qiradigan) kishi; farzandkushlik.
infantile [ˈɪnfəntaɪl] *a* go'daklarcha, yosh bolalarcha.
infantry [ˈɪnfəntrɪ] *n* piyoda askarlar, piyodalar.
infatuated [ɪnˈfætjueɪtɪd] *a* o'tkinchi sevgiga oid.
infatuation [ɪnˌfætjuˈeɪʃn] *n* o'tkinchi sevgiga oid, sevib qolish.
infect [ɪnˈfekt] *v* yuqtirmoq.
infection [ɪnˈfekʃn] *n* 1) infeksiya (*kasallikning yuqishi*); 2) zaharlanish, yuqtirish; 3) yuqumli kasal.
infectious [ɪnˈfekʃəs] *a* infeksion, yuqumli.
infelicity [ˌɪnfəˈlɪsətɪ] *a* baxtsizlik, omadsizlik.
infer [ɪnˈfɜ:] *v* (**inferring; inferred**) xulosa qilmoq, kelib chiqmoq.
inference [ˈɪnfrəns] *n* kelib chiqish, xulosa qilish.
inferior [ɪnˈfɪərɪə] *n* tobe, itoat etish, bo'ysunadigan, qaram odam.
inferiority [ɪnˌfɪərɪˈɔrətɪ] *n* qadr-qimmat, e'tibor, obro'.
infernal [ɪnˈfɜ:nl] *a* 1) do'zaxga oid, do'zax...; 2) la'nati.
inferno [ɪnˈfɜ:nəu] *n* (*pl* **-os** [-əuz]) do'zax; o'ta issiq joy.
infertile [ɪnˈfɜ:taɪl] *a* 1) hosilsiz, unumsiz (*yerga nisbatan*); 2) tug'maydigan.
infertility [ˌɪnfəˈtɪlətɪ] *n* 1) hosilsiz, unumsiz; 2) naslsiz.
infest [ɪnˈfest] *v* to'lib toshmoq, qaynamoq.
infested [ɪnˈfestɪd] *a* to'lib ketgan, bosib ketgan.
infidel [ˈɪnfɪdl] *n* 1) xudosiz; 2) dinsiz, dinga ishonmaydigan; 3) butparast.
infiltrate [ˈɪnfɪltreɪt] *v* ichiga kirmoq, suqilib kirmoq.
infiltration [ˌɪnfɪlˈtreɪʃn] *n* ichiga kirish, suqilib kirish.
infiltrator [ˈɪnfɪltreɪtə] *ni* josus, ayg'oqchi.
infinite [ˈɪnfɪnət] *a* 1) cheksiz, bepoyon; 2) *gram.* noaniq.
infinitely [ˈɪnfɪnətlɪ] *adv* juda, nihoyatda.
infinitive [ɪnˈfɪnətɪv] **1.** *n gram.* infinitiv; fe'lning noaniq shakli; **2.** *a* noaniq.
infinity [ɪnˈfɪnətɪ] *n* cheksiz, bepoyon, cheki yo'q.
infirm [ɪnˈfɜ:m] *a* kuchsiz, zaif, xasta, quvvatsiz.

infirmary [ɪn´fɔ:mərɪ] *n* kasalxona, kazarma.
infirmity [ɪn´fɔ:mətɪ] *n* kuchsizlik, zaiflik, quvvatsizlik.
inflame [ɪn´fleɪm] *v* 1) alanga olmoq; 2) *tib.* yallig'lanmoq, qizarmoq, shishmoq.
inflamed [ɪn´fleɪmd] *a* qizargan, shishgan.
inflammable [ɪn´flæməbl] *a* tez yonadigan, yonuvchan.
inflammation [ˌɪnflə´meɪʃn] *n tib.* yallig'lanish; gazak.
inflammatory [ɪn´flæmətərɪ] *a* hayajonlantiradigan, ta'sirlantiradigan, to'lqinlantiradigan.
inflatable [ɪn´fleɪtəbl] *a* havo to'ldiriladigan, shishiriladigan.
inflate [ɪn´fleɪt] *v* havo to'ldirmoq, havo bilan shishirmoq.
inflation [ɪn´fleɪʃn] *n* 1) pulning qadrsizlanishi (*inflatsiya*); 2) puflab shishirish.
inflationary [ɪn´fleɪʃnərɪ] *a* inflatsiyaga oid.
inflect [ɪn´flekt] *v* 1) ovozini o'zgartirmoq, tuslanmoq; 2) so'zning oxirgi bo'g'inini o'zgartirmoq; 2) egish, bukish.
inflection [ɪn´flekʃn] *n* 1) ovozini o'zgartirish, tuslanish; 2) so'z.
inflective [ɪn´flektɪv] *a gram.* o'zgaruvchi, turlanuvchi.
inflexibility [ɪnˌfleksə´bɪlətɪ] *n* egilmaslik, qayrilmaslik.
inflexible [ɪn´fleksəbl] *a* bukilmas, egilmaydigan, qayrilmaydigan.
inflexion [ɪn´flekʃn] = **inflection.**
inflict [ɪn´flɪkt] *v* qo'ymoq, solmoq, ortmoq.
in-flight [ˌɪn´flaɪt] *a* uchish davomidagi, parvoz vaqtidagi.
inflorescence [ˌɪnflə´resns] *n bot.* gullash.
inflowing [ɪn´fləʊɪŋ] *n* 1) quyilish (*daryo haqida*); 2) jilg'a, irmoq.
influence [´ɪnfluəns] **1.** *n* ta'sir; ta'sir (etish) ko'rsatish; **2.** *v* ta'sir ko'rsatmoq, ta'sir etmoq.
landscape-architecture [ˌlænskeipˈɑ:kitekʧə] *n* manzarali bog'dorchilik.

landscape-gardener [ˌlænskeipˈgɑ:dnə] *n* bog'-bon-dekorator (*dekorator – bog'larni bezovchi musavvir*).

landscape-painter [ˈlænskeip,peintə] *n* tabiat manzarasini tasvirlovchi odam.

landslide [ˈlændslaid] *n* 1) o'pirilish, siljish; 2) siyosiy partiyalar orasida ovoz taqsimotining keskin o'zgarishi.

landslip [ˈlændslip] = **landslide 1).**

landsman [ˈlændzmən] *n* 1) quruqlikda yashovchi kishi; 2) tajribasiz dengizchi.

land-surveyor [ˈlændsə,veiə] *n* yer o'lchovchi kishi.

landtag [ˈlɑ:ntɑ:k] *n nem.* lantag (*Germaniya va boshqa ba'zi davlatlarda mahalliy hukumat*).

land-tax [ˈlændtæks] *n* yer solig'i.

land-tenure [ˈlænd,tenjuə] *n* yerga egalik qilish.

land waiter [ˈlænd,weitə] *n* bojxona nazoratchisi.

landward(s) [ˈlændwəd(z)] *adv* qirg'oqqa, qirg'oq tomonga.

land-wind [ˈlændwind] = **land-breeze.**

lane [lein] *n* tor yo'l, so'qmoq yo'l, tor ko'cha.

lang syne [ˌlæŋˈsain] **1.** *n shotl* qadimgi zamon; **2.** *adv* qadim zamonda, o'tmishda

language [ˈlæŋgwidʒ] *n* til.

languid [ˈlæŋgwid] *a* so'ligan, xumorli, bo'sh, bo'shashgan, sust.

languish [ˈlæŋgwiʃ] **1.** *n* xumorli intizorlik, horg'inlik, majolsizlik, **2.** *v* 1) qiynalmoq, azob chekmoq; 2) bo'shashmoq, lanj bo'lmoq.

languishing [ˈlæŋgwiʃiŋ] *a* kuchsiz, bo'sh.

languor [ˈlæŋgə] *n* kuchsizlik, zaiflik, hayotda harakat yo'qligi, sustlik, bo'shashish.

languorous [ˈlæŋgərəs] *a* 1) so'ligan; dim (*atmosfera haqida*); 2) bo'shashgan, susaygan, lanj.

laniard [ˈlænjəd] = **lanyard**.

lanital [ˈlænitəl] *n* sun'iy jun.

lank [læŋk] *a* novcha va oriq; ozg'in, oriq(roq).

lanky [ˈlæŋki] *a* bo'yi uzun, novcha.

lanolin [ˈlænəlin] *n* lanolin (*qo'y yungini yuvganda chiqadigan sarg'ish moy*).

lansquenet [ˈlænskinet] *n* 1) landsknext (*o'rta asrlarda Yevropada: yollanma askar*); 2) landsknext (*qarta o'yinining nomi*).

lantern [ˈlæntən] **1.** *n* 1) fonar; fonus (*shishali chiroq*); **majic ~** sehrli fonar; 2) *tex.* tishli g'ildirak, **2.** *v* fonus bilan yoritmoq.

lanthanum [ˈlænθənəm] *n* lantan (*kimyoviy element*), oq metall.

lanyard [ˈlænjəd] *n* tasma, bog'ich, kamar.

Laodicean [ˌleiɔudiˈsi:ən] *a* 1) biror narsaga beparvo qaraydigan, loqayd (*diniy va siyosiy masalalarda*).

lap I [læp] *n* 1) etak, bar; 2) tizza; 3) zot; 4) bag'ir

lap II [læp] **1.** *n* shapillash, shovullash; **2.** *v* shapillamoq, urilib sachramoq, chayqalmoq.

lap-board [ˈlæpbɔ:d] *n* taxta (*tizzaga qo'yiladigan, stolning o'rnida ishlatiladigan taxta*).

lap-dog [ˈlæpdɔg] *n* kichkina baroq it, uy iti.

lapel [lə ˈpel] *n* qaytarma yoqa.

lapidary [ˈlæpidəri] **1.** *a* qirralaydigan, tarashlaydigan; **2.** *n* toshga rasm soladigan usta.

lapidate [ˈlæpideit] *v* toshlar bilan urmoq.

lapidify [lɔˈpidifai] *v* toshga aylantirmoq.

lapis lazuli [ˌlæpisˈlæzjulai] *n* lojuvard (*bezak buyumlar ishlanadigan ko'k rangli mineral*).

lappet [ˈlæpit] *n* tax, qat, burma.

Lappish [ˈlæpiʃ] *a* saamlarga, saam xalqiga oid.

lapse [læps] **1.** *n* 1) palapartishlik natijasida qilingan xato; 2) ishni chapga og'ishi; 3) vaqt o'tishi; 4) harorat pasayishi, bosimning pasayishi; **2.** *v* tushmoq (*ruhan*), og'moq; kuchini yo'qotmoq.

lapsed [læpst] **1.** *p. p.* **lapse 2.** *dan*; **2.** *a* sobiq, ilgarigi, o'tmishdagi.

lapsus [ˈlæpsəs] *n lot.* dag'al, qo'pol xato, yanglish, sahv.

lapwing [ˈlæpwiŋ] *n zool.* qizqush (*baliqchilar turkumiga oid bir qush*).

larcenous [ˈlɑ:sənəs] *a* 1) o'g'rilarga oid, 2) o'g'rilikda ayblangan.

larceny [ˈlɑːsənɪ] *n* o'g'rilik; **petty ~** mayda o'g'irlik.
larch [lɑːtʃ] *n bot.* tilog'och (*ignabarglilarga mansub daraxt*).
lard [lɑːd] **1.** *n* cho'chqa yog'i; **2.** *v* cho'chqa go'shtini surtmoq.
larder [ˈlɑːdə] *n* ombor, omborxona (*go'sht va boshqa oziq-ovqatlar uchun*).
lardy [ˈlɑːdɪ] *a* yog'i ko'p, seryog', moyli, yog'li.
lares [ˈlɑːreɪz] *lot. n pl* ruh, arvoh (*qadimgi rimliklarning e'tiqodiga ko'ra; ota-bobolarning barhayot avlodlarga homiylik qiluvchi ruhi*).
large [lɑːdʒ] **1.** *a* 1) katta, ulkan, azim, yirik, zo'r; **~ dog** katta it; **~ order** qiyin ish; 2) keng; **~ views** keng dunyoqarash; **2.** *adv* 1) mufassal, to'la, to'liq; 2) keng, katta; 3) katta-katta qilib.
large-handed [ˌlɑːdʒˈhændɪd] *a* saxiy, qo'li ochiq, saxovatli, oliyhimmat, himmatli, hech narsani ayamaydigan.
large-hearted [ˌlɑːdʒ ˈhɑːtɪd] *a* muruvvatli, himmatli, oliyhimmat, oliyjanob.
largely [ˈlɑːdʒlɪ] *adv* 1) ma'lum (ko'p) darajada; 2) keng ko'lamda.
large-minded [ˌlɑːdʒˈmaɪndɪd] *a* 1) chidasa bo'ladigan; 2) keng fikrli.
largeness [ˈlɑːdʒnəs] *n* 1) katta o'lcham; 2) keng fikrli; 3) muruvvat.
large scale [ˌlɑːdʒ ˈskeɪl] *a* katta ko'lamdagi.
largess(e) [lɑːˈdʒes] *n* saxiylik, ochiqqo'llik, oliyhimmatlik, saxovat, xayr-ehson.
lariat [ˈlærɪət] **1.** *n* arqon (*otni bog'lash uchun*); **2.** *v* arqon bilan ushlamoq.
lark I [lɑːk] *n* to'rg'ay, so'fito'rg'ay.
lark II [lɑːk] **1.** *n* hazil; **what a ~!** qanday yaxshi; **2.** *v* hazil qilmoq, hazillashmoq.
larky [ˈlɑːkɪ] *a* quvnoq, hazilni yaxshi ko'radigan.
larmier [ˈlɑːmɪə] *n me'mor.* nov (*deraza oldi novi*).
larrikin [ˈlærɪkɪn] *a* dag'al, qo'pol, to'ng, xuligan.
larrup [ˈlærʌp] *v so'zl.* urmoq, yanchmoq, maydalamoq.
larva [ˈlɑːvə] *n* (*pl* **-vae**) lichinka (*kapalak qurti va shu kabilarning tuxumidan chiqqan qurti*), itbaliq.
larvae [ˈlɑːviː] *pl* **larva** *dan.*
laryngitis [ˌlærɪnˈdʒaɪtɪs] *n tib.* laringit (*hiqildoq shilliq pardasining yallig'lanishi*).
laryngology [ˌlærɪŋˈgɔlədʒɪ] *n* laringologiya (*hiqildoq anatomiyasi, fiziologiyasi va kasalliklari haqidagi fan*).
laryngoscope[ləˈrɪŋgəskəup] *n* laringoskop (*hiqildoq shilliq pardasining yallig'lanishini tekshiradigan asbob*).
larynx [ˈlærɪŋks] *n* hiqildoq, bo'g'iz.
Lascar [ˈlæskə] *n* hind dengizchisi, matrosi.
lascivious [ləˈsɪvɪəs] *a* shahvoniy hisga berilgan, shahvatparast.
laser [ˈleɪzə] *n fiz.* lazer (*to'plangan nur dastasi manbayi, generatori*).
lash [læʃ] **1.** *v* urmoq, savalamoq, qamchilamoq; **2.** *n* 1) o'rma qamchi; 2) kiprik.
lasher [ˈlæʃə] *n* 1) to'sish, bo'g'ish, 2) to'silgan suv.
lashing [ˈlæʃɪŋ] **1.** *pres. p.* **lash 1.** *dan*; **2.** *n* 1) savalash, qamchilash, urish; 2) arqon, ip (*bog'lash uchun*).
lash-up [ˈlæʃʌp] *n* vaqtinchalik moslashish.
lass [læs] *n shotl.* qizcha, qiz bola, juvon.
lassie [ˈlæsɪ] *n* jonginam, jonim, go'zal, jonona (*qizlarga va ayollarga murojaat qilganda erkalatib aytiladigan so'z*).
lassitude [ˈlæsɪtjuːd] *n* charchaganlik, toliqqanlik, charchoq, horg'inlik.
lasso [læˈsuː] **1.** *n* (*pl* **-os** [-əuz]) lasso, kamand (*hayvonlarni tutish uchun tashlanadigan sirtmoqli arqon*); **2.** *v* arqon bilan tutmoq (ushlamoq).
last I [lɑːst] **1.** *v* davom etmoq, cho'zilmoq; **2.** *a* oxirgi, so'nggi, o'tgan; **~ name** familiya; **3.** *n* sabr, bardosh, matonat, toqat.
last II [lɑːst] *n* qolip, shon (*poyafzaldo'zlikda*).
lasting [ˈlɑːstɪŋ] *a* 1) uzoq davom etgan, doimiy; 2) mustahkam, pishiq; **a ~ colour (cloth)** mustahkamlangan rang (*mato*).
lastly [ˈlɑːstlɪ] *adv* nihoyat, axir, natijada, oxirgi marta.
latch [lætʃ] **1.** *n* 1) qulf; 2) tamba; **2.** *v* 1) qulflamoq; 2) zanjirlamoq.
latch-key [ˈlætʃkiː] *n* Amerika qulfining kaliti.
late [leɪt] *a* 1) kechki, oxirgi; 2) sobiq; **he was ~ for the train** u poyezdga kechikdi; **in ~ summer** yozning oxirida; **the ~ president** sobiq prezident; **~r on** keyinchalik.
lateen [ləˈtiːn] *a* uchburchakli.
lately [ˈleɪtlɪ] *adv* yaqinda, keyingi vaqtlarda, oxirgi paytlarda.
latency [ˈleɪtənsɪ] *n* yashirin holat.
lateness [ˈleɪtnəs] *n* kechikish, kech qolish.
latent [ˈleɪtənt] *a* yashirin, maxfiy, yashirin holatda.
later [ˈleɪtə] *adv* kechroq, keyinroq, sal keyin.
lateral [ˈlætərəl] **1.** *a* yon tomondagi, yonboshdagi, yondan keladigan; **2.** *n* 1) yon tomon; 2) shox, novda; 3) shoxobcha, tarmoq, ayrilish.
latest [ˈleɪtɪst] *a* eng (*juda kam*), qisqa, kech; eng oxirgi.
latex [ˈleɪteks] *n bot.* sutsimon shira (*kauchukli o'simliklarda*).
lath [lɑːθ] *n* planka, uzun taxtacha.
lathe [leɪð] **1.** *n* tokarlik (*metall yoki yog'och yo'nish*) dastgohi; **2.** *v* tokarlik dastgohida sozlamoq.
lathee [lɑːˈtiː] *n hind.* to'qmoq, tayoq.
lather [ˈlɑːðə] *n* sovun ko'pigi.
lathery [ˈlɑːðərɪ] *a* sovun surtilgan.
lathi [lɑːˈtɪ] = **lathee.**
lathing [ˈlɑːθɪŋ] *n* tom yopish, suvash va h.k. uchun qator *yoki* katak-katak qilib qoqilgan taxtalar.

lathy [ˈlɑːθɪ] *a* bo'yi uzun; oriq.
latibulize [lə'tɪbjulaɪz] *v* inda (uyada) uyquga ketmoq.
Latin [ˈlætɪn] *n* lotin tili.
latinize [ˈlætɪnaɪz] *v* lotinlashtirmoq.
latitude [ˈlætɪtjuːd] *n* kenglik.
latrine [lə'triːn] *n* jamoat joyidagi hojatxona.
latter [ˈlætə] **1.** *a* 1) yaqinda bo'lgan, yaqindagi; 2) oxirgisi, oxiridagi; **2.** *n* ikkitadan ikkinchisi (oxirgisi, keyingisi).
latter-day [ˈlætədeɪ] *a* 1) zamonaviy, hozirgi; 2) eng yangi.
latterly [ˈlætəlɪ] *adv* yaqinda, yaqindagina.
lattermost [ˈlætəməʊst] *a* oxirgi, keyingi, so'nggi.
lattice [ˈlætɪs] **1.** *n* panjara; **2.** *v* panjara o'rnatmoq.
latticed [ˈlætɪst] *a* panjarali, panjarasimon.
Latvian [ˈlætvɪən] *a* Latviyaga va latviyaliklarga oid.
laud [lɔːd] **1.** *n* (*oliy darajadagi*) maqtov, madh, sano; **2.** *v* maqtamoq, madh etmoq.
laudable [ˈlɔːdəbl] *a* maqtasa bo'ladigan, maqtovga sazovor.
laudanum [ˈlɔdnəm] *n* afyun nastoykasi, damlamasi.
laudation [lɔː ˈdeɪʃn] *n* maqtov, tasanno, hamd-u sano, madhiya.
laudative [ˈlɔːdətɪv] = **laudatory.**
laudatory [ˈlɔːdətərɪ] *a* maqtovga oid, maqtovli, maqtalgan, maqtovdan iborat bo'lgan.
laugh [lɑːf] **1.** *n* kulgi, kulish; **to raise a ~** kuldirmoq; **2.** *v* kulmoq; **to ~ at a joke** hazildan kulmoq.
laughable [ˈlɑːfəbl] *a* kuldiradigan, kulgili; **~ character** kulgili ko'rinish.
laughing [ˈlɑːfɪŋ] **1.** *pres. p.* **laugh 2.** *dan*; **2.** *a* kulgili, kulayotgan, kulgiga to'la.
laughing-gas [ˈlɑːfɪŋgæs] *n kim.* sarxush qiladigan gaz.
laughing-stock [ˈlɑːfɪŋstɔk] *n* kulgi, masxara; **to make a ~ of smb.** kimnidir masxara qilmoq.
laughter [ˈlɑːftə] *n* kulgi, kulish, qahqaha.
launch I [lɔːntʃ] **1.** *v* 1) tushirmoq (*suvga*); 2) boshlamoq, yo'lga qo'ymoq; **to ~ a new enterprise** yangi korxona ochmoq; 3) uchirmoq, otmoq; **2.** *n* 1) suvga tushirish (*kemani*); 2) chiqarish; boshlash; 3) uchirish.
launch II [lɔːntʃ] *n* 1) barkas (*ko'p eshkakli katta qayiq*); 2) kater (*maxsus kichik kema*); **pleasure ~** sayr qilish qayig'i.
launcher [ˈlɔːntʃə] *n* (*raketalarni*) uchirish qurilmasi.
launching pad [ˈlɔːntʃɪŋpæd] = **launching ramp.**
launching ramp [ˈlɔːntʃɪŋ ˈræmp] *n harb.* (*raketalarni*) uchirish qurilmasi.
launching site [ˈlɔːntʃɪŋ ˈsaɪt] *n harb.* ishga tushirish maydoni.
launder [ˈlɔːndə] *v* kiyimlarni yuvib dazmollamoq.
launderette [ˌlɔːn'dret] *n* o'z-o'ziga xizmat qilish, kir yuvish ishxonasi (kirxonasi).
laundress [ˈlɔːndrɪs] *n* kir yuvuvchi ayol.
laundromat [ˈlɔːndrəmæt] *n amer.* kir yuvish korxonasi.
laundry [ˈlɔːndrɪ] *n* kir, kirxona; **~ soap** kir sovun.
laureate [ˈlɔːrɪət] **1.** *n* laureat; **2.** *a* 1) g'alaba toji bilan taqdirlangan; 2) boshiga dafna yaprog'idan qilingan g'alaba chambari kiydirilgan.
laurel [ˈlɔrəl] **1.** *n* asl dafna (*daraxti*); **2.** *v* g'alaba toji bilan taqdirlamoq.
laurelled [ˈlɔrəld] **1.** *p. p.* **laurel 2.** *dan*; **2.** *a* mashhur, atoqli, nomi chiqqan
laurel oak [ˌlɔrəl ˈəuk] *n* dafna daraxtining to'nkasi.
lav [læv] *n* 1) kiyinish xonasi; kiyimxona; 2) hojatxona.
lava [ˈlɑːvə] *n* lava (*vulqonlardan otilib chiqadigan suyuq cho'g' modda*).
lavatory [ˈlævətrɪ] *n* hojatxona.
lave [leɪv] *v* yuvmoq.
lavement [ˈleɪvmənt] *n tib.* yuvish, klizma.
lavender [ˈlævəndə] *n bot.* lavanda (*havorang yoki binafsha rang gulli, xushbo'y, doim yashil o'simlik*).
lavender-water [ˈlævəndəˌwɔːtə] *n* lavanda suvi.
laverock [ˈlævərək] **lark I** *dan.*.
lavish [ˈlævɪʃ] **1.** *a* saxiy, qo'li ochiq, hotamtoy, oliyhimmat; **2.** *v* saxiy bo'lmoq.
law [lɔː] *n* qonun, qoida, huquq.
law-abiding [ˈlɔːəˌbaɪdɪŋ] *a* qonunga bo'ysunuvchi.
law-book [ˈlɔːbuk] *n* kodeks (*qonunlar majmuyi*).
law-breaker [ˈlɔːˌbreɪkə] *n* jinoyatchi, qonunbuzar.
law-court [ˈlɔːkɔːt] *n* sud.
lawful [ˈlɔːfəl] *a* qonuniy, qonun asosidagi; **~ authority** qonuniy hokimiyat.
lawgiver [ˈlɔːˌgɪvə] *n* qonun chiqaruvchi.
lawk(s) [lɔːk(s)] *int so'zl.* nahotki, rostdanmi.
lawless [ˈlɔːləs] *a* qonunsiz, noqonuniy.
law-list [ˈlɔːlɪst] *n* yillik yuridik ma'lumotnoma (yo'riqnoma).
lawmaker [ˈlɔːˌmeɪkə] = **lawgiver.**
law-making [ˈlɔːˌmeɪkɪŋ] **1.** *n* qonunlar chiqarish; **2.** *a* qonun chiqarishga oid.
lawn [lɔːn] *n* kichik o'tzor, maysazor.
lawn hockey [ˌlɔːn'hɔkɪ] *n* chim ustidagi xokkey.
lawn-mower [ˈlɔːnˌməuə] *n* o't o'radigan o'roq mashina.
lawn party [ˈlɔːnˌpɑːtɪ] *amer. n* mehmonlarni bog'da kutish.
lawn-sprinkler [ˈlɔːnˌsprɪŋklə] *n* maysalarga suv quyadigan mashina.
lawn tennis [ˌlɔːn ˈtenɪs] *n sport.* tennis.

lawny [ˈlɔːnɪ] *a* 1) batistdan tikilgan; 2) yashil, o'tlar bilan qoplangan.
law-offender [ˈlɔːəˌfendə] = **law-breaker.**
law-officer [ˈlɔːˌɔfɪsə] *n* sud idorasi xodimi.
laws [lɔːz] = **lawk(s).**
lawsuit [ˈlɔːsjuːt] *n* sud jarayoni.
lawyer [ˈlɔːjə] *n* advokat, yurist, oqlovchi, huquqshunos.
lax [læks] *a* kuchsiz, bo'sh, so'lg'in, bo'shashgan.
laxative [ˈlæksətɪv] **1.** *n* surgi dori; **2.** *a* ich suradigan; bo'shashtiruvchi.
laxity [ˈlæksətɪ] *n* 1) sustlik, bo'shashganlik; 2) beparvolik, mas'uliyatsizlik; 3) noaniqlik, noma'lumlik.
lay I [leɪ] **1.** *v* (**laid; laid**) qo'ymoq, joylamoq; **2.** *n* o'rin, joy; joylashish tartibi.
lay II [leɪ] *v past.* **lie II** *dan.*
layabout [ˈleɪəbaut] *n so'zl.* bekorchi, yalqov, tanbal.
lay-by [ˈleɪbaɪ] *n* yo'l ustidagi avtomobillar to'xtash joyi.
layer [ˈleɪə] *n* 1) qatlam; 2) *bot.* o'simliklarning bir novdasini ko'mib yangi tup hosil qilish va shu yo'l bilan hosil qilingan ko'chat.
layman [ˈleɪmən] *n* mutaxassis bo'lmagan kishi.
layout [ˈleɪaut] *n* 1) joylashish (o'rnashish) tartibi; 2) maket (*kitob, gazetalarning*); 3) reja, chizma.
laze [leɪz] *v so'zl.* yalqovlik (bekorchilik) qilmoq.
laziness [ˈleɪzɪnəs] *n* dangasalik, ishyoqmaslik.
lazy [ˈleɪzɪ] *n* dangasa, tanbal, ishyoqmas.
lazy-bones [ˈleɪzɪbəunz] *n so'zl.* dangasa, tanbal, ishyoqmas, yalqov.
lea [liː] *n she'r.* maysazor, o'tloq.
leach [liːtʃ] *v* suyuqlikda eritib ajratib olmoq.
lead [led] *v* (**led**) rahbarlik qilmoq, boshqarmoq.
leaded [ˈledɪd] *a* qo'rg'oshinlangan.
leaden [ˈledn] *a* qo'rg'oshinga oid.
leader [ˈliːdə] *n* yetakchi, rahbar, boshliq.
leaderette [ˌliːdəˈret] *n* gazetadagi kichkina maqola.
leadership [ˈliːdəʃɪp] *n* rahbarlik, yetakchilik.
leader-writer [ˈliːdəˌraɪtə] *n* bosh maqola muallifi (*gazeta, jurnalda*).
lead glance [ˈledglɑːns] *n min.* yaltiroq qo'rg'oshintosh, qo'rg'oshin rudasi.
lead-in [ˈliːdɪn] *n* kiritilish (*o'rnatish*) o'rni.
leading [ˈliːdɪŋ] *a* bosh, yetakchi, ilg'or, oldindagi.
leading-strings [ˈliːdɪŋstrɪŋz] *n pl* (*bolani tutib turish uchun xizmat qiladigan*) qayish, tasma.
lead-lotion [ˌled ˈləuʃn] *n* qo'rg'oshinli malham.
lead-off [ˈliːdˌɔf] *a* bosh, boshi, uchi, boshlanishi.
lead pencil [ˌledˈpensl] *n* grafit qalam.
leadsman [ˈledzmən] *n deng.* dengiz chuqurligini o'lchaydigan kishi.
lead time [ˈliːdtaɪm] *n* 1) yangi mahsulotni o'zlashtirish vaqti, 2) ushlanish, cho'zilish.
lead up [ˈliːdʌp] *n* 1) tayyorgarlik, 2) muqaddima.
leaf [liːf] **1.** *n* (*pl* **leaves**) 1) barg, yaproq; **the fall of the ~** bargning to'kilishi; **~ bridge** ko'tariladigan ko'prik; **to turn over a new ~** yangi hayotni boshlamoq; 2) varaq; **2.** *v* 1) varaqlamoq; 2) barglari to'kilmoq.
leafage [ˈliːfɪdʒ] *n* barglar, yaproqlar.
leaflet [ˈliːflət] *n* 1) *bot.* yaproqcha; 2) varaqa.
leafstalk [ˈliːfstɔːk] *n bot.* barg qalamchasi, yaproq bandi
leafy [ˈliːfɪ] *a* barglar bilan qoplangan, bargli. **~ forest** bargli o'rmon.
league [liːg] **1.** *n* 1) ittifoq, hamdo'stlik, birlashma; 2) liga; **2.** *v* birlashmoq.
leaguer I [ˈliːgə] *n* birlashma (ittifoq) a'zosi.
leaguer II [ˈliːgə] *n* qurshovdagi lager.
leak [liːk] **1.** *n* o'tib ketish, oqish; **2.** *v* oqmoq, o'tib ketmoq.
leakage [ˈliːkɪdʒ] *n* oqish, chakka (*tomdan o'tadigan chakka*).
leaky [ˈliːkɪ] *a* teshilgan.
leal [liːl] *a shotl.* to'g'ri, sodiq.
lean [liːn] **1.** *a* oriq, ozg'in, kamchil, siyrak, **~ years** hosilsiz yil, kamhosil yil; **2.** *n* yog'siz go'sht; **3.** *v* 1) og'moq, qayrilmoq; **to ~ to the right** o'ngga og'moq; 2) suyanmoq; **to ~ against a wall** devorga suyanmoq, **~ back** orqaga tashlamoq; **~ forward** oldinga og'moq.
leaning [ˈliːnɪŋ] *n* mayl, havas, qiziqish.
leant [lent] *past., p. p.* **lean 3.** *dan.*
lean-to [ˈliːntuː] *n* bostirma, ayvon.
leap [liːp] **1.** *n* 1) sakrash, irg'ish; **to take a ~** sakramoq, 2) to'siq, g'ov; **2.** *v* sakramoq.
leap-day [ˈliːpdeɪ] *n* 29-fevral (*kabisa kuni*).
leap-frog [ˈliːpfrɔg] **1.** *n* tartibsizlik, beqarorlik; **2.** *v* sakrab o'tmoq; hatlamoq.
leapt [lept] *past., p. p.* **leap 2.** *dan.*
leap-year [ˈliːpjɪəː] *n* kabisa yil.
learn [ləːn] *v* (**learnt, learned**) o'qimoq, saboq olmoq; o'rganmoq; **to ~ English** ingliz tilini o'rganmoq.
learned [ˈləːnɪd] **1.** *past., p. p.* **learn** *dan*; **2.** *a* o'rgatilgan.
learner [ˈləːnə] *n* o'rganuvchi, o'quvchi, talaba; **advanced ~** yaxshi tayyorlangan o'quvchi.
learning [ˈləːnɪŋ] **1.** *pres. p.* **learn** *dan*; **2.** *n* o'qish, ta'lim olish; **the ~ of language** tilni o'rganish.
learnt [ləːnt] *past., p.p.* **learn** *dan.*
lease I [liːs] **1.** *n* ijara, kira; **to grant smth. by ~** ijaraga biror narsani bermoq; **2.** *v* ijara bermoq.
lease II [liːs] *n to'q.* ip taqsimlaydigan asbob.
leasehold [ˈliːshəuld] *n* 1) ijara, kiradan foydalanish; 2) ijaraga olingan narsa.
leaseholder [ˈliːshəuldə] *n* ijaraga olgan odam, ijarachi.
leash [liːʃ] *n* it arqoni, tasmasi.
least [liːst] *a* eng kam, oz; **the ~ chance** eng oz imkoniyat.

leastways [ˈli:stweɪz] *adv* eng kamida, oz (kam) deganda; ozi bilan, hech bo'lmaganda, loaqal, juda bo'lmasa.

leastwise [ˈli:stwaɪz] = **leastways.**

leather [ˈleðə] *n* pishirilgan teri, charm (*charmdan qilingan narsalar: koptok, qayish*).

leather-back [ˈleðəbæk] *n* terisi qalin toshbaqa.

leather-cloth [ˈleðəklɔθ] *n* gazlama, mato.

leathercoat [ˈleðəkəut] *n* po'sti qattiq olma.

leatherette [ˌleðəˈret] *n* sun'iy yo'l bilan qilingan charm.

leather-head [ˈleðəhed] *n so'zl.* to'nka, ahmoq, galvars.

leathern [ˈleðən] *a* charmdan (teridan) qilingan.

leather-neck [ˈleðənek] *n so'zl.* dengiz piyoda qo'shinlarining askari.

leathery [ˈleðərɪ] *a* dag'al.

leave [li:v] **1.** *v* jo'nab ketmoq; **2.** *n* ijozat, ruxsat.

leaved [li:vd] *a* barglar bilan qoplangan.

-leaved [-li:vd] murakkab so'zlarda qandaydir bargli degan mazmunni beradi: **large-~ tree** katta bargli daraxt.

leaven [ˈlevn] *n* xamirturush.

leaves [li:vz] *pl* **leaf 1.** *dan.*

leave-taking [ˈli:vˌteɪkɪŋ] *n* xayrlashish.

leavings [ˈli:vɪŋz] *n pl* qoldiq, chiqit, chiqindi

Lebanese [ˌlebəˈni:z] *a* Livanga va livanliklarga oid.

lecher [ˈletʃə] *n* buzuq odam, suyuqoyoq.

lecherous [ˈletʃərəs] *a* buzuq, axloqsiz, suyuqoyoq.

lechery [ˈletʃərɪ] *n* fohisha, fohishabozlik.

lecithin [ˈlesɪθɪn] *n kim.* letsitin.

lectern [ˈlektən] *n* qiya stol (*cherkovda*).

lector [ˈlektɔ:] *n* ovoz chiqarib o'qiydigan kishi.

lecture [ˈlektʃə] **1.** *n* leksiya, ma'ruza; **2.** *v* leksiya (ma'ruza) o'qimoq.

lecturer [ˈlektʃərə] *n* ma'ruzachi.

lectureship [ˈlektʃərəʃɪp] *a* lektorlik, leksiya o'qish.

led [led] *past., p. p.* **lead** *dan.*

ledge [ledʒ] *n* planka, uzun taxtacha.

ledger [ˈledʒə] *n buxg.* katta daftar.

ledger-bait [ˈledʒəbeɪt] *n* yem, xo'rak (*qarmoqqa, qopqonga qo'yilgan yemish*).

lee [li:] *n* himoya, g'ov.

leech [li:tʃ] **1.** *n* zuluk, **2.** *v* zuluk qo'ymoq.

leek [li:k] *n* ko'k piyoz; **wild ~** yovvoyi sarimsoq piyoz.

leer [lɪə] **1.** *n* ko'z qiri bilan qarash; **2.** *v* ayyorlarcha qaramoq, ko'z qiri bilan qaramoq.

leery [ˈlɪərɪ] *a* quv, ayyor, mug'ambir.

lees [li:z] *n* quyqa, qoldiq, cho'kindi.

leeward [ˈli:wəd] **1.** *n* shamolga teskari tomon; **2.** *a* shamolga teskari; **3.** *adv* shamolga teskari tomonga.

leeway [ˈli:weɪ] *n* vaqtni yo'qotish.

left I [left] *a* chap, so'l.

left II [left] *past., p. p.* **leave 1.** *dan.*

left-hand [ˌleftˈhænd] *a* chap, so'l, chap tomondagi.

left-handed [ˌleftˈhændɪd] *a* chapaqay, chap qo'l bilan qilingan; **~ person** chapaqay odam.

left-hander [ˌleftˈhændə] *n* 1) chapaqay; 2) chapaqay bokschi.

leftist [ˈleftɪst] *n* so'l partiya a'zosi.

left-over [ˈleftəuvə] *n* qoldiq, sarqit, qolgan ovqat.

leftward(s) [ˈleftwəd(z)] *adv* chap tomondan, chap tomonga.

leg [leg] **1.** *n* 1) oyoq, 2) boldir; 3) yasama oyoq; **wooden ~** yog'och oyoq; **2.** *v* 1) yurmoq; 2) turtmoq (*oyoq bilan*); 3) oyoqqa zarba bermoq.

legacy [ˈlegəsɪ] *n* meros; **to leave a ~** meros qoldirmoq.

legal [ˈli:gl] *a* yuridik, huquqiy, qonuniy; **~ize** rasmiylashtirmoq.

legalist [ˈli:gəlɪst] *n* qonunshunos.

legality [lɪˈgælətɪ] *n* qonuniylik, qonunga asoslanganlik.

legalize [ˈli:gəlaɪz] *v* qonunlashtirmoq, rasmiylashtirmoq.

legally [ˈli:gəlɪ] *adv* qonuniy ravishda, qonunga asoslanganlik; ochiq, oshkora.

legate I [ˈlegət] *n* Rim papasining diplomatik vakili.

legate II [lɪˈgeɪt] *v* vasiyat qilmoq.

legatee [ˌlegəˈti:] *n* merosxo'r, voris.

legation [lɪˈgeɪʃn] *n* diplomatik vakolatxona.

legato [leˈga:təu] *adv mus* legato (*musiqa asarlarini ijro etishda bir tovushdan ikkinchi tovushga to'xtovsiz va silliq o'tish*).

leg-bail [ˈlegˌbeɪl] *n so'zl.* qochish, qochib ketish.

legend [ˈledʒənd] *n* afsona, rivoyat.

legendary [ˈledʒəndərɪ] **1.** *n* 1) to'plam; 2) afsonalarni to'plovchi kishi; **2.** *a* afsonaviy; **~ heroes** afsonaviy qahramonlar

leggings [ˈlegɪŋz] *n* issiq paypoq.

legibility [ˌledɪʒəˈbɪlətɪ] *n* aniqlik, tushunarlilik.

legible [ˈledʒəbl] *a* tushunarli, aniq.

legion [ˈli:dʒən] *a* 1) legion (*Qadimgi Rimda: yirik askariy otrad*); 2) son-sanoqsiz, behisob.

legionnaire [ˌli:dʒəˈneə] *n* legioner, legion askari.

legislate [ˈledʒɪsleɪt] **1.** *v* qonun ishlab chiqmoq, qonun tuzmoq; **2.** *n* qonun tuzish.

legislation [ˌledʒɪˈsleɪʃn] *n* 1) qonunlar tuzish; 2) qonunlar; **labour ~** mehnat qonunlari.

legislative [ˈledʒɪslətɪv] *a* qonun chiqaruvchi organlar.

legislator [ˈledʒɪsleɪtə] *n* qonun chiqaruvchi organ *yoki* kishi.

legislature [ˈledʒɪsleɪtʃə] *n* 1) huquqshunos; 2) qo-un chiqaruvchi hokimiyat.

legitimate 1. *a* [lɪˈdʒɪtəmət] **1.** *a* qonuniy, haqli; **~ child** qonuniy tug'ilgan bola; **2.** *v* [lɪˈdʒɪtəmeɪt] qonunlashtirmoq, qonuniy deb (tan olmoq) bilmoq.

legless [ˈleglәs] *a* oyoqsiz, oyog'i yo'q.
leg-pull [ˈlegpul] *n so'zl.* o'ynash, o'yin qilish; o'yinni oxiriga olib borish.
legume [ˈlegju:m] *n bot.* loviya (*dukkagi va doni*).
leguminous [le ˈgju:mınәs] *a bot.* loviyaga oid; loviyali.
leisure [ˈleʒә] *n* dam, hordiq, bo'sh vaqt.
leisurely [ˈleʒәlı] *a* shoshilmay, bemalol, xotirjam.
leit-motif [ˈlaıtmәu,ti:f] *n mus.* leymotiv (*musiqa asarida boshdan oxir takrorlanuvchi asosiy kuy*).
lemming [ˈlemıŋ] *n zool.* lemming (*kemiruvchilarga mansub hayvon*).
lemon [ˈlemәn] *n* limon.
lemonade [ˌlemә ˈneıd] *n* limonad (*ichimlik*).
lemur [ˈli:mә] *n zool.* lemur (*yarim maymun*).
lend [lend] *v* (**lent**) qarzga bermoq, vaqtinchalikka berib turmoq; **to ~ money to smb.** kimgadir pul qarz bermoq.
lender [ˈlendә] *n* qarz beruvchi (bergan) kishi.
length [leŋθ] *n* uzunlik; **the ~ of the day** kunning uzunligi.
lengthy [ˈleŋθı] *a* juda uzun, uzoq.
lenience [ˈli:nıәns] *n* yengillik, ko'ngilchanlik.
leniency [ˈli:nıәnsı] = **lenience.**
lenient [ˈli:nıәnt] *a* yengil, bo'sh, ko'ngli bo'sh; marhamatli, iltifotli.
lenitive [ˈlenәtıv] **1.** *a tib.* yumshatadigan, yumshatuvchi; **2.** *n* yumshatadigan, tinchlantiradigan dori.
lenity [ˈlenәtı] *n* 1) rahm, rahmdillik; 2) yumshoqlik.
lens [lenz] *n* (*pl* **-es** [-ız]) linza, optik oyna; lupa.
lent [lent] *past., p. p.* **lend** *dan.*
lentil [ˈlentıl] *n bot.* yasmiq (*o'simlik*).
Leo [ˈli:әu] *n* arslon burji.
leonine [ˈli:әunaın] *a* sherga (arslonga) oid.
leopard [ˈlepәd] *n* qoplon.
leotard [ˈli:әtɑ:d] *n* triko (*sportchilar kiyimi*).
leper [ˈlepә] *n* moxov odam.
leprechaun [ˈleprәkɔ:n] *n* elf (*ruh, pari kabi afsonaviy maxluq*).
leprosy [ˈleprәsı] *n* moxov (*kasallik*).
lese-majesty [ˌli:z ˈmædʒıstı] *n* davlatga xoinlik qilish.
lesion [ˈli:ʒәn] *n* zararlanish, lat yeyish, shikastlanish.
less [les] *a* (**little** *ning qiyosiy darajasi*) kichikroq, kamroq, ozgina, kam.
lessee [leˈsi:] *n* ijaraga olgan (o'tirgan) odam, ijarachi.
lessen [ˈlesn] *v* kamaymoq, ozaymoq; **to ~ speed** tezlikni kamaytirmoq; **to ~ the hours of work** ish kunini qisqartirmoq.
lesser [ˈlesә] *a* kamroq, ozroq, kichkina, oz, kam.
lesson [ˈlesn] *n* dars; **to give ~s in Uzbek** o'zbek tilidan dars bermoq.
lessor [leˈsɔ:] *n* ijaraga beruvchi kishi.
lest [lest] *cj* bo'lmasligi (qilmasligi) uchun.
let [let] *v* (**let**) ruxsat bermoq; ijozat bermoq; qo'yib yubormoq.
lethal [ˈli:θl] *a* o'ldiradigan, halokatli.
lethargic [lәˈθɑ:dʒık] *a* lanj, bo'shashgan.
lethargy [ˈleθәdʒı] *n* 1) uyqu (uzoq uxlash) kasalligi; 2) lanjlik, sustlik.
letter [ˈletә] *n* 1) xat, noma, maktub; 2) harf.
letter-box [ˈletәbɔks] *n* pochta qutisi.
lettered [ˈletәd] *a* 1) ko'p o'qigan, o'qimishli; 2) odobli, tarbiyali.
lettuce [ˈletıs] *n bot.* salat, kohu (*ko'kat o'tlardan bir turi*).
leucocyte [ˈlju:kәusaıt] *n fiz.* oqqon tanachalari.
leuk(a)emia [lu: ˈki:mıә] *n tib.* oqqon kasalligi.
lev [lef] *n* lev (*Bolgariyada: pul birligi*).
levee [ˈlevı] *n* kemalar to'xtaydigan joy.
level [ˈlevl] *n* bosqich, daraja.
level-headed [ˌlevlˈhedıd] *a* og'ir, vazmin, bosiq, fe'li yaxshi.
lever [ˈli:vә] *n* 1) dastak, pishang; 2) vosita; kalit.
leveret [ˈlevәrәt] *n* quyon bolasi.
leviathan [lıˈvaıәθәn] *n* juda katta, bahaybat narsa.
levitate [ˈlevıteıt] *v* ko'tarilmoq, ko'tarmoq.
levity [ˈlevәtı] *n* yengiltaklik, yuzakilik.
levy [ˈlevı] **1.** *n* olish, yig'ish, undirish (*soliqni*); **2.** *v* olmoq, yig'moq, undirmoq.
lewd [lu:d] *a* shahvoniy; suq.
lexical [ˈleksıkәl] *a* leksikaga (so'z boyligiga) oid; lug'aviy.
lexicographer [ˌleksıˈkɔgrәfә] *n* leksikografiya, lug'atshunoslik, lug'atchilik.
lexicography [ˌleksıˈkɔgrәfı] *n* lug'atshunoslik, lug'atchilik.
lexicon [ˈleksıkɔn] *n* lug'at.
liability [ˌlaıәˈbılәtı] *n* majburiyat, javobgarlik, mas'uliyat.
liable [ˈlaıәbl] *a* 1) ehtimol, bo'lishi mumkin bo'lgan; 2) duchor, giriftor; 3) javobgar, mas'ul.
liaise [lıˈeız] *v* aloqani kanda qilmay xat yozishib turmoq.
laision [liːˈeızɔn] *n fr.* (*ishqiy*) munosabat; aloqa.
liar [ˈlaıә] *a* aldoqchi, yolg'onchi.
libel [ˈlaıbәl] **1.** *n* tuhmat, bo'hton; **2.** *v* tuhmat qilmoq, bo'hton qilmoq.
liberal [ˈlıbәrәl] *a* 1) hur (erkin) fikrlovchi; 2) bo'sh, ko'ngilchan; 3) saxiy, saxovatli; 4) gumanitar; **arts ~** gumanitar fanlar.
liberalism [ˈlıbәrәlızm] *n* ko'ngilchanlik.
liberate [ˈlıbәreıt] *n* ozod qilmoq; **to ~ slaves** qullarni ozod qilmoq.
liberation [ˌlıbә ˈreıʃn] *n* ozodlik, ozod qilish.
liberator [ˈlıbәreıtә] *n* ozod qiluvchi, xaloskor.
libertarian [ˌlıbәˈteәrıәn] *n* 1) siyosiy va shaxsiy erkinliklar tarafdori; 2) fuqarolik.
libertine [ˈlıbәti:n] *n* 1) axloqsiz, buzuq odam; 2) *tar.* ozod qilingan qul *yoki* dehqon.
liberty [ˈlıbәtı] *n* ozodlik, erkinlik; **~ of conscience** vijdon erkinligi.

Libra [ˈliːbrə] *n* tarozi burji (vakili).
librarian [laɪˈbrɛərɪən] *n* kutubxona xodimi, kutubxonachi.
library [ˈlaɪbrərɪ] *n* kutubxona.
lice [laɪs] *pl* **louse** *dan.*
licence [ˈlaɪsəns] **1.** *n* 1) ruxsat, ijozat; 2) ruxsatnoma, guvohnoma; **driving ~** haydovchilik guvohnomasi; **2.** *v* ruxsat etmoq; **to ~ a book** kitobning chiqishiga ruxsat bermoq.
licentiate [laɪˈsenʃɪət] *n* litsenziya (diplom) egasi.
licentious [laɪˈsenʃəs] *a* axloqsiz, buzuq.
lichen [ˈlaɪkən] *n* temiratki.
lich-gate [ˈlɪtʃgeɪt] *n* o'likxona, murdaxona.
lick [lɪk] *v* yalamoq.
licking [ˈlɪkɪŋ] *n so'zl.* savalash, qamchilash, urish.
licorice [ˈlɪkərɪs] *n bot.* qizilmiya, shirinmiya (*dukkakli o'simlik*).
lid [lɪd] *n* qopqoq.
lie I [laɪ] **1.** *n* yolg'on, aldash; **2.** *v* aldamoq, yolg'on gapirmoq.
lie II [laɪ] **1.** *v* (**lay; lain**) 1) yotmoq; 2) joylashgan bo'lmoq; **2.** *n* g'or, uya, in.
liege [liːdʒ] *n tar.* qaram bo'lgan kishi.
lien [ˈliːən] *n yur.* qarzdor taraf mulkini xatlash huquqi.
lieu [luː] *n* : **in ~ (of)** o'rniga, badaliga, o'rniga o'rin.
lieutenant [lefˈtenənt] *n* leytenant.
life [laɪf] *n* (*pl* **lives**) hayot, yashash.
lifebelt [ˈlaɪfbelt] *n* ehtiyot (qutqarish) kamari (*suvga cho'kmaslik uchun belga bog'lanadigan po'kak kamar*).
lifeboat [ˈlaɪfbəut] *n* qutqaruvchi qayiq.
life-buoy [ˈlaɪfbɔɪ] *n* qutqarish chambaragi.
life-guard [ˈlaɪfgɑːd] *n* imtiyozli maxsus gvardiya qismi, qo'shini.
lifelong [ˌlaɪflɔŋ] *a* umrbod, umrning oxirigacha davom etadigan.
life-size(d) [ˌlaɪfˈsaɪz(d)] *a* o'z kattaligidagi portret.
lifetime [ˈlaɪftaɪm] *n* umrning uzoqligi; **it is all in a (one's) ~** hayotda hamma narsa bo'lishi mumkin.
lift [lɪft] **1.** *v* ko'tarmoq; yuqorilatmoq; **2.** *n* 1) ko'tarilish; 2) lift.
ligament [ˈlɪgəmənt] *n anat.* pay, paycha.
light [laɪt] **1.** *n* 1) yorug'lik, yoritish; 2) olov; o't; yoritkich; **2.** *a* 1) yorqin; oqargan); 2) yengil; 3) bilinar-bilinmas; **3.** *v* 1) yoqmoq (*gugurt; papiros va h.k.*); 2) yoritmoq.
lighten [ˈlaɪtn] *v* yoritmoq; yorug'lik bermoq; yarqiramoq.
lighter [ˈlaɪtə] *n* 1) yoritgich, yoritish asbobi; 2) zajigalka (*o't chiqaradigan, papiros tutatadigan cho'ntak asbobi*); 3) *deng.* yuk kemasi.
light-headed [ˌlaɪt ˈhedɪd] *a* bosh aylanish, gangish.
light-hearted [ˌlaɪt ˈhɑːtɪd] *a* beg'am, beparvo, betashvish.
lighthouse [ˈlaɪthaus] *n* mayoq (*kemalarga yo'l ko'rsatish uchun dengiz qirg'og'i yoki orollarga qurilgan va signal vositalari bilan jihozlangan minora*).
lighting [ˈlaɪtɪŋ] *n* 1) yorug'lik, chiroq; 2) yoritish moslamasi.
light-minded [ˈlaɪtˈmaɪndɪd] *a* yengiltak, mulohazasiz; oqibatni o'ylamaydigan.
lightning [ˈlaɪtnɪŋ] *n* 1) chaqmoq; 2) shu'la, yashin.
lightning-conductor [ˈlaɪtɪŋkənˌdʌktə] *n* yashinqaytargich.
lights [laɪts] *n* o'pka (*cho'chqa, qo'y va b.*).
lightsome [ˈlaɪtsəm] *a* 1) yorug', yorqin, ravshan, quyoshli; 2) rangi ochiq.
lignite [ˈlɪgnaɪt] *n* lignit (*toshko'mirning bir turi*).
like [laɪk] **1.** *a* o'xshash; **2.** *v* yoqtirmoq.
likelihood [ˈlaɪklɪhud] *n* bo'lishi mumkinlik, ehtimollik.
likely [ˈlaɪklɪ] *a* 1) yuz berishi mumkin bo'lgan, ehtimol; 2) munosib, bop, mos.
liken [ˈlaɪkən] *v* qiyoslamoq, taqqoslamoq, solishtirmoq; o'xshatmoq.
likewise [ˈlaɪkwaɪz] *adv* shunday tarzda.
liking [ˈlaɪkɪŋ] **1.** *pres. p.* **like 2.** *dan*; **2.** *n* xush ko'rish, yaxshi ko'rish, yoqtirish.
lilac [ˈlaɪlək] *n bot.* siren (*xushbo'y, och binafsha rang gul*).
lilt [lɪlt] *n* vazn; maqom, ritm, marom.
lily [ˈlɪlɪ] *n* marvaridgul, nilufar.
limb [lɪm] *n* 1) shox-shabba; 2) odam qo'li *yoki* oyog'i.
limber [ˈlɪmbə] *a* egiluvchan, bukiluvchan.
lime [laɪm] **1.** *n* ohak; **slaked ~** so'ndirilgan ohak; **2.** *v* ohak bilan oqlamoq.
limelight [ˈlaɪmlaɪt] *v* 1) aniq yoritmoq, ravshan qilib ko'rsatmoq; 2) e'tiborni o'ziga jalb qilmoq.
limestone [ˈlaɪmstəun] *n* ohaktosh (*ohakli tog' jinsi*).
limit [ˈlɪmɪt] **1.** *n* chek, chegara; **2.** *v* chegaralamoq, cheklab qo'ymoq.
limitation [ˌlɪmɪ ˈteɪʃn] *n* cheklash, oxirgi muddat.
limited [ˈlɪmɪtɪd] **1.** *p. p.* **limit 2.** *dan*; **2.** *a* 1) chegaralangan; 2) cheklangan.
limousine [ˈlɪməziːn] *n* limuzin (*vengil avtomobil*).
limp [lɪmp] *v* 1) oqsamoq; 2) qiyinchilik bilan yurmoq.
limpid [ˈlɪmpɪd] *a* tiniq, shaffof.
linchpin [ˈlɪntʃˌpɪn] *n* g'ildirak o'qi.
linden [ˈlɪndən] *n* soxta (qalbaki) narsa (*xujjat va sh.k.*).
line [laɪn] **1.** *n* yo'l, chiziq; **2.** *v* chizmoq, chizib o'tkazmoq.
lineage [ˈlɪnɪɪdʒ] *n* 1) kelib chiqishi, nasabi, paydo bo'lishi; 2) nasl, avlod.

linear [ˈlɪnɪə] *a* chiziqli, chiziqlardan tuzilgan, chiziq shaklidagi.
lineman [ˈlaɪnmən] *n* yon chiziq hakami.
linen [ˈlɪnɪn] *n* choyshab, surp.
liner [ˈlaɪnə] *n* layner (*yirik samolyot*).
linesman [ˈlaɪnzmən] = **lineman.**
linger [ˈlɪŋgə] *v* 1) uzoq turib qolmoq, qolib ketmoq; 2) sustkashlik qilmoq, orqaga sudramoq, cho'zmoq.
lingerie [ˈlænʒəriː] *n fr* ayollar ishchi kiyimi.
lingo [ˈlɪŋgəu] *n* (*pl* **-oes** [-əuz]) 1) yaxshi tushunib bo'lmaydigan til (jargon); 2) chet tili
lingual [ˈlɪŋgwəl] *a* 1) *anat.* tilga oid; til...; 2) *tilsh.* til yordamida paydo bo'ladigan.
linguist [ˈlɪŋgwɪst] *n* tilshunos; tilchi.
linguistic [lɪŋˈgwɪstɪk] *n* tilshunoslikka oid, tilshunoslik...
linguistics [lɪŋˈgwɪstɪks] *n pl* tilshunoslik.
liniment [ˈlɪnəmənt] *n* suyuq malham.
lining [ˈlaɪnɪŋ] *n* astar; qoplama.
link [lɪŋk] **1.** *n* 1) qo'shilish; 2) halqa; 3) aloqa; **2.** *v* aloqa bog'lamoq.
lino [ˈlaɪnəu] = **linoleum.**
linoleum [lɪˈnəulɪəm] *n* linoleum (*qalin material*).
linseed [ˈlɪnsiːd] *n* zig'ir urug'i, ~ **oil** zig'ir yog' (moy).
lion [ˈlaɪən] *n* sher, arslon.
lioness [ˈlaɪənes] *n* urg'ochi sher (arslon).
lip [lɪp] *n* lab, dudoq.
lipstick [ˈlɪpstɪk] *n* labga suriladigan pomada.
liquefy [ˈlɪkwɪfaɪ] *v* suyultirmoq, suyuq holga keltirmoq.
liqueur [lɪˈkjuə] *n fr.* likor (*o'tkir shirin spirtli ichimlik*).
liquid [ˈlɪkwɪd] *n* suyuqlik.
liquidate [ˈlɪkwɪdeɪt] *v* 1) to'lamoq; bermoq; 2) qarzini tugatmoq.
liquidation [ˌlɪkwɪˈdeɪʃn] *n* 1) tugatish, yo'q qilish; 2) qarzni to'lash.
liquor [ˈlɪkə] *n* spirtli ichimlik.
liquorice [ˈlɪkərɪs] *n bot.* qizilmiya, shirinmiya (*dukkakli o'simlik*).
lisp [lɪsp] *n* tovushni buzib talaffuz qilish.
lissom(e) [ˈlɪsəm] *a* egiluvchan, bukiluvchan.
list [lɪst] **1.** *n* ro'yxat; **duty** ~ navbatchilik ro'yxati; **2.** *v* ro'yxatga kirgizmoq.
listen [ˈlɪsn] *v* tinglamoq; **to ~ to a lecture** ma'ruzani tinglamoq; **~er** tinglovchi.
listless [ˈlɪstləs] *a* beparvo, loqayd, bee'tibor.
lit [lɪt] *past., p. p.* **light 3.** *dan.*
liter [ˈliːtə] = **litre.**
literacy [ˈlɪtərəsɪ] *n* savodxonlik, o'qish yozishni bilish.
literal [ˈlɪtərəl] **1.** *a* harf bilan ifodalangan, so'zma-so'z, aynan; **2.** *n* terishda (bosishda) yo'l qo'yilgan xato.
literary [ˈlɪtərərɪ] *a* adabiyotga oid; adabiyotdagi, adabiy; ~ **work** adabiy asar; ~ **heritage** adabiy meros.
literate [ˈlɪtərət] *a* 1) savodli, o'qimishli; 2) savodli kishi.
literature [ˈlɪtərətʃə] *n* adabiyot.
lithe [laɪð] *a* 1) egiluvchan, bukiluvchan; 2) moslashuvchi, uddaburon, epchil.
lithium [ˈlɪθɪəm] *n kim.* litiy (*kimyoviy element*).
lithographic [ˌlɪθəˈgræfɪk] *a* toshbosma usulida bosilgan.
lithography [lɪˈθɔgrəfɪ] *n* litografiya, toshbosma.
Lithuanian [ˌlɪθjuˈeɪnɪən] **1.** *a* Litvaga va litvaliklarga oid; **2.** *n* 1) litvalik kishi; 2) litva tili.
litigant [ˈlɪtɪgənt] **1.** *n yur.* taraf, tomon (*sud jarayonida*); **2.** *a* sudlanuvchi.
litigate [ˈlɪtɪgeɪt] *v* sudlashmoq, tortishmoq.
litigious [lɪˈtɪdʒəs] *a yur.* sudbozlikka oid.
litmus [ˈlɪtməs] *n kim.* lakmus (*to'q binafsha rang bo'yoq modda*).
litre [ˈliːtə] *n* litr
litter [ˈlɪtə] *n* supurindi, axlat.
little [ˈlɪtl] (**less, lesser; least** *qiyosiy darajasi*): **1.** *a* kichkina, kam; **2.** *adv* oz
littoral [ˈlɪtərəl] *a* qirg'oq bo'yidagi, qirg'oq oldidagi, qirg'oq bo'yi.
live [lɪv] **1.** *v* yashamoq, turmoq; kun kechirmoq; **2.** *a* 1) jonli, 2) g'ayratli; 3) tirik; ~ **stock** chorva
livelihood [ˈlaɪvlɪhud] *n* tirikchilik vositasi; **to earn an honest** ~ halol mehnati bilan yashamoq.
livelong [ˈlɪvlɔŋ] *a* butun, but, to'la, to'liq.
lively [ˈlaɪvlɪ] **1.** *a* tirik, jonli; xushchaqchaq; **2.** *adv* xushchaqchaqlik bilan.
liven [ˈlaɪvn] *v* jonlantirmoq; qizimoq, qizg'in tus olmoq.
liver [ˈlɪvə] *n anat.* jigar.
livery [ˈlɪvərɪ] *n* livreya (*aravakash, darvozabon va sh.k.ning zarrin uqali kiyimi*).
lives [laɪvz] *pl* **life** *dan.*
live-stock [ˈlaɪvstɔk] *n* uy hayvonlari.
livid [ˈlɪvɪd] *a so'zl.* g'azablangan, achchig'i chiqqan.
living [ˈlɪvɪŋ] **1.** *pres. p.* **live 1.** *dan*; **2.** *n* turmush tarzi, tirikchilik; **3.** *a* tirik; ~ **languages** tirik til.
lizard [ˈlɪzəd] *n zool.* kaltakesak.
lo [ləu] *int.* mana!, qara!, eshit!
load [ləud] *n* 1) yuk; 2) og'irlik, og'ir yuk.
loadstone [ˈləudstəun] = **lodestone.**
loaf [ləuf] (*pl* **loaves**) **1.** *n* bo'lka (*non*); **2.** *v* tentiramoq, sanqib yurmoq, vaqtni bekorga o'tkazmoq.
loafer [ˈləufə] *n* bekorchi, dangasa, ishyoqmas kishi.
loaf-sugar [ˈləufˌʃugə] *n* tozalangan kesma oq qand.
loam [ləum] *n* unumdor (serhosil) yer.
loan [ləun] **1.** *n* qarz; zayom; **goverment ~s** davlat zayomi; **2.** *v* qarz bermoq.

loath [ləuθ] *a* xohishsiz, istaksiz.
loathe [ləuð] *v* yomon ko'rmoq, nafratlanmoq.
loathing [ˈləuðɪŋ] *n* nafrat; **to be filled with ~** nafratlanmoq.
loathsome [ˈləuðsəm] *a* jirkanch, nafrat uyg'otadigan.
loaves [ləuvz] *pl* **loaf 1.** *dan.*
lob [lɔb] *v* to'pni (koptokni) yuqoridan uloqtirmoq.
lobby [ˈlɔbɪ] *n* koridor, qabulxona.
lobe [ləub] *n tex.* kulachok, kulak.
lobster [ˈlɔbstə] *n* katta dengiz qisqichbaqasi.
local [ˈləukəl] *a* mahalliy; **the ~ doctor** mahalliy shifokor.
locale [ləuˈkɑ:l] *n* voqea (hodisa) yuz bergan joy.
locality [ləuˈkælɪtɪ] *n* joy, yer; o'lka, tuman.
localization [ˌləukəlaɪˈzeɪʃn] *n* harbiy nizolarning tarqalishiga yo'l qo'ymaslik.
localize [ˈləukəlaɪz] *v* tarqalishini cheklamoq, ma'lum joyda to'xtatmoq.
locate [ləuˈkeɪt] *v* 1) turgan joyini aniqlamoq; 2) joylashtirmoq, o'rnashtirmoq.
location [ləuˈkeɪʃn] *n* joyini, o'rnini aniqlash (*nimanidir*).
loch [lɔk] *n shotl.* ko'l.
lock I [lɔk] *n* soch jingalagi, zulfi.
lock II [lɔk] **1.** *n* qulf; **2.** *v* qulflamoq, berkitmoq.
locker [ˈlɔkə] *n* 1) shkaf, shkafcha; 2) katta sandiq.
locket [ˈlɔkɪt] *n* medalyon; **gold ~** oltin medalyon.
lock-out [ˈlɔkaut] *n* ishchilarni yoppasiga ishdan bo'shatish *yoki* korxonani yopib qo'yish.
locksmith [ˈlɔksmɪθ] *n* chilangar.
locomotion [ˌləukəˈməuʃn] *n* siljish, jilish, joyidan qo'zg'alish.
locomotive [ˈləukəˌməutɪv] **1.** *n* lokomotiv (*parovoz, teplovoz va sh.k. ning umumiy nomi*); **2.** *a* harakatlantiruvchi, harakatga keltiruvchi.
locum [ˈləukəm] *n* : **to do ~** vaqtinchalik vazifani bajarish (*shifokor va b.lar*).
locus [ˈləukəs] *n lot.* 1) turar joy, yashash joyi; 2) *mat.* nuqtaning geometrik o'rni.
locust [ˈləukəst] *n* 1) *zool.* chigirtka; 2) *bot.* oq akas (*oq gulli dukkakli daraxt*).
lode [ləud] *n geol.* qatlam, kon.
lodestar [ˈləudstɑ:] *n* yo'l ko'rsatadigan yulduz.
lodestone [ˈləudstəun] *n* magnit temirtosh (*magnit xususiyatiga ega bo'lgan temir rudasi*).
lodge [lɔdʒ] **1.** *n* kichkina uy, uycha, kulba; **2.** *v* ijarada yashamoq.
lodger [ˈlɔdʒə] *n* 1) yashovchi, istiqomat qiluvchi, 2) ijarada yashovchi
lodging [ˈlɔdʒɪŋ] *n* turar joy, uy-joy, makon.
lodging-house [ˈlɔdʒɪŋhaus] *n* mebellar bilan jihozlangan uy
loft [lɔft] *n* 1) cherdak (*ustki tom bilan ostki tom oralig'i*); 2) bedaxona, pichanxona; 3) kaptarxona.
lofty [ˈlɔftɪ] *a* yuksak; juda baland (*insonlarga nisbatan ishlatilmaydi*); **~ mountain** yuksak tog'.
log [lɔg] *n* g'o'la; yog'och, xoda.
logarithm [ˈlɔgərɪðəm] *n mat.* logarifm (*daraja ko'rsatkichi*).
log-book [ˈlɔgbuk] *n* vaxta jurnali (*vaxta – komanda navbatchilik, soqchilik*).
loggerhead [ˈlɔgəhed] *n* ahmoq, galvars, kallavaram.
loggerheads [ˈlɔgəhədz] *n* kelishmovchilik.
logic [ˈlɔdʒɪk] *n* mantiq.
logical [ˈlɔdʒɪkəl] *a* mantiqiy.
logo [ˈləugəu] *n* marka, emblema.
log-rolling [ˈlɔgˌrəulɪŋ] *n amer.* o'zaro xizmat (*siyosatda*).
loin [lɔɪn] *n pl* bel.
loin-cloth [ˈlɔɪnklɔθ] *n* songa bog'langan bint.
loiter [ˈlɔɪtə] *v* sang'imoq; bekor yurmoq.
loll [lɔl] *v* egmoq, engashtirmoq.
lollipop [ˈlɔlɪpɔp] *n* shirinlik, qand-qurs.
lone [ləun] *n* yakka, yolg'iz; **~ly** tanho, yolg'iz; **to feel ~** o'zini yolg'iz his etmoq.
loner [ˈləunə] *n amer.* hech kimi yo'q odam, so'q-qabosh kishi.
lonesome [ˈləunsəm] *a* yakka, yolg'iz, tanho.
long [lɔŋ] *a* uzun, uzoq.
long-drawn [ˈlɔŋdrɔ:n] *a* cho'zilgan, davomli.
longevity [lɔnˈdʒevətɪ] *n* uzoq umr, uzoq umr ko'rish, ko'p yashash.
longing [ˈlɔŋɪŋ] *n* tilak, orzu, xohish-istak.
longitude [ˈlɔndʒɪtju:d] *n geogr.* uzunlik.
long-jump [ˈlɔŋdʒʌmp] *n* uzoqqa sakrash sporti.
long-life [ˌlɔŋˈlaɪf] *a* uzoqqa (ko'pga) chidaydigan.
long-lived [ˌlɔŋˈlɪvd] *a* uzoq yashaydigan, uzoq umr ko'radigan.
long-range [ˌlɔŋˈreɪndʒ] *n* uzoqqa otadigan (*to'p*); **~ gun** uzoqqa otadigan qurol.
long-standing [ˌlɔŋˈstændɪŋ] *a* 1) uzoqqa cho'zilgan; uzoq davom etgan; 2) azalgi; **a friendship of ~** azalgi, qadrdon do'st.
long-suffering [ˌlɔŋˈsʌfərɪŋ] *a* jafokash, bardoshli, sabrli, chidamli.
long-term [ˌlɔŋˈtɜ:m] *a* uzoq muddatli.
long-wave [ˌlɔŋ ˈweɪv] *n* uzun to'lqinli radiostansiya.
long-winded [ˌlɔŋˈwɪndɪd] *a* uzundan-uzun, cho'zilib ketgan; zerikarli.
loo [lu:] *n* hojatxona.
look [luk] **1.** *v* qaramoq, nazar tashlamoq; **~ after** asramoq; **~ at** qaramoq; **~ for** qidirmoq; **~ like** o'xshamoq; **~ over** ko'z yugurtirmoq; **2.** *n* qarash, nazar solish, boqish.
looker-on [ˌlukərˈɔn] *n* kuzatuvchi tomoshabin.
looking-glass [ˈlukɪŋglɑ:s] *n* ko'zgu, oyna.
look-out [ˈlukaut] *n* 1) hushyorlik, ogohlik, sezgirlik, 2) kuzatuvchi.

loom [lu:m] *n to'q.* to'qish dastgohi.
loon [lu:n] *n so'z.* yaramas, ablah odam.
loony ['lu:nɪ] *n* aqldan ozgan, jinni, telba.
loop [lu:p] *n* sirtmoq, ilmoq, halqa.
loop-hole ['lu:phəul] *n* 1) tuynuk, teshik; 2) odam sig'adigan teshik.
loose [lu:s] **1.** *a* bo'sh; yengil; ozod, erkin; **2.** *v* ozod bo'lmoq; yechmoq; ochmoq.
loosely ['lu:slɪ] *adv* erkinlik bilan, erkin, hur, ozod.
loosen ['lu:sn] *v* bo'shashtirmoq; **to ~ dicipline** intizomni bo'shashtirmoq.
loot [lu:t] **1.** *n* 1) o'g'irlangan mol-mulk; 2) qazib olish; **2.** *v* o'g'irlamoq, talamoq, shilmoq.
lop I [lɔp] **1.** *n* mayda novdalar (shox, butoqlar); **2.** *v* butoqlamoq.
lop II [lɔp] *v* osilib turmoq.
lop III [lɔp] *n deng.* to'lqin, to'lqinlar.
lope [ləup] *n* katta-katta qadam.
lop-eared [,lɔpɪəd] *a* quloqlari osilgan, shalpang-quloq.
lop-sided [,lɔp'saɪdɪd] *a* bir tomonga egilgan, qiyshaygan.
loquacious [ləu'kweɪʃəs] *a* sergap, ezma, vaysaqi.
lord [lɔ:d] *n* 1) lord, lordlar partiyasining a'zosi; 2) boshqaruvchi.
lordship ['lɔdʃɪp] *n tar.* hokimiyat; hukmronlik, lordlik; **your ~** zoti oliylari.
lore [lɔ:] *n* bilimni amalda qo'llash.
lorgnette [lɔ:'njet] *n* 1) buklama dastali ko'zoynak; 2) teatr durbini.
lorn [lɔ:n] *a* 1) baxtsiz, baxti qora, sho'rpeshana; 2) yetim qolgan; 3) tashlab ketilgan.
lorry ['lɔrɪ] *n* yuk mashinasi.
lose [lu:z] *v* **(lost)** 1) yo'qotmoq, mahrum bo'lmoq; **to ~ one's money** pul yo'qotmoq; 2) sarflamoq; 3) yutqazmoq; **to ~ a game**; o'yinni yutqazmoq.
loss [lɔs] *n* 1) talafot, yo'qotish; 2) ziyon.
lost I [lɔst] *a* yo'qotilgan, qo'ldan boy berilgan.
lost II [lɔst] *past., p. p.* **lose** *dan.*
lot [lɔt] **1.** *n* ko'rgulik, qismat, taqdir; **2.** *a* ancha, ko'p.
loth [ləuθ] = **loath.**
lotion ['ləuʃn] *n* malham (*suyuq dori*).
lottery ['lɔtərɪ] *n* lotereya.
lotus ['ləutəs] *n bot.* nilufar.
loud [laud] *a* baland ovozli; shovqinli.
loudly ['laudlɪ] *adv* baland, qattiq, baland ovoz bilan.
loudness ['laudnɪs] *n* balandlik, qattiqlik.
loud-speaker [,laud 'spi:kə] *n* radiokarnay.
lounge [laundʒ] *v* cho'zilib yotmoq, yoyilib o'tirmoq.
lounge suit ['laundʒsu:t] *n* pidjak, kastum.
lour ['lauə] *v* 1) qovog'ini solmoq, xo'mraymoq; 2) bulut qoplamoq (bosmoq).
louse [laus] *n* (*pl* **lice**) bit.
lousy ['lauzɪ] *a* bitlab ketgan, bit bosgan.
lout [laut] *n* bezori, tarbiyasiz kishi.
loutish ['lautɪʃ] *a* tarbiyasizlarga xos, bezorilarcha.
louver ['lu:və] *n* jalyuza (*yog'och darparda*).
louvre ['lu:və] = **louver.**
lovable ['lʌvəbl] *a* yoqimli, dilbar, jozibali.
love [lʌv] **1.** *n* sevgi, muhabbat, **2.** *v* sevmoq; yaxshi ko'rmoq.
lovely ['lʌvlɪ] *a* yoqimli, xushbichim.
lover ['lʌvə] *n* 1) o'ynash, jazman; 2) sevishganlar; 3) ishqiboz, muxlis.
loving ['lʌvɪŋ] **1.** *pres. p.* **love 2.** *dan*; **2.** *a* mehribon, mehrli, sevuvchi.
low [ləu] **1.** *n* ma'rash; **2.** *v* ma'ramoq; **3.** *a* past; zaif.
lower ['ləuə] **1.** *a* pastki, quyi, ostki; **2.** *v* 1) pastga tushirmoq; 2) kamaytirmoq, pasaytirmoq.
lowland ['ləulənd] *n* 1) past tekislik; 2) *geogr.* vodiy.
loyal ['lɔɪəl] *a* sodiq, sadoqatli; **~ wife** sadoqatli xotin.
loyalty ['lɔɪəltɪ] *n* sodiqlik, sadoqat.
lozenge ['lɔzɪndʒ] *n* 1) romb (*hamma tomonlari teng parallelogramm*); 2) dori, tabletka.
lubber ['lʌbə] *n* beso'naqay odam, qo'pol, epsiz, lapashang.
lubricant ['lu:brɪkənt] *n* moy, moylash materiali.
lubricate ['lu:brɪkeɪt] *v* moylamoq (*avtomobil va b.*).
lubrication [,lu:brɪ'keɪʃn] *n* moylash.
lucid ['lu:sɪd] *a* aniq, ravshan, tushunarli.
lucidity [lu:'sɪdətɪ] *n* aniqlik, ravshanlik, tushunarlilik.
luck [lʌk] *n* 1) taqdir; 2) baxt, omad; 3) muvaffaqiyat.
luckily ['lʌkɪlɪ] *adv* xayriyat, yaxshiyam.
lucky ['lʌkɪ] *a* baxtli, baxtiyor, omadli, omadi chopgan.
lucrative ['lu:krətɪv] *a* foydali, foyda keltiradigan, serdaromad.
ludicrous ['lu:dɪkrəs] *a* bema'ni, tutiriqsiz; kelishmagan.
lug [lʌg] *v* sudramoq, tortmoq, sudrab bormoq.
luggage ['lʌgɪdʒ] *n* bagaj, yuk; **~ van** yuk vagoni; **~ boot** yukxona (*avtomobillarda*).
lugubrious [lu:'gu:brɪəs] *a* qayg'uli, g'amgin, achinarli; motamsaro.
lukewarm [,lu:k'wɔ:m] *a* 1) iliq; 2) loqayd, qiziqmaydigan, ishtiyoqsiz.
lull [lʌl] *v* allalamoq; uxlatmoq.
lullaby ['lʌləbaɪ] **1.** *n* alla qo'shig'i; **2.** *v* alla aytmoq.
lumbago [lʌm 'beɪgəu] *n tib.* belog'riq, bel sanchig'i.
lumber ['lʌmbə] **1.** *n* 1) keraksiz beso'naqay narsalar; 2) *amer.* yog'och, xoda.
luminary ['lu:mɪnərɪ] *n* yoritgich; mash'al.
luminous ['lu:mɪnəs] *a* yarqiraydigan, yonadigan.
lump [lʌmp] *n* parcha, burda, zuvola.
lunacy ['lu:nəsɪ] *n* ahmoqlik, jinnilik.

lunar [ˈluːnə] *a* oyga oid, oy...
lunatic [ˈluːnətɪk] **1.** *a* lunatik, oyparast (*uyqusida uyg'oqdek yuraveradigan*); **2.** *n* oyparast odam.
lunch [lʌntʃ] **1.** *n* ikkinchi nonushta, tushlik; **2.** *v* ikkinchi nonushta qilmoq.
luncheon [ˈlʌntʃən] *n* 1) tushlikda yeyiladigan taom; 2) yengil nonushta.
lung [lʌŋ] *n anat.* o'pka; **the ~s** o'pkalar.
lunge [lʌndʒ] *v* tashlanmoq, hamla qilmoq.
lurch I [lɜːtʃ] **1.** *n* bir yonga qiyshayish, og'ish (*kema haqida*); **2.** *v* og'moq, qiyshaymoq.
lurch II [lɜːtʃ] *n* : **to leave smb. in the ~** qiyin vaziyatda tashlab ketmoq.
lure [luə] **1.** *n* 1) qiziqtiradigan (havasini keltiradigan) narsa, 2) yo'ldan ozdiradigan narsa, vasvasa; 3) yoqimlilik, jozibalilik, ko'rkamlik; 4) o'ziga tortadigan (jozibador) kuch; **2.** *v* o'ziga tortmoq (qaratmoq), jalb qilmoq; qiziqtirmoq, havasini keltirmoq; vasvasa qilmoq, qiziqtirib biror ishga tortmoq, yo'ldan urmoq.
lurid [ˈluərɪd] *a* 1) alangali, o'tga (alangaga) oid; 2) momaqaldiroqli; jalali; zim-ziyo.
lurk [lɜːk] *v* yashirinib turmoq, ko'zga tashlanmay turmoq.
luscious [ˈlʌʃəs] *a* 1) xushbo'y, hidi yaxshi, muattar; 2) shirin, mazali; 3) ko'ngilga uradigan, chuchmal.
lush [lʌʃ] *n* spirtli ichimlik.
lust [lʌst] *n* 1) nafs, hirs, shahvat; 2) orzu, istak, ishtiyoq.
luster [ˈlʌstə] = **lustre.**
lustre [ˈlʌstə] *n* 1) yaltiroqlik, jilo, sayqal; 2) lustra, qandil, chilchiroq.
lusty [ˈlʌstɪ] *a* 1) sog'lom, baquvvat; 2) semiz, baqaloq.
lute [luːt] **1.** *n* 1) ud (*qadimgi musiqa asboblaridan birining nomi*); 2) mumsimon modda, zamazka.
luxurious [lʌgˈzjuərɪəs] *a* muhtasham , dang'illama, serhasham, dabdabali.
luxury [ˈlʌkʃərɪ] *n* dabdaba, hasham.
lye [laɪ] *n* kul suvi, ishqorli suv.
lying [ˈlaɪɪŋ] *a* 1) yolg'onchi, aldamchi; 2) yolg'on; 3) yotiq, yotgan.
lymph [lɪmf] *n fiziol.* limfa (*organizmda qon bilan to'qimalar o'rtasida modda almashinuvini ta'minlovchi suyuqlik*).
lynch [lɪntʃ] *v amer.* sudsiz, so'roqsiz jazolamoq.
lynx [lɪŋks] *n zool.* silovsin.
lyre [ˈlaɪə] *n* 1) lira (*pul birligi*); 2) lira (*musiqa asbobi*).
lyric [ˈlɪrɪk] *a* lirik; **~al** lirikaga oid.
lyrics [ˈlɪrɪks] *n pl* 1) lirik she'rlar; 2) lirika.
lyrist [ˈlɪrɪst] *n* lirik shoir.
lysis [ˈlaɪsɪs] n tib. lizis (haroratning sekin-asta pasayib, bemorning sog'ayib borishi).
lysol [ˈlaɪsɔl] *n* lizol (*dezinfeksiya uchun ishlatiladigan qizg'ish-qo'ng'ir moysimon modda*).

Mm

M, m [em] *n* ingliz tili alifbosining o'n uchinchi harfi.
ma [mɑː] *n* (**mamma** *so'zining qisqartirilgan shakli*) oyi, ona.
ma'am [mæm] *n* (**madam** *so'zining qisqartirilgan shakli*) xonim, bekam.
mac [mæk] *n* (**mackintosh** *so'zining qisqartirilgan shakli*) makintosh (*nam o'tmaydigan matodan tikilgan yengil palto*).
macabre [məˈkɑːbrə] *a fr.* 1) qayg'uli, g'amgin; 2) dahshatli, vahimali.
macaco [məˈkeɪkəu] *n* lemur (*qadimgi Rim afsonasida: arvoh – o'lgan odamning ruhi*).
macadam [məˈkædəm] *n* shag'al.
macadamize [məˈkædəmaɪz] *v* tosh yotqizmoq, tosh termoq, shag'al yotqizmoq.
macaque [məˈkæk] *n* makaka (*itsimon maymun*).
macaroni [ˌmækəˈrəunɪ] *n ital.* makaron.
macaronic [ˌmækəˈrɔnɪk] *a* qiziq, kulgili; **~ verses** kulgili she'rlar
macaroon [ˌmækəˈruːn] *n* bodom mag'zi solib qilingan pishiriqlar.
macartney [məˈkɑːtnɪ] *n* oltinday sap-sariq tusto-vuq.
macaw I [məˈkɔː] *n* to'ti, to'tiqush.
macaw II [məˈkɔː] *n* Janubiy Amerika palmasi.
mace I [meɪs] *n tar.* gurzi, to'qmoq.
mace II [meɪs] *n* muskat rang (*muskat yong'o-g'ining quritilgan po'chog'i*).
Macedonian [ˌmæsɪˈdəunɪən] *a* Makedoniyaga va makedonlarga oid, makedoncha.
macerate [ˈmæsəreɪt] *v* namlamoq, ivitmoq, ho'llamoq.
maceration [ˌmæsəˈreɪʃn] *n* namlash, ivitish, ho'llash.
machiavellian [ˌmækɪəˈveliən] *a* noaniq, ko'rimsiz, juda xunuk.
machicolation [məˌtʃɪkəuˈleɪʃn] *n tar.* ayvon (*bostirma, istehkom, qo'rg'on devorlari*) dagi shinak (*tuynuk*).
machinal [məˈʃiːnl] *a* mexanikaga oid, mexanik.
machinate [ˈmækɪneɪt] *v* fitna uyushtirmoq.
machination [ˌmækɪˈneɪʃn] *n* hiyla, nayrang.
machine [məˈʃiːn] **1.** *n* 1) mashina, mexanizm; **~ for testing** sinov mashinasi; 2) dastgoh (*qurilma*); **to run a ~** stanokda ishlamoq; 3) mexanizm, apparat; **state ~** davlat apparati; **~ tool** dastgoh; 4) velosiped; avtomobil, samolyot; **2.** *v* 1) mashinada tikmoq; 2) mashinada (*yoki* kompyuterda) yozmoq.
machine-gun [məˈʃiːngʌn] *n* pulemyot (*o'qotar*).
machine-gunner [məˈʃiːnˌgʌnə] *n* pulemyotchi.

machine-made [mə´ʃi:nmeɪd] *a* mashina yordamida bajarilgan.
machine-minder [mə´ʃi:n,maɪndə] *n* dastgohda ishlovchi ishchi.
machinery [mə´ʃi:nərɪ] *n* 1) dastgoh jihozi; 2) mexanizm; 3) apparat.
machine-shop [mə´ʃi:nʃɔp] *n* mexanika ustaxonasi (*metall ishlaydigan ustaxona, sex*).
machine-tool [mə´ʃi:ntu:l] *n* dastgoh: ~ **plant** dastgoh tayyorlovchi zavod.
machinist [mə´ʃi:nɪst] *n* 1) tikuvchi; 2) dastgohda ishlovchi ishchi; 3) mashinist; 4) mexanik.
Mach number [´mɑ:k,nʌmbə] *n av.* aylanish (*borib kelish, ko'tarilib tushish*) soni (*miqdori*).
macho [´mætʃəu] *a* kuchli, dovyurak.
macintosh [´mækɪntəʃ] *n* makintosh (*suv o'tkazmaydigan kiyim*).
mack [mæk] **makintosh** *so'zining qisqartmasi.*
mackerel [´mækrəl] *n* skumbriya (*dengiz balig'i*).
mackintosh [´mækɪntəʃ] *n* makintosh (*suv o'tkazmaydigan plash*).
macro- [´mækrəu-] *a* (*murakkab so'zlarda quyidagi ma'nolarni bildiradi*) katta, juda katta o'lcham; uzun.
macrobiosis [,mækrəubaɪ´əsɪs] *n* ko'p yillik.
macrocephalous [,mækrəu´sefələs] *a* kallasi katta (*befahm*).
macrocosm [´mækrəkɔzm] *n* 1) koinot; olam, jahon, yer yuzi, butun dunyo.
macrograph [´mækrəugrɑ:f] *n* makrosurat.
macron [´mækrən] *n ling.* unli harflardagi cho'ziqlik belgisi.
macroscopic [,mækrəu´skɔpɪk] *a* makroskopik (*ko'z bilan ko'rib bo'ladigan*).
macula [´mækjulə] *n* (*pl* **-ae**) dog'.
maculae [´mækjuli:] *pl* **makula** *dan.*
maculate [´mækjuleɪt] *v* dog' bilan qoplamoq, dog' bosmoq.
maculated [´mækjuleɪtɪd] *a* dog' bilan qoplangan, dog' bosgan.
mad [mæd] **1.** *a* 1) jinni, aqldan ozgan, telba, devona; **you're** ~ ! Sen aqldan ozibsan! 2) quturgan; **2.** *v* jinni bo'lmoq, telba bo'lmoq, devona bo'lmoq, **to go** ~ aqldan ozmoq.
madam [´mædəm] *n* 1) xonim; 2) beka, oyim.
madcap [´mædkæp] *n* beaql (*esi yo'q*) kishi.
madden [´mædn] *v* jinni bo'lmoq, aqldan ozmoq.
madder [´mædə] *n bot.* ro'yan (*ildizidan qizil bo'yoq olinadigan o'simlik*).
made [meɪd] **1.** *past., p. p.* **make** *dan*; **2.** *a a* ishlab chiqargan, tayyorlangan, yasalgan; ~ **in Uzbekistan** O'zbekistonda ishlab chiqarilgan.
madefy [´mædɪfaɪ] *v* ho'llamoq, namlamoq, ivitmoq.
Madeira [mə´dɪərə] *n* madera (*vino turi*).
mademoiselle [,mædəmwə´zel] *n* erga tegmagan fransuz *voki* boshqa chet ellik qiz (*vonim*).
made up [´meɪdʌp] *a* 1) sun'iy; 2) tayyor (*kiyim haqida*).
madhouse [´mædhaus] *n so'zl.* jinnixona.
madia [´meɪdɪə] *n* madiya; ~ **oil** madiya moyi.
madid [´mædɪd] *a* ho'l, nam, ivigan.
madman [´mædmən] *n* jinni, aqlsiz, aqli past, devona kishi.
madness [´mædnəs] *n* jinnilik, devonalik, aqli zaiflik.
madonna [mə´dɔnə] *n* madonna (*katoliklarda Bibi Maryam nomi*).
madonna lily [mə´dɔnə,lɪlɪ] *n* oq liliya (*lilya – lolagullilarga mansub dekorativ o'simlik*).
madrasah [mə´drəsə] *n arab.* madrasa.
madrepore [,mædrɪ´pɔ:] *n* tosh marjon.
madrono [mə´drəunɪə] *n bot.* yer tuti daraxti.
madwoman [´mæd,wumən] *n* aqlsiz, jinni ayol.
Maecenas [mi´si:næs] *n* metsenat, homiy (*fan va san'atga homiylik qiluvchi davlatmand odam*).
maelstrom [´meɪlstrəm] *n* 1) girdob, aylanma; 2) shiddatli oqim, to'lqin, bo'ron.
maestoso [,maɪs´təusəu] *adv mus.* ulug'vor, ulug'vorlik bilan, savlat to'kib.
maestri [maɪstrɪ] *pl* **maestro** *dan.*
maestro [´maɪstrəu] *it. n* maestro, ustoz (*asosan, katta musiqachilar, san'atkorlar va iste'dodli shaxmatchilarga nisbatan ishlatiladi*).
Mae West [,meɪ´west] *n* uchuvchilarning puflanadigan qutqaruvchi (*qutqaradigan*) katta kamzuli (*kurtkasi*).
maffick [´mæfɪk] *v* 1) juda xursand bo'lmoq; 2) bayram qilmoq; juda yaxshi nishonlamoq.
mafic [´mæfɪk] *a geol.* qora (*tog' jinsi to'g'risida*).
mag I [mæg] *n* yarim pennilik tanga.
mag II [mæg] *v* valdiramoq, vaysamoq.
mag III [mæg] *n* (**magazine** *so'zining qisqartmasi*) jurnal (*vaqt-vaqti bilan chiqadigan*); oynoma.
magazine [,mægə´zi:n] *n* 1) vaqt-vaqti bilan chiqib turadigan oynoma; jurnal; 2) *harb.* o'qdorilar saqlanadigan ombor.
magazine rifle [,mægə´zi:n,raɪfl] *a* magazinli miltiq.
mage [meɪdʒ] *n* 1) sehrgar, jodugar; 2) donishmand, dono.
magenta [mə´dʒentə] *n* qizil anilinlangan bo'yoq.
maggot [´mægət] *n* qurt (*kapalak, chivin, chuvalchang va shu kabilarning tuxumidan chiqqan qurti*).
maggoty [´mægətɪ] *a* qurtlagan, qurt tushgan (*bosgan*), qurtlab ketgan.
magi [´meɪdʒaɪ] *pl* **magus** *dan.*
magic [´mædʒɪk] **1.** *n* 1) sehr; 2) sehrgarlik, 3) afsunkor; **2.** *a* sehrlaydigan, sehrli; maftunkor jodu.
magical [´mædʒɪkl] = **magic 2.**
magician [mə´dʒɪ[n] *n* 1) sehrgar, jodugar, afsunkor; 2) ko'zboylog'ich.
magisterial [,mædʒɪs´tɪərɪəl] *a* sudga oid, suddagi

magistracy [ˈmædʒɪstrəsɪ] *n* sudyalik vazifasi (*mansabi*).
magistral [ˈmədʒɪstrəl] *n* 1) magistral (*katta, asosiy qatnov yo'li*); 2) serqatnov, katta ko'cha.
magistrate [ˈmædʒɪstreɪt] *n* sudya, sud: **examining** ~ tergovchi.
magma [ˈmægmə] *n geol.* magma (*Yer qa'ridagi cho'g'simon suyuq modda*).
magnanimity [ˌmægnəˈnɪmɪtɪ] *n* oliyjanoblik, himmat.
magnanimous [mægˈnænɪməs] *a* muruvvatli, hurmatli.
magnate [ˈmægneɪt] *n* magnat (*yirik feodal yoki kapitalist*).
magnesia [mægˈniːʃə] *n tib.* magniy oksidi.
magnesium [mægˈniːzɪəm] *n kim.* magniy (*kimyoviy element, kumush rang yumshoq metall*).
magnet [ˈmægnɪt] magnit, tortiluvchan kuch.
magnetic [mægˈnetɪk] *a* 1) tortiluvchan; 2) jozibali, jozibador; 3) magnitga oid, magnitli.
magnetics [mægˈnetɪks] *n pl* (**sing** *dek ishlatiladi*) *fiz.* magnetizm (*magnit hodisalari va xossalari*).
magnetism [ˈmægnətɪzm] *n* magnit hodisalari va xossalari.
magnetite [ˈmægnətaɪt] *n min.* 1) magnit temirtosh; 2) magnitli temir rudasi.
magnetization [ˌmægnətaɪˈzeɪʃn] *n* magnitlanish, magnitlash.
magnetize [ˈmægnətaɪz] *v* magnitlanmoq, magnitlamoq.
magneto [mægˈniːtəu] *n el.* magneto (*dvigatellarda elektr uchquni hosil qiladigan asbob*).
magnetometer [ˌmægnɪˈtɔmɪtə] *n* magnitometr.
magnification [ˌmægnɪfɪˈkeɪʃn] *n* ko'paytirish, oshirish.
magnificence [mægˈnɪfɪsns] *n* dabdaba, hashamat, savlat, saltanat, ko'rkamlik.
magnificent [mægˈnɪfɪsnt] *a* muhtasham, dabdabali, hashamatli.
magnifier [ˈmægnɪfaɪə] *n* lupa, kattalashtiradigan oyna.
magnify [ˈmægnɪfaɪ] *v* ko'paytirmoq, oshirmoq, kattalashtirmoq.
magnifying glass [ˈmægnɪfaɪɪŋglɑːs] *n* kattalashtiradigan oynakcha, lupa.
magniloquence [mægˈnɪləkwəns] *n* dabdabalilik, ortiq fasohat (*fasohat – chiroyli va yoqimli so'zlash qobiliyati*).
magniloquent [mægˈnɪləkwənt] *a* dabdabali, balandparvoz
magnitude [ˈmægnɪtjuːd] *n* 1) o'lcham, kattakichiklik, 2) ahamiyatlilik, muhimlik.
magnolia [mægˈnəulɪə] *n* magnoliya (*yirik, xushbo'y gulli doim yashil bo'lib turadigan daraxt yoki buta*).
magnum [ˈmægnəm] *n* katta vino shishasi.
magpie [ˈmægpaɪ] *n* 1) qarg'a; 2) ezma, sergap kishi.
magus [ˈmeɪgəs] *n pl* sehrgar, jodugar, afsungar.
Magyar [ˈmægjɑː] **1.** *a* Vengriyaga oid. **2.** *n* 1) vengr xalqi; 2) vengr tili.
Maharaja(h) [ˌmɑːhəˈrɑːdʒə] *n hind.* maharoj, buyuk roja (*Hindistonda knazlarning oliy unvoni va shunday unvonli kishi*).
Maharanee [ˌmɑːhəˈrɑːniː] *n hind.* maharojaning xotini.
mahogany [məˈhɔgənɪ] *n bot.* qizil daraxt: ~ **furniture** qizil daraxtdan qilingan mebel.
Mahomet [məˈhɔmɪt] *n* Muhammad, musulmon.
mahout [məˈhaut] *hind. n* fillarni haydab boruvchi odam.
maid [meɪd] *n* xizmatkor ayol, oqsoch.
maiden [ˈmeɪdn] *n* 1) bo'yi yetgan qiz, voyaga yetgan qiz; 2) *hazil.* qariqiz, turmushga chiqmagan qiz; 3) birinchi: ~ **flight** birinchi parvoz.
maidenhead [ˈmeɪdnhed] *n* ma'sumalik, bokiralik.
maidenhood [ˈmeɪdnhud] *n* qizlik davri.
maidenish [ˈmeɪdnɪʃ] *a* qizlik davridagi (*qizlarga xos*).
maidenlike [ˈmeɪdnlaɪk] *a* qizlarga xos.
maidenly [ˈmeɪdnlɪ] = **maidenlike.**
maid-of all-work [ˌmeɪdəvɔːlˈwɔːk] hamma ishni bajaradigan xizmatkor ayol.
maidservant [ˈmeɪdˌsɔːvənt] *n* xizmatkor ayol.
mail [meɪl] **1.** *n* pochta; **2.** *v* pochta orqali yubormoq.
mail-boat [ˈmeɪlbəut] *n* xat tashiydigan kema.
mailbox [ˈmeɪlbɔks] *n* pochta qutisi.
mail-car [ˈmeɪlkɑː] *n* pochta vagoni.
mail-cart [ˈmeɪlkɑːt] 1) xat tashuvchi arava; 2) bolalar kolaskasi (*aravachasi*).
mail-clad [ˈmeɪlklæd] *a* sovut kiygan.
mail-coach [ˈmeɪlkəutʃ] = **mail-cart 1).**
mailed [meɪld] *a* zirh bilan qoplangan, zirhlangan.
mailer [ˈmeɪlə] *n* xat yuboruvchi.
mailing-list [ˈmeɪlɪŋlɪst] *n* oluvchilar (*nomiga muntazam referatlar, reklama ma'lumotnomasi va b. yuborib turadigan shaxslar*) ro'yxati.
maillot [mæˈjəu] *n fr.* cho'milish kiyimi.
mailman [ˈmeɪlmæn] *n amer.* pochtachi, xat tashuvchi.
mail order [ˌmeɪlˈɔːdə] *n* 1) pochta orqali narsa yuborish uchun berilgan buyurtma; 2) *amer.* pochta orqali yuborilgan pul.
mail-plane [ˈmeɪlpleɪn] *n* pochta samolyoti.
mail train [ˈmeɪltreɪn] *n* pochta poyezdi.
maim [meɪm] *v* mayib qilmoq, ishdan chiqarmoq.
maimed [ˈmeɪmd] *n* nogiron, cho'loq.
main I [meɪn] *n* 1) bosh, asosiy qism; ~ **point** asosiy sabab; ~ **street** asosiy katta ko'cha; 2) asosiy, bosh yo'l; 3) *shoir.* dengiz, okean.
main II [meɪn] *n* xo'roz urushi.
main deck [ˈmeɪndek] *n* kema sahnining yuqori qismi.
mainland [ˈmeɪnlənd] *n* materik, qit'a.

mainly [ˈmeɪnlɪ] *adv* asosan, ayniqsa, hammadan avval; **you are ~ to blame** asosan, sen aybdorsan.
mainmast [ˈmeɪnmɑːst] *n deng.* grotmachta (*yelkanli kemada: o'rtadagi eng baland machta*).
mainspring [ˈmeɪnsprɪŋ] *n* yurgizadigan (*harakatlantiradigan*) prujina (*soat mexanizmida*).
mainstay [ˈmeɪnsteɪ] *n* tirgovuch, tirgak.
mainstream [ˈmeɪnstriːm] *n* asosiy yo'l, oqim, yo'nalish (*san'at, adabiyot va b.*).
maintain [meɪnˈteɪn] *v* 1) qo'llab-quvvatlamoq; **to ~ contact** aloqani qo'llab-quvvatlamoq; 2) asramoq (*oila*); 3) himoya qilmoq.
maintenance [ˈmeɪntənəns] *n* qo'llab-quvvatlash.
maintop [ˈmeɪntɔp] *n deng.* (*yelkanli kemada*) o'rtadagi eng baland machta.
maison(n)ette [ˌmeɪzɔˈnet] *n fr.* uncha katta bo'lmagan uy *yoki* hovli.
maize [meɪz] *n* makkajo'xori (*o'simligi va doni*).
majestic [məˈdʒestɪk] *a* 1) oliyjanob, oliyhimmat; 2) muhtasham, hashamatli.
majesty [ˈmædʒəstɪ] *n* 1) oliyjanoblik, 2) hashamat, muhtashamlik.
majolica [məˈdʒɔlɪkə] *n* mayolika, sirlangan sopol idish.
major I [ˈmeɪdʒə] *a* 1) asosiy, yirik; ~ **part** asosiy qism; ~ **forces** asosiy kuchlar; 2) muhimroq.
major II [ˈmeɪdʒə] *n* mayor.
major-domo [ˌmeɪdʒəˈdəuməu] *n* (*pl* **-os** [-əuz]) xizmatkorlar og'asi, bosh xizmatkor.
major-general [ˌmeɪdʒəˈdʒenərəl] *n* general-mayor.
majority [məˈdʒɔrətɪ] *n* ko'p, ko'pchilik.
majuscule [ˈmædʒəskjuːl] *n* bosh harf, katta harf (*o'rta asr qo'lyozmalarida*).
make [meɪk] *v* **(made; made)** 1) yasamoq, qilmoq, tayyorlamoq; **to ~ tables** stol yasamoq; 2) tuzmoq, tashkil qilmoq; **to ~ a list** ro'yxat tuzmoq, 3) yaratmoq, ijod qilmoq; **to ~ a poem** she'r yozmoq; 4) qilmoq, bajarmoq; **to ~ a mistake** xato qilmoq; 5) ishlab topmoq; **to ~ money** pul ishlab topmoq; 6) olmoq, egallamoq, orttirmoq; **to ~ friends** do'stlar orttirmoq; 7) so'zga chiqmoq; 8) uyushtirmoq; **to ~ a row** janjal uyushtirmoq; 9) ko'tarilmoq (*suvdan*); ~ **after** nazorat qilmoq, izidan bormoq; ~ **against** foydasiz gapirmoq; ~ **away** qochib ketmoq; ~ **back** qaytmoq (*orqaga*); ~ **out** tuzmoq; ~ **up** to'plamoq.
make-believe [ˈmeɪkbɪˌliːv] *n* mug'ambirlik, ayyorlik.
makepeace [ˈmeɪkpiːs] *n* yarashtiruvchi, kelishtiruvchi kishi.
maker [ˈmeɪkə] *n* biror narsani qiluvchi, tayyorlovchi, yaratuvchi shaxs.
makeshift [ˈmeɪkʃɪft] *n* palliativ (*kasalga vaqtinchalik yengillik beruvchi dori yoki vosita*).
make-up [ˈmeɪkʌp] *n* grim; pardoz-andoz.
makeweight [ˈmeɪkweɪt] *n* tarozini keltirish uchun qo'yiladigan parcha, bo'lak, qism.
making [ˈmeɪkɪŋ] **1.** *pres. p.* **make** *dan*; **2.** *n* qilish, bajarish, yasash.
mal- [mæl-] *pref.* 1) yomon; 2) noto'g'ri
malachite [ˈmæləkaɪt] *n* malaxit (*yashil rangli tosh*).
malacology [ˌmæləˈkɔlədʒɪ] *n* malakalogiya (*mollusklar haqidagi fan*).
maladjustment [ˌmæləˈdʒʌstmənt] *n* 1) kelishmovchilik; 2) noto'g'ri boshqarish.
maladministration [ˌmælədmɪnɪˈstreɪʃn] *n* yomon boshqarish.
maladroit [ˈmæləˈdrɔɪt] *a* qo'pol, qovushmagan.
malady [ˈmælədɪ] *n* kasallik; **in curable ~** tuzalmas kasallik.
Malaga [ˈmæləgə] *n* malaga (*vinoning bir turi*).
Malagasy [ˌmæləˈgæsɪ] *n* 1) malagalik; 2) malaga tili.
malapert [ˈmæləpɔːt] **1.** *a* dag'al, qo'pol, uyatsiz; **2.** *n* qo'pol, uyatsiz kishi.
malapropos [ˌmælæprəˈpəu] *a* bemahal, bevaqt.
malaria [məˈleərɪə] *n tib.* bezgak.
malaria-ridden [məˈleərɪəˌrɪdn] *a* bezgakning makoni bo'lgan, bezgak ko'p tarqalgan (*joy haqida*).
malarious [məˈleərɪəs] *a* bezgak tarqatuvchi, yuqtiruvchi.
malax [ˈmæləks] *v* ezib qorishtirmoq, pishitmoq.
malaxate [ˈmæləkseɪt] = **malax.**
Malay [məˈleɪ] **1.** *a* malayliklarga oid; **2.** *n* 1) malaylik kishi; 2) malay tili.
Malayan [məˈleɪən] = **Malay.**
malcontent [ˈmælkənˌtent] **1.** *n* norozi odam; **2.** *a* norozi, ko'ngli to'lmagan.
male [meɪl] **1.** *n* erkak; **2.** *a* erkaklarga oid, erkaklar.
male- [ˈmælɪ-] *pref.* yomon, achchiq.
malediction [ˌmælɪˈdɪkʃən] *n* la'nat, nafrat.
maledictory [ˌmælɪˈdɪktərɪ] *a* 1) tili achchiq, zahar; 2) g'iybatchi, bo'htonchi.
malefactor [ˈmælɪfæktə] *n* jinoyatchi.
malefic [məˈlefɪk] *a* halokatli, zararli.
maleficence [məˈlefɪsns] *n* zararlilik.
maleficent [məˈlefɪsnt] *a* halokatli, zararli.
malevolence [məˈlevələns] *n* yomonlik.
malevolent [məˈlevələnt] *a* birovning baxtsizligidan sevinadigan, ichi qora.
malfeasance [mælˈfiːzəns] *n yur.* jinoiy harakat, jinoyat, yovuzlik.
malfeasant [mælˈfiːzənt] **1.** *n yur.* jinoyatchi; **2.** *a* jinoiy, jinoyatkorona.
malformation [ˌmælfɔːˈmeɪʃn] *n* mayiblik, majruhlik.
malformed [ˌmælˈfɔːmd] *a* mayib, majruh.
malfunction [ˌmælˈfʌŋkʃn] *n tex.* noto'g'ri ishlash; buzuqlik, ishlamaslik.
malic [ˈmælɪk] *a kim.* ~ **acid** olma kislotasi (*organik birikma*).
malice [ˈmælɪs] *n* yomonlik, yovuzlik; **I bear you no ~** Men senga yomonlik qilmoqchi emasman.

malicious [mə´lɪʃəs] *a* yomon, yovuz, badjahl; ~ **person** yomon odam.
malign [mə´laɪn] *a* 1) yomon, zararli; 2) *tib.* halokatli, xatarli; 3) dushmanlarcha, adovatli.
malignancy [mə´lɪgnənsɪ] *n* zararlilik, foydasizlik.
malignant [mə´lɪgnənt] *a* serjahl, badjahl.
malignity [mə´lɪgnətɪ] = **malignancy.**
malinger [mə´lɪŋgə] *v* yolg'ondan kasal bo'lmoq.
malingerer [mə´lɪŋgərə] *n* o'zini yolg'ondan bir kuyga soladigan kishi; mug'ambir.
malingering [mə´lɪŋgərɪŋ] *n* o'zini yolg'ondan biror kuyga solish; mug'ombirlik (qilish).
malison [´mælɪsn] *n esk.* la'nat, nafrat, qarg'ish.
mall [mɔ:l] *n* sayr qilish uchun joy (xiyobon).
mallard [´mælәd] *n* yovvoyi o'rdak.
malleable [´mælɪɑ:bl] *a* 1) oson bog'lanadigan, bog'lanuvchan; 2) muloyim, mayin, yumshoq.
mallemuck [´mælɪmʌk] *n* 1) albatros (*tumshug'i uzun katta okean qushi*); 2) bo'ronqush.
mallet [´mælɪt] *n* yog'ochdan yasalgan bolg'a.
mallow [´mæləu] *n bot.* 1) gulxayri; 2) tugmagul, tugmachagul.
malm [mɑ:m] *n geol.* mergel, ohak gil.
malmsey [´mɑ:mzɪ] *n* malvaziya (*musallas*).
malnutrition [ˌmælnju:´trɪʃn] *n* ochin-to'qin yashash, qorni ovqatga to'ymaslik.
malodorant [ˌmæ´ləudərənt] *a* sassiq modda.
malodorous [mæ´ləudərəs] *a* sassiq hidli, badbo'y.
malposition [ˌmælpə´zɪʃn] *n tib.* qorindagi bolaning (*homilaning*) noto'g'ri holati.
malpractice [ˌmæl´præktɪs] *n yur.* qonunga qarshi bo'lgan harakat, noqonuniy harakat.
malt [mɔ:lt] **1.** *n* solod (*undirib yanchilgan bug'doy arpa va sh. k.*); **2.** *v* undirmoq (*arpa bug'doy va b.*).
Maltese [ˌmɔ:l´ti:z] **1.** *a* Malta va maltaliklarga oid; **2.** *n* maltalik, Malta aholisi, fuqarosi.
maltha [´mælθə] *n min.* smolali (*yelimli*) qora neft.
maltose [´mɔ:ltəus] *n kim.* solod shakari.
maltreat [ˌmæl´tri:t] *v* zolimona muomala qilmoq; **to ~ animals** hayvonlarga yomon munosabatda bo'lmoq.
maltreatment [ˌmæl´tri:tmənt] *n* zolimona murojaat qilish.
malt-worm [´mɔ:ltwə:m] *n esk.* ichkilikboz, araqxo'r.
malty [´mɔ:ltɪ] *a* 1) mast, araq ichgan; 2) solodga oid.
Malvaceae [mæl´veɪsɪi:] *n pl bot.* gulxayrilar.
malversation [ˌmælvɔ: ´seɪʃn] *n* (*amalidan*) o'z manfaati uchun foydalanish.
mama [mə´mɑ:] *n* oyi, ona.
Mameluke [´mæmɪlu:k] *n tar.* mamluk (*Misr sultonlarining shaxsiy soqchi askari*).
mamma I [mə´mɑ:] *n* oyi, ona (*murojaatda*).
mamma II [´mæmə] *n anat.* ko'krak bezi.
mammae [´mæmi:] *n anat.* ko'krak bezlari.
mammal [´mæməl] *n* sut emizuvchi.
mammalia [mæ´meɪljə] *n zool.* sutemizuvchilar.
mammalogy [mə´mælədʒɪ] *n* sutemizuvchilar haqidagi fan.
mammary [´mæmərɪ] *a* ko'krak beziga oid.
mammilla [mæ´mɪlə] *n* (*pl* **-lae**) emchak uchi.
mammillae [mæ´mɪli:] *pl* **mammilla** *dan.*
mammock [´mæmək] *v* sindirmoq, parchalamoq, buzmoq.
Mammon [´mæmən] *n* pul, aqcha, mol-dunyo, boylik.
Mammonish [´mæmənɪʃ] *a* pulparast, tamagir, manfaatparast.
mammoth I [´mæməθ] *n* mamont (*hozir nasli qurib ketgan filsimon katta hayvon*).
mammoth II [´mæməθ] *a* ulkan, juda katta, azim, haybatli.
mammy [´mæmɪ] *n* onajon, oyijon.
man [mæn] *n* (*pl* **men**) 1) erkak; odam; erkak kishi; **be a ~!** erkak bo'l; **a ~ of wisdom** aqlli odam; 2) inson; **the rights of ~** inson huquqlari.
-man [-mən] murakkab so'zlarda kishining kasb-korini bildiradi, *masalan:* **fisherman** baliqchi; **postman** pochtachi.
manacle [´mænəkl] **1.** *n* bilakka solinadigan kishan; **2.** *v* qo'lga kishan solmoq.
manage [´mænɪdʒ] *v* 1) rahbarlik qilmoq; **to ~ a factory** zavodni boshqarmoq; 2) boshqarmoq; **to ~ a boat** qayiqni boshqarmoq.
manageable [´mænɪdʒəbl] *a* gapga kiradigan, quloq soladigan, itoat qiladigan; **~ child** quloq soladigan bola.
managed [´mænɪdʒd] **1.** *p. p.* **manage** *dan*; **2.** *a* tartibga solib bo'ladigan.
management [´mænɪdʒmənt] *n* 1) boshqarma, ma'muriyat; **the ~ of state affairs** davlat ishlari bo'yicha boshqarma.
manager [´mænɪdʒə] *n* boshqaruvchi, mudir, direktor.
manageress [ˌmænɪdʒə´res] *n* mudira, boshqaruvchi ayol.
managerial [ˌmænə ´dʒɪərɪəl] *a* ma'muriy.
managing [´mænɪdʒɪŋ] **1.** *pres. p.* **manage** *dan;* **2.** *a* rahbarlik qiluvchi.
man-at-arms [ˌmænət´ɑ:mz] *n* (*pl* **men-at-arms**) *harb.* (*og'ir qurol bilan*) qurollangan ot mingan kishi.
man-carried [´mænˌkærɪd] *a* ko'chma, ko'chiriladigan.
man-child [´mæntʃaɪld] *n* (*pl* **men-children**) bola, o'g'il bola.
manciple [´mænsɪpl] *n* xo'jalikka oid kor, tejamkor odam, iqtisodchi (*asosan, kollejda*).
Mancunian [mæŋ´kju:nɪən] **1.** *a* Manchester va manchesterliklarga oid; **2.** *n* Manchester aholisi.
mandamus [mæn´deɪməs] *n* eng yuqori bosqich sudining quyi bosqich sudiga buyrug'i.
mandarin I [´mændərɪn] *n* 1) mandarin (*meva*); 2) Xitoy salati.

mandarin II [ˈmændərɪn] *n* mandarin (*Xitoyda revolutsiyadan oldin: katta amaldor*).
mandarine [ˈmændəri:n] = **mandarin I.**
mandatary [ˈmændətərɪ] *a* majburiy, kerak, lozim.
mandate [ˈmændeɪt] *n* 1) mandat; 2) sud qonuni; 3) vakolat, boshqarish huquqi; 4) (*deputatlarning*) topshirig'i.
mandated [ˈmændeɪtɪd] *a* xalqaro tashkilot mandati bilan idora qilinadigan.
mandatory [ˈmændətərɪ] *n* mandatga oid.
mandible [ˈmændɪbl] *n* ostki jag' (*sutemizuvchilar va baliqlarda*).
mandolin [ˌmændəˈlɪn] *n* mandolina (*to'rt juft sim tori bo'lgan cholg'u asbobi*).
mandoline [ˌmændəˈli:n] = **mandolin.**
mandrake [ˈmændreɪk] *n bot.* mehrigiyoh.
mandrel [ˈmændrəl] *n tex.* qisqich (*kesuvchi asbobni yoki ishlanayotgan detalni qisib qo'yiladigan moslama*).
mandril [ˈmændrɪl] = **mandrel.**
mandrill [ˈmændrɪl] *n* mandril (*maymun*).
mane [meɪn] *n* yol; qil.
man-eater [ˈmænˌi:tə] *n* 1) odamxo'r; 2) *zool.* odam yeydigan akula.
manège [mæˈneɪʒ] *n fr.* manej (*chavandozlar mashq qiladigan joy*).
manful [ˈmænfəl] *a* jasur, botir, mard.
manganese [ˈmæŋgəni:z] *n* marganes (*kimyoviy element*).
manganic [mæŋˈgænɪk] *a kim.* uch valentli marganes qo'shilgan.
mange [meɪndʒ] *n* qichima, qo'tir.
mangel (-wurzel) [ˌmæŋgl(ˈwə:zl)] *n nem.* xashaki (*molga beriladigan*) lavlagi.
manger [ˈmeɪndʒə] *n* oxur, tegana.
mangle [ˈmæŋgl] *n* yuvilgan kirni tekislaydigan dastgoh.
mango [ˈmæŋgəu] *n* mango, anbah (*issiq mamlakatlarda o'sadigan mevali daraxt va uning mevasi*).
mangold [ˈmæŋgəld] = **mangel (-wurzel).**
mangrove [ˈmæŋgrəuv] *n* mangrov daraxti.
mangy [ˈmeɪndʒɪ] *a* qichimaga (*qo'tirga*) oid.
manhandle [ˈmænhændl] *v* qo'lda ko'tarib bormoq (kelmoq).
manhole [ˈmænhəul] *n* teshik, qaraydigan teshik.
manhood [ˈmænhud] *n* 1) balog'atga yetganlik; 2) mardlik, botirlik, jasurlik.
man-hour [ˈmænauə] *n* kishi soati, ish soati (*bir kishining bir soatlik mehnat o'lchovi*).
manhunt [ˈmænhʌnt] *n* politsiyachilar qurshovi.
mania [ˈmeɪnɪə] *n* 1) vasvasa, savdo; 2) vasvoslik, savdoyilik.
maniac I [ˈmeɪnɪæk] *n* savdoyi; vosvos.
maniac II [ˈmeɪnɪæk] *a* 1) qattiq berilib ketgan; 2) miyasi aynigan.
maniacal [məˈnaɪəkl] *a* vasvasa oqibatidagi.
manicure I [ˈmænɪkjuə] *n* manikyur.
manicure II [ˈmænɪkjuə] *v* 1) manikur qilmoq; 2) manikur qildirmoq.
manicurist [ˈmænɪkjuərɪst] *n* manikur qiluvchi ayol.
manifest [ˈmænɪfest] **1.** *v* aniq ko'rsatmoq; **2.** *a* ochiq-oydin ko'rinib turgan, ayon, aniq, tushunarli.
manifestation [ˌmænɪfesˈteɪʃn] *n* namoyish; bildirish.
manifesto [ˌmænɪˈfestəu] *n* manifest (*dastur xarakteridagi hujjat*).
manifold I [ˈmænɪfəuld] *a* turli-tuman, xilma-xil, rang-barang.
manifold II [ˈmænɪfəuld] *v* ko'paytirmoq (*hujjatlar nusxasini*).
manikin [ˈmænɪkɪn] *n* pakana (*kichkina odam*).
Manila [məˈnɪlə] *n* manila kanop tolasi, manila sigarasi.
manioc [ˈmænɪɔk] *n* manioka.
maniple [ˈmænɪpl] *n* manipula.
manipulate [məˈnɪpjuleɪt] *v* noto'g'ri talqin qilmoq.
manipulation [məˌnɪpjuˈleɪʃn] *n* 1) manipulatsiya (*qo'l ishida murakkab va nozik harakatlar*); 2) hiyla, nayrang; 3) murojaat, murojaatnoma.
manipulator [məˈnɪpjuleɪtə] *n* motorchi (*motorlarga qarovchi ishchi, mutaxassis*); mashinist, operator.
mankind [mænˈkaɪnd] *n* insoniyat, kishilik, odamzod, bashariyat.
manlike [ˈmænlaɪk] *a* erkaklarga oid, erkaklarcha.
manliness [ˈmænlɪnəs] *n* mardlik, botirlik, jasurlik.
manly [ˈmænlɪ] *a* mard, botir, jasur, qahramon.
man-made [ˌmænˈmeɪd] *a* 1) sun'iy, yasama, g'ayritabiiy; 2) insonning qo'li bilan yaratilgan.
manna [ˈmænə] *n bot.* bug'doy.
manna-croup [ˈmænəˈkru:p] *n* bug'doy yormasi.
manned [mænd] *a* 1) odamlar bilan to'lgan; 2) (*inson tomonidan*) boshqariladigan (*uchish apparatlarini*).
mannequin [ˈmænɪkɪn] *n* 1) maneken (*kiyimlarni namoyish qilish yoki o'lchab ko'rish uchun gavda qolipi*); 2) tayyor kiyimlarni kiyib ko'rsatuvchi ayol.
manner [ˈmænə] *n* 1) uslub, usul; **~ of speaking** gapirish usuli; 2) odat; **strange ~s** qiziq odat.
mannered [ˈmænəd] *a* 1) serhasham, bejamador (*uslub haqida*); 2) g'ayritabiiy (*uslub haqida*).
-mannered [-mænəd] murakkab so'zlarda u *yoki* bu qiliq, odatda ega ekanligini bildiradi: *masalan:* **well-~** yaxshi odatli; **ill-~** yomon odatli.
mannerism [ˈmænərɪzm] *n* sulukat, qiliq, odat, xulq-atvor.
mannerist [ˈmænərɪst] *n* taqlidchi.
mannerless [ˈmænələs] *a* qo'pol muomalali; tarbiyasiz, yomon tarbiya ko'rgan.

mannerliness [ˈmænəlɪnəs] *n* 1) muloyimlik, xushmuomalalik; 2) yaxshi tarbiya ko'rganlik.

mannerly [ˈmænəlɪ] *a* 1) muloyim, silliq, xushmuomala; 2) tarbiyali; yaxshi tarbiya ko'rgan.

manning [ˈmænɪŋ] *attr.* to'ldirib qo'yilgan; but qilib qo'ymoq.

mannish [ˈmænɪʃ] *a* erkaklarga o'xshagan (*ayol haqida*).

manoeuvrability [mə,nu:vrəˈbɪlətɪ] *n harb.* harakatchanlik, chaqqonlik.

manoeuvre [məˈnu:və] *n* 1) manevr (*harbiy harakatlar*); 2) hiyla, nayrang, makr.

man-of-war [ˌmænəv ˈwɔ:] *n* harbiy kema; **~s man** harbiy dengizchi.

manometer [məˈnɔmɪtə] *n* manometr.

manor [ˈmænə] *n* feodalning yer mulki.

manor-house [ˈmænəhaus] *n* feodalning uyi.

manorial [məˈnɔ:rɪəl] *a* feodalning mulkiga oid.

manpower [ˈmænpauə] *n* 1) ishchi kuchi; 2) shaxsiy tarkib.

mansard [ˈmænsɑ:d] *n me'mor.* qiya shipli boloxona.

manse [mæns] *n* (*shotlandiyalik*) protestant mazhabidagi ruhoniyning uyi.

mansion [ˈmænʃn] *n* katta uy, saroy, dargoh.

mansion-house [ˌmænʃn ˈhaus] *n* katta yer egasi (pomeshik)ning uyi.

man-size(d) [ˈmænsaɪz(d)] *a* voyaga yetgan kishilar uchun katta bo'lgan.

manslaughter [ˈmæn,slɔ:tə] *n* qotillik, odam o'ldirish.

mantel [ˈmæntl] *n tex.* turli mexanizmlarning ustini o'rab turuvchi qoplamasi.

mantel-board [ˈmæntlbɔ:d] *n* kamin ustidagi taxta tokcha.

mantelet [ˈmæntlɪt] *n* mantilya (*ispan ayollarining yelkaga tashlab yuriladigan to'r ro'moli*).

mantelpiece [ˈmæntlpi:s] *n* o'choqsimon uy pechkasining qoplami.

mantelshelf [ˈmæntlʃelf] *n* kamin taxta tokchasi.

mantes [ˈmæntɪz] *pl* **mantis** *dan.*

mantis [ˈmæntɪs] *n* (*pl* **-tes**) *zool.* beshiktervatar (*hasharot*).

mantle [ˈmæntl] *n* 1) yelkaga tashlanadigan yengsiz kiyim; 2) qoplama jild.

mantlet [ˈmæntlɪt] = **mantelet.**

mantrap [ˈmæntræp] *n* tuzoq, qopqon (*asosan, odamlarda*).

manual I [ˈmænjuəl] *a* qo'lda olib yuradigan; qo'l bilan boshqariladigan; **~ labour** jismoniy mehnat.

manual II [ˈmænjuəl] *n* 1) qo'llanma, darslik; 2) boshqarish.

manufactory [ˌmænjuˈfæktərɪ] *n* 1) fabrika; 2) sex; 3) manufaktura; 4) ustaxona.

manufacture [ˌmænjuˈfæktʃə] **1.** *n* ishlab chiqarish, korxona; **2.** *v* ishlab chiqarmoq; **to ~ shoes** oyoq kiyim ishlab chiqarmoq.

manufactured goods [ˌmænjuˈfæktʃəd,gudz] *n pl* sanoat mahsulotlari, fabrika mahsulotlari.

manufacturer [ˌmænjuˈfæktʃərə] *n* fabrika egasi; tadbirkor; ishlab chiqaruvchi kishi.

manufacturing I [ˌmænjuˈfæktʃərɪŋ] *n* ishlab chiqarish; **~ cost** ishlab chiqarish narxi.

manufacturing II [ˌmænjuˈfæktʃərɪŋ] *a* sanoatga oid.

manuka [mæˈnukə] *n* choy daraxti.

manumission [ˌmænjuˈmɪʃn] *n* ozod qilish, ozodlik hujjati, ozodlik xati (*qullikdan*).

manumit [ˌmænjuˈmɪt] *v* ozod qilmoq, qutqarmoq.

manure [məˈnjuə] **1.** *n* go'ng, o'g'it; **2.** *v* go'ng (o'g'it) solmoq.

manuscript [ˈmænjuskrɪpt] *n* qo'lyozma (*qo'lda yozilgan matn*); **~ on paper** qog'ozdagi qo'lyozma.

Manx [mæŋks] **1.** *a* Men oroliga oid; **2.** *n* Men orolida yashaydigan aholi tili.

Manxman [ˈmæŋksmən] *n* Men orolining fuqarosi, Men orolida yashaydigan kishi, menlik kishi

many [ˈmenɪ] **1.** *a* 1) ko'p, ancha, bir talay; **~ people** ko'p odamlar; **2.** *n* ko'pdan ko'p, juda ko'p, ko'pgina kishilar.

many-sided [ˌmenɪˈsaɪdɪd] *a* har tomonlama, har taraflama.

many-stage [ˌmenɪ ˈsteɪdʒ] *a* ko'p pog'onali.

Maori [ˈmaurɪ] *n* (*pl*-**s** [-z] *yoki o'zgarishsiz*) maori, maori tili.

map [mæp] **1.** *n* xarita; **a ~ of the world** dunyo xaritasi; **2.** *v* xaritaga kiritmoq, xaritani chizmoq.

maple [ˈmeɪpl] *n* 1) zarang (*daraxt*); 2) *attr.* zarang daraxtiga oid, zarang yog'ochidan qilingan.

maple-leaf [ˈmeɪplli:f] *n* zarang daraxtining bargi.

map-maker [ˈmæp,meɪkə] *n* kartograf (*xaritalar tuzuvchi mutaxassisi, kartografiya mutaxassisi*).

mapping [ˈmæpɪŋ] **1.** *pres. p.* **map 2.** *dan*; **2.** *n* xaritaga kiritish, xaritaga olish.

map range [ˌmæpˈreɪndʒ] *n harb.* gorizontal masofa (*xarita bo'yicha*).

Maquis [mæˈki:] *n fr.* (*pl o'zgarishsiz*) maki (*Ikkinchi Jahon urushidagi fransuz partizanining nomi*).

mar [mɑ:] **1.** *n* urilgan joy, lat yegan joy; **2.** *v* urmoq, ziyon keltirmoq.

marabou [ˈmærəbu:] *n zool.* marabu, marbut (*laylaklarga mansub katta qush*).

marabout [ˈmærəbu:t] *n* tarki dunyo qilgan musulmon.

marasmus [məˈræzməs] *n* 1) ma'naviy tushkunlik; 2) kuch-quvvatdan qolish.

Marathon [ˈmærəθən] *n* marafon yugurishi.

maraud [məˈrɔ:d] *v* 1) shilmoq, talamoq, bosqinchilik qilmoq; qimmat sotib talamoq; 2) kafanduzdlik qilmoq.

marauder [məˈrɔ:də] *n* 1) qimmatfurush savdogar; 2) kafanduzd.

marauding [mə´rɔ:dɪŋ] **1.** *pres. p.* **maraud** *dan*; **2.** *n* kaʃanduzdlik, talovchilik, qimmatʃurushlik.
marble [´mɑ:bl] *n* marmar, marmartosh.
marbled [´mɑ:bld] *a* ola-chipor, xol-xol dog'li.
marble-topped [ˌmɑ:bl´tɔpt] *a* : ~ **table** marmar taxtali stol.
marc [mɑ:k] n siqish (mevalarni).
marcel [mɑ: ´sel] **1.** *n* sochni qattiq qilib o'rish; **2.** *v* sochlarni issiq qisqich (fen) bilan jingalak qilib o'rmoq.
March [mɑ:tʃ] *n* mart; ~ **days** mart kunlari.
march I [mɑ:tʃ] *harb. n* yurish, namoyish, marsh.
march II [mɑ:tʃ] *v* chegaradosh bo'lmoq.
march III [mɑ:tʃ] *v* marsh qilmoq, olg'a bormoq.
marching [´mɑ:tʃɪŋ] *n* harbiycha qadam tashlab yurish.
marchioness I [´mɑ:ʃənɪs] *n* eshik (deraza) soyaboni.
marchioness II [´mɑ:ʃənɪs] *n* markiza.
marchpane [´mɑ:tʃpeɪn] *n* mag'iz xamir.
march past [´mɑ:tʃpɑ:st] *n* tantana bilan yurib o'tish.
mare [mɛə] *n* baytal, biya.
mare's-nest [´mɛəznest] *n* amalga oshmaydigan xom xayol.
margarine [ˌmɑ:dʒə´ri:n] *n* margarin.
marge I [mɑ:dʒ] = **margin I**.
marge II [mɑ:dʒ] = **margarine.**
margin I [´mɑ:dʒɪn] *n* hoshiya, qirg'oq, chet.
margin II [´mɑ:dʒɪn] *v* hoshiyaga (*chetiga*) qayd qilmoq.
marginal [´mɑ:dʒɪnəl] *a* 1) kitob chetiga yozilgan; 2) chetda turadigan.
marginalia [ˌmɑ:dʒɪ´neɪlɪə] *n pl* kitob chetidagi qaydlar.
margrave [´mɑ:greɪv] *n tar.* markgraf.
margravine [´mɑ:grəvi:n] *n* markgraf xotini.
marguerite [ˌmɑ:gə´ri:t] *n bot.* dastorgul.
marigold [´mærɪgəuld] *n bot.* 1) gulidovud, gulijavhar; 2) gulhamishabahor.
marihuana [´mærɪ´wɑ:nə] *n isp.* marixuana, nasha.
marijuana [ˌmærɪ´wɑ:nə] = **marihuana.**
marimba [mə´rɪmbə] *n* marimba (*musiqa asbobi*).
marina [mə´ri:nə] *n* qayiqlar turadigan joy.
marinade [ˌmærɪ´neɪd] **1.** *n* ziravorli sirkamoy; **2.** *v* 1) ziravorli sirkamoy bosmoq; 2) tuzlamoq, tuzlab qo'ymoq.
marine [mə´ri:n] *n* 1) dengiz floti; 2) dengiz floti askari; 3) dengiz manzarasi tasvirlangan rasm.
mariner [´mærɪnə] *n* matros, dengizchi.
marionette [ˌmærɪə´net] *n* qo'g'irchoq (*o'yinchi qo'g'irchoq*).
marital [´mærɪtl] *a* er-xotinga va er-xotinlikka oid.
maritime [´mærɪtaɪm] *a* dengizga oid; ~ **climate** dengiz iqlimi.
marjoram [´mɑ:dʒərəm] *n bot.* mayoran.
mark I [mɑ:k] *n* 1) belgi, nishona, ko'rsatkich; ~ **of accent** urg'u belgisi; 2) tamg'a, shtamp; 3) iz; ~**s of illness** kasallik belgisi; 4) yamoq, chandiq xol; 5) marka; 6) baho, ball; **good** ~ **in English** ingliz tilidan yaxshi baho.
mark II [mɑ:k] *v* 1) belgi qo'ymoq; **to** ~ **the accent** urg'u qo'ymoq; 2) tamg'alamoq, belgilamoq; marka qo'ymoq; 3) o'lchamoq, belgilamoq; 4) iz qoldirmoq; 5) baholamoq, belgilamoq; 6) fikrini bildirmoq; ~ **down** pasaytirmoq, kamaytirmoq; ~ **off** ajratmoq; ~ **out** o'lchamoq; ~ **up** ko'tarilmoq (*narx to'g'risida*).
mark-down [´mɑ:kdaun] *n* narxlarning pasayishi.
marked [mɑ:kt] *a* belgilangan.
marker [´mɑ:kə] *n* tamg'a bosuvchi, tamg'alovchi kishi.
market [´mɑ:kɪt] **1.** *n* bozor; ; **home** ~ ichki bozor; **2.** *v* bozorga olib kelmoq, bozorda sotib olmoq; **to go to the** ~ bozorga bormoq.
marketability [ˌmɑ:kɪtə´bɪlətɪ] *n* bozorda sotishga yaroqlilik.
marketable [´mɑ:kɪtəbl] *a* bozori chaqqon, bozorgir, tez sotiladigan (*tovarga, molga nisbatan*).
market-day [´mɑ:kɪtdeɪ] *n* bozor kuni.
marketeer [ˌmɑ:kɪ´tɪə] *n* savdogar, do'kondor, xaridor.
market garden [ˌmɑ:kɪt´gɑ:dn] *n* poliz, poliz ekinlari (sabzavot) ekilgan yer.
marketing [´mɑ:kɪtɪŋ] **1.** *pres. p.* **market 2.** *dan*; **2.** *n* savdo, savdo-sotiq.
market-place [ˌmɑ:kɪtpleɪs] *n* bozor maydoni.
market-price [ˌmɑ:kɪt´praɪs] *n* bozor bahosi.
marking [´mɑ:kɪŋ] *n* 1) marka, belgi, tamg'a; 2) rang-barang qilib bo'yash.
markka [´mɑ:kə] *n* marka (*Finlandiya pul birligi*).
marksman [´mɑ:ksmən] *n* mergan otuvchi, mergan.
marksmanship [´mɑ:ksmənʃɪp] *n* bexato otilgan o'q.
mark-up [´mɑ:kʌp] *n* (*mol, tovarning*) narxining ko'tarilishi.
marl [mɑ:l] *n* mergel, ohakgil.
marline [´mɑ:lɪn] *n deng.* marlin.
marly [´mɑ:lɪ] *a geol.* ohakgilga oid.
marmalade [´mɑ:məleɪd] *n* 1) quyuq shinni; 2) povidlo, meva qiyom; 3) marmelad.
marmoreal [mɑ:´mɔ:rɪəl] *a* marmarga oid.
marmoset [´mɑ:məzet] *n* maymun (*martishka zoti*).
marmot [´mɑ:mət] *n zool.* sug'ur.
maroon [mə´ru:n] **1.** *n* to'q qizil rang; **2.** *a* to'q qizil.
marplot [´mɑ:plɔt] *n* to'siq, to'siqlik, g'ov.
marquee [mɑ:´ki:] *n* katta chodir.
marquis [´mɑ:kwɪs] *n* markiz (*ba'zi G'arbiy Yevropa mamlakatlarida: dvoryanlar unvoni va shu unvonga ega bo'lgan kishi*).
marquise [mɑ:´ki:z] *n* markiza (*markizning xotini yoki qizi*).
marquisette [ˌmɑ:kwɪ´zet] *n* markizet.

marriage [ˈmærɪdʒ] *n* er-xotinlik, uylanish, nikoh, turmushga chiqish.

marriageable [ˈmærɪdʒəbl] *a* katta yoshli, voyaga yetgan; **a girl of ~ age** voyaga yetgan qiz.

married [ˈmærɪd] **1.** *p. p.* **marry** *dan*; **2.** *a* uylangan, turmushga chiqqan; **~ man** uylangan erkak; **to get ~** turmushga chiqmoq.

marrow [ˈmærəu] *n* 1) ilik; 2) mohiyat, asosiy ma'no.

marrowbone [ˈmærəubəun] *n* 1) bosh miya suyagi; 2) ilikli suyak; asl ma'no, mazmun.

marrow squash [ˌmærəuˈskwɔʃ] *n bot.* qovoqcha (*qovoqning mayda uzunchoq bir turi*).

marrowy [ˈmærəuɪ] *a* miyasi butun, baquvvat.

marry [ˈmærɪ] *v* 1) uylantirmoq, xotin olib bermoq; 2) erga bermoq; 3) uylanmoq; 4) erga tegmoq.

Mars [mɑ:z] *n astr.* Mars (*Quyosh sistemasidagi to'qqizta katta planetalardan biri*).

Marsala [mɑ:ˈsɑ:lə] *n* marsala (*vino*).

Marseillaise [ˌmɑsəˈleɪz] *n fr.* marselyeza (*1792-yili Fransiya burjua revolutsiyasi davrida yaratilgan revolutsion qo'shiq, keyinchalik Fransiyaning gimni*).

marsh [mɑ:ʃ] *n* botqoq, botqoqlik.

marshal [ˈmɑ:ʃəl] *n* marshal.

marshalling yard [ˈmɑ:ʃəlɪŋjɑ:d] *n* (*vagonlarni*) saralaydigan stansiya.

marsh gas [ˈmɑ:ʃgæs] *n* metan, botqoq gazi.

marsh harrier [ˈmɑ:ʃˌhærɪə] *n zool.* botqoqlikda (to'qayda) yashaydigan bo'ktargi (*yirtqich qushlarning bir turi*).

marshland [ˈmɑ:ʃlænd] *n* serbotqoq joy.

marsh mallow [ˌmɑ:ʃˈmæləu] *n bot.* dorivor gulxayri.

marshy [ˈmɑ:ʃɪ] *a* botqoqlik joylari ko'p bo'lgan, serbotqoq.

marsupial I [mɑ:ˈsju:pɪəl] *n zool.* qopchiqli hayvon, xaltali hayvon.

marsupial II [mɑ:ˈsju:pɪəl] *a* xaltali, qopchiqli.

mart [mɑ:t] *n shoir.* bozor; 2) savdo markazi.

marten [ˈmɑ:tɪn] *n* suvsar (*qimmatbaho mo'ynali yirtqich sutemizuvchilarning bir turi*).

martial [ˈmɑ:ʃəl] *a* jangovar, harbiyga oid; **~ law** a) harbiy holat; b) harbiy payt qonuni.

Martian [ˈmɑ:ʃn] *n* marslik.

martin [ˈmɑ:tɪn] *n* shahar qaldirg'ochi.

martinet [ˌmɑ:tɪˈnet] *n* qattiq intizom tarafdori.

martingale [ˈmɑ:tɪngeɪl] *n qarta.* dov (*qimorga tikilgan pulning yutqazganda ikki baravar ko'payishi*).

Martini [mɑ:ˈti:nɪ] *n* martini (*kokteyl*).

Martinmas [ˈmɑ:tɪnməs] *n cherk.* Martin kuni (*11-noyabr*).

martlet [ˈmɑ:tlɪt] *n* 1) jonim, jonginam; 2) *zool.* qora jarqaldirg'och; qora uzunqanot.

martyr [ˈmɑ:tə] **1.** *n* azob tortgan, aziyat chekkan; **2.** *v* azob bermoq, aziyat chekmoq.

martyrdom [ˈmɑ:tədəm] *n* azob-uqubatdagi ahvol, azob-uqubat tortish.

martyrize [ˈmɑ:təraɪz] *v* azoblamoq, zulm qilmoq.

marvel [ˈmɑ:vl] **1.** *n* mo'jiza, karomat; **2.** *v* ajablanmoq, hayron bo'lmoq.

marvellous [ˈmɑ:vələs] *a* ajoyib, kishini hayron qiladigan (*hayratda qoldiradigan*).

marzipan [ˈmɑ:zɪpæn] = **marchpane.**

mascara [mæsˈkɑ:rə] *n* qoshga qo'yadigan tush, bo'yoq, rang.

mascot [ˈmæskət] *n* tumor.

masculine [ˈmɑ:skjulɪn] *a* 1) erkaklarga xos bo'lgan, erkaklarcha; 2) *gram.* **~ gender** erkak jinsi.

masculinity [ˌmæskjuˈlɪnətɪ] *n* mardlik, botirlik, jasurlik, qahramonlik, dovyuraklik.

mash I [mæʃ] *n* atala (*pivo qilish uchun tayyorlanadigan g'alla atalasi*).

mash II [mæʃ] **1.** *n* 1) zavq, ishtiyoq; 2) qiziqish, ishqivozlik; **2.** *v* o'ziga tortmoq, jalb qilmoq, qiziqtirib qo'ymoq.

mashed potatoes [ˌmæʃtpəˈteɪtəuz] *n pl* kartoshka pyuresi.

masher I [ˈmæʃə] *n* mevalarni ezib suvini chiqaradigan qurilma.

masher II [ˈmæʃə] *n* olifta, satang.

mask [mɑ:sk] *n* 1) maska, niqob; 2) protivogaz.

masked [ˈmɑ:skt] *a* boshqacha kiyim kiygan, boshqacha kiyingan.

masker [ˈmɑ:skə] = **masquer.**

mason [ˈmeɪsn] *n* g'isht teruvchi (*quruvchi*) usta.

Masonic [məˈsɔnɪk] *a* masonlik, masonga oid (*mason – VIII asrda paydo bo'lgan diniy, falsafiy oqim; uning tarafdorlari axloqni kamolotga yetkazish vazifasini qo'ygan, lekin siyosatda reaksion yo'l tutgan*).

masonry [ˈmeɪsnrɪ] *n* toshdan qurilgan devor.

masque [mɑ:sk] *n* niqob teatri.

masquer [ˈmɑ:skə] *n* balmaskarad *yoki* niqob teatrining ishtirokchisi.

masquerade I [ˌmæskəˈreɪd] *n* 1) maskarad, niqoblanish, yasama tus olish; 2) o'zini boshqa qilib ko'rsatish.

masquerade II [ˌmæskəˈreɪd] *v* maskaradda qatnashmoq.

mass [mæs] *n* omma, ko'pchilik.

massacre [ˈmæsəkə] **1.** *n* qirg'in, xunrezlik; **2.** *v* xunrezlik qilmoq.

massage [ˈmæsɑ:ʒ] **1.** *n* massaj, silash, uqalash; **2.** *v* silamoq, uqalamoq.

masseur [mæˈsə:] *n fr.* massajchi (uqalovchi) kishi.

masseuse [mæˈsə:z] *n fr.* massajchi (*uqalovchi*) ayol.

massicot [ˈmæsɪkət] *n* qo'rg'oshin oksidi (*sariq bo'yoq*).

massif [ˈmæsi:f] *n* keng tog'li joy.

massive [ˈmæsɪv] *n* 1) salmoqdor, yirik; 2) ulkan, katta; **~ storm** qattiq bo'ron.

mass-produce [ˌmæsprəˈdju:s] *v* ko'p ishlab chiqarmoq.
mass-spectrograph [ˌmæs ˈspektrəugrɑ:f] *n fiz.* mass-spektrograf (*spektr tasvirini yozib oladigan asbob*).
massy [ˈmæsɪ] *a* 1) mustahkam, puxta, ishonchli; 2) katta, yirik.
mast I [mɑ:st] *n q.x.* yig'ishtirilgan xashak, pichan (*hosili*).
mast II [mɑ:st] *n* machta (*kemaning yelkan osish, kuzatish, signal berish uchun xizmat qiladigan metall yoki yog'och ustuni, dori*).
mast III [mɑ:st] *v* machta qo'ymoq (o'rnatmoq).
master I [ˈmɑ:stə] *n* 1) xo'jayin, ega, sohib, usta; **~ of a shop** magazin egasi; 2) o'qituvchi; **mathematics ~** matematika o'qituvchisi; 3) kollej boshlig'i; 4) magistr; 5) o'z ishining ustasi; 6) buyuk, mashhur rassom; 7) kapitan (*dengiz korabli*).
master II [ˈmɑ:stə] *v* 1) yengmoq (*qiyinchiliklarni*); **to ~ the enemy** dushmanni yengmoq; **to ~ a difficulty** qiyinchilikni yengmoq; 2) egallamoq (*bilim, til*); **to ~ a language** tilni egallamoq; 3) boshqarmoq; **to ~ the house** xo'jalikni boshqarmoq.
masterly [ˈmɑ:stəlɪ] **1.** *a* mahorat bilan bajariladigan, mohirona; **2.** *adv* mahorat bilan, ustalik bilan.
mastermind [ˈmɑ:stəmaɪnd] *n* 1) zo'r aql; 2) yo'lboshchi, yetakchi, boshliq, ishboshi (*asosan, maxfiy, norasmiy*).
masterpiece [ˈmɑ:stəpi:s] *n* shoh (durdona) asar.
mastery [ˈmɑ:stərɪ] *n* ustalik, mahorat.
masticate [ˈmæstɪkeɪt] *v* 1) qormoq, pishitmoq; 2) chaynamoq, kavshamoq; yemoq.
mat I [mæt] **1.** *n* 1) bo'yra, to'shak kabi narsalarning umuniy nomi; 2) dag'al poyandoz, oyoqartkich; 3) gilamcha, kichkina gilam; 4) chigallashib ketgan narsa; **2.** *v* 1) gilam va b. to'shamoq; 2) chigallashtirmoq, chalkashtirmoq, adashtirmoq.
mat II [mæt] *a* xira, yaltiramaydigan, nursiz, jilosiz.
match [mætʃ] **1.** *n* 1) gugurt; **to shine a ~** gugurt yoqmoq; 2) *sport.* musobaqa.
match-box [ˈmætʃbɔks] *n* gugurt quti.
matchless [ˈmætʃləs] *a* 1) beqiyos, bemisl, misli yo'q, tengsiz, ajoyib, yakka-yagona; 2) eng birinchi, eng yaxshi, eng mukammal, hech kim (hech narsa) oldiga tusholmaydigan, teng kelolmaydigan.
mate [meɪt] *n* 1) o'rtoq; **class ~** sinfdosh; 2) er, xotin, rafiqa.
material I [məˈtɪərɪəl] *a* 1) moddiy, ashyoviy; 2) muhim.
material II [məˈtɪərɪəl] *n* 1) ashyo, material; **building ~s** qurilish materiallari; 2) *to'qim.* gazlama, gazmol.
materialism [məˈtɪərɪəlɪzm] *n* materializm.
materialist [məˈtɪərɪəlɪst] *n* 1) materializm tarafdori; 2) manfaatparast, o'z manfaatini ko'zlab ish tutuvchi odam.
materialistic [məˌtɪərɪəˈlɪstɪk] *a* materialistik.
materialize [məˈtɪərɪəlaɪz] *v* amalga oshirmoq (*reja va b. ni*); hayotga tatbiq qilmoq.
maternal [məˈtɜ:nl] *a* 1) onalarga xos bo'lgan, onalarcha; 2) ona tomondan.
maternity [məˈtɜ:nətɪ] *n* onalik; **~ hospital** tug'ruqxona.
mathematics [ˌmæθəˈmætɪks] *n* matematika.
matinèe [ˈmætɪneɪ] *n fr.* spektakl *yoki* konsertning kunduzgi seansi.
matriculate [məˈtrɪkjuleɪt] **1.** *v* oliy o'quv yurtiga qabul qilinmoq *yoki* qabul qilmoq; **2.** *n* oliy o'quv yurtiga qabul qilingan kishi.
matrimony [ˈmætrɪmənɪ] *n* er-xotinlik, nikoh.
matron [ˈmeɪtrən] *n* 1) turmush qurgan ayol; 2) bosh hamshira.
matt [mæt] *a* nursiz, xira, jilosiz.
matter [ˈmætə] *n* 1) modda; 2) *filos.* materiya; 3) masala, ish; **radioactive ~** radioaktiv modda.
matting [ˈmætɪŋ] *n* 1) bo'yra; bordon; 2) chipta (*dag'al buyumlar to'qish uchun tayyorlangan yupqa tilim-tilim po'stloq va undan to'qilgan narsa*).
mattock [ˈmætək] *n* 1) ketmonsimon asbob; 2) dastaki so'qa (*so'qa – yer haydash uchun ishlatiladigan cho'yan tishli sodda asbob*); omoch; 2) qo'shbosh (*bir oyog'i kirkaga, bir oyog'i teshaga o'xshagan ikkiyoqlama asbob*).
mattress [ˈmætrəs] *n* matras, to'shak.
mature [məˈtʃuə] **1.** *a* 1) pishgan, yetilgan; 2) o'sgan; katta bo'lgan; **2.** *v* katta bo'lmoq, yetilmoq.
maturity [məˈtʃuərətɪ] *n* 1) yetilganlik, pishganlik; 2) tugaganlik, oxiriga yetganlik.
maudlin [ˈmɔ:dlɪn] **1.** *a* 1) yig'loqi; chakagi ochiq, seryig'i (*mastligida*); 2) ko'ngli bo'sh, tez ta'sirlanuvchan; **2.** *n* erkalik, tantiqlik.
maul [mɔ:l] **1.** *n* bosqon, katta bolg'a; **2.** *v* burdalamoq, tilka-pora qilmoq.
maunder [ˈmɔ:ndə] *v* ming'illamoq, g'ulduramoq, to'ng'illamoq, tushunib bo'lmaydigan tarzda so'zlamoq.
mausoleum [ˌmɔ:səˈli:əm] *n* maqbara, qabr, go'r.
mauve [məuv] *a* qizg'ish binafsharang.
mawkish [ˈmɔ:kɪʃ] *a* 1) ko'ngilni aynitadigan, ko'ngilga tegadigan, ko'ngilga uradigan; 2) ortiq darajada hissiyotga beriladigan, ko'ngli bo'sh, tez ta'sirlanuvchan.
maxim [ˈmæksɪm] *n* 1) hikmatli so'z; ibora; 2) shior; tamoyil.
maximize [ˈmæksɪmaɪz] *v* maksimallashtirmoq.
maximum [ˈmæksɪməm] *n* maksimum (*eng katta qiymat, eng ko'p miqdor, eng yuqori daraja*).
May [meɪ] *n* may.
may I [meɪ] **1.** *v* (**might**) 1) modal fe'l bo'lib imkon borligini bildiradi va quyidagicha tarjima bo'ladi: ehtimol, balki, shoyad; 2) iltimos va ruxsatni bildiradi: **May I come in?** Kirsam maylimi?
may II [meɪ] *n shoir.* qiz.
maybe [ˈmeɪbɪ] *adv* ehtimol, balki, yoki.

mayonnaise [ˌmeɪə´neɪz] *n* mayonez.
mayor [meə] *n* mer (*ba'zi mamlakarlarda: shahar boshqarmasining boshlig'i*), shahar hokimi.
maze [meɪz] **1.** *n* 1) chalkash yo'l, yo'lak, ko'cha va sh.k.; 2) chigallik, chalkashlik; **2.** *v* 1) og'ir (qiyin) ahvolga solib qo'ymoq; 2) sarosimaga solib qo'ymoq.
me [mi:] *pron.* men, menga.
meadow [´medəu] *n* o'tloq, yaylov.
meagre [´mi:gə] *a* 1) yomon, yaramas; 2) foydasi kam, unumsiz.
meal I [mi:l] *n* ovqat; oziq.
meal II [mi:l] *v* ovqatlanmoq; ovqat yemoq.
mealtime [´mi:ltaɪm] *n* ovqat(lanish) vaqti (*masalan: nonushta, tushlik va b.*).
mealy [´mi:lɪ] *a* 1) kraxmalli; tarkibida un *yoki* kraxmal bo'lgan; serkraxmal; 2) unli, un solingan, undan (xamirdan) tayyorlangan.
mean I [mi:n] *v* 1) nazarda tutmoq; 2) bildirmoq; 3) ma'no anglatmoq.
mean II [mi:n] *a* yomon.
meander [mɪ´ændə] *v* 1) buralib (egri-bugri bo'lib) ketmoq (*daryo va ko'chaga nisbatan*); 2) daydib yurmoq.
meaning [´mi:nɪŋ] *n* ahamiyat, ma'no; mazmun; **~less** ahamiyatsiz.
means [mi:nz] *n* 1) iloj, chora; 2) vosita.
meant [ment] *past., p. p.* **mean I** *dan.*
meantime [´mi:n´taɪm] *adv* shu (orada) paytda.
meanwhile [´mi:n´waɪl] = **meantime.**
measles [´mi:zlz] *n* 1) qizamiq; 2) finnoz (*finnalar qo'zg'atadigan kasallik*).
measly [´mi:zlɪ] *a* ozgina, arzimagan, juda kichkina.
measure I [´meʒə] *n* 1) me'yor, 2) o'lchov, kattakichiklik; **liner ~** maydonning uzunlik o'lchovi; 3) tadbir, chora.
measure II [´meʒə] *v* 1) o'lchamoq; **to ~ a piece of cloth** bir parcha materialni o'lchamoq; 2) tenglamoq; sinab ko'rmoq; **to ~ one's strength with smb.** kim bilandir kuchini sinab ko'rmoq; 3) chegarani belgilamoq; **~ off** o'lchab bo'lmoq; **~ up** yetmoq, erishmoq; **~ out** o'lchab chiqmoq.
meat [mi:t] *n* 1) go'sht; **~ly** go'shtli; 2) ovqat; **at ~** ovqat ustida; **after ~** ovqatdan keyin; **before ~** ovqatdan oldin.
meat-ball [´mi:tbɔ:l] *n* frikadelka (*sho'rvada pishirilgan yumaloq qiyma*).
meat-chopper [´mi:tˌtʃɔpə] *n* myasorubka (*go'shtni qiymaga aylantiradigan moslama*); go'shtqiymalagich.
meat-grinder [´mi:tˌgraɪndə] = **meat-chopper.**
mechanic [mɪ´kænɪk] *n* mexanik, mashinist.
mechanical [mɪ´kænɪkl] *a* mashinada bajariladigan, mashinaviy, mexanik.
mechanism [´mekənɪzm] *n* 1) mexanizm, qurilma; 2) tizim, sistema.
mechanize [´mekənaɪz] *v* mexanizatsiyalashtirmoq.
medal [´medl] *n* 1) medal; 2) orden.
medallion [mɪ´dælɪən] *n* medalyon.
meddle [´medl] *v* birovning shaxsiy ishiga aralashmoq (**with, in**).
media I [´mi:dɪə] *n* ommaviy axborot.
media II [´medɪə] *n fon.* jarangli undosh.
mediaeval [ˌmedɪ´i:vl] = **medieval.**
medial [´mi:djəl] *a* 1) o'rta, o'rtacha; o'rta hisobdagi; 2) o'rtalikdagi, oraliqdagi.
median [´mi:dɪən] **1.** *a* 1) o'rtalikdagi, oraliqdagi; 2) o'rtadagi, o'rtasidagi; **2.** *n mat.* mediana (*uchburchakning uchidan qarshi tomonning o'rtasiga o'tkazilgan kesma*).
mediate [´mi:dɪət] **1.** *n* vositachi; **2.** *v* vositachilik qilmoq; **to ~ between two warring countries** ikki urushayotgan mamlakat orasida vositachilik qilmoq.
mediation [ˌmi:dɪ´eɪʃn] *n* vositachilik, aralashuv.
mediator [´mi:dɪeɪtə] *n* vositachi (*murosaga keltiruvchi kishi*); dallol.
medical [´medɪkl] *a* tibbiyotga oid, tibbiy; **~ service** tibbiy xizmat; **~ aid** tibbiy yordam.
medicine [´medsən] *n* 1) tibbiyot; **to study ~** tibbiyotni o'rganmoq; 2) dori, dori-darmon.
medieval [ˌmedɪ´i:vəl] *a* o'rta asrlarga oid; o'rta asrlarga xos bo'lgan, o'rta asrlardagi.
mediocre [ˌmi:dɪ´əukə] *a* o'rtacha, o'rta-miyona, oddiy.
meditate [´medɪteɪt] *v* chuqur o'ylamoq; fikr yuritmoq; mulohaza qilmoq.
Mediterranean [ˌmedɪtə´reɪnɪən] *a* dengiz qirg'og'idan uzoqlashgan.
medium [´mi:dɪəm] *n* usul, yo'l.
medley [´medlɪ] *n* 1) aralashma, qorishma; 2) aralash-quralash narsa, qorishiq narsa, qorishma, aralashma; 2) har xil (aralash-quralash) odamlar, olomon, betartib yig'in.
meek [mi:k] *a* mo'min, mo'min-qobil; yuvosh, beozor, muloyim, yumshoq.
meekness [´mi:knəs] *n* yuvoshlik, beozorlik, mo'minlik, yumshoqlik.
meet [mi:t] *v* (**met; met**) 1) uchratmoq, uchrashmoq; **to ~ smb. in the street** kimnidir ko'chada uchratmoq; 2) tanishmoq; **We met in London.** Biz Londonda tanishganmiz (uchrashganmiz); 3) kutib olmoq.
meeting [´mi:tɪŋ] **1.** *pres. p.* **meet** *dan*; **2.** *n* yig'in, majlis, yig'ilish.
megaphone [´megəfəun] *n* megafon (*ovozni kuchaytiradigan karnay*).
melancholy [´melənkəlɪ] **1.** *n* ma'yuslik, g'amginlik; **2.** *a* ma'yus, g'amgin.
meliorate [´mi:lɪəreɪt] *v* 1) yaxshilanmoq, tuzalmoq; 2) yaroqli holga keltirmoq.
mellifluous [me´lɪfluəs] *a* xushomadgo'y; xushomadli; tilyog'lama, shirinsuxan.
mellow [´meləu] *a* 1) yetilgan, pishgan (*mevalar haqida*); 2) shirali, yoqimli; 3) dono, aqlli.

melodious [mɪ´ləudɪəs] *a* xushohang, ohangdor, yoqimli.
melodrama [´melə,drɑ:mə] *n* melodrama (*voqealarni nihoyatda bo'rttirib ta'sirchan qilib tasvirlaydigan drama janri va shu janrdagi asar*).
melody [´melədɪ] *n* kuy, ohang, navo.
melon [´melən] *n* qovun; **water ~** tarvuz.
melt [melt] *v* erimoq; eritmoq.
melting [´meltɪŋ] *a* 1) eriydigan; 2) nozik; nafis; yumshoq.
melting-pot [´meltɪŋpɔt] *n* tigel (*o'tga chidamli gildan qilingan qozon*).
member [´membə] *n* a'zo; **M. of Parliament** parlament a'zosi.
membership [´membəʃɪp] *n* 1) a'zolik; 2) a'zolar miqdori, tarkibi.
membrane [´membreɪn] *n* 1) *anat.* parda; **pulmonary ~** o'pka pardasi; 2) po'st, po'stloq, po'choq.
memento [mə ´mentəu] *n* esdalik, xotira.
memoir [´memwɑ:] *n* 1) qisqacha tarjimayi hol; 2) *pl* xotiranomalar, yodnomalar.
memo [´meməu] *n* bayonnoma, bayonot.
memorable [´memərəbl] *a* unutilmas, unutilmaydigan, unutib bo'lmaydigan, esdan chiqmaydigan.
memorandum [,memə´rændəm] *n* 1) bayonnoma, bayonot; 2) qayd, yozma xotira; 3) xotira (esdalik) uchun yozilgan xat.
memorial [mə ´mɔ:rɪəl] *n* 1) haykal; 2) qadimiy yodgorlik.
memorize [´meməraɪz] *v* 1) yodlamoq; 2) eslamoq.
memory [´memərɪ] *n* xotira, es; yod; **good ~** yaxshi xotira.
men [men] *pl* **man** *dan.*
menace [´menəs] **1.** *n* tahdid, do'q, xavf; **a ~ of war** urush xavfi; **2.** *v* xavf tug'dirmoq, qo'rqitmoq.
menagerie [mɪ´nædʒərɪ] *n fr. so'zl.* (*asosan, yovvoyi hayvonlarni saqlaydigan*) hayvonot bog'i.
mend [mend] *v* 1) tuzatmoq, to'g'rilamoq; **to ~ shoes** poyafzal tuzatmoq; 2) yaxshilamoq; **My health is ~ing.** Mening sog'lig'im yaxshilanib boryapti.
mendacious [men´deɪʃəs] *a* 1) yolg'on, noto'g'ri, xato, yanglish; 2) yolg'ondakam, yasama, qalbaki.
mendacity [men ´dæsətɪ] *n* yolg'onlik, yolg'onchilik, aldamchilik, kazzoblik.
menial [´mi:nɪəl] *n* malay, xizmatkor; laganbardor.
meningitis [,menɪn´dʒaɪtɪs] *n tib.* meningit (*bosh va orqa miya pardasining yallig'lanishi*).
men-of-war [,menəv ´wɔ:] *n pl* harbiy kemalar.
menopause [´menəupɔ:z] *n tib.* ayollarda jinsiy bezlar faoliyatining to'xtash davri.
mensurable [´menʃərəbl] *a* 1) o'lchanadigan, o'lchab bo'ladigan, o'lchanishi mumkin bo'lgan; 2) *mus.* ritmik, ritmli, bir maromda, bir maqomda.
mental [´mentl] *a* aqliy; aqliy faoliyatga oid.
mentality [men ´tælətɪ] *n* tafakkur, fikrlash.
mention [´menʃn] *v* 1) yodga olmoq, eslatmoq; 2) (*gap orasida*) aytib o'tmoq, tilga olmoq, eslatib o'tmoq.
mentor [´mentɔ:] *n* ustoz, murabbiy, rahbar, tarbiyachi.
menu [´menju:] *n fr.* menyu, taomnoma.
mercantile [´mɔ:kəntaɪl] *a* 1) savdo-sotiqqa oid; 2) savdo-sotiq bilan shug'ullanadigan.
mercenary [´mɔ:sənərɪ] *a* g'arazli, tamagir, manfaatparast, o'z foydasini o'ylaydigan.
merchandise [´mə:tʃəndaɪz] **1.** *n* tovarlar, mollar; sotiladigan narsalar; **2.** *v* savdo qilmoq, sotmoq.
merchant [´mə:tʃənt] *n* savdogar.
merciful [´mə:sɪfəl] *a* mehribon, rahmdil, muruvvatli; **~ly** rahm-shafqat bilan.
merciless [´mə:sɪləs] *a* rahmsiz, berahm, shafqatsiz.
mercury [´mə:kjurɪ] *n kim.* simob.
mercy [´mə:sɪ] *n* 1) rahmdillik; iltifotlilik; 2) kechirish; avf etish.
mere [mɪə] *a* oddiy; **~ly** *adv* faqat; xolos.
merge [mə:dʒ] *v* qo'shilmoq, birlashmoq, birlashtirmoq.
merger [´mə:dʒə] *n* (*banklar, korxonalar*) birlashmasi, birlashma.
meridian [mə´rɪdɪən] *n* 1) meridian; **~ line** meridian chizig'i; 2) oliy nuqta; cho'qqi.
meringue [mə´ræŋ] *n* 1) mazali (lazzatli) ovqat; 2) shirinlik; shirin narsa.
merino [mə ´ri:nəu] *n* merinos (*1. mayin yungli qo'y; 2. shunday qo'y yungi va undan to'qilgan mayin gazlama*).
navigator [ˈnævɪgeɪtə] *n* 1) dengiz sayohati; 2) dengizda sayohat qiluvchi kishi.

navvy [ˈnævɪ] *n* 1) yerkov, yer qazuvchi; qora ishlarni bajaradigan odam; 2) suv havzalarini chuqurlashtirib loy-balchiqlarni chiqarib tashlaydigan mashina.

navy [ˈneɪvɪ] *n* 1) harbiy-dengiz floti; 2) harbiy dengiz kuchlari.

navy-blue [ˌneɪvɪˈblu:] *a* 1) to'q ko'k; 2) to'q zangori.

nay [neɪ] *n* salbiy javob, rad qilish.

naze [neɪz] *n geogr.* burun, qoyali (*serqoya*) burun.

Nazi [ˈnɑ:tsɪ] *n* natsist (*german fashisti*).

neap [ni:p] *v* kamaymoq, ozaymoq, pasaymoq; kamayib (pasayib, ozayib) ketmoq.

near [nɪə] *n prep.* (*joyni ko'rsatadi*) yaqin; yaqinida.

near-beer [ˈnɪəbɪə] *n* spirtsiz pivo.

near-by [ˌnɪəˈbaɪ] *a* yonma-yon joylashgan, qo'shni, yonma-yon.

near desert [ˈnɪəˌdezət] *n* yarimcho'l, yarimdasht.

near-earth [ˌnɪəˈə:θ] *a* yer yaqinidagi, yer oldidagi, yerga yaqin.

nearly [ˈnɪəlɪ] *adv* 1) qariyb, taxminan, yaqin, deyarli; 2) taxminan, yonida; 3) oldida.

near miss [ˌnɪəˈmɪs] *n* xato otish, o'qni xato ketkizish.

nearness [ˈnɪənəs] *n* 1) yaqinlik; 2) yaqin munosabatlar; 3) o'xshashlik.

near sight [ˌnɪəsaɪt] *n* uzoqni yaxshi ko'rolmaslik.

near-sighted [ˌnɪəˈsaɪtɪd] *a* yaqinni ko'ra oladigan, yaqinni ko'ruvchi, uzoqni ko'rolmaydigan.

near-sightedness [ˌnɪəˈsaɪtɪdnəs] = **near sight.**

neat I [ni:t] *a* toza, pokiza, ozoda, saranjom-sarishta.

neat II [ni:t] *n* (*pl o'zgarishsiz*) ho'kiz, buqa, sigir (*katta shoxli hayvonlar*).

neat-handed [ˈni:tˌhændɪd] *a* epchil, chaqqon, abjir, usta, mohir, chapdast.

neat-herd [ˈni:thə:d] *n* cho'pon, podachi.

neatly [ˈni:tlɪ] *adv* 1) o'z vaqtida, aniq, muntazam, hech kanda qilmay; 2) epchillik (chaqqonlik) bilan.

neatness [ˈni:tnəs] *n* 1) tartibga aniq rioya qilish; 2) pokizalik, ozodalik.

neb [neb] *n sholt.* 1) tumshuq (*qushlarda va ba'zi hayvonlarda*); 2) uch (*qalam, ruchka va b.*).

nebula [ˈnebjulə] *n* (*pl* **-lae**) *astr.* tumanlik (*g'uj bo'lib ko'ringan uzoq yulduzlar to'pi*).

nebulae [ˈnebjuli:] *pl* **nebula** *dan.*

nebular [ˈnebjulə] *a* : **~ hypothesis** nerbular kosmogonik nazariyasi.

nebulizer [ˈnebjulaɪzə] *n* purkagich, changlagich.
nebulosity [ˌnebjuˈlɔsətɪ] *n* 1) bulut bosganlik, bulut bilan qoplanganlik, bulutlilik; 2) noaniqlik, xiralik, qorong'ilik.
nebulous [ˈnebjuləs] *a* noaniq, xira, g'ira-shira, tumanli, qorong'i.
necessarian [ˌnesəˈseərɪən] = **necessitarian.**
necessarily [ˈnesəsərəlɪ] *adv* albatta, muqarrar, so'zsiz, turgan gap, ilojsiz.
necessary [ˈnesəsərɪ] *a* zarur, kerak, darkor, zaruriy, kerakli, zarur bo'lgan.
necessitarian [nəˌsesɪˈteərɪən] *n filos.* determinist, determinizm tarafdori.
necessitarianism [nəˌsesɪˈteərɪənɪzm] *n filos.* determinizm (*narsa va hodisalarning sababiy bog'lanishlari haqidagi materialistik ta'limot*).
necessitate [nəˈsesɪteɪt] *v* 1) zaruratga aylantirmoq; 2) majbur qilmoq; 3) rozi qilmoq; 4) sabab bo'lishi muqarrar; 5) ...ga olib borishi (kelishi) turgan gap.
necessitous [nəˈsesɪtəs] *a* kambag'al, qashshoq, nochor, faqir, bechorahol.
necessity [nəˈsesɪtɪ] *n* zarurat, ehtiyoj.
neck I [nek] *n* 1) bo'yin, gardan; 2) kiyimning yoqasi; 3) shishaning og'zi, bo'g'(i)zi.
neck II [nek] *v so'zl.* quchoqlamoq, quchmoq.
neckband [ˈnekbænd] *n* kiyim yoqasi, yengil matodan tikilgan koftaning ensiz yoqasi.
neckcloth [ˈnekklɔθ] *n esk.* galstuk, bo'yinbog'.
neckerchief [ˈnekətʃi:f] *n esk.* uchburchak ro'mol, qiyiq ro'mol, bo'yinbog', sharf.
necking I [ˈnekɪŋ] *pres. p.* **neck II** *dan.*
necking II [ˈnekɪŋ] *n me'mor.* ustunning chaspagi.
necklace [ˈneklәs] *n* marjon, shoda.
necklet [ˈneklət] *n* 1) marjon, shoda; 2) tashlama mo'yna yoqa; 3) mo'yna *yoki* par sharf (*xotin-qizlar uchun*).
neck-piece [ˈnekpi:s] *n* 1) tashlama mo'yna yoqa; 2) kichkina bo'yinbog'; sharfcha.
necktie [ˈnektaɪ] *n* galstuk, bo'yinbog'.
neckwear [ˈnekwɛə] *n* galstuklar, yoqachalar.
neck-yoke [ˈnekjəuk] *n* xomut (*yog'och bo'yincha*).
necrologist [neˈkrɔlədʒɪst] *n* ta'ziyanoma muallifi.
necrologue [ˈnekrəlɔg] *n* ta'ziyanoma.
necrology [neˈkrɔlədʒɪ] *n* 1) ta'ziyanoma; 2) o'lganlar ro'yxati.
necromancer [ˈnekrəumænsə] *n* jodugar, sehrgar, afsungar.
necromancy [ˈnekrəumænsɪ] *n* sehrgarlik, jodu, amal.
necromantic [ˌnekrəuˈmæntɪk] *a* sehrgarlarga va sehrgarlikka oid, sehr-jodu bilan bog'liq bo'lgan.
necrophagous [neˈkrɔfəgəs] *a* o'limtiklarni yeb kun kechiradigan.
necropolis [neˈkrɔpəlɪs] *n* 1) qabriston (*Qadimgi Sharqda, antik mamlakatlarda*); 2) mashhur kishilar qabri.
necropsy [neˈkrɔpsɪ] *n* o'likni yorish.
necroscopy [neˈkrɔskəpɪ] = **necropsy.**
necrose [ˈnekrəus] *v tib.* sezish qobiliyatini yo'qotmoq.
necrosis [neˈkrəusɪs] *n tib.* jonsizlanish, o'lish, jonsiz bo'lib qolish.
nectar [ˈnektə] *n* 1) *mif.* obihayot, hayot suvi; 2) gul shirasi, suvi; 3) gazlangan meva suvi.
nectariferous [ˌnektəˈrɪfərəs] *a bot.* asalga boy, asal beradigan, serasal.
nectarine I [ˈnektəri:n] *n* silliq shaftoli.
nectarine II [ˈnektəri:n] *a* obihayotdek orombaxsh.
nectary [ˈnektərɪ] *n* 1) *bot.* shiradon (*o'simlik gulining nektar chiqaradigan bezi*).
neddy [ˈnedɪ] *n so'zl.* eshak, kichkina (pastak) eshak.
née [neɪ] *a fr.* asli, tug'ilishdan (*kelib chiqishi yoki tug'ilgan joyi jihatidan*).
need [ni:d] **1.** *n* ehtiyoj, muhtojlik; **2.** *v* muhtoj bo'lmoq; **3.** *a* darkor, kerak, lozim; **~ed** kerakli.
needful [ˈni:dfəl] *a* kerakli, zarur, darkor, zaruriy, zarur bo'lgan.
needle [ˈni:dl] *n* nina, igna.
needle-bath [ˈni:dlbɑ:θ] *n* ignasimon dush.
needle-bearing [ˈni:dlˌbeərɪŋ] *n tex.* ninasimon podshipnik.
needle-case [ˈni:dlkeɪs] *n* igna qadab qo'yiladigan yostiqcha, igna quti.
needle-fish [ˈni:dlfɪʃ] *n zool.* ninabaliq, dengiz balig'i.
needleful [ˈni:dlful] *n* ignaga o'tkazilgan ipning uzunligi.
needle-gun [ˈni:dlgʌn] *n tar.* ignasimon miltiq.
needle-lace [ˈni:dlleɪs] *n* ilgak (qarmoq) bog'langan to'r.
needle-point [ˈni:dlpɔɪnt] *n* ignaning uchi.
needle-shaped [ˈni:dlʃeɪpt] *a* ignaga o'xshagan.
needless [ˈni:dləs] *a* keraksiz, foydasiz, ortiqcha.
needlewoman [ˈni:dlˌwumən] *n* tikuvchi ayol.
needlework [ˈni:dlwɔ:k] *n* 1) tikish, tikuv ishlari; 2) qo'l ishi, qo'l hunari, chevarlik.
needments [ˈni:dmənts] *n pl* barcha kerakli narsalar (*asosan, safar uchun*).
needs [ni:dz] *adv so'zl.* zarurat yuzasidan, zaruriyatga (talabga) qarab, zarurat tug'ilganda, kerak bo'lib qolganda.
needy [ˈni:dɪ] *a* kambag'al, muhtoj.
ne'er [nɛə] *adv* (**never** *so'zining qisqartirilgan shakli*) hech, hech qachon, hech vaqt, aslo.
ne'er-do-weel [ˈnɛədu:ˌwe:l] *n* bekorchi, yalqov, tanbal.
nefarious [nɪˈfɛərɪəs] *a* 1) betafviq, munkir, gunohli; 2) vijdoni (diyonati) yo'q, vijdonsiz, insofsiz; diyonatsiz, noinsof.
negate [nɪˈgeɪt] *v* inkor qilmoq.
negation [nɪˈgeɪʃn] *n* tonish; tan olmaslik, inkor qilish.

negationist [nɪ ˈgeɪʃənɪst] *n* inkor qiluvchi, gapidan tonadigan kishi.
negative I [ˈnegətɪv] *a* salbiy; manfiy; **~ result** salbiy natija; **~ form of the verb** fe'lning bo'lishsiz shakli.
negative II [ˈnegətɪv] *v* rad qilmoq, inkor qilmoq, yuz o'girmoq, tonmoq, bosh tortmoq.
negativism [ˈnegətɪvɪzm] *n* rad qilishni yaxshi ko'rish.
negativity [ˌnegəˈtɪvətɪ] *n* inkor qilish, tonish, tan olmaslik.
negatory [ˈnegətərɪ] *a* 1) inkor etadigan, salbiy; 2) qarshi, teskari.
neglect I [nɪˈglekt] *n* beparvolik, sovuqqonlik, mensimaslik.
neglect II [nɪˈglekt] *v* beparvo bo'lmoq, e'tiborsiz bo'lmoq; **~ed** qarovsiz, tashlandiq.
neglectful [nɪˈglektfəl] *a* 1) beparvo, sovuqqon; diqqat-e'tiborsiz, parishonxotir; 2) behafsala, beg'am, ishyoqmas.
négligé [ˈnegliːʒeɪ] *n fr.* ayollar xalati.
negligee [ˈnegliːʒeɪ] *n amer.* ayollar (xotin-qizlar) xalati; ayollarning uyda kiyadigan ko'ylagi.
negligence [ˈneglɪdʒəns] *n* beparvolik, e'tiborsizlik, sovuqqonlik, pala-partishlik.
negligent [ˈneglɪdʒənt] *a* beparvo, sovuqqon, e'tiborsiz, pala-partish (chala-chulpa) ish qiladigan.
negligible [ˈneglɪdʒəbl] *a* 1) uncha ko'p bo'lmagan, ozgina, biroz, andak; 2) arzimas, arzimaydigan, ahamiyatsiz.
negotiant [nɪˈgəuʃɪənt] *n* ulgurji savdogar (*ko'pincha chet ellar bilan savdo qiladigan katta savdogarlarga nisbatan ishlatiladi).*
negotiate [nɪˈgəuʃɪeɪt] *v* kelishmoq, muzokara olib bormoq.
negotiated peace [nɪˌgəuʃɪeɪtɪdˈpiːs] *n* kelishilgan tinchlik.
negotiation [nɪˌgəuʃɪˈeɪʃən] *n* muzokara, muhokama, maslahatlashish, o'ylashib ko'rish.
negotiator [nɪˈgəuʃɪeɪtə] *n* muzokara olib boradigan kishi.
Negress [ˈniːgrəs] *n* negr ayol.
Negrillo [neˈgrɪləu] *n* (*pl* **-os, -oes** [-əuz]) past bo'yli qabiladagi negr.
Negrito [neˈgriːtəu] *n* negritos (*janubi-sharqiy Osiyoning negroidlar irqiga mansub bir necha etnik guruhlariga kiradigan xalqlarning umumiy nomi*).
Negro [ˈniːgrəu] *n* negr, habash.
negro-head [ˈniːgrəuhed] *n* 1) tamakining qora va o'tkir bir navi; 2) past navli rezina.
Negroid [ˈniːgrɔɪd] *a* negroid irq, negroidlar irqi.
Negrophobia [ˌniːgrəuˈfəubɪə] *n* negrlarni yomon ko'rish.
Negus [ˈniːgəs] *n tar.* negus (*Abissiniya imperatorlarining unvoni*).
negus [ˈniːgəs] *n* negus (*shirinlik narsalar qo'shib, qizil vinodan tayyorlangan iliq ichimlik*).
neigh [neɪ] **1.** *n* kishnash; **2.** *v* kishnamoq.
neighbour I [ˈneɪbə] **1.** *n* qo'shni, hamsoya; **2.** *v* chegaradosh bo'lmoq.
neighboured II [ˈneɪbəd] *a* atrof, tevarak, kanora.
neighbourhood [ˈneɪbəhud] *n* 1) qo'shnichilik, yonma-yonlik, qo'shnilik, yaqinida (yonida) bo'lish; 2) atrof, tevarak-atrof.
neighbourhood unit [ˈneɪbəhudˌjuːnɪt] *n* qaytadan rejalashtirilgan shaharning odam yashaydigan joyi.
neighbouring [ˈneɪbərɪŋ] **1.** *pres. p.* **neighbour 2.** *dan*; **2.** *a* 1) qo'shni, yonma-yon, chegaradosh; 2) qo'shni uylarda yashaydigan; 3) o'zaro bog'langan, bir-biriga yaqin.
neighbourly [ˈneɪbəlɪ] *a* do'stona, totuv (*qo'shnichilik munosabatlari haqida*).
neighbourship [ˈneɪbəʃɪp] *n* yonma-yonlik, qo'shnilik, yaqinida (yonida) bo'lish.
neither [ˈnaɪðə] *pron.* 1) ot vazifasida kelganda: birortasi ham, bittasi ham (*ikki kishi yoki narsadan*); hech kim, hech kimsa, hech bir inson; 2) sifat vazifasida kelganda: na u, na bu, na u, na boshqasi; 3) ravish vazifasida kelganda: biror ish harakatni u ham bajarmasligini bildiradi: *masalan:* **If you don't read ~ shall I** Agar siz o'qimasangiz men ham o'qimayman.
neither... nor [ˈnaɪðə... nɔː] *cj.* u ham emas, bu ham emas; na u, na bu.
nek [nek] *n jan. afr.* dovon, tog' ustidagi yo'l.
nekton [ˈnektən] *n biol.* nekton.
nelly [ˈnelɪ] *n* bahaybat (juda katta) bo'ronqush.
nelson [ˈnelsn] *n sport.* nelson (*kurash*).
Nemesis [ˈnemɔsɪs] *n* qasos, o'ch, jazo.
nenuphar [ˈnenjufɑː] *n bot.* oq nilfiya.
neocene I [ˈniːəusiːn] *n geol.* neotsen.
neocene II [ˈniːəusiːn] *a* neotsenga oid.
neocolonialism [ˌniːəukəˈləunɪəlɪzm] *n* neokolonializm (*imperialistik davlatlarning sobiq mustamlaka ustidan iqtisodiy va siyosiy hukmronlik o'rnatishga qaratilgan yangicha juda nozik siyosati*).
neolithic [ˌniːəuˈlɪθɪk] *a arxeol.* neolitga oid, neolit...
neologism [niːˈɔlədʒɪzm] *n* neologizm (*yangi so'z yoki ibora*).
neologize [nɪˈɔlədʒaɪz] *v* yangi so'zlar kiritmoq.
neology [nɪˈɔlədʒɪ] *n* 1) neologizm (*yangi so'z yoki ibora*); 2) yangi so'z va iboralarni ishlatish *yoki* kiritish.
neon [ˈniːɔn] *n* 1) *kim.* neon (*kimyoviy element, rangsiz va hidsiz gaz*); 2) *attr.* neonga oid, neonli; **~ lamp** neon lampa.
neophron [ˈniːəfrən] *n zool.* jo'rchi; kal jo'rchi (*o'lintik bilan ovqatlanadigan yirtqich qush*).
neophyte [ˈniːəufaɪt] *n* biror sohada yangi (yosh, tajribasiz) odam; yangi (endigina) kelgan odam.
neoplasm [ˈniːəuplæzm] *n tib.* shish, g'urra, o'sma.

neoplasty [ˈni:əu,plæstɪ] *n tib.* plastik operatsiya.
neoteric [ˌni:əuˈterɪk] *a* 1) yaqin kunlardagi, yaqindagi; 2) eng yangi; zamonaviy.
neotropical [ˌni:əu ˈtrɔpɪkl] *a zool.* Markaziy va Janubiy Amerikada ommalashtirilgan.
Neozoic [ˌni:əuˈzəuɪk] *a geol.* kaynozoy erasiga oid.
nephew [ˈnefju:] *n* jiyan (*o'g'il*).
nephology [neˈfɔlədʒɪ] *n* nefologiya (*bulutlarni o'rgatadigan fan*).
nephrite [ˈnefraɪt] *n min.* nefrit (*yashil yoki sutrang yarim shaffof mineral*).
nephritic [neˈfrɪtɪk] *a tib.* buyrakka oid.
nephritis [neˈfraɪtɪs] *n tib.* nefrit (*buyrak yallig'lanishi*).
nepotism [ˈnepətɪzm] *n* qarindosh-urug'chilik, quda-andachilik, oshna-og'aynigarchilik, urug'aymoqchilik, bir-birini (yaqinlarini) qo'llash.
nepotist [ˈnepətɪst] *n* qarindosh-urug'lariga yordam ko'rsatadigan odam.
Neptune [ˈneptju:n] *n mif. astr.* Neptun (*Quyosh sistemasining sakkizinchi katta planetasi*).
Neptunian [nepˈtju:nɪən] *a geol.* okeanga oid, dengizga oid, dengizda bo'ladigan; suvga oid, suvdagi, suvli.
neptunium [nepˈtju:nɪəm] *n kim.* neptuniy (*tabiiy uranning parchalanishidan hosil bo'ladigan kumushsimon radioaktiv element*).
nereid [ˈnɪərɪɪd] *n zool.* bo'g'im-bo'g'im dengiz qurti.
Nero [ˈnɪərəu] *n tar.* Neron.
nervate [ˈnə:veɪt] *a bot.* tomirli (*o'simlik barglarida*).
nervation [nə: ˈveɪʃn] *n bot.* tomirlash.
nerve [nə:v] *n* 1) asab, nerv; 2) *pl* asab sistemasi; asablar, asabiyat.
nerve-centre [ˈnə:v,sentə] *n* asab markazi.
nerve-knot [ˈnə:vnɔt] *n* asab tuguni.
nerveless [ˈnə:vləs] *a* 1) kuchsiz, bo'sh; 2) *anat.* asab sistemasi mavjud bo'lmagan; 3) *bot.* tomirsiz.
nerve-racking [ˈnə:v,rækɪŋ] *a* g'azablantiradigan, achchiqlantiradigan, asabga tegadigan.
nerve-strain [ˈnə:vstreɪn] *n* haddan tashqari asabiylanish (asabiylashuv).
nervine I [ˈnə:vi:n] *a tib.* asabni tinchlantiruvchi.
nervine II [ˈnə:vi:n] *n* asabni tinchlantiradigan dori.
nervism [ˈnə:vɪzm] *n fiziol.* nervizm.
nervous [ˈnə:vəs] *a* 1) achchig'i kelgan, asabiylashgan, asabiy; 2) asabga oid; 3) hayajonlangan, to'lqinlangan, iztirobli.
nervy [ˈnə:vɪ] *a* 1) nervga oid, asabga oid; 2) asablari qo'zg'agan (qo'zg'algan), hayajonli, hayajonlangan; to'lqinlangan, asabiy.
nescience [ˈnesɪəns] *n* 1) bilmaslik, bilimsizlik, xabarsizlik, bexabarlik, xabari yo'qlik, g'aflat; 2) *filos.* agnostitsizm (*dunyoni va uning qonuniyatlarini bilish mumkinligini inkor etuvchi idealistik falsafiy ta'limot*).
nescient [ˈnesɪənt] **1.** *n filos.* agnostik, agnostitsizm tarafdori; **2.** *a* bilmaydigan (**of** *nimanidir*).
ness [nes] *n* burun (*faqat geografik nomlarda*).
nest [nest] **1.** *n* uya, in; **2.** *v* uya solmoq.
nest-doll [ˈnestdɔl] *n* biri ikkinchisining ichiga kiradigan o'yinchoqlar to'plami.
nest-egg [ˈnestəg] *n* 1) kurk tovuqning tagiga qo'yiladigan tuxum; 2) qora kuningga kerak bo'ladi deb asrab qo'yilgan pul.
nesting box [ˈnestɪŋbɔks] *n* chug'urchiq uyasi (*maxsus qurilgan*).
nestle [ˈnesl] *v* 1) qulay joylashmoq (**in, into, among**); 2) yopishmoq, qapishmoq, yopishib olmoq (**against, to**); 3) uy, boshpana bermoq.
nestling I [ˈneslɪŋ] *pres. p.* **nestle** *dan.*
nestling II [ˈneslɪŋ] *n* qush bolasi, jo'ja.
net I [net] **1.** *n* to'r, qopqon; tuzoq; **2.** *v* to'r qo'ymoq, to'r bilan ushlamoq.
net II [net] **1.** *a* sof (*og'irlik haqida*); **2.** *n* sof daromad; **3.** *v* sof foyda keltirmoq.
netful [ˈnetful] *n* ichi to'ldirilgan to'r.
nether [ˈneðə] *a og'z.* juda past; pastki, ostki, quyi.
Netherlander [ˈnəðələndə] *n* niderlandiyalik, gollandiyalik; niderlandiyalik ayol.
Netherlandish [ˈneðələndɪʃ] *a* niderlandiyalikka, gollandiyalikka oid.
netting [ˈnetɪŋ] **1.** *pres. p.* **net I, 2.** *dan*; **2.** *n* to'r bilan ushlash, to'r bilan ov qilish.
nettle [ˈnetl] *n* qichitqi o't, gazanda o't.
nettle-fish [ˈnetlfɪʃ] *n zool.* meduza (*suzuvchi, qisuvchi va ovqat qamrab oladigan changali bor, dirildoq tanli dengiz jonivori*).
nettle-rash [ˈnetlræʃ] *n tib.* eshak yemi (*kasallik*).
network [ˈnetwə:k] *n* 1) to'r; 2) tarmoq, shoxobcha (*temir yo'l, kanal va b.*).
network announcer [ˈnetwə:kə,naunsə] *n amer.* diktor, suxandon.
neuralgia [njuˈrældʒə] *n* nevralgiya (*asab tizimining biror yeri kasallanishi yoki yallig'lanishi natijasida paydo bo'ladigan og'riq*).
neuralgic [njuˈrældʒɪk] *a* nevralgiyaga oid, nevralgiya tufayli bo'lgan.
neurasthenia [ˌnjuərəsˈθi:nɪə] *n tib.* nevrasteniya (*tez charchash, ozib ketish va bosh og'rig'i bilan xarakterlanadigan asabiy kasallik*).
neurasthenic [ˌnjuərəsˈθenɪk] **1.** *a* 1) nevrasteniklarda bo'ladigan, nevrasteniklarga xos; 2) nevrasteniya kasaliga chalingan; **2.** *n* nevrasteniya kasaliga chalingan kishi.
neuritis [njuˈraɪtɪs] *n tib.* nevrit (*nervlarning ba'zi kasalliklar yoki shikastlanish, zaharlanish, shamollash natijasida yallig'lanishi*).
neurologist [njuˈrɔlədʒɪst] *n* nevrolog, asab kasalliklari shifokori; nevrologiya mutaxassisi.
neurology [njuˈrɔlədʒɪ] *n* nevrologiya (*asab tizimi va uning faoliyatini o'rganadigan fan*).
neuroma [njuˈrəumə] *n* (*pl*-**mata, -s** [-z]) *tib.* nevroma.

neuromata [nju´rəumətə] *pl* **neuroma** *dan.*
neuropath [´njurəpæθ] *n* asab kasalligidan azob tortayotgan kishi; nevrasteniya kasaliga chalingan kishi.
neuropathist [nju´rɔpəθɪst] *n* nevropatolog, nevropatologiya mutaxassisi.
neuroses [nju´rəusi:z] *pl* **neurosis** *dan.*
neurosis [nju´rəusɪs] *n* (*pl* **-ses**) nevroz (*markaziy asab tizimining buzilishi natijasida ichki organlar faoliyatini susaytiradigan kasallik*).
neurotic [nju´rɔtɪk] **1.** *a* 1) asabga oid, asabiy, asabi buzuq; 2) asabni qo'zg'atadigan; **2.** *n* 1) nevrasteniya kasaliga chalingan kishi; 2) asab sistemasiga ta'sir etadigan dori.
neuter [´nju:tə] **1.** *a* 1) *gram.* sredniy rodga oid; 2) *gram.* o'timsiz (*fe'llar haqida*); 3) *bot.* urug'lik alomati yo'q, jinssiz; 4) *biol.* naslsiz, bola tug'maydigan, bepusht; 5) *vet.* axtalangan, bichgan; **2.** *n* 1) *gram.* sredniy rod; 2) *gram.* o'timsiz fe'l; 3) *biol.* jinssiz hasharot; 4) *vet.* axtalangan (bichilgan) hayvon.
neutral [´nju:trəl] **1.** *a* betaraf, xolis; **2.** *n* betaraf davlatlar.
neutralism [´nju:trəlɪzm] *n* betaraflik, xolislik.
neutralist [´nju:trəlɪst] *n* betaraf, xolis kishi.
neutrality [nju´trælətɪ] *n* betaraflik, xolislik.
neutralization [ˌnju:trəlaɪ´zeɪʃn] *n* betaraflashtirish, xolis qilib qo'yish.
neutralize [´nju:trəlaɪz] *v* 1) zararsizlantirmoq; 2) betaraf, xolis qilib qo'ymoq.
neutrino [´nju:tri:nəu] *n fiz.* neytrino.
neutron [´nju:trɔn] *n fiz.* neytron (*atom yadrosi tarkibidagi elektr zaryadidan xoli bo'lgan zarra*).
névé [´neveɪ] *n fr.* firn (*muzliklarning yuqori qismida bo'ladigan donador qor*).
never [´nevə] *adv* hech qachon, asti, also, hech, sira.
never-ceasing [ˌnevə´si:sɪŋ] *a* to'xtamaydigan.
never-dying [ˌnevə´daɪɪŋ] *a* o'lmaydigan, abadiy yashaydigan, o'lmas, boqiy.
never-ending [ˌnevər´endɪŋ] *a* tugamaydigan, tuganmas, bitmas-tuganmas.
never-fading [ˌnevə´feɪdɪŋ] *a* so'nmas, o'chmas, unutilmas.
nevermore [ˌnevə´mɔ:] *adv* boshqa, hech qachon, hech vaqt, aslo.
never-never [ˌnevə´nevə] *n* xom xayol, amalga oshmaydigan orzu.
nevertheless [ˌnevəðə´les] **1.** *adv* ...ga qaramay, ...ga qaramasdan, ... bo'lmasa ham; biroq, ammo; **2.** *cj.* shunday bo'lsa-da, shunga qaramay.
never-to-be-forgotten [ˌnevətəbɪfə´gɔtn] *a* unutilmas, unutib bo'lmaydigan, esdan chiqmaydigan.
new I [nju:] *a* yangi, endigina qilingan (*qurilgan, olingan*), tutilmagan.
new II [nju:] *adv* yaqinda, yaqindagina, kechagina.
new-blown [´nju:bləun] *a* yangi gullagan.
new-born [´nju:bɔ:n] *a* yangi tug'ilgan.
new-built [´nju:bɪlt] *a* yangidan qurilgan, qaytadan qurilgan.
new-come [´nju:kʌm] *a* qaytadan (*yana qaytib*) kelgan.
new-comer [´nju:kʌmə] *n* 1) yangi kelgan kishi; 2) kelgindi, musofir, begona odam, notanish odam.
New Deal [ˌnju:´di:l] *n* yangi kurs (*prezident Ruzveltning siyosati*), Ruzvelt hukumati.
newel [´nju:əl] *n me'mor.* aylanma (*burama*) zinaning ustuni.
newel post [´nju:əlpəust] = **newel.**
newer literature [´nju:ə,lɪtərətʃə] *n* eng yangi (zamonaviy) adabiyot.
new-fallen [´nju:,fɔ:lən] *a* yangi yoqqan (*qor to'g'risida*).
new-fangled [ˌnju: ´fæŋgld] = **new-fashioned.**
new-fashioned [ˌnju:´fæʃənd] *a* modaning yangi turi, yangi urf, rasm bo'lgan.
new-fledged [´nju:fledʒd] *a* yangi pat chiqazgan.
new-found [´nju:faund] *a* yangi topilgan.
Newfoundland [nju:´fəndlənd] *n* Nyufaudnlend oroli.
Newfoundland dog [nju:´fəndlənddɔg] *n* cho'kkanlarni qutqaradigan it.
Newfoundlander [ˌnju:fənd´lændə] *n* Nyufaundlend aholisi.
New Frontier [ˌnju:´frʌntɪə] *n amer.* «Yangi hududlar» (*prezident Kennedining siyosati*).
Newgate [´nju:geɪt] *n* Nyugetdagi qarzdorlar qamoqxonasi (*Londonda*).
new growth [ˌnju:´grəuθ] *n* 1) shish, g'urra; 2) yangidan paydo bo'lish, yuzaga kelish.
newish [´nju:ɪʃ] *a* juda yangi, eng yangi.
new-laid [ˌnju: ´leɪd] *a* yangi tuxum qo'ygan.
newly [´nju:lɪ] *adv* 1) yaqinda; 2) yana, qaytadan.
newlywed [ˌnju:lɪ´wed] *n* yangi uylangan; yangi turmushga chiqqan.
new-made [ˌnju:´meɪd] *a* 1) yaqinda qilingan; 2) qaytadan (yangidan) qilingan.
Newmarket [´nju:mɑ:kɪt] *n* badanga yopishib turadigan uzun palto.
Newmarket coat [´nju:mɑ:kɪt´kəut] = **Newmarket.**
new-minted [ˌnju:´mɪntɪd] *a* yaqinda bosib chiqarilgan (*tanga haqida*).
new moon [ˌnju:´mu:n] *n* yangi chiqqan oy, hilol.
newness [´nju:nəs] *n* 1) yangilik; 2) yangi narsa (*gap, xabar va h.k.*)
newpenny [´nju:,penɪ] *pl* yangi penni (*Angliyada 1971-yildagi pul*).
news [nju:z] *n* (***sing dek ishlatiladi***) 1) yangilik; 2) darak, axborot, xabar.
news agency [´nju:z,eɪdʒənsɪ] *n* telegraf agentligi.
news-agent [´nju:z,eɪdʒənt] *n* gazeta kioskasidagi sotuvchi.

news-boy [ˈnju:zbɔɪ] *n* gazetachi, gazeta sotuvchi (*o'spirin*).
newscast [ˈnju:zkɑ:st] *n* so'nggi xabarlar ko'rsatuvi (*radio, televedeniya orqali*).
newscaster [ˈnju:z,kɑ:stə] *n* 1) diktor; suxandon; 2) radio sharhlovchisi.
news cinema [ˈnju:z,sɪnəmə] *n* xronik-hujjatli filmlar ko'rsatadigan kinoteatr.
news-dealer [ˈnju:z,di:lə] = **news-agent.**
news-department [ˈnju:zdɪ,pɑ:tmənt] *n* axborot bo'limi; nashr qilish bo'limi.
newshawk [ˈnju:zhɔ:k] *n so'zl.* mahalliy muxbir (*mahalliy hayotdan xabarlar yozib turuvchi muxbir*).
news-letter [ˈnju:z,letə] *n* 1) axborot bulleteni (*savdo firmasi va b.*); 2) reklama xarakteridagi savdo-sotiq ma'lumotnomasi.
news-man [ˈnju:zmæn] *n* 1) muxbir, mahalliy muxbir (*mahalliy hayotdan xabarlar yozib turuvchi muxbir*); 2) gazeta xodimi; 3) gazeta sotuvchi.
newsmonger [ˈnju:z,mʌŋgə] *n* g'iybatchi odam, gap tashuvchi.
newspaper [ˈnju:s,peɪpə] *n* gazeta, ro'znoma.
newspaperese [,nju:speɪpəˈri:z] *n* gazeta uslubi, sharhlovchiga xos uslub.
newsprint [ˈnju:zprɪnt] *n* gazetabop qog'oz, gazeta qog'ozi.
news-reel I [ˈnju:zri:l] *n* 1) kinojurnal; 2) xronika (*voqealarni xronikal tasvirlovchi hujjatli film*); 3) xronikal hujjatli film.
news-reel II [ˈnju:zri:l] *v* kinojurnalda suratga tushmoq.
news-room [ˈnju:zrum] *n* ro'znoma va oynomalar olish mumkin bo'lgan o'qish zali.
newsservice [ˈnju:z,sə:vɪs] *n* axborot agentligi.
news-sheet [ˈnju:zʃi:t] *n* varaqa.
news-stand [ˈnju:zstænd] *n* 1) gazeta do'koni; 2) *amer.* = **bookstall.**
news-theatre [ˈnju:z,θɪətə] *n* xronik-hujjatli kinolar ko'rsatiladigan kinoteatr.
New Style [,nju:ˈstaɪl] *n* yangi uslub (*grigorian yil hisobi; grigorian kalendari*).
news-vendor [ˈnju:z,vendə] *n* gazetachi, gazeta sotuvchi kishi.
newsy I [ˈnju:zɪ] *a* 1) yangiliklarga *yoki* g'iybatga boy; 2) sinchkov, har narsani bilishga intiluvchi.
newsy II [ˈnju:zɪ] *n amer.* = **news-boy.**
newt [nju:t] *n zool.* ham suvda, ham quruqlikda yashaydigan kaltakesaksimon jonivor.
Newtonian [nju: ˈtəunɪən] *n* Nyuton izdoshi.
New Year [,nju:ˈjɪə] *n* yangi yil.
new year's [,nju:ˈjɪəz] *a* yangi yilga oid; ~ **eve** yangi yil arafasi; ~ **day** birinchi yanvar.
next [nekst] **1.** *a* keyingi, navbatdagi; ~ **day** ertasi kuni; **2.** *adv* keyin, so'ng, kelasi, yanagi.
next-best [,nekstˈbest] *a* faqat eng zo'riga yon beradigan.
next-door [,nekstˈdɔ:] *a* yaqin joydagi, yaqin o'rtadagi, qo'shni bo'lgan.
nexus [ˈneksəs] *n* 1) aloqa, zanjir; 2) *gram.* neksus.
Niagara [naɪ ˈægərə] *n* 1) oqim; 2) qattiq zarba ovozi; 3) sharshara, shalola, shovva; ~ **falls** Niagara sharsharasi.
nib I [nɪb] *n* 1) metall pero; 2) tumshuq (*qushlarda*); 3) pichoqning o'tkir tomoni.
nib II [nɪb] *v* ruchkaga pero qo'ymoq.
nibble I [ˈnɪbl] *n* kemirish, g'ajish, kemirib (g'ajib, tishlab) tashlash, kemirib (g'ajib) yeyish.
nibble II [ˈnɪbl] *v* kemirmoq, g'ajimoq, kemirib (g'ajib, tishlab) tashlamoq, kemirib (g'ajib) yemoq.
niblick [ˈnɪblɪk] *n sport.* klushka (*golf o'yini uchun*).
nibs [nɪbz] *n* iltifot, lutf, yaxshilik.
nice [naɪs] *a* 1) iltifotli, yoqimli; 2) o'tkir; 3) shirin, mazali (*meva*); 4) yaxshi; **a ~ weather** yaxshi ob-havo.
nice-looking [,naɪsˈlukɪŋ] *a* yoqimli, jozibali, jozibador, dilbar, ko'rkam, istarasi issiq.
nicely [ˈnaɪslɪ] *adv* 1) yaxshi, durust; 2) yaxshilab, yaxshigina, boplab, qotirib, tuzukkina, durustgina.
nicety [ˈnaɪsətɪ] *adv* 1) to'g'rilik, aniqlik; 2) puxtalik; 3) noziklik; 4) tartibga aniq rioya qilish, jobajo ish tutish, batartiblik, saranjom-sarishtalik.
niche [ni:tʃ] **1.** *n* 1) kovak; 2) tokcha, taxmon; **2.** *v* tokchaga joylashtirmoq.
Nick [nɪk] *n* shayton, iblis (*odatda* ***Old N.***).
nick [nɪk] **1.** *n* kertma belgi, kertik; **2.** *v* kertma belgi qo'ymoq.
nickel [ˈnɪkl] **1.** *n kim.* nikel (*kimyoviy element, yaltiroq metall*); **2.** *v* nikellamoq, nikel yugurtirmoq.
nickelage [ˈnɪklɪdʒ] = **nickel-plating.**
nickelodeon [,nɪkəˈləudɪən] *n amer.* patefon-avtomat, pianola-avtomat.
nickel-plating [,nɪklˈpleɪtɪŋ] *n tex.* 1) nikel, nikel qatlami (*buyumda*); 2) nikellash, nikel yugurtirmoq.
nicker [ˈnɪkə] *v* qahqaha urib (qattiq) kulmoq, xaxolab kulmoq, qah-qaha otib kulmoq.
nick-nack [ˈnɪknæk] *n* 1) mayda-chuyda bezak, buyum, zeb-ziynat; 2) *esk.* shirinlik; mazali taom
nickname [ˈnɪkneɪm] **1.** *n* laqab; **2.** *v* laqab qo'ymoq.
nicotian [nɪˈkəuʃn] **1.** *a* tamakiga oid, tamakidan qilingan; **2.** *n* kashanda odam, chekadigan kishi.
nicotine [ˈnɪkəti:n] *n* nikotin (*tamaki tarkibida bo'ladigan zaharli modda*).
nicotinism [ˈnɪkəti:nɪzm] *n* nikotindan zaharlanish.
nictate [,nɪkˈteɪt] = **nictitate.**
nictation [nɪkˈteɪʃn] = **nictitation.**
nictitate [ˈnɪktɪteɪt] *v* 1) pirpiratmoq, uchirmoq; 2) ko'z qismoq, ko'z bilan imlamoq, ko'z qisib imo-ishora qilmoq.

nictitating membrane [ˌnɪktɪteɪtɪŋ ˈmembreɪn] *n* ko'zdagi pirpiratadigan parda (*qushlarda*).
nictitation [ˌnɪktɪ ˈteɪʃn] *n* ko'z qisish, ko'z bilan imlash.
nicy [ˈnaɪsɪ] *n* bol, obaki, obakidandon (*konfet*).
niddle-noddle [ˈnɪdlˌnɔdl] **1.** *a* qimirlaydigan, qaltiraydigan; **2.** *v* bosh qimirlatmoq, bosh qimirlatib (irgitib) tabriklamoq (*yoki* rozilik bildirmoq, ma'qullamoq).
nidge [nɪdʒ] = **nig.**
nidi [ˈnaɪdaɪ] *pl* **nidus** *dan.*
nidificate [ˈnɪdɪfɪkeɪt] *v* uya (in) to'qimoq (qurmoq, solmoq).
nidify [ˈnɪdɪfaɪ] = **nidificate.**
nid-nod [ˈnɪdnɔd] *v* bosh qimirlatmoq, bosh irg'itmoq.
nidus [ˈnaɪdəs] *n lot.* (*pl* **nidi, -es** [-ɪz]) *zool.* (*hasharotlar*) uyasi, ini; 2) yuqumli kasalliklar manbayi.
niece [ni:s] *n* jiyan (*qiz*).
nielli [nɪˈeli:] *pl* **niello** *dan.*
niello [nɪˈeləu] *it. n* (*pl* **-li, -os** [-əuz]) 1) qora kumush (*kumush, mis, oltingugurt va qalay qotishmasi, asosan, metall buyumlarni o'yib bezatishda ishlatiladi*); 2) qora kumush bilan bezalgan buyumlar.
nielloed [nɪˈeləud] *a* qoraytirilgan, qoraga bo'yalgan.
nifty [ˈnɪftɪ] **1.** *a* 1) rasm bo'lgan, keng tarqalgan; 2) a'lo darajadagi; **2.** *n* o'tkir gap; donolik bilan aytilgan so'z.
nig [nɪg] *v* toshni tarashlab tekislamoq.
niggard [ˈnɪgəd] **1.** *n* xasis (ziqna) odam, qurumsoq, nokas; **2.** *adv* oz, kam, ozgina, uncha yaxshi (yetarli) emas.
niggardly [ˈnɪgədlɪ] **1.** *a* xasis, ziqna, qattiq, qurumsoq; **2.** *adv* ayab, qizg'anib, ziqnalik bilan.
nigger [ˈnɪgə] *n* zangi, habash; qop-qora (*iflos, isqirt*).
niggle [ˈnɪgl] *v* aldamoq, yolg'on, ahmoq qilmoq.
niggling [ˈnɪglɪŋ] **1.** *pres. p.* **niggle** *dan*; **2.** *a* 1) mayda gap; 2) chalkash, o'qib bo'lmaydigan (*husnixat, yozuv haqida*).
nigh [naɪ] *a* yaqin joydagi, yaqindagi, yaqin.
night [naɪt] *n* tun, kecha, oqshom, kechki payt, kechasi; **to have a good ~** yaxshi uxlamoq.
night binoculars [ˈnaɪtbɪˌnɔkjuləz] *n pl* tunda ko'radigan durbin.
night-bird [ˈnaɪtbə:d] *n* 1) tunda uchadigan qush; 2) kech yotadigan, kechasi uzoq ishlaydigan, kechalari daydib yuradigan.
night-blindness [ˈnaɪtˌblaɪndnəs] *n tib.* shabko'rlik.
nightcap [ˈnaɪtkæp] *n* 1) tungi (*kechasi kiyib yotiladigan*) qalpoq; 2) *amer. sport.* kunning so'nggi musobaqasi.
night-cart [ˈnaɪtkɑ:t] *n* to'rt g'ildirakli arava (*axlat va najaslarni tozalash ishlari uchun ishlatiladigan*).
night-chair [ˈnaɪtʃeə] *n* tuvak (*hojat uchun*).
night-clothes [ˈnaɪtkləuðz] *n* tunda (kechasi) kiyiladigan ich kiyim.
night-club [ˈnaɪtklʌb] **1.** *n* tunda ishlaydigan klub, tungi klub; **2.** *v* kechasi ishlaydigan klublarga qatnashmoq.
night-dress [ˈnaɪtdres] *n* ayollar *yoki* bolalarning tungi ko'ylagi.
nightfall [ˈnaɪtfɔ:l] *n* 1) kech kirishi; 2) g'ira-shira payt, tong yorishgan *yoki* qosh qoraygan payt.
night-fighter [ˈnaɪtˌfaɪtə] *n av.* kechasi qiruvchi samolyot.
night-flower [ˈnaɪtˌflauə] *n* tunda ochiladigan gul.
night-fly [ˈnaɪtflaɪ] *n* tun kapalagi.
night-flying [ˈnaɪtˌflaɪŋ] *n av.* tungi uchishlar (parvozlar).
night-glass [ˈnaɪtglɑ:s] *n* kechasi ko'radigan dengiz durbini.
night-gown [ˈnaɪtgaun] = **nigh-dress.**
night-hag [ˈnaɪthæg] *n* 1) jodugar xotin, yalmog'iz, alvasti; 2) yomon tush; bosinqirash.
night-hawk [ˈnaɪthɔ:k] *n* 1) kechasi bilan ishlaydigan odam; 2) kechasi bilan uxlamaydigan odam; 3) tunda ishlaydigan taksi haydovchisi.
nightingale [ˈnaɪtɪŋgeɪl] *n* bulbul.
night-intruder [ˌnaɪtɪnˈtru:də] *n av.* tungi bombardimonchi samolyot.
nightjar [ˈnaɪtdʒɑ:] *n* tentakqush.
night-life [ˈnaɪtlaɪf] *n* (*shaharning*) tungi hayoti.
night-light [ˈnaɪtlaɪt] *n* tunda yoqib qo'yiladigan xira chiroq.
night-long I [ˌnaɪtˈlɔŋ] **1.** *a* tun bo'yi davom etadigan; **2.** *adv* tun bo'yi, kechasi bilan.
nightly [ˈnaɪtlɪ] **1.** *a* tungi, tundagi, har tunda sodir bo'ladigan; **2.** *adv* har kecha, har tun.
nightman [ˈnaɪtmən] *n* 1) tungi qorovul; 2) axlat va najaslarni tozalash ishlari bilan shug'ullanuvchi kishi.
nightmare [ˈnaɪtmeə] *n* 1) yomon tush, bosinqirash; 2) *mif.* uxlagan odamni bo'g'uvchi (bo'g'adigan) alvasti.
nightmarish [ˈnaɪtmeərɪʃ] *a* dahshatli, mudhish.
night-nurse [ˈnaɪtnɔ:s] *n* tungi hamshira.
night-piece [ˈnaɪtpi:s] *n* tun tasvirlangan surat.
night-rider [ˈnaɪtˌraɪdə] *n amer.* otliq bosqinchi (qaroqchi, bosmachi).
night-robe [ˈnaɪtrəub] = **night-dress.**
night-school [ˈnaɪtsku:l] *n* 1) kechki maktab; 2) kechki kurslar.
nightshade [ˈnaɪtʃeɪd] *n bot.* ituzum; **black ~** qora ituzum; **deadly ~** uyqu karaxtligi.
night-shift [ˈnaɪtʃɪft] *n* tungi navbatchilik.
nightshirt [ˈnaɪtʃə:t] *n* tungi ko'ylak.
night-soil [ˈnaɪtsɔɪl] *n* ifloslik, nopok ish (*asosan, kechalari bajariladigan*).
nightstick [ˈnaɪtstɪk] *n amer.* militsiyalarning kechasi olib yuradigan tayog'i.
night-stool [ˈnaɪtstu:l] = **night-chair.**

night-suit [ˈnaɪtsu:t] *n* pijama (*kurtka va shimdan iborat uy kiyimi*).
night-time [ˈnaɪttaɪm] *n* tungi vaqt, tun.
night-walker [ˈnaɪt,wɔ:kə] *n* lunatik, oyparast (*lunatizm kasaliga mubtalo bo'lgan, uyqusida uyg'oqdek yuraveradigan odam*).
night-watch [ˈnaɪtwɔtʃ] *n* tungi nazorat (*ko'rib chiqish*); tungi soqchilar.
night-watchman [ˌnaɪtˈwɔtʃmən] *n* tungi qorovul.
night-wear [ˈnaɪtweə] *n* tunda kiyiladigan kiyim.
nighty [ˈnaɪtɪ] *n so'zl.* kechki ko'ylak (*bolalar yoki ayollarniki*).
nigrescence [naɪˈgresəns] *n* 1) qorayish, qorayib ketish; 2) qoralik, qorong'ilik.
nigrescent [naɪˈgresənt] *a* qorayib turgan, qoraygan.
nigritude [ˈnɪgrɪtju:d] *n* qoralik, qora, qorong'ilik.
nihilist [ˈnaɪɪlɪst] *n* nigilizm tarafdori, nigilist (*har qanday norma, prinsip va qonunlarni inkor etuvchi*).
nihilistic [ˌnaɪɪˈlɪstɪk] *a* nigilizmga va nigilistlarga oid, nigilistik.
nihilizm [ˈnaɪɪlɪzm] *n* har qanday norma va qonunlarni inkor etish.
nil [nɪl] *n* nol, nul.
nilgai [ˈnɪlgaɪ] *n zool.* antilopalar, kiyiklar (*juft tuyoqli kavsh qaytaruvchilarning katta bir guruhi*).
nimbi [ˈnɪmbaɪ] *pl* **nimbus** *dan.*
nimble [ˈnɪmbl] *n* tez, chaqqon, epchil, uddaburon, ishbilarmon.
nimbus [ˈnɪmbəs] *n* (*pl* **-bi, -es** [-ɪz]) yorug'lik gardishi; nur sochish, yarqirash.
niminy-piminy [ˌnɪmənɪˈpɪmənɪ] *a* nozli, nozkarashmali, sernoz.
nincompoop [ˈnɪnkəmpu:p] *n* befahm (*anqov, laqma*) odam.
nine [naɪn] *n num. card.* 1) to'qqiz; 2) to'qqizinchi raqam (*qo'lqop o'lchami*).
ninefold [ˈnaɪnfəuld] *a* to'qqiz marta ortiq, to'qqiz baravar ko'p, to'qqiz karra, to'qqiz hissa.
nine-killer [ˈnaɪn,kɪlə] *n zool.* qarqunoq, olato'g'anoq.
ninepins [ˈnaɪnpɪnz] *n pl* kegli (*ma'lum tartibda tikilgan figuralarni shar yumalatib urib yiqitish o'yini*).
nineteen [ˌnaɪnˈti:n] *v num. card.* o'n to'qqiz.
nineteenth [ˌnaɪnˈti:nθ] *n* o'n to'qqizinchi.
nineties [ˈnaɪntɪz] *n pl* to'qsoninchi yillar.
ninetieth [ˈnaɪntɪəθ] *n num. ord.* 1) to'qsoninchi; 2) to'qsoninchi qism.
ninety [ˈnaɪntɪ] *n num. card.* to'qson.
ninny [ˈnɪnɪ] *n* aqli past, jinni, beaql odam.
ninny-hammer [ˈnɪnɪ,hæmə] = **ninny.**
ninth [ˈnaɪnθ] *n num.* 1) to'qqizinchi; 2) to'qqizinchi qism; 3) to'qqizinchi kun (chislo).
ninthly [ˈnaɪnθlɪ] *adv* to'qqizinchi bo'lib.
niobium [naɪˈəubɪəm] *n kim.* niobiy.
Nip [nɪp] *n* (**Nipponese** *ning qisqartmasi*) 1) yapon, yaponiyalik; 2) *attr.* yaponcha.
nip [nɪp] **1.** *n* chimdish, chimdilash, chimdilab olish; **2.** *v* chimdilamoq, chimchilamoq.
Nipper [ˈnɪpə] *n so'zl.* yapon, yaponiyalik.
nipper [ˈnɪpə] *n* 1) tishlaydigan kishi, tishlaydigan narsa; 2) ombur, qisqich.
nipping [ˈnɪpɪŋ] **1.** *pres. p.* **nip 2.** *dan*; **2.** *a* chimchilaydigan.
nipple [ˈnɪpl] *n* 1) emchak uchi; 2) so'rg'ich; 3) *tex.* nippel (*quvur, shlang sh.k. ni germerik ravishda ulaydigan, shuningdek, kameralardan havoni chiqarmaydigan detal*).
Nipponese [ˌnɪpəˈni:z] *n* yapon ayol, yaponiyalik ayol.
nippy [ˈnɪpɪ] *a* sovuq, juda sovuq.
nipt [nɪpt] *past., p. p.* **nip 2.** *dan.*
nirvana [nɪəˈvɑ:nə] *n* nirvana (*budda dini ta'limotiga ko'ra: bu dunyo tashvishlaridan kechib o'zini rohat-farog'atda sezish*).
Nisei, nisei [ˌni:ˈseɪ] *n* nasli-nasabi yapon bo'lgan amerikalik.
nisi [ˈnaɪsaɪ] *cj. lot. yur.* agar, agarda, mabodo, bordi-yu, basharti..., bo'lmasa.
nisi prius [ˌnaɪsaɪˈpraɪəs] *n yur.* sudning ko'chma majlisi.
nit I [nɪt] *n* sirka (*bit tuxumi*).
nit II [nɪt] *n shotl.* yong'oq, yong'oq mag'zi, yong'oq daraxti, yong'oq ko'chati.
niton [ˈnaɪtɔn] *n kim.* niton, radon (*kimyoviy element*).
nitrate [ˈnaɪtreɪt] *n kim.* nitratlar (*azot kislotasining tuzlari*).
nitration [naɪˈtreɪʃn] *n kim.* azotlash, azotli moddalar o'g'itlash.
nitre [ˈnaɪtə] *n kim.* selitra (*azot kislotasining natriy, kaliy yoki ammoniyli tuzi texnikada va qishloq xo'jaligida keng qo'llaniladi*).
nitric [ˈnaɪtrɪk] *a kim.* azotli; ~ **acid** azot kislotasi.
nitrification [ˌnaɪtrɪfɪˈkeɪʃn] *n kim.* nitrifikatsiya.
nitrify [ˈnaɪtrɪfaɪ] *v kim.* selitraga aylantirmoq.
nitrogen [ˈnaɪtrədʒən] *n kim.* azot (*rangsiz va hidsiz kimyoviy element, o'simliklar ozig'ining eng muhim elementlaridan biri*).
nitrogenous [naɪˈtrɔdʒənəs] *a kim.* azotli, azotdan iborat bo'lgan.
nitroglycerine [ˌnaɪtrəuˈglɪsərɪn] *n* nitroglitserin (*glitserin va nitrat kislota birikmasidan iborat moysimon modda*).
nitrometer [naɪˈtrɔmɪtə] *n kim.* nitrometr.
nitron [ˈnaɪtrɔn] *n* nitron (*jun o'rnida ishlatiladigan pishiq sun'iy tola*).
nitrous [ˈnaɪtrəs] *a kim.* tarkibida azot bo'lgan, azotli.
nitty [ˈnɪtɪ] *a* bitlab ketgan, bit bosgan.
nitwit [ˈnɪtwɪt] *n so'zl.* jinni, esi past, ahmoq odam.
nitwitted [ˈnɪt,wɪtɪd] *a* miyasi yo'q, esi past, ahmoq.

nival [ˈnaɪvl] *a* 1) qorli, qordan iborat bo'lgan, serqor; 2) qorning tagida o'sadigan.
nix [nɪks] *n so'zl.* hech nima, hech narsa.
no [nəu] *adv* 1) yo'q; bo'lmaydi; 2) inkor, rozi emaslik, qo'shilmaslik.
nob [nɔb] *n so'zl.* baland martabali, martabasi ulug'.
nobility [nəu ˈbɪlətɪ] *n* 1) dvoryanlar tabaqasi; 2) oqsuyaklar, zodagonlar; 3) muruvvat, himmat, oliyjanoblik; oliyhimmatlik.
noble [ˈnəubl] *a* 1) himmatli, muruvvatli, oliyhimmat, oliyjanob; 2) ajoyib, a'lo darajadagi.
nobleman [ˈnəublmən] *n* oqsuyak, zodagon, unvonli shaxs.
nobody [ˈnəubədɪ] *pron.* hech kim, hech kimsa, hech bir inson.
nocturnal [nɔkˈtə:nl] *a* kechki, kechqurungi.
nocturne [ˈnɔktə:n] *a mus.* noktyurn (*kichkina lirik musiqa asari*).
nod [nɔd] *v* bosh qimirlatmoq, bosh irg'atmoq.
noddle [ˈnɔdl] *n so'zl.* kalla, bosh.
nohow [ˈnəuhau] *adv so'zl.* aslo, hech, sira, mutlaqo.
noise [nɔɪz] *n* shovqin, to'polon.
noise-killer [ˈnɔɪz,kɪlə] *n* shovqin pasaytirgich.
noiseless [ˈnɔɪzləs] *a* shovqinsiz, tovushsiz, ohista.
noisome [ˈnɔɪsəm] *a* 1) zararli, ziyonli, yomon; 2) hidi yomon, sassiq, badbo'y; 3) juda xunuk, yoqimsiz.
noisy [ˈnɔɪzɪ] *a* 1) shovqin-suronli, sershovqin, shovqinli; 2) yorqin, charaqlagan.
nomad [ˈnəumæd] *n* ko'chmanchi, daydib yuradigan kishi.
nomenclature [nəu ˈmeŋklətʃə] *n* 1) nomenklatura (*nomlar-atamalar, terminlar majmuyi*); 2) terminologiya (*muayyan bir sohaga oid terminlar majmuyi va tilshunoslikning terminlarni tartibga solish haqidagi bo'limi*).
nominal [ˈnɔmɪnl] *a* nominal.
nominate I [ˈnɔmɪneɪt] *v* tayinlamoq (*lavozimga*).
nominate II [ˈnɔmɪneɪt] *v* (*saylovda*) nomzod ko'rsatmoq.
nomination [ˌnɔmɪˈneɪʃn] *n* 1) tayinlash; 2) nomzodni ko'rsatish.
nominative [ˈnɔmənətɪv] *n gram.* bosh kelishik.
nominee [ˌnɔmɪˈni:] *n* saylovda nomzodi taklif etilgan shaxs (*nomzod*).
non-aggression [ˌnɔnəˈgreʃn] *n* hujum qilmaslik; ~ **pact** hujum qilmaslik haqidagi shartnoma.
non-aligned [ˌnɔnəˈlaɪnd] *a siyos.* qo'shilmaslik siyosatini tutuvchi: harbiy-siyosiy bloklarga qo'shilmagan.
non-alignment [ˌnɔnə ˈlaɪnmənt] *n siyos.* blok *yoki* harbiy guruhlarga qo'shilmaslik.
non-belligerence [ˌnɔnbə ˈlɪdʒərəns] *n* urushda qatnashmaslik.
nonchalant [ˈnɔnʃələnt] *a* loqayd, beparvo, ehtirossiz, hayajonsiz, sovuqqon.
non-combatant [ˌnɔnˈkɔmbətənt] *n* safdan tashqari, xizmatdagi askar.
non-commissioned officer [ˌnɔnkə,mɪʃəndˈɔfɪsə] *n* serjant.
non-committal [ˌnɔnkəˈmɪtl] *a* gapni chalg'ituvchi; samimiy bo'lmagan.
non-conductor [ˈnɔnkən,dʌktə] *n fiz.* dielektrik (*elektr o'tkazmaydigan modda*).
nonconformist [ˌnɔnkənˈfɔ:mɪst] *n* dindan qaytgan, murtad; mazhabparast.
nondescript [ˈnɔndɪ,skrɪpt] *a* zerikarli, qiziq emas.
none [nʌn] **1.** *pron.* hech kim, hech narsa, hech bir; **2.** *adv* zinhor, aslo, sira, hech ham.
nonentity [nɔˈnentətɪ] *n* 1) e'tibori (salmog'i, nufuzi) yo'q odam, faqir, notavon; 2) mavjud bo'lmagan narsa, yo'q narsa; 3) fano, yo'qlik, hayotning, faoliyatning yo'q bo'lib ketishi.
non-existence [ˌnɔnɪgˈzɪstəns] *a* mavjud bo'lmagan.
non-ferrous [ˌnɔnˈferəs] *a* rangli (*metall to'g'risida*).
non-governmental [ˌnɔngʌvənˈmentl] *a* hukumatga qarashli bo'lmagan, nodavlat.
non-interference [ˌnɔnɪntəˈfɪərəns] *n* aralashmaslik.
non-intervention [ˌnɔnɪntəˈvenʃn] *n* aralashmaslik.
nonmember [ˌnɔnˈmembə] *a* a'zo bo'lmagan.
non-nuclear [ˌnɔnˈnju:klɪə] *a* yadro qurolidan foydalanmaydigan.
non-observance [ˌnɔnəbˈzə:vns] *n* (*qoidalar va sh. k. ga*) rioya qilmaslik; (*qonunni*) buzish.
non-partisan [ˌnɔnpɑ:tɪˈzæn] *a* partiyasiz, hech qaysi bir partiyaga a'zo bo'lmagan.
non-party [ˌnɔnˈpɑ:tɪ] *a* partiyasiz, partiyaga a'zo bo'lmagan.
non-persistent [ˌnɔnpəˈsɪstənt] *a* turg'un emas, tez tarqaladigan; ~ **gas** tez tarqalib ketadigan gaz.
nonplus [ˌnɔnˈplʌs] *n* qiyin (tang) ahvol.
nonpolitical [ˌnɔnpəˈlɪtɪkl] *a* siyosat bilan bog'liq bo'lmagan.
non-proliferation [ˌnɔnprəu,lɪfəˈreɪʃn] *n* yadro qurolini tarqatmaslik.
nonrecognition [ˌnɔnrekəgˈnɪʃn] *n* tan olmaslik, qabul qilmaslik.
nonrenewable [ˌnɔnrɪˈnju:əbl] *a* tiklanmaydigan, tiklab bo'lmaydigan.
non-self-governing [ˈnɔn,self ˈgʌvənɪŋ] *a* o'z-o'zini boshqara olmaydigan.
nonsense [ˈnɔnsəns] *n* safsata, behuda gap; **to talk** ~ bema'ni so'zlarni gapirmoq.
nonsensical [nɔnˈsensɪkl] *a* bema'ni, kelishmagan; tuturiqsiz.
non-smoker [ˌnɔnˈsməukə] *n* chekmaydigan kishi.
non-starter [ˌnɔnˈstɑ:tə] *n* kelajagi yo'q (*shaxs, reja, g'oya va b.*).

non-stick [ˌnɔnˊstɪk] *a* tagi kuymaydigan, tagiga olmaydigan, tagiga oldirmaydigan.
non-stop [ˌnɔnˊstɔp] *a* 1) qo'nmaydigan, to'xtamaydigan; 2) to'xtovsiz davom etadigan.
non-union [ˌnɔn ˊju:nɪən] **1.** *a* kasaba uyushmasiga aloqasi bo'lmagan; kasaba uyushmasiga a'zo bo'lmagan; **2.** *n tib.* sinishdan keyin suyaklarning bitib ketmasligi.
nonuse [ˊnɔnˊju:z] *n* ishlatilmaslik.
nonviolence [ˌnɔnˊvaɪələns] *n* zo'ravonlik uslublarini qo'llashdan voz kechish.
noodle I [ˊnu:dl] *n so'zl.* befahm (anqov, laqma) odam.
noodle II [ˊnu:dl] *n pl* bo'shang odam, latta.
noodles [ˊnu:dlz] *n* ugra, ugra osh.
nook [nuk] *n* go'sha, burchak, pana (xilvat) joy.
noon [nu:n] *n* peshin, kun o'rtasi, tun vaqti; **~ meal** tushlik.
noose [nu:s] *n* ilmoq, sirtmoq, halqa, dor, tuzoq.
nor [nɔ:] *cj.* na..., ham; **~ nor** na... na...; **neither you ~ he** na sen, na u.
norm [nɔ:m] *n* 1) me'yor, tartib; 2) namuna, qolip, andaza.
normal [ˊnɔ:ml] *a* 1) me'yordagi; 2) oddiy, o'rtamiyona.
normalization [ˌnɔ:məlaɪˊzeɪʃn] *n* normallashtirish, tartibga solish, bir me'yorga keltirish, tartibga solish.
normalize [ˊnɔ:məlaɪz] *v* normallashtirmoq, tartibga keltirmoq.
north [nɔ:θ] *n* shimol; **~ Star** Qutb yulduzi.
norther [ˊnɔ:ðə] *n* qattiq shimoliy shamol.
northerly [ˊnɔ:ðəlɪ] *a* shimoliy, shimolda bo'ladigan.
northern [ˊnɔ:ðən] *a* shimoliy; **~ east** shimoli-sharq; **~ Sea** Shimoliy dengiz.
northerner [ˊnɔ:ðənə] *n* shimolda yashovchi kishi; shimollik.
northernmost [ˊnɔ:ðnməust] *a* eng shimoldagi, shimolga eng yaqin bo'lgan.
northward [ˊnɔ:θwəd] *adv* shimolga, shimol tomonga.
northward(s) [ˊnɔ:θwədz] = **northward.**
north-west [ˌnɔ:θˊwest] *n* shimoli-g'arb, shimoli-g'arbiy taraf (tomon).
north-wester [ˌnɔ:θˊwestə] *n* shimoli-g'arbiy shamol.
Norwegian [nɔ:ˊwi:dʒn] **1.** *a* Norvegiya va norvegiyaliklarga oid; **2.** *n* 1) norveg, norveg ayoli; 2) norveg tili.
nor'-wester [ˌnɔ:ˊwestə] *n* 1) = **north-wester**; 2) o'tkir musallasning stakani; bir stakan o'tkir musallas.
nose [nəuz] *n* burun.
nosedive [ˊnəuzdaɪv] *v av.* sho'ng'imoq, sho'ng'ib uchmoq (*samolyot haqida*).
nosegay [ˊnəuzgeɪ] *n* bir dasta gul, gul dastasi.
nosey [ˊnəuzɪ] *a so'zl.* 1) burni katta, burundor; 2) uzuntumshuq, tumshug'i uzun; 3) boshqalarning ishiga qiziquvchan.
nostalgia [nɔˊstældʒɪə] *n* vatanni sog'inish, qo'msash.
nostril [ˊnɔstrɪl] *n* burun teshigi, burun kovagi.
not [nɔt] *adv* yo'q, emas; **He is ~ here** U bu yerda yo'q.
notable I [ˊnəutəbl] *n* mashhur odam.
notable II [ˊnəutəbl] *a* taniqli, mashhur, buyuk, atoqli.
notably [ˊnəutəblɪ] *adv* 1) ayniqsa, asosan; 2) nihoyatda, bag'oyat, juda ham; ancha sezilarli daraja.
notary [ˊnəutərɪ] *n* notarius.
notation [nəu ˊteɪʃn] *n* qayd, qayd qilish; shartli belgilar bilan ko'rsatmoq.
notch [nɔtʃ] **1.** *n* kertma belgi, kertik, belgi; **2.** *v* kertmoq, kertik solmoq, kertib belgi qo'ymoq.
note [nəut] **1.** *n* 1) yozuv; 2) izoh, eslatma; **~book** daftar; **~pad** daftarcha; **2.** *v* 1) ahamiyat bermoq; 2) qayd qilmoq, yozmoq.
noted [ˊnəutɪd] **1.** *p. p.* **note 2.** *dan*; **2.** *a* atoqli, mashhur, buyuk, taniqli.
note-paper [ˊnəut,peɪpə] *n* pochta qog'ozi.
noteworthy [ˊnəut,wɔ:ðɪ] *adv* diqqatga sazovor.
nothing [ˊnʌθɪŋ] **1.** *pron. neg.* hech nima, hech narsa; **2.** *adv* hech, hech bir, sira, aslo, zinhor.
notice I [ˊnəutɪs] **1.** *n* e'tibor berish, payqash; **2.** *v* e'tibor bermoq, payqamoq.
notice-board [ˊnəutɪs,bɔ:d] *n* e'lonlar taxtasi, e'lonlar osiladigan (yopishtiriladigan) taxta.
notification [ˌnəutɪfɪˊkeɪʃn] *n* bildirish, e'lon, xabarnoma.
notify [ˊnəutɪfaɪ] *v* xabar qilmoq; bildirmoq.
notion [ˊnəuʃn] *n* tushuncha, g'oya, niyat, maqsad, o'y, fikr.
notional [ˊnəuʃnəl] *a filos.* mavhum, sinalmagan, tajribaga asoslanmagan; **~ words** *gram.* leksik ma'no anglatuvchi so'zlar.
notoriety [ˌnəutəˊraɪətɪ] *v* yomon ot chiqarish, yomon shuhrat, badnomlik.
notorious [nəuˊtɔ:rɪəs] *a* salbiy jihatdan mashhur, yomon ot chiqargan, badnom.
notwithstanding [ˌnɔtwɪðˊstændɪŋ] *prep.* shunday bo'lsa ham, shunga qaramay.
nought [nɔ:t] *n* 1) hech nima, hech narsa; 2) *mat.* nol.
noun [naun] *n gram.* ot; **proper ~** atoqli ot; **common ~** turdosh ot.
nourish [ˊnʌrɪʃ] *v* 1) boqmoq, ovqatlantirmoq; 2) hislarni *yoki* ishonchni kuchaytirmoq.
nourishing [ˊnʌrɪʃɪŋ] **1.** *pres. p.* **nourish** *dan*; **2.** *a* to'q tutadigan, to'yimli.
nourishment [ˊnʌrɪʃmənt] *n* ovqat, oziq, taom.
nous [naus] *n* 1) aql, fahm, idrok, zehn; 2) to'g'ri (sog'lom) fikr.

novation [nəu'veɪʃn] *n* yangilik, yangi rasm-rusum, yangi kiritilgan tartib-qoida (*usul, rasm-rusum va h.*), yangilik.
novel ['nɔvəl] **1.** *n* 1) roman; 2) yangi non; 3) yangi hosilning doni (g'allasi); **2.** *a* yangi, noma'lum, notanish.
novelist ['nɔvəlɪst] *n* roman yozadigan yozuvchi.
novelty ['nɔvəltɪ] *n* yangilik; yangi chiqqan narsa.
November [nəu'vembə] *n* noyabr.
novice ['nɔvɪs] *n* shogird; yangi kelgan.
now [nau] *adv* hozir; **just ~** hozirgina.
nowaday ['nauədeɪ] *a* hozirgi, shu paytdagi, hozirgi vaqtdagi.
nowadays ['nauədeɪz] *adv* hozirgi kunda, bizning davrimizda, shu kunlarda.
nowhere ['nəuweə] *adv* hech qayerga, hech qayerda.
nowise ['nəuwaɪz] *adv* aslo, hech, sira, mutlaqo.
noxious ['nɔkʃəs] *adv* zararli, zarar (ziyon) qiladigan, yomon, halokatli; **~ air** konning zaharli havosi; **~ plants** zaharli o'simliklar.
nozzle ['nɔzl] *n tex.* suv *yoki* gaz quvurining jo'mragi.
n't [nt] *so'zl.* **not** *ga qarang.*
nth [enθ] *a mat.* biror, qandaydir, muayyan (ma'lum) bir.
nuance [nju:'ɑ:ns] *n fr.* nozik farq, sezilar-sezilmas farq.
nub [nʌb] *n* 1) yo'g'onlashish, qalinlashish; 2) asl ma'no, tub mohiyat, ishning mohiyati.
nuclear ['nju:klɪə] *a* yadroga (atom yadrosiga) oid; **~ energy** yadro (atom) energiyasi.
nuclei ['nju:klɪaɪ] *pl* **nucleus** *dan.*
nucleus ['nju:klɪəs] *n* 1) o'zak, markaz; yadro; 2) *biol.* xujayra yadrosi; 3) atom yadrosi.
nude [nju:d] *a* yalang'och; ochilib qolgan, ochiq.
nudge [nʌdʒ] **1.** *n* tirsak bilan sekin turtib qo'yish; **2.** *v* tirsak bilan sekin turtib qo'ymoq (*birovning diqqatini o'ziga tortish uchun*).
nudity ['nju:dətɪ] *n* yalang'ochlik; yalang'och joy.
nugatory ['nju:gətərɪ] *a* 1) arzimas, ahamiyatsiz, behuda, oson; 2) qonuniy kuchga ega bo'lmagan; 3) foydasiz, natijasiz.
nugget ['nʌgɪt] *n* sof holda topilgan metall (oltin).
nuisance ['nju:səns] *n* 1) ko'ngilsizlik; ko'ngilsiz; 2) alam, ranj, o'kinch, achinish.
null [nʌl] *a* qonuniy kuchga ega bo'lmagan, bekor qilingan.
nullify ['nʌlɪfaɪ] *v* bekor qilmoq, yo'q qilmoq, kuchdan qoldirmoq.
nullity ['nʌlətɪ] *n* 1) e'tibori (salmog'i, nufuzi) yo'qlik, e'tiborsizlik, arzimaganlik, juda kichkinalik, haqirlik, notavonlik; 2) *yur.* qonuniy kuchga ega bo'lmaslik, bekor qilinganlik, bekor qilishlik.
numb [nʌm] *a* karaxt, uvushib qolgan.
number ['nʌmbə] *n* son, miqdor, raqam.
numeral ['nju:mərəl] *n* 1) raqam; 2) *gram.* son.
numerate ['nju:mərət] *v* sanamoq, hisoblamoq.
numeration [ˌnju:mə'reɪʃn] *n* 1) hisoblash, sanash, sanoq; 2) tartib raqamlari.
numerator ['nju:məreɪtə] *n* 1) *mat.* surat; 2) hisoblovchi, hisobchi; 3) *tex.* hisoblagich.
numerical [nju'merɪkəl] *a* raqamlarga oid, raqamlar bilan ko'rsatilgan, raqamli.
numerous ['nju:mərəs] *a* 1) ko'p sonli, ko'p kishili; 2) ko'p, ko'pgina, ancha.
numskull ['nʌmskʌl] *n* ahmoq, tentak, nodon.
nun [nʌn] *n* rohiba.
nunnery ['nʌnərɪ] *n* ayollar monastiri.
nuptial ['nʌpʃl] **1.** *a* nikohga, er-xotinlikka oid; **2.** *n* to'y, nikoh to'yi.
nurse [nə:s] *n* 1) boquvchi xotin, enaga; 2) hamshira.
nurseling ['nə:slɪŋ] *n* 1) emadigan bola; 2) shogird; 3) arzanda.
nursery ['nə:s(ə)rɪ] 1) bolalar xonasi; 2) bolalar bog'chasi.
nursling ['nə:slɪŋ] = **nurseling.**
nurture ['nə:tʃə] *v* 1) parvarish qilmoq, boqmoq; 2) tarbiyalamoq, o'qitmoq, o'rgatmoq.
nut I [nʌt] *n* yong'oq.
nut II [nʌt] *v* yong'oq termoq.
nutcracker ['nʌtˌkrækə] *n* yong'oq chaqadigan qisqich.
nutmeg ['nʌtmeg] *n* muskat yong'og'i.
nutrient ['nju:trɪənt] **1.** *n* ovqat bo'ladigan moddalari; ovqat (oziq) moddalari; **2.** *a* 1) yeb bo'ladigan, ovqat (oziq) bo'ladigan; 2) to'q tutadigan, to'yimli; **~ value** to'yimlilik, to'q tutish xossasi.
nutrition [nju:'trɪʃn] *n* oziq, ovqat, taom.
nutritious [nju:'trɪʃəs] *a* ovqat (oziq) bo'ladigan, yeb bo'ladigan.
nutritive ['nju:trətɪv] *n* ovqat (oziq) moddalari.
nutshell ['nʌtʃel] *n* yong'oq po'chog'i; **in a ~** qisqa qilib, ikki og'iz so'z bilan.
nutter ['nʌtə] *n* jinni, telba, savdoyi (ruhiy kasal) odam.
nut-tree ['nʌt'tri:] *n* yong'oq daraxti.
nutty ['nʌtɪ] a 1) yong'oq ta'mli; 2) mazali, lazzatli, totli, shirin; 3) qiziqarli.
nutwood ['nʌtwud] *n* 1) yong'oq daraxti; 2) o'rmon yong'og'i (*butasimon o'simlik*).
nuzzle ['nʌzl] *v* hidlamoq, iskamoq, hidlab ko'rmoq (*itlar haqida*).
nyctalopia [ˌnɪktə'ləupɪə] *n* shabko'rlik.
nylon ['naɪlɔn] **1.** *n* neylon (*sun'iy tola va toladan to'qilgan gazlama*); **2.** *a* neylondan tayyorlangan.
nymph [nɪmf] *n* 1) nimfa (*yunon mifologiyasida: tabiat kuchlarining ayol obrazidagi ilohiyasi*); 2) *zool.* lichinka (*kapalak, chivin, chuvalchang va sh.k.ning tuxumidan chiqqan qurti*).

Oo

O, o [əu] *n* ingliz tili alifbosining o'n beshinchi harfi.

O' [əu-] *pref.* irlandcha otlardan oldin qo'yiladigan prefiks, *masalan*: **O'Henry** O'Henri.

oaf [əuf] *n* (*pl* **oafs** [-s], **oaves**) 1) xunuk *yoki* go'r bola; 2) aqli noqis, esi past, ahmoq odam.

oafish [ˊəufɪʃ] *a* 1) aqli noqis, miyasi yo'q, esi past, kaltafahm; 2) beso'naqay, beo'xshov, qo'pol.

oak [əuk] *n* dub, eman; bolut.

oak-apple [ˊəuk,æpl] *n* mozi (*bolut daraxtining bargida ba'zi parazitlar ta'sirida hosil bo'ladigan yong'oqsimon o'simta*).

oaken [ˊəukən] *a* dubga oid, dubdan ishlangan.

oakery [ˊəukərɪ] *n* dubzor o'rmon, emanzor.

oak-fig [ˊəukfɪg] = **oak-apple.**

oak-gall [ˊəukgɔ:l] = **oak-apple.**

oaklet [ˊəuklɪt] *n* yosh dub (eman).

oakling [ˊəuklɪŋ] = **oaklet.**

oak-nut [ˊəukʌt] = **oak-apple**

oak-tree [ˊəuktri:] *n* dub, bolut, eman daraxti.

oakum [ˊəukəm] *n* zig'irpoyaning dag'al tolasi; kanop losi.

oak-wart [ˊəukwɔ:t] = **oak-apple.**

oak-wood [ˊəukwud] *n* dubzor o'rmon, dubzor, emanzor.

oaky [ˊəukɪ] *a* dubga oid, dubdan ishlangan.

oar [ɔ:] *n* 1) eshkak, chovxoda, chov; 2) eshkak eshuvchi; **2.** *v* eshkak eshmoq.

oarage [ˊɔ:rɪdʒ] *n* eshkak eshish.

oared [ɔ:d] *a* eshkakka oid, eshkakli.

oarer [ˊɔ:rə] = **oarsman.**

plimsolls ['plımslz] *n pl* sport oyoq kiyimi.
plinth [plınθ] *n* 1) chaspak (*pol bilan devor oralig'idagi yoriqni berkitib turadigan ingichka taxta*); 2) poydevor (*devorning pastki qalinroq qismi*).
plod [plɔd] **1.** *n* 1) og'ir qadam tashlash; 2) og'ir ish, qiyin ish; **2.** *v* astoydil ishlamoq, zo'r berib ishlamoq.
plodder ['plɔdə] *n* ko'p ishlaydigan, mehnatkash, zahmatkash.
plonk [plɔŋk] **1.** *n* 1) (*qandaydir og'ir narsaning*) gumburlab yiqilib tushgan ovozi; 2) arzon vino, sifati past bo'lgan vino; **2.** *adv* gumburlab, qarsqurs etib; **3.** *v* (*qandaydir og'ir narsani*) uloqtirmoq.
plop [plɔp] **1.** *n* 1) suvning shapillagan ovozi; 2) suvga qulab tushish; **2.** *adv* to'satdan, qo'qqisdan, birdan, bexosdan.
plot [plɔt] **1.** *n* ig'vo, fitna; **2.** *v* fitna uyushtirmoq.
plough [plau] **1.** *n* 1) plug (*dehqonchilik quroli*); 2) shudgor, haydalgan yer; **2.** *v* shudgor qilmoq; yerni haydamoq.
ploughman ['plaumən] *n* yer haydovchi.
plow [plau] = **plough.**
ploy [plɔı] *n* hiyla, nayrang, makr.
pluck [plʌk] **1.** *n* 1) mardlik, jasurlik; 2) uzish, yulish; **2.** *v* 1) yulmoq, yulib (uzib) olmoq; 2) siltamoq, siltab tortmoq.
plucky ['plʌkı] *a* jasoratli, dovyurak, qo'rqmas.
plug [plʌg] **1.** *n* 1) po'kak, tiqin; 2) o't o'chiruvchi kran, o't o'chirish krani; 3) *el.* shtepsel vilkasi; 4) *harb.* otish qurolining qulflovchi mexanizmi (zatvor); **2.** *v* tiqin tiqib bekitmoq.
plum [plʌm] *n* 1) olxo'ri; **French** ~ olxo'ri qoqi, qora olxo'ri; 2) og'iz suvini keltiradigan narsa; 3) *amer. so'zl.* serdaromad joy, yog'li joy.
plumage ['plu:mıdʒ] *n* pat, qush patlari.
plumb [blʌm] *n* 1) tik qoya, tik yonbag'ir; 2) lot (*og'irlik o'lchovi*).
plumber ['plʌmə] *n* 1) santexnik; 2) kavsharlovchi, qalaylovchi.
plumbing ['plʌmıŋ] *n* 1) vodoprovod tizimi; 2) quvur yotqizish; 3) *so'zl.* kiyinish, pardozxona.
plumb-line ['plʌmlaın] *n* o'lchov, mezon, andaza.
plume [plu:m] *n* 1) pat, par; 2) jig'a, ukpar.
plummet ['plʌmıt] *n* 1) shoqul, shoqul toshi; qo'rg'oshindan qilingan shoqul; 2) qarmoqtosh (*qarmoqqa, to'rga bog'lanadigan og'ir narsa*).
plump [plʌmp] *a* semiz, do'mboq, yo'g'on, to'ladan kelgan.
plunder ['plʌndə] **1.** *n* 1) talonchilik, bosqinchilik; 2) bosqinchilik qilish, talash; **2.** *v* talamoq, shilmoq, bosqinchilik qilmoq.
plunge [plʌndʒ] **1.** *v* sho'ng'ish, cho'kish; **2.** *v* sho'ng'imoq, cho'mmoq.
pluperfect [ˌplu:'pə:fıkt] **1.** *n gram.* uzoq o'tgan zamon; **2.** *a* qachonlardir bo'lib o'tgan, juda eski, allaqachongi.
plural ['pluərəl] *n gram.* ko'plik, ko'plik shakl.
pluralism ['pluərəlızm] *n* 1) pluralizm (*ko'p millatli davlat nazariyasi*); 2) (*asosiy vazifadan tashqari*) qo'shimcha vazifada ishlash.
plurality [pluə'rælətı] *n* ko'pchilik, ko'p sonlik.
plus [plʌs] *n* 1) qo'shuv alomati; 2) qo'shimcha miqdor.
plush [plʌʃ] *a* dang'illama, serhasham, hashamatli, dabdabali.
plutonium [plu:'təunıəm] *n kim.* plutoniy (*radioaktiv element*).
pluvial ['plu:vıəl] *a* yomg'irli, yomg'ir...
ply I [plaı] *n* 1) qatlam, qat, qavat; 2) eshilgan (chiyralgan) ip, arqon va sh.k.; 3) bir buram, bir o'ram.
ply II [plaı] *v* 1) qattiq ishlamoq; 2) ishlamoq, o'qimoq, dars qilmoq; 3) savollar bilan ko'mib tashlamoq; 4) mehmon qilmoq, ziyofat qilmoq, siylamoq.
plywood ['plaıwud] *n* yelimlab qilingan fanera (*fanera – juda yupqa kesilgan yog'och qatlami*).
pneumatic [nju: 'mætık] *a* pnevmatik (*siqilgan havo yordami bilan ishlaydigan*); ~ **hammer** pnevmatik bolg'a.
pneumonia [nju 'məunıə] *n tib.* zotiljam, o'pka yallig'lanishi.
poach I [pəutʃ] *v* 1) o'g'rincha ov qilmoq, o'g'rincha ovlamoq; 2) qo'shilib (aralashib) ketmoq; 3) tahdid qilib o'rganib olmoq; 4) botmoq, botib qolmoq.
poach II [pəutʃ] *v* tuxumni po'chog'isiz suvda qaynatmoq.
pock [pɔk] *n* 1) chechak o'rni (izi), cho'tir; 2) o'yiq, o'yilgan joy.
pocket ['pɔkıt] **1.** *n* cho'ntak, kissa; **2.** *v* cho'ntakka olmoq.
pocket-book ['pɔkıtbuk] *n* 1) yozuv daftarchasi, yon daftarcha; 2) hamyon.
pocket-money ['pɔkıtˌmʌnı] *n* 1) choychaqa; 2) mayda pul; 3) kundalik mayda xarajatlar uchun beriladigan pul.

pocket veto [ˌpɔkɪtˈviːtəu] *n* prezidentning kongress kengashi yopilguncha qonun loyihasiga imzo chekishini kechiktirish.
pock-marked [ˈpɔkmɑːkt] *a* cho'tir, bujur.
pod [pɔd] *n* 1) po'choq, qobiq, po'st, qipiq, po'stloq; 2) pilla.
podgy [ˈpɔdʒɪ] *a so'zl.* 1) pastak va semiz; 2) kalta va semiz (*barmoqlar haqida*).
podium [ˈpəudɪəm] *n* (*pl* **podia**) baland joy, tepalik, balandlik; minbar, supacha.
poem [ˈpəuɪm] *n* 1) she'r, kichik she'riy asar; 2) doston; 3) *ko'chm.* go'zal, jozibador, nafis, chiroyli, ta'sirchan narsa.
poet [ˈpəuɪt] *n* shoir; **~ess** shoira; **~ry** she'riyat.
poetic [pəuˈetɪk] *a* 1) she'riy; 2) shoirona, jozibador.
poetics [pəuˈetɪks] *n pl* (**sing** *dek ishlatiladi*) poetika (*muayyan shoir, oqim yoki davrga xos bo'lgan she'riy uslub*).
poignancy [ˈpɔɪnɪənsɪ] *n* ta'mi o'tkirlik, nordonlik.
poignant [ˈpɔɪnɪənt] *a* achchiq, qayg'uli, alamli.
point I [pɔɪnt] *n* 1) nuqta; **sevent ~ two (7.2)** yetti-yu o'ndan ikki (7.2); **full ~** nuqta (tinish belgisi); 2) maqsad, mohiyat, ma'no, mazmun; 3) o'rin, joy, manzil, makon; 4) payt, lahza, on, vaqt.
point II [pɔɪnt] *v* 1) tasdiqlamoq; 2) yo'naltirmoq, ko'rsatmoq; **~ out** ta'kidlamoq.
point-blank [ˌpɔɪntˈblæŋk] *a* 1) qat'iy, uzil-kesil; 2) *harb.* juda yaqin.
point-duty [ˈpɔɪntˌdjuːtɪ] *n* (*yo'l harakatini*) tartibga soluvchi militsionerning xizmat vazifasi.
pointed [ˈpɔɪntɪd] *a* uchi o'tkir, cho'qqili, uchli, nayzador.
pointer [ˈpɔɪntə] *n* 1) ko'rsatkich (*tayoqcha, yozuv, mil, asbob*); 2) ko'rsatma, yo'l-yo'riq.
pointless [ˈpɔɪntləs] *a* mazmunsiz, ma'nosiz.
poise [pɔɪz] *n* 1) muvozanat, baravar kelish; 2) og'irlik, vazminli, bosiqlik.
poison [ˈpɔɪzn] **1.** *n* zahar; **2.** *v* zaharlamoq; zahar bermoq, zaharlantirmoq.
poisonous [ˈpɔɪznəs] *a* 1) zaharli, og'uli; 2) *so'zl.* jirkanch, iflos, qabih, yoqimsiz.
poke [pəuk] **1.** *n* turtki, zarba, turtish; **2.** *v* turtmoq, itarmoq.
poker I [ˈpəukə] *n* temir kosov (*kosov – o't, olovni to'g'rilash, tortish va sh.k. uchun ishlatiladigan temir tayoq*).
poker II [ˈpəukə] *n* poker (*qartada: qimor o'yinining bir turi*).
poky [ˈpəukɪ] *a* tor, tang, kambar.
polar [ˈpəulə] *a* qutbga oid, qutbdagi, qutbda bo'ladigan.
polarity [pəuˈlærətɪ] *n fiz.* qarama-qarshi qutblarga egalik, ikki qutblilik.
polarize [ˈpəuləraɪz] *v fiz.* qutblarga ajratmoq.
pole [pəul] *n* 1) qutb; 2) ustun, xoda, uzun tayoq.
pole-axe [ˈpəulæks] *n* oybolta (*qadimgi urush quroli*).
polecat [ˈpəulkæt] *n zool.* sassiqkuzan.
polemic [pəˈlemɪk] **1.** *a* munozarali, bahsli, tortishuvli; **2.** *n* munozara, bahs.
police [pəˈliːs] *n* militsiya; **~ officer** militsiya ofitseri; **~man** militsiya xodimi; **~ station** militsiya mahkamasi.
policy [ˈpɔləsɪ] *n* 1) siyosat; **peace ~** tinchlik siyosati; **tough ~** qattiq siyosat; ; **foreign ~** tashqi siyosat; 2) ayyorlik, makkorlik.
polio [ˈpəulɪəu] *n* bolalarning falaj kasalligi.
polish [ˈpɔlɪʃ] *v* 1) surtmoq, suykamoq; 2) pardoz bermoq, sayqallamoq.
polite [pəˈlaɪt] *a* xushmuomala, odobli, xushfe'l, muloyim; **~ reply** xushmuomala javob; **~ness** xushfe'llik.
politic [ˈpɔlətɪk] *a* o'tkir, ziyrak, sezgir.
political [pəˈlɪtɪkl] *a* siyosiy, siyosatga oid; siyosiy tuzum bilan bog'liq bo'lgan.
politically [pəˈlɪtɪklɪ] *adv* 1) siyosat, *yoki* davlat nuqtayi nazaridan; 2) reja bilan, tejab-tergap; 3) firibgarlarcha, puxta o'ylab.
politician [ˌpɔlɪˈtɪʃn] *n* 1) siyosatchi; 2) davlat arbobi, siyosiy arbob.
politics [ˈpɔlətɪks] *n* 1) siyosat; 2) siyosiy faoliyat.
polka-dot [ˈpɔlkədɔt] *n* mayda xol-xol gul (*gazmolda*); **~ material** xol-xol gulli gazmol.
poll I [pəul] *n* 1) ovoz berish, ovozga qo'yish; 2) ovozlar soni; 3) saylovda ishtirok etish; 4) saylovchilar ro'yxati; 5) o'z ovozini qo'yish (saylov).
poll II [pəul] *v* 1) ovoz bermoq; 2) saylov o'tkazmoq; 3) sochini olmoq.
pollard [ˈpɔlәd] *v* biroz qirqib (kesib) kalta qilmoq, kesib (qirqib) tekislamoq (*daraxtni*).
pollen [ˈpɔlən] **1.** *n bot.* chang, gul changi, gulchang (*o'simlikning erkak jinsi hujayralari*); **2.** *v* changlamoq, changlatmoq, o'simlik guliga gulchang tushirmoq.
pollinate [ˈpɔləneɪt] *v bot.* changlamoq, changlatmoq, o'simlik guliga gulchang tushirmoq.
polling-booth [ˈpəulɪŋbuːð] *n* saylovda ovoz berish kabinasi (bo'lmasi).
pollute [pəˈluːt] *v* iflos qilmoq, kir qilmoq, ifloslamoq, bulg'amoq.
pollution [pəˈluːʃn] *n* ifloslanish, iflos qilish, bulg'ash, kir qilish.
polo [ˈpəuləu] *n sport.* polo, chavgon (*ot minib o'ynaladigan to'p o'yini*).
polo-neck [ˈpəuləunek] *a* : **a ~ sweater** (*yoki* **shirt**) to'qilgan ko'ylak, sviter, jemper.
poltroon [pɔlˈtruːn] *n* qo'rqoq, yuraksiz.
poly- [ˈpɔlɪ-] *murakkab so'zlarda* ko'p *degan ma'noni anglatadi:* polisemantik ko'p ma'noli.
polyester [ˌpɔlɪˈestə] *n* sintetika, sintetik material.
polygon [ˈpɔlɪgən] *n* ko'pburchaklik.
polystyrene [ˌpɔlɪˈstaɪriːn] *n kim.* polistrol.
polytechnic [ˌpɔlɪˈteknɪk] **1.** *a* politexnika; **2.** *n* politexnikum (*o'rta politexnik ta'lim beradigan o'quv yurti*).

polythene [ˈpɔlɪθi:n] *n kim.* polietilen (*etilenning polimerlanishidan olinadigan mahsulot*).
polyunsaturated [ˌpɔlɪʌnˈsætʃəˌreɪtɪd] *a kim.* to'yintirilgan.
pomegranate [ˈpɔmɪgrænət] *n bot.* anor.
pomp [pɔmp] *n* yuzaki dabdaba, tantana, hashamat.
pompous [ˈpɔmpəs] *a* balandparvoz, dabdabali; manman, o'ziga bino qo'ygan, gerdaygan, mag'rur.
pond [pɔnd] *n* hovuz, havza, sun'iy ko'l.
ponder [ˈpɔndə] *v* puxta o'ylamoq, chuqur mulohaza qilmoq.
ponderable [ˈpɔndərəbl] *a* og'irlikka ega bo'lgan, vazmin, og'ir.
ponderous [ˈpɔndərəs] *a* beso'naqay, bahaybat, katta, qo'pol.
pong [pɔŋ] *n so'zl.* sassiq (badbo'y) hid, qo'lansa hid.
pontiff [ˈpɔntɪf] *n* 1) Rim papasi; 2) yepiskop (*xristianlarda: ruhoniylarning oliy unvoni va shu unvondagi ruhoniy*).
pontoon I [pɔnˈtu:n] *n* ponton (*vaqtinchalik qurilgan ko'chma ko'prik*).
pontoon II [pɔn ˈtu:n] *n qart.* yigirma bir.
pontoon bridge [pɔn ˈtu:nbrɪdʒ] *n* vaqtinchalik qurilgan ko'chma ko'prik.
pony [ˈpəunɪ] *n* poni, toti ot, to'pichoq ot (*bichimi kichik, pastak ot*).
pony-tail [ˈpəunɪteɪl] *n* otning dumi (*o'rilmay bog'lab orqaga tashlangan soch*).
poodle [ˈpu:dl] *n* pudel (*yungi jingalak xonaki it*).
pooh [pu] *int.* uf! tfu!
pool I [pu:l] *n* cho'miladigan hovuz (*basseyn*); ko'lmak.
pool II [pu:l] *n* 1) umumiy birlashtirilgan zaxiralar; 2) umumiy fond.
pooling [ˈpu:lɪŋ] *n* birlashtirish.
poop I [pu:p] *n* quyruq qism, orqa, dum.
poop II [pu:p] *n* befahm (anqov, laqma) odam.
poor [puə] *a* 1) kambag'al, faqir, qashshoq, bechora, g'arib; **to be** ~ kambag'al bo'lmoq; 2) kam, oz; yomon.
poor-law [ˈpuə:lɔ:] *n* kambag'allar to'g'risidagi (haqidagi) qonun.
poorly [ˈpuəlɪ] **1.** *adv* 1) oz, kam, uncha yaxshi (yetarlicha) emas; 2) yomon; 3) achinarlik holatda, ayanchli bir holda; **2.** *a* nosog', betob, kasal, xasta.
poorness [ˈpuənɪs] *n* 1) yetmaslik, yetishmaslik, yetarli (kifoya) emaslik, kamlik, ozlik; 2) kamchilik, tanqislik; 3) kambag'allik, nochorlik.
poor-spirited [ˌpuəˈspɪrɪtɪd] *a* jur'atsiz, yuraksiz, qo'rqoq.
pop I [pɔp] *n* 1) paqillagan ovoz; 2) otilgan o'q ovozi; 3) vijillaydigan ichimlik, gazli ichimlik.
pop II [pɔp] *n* ota.
pope I [pəup] *n* 1) Rim papasi; 2) kashish, pop, ruhoniy.
pope II [pəup] **1.** *n* chov (*qorinning ostki qismi, qorin bilan sonlar orasi*); **2.** *v* chovga urmoq.
popinjay [ˈpɔpɪndʒeɪ] *n* 1) olifta, satang, o'ziga bino qo'yuvchi odam; 2) to'ti, to'tiqush.
poplar [ˈpɔplə] *n bot.* terak.
popper [ˈpɔpə] *n* shiq-shiq tugma, piston.
poppet [ˈpɔpɪt] *n* uvoq, ushoq, burda.
poppy [ˈpɔpɪ] **1.** *n bot.* ko'knor (*o'simlik*); **2.** *attr.* ko'knor o'simligiga oid.
poppycock [ˈpɔpɪkɔk] *n amer. so'zl.* bema'ni (bo'lmag'ur, bekorchi) gap, safsata.
populace [ˈpɔpjuləs] *n* aholi, oddiy xalq.
popular [ˈpɔpjulə] *n* 1) xalqqa (xalq ommasiga) oid, mansub, ommaviy; 2) mashhur, taniqli, dong-dor, dongi chiqqan; ~ **hero** mashhur qahramon.
popularity [ˌpɔpjuˈlærətɪ] *n* mashhurlik, shuhrat.
populate [ˈpɔpjuleɪt] *v* odamlarni joylashtirmoq, odamlarni ko'chirib olib bormoq.
population [ˌpɔpjuˈleɪʃn] *n* aholi, istiqomat qiluvchilar, xalq.
porcelain [ˈpɔ:səlɪn] *n* chinni, chinni buyumlar.
porch [pɔ:tʃ] *n* 1) podyezd (*binoga kiriladigan katta eshik*); 2) eshik oldi (*uyga kiraverishdagi soyabonli pillapoya*); 3) portik (*katta binoga tutashtirib solingan ustunli peshayvon*); 4) ayvon, balkon (*boloxona ayvoni*).
porcine [ˈpɔ:saɪn] *a* 1) cho'chqaga oid; cho'chqa...; 2) cho'chqa kabi iflos, isqirt.
porcupine [ˈpɔ:kjupaɪn] *n zool.* jayra.
pore I [pɔ:] *n* teridagi teshikchalar.
pore II [pɔ:] *v* diqqat bilan o'rganmoq, o'qimoq.
pork [pɔ:k] **1.** *n* cho'chqa go'shti; **2.** *attr.* cho'chqa go'shtidan qilingan.
pornography [pɔ:ˈnɔgrəfɪ] *n* pornografiya (*jinsiy hayotni behayolarcha tasvirlovchi adabiyot va san'at asarlari*).
porous [ˈpɔ:rəs] *a* g'ovak, g'alvirak, serkovak, ilma-teshik.
porpoise [ˈpɔ:pəs] *n* dengiz cho'chqasi.
porridge [ˈpɔrɪdʒ] *n* bo'tqa, shavla.
port [pɔ:t] *n* port, bandargoh.
portable [ˈpɔ:təbl] *a* 1) ixcham, mo'jaz, ko'tarib yurishga qulay; 2) ko'chma, ko'chiriladigan.
portage [ˈpɔ:tɪdʒ] *n* transportda (yukni o'zi bilan) olib ketish, olib borish, tashish.
portal [ˈpɔ:tl] *n* peshtoq, ravoq, asosiy kirish yo'li, katta darvoza.
portend [pɔ:ˈtend] *v* bashorat qilmoq, oldindan aytib bermoq.
portent [ˈpɔ:tənt] *n* belgi, alomat, nishona.
portentous [pɔ:ˈtentəs] *a* 1) dahshatli, vahimali, shum, mash'um, mudhish, xunuk, kasofat; 2) hayron qolarli, sira ko'rilmagan (eshitilmagan), g'alati, ajoyib.
porter I [ˈpɔ:tə] *n* 1) hammol; 2) yuk tashuvchi.

porter II [ˈpɔ:tə] *n* darvozabon, darvoza (eshik) qorovuli.
portfolio [ˌpɔ:t ˈfəuliəu] *n* 1) portfel; 2) papka; 3) xujjatlar.
porthole [ˈpɔ:thəul] *n deng.* kema bortidagi illuminator.
portico [ˈpɔ:tɪkəu] *n* (*pl* **-oes, -os** [-əuz]) *me'mor.* portik (*katta binoga tutashtirib solingan kolonnali peshayvon*).
portion [ˈpɔ:ʃn] *n* 1) bo'lak, ulush; 2) ovqatning bir kishiga mo'ljallangan miqdori.
portly [ˈpɔ:tlɪ] *a* to'ladan kelgan, to'la, jussali.
portmanteau [pɔ:tˈmæntəu] *n* 1) chemodan, yo'l sumkasi; 2) sun'iy so'z.
portrait [ˈpɔ:trət] *n* portret (*kishining surati, haykali*).
portray [pɔ:ˈtreɪ] *v* 1) portret chizmoq, suratini chizmoq, rasmga olmoq; 2) bayon etmoq, tasvirlamoq, ta'riflamoq; 3) sahnada aks ettirmoq, o'ynamoq.
portrayal [pɔ:ˈtreɪəl] *n* bayon, tasvir.
Portuguese [ˌpɔ:tʃuˈgi:z] **1.** *a* Portugaliya va portugaliyaliklarga oid; **2.** *n* portugaliyalik.
pose [pəuz] **1.** *n* 1) gavdaning turishi (vaziyati); vaziyat, holat; 2) *ko'chm.* soxta (yasama) qiyofa; soxtalik, makkorlik; **2.** *v* gavdani ma'lum vaziyatda tutmoq, biror qiyofada turmoq.
poser [ˈpəuzə] *n* qiyin savol, qiyin masala.
posh [pɔʃ] *a so'zl.* hashamatli, dabdabali, muhtasham, kelishgan, ko'rkam.
position [pəˈzɪʃn] **1.** *n* 1) o'rnashgan (ishg'ol qilingan) joy, joylashgan yer, joylashgan yer; holat, vaziyat; 2) mavqe, martaba, ahvol, o'rin, joy, lavozim; 3) nuqtayi nazar, qarash, munosabat; **2.** *v* joylamoq, joylashtirmoq, sig'dirmoq, o'rnashtirmoq.
positive [ˈpɔzətɪv] *a* 1) ijobiy, musbat; 2) *gram.* oddiy (*daraja haqida*); 3) haqiqiy (*tasvirga oid*).
posse [ˈpɔsɪ] *n* 1) politsiyachilar guruhi; 2) tartib o'rnatish uchun xizmat qiladigan qurollangan kishilar guruhi.
possess [pəˈzes] *v* 1) egalik qilmoq, ega bo'lmoq, qo'lga kiritmoq, zabt etmoq; 2) bosmoq (*biror hissiyot, tuyg'u haqida*); **you are surely ~ed** siz aqldan ozibsiz.
possessed [pəˈzest] **1.** *p. p.* **possess** *dan*; **2.** *a* savdoyi, jinni, mukkasidan ketgan.
possession [pəˈzeʃn] *n* 1) egalik qilish, ega bo'lish; 2) mol-mulk, boylik.
possessive [pəˈzəsɪv] *a gram.* 1) qaratqich; **~ case** qaratqich kelishigi; 2) egalik; **~ pronoun** egalik olmoshi.
possibility [ˌpɔsəˈbɪlətɪ] *n* imkoniyat, iloj, imkon, yo'l, ehtimol, yuz berish, mumkinlik.
possible [ˈpɔsəbl] *a* 1) mumkin, ehtimol; 2) bo'lishi (yuz berishi) mumkin bo'lgan; 3) amalga oshirsa bo'ladigan.
possibly [ˈpɔsəblɪ] *adv* 1) imkon boricha, baqadrihol; 2) imkoni bor.
post I [pəust] **1.** *n* 1) post, soqchi; **frontier ~** chegara posti; 2) mansab, vazifa, lavozim; **2.** *v harb.* biror vazifaga tayinlamoq.
post II [pəust] **1.** *n* pochta, aloqa; **~ office** aloqa bo'limi; **2.** *v* pochta orqali jo'natmoq.
postage [ˈpəustɪdʒ] *n* pochta to'lovi, pochta xarajatlari; **inland ~** pochtaning ichki tarifi (*biror narsaga to'lanadigan qat'iy baholar majmuyi*).
postage stamp [ˈpəustɪdʒstæmp] *n* pochta markasi.
postal [ˈpəustl] **1.** *a* pochtaga oid, pochta tashiydigan, pochtachi...; **2.** *n amer.* otkritka, ochiq xat.
postcard [ˈpəustkɑ:d] *n* otkritka.
post-chaise [ˈpəustʃeɪz] *n tar.* pochta tashiydiygan arava.
poster [ˈpəustə] **1.** *n* 1) afisha, plakat, e'lon; 2) afisha yopishtiradigan kishi; **2.** *v* 1) reklama qilmoq; 2) reklamalarni yopishtirmoq.
poste restante [ˌpəust ˈrestɑ:nt] *n fr.* yo'qlab olinadigan xat (*xat yozadigan konvertning ustidagi yozuv*).
posterior [pɔˈstɪərɪə] *a* orqadagi, keyingi, so'ngi, kelgusi.
posteriority [pɔsˌtɪərɪˈɔrɪtɪ] *n* ketma-ket sodir bo'ladigan.
posterity [pɔˈsterɪtɪ] *n* 1) nasl, avlod, urug'; 2) kelajak avlod.
post-free [ˌpəust ˈfri:] *a* bepul jo'natish (*pochta orqali*).
post-graduate [ˌpəust ˈgrædʒuət] **1.** *n* aspirant; **2.** *a* 1) universitetdan keyin o'qiydigan; **~ courses** malaka oshirish kurslari; 2) aspirantga oid; **~ studies** aspirantura.
posthumous [ˈpɔstjuməs] *a* kimsaning vafotidan (o'limidan) keyin sodir bo'ladigan, vafotidan keyingi.
postman [ˈpəustmən] *n* xat tashuvchi, pochtachi.
postmark [ˈpəustmɑ:k] *n* pochta tamg'asi.
postmaster [ˈpəustˌmɑ:stə] *n* pochta mudiri.
postmeridian [ˌpəustməˈrɪdɪən] *a* tush paytidan keyingi, choshgohdan keyingi, tushdan keyingi.
post meridiem [ˌpəustməˈrɪdɪəm] *adv lot.* tush paytidan keyin, choshgohdan keyin, tushdan keyin (*odatda qisqartirilgan shaklda* **p.m.** *yoziladi*).
post-mortem [ˌpəustˈmɔ:tem] **1.** *n* murdani (o'likni) yorish; **2.** *a* kimsaning vafotidan keyin sodir bo'ladigan.
post-office [ˈpəustˌɔfɪs] *n* pochtaxona, pochta bo'limi.
postpone [pəustˈpəun] *v* keyinga surmoq, kechiktirmoq.
postponed [ˈpəustˈpəund] *a* kechiktirilgan, keyinga qoldirilgan.
postscript [ˈpəuskrɪpt] *n* ilova, yangiliklar sharhi (*radio orqali*).
postulate [ˈpɔstjulət] *n* isbotsiz ham qabul qilinaveradigan dastlabki qoida, faraz.
posture [ˈpɔstʃə] *n* 1) gavdaning turishi, vaziyat, holat; 2) harakatlanish, yurish-turish.

post-war [ˌpəustˈwɔ:] *a* urushdan keyingi (so'nggi).
posy [ˈpəuzɪ] *n* kichkina guldasta.
pot [pɔt] **1.** *n* 1) qozoncha, kichkina qozon; 2) banka; krujka; 3) xumcha, xurmacha; 4) gul tuvak; 5) tuvak; 6) choy idish; **2.** *v* 1) qozonga solmoq; 2) qozonda pishirmoq.
potash [ˈpɔtæʃ] *n kim.* ishqor, karbonat angidrid kalisi.
potassium [pəˈtæsɪəm] *n kim.* kaliy (*kimyoviy element*).
potato [pəˈteɪtəu] **1.** *n* (*pl* **-oes**) kartoshka; **2.** *attr.* kartoshkaga oid.
potency [ˈpəutnsɪ] *n* kuch, qudrat, quvvat.
potent [ˈpəutnt] *a* kuchli, o'tkir.
potentate [ˈɔputnteɪt] *n* hokim, hukmdor.
potential [pəuˈtenʃl] **1.** *n* 1) imkoniyat, kuch-qudrat; 2) potensial; **2.** *a* 1) bo'lishi (yuz berishi) mumkin bo'lgan; 2) potensial...; potensiyadagi, yashirin holdagi; 3) yashirin ammo yuzaga chiqishi mumkin bo'lgan.
potentiality [pəˌtenʃɪˈælətɪ] *n pl* yashirin imkoniyatlar.
pot-hole [ˈpɔthəul] *n* chuqur, o'nqir-cho'nqir joy, o'yiq, o'yilgan joy.
potion [ˈpəuʃn] *n* 1) dori o'lchovi; dori miqdori; 2) dori-darmon, dorivor (*odatda xalq tibbiyotida qo'llaniladigan dori-darmon*).
pot-pourri [ˌpəuˈpurɪ] *n fr.* turli musiqa asarlaridan olib tuzilgan terma musiqa asari.
potter [ˈpɔtə] *n* kulol.
potty I [ˈpɔtɪ] *n* tuvak.
potty II [ˈpɔtɪ] *a so'zl.* 1) arzimas, arzimagan, arzimaydigan, ahamiyatsiz; 2) oson; 3) ishqiboz, qattiq berilib ketgan.
pouch [pautʃ] *n* 1) karmon, sumka; 2) xalta, xaltacha.
poultice [ˈpəultɪs] *n* og'rigan joyga suyuq dori *yoki* issiq suvga xo'llangan bint bog'lash bilan davolash.
poultry [ˈpəultrɪ] *n* uy qushi, parranda.
pounce [pauns] *n* tirnoq, changal, chang.
pound [paund] *n* funt sterling; funt (*og'irlik birligi*).
pour [pɔ:] *v* quymoq, to'kmoq, oqizmoq, ag'darmoq, toshmoq (*daryo haqida*).
pout [paut] *v* arazlamoq, arazlab qolmoq.
poverty [ˈpɔvətɪ] *n* kambag'allik, kambag'alchilik, qashshoqlik.
powder [ˈpaudə] *n* 1) kukun; 2) upa; 3) porox, miltiqdori.
powder-puff [ˈpaudəpʌf] *n* upa qo'yadigan momiq.
power [ˈpauə] *n* 1) davlat, hokimiyat; **The Great Powers** buyuk davlatlar; 2) quvvat, qudrat, kuch; 3) qobiliyat; imkoniyat.
power-boat [ˈpauəbəut] *n* motorli qayiq.
power circuit [ˈpauəˈsə:kɪt] *n el.* energetika tarmog'i.
power-dive [ˈpauədaɪv] *n* ishlayotgan motor bilan sho'ng'ib uchmoq (*samolyot haqida*).
powerful [ˈpauəfl] *a* 1) kuchli, zo'r, qudratli; 2) ravshan, aniq (*nutq haqida*); 3) ishonchli, asosli, jiddiy; ~ **evidence** ishonchli isbot.
power-house [ˈpauəhaus] *n* 1) elektr stansiyasi; 2) *so'zl.* juda g'ayratli kishi.
powerless [ˈpauələs] *a* kuch-quvvatdan qolgan, bequvvat, kuchsiz.
power-plant [ˈpauəplɑ:nt] *n* elektr stansiyasi.
power-saw [ˈpauəsɔ:] *n tex.* motorli arra.
power-shovel [ˈpauəˌʃʌvl] *n* ekskavator.
power-station [ˈpauəˌsteɪʃn] *n* elektr stansiyasi.
powwow [ˈpauwau] **1.** *n* tabib, emchi, duoxon (*shimoliy amerikalik hindularda*); **2.** *v* tabiblik bilan shug'ullanmoq.
pox [pɔks] *n* sifilis, zaxm.
pozzy [ˈpɔzɪ] *n* jargon, jem, quyuq shinni, murabbo.
practicability [ˌpræktɪkəˈbɪlətɪ] *n* maqsadga muvofiqlik, ma'qullik, maqbullik.
practicable [ˈpræktɪkəbl] *a* amalga oshadigan, amalga oshirib (yuzaga, ro'yobga chiqarib) bo'ladigan, bajarib (qilib) bo'ladigan.
practical [ˈpræktɪkl] *a* 1) amaliyotga oid; 2) foydali; 3) amaliy; ~ **joke** qo'pol hazil.
practicality [ˌpræktɪˈkælətɪ] *n* ishbilarmonlik, uddaburonlik, omilkorlik.
practically [ˈpræktɪklɪ] *adv* amaliy jihatdan; amalda; aslida, deyarli, qariyb.
practice [ˈpræktɪs] **1.** *n* 1) tajriba, amaliyot; 2) odat, urf-odat, o'rnatilgan tartib; 3) mashq qilish; **language** ~ til mashqi; **2.** *attr.* tajribali.
practician [prækˈtɪʃn] *n* 1) amaliyotchi; 2) omilkor, ishning ko'zini biladigan odam.
practise [ˈpræktɪs] *v* qo'llamoq, tatbiq qilmoq; ~ **upon** aldamoq, biror narsani suiiste'mol qilmoq.
practised [ˈpræktɪst] **1.** *p. p.* **practise** *dan*; **2.** *a* tajribali, tajribakor, omilkor, usta, mohir, ishbilarmon.
practitioner [prækˈtɪʃnə] *n* tajriba orttirayotgan shifokor *yoki* yurist.
praepostor [priːˈpɔstə] *n* tartib-intizomni nazorat qiladigan o'quvchi.
praetor [ˈpri:tə] *n tar.* pretor (*Qadimgi Rimda oliy martabali kishi*).
praetorian [prɪˈtɔ:rɪən] *a* pretorlarga oid, pretorlarga xos.
pragmatic [prægˈmætɪk] *a* pragmatizmga asoslangan, pragmatik.
pragmatical [prægˈmætɪkl] *a* xira, shilqim, birovning ishiga aralashadigan, bezbet.
pragmatism [ˈprægmətɪzm] *n* 1) *filos.* pragmatizm (*hozirgi burjua, xususan, Amerika filosofiyasida: obyektiv haqiqatni emas, balki burjuaziya uchun foyda keltiradigan narsalarnigina haqiqat deb biluvchi reaksion subyektiv idealistik oqim*).
prairie [ˈpreərɪ] *n* cho'l, dasht, yovon.

prairie-chicken [ˈpreərɪˈtʃɪkɪn] *n zool.* o'tzorda yashaydigan qarqur.
prairie-dog [ˈpreərɪdɔg] *n zool.* cho'l kuchuk-chasi.
prairie-hen [ˈpreərɪhen] *n* o'tzorda yashaydigan qarqurning urg'ochisi.
prairie-wolf [ˈpreərɪwulf] *n* o'tzorda yashaydigan bo'ri.
praise [preɪz] *v* maqtamoq, madh etmoq; **to ~ to the skies** ko'klarga ko'tarmoq, yuqori baholamoq.
praiseworthy [ˈpreɪz,wɔ:ðɪ] *a* maqtovga sazovor bo'ladigan, maqtasa bo'ladigan, maqtovga loyiq.
pram I [prɑ:m] *n* tagi yassi kema.
pram II [præm] *n* bolalar aravachasi.
prance [prɑ:ns] *n* 1) sakrash, irg'ish; 2) kekkayib yurish; mag'rurlik.
prancing [ˈprɑ:nsɪŋ] *a* 1) sakraydigan, kekkayib; 2) muhim (*yurish haqida*).
prandial [ˈprændɪəl] *a* tushlikka oid; tushlik vaqtidagi.
prang I [præŋ] *n av.jarg.* 1) bomba tashlash; 2) havoda to'qnashish.
prang II [præŋ] *v* 1) samolyotni urib tushirmoq; 2) bomba tashlamoq.
prank I [præŋk] *n* 1) nojo'ya harakat; 2) sho'xlik, to'polon, hazilkashlik, hazil-huzul.
prank II [præŋk] *v* bezamoq, bezatmoq.
prankish [ˈpræŋkɪʃ] *a* 1) sho'x, o'yinqaroq; 2) qiziqchi, hazilkash.
praps [præps] *so'zl.* **perhaps** *ga qarang.*
prase [preɪz] *n min.* yashil chaqmoqtosh.
prat [præt] *n* esi past, ahmoq odam, tentak.
prate [preɪt] *n* quruq mahmadonagarchilik, quruq gap, bo'lmag'ur gapni gapirish.
prater [ˈpreɪtə] *n* sergap odam, ezma, vaysaqi, safsataboz.
praties [ˈpreɪtɪz] *n so'zl.* kartoshka (*ekini va hosili*).
pratique [ˈpræti:k] *n fr. deng.* qirg'oq bilan aloqa qilish uchun ruxsatnoma, karantin bekor qilinganligi haqidagi ruxsatnoma.
prattle [ˈprætl] **1.** *n* 1) tili chiqa boshlagan bolaning noaniq gapi; 2) bekorchi gap; safsata; **2.** *v* 1) bog'lanishsiz (shirin) gapirmoq, bijirlamoq (*bolalar haqida*).
prattler [ˈprætlə] *n* 1) endigina gapira boshlagan bola; 2) sergap odam, ezma.
prawn [prɔ:n] **1.** *n zool.* mayda qisqichbaqa; **2.** *v* qisqichbaqa ushlamoq, tutmoq.
praxis [ˈpræksɪs] *n* 1) amaliyot, amal; 2) urf, odat; 3) *gram.* misollar, mashqlar.
pray [preɪ] *v* 1) namoz o'qimoq; sig'inmoq; 2) yalinmoq, o'tinib so'ramoq.
prayer I [preə] *n* 1) ibodat qilish, namoz o'qish, sig'inish; 2) ibodat, namoz, duo (matni), janoza namozi, janoza; 3) qisqa ibodat; 4) iltijo, o'tinch, yolvorish, o'tinib (yolvorib, xudoning zorini qilib) so'rash.
prayer II [ˈpreɪə] *n* iltimoschi, iltimos qiluvchi, iltijo qiluvchi inson.
prayer-book [ˈpreəbuk] *n* ibodat (*namoz, duolar*) to'plami, kitobi.
prayerful [ˈpreəful] *a* 1) ibodatga oid, ibodat qiladigan; 2) taqvodor, toat ibodat qiluvchi, xudojo'y.
praying [ˈpreɪɪŋ] **1.** *pres. p.* **pray** *dan*; **2.** *n* ibodat qilish, sig'inish.
pre- [pri:-] *pref.* -gacha, -ga qadar, -ga dovur.
preach [pri:tʃ] *v* 1) xutba o'qimoq; 2) voizlik (va'zxonlik) qilmoq, va'z o'qimoq.
preacher [ˈpri:tʃə] *n* 1) voiz, va'zgo'y, va'zxon, xatib; 2) din targ'ibotchisi.
preaching [ˈpri:tʃɪŋ] *n* 1) va'z o'qish, xutba o'qish; 2) va'z, xutba; 3) pand, nasihat.
preachment [ˈpri:tʃmənt] *n* og'it, pand, nasihat.
preachy [ˈpri:tʃɪ] *a* pand-nasihat qilishni yaxshi ko'radigan.
preamble [prɪˈæmbl] **1.** *n* 1) preambula (*xalqaro bitimlarning kirish qismi*); 2) kirish qismi; **2.** *v* kirish so'zini aytmoq.
pre-arrange [ˌpri:əˈreɪndʒ] *v* oldindan tayyorlanmoq, rejalashtirmoq.
pre-arranged [ˌpri:əˈreɪndʒd] *a* oldindan tayyorlangan, rejalashtirilgan.
pre-audience [ˌpri:ˈɔ:dɪəns] *n yur.* yuristlarning sudda unvonlariga qarab navbat bilan chiqishlari.
prebend [ˈprebənd] *n* soliq, o'lpon, to'lov (*masjid va cherkovlarda*).
pre-capitalist [ˌpri:ˈkæpɪtlɪst] *a* kapitalizmdan ilgari, kapitalizmgacha bo'lgan.
precarious [prɪˈkeərɪəs] *a* 1) tasodifiy bo'lgan, kutilmaganda yuz bergan; 2) asossiz, dalilsiz, asoslanmagan, noo'rin; 3) xavfli, xatarli; 4) ishonib bo'lmaydigan, shubhali.
precast [ˌpri:ˈkɑ:st] *a qur.* zavodda ishlab chiqilgan.
precatory [ˈprekətərɪ] *a* iltimosga (*yoki yalinishga*) oid, iltimosli.
precaution [prɪˈkɔ:ʃn] *n* 1) ehtiyotlik, ehtiyotkorlik; 2) xavfsizlik choralarini ko'rish.
precautionary [prɪˈkɔ:ʃnərɪ] *a* ogohlantiradigan, oldini oladigan, ogohlantirilgan, ehtiyot chorasi ko'rilgan.
precede [prɪˈsi:d] *v* 1) biror kimsa *yoki* narsadan oldin yurmoq, oldinga o'tmoq; 2) yuqoriroq lavozimni egallamoq.
precedence [ˈpresɪdəns] *n* 1) oldinga o'tish, ustunlik, birinchilik, navbatdan tashqari so'zga chiqish; 2) baland mavqega ega bo'lish.
precedent [ˈpresɪdənt] *n* 1) pretsedant (*o'zidan keyin sodir bo'ladigan xuddi shu turdagi voqealarga namuna, o'rnak bo'la oladigan voqea, hodisa*); 2) o'xshash, teng.
preceding [prɪˈsi:dɪŋ] **1.** *pres. p.* **precede** *dan*; **2.** *a* oldingi, ilgarigi, sobiq; **~ chapter** oldingi bob.

precentor [prɪ´sentə] *n* xor dirijori (*asosan, cherkovda*).
precept [´pri:sept] *n* dastur, yo'l-yo'riq, qo'llanma.
preceptive [prɪ´septɪv] *a* o'gitli, nasihatli.
preceptor [prɪ´septə] *n* ustoz, murabbiy, rahbar.
preceptorial [ˌpri:sep´tɔ:rɪəl] *a* 1) ustozga, murabbiyga oid; 2) o'gitli, pand-nasihatli.
preceptress [prɪ´septrəs] *n* ustoz, murabbiy, rahbar (*ayol*).
pre-Chiristian [ˌpri:´krɪstʃən] *a* xristian dinidan oldingi.
precinct [´pri:sɪŋkt] *n* 1) bino atrofidagi ekinli qismi (*masjidlarda*); 2) *amer.* saylov *yoki* politsiya uchastkasi, okrugi; 3) chegara, hudud; **a shopping ~** savdo markazi; **a pedestrian ~** piyoda yurishga mo'ljallangan yo'l.
preciosity [ˌpreʃɪ´ɔsətɪ] *n* nafislik, noziklik (*tilning yoki uslubning*).
precious [´preʃəs] *a* 1) qimmatbaho, 2) aziz, sevimli; yoqimli; asl; **~ stones** qimmatbaho toshlar.
precipice [´presəpɪs] *n* jar, tik (chuqur) jar, jarlik.
precipitance, -cy [prɪ´sɪpɪtəns, -sɪ] *n* 1) tezlik, shiddatlilik; shiddat, shitob; 2) mulohazasizlik, shoshqaloqlik, yengiltaklik, o'ylamasdan ish tutish; o'ylamay (shoshqaloqlik bilan) qilingan ish, **to judge with ~** fikr-mulohazalarni o'ylamay aytmoq.
precipitant [prɪ´sɪpɪtənt] *a* 1) harakatchan, g'ayrat-shijoatli, g'ayrati ichiga sig'maydigan; 2) oxirini o'ylamay (shoshib) ish tutadigan.
precipitate 1. *n* [prɪ´sɪpɪtət] *kim.* 1) eritmadan cho'kindi ajralib chiqishi; 2) cho'kindi, quyqa, quyqum, cho'kma, loyqa; **2.** *v* tezlatmoq, tezlashtirmoq, jadallashtirmoq.
precipitation [prɪˌsɪpɪ´teɪʃn] 1) harakatchanlik; 2) tezlik, o'sish (*tezlik*).
precipitous [prɪ´sɪpɪtəs] *a* 1) tik, tikka tushgan, tikka ko'tarilgan; 2) tik jarlik, tik kesilib tushgan.
précis [´preɪsi:] **1.** *n* konspekt, qisqa bayon; **2.** *v* 1) konspekt yozmoq; 2) qisqa bayon etmoq.
precise [prɪ´saɪz] *a* ravshan, aniq, muayyan, tushunarli, ma'lum, ravon, tayinli, tayin.
precisely [prɪ´saɪslɪ] *a* 1) aniq, to'g'ri; 2) aynan; aynan shunday (*javobda*); 3) ha, rost.
precisian [prɪ´sɪʒn] *n* 1) rasmiyatchi, rasmiyatparast; 2) rasmiy talablarni bajarishga zo'r beruvchi kishi; 3) o'taketgan rasmiyatchi.
precisianism [prɪ´sɪʒnɪzm] *n* rasmiyatchilik, o'taketgan rasmiyatchi.
precision [prɪ´sɪʒn] *n* 1) aniqlik, to'g'rilik; 2) merganlik.
preclude [prɪ´klu:d] *v* oldini olmoq, ehtiyot chorasini ko'rmoq, oldindan bartaraf qilmoq.
preclusion [prɪ´klu:ʒən] *n* 1) to'siq, g'ov; 2) xalal, xalaqit, to'siq, to'sqinlik.
precocious [prɪ´kəuʃəs] *a* 1) barvaqt, vaqtidan ilgari; 2) *q.x.* tezpishar; ertagi, chillaki.
precocity [prɪ´kɔsətɪ] *n* 1) tezpisharlik, erta pisharlik; 2) barvaqt rivojlanish.
pre-Columbian [ˌpri:kə´lʌmbɪən] *a ko'chm.* almisoqdan (daqqiyunusdan) qolgan, oyoqdan qolgan, allaqachon eskirgan.
preconceive [ˌpri:kən´si:v] *v* oldindan tasavvur qilmoq.
preconceived [ˌpri:kən´si:vd] **1.** *p. p.* **preconceive** *dan*; **2.** *a* 1) oldindan bichib-to'qilgan, xolis bo'lmagan; 2) yanglish, xato.
preconception [ˌpri:kən´sepʃn] *n* oldindan paydo bo'lgan fikr, noto'g'ri (xato) tushuncha; salbiy fikr.
pre-concert [ˌpri:kən´sɔ:t] *v* oldindan kelishib (shartlashib) olmoq.
pre-concerted [ˌpri:kən´sə:tɪd] **1.** *p. p.* **preconcert** *dan*; **2.** *a* oldindan kelishib olingan.
pre-condition [ˌpri:kən´dɪʃn] **1.** *n* oldindan qo'yilgan shart; **2.** *v* oldindan shartlashib olmoq.
pre-conquest [pri:´kɔŋkwest] *a* normanlar bosib olishdan oldingi davrga taalluqli bo'lgan vaqt (*1066 y.*).
pre-contract [pri:´kɔntrækt] **1.** *n* oldingi shartnoma; **2.** *v* oldindan shartnoma tuzmoq.
precursor [prɪ´kə:sə] *n* oldindan xabar beruvchi, darakchi, xabarchi, alomat, nishona.
predacious [pri:´deɪʃəs] *a* 1) yirtqich hayvonlarga oid, yirtqich; 2) yirtqichlarcha, vahshiylarcha.
predator [´predətə] *n* 1) yirtqich, vahshiy; 2) *ko'chm.* talovchi, qonxo'r.
predatory [´predətərɪ] *a* 1) talonchilikdan iborat bo'lgan; 2) yirtqich hayvonlarga oid, yirtqich.
predawn [pri: ´dɔ:n] *n* tong otish oldidagi, tong otishdan oldin bo'ladigan, tongotar chog'idagi (paytidagi).
predecease [ˌpri:dɪ´si:s] *v* birovdan oldin o'lmoq.
predecessor [´pri:dɪsesə] *n* ajdod, ota-bobo.
pre-Depression [ˌpri:dɪ´preʃn] *a* 1929 – 33 yillardagi iqtisodiy krizisdan oldin bo'lib o'tgan, sodir bo'lgan.
predestination [pri:ˌdestɪ´neɪʃn] *n* oldindan belgilash, oldindan aniqlash.
predestine [pri:´destɪn] *v* oldindan aniqlab qo'ymoq, oldindan belgilab qo'ymoq.
predetermine [ˌpri:dɪ´tə:mɪn] *v* 1) oldindan belgilab qo'ymoq; 2) ta'sir qilmoq, ta'sir ko'rsatmoq (*kimgadir*).
predial [´pri:dɪəl] *a* 1) yerga oid, yer; 2) qishloqqa oid, qishloqda bo'ladigan.
predicament [prɪ´dɪkəmənt] *n* qiynalish, qiyin ahvol.
predicant [´predɪkənt] *n* voiz, va'zgo'y, va'zxon, xatib.
predicate 1. *n* [´predɪkət] *n gram.* kesim; **2.** *v* tasdiqlamoq.
predication [ˌpredɪ´keɪʃn] *n* tasdiqlash.
predicative [prɪ´dɪkətɪv] *a gram.* kesim bo'lib keladigan.

predict [prɪ´dɪkt] *v* (*kelajakni*) oldindan aytib bermoq, bashorat qilmoq.
predicted [prɪ´dɪktɪd] **1.** *p. p.* **predict** *dan*; **2.** *a* oldindan aytib berilgan.
prediction [prɪ´dɪkʃn] *n* oldindan aytish, oldindan bashorat qilish.
predictive [prɪ´dɪktɪv] *a* bashoratli, bashorat qiladigan, bashorat qilib aytilgan.
predictor [prɪ ´dɪktə] *n* oldindan aytib beruvchi, bashoratchi, karomatchi, bashoratgo'y, bashorat qiluvchi.
predilection [ˌpri:dɪ ´lekʃn] *n* ishqibozlik, qiziqish, ishtiyoq, mayl, havas, moyillik (**for** *nimagadir*).
predispose [ˌpri:dɪ´spəuz] *v* 1) biror narsaga mayl hosil qilmoq; 2) rag'bat hosil qilmoq, moyil qilmoq, rag'batlantirmoq (**to** *nimagadir*).
predisposition [ˌpri:dɪspə´zɪʃn] *n* mayl, moyillik, rag'bat, intilish, qiziqish, havas, ishtiyoq.
predominance [prɪ´dɔmɪnəns] *n* ustunlik, afzallik, ortiqlik.
predominant [prɪ´dɔmɪnənt] *a* ustun keladigan, afzal keladigan, ustunlik qiladigan, ortiqlik qiladigan.
predominate [prɪ´dɔmɪneɪt] *v* ustunlik qilmoq; ustun kelmoq, afzal bo'lmoq, ortiq (ko'p) bo'lmoq.
predominatingly [prɪ ´dɔmɪneɪtɪŋlɪ] *adv* asosan, ko'pincha, ko'proq, ayniqsa.
pre-election [ˌpriɪ´lekʃn] **1.** *n* dastlabki saylovlar; **2.** *attr.* saylov oldi, saylov oldidan bo'ladigan.
pre-eminence [prɪ ´emɪnəns] *n* (*katta, ulkan*) ustunlik, afzallik.
pre-eminent [prɪ´emɪnənt] *a* mashhur, atoqli, misli ko'rilmagan, mislsiz.
pre-empt [prɪ´empt] *v* 1) boshqalardan oldin sotib olmoq; 2) boshqalardan oldin hukmronlik qilmoq.
pre-emption [prɪ ´empʃn] *n* boshqalardan oldin sotib olish.
preen [pri:n] *v* 1) patini tumshug'i bilan tozalamoq; 2) o'ziga oro bermoq, zeb bermoq, yasanmoq, bezanmoq; 3) o'zi bilan faxrlanmoq.
pre-establish [ˌpri:ɪs´tæblɪʃ] *v* oldindan belgilamoq, aniqlamoq, tayinlamoq, joriy qilmoq.
pre-exist [ˌpri:ɪg´zɪst] *v* gacha mavjud bo'lmoq (*biror davrgacha*).
prefab [´pri:fæb] = **prefabricated.**
prefabricate [ˌpri:´fæbrɪkeɪt] *v* zavodda tayyorlash usuli bilan tayyorlamoq.
prefabricated [ˌpri:´fæbrɪkeɪtɪd] **1.** *p. p.* **prefabricate** *dan*; **2.** *a* 1) zavod uslubi bilan tayyorlangan; 2) yig'ma, tayyor qismlardan yig'iladigan; ~ **house** yig'ma uy.
preface [´prefəs] *n* so'zboshi, muqaddima.
prefatory [´prefətərɪ] *a* kirish, dastlabki.
prefect [´pri:fekt] *n* 1) intizomni nazorat qiluvchi katta o'quvchi (*maktabda*); 2) departament boshlig'i (*Fransiyada*).
prefecture [´pri:fekʧuə] *n* prefektura (*ba'zi kapitalistik davlatlarda: ma'muriy-territorial birlikni boshqarish organi*).
prefer [prɪ´fə:] *v* 1) afzal ko'rmoq; ma'qul ko'rmoq, yaxshiroq deb bilmoq (hisoblamoq), ortiq deb bilmoq; 2) martabasini oshirmoq, yuqori lavozimga ko'tarmoq.
preferable [´prefrəbl] *a* afzal, ortiq, ma'qul, ko'ngildagiday.
preferably [´prefrəblɪ] *adv* 1) afzal, ortiq; 2) yaxshisi, ma'quli shuki.
preference [´prefrəns] *n* afzal ko'rish, ortiq deb bilish.
preferential [ˌprefə ´renʃl] *a* afzal, ortiq; ma'qul.
preferment [prɪ´fə:mənt] *n* yuqori lavozimga (mansabga, martabaga) ko'tarilish (ko'tarish).
preferred [prɪ´fə:d] **1.** *p. p.* **prefer** *dan*; **2.** *a iqt.* imtiyozli, imtiyozga ega bo'lgan, yengillik beradigan; ~ **share** imtiyozli aksiya.
prefix [´pri:fɪks] *n gram.* prefiks, old qo'shimcha.
preform [pri:´fɔ:m] *v* oldindan tuzmoq, shakllantirmoq, yuzaga keltirmoq, tashkil etmoq, tug'dirmoq.
pregnable [´pregnəbl] *a* yaxshi himoya qilinmagan, oson (tezgina) zararlanadigan; bo'sh, zaif, qaltis (*qal'a haqida*).
pregnancy [´pregnənsɪ] *n* 1) homiladorlik, bo'g'ozlik; 2) (*tasavvurning*) boyligi.
pregnant [´pregnənt] *a* ikkiqat, homilador, bo'g'oz.
prehensile [prɪ´hensaɪl] *a* changali o'tkir, qattiq changallaydigan, mahkam ushlaydigan.
prehistoric [ˌpri:hɪ´stɔrɪk] *a* tarixdan ilgarigi, yozma tarix yuzaga kelmasdan oldin bo'lgan.
prejudge [´pri:´dʒʌdʒ] *v* jazoga hukm qilmoq, jazo bermoq.
prejudice [´predʒudɪs] *n* 1) oldindan (bilmay turib) paydo bo'lgan fikr, noto'g'ri tushuncha; 2) taxminlarga asoslangan mulohaza.
preliminary [prɪ´lɪmɪnrɪ] **1.** *a* dastlabki, oldingi; taxminiy; ~ **examination** kirish imtihoni; **2.** *n* dastlabki muzokaralar.
prelude [´prelju:d] *n* 1) kirish, muqaddima, boshlanish; 2) *mus.* preludiya (*kichikroq musiqiy asar*).
premature [´premətʃuə] *a* 1) bevaqt, bemahal; 2) shoshilib (shoshilinch) qilingan, o'ylamaynetmay qilingan.
premeditated [pri:´medɪteɪtɪd] *a* oldindan o'ylangan, qasddan sodir etilgan, g'arazli.
premeditation [pri:ˌmedɪ ´teɪʃn] *n* oldindan o'ylab qo'yilganlik, ataylab (qasddan) qilinganlik.
premier [´premjə] **1.** *a* bosh, birinchi; **2.** *n* bosh vazir.
première [´premɪɛə] *n fr.* premyera.
premise [´premɪs] *v kit.* muqaddima (kirish) qilmoq, muqaddima sifatida (oldindan) aytib o'tmoq.
premises [´premɪsɪz] *n pl* 1) bino, inshoot, yer, mulk; 2) *yur.* hujjatning kirish qismi.

premium [ˈpri:mɪəm] *n* 1) qo'shimcha haq; 2) sug'urta puli.

premonition [ˌpri:məˈnɪʃn] *n* oldindan sezish, ko'ngilga kelish.

premonitory [prɪˈmɔnɪtərɪ] *a* 1) ogohlantiruvchi, tanbeh beruvchi, ogohlantiradigan, tanbeh beradigan; 2) oldindan ogohlantiradigan, oldindan xabar beradigan, oldindan ma'lum qiladigan.

preoccupation [pri:ˌɔkjuˈpeɪʃn] *n* 1) tashvishlanish; 2) tashvish, muammo.

preoccupy [pri: ˈɔkjupaɪ] *v* 1) fikr-zikrini band etmoq, miyasini qamrab olmoq; 2) kimdandir oldin egallamoq.

prepaid [ˌpri:ˈpeɪd] *past., p. p.* **prepay** *dan.*

preparation [ˌprepəˈreɪʃn] *n* 1) taraddud, tayyorgarlik, hozirlik; **to make ~s for the departure** jo'nashga hozirlik ko'rmoq; 2) tayyorgarlik (taraddud, hozirlik) ko'rish, tayyorlash.

preparatory [prɪˈpærətərɪ] *a* tayyorlov, tayyorlaydigan, tayyorgarlikka (tayyorgarlik ko'rishga) oid.

prepare [prɪˈpeə] *v* 1) tayyor bo'lmoq, tayyorlanmoq, tayyorgarlik ko'rmoq; 2) tayyorlamoq.

prepared [prɪ ˈpeəd] **1.** *p. p.* **prepare** *dan*; **2.** *a* tayyor, tayyorlangan.

prepay [ˈpri:ˈpeɪ] *v* oldindan to'lab qo'ymoq.

preponderant [prɪˈpɔndərənt] *a* ko'p uchraydigan, ko'pchilikni tashkil qiladigan, ortiqlik qiladigan.

preponderate [prɪˈpɔndəreɪt] *v* ortiq (afzal) bo'lmoq, oshib (ortib, o'tib) ketmoq.

preposition [ˌprepəˈzɪʃn] *n gram.* predlog, old ko'makchi.

prepossess [ˌpri:pəˈzes] *v* 1) o'ziga jalb etmoq, bo'ysundirmoq; egallamoq (*ongni, hissiyotni, fikrni*); 2) ilhomlantirmoq, ilhom baxsh etmoq, ruhini ko'tarmoq, zavqlantirmoq.

prepossessing [ˌpri:pəˈzesɪŋ] **1.** *pres. p.* **prepossess** *dan*; **2.** *a* yoqimli, yoqimtoy, jozibador, istarasi issiq.

preposterous [prɪ ˈpɔstərəs] *a* 1) o'rinsiz, bo'lmag'ur, bema'ni; 2) mos (muvofiq, to'g'ri) kelmaydigan, nomunosib, nomuvofiq.

prerequisite [pri:ˈrekwəzɪt] *n* 1) dastlabki shart, shart-sharoit, zamin; 2) nuqtayi nazar, fikr, asos.

prerogative [prɪˈrɔgətɪv] *n* 1) vakolat; 2) alohida huquq (imtiyoz).

presage [ˈpresɪdʒ] *n* belgi, alomat, nishona.

prescience [ˈpresɪəns] *n* oldindan ko'rish (payqash), kelajakni ko'rish, bashorat qilish.

prescient [ˈpresɪənt] *a* oldindan ko'radigan (sezadigan), kelajakni ko'ra oladigan, bashorat qiladigan.

prescribe [prɪˈskraɪb] *v* 1) yozib bermoq, tayinlamoq, ko'rsatma bermoq; 2) tayinlamoq, buyurmoq.

prescription [prɪˈskrɪpʃn] *n* 1) doktor yozib beradigan dori qog'ozi; 2) ko'rsatma (yo'l-yo'riq) berish, tayinlash, buyurish, aytish.

prescriptive [prɪ ˈskrɪptɪv] *a* 1) ko'rsatma (yo'l-yo'riq, maslahat) beradigan; 2) eski urf-odatlarga asoslangan.

presence [ˈprezns] *n* qatnashish, ishtirok etish, mavjud bo'lish, hozir bo'lish, bor bo'lish; **your ~ is obligatory** sizning bo'lishingiz shart.

present I [ˈpreznt] **1.** *a* 1) qatnashayotgan, ishtirok etayotgan; 2) hozirgi, zamonaviy; **2.** *n* hozirgi zamon; **at ~** hozirgi vaqtda (kunda), hozir.

present II [ˈpreznt] **1.** *n* sovg'a, hadya; **2.** *v* sovg'a bermoq.

present III [prɪˈzent] **1.** *v harb.* mo'ljalga (nishonga) olish; **2.** *v* mo'ljalga (nishonga) olmoq.

presentable [prɪˈzentəbl] *a* 1) tuzuk, yaxshi, binoyidek, ko'rkam, durust; 2) odobli, tarbiyali.

presentation [ˌprezɪnˈteɪʃn] *n* 1) taqdim etish, topshirish, taqdim etilish; 2) taqdimot marosimi.

present-day [ˌpreznt ˈdeɪ] *a* zamonaviy, hozirgi, hozirgi kundagi.

presentiment [prɪˈzentɪmənt] *n* (*biror yomon narsani*) oldindan sezish, ko'ngilga kelish.

presently [ˈprezntlɪ] *adv* 1) tez, tezlik bilan, ildam; 2) ko'p o'tmay, tez orada, darrov; 3) hozir, ayni vaqtda.

preservation [ˌprezəˈveɪʃn] *n* saqlash, ehtiyot qilish, saqlab qolish, saqlab (ehtiyot qilib) qo'yish.

preserve [prɪˈzə:v] *v* saqlamoq, muhofaza qilmoq; **to ~ peace** tinchlikni saqlamoq.

preside [prɪ ˈzaɪd] *v* 1) raislik qilmoq, rais bo'lmoq; 2) rahbarlikni amalga oshirmoq, rahbarlik qilmoq.

presidency [ˈprezɪdənsɪ] *n* 1) raislik; 2) prezidentlik.

president [ˈprezɪdənt] *n* 1) prezident; 2) rais.

presidential [ˌprezɪ ˈdenʃl] *a* prezidentga oid.

presidium [prɪˈsɪdɪəm] *n* prezidium (*majlis, kengash va sh.k. katta yig'ilishlarni boshqarib borish uchun saylangan kishilar guruhi; hay'at*).

press I [pres] **1.** *n* 1) matbuot; 2) bosish, og'irligini solish, itarish; 3) ezib (siqib) bir miqdor suvini olish; **2.** *v* 1) qismoq, siqmoq, bosmoq; 2) dazmollamoq.

press II [pres] *n* bosish, nashr etish.

press-gallery [ˈpresˌgælərɪ] *n* matbuot vakillari joyi (*parlament, syezd va b.*).

pressing [ˈpresɪŋ] **1.** *n* iskanja, taxtakach; **2.** *a* shoshilinch, zudlik bilan qilinadigan.

pressman [ˈpresmæn] *n* 1) matbuot xodimi; 2) bosmaxona ishchisi, matbaachi.

pressure [ˈpreʃə] *n* 1) tazyiq, siquv, ta'sir, siqiq; 2) siqish, qisish, tazyiq o'tkazish; 3) bosim; **blood ~** qon bosimi.

pressurize [ˈpreʃəraɪz] *v* zichlamoq, havo kirmaydigan-chiqmaydigan qilmoq.

pressurized [ˈpreʃəraɪzd] *a tex.* zich yopilgan, ichiga havo kirmaydigan qilib mahkam yopilgan.

prestige [pre´sti:ʒ] *n* obro', martaba, nufuz, e'tibor.
presumably [prí´zju:məblɪ] *adv* taxminan, shartli ravishda, mo'ljallab, chamalab.
presume [prɪ´zjum] *v* ko'zlamoq, niyat qilmoq, mo'ljallamoq, taxmin qilmoq.
presumption [prɪ´zʌmpʃn] *n* taxmin, faraz, gumon.
presumptive [prí´zʌmptɪv] *a* faraz (gumon) qilingan, mo'ljallangan.
presumptuous [prí´zʌmptʃuəs] *a* o'ziga juda bino qo'ygan, o'ziga ortiq darajada ishongan.
presuppose [ˌpri:sə´pəuz] *v* taxmin (faraz) qilmoq, chamalamoq.
presupposition [ˌpri:sʌpə´zɪʃən] *n* taxmin, faraz, gumon.
pretence [prí´tens] *n* 1) da'vo, talab; 2) mug'ambirlik, ayyorlik, munofiqlik, soxtalik, 3) bahona, vaj, ro'kach; **under the ~ of** biror narsani bahona qilib.
pretend [prí´tend] *v* da'vo qilmoq; talab qilmoq; mug'ambirlik qilmoq.
pretender [prí´tendə] *n* 1) mug'ambir; 2) ayyor; munofiq; 2) da'vogar, talabgor.
preterit(e) [´pretərɪt] *n gram.* o'tgan zamon.
preternatural [ˌpri:tə´nætʃrəl] *a* g'ayritabiiy, mo'jizaviy, ilohiy, mislsiz.
pretext [´pri:tekst] **1.** *n* vaj, bahona, ro'kach; **2.** [prɪ´tekst] *v* bahona qilib ko'rsatmoq.
prettiness [´prɪtɪnɪs] *n* yoqimlilik, yoqimtoylik, xushro'ylik; muloyimlik; istarasi issiqlik, jozibalik.
pretty [´prɪtɪ] **1.** *a* yoqimli; dilbar, juda chiroyli, go'zal, ko'rkam, zebo; **2.** *adv so'zl.* yetarlicha, yetarli darajada.
prevail [prí´veɪl] *v* 1) hukmronlik qilmoq; 2) tantana qilmoq; 3) ustun kelmoq, g'alaba qozonmoq (**over**); 4) maqsadga erishmoq; 5) afzal bo'lmoq, ortiq (ko'p) bo'lmoq; 6) keng tarqalmoq, keng yoyilmoq, rasm (odat) bo'lmoq.
prevalent [´prevələnt] *a* ko'p uchraydigan, keng tarqalgan.
prevaricate [prɪ´værɪkeɪt] *v* gapni chalg'itib gapirmoq, to'g'ri javobdan qochmoq, gapni chetga burib yubormoq.
prevent [prɪ´vent] *v* 1) oldini olmoq, saqlab qolmoq, ehtiyot chorasini ko'rmoq, oldindan bartaraf qilmoq; 2) to'sqinlik qilmoq, qarshilik ko'rsatmoq, g'ov bo'lmoq, xalal bermoq; 3) xalaqit (xalal) bermoq.
prevention [prɪ´venʃn] *n* oldini olish, bartaraf etish, to'sqinlik qilish.
preventive [prɪ´ventɪv] **1.** *a* 1) ogohlantiruvchi, ogohlantiradigan, oldini oladigan; 2) *tib.* profilaktikaga oid, profilaktik; **2.** *n* 1) ehtiyotdan ko'rilgan chora-tadbirlar; 2) profilaktika choralari.
preview [´pri:vɪu:] *n* 1) ko'rgazma *yoki* filmlarni ommaga ko'rsatishdan oldin ko'rib chiqish; 2) reklama qilish uchun kinofilmlardan ko'rsatiladigan parcha.
previous [´pri:vɪəs] *a* oldingi, avvalgi, ilgarigi, o'tgan, burungi.
previously [´pri:vjəslɪ] *adv* oldindan, ilgaridan, barvaqt.
prevision [prí´vɪʒn] *n* oldindan ko'rish (payqash), kelajakni ko'rish, bashorat qilish.
pre-war [ˌpri:´wɔ:] *a* urushdan oldingi (ilgarigi), urushga qadar bo'lgan.
prey [preɪ] *n* o'lja, qo'lga kiritilgan narsa; **beast of ~** yirtqich hayvon.
price [praɪs] *n* baho, narx; **above (beyond, without) ~** qimmatbaho, bebaho, bahosi yo'q; **at fixed ~s** qat'iy bahoda.
price-cutting [´praɪs,kʌtɪŋ] *n* baholarni tushirish.
priceless [´praɪsləs] *n* bebaho, qimmatli.
prick [prɪk] **1.** *n* ukol (qilish), dori yuborish; **2.** *v* sanchmoq; teshmoq.
prickle [´prɪkl] **1.** *n* tikan, nish, nishtar; **2.** *v* sanchmoq, sanchimoq.
pride [praɪd] **1.** *n* mag'rurlik, g'urur, iftixor, kibr, faxrlanish, faxr; **2.** *v* mag'rurlanmoq; g'ururlanmoq.
priest [pri:st] *n* pop, ruhoniy, kashish.
priesthood [´pri:sthud] *n* ruhoniylar, poplar.
prig [prɪg] *n* 1) sinchkov, o'taketgan rasmiyatchi; 2) o'g'ri.
prim [prɪm] *a* jiddiy, intizomli, batartib.
primacy [´praɪməsɪ] *adv sport.* birinchilik (*birinchi o'rin uchun bo'ladigan musobaqa*).
primal [´praɪml] *a* 1) ibtidoiy, qadimgi, burungi; 2) eng muhim, asosiy, bosh.
primarily [´praɪmərəlɪ] *adv* avval, oldin, dastavval, dastlab, avvalo, boshida.
primary [´praɪmərɪ] *a* avvalgi, boshlang'ich, ibtidoiy, quyi, pastki.
primate [´praɪmət] *n cherk.* arxiyepiskop (*bir necha cherkov okrugini boshqaruvchi yepiskop*).
prime [praɪm] **1.** *n* 1) dastlabki; 2) gullab-yashnash, ravnaq topish, yuksalish, taraqqiy etish, kamol topish, yetuklik; **in the ~ of life** qirchillagan davrida, ayni yetilgan paytida; **2.** *a* bosh, asosiy, muhim.
primer I [´praɪmə] *n* alifbe (*kitobi*).
primer II [´praɪmə] *n harb.* piston, portlagich modda.
primeval [praɪ´mi:vl] *a* ibtidoiy, qadimgi, eng burungi.
primitive [´prɪmətɪv] *a* 1) sodda, oddiy; 2) ibtidoiy, qadimgi, burungi.
primordial [praɪ´mɔ:dɪəl] *a* 1) azaldan bor (bo'lgan), qadimdan mavjud, azaliy; 2) qadimgi, eng burungi.
primrose [´prɪmrəus] *n bot.* navro'zgul.
prince [prɪns] *n* shahzoda.
princely [´prɪnslɪ] *a* 1) badavlat, shohona; 2) serhasham, ajoyib.

princess [ˌprɪnˈses] *n* malika.
principal [ˈprɪnsəpl] **1.** *a* eng muhim, bosh, asosiy; ~ **clause** bosh gap; **2.** *n* maktab direktori, universitet rektori.
principally [ˈprɪnsəplɪ] *adv* asosan, xususan, ko'pincha, ko'proq, ayniqsa.
principle [ˈprɪnsəpl] *n* 1) tamoyil, negiz, manba; 2) prinsip (*asosiy qonun-qoida*); 3) nuqtayi-nazar, qarash; 4) tartib, tarz; 5) qoida, qonun; **as a matter of** ~ umuman olganda.
print [prɪnt] **1.** *n* 1) bosma nashr; 2) muhr; 3) harf, shrift; **2.** *v* bosmoq; nashr etmoq.
printer [ˈprɪntə] *n* printer.
printing [ˈprɪntɪŋ] **1.** *pres. p.* **print 2.** *dan*; **2.** *n* bosish, bosib chiqarish, nashr etish, chop etish; ~ **house** bosmaxona.
printing-office [ˈprɪntɪŋˌɔfɪs] *n* bosmaxona, matbaa.
printing-type [ˈprɪntɪŋtaɪp] *n* shrift, harf, bosma harf.
prior [ˈpraɪə] *n* burungi, oldingi, avvalgi, ilgarigi.
priority [praɪˈɔrətɪ] *n* birinchilik, ulug'lik, afzallik.
priory [ˈpraɪərɪ] *n* monastir.
prise [praɪz] *v* ko'tarmoq, ko'tarib qo'ymoq.
prison [ˈprɪzn] *n* qamoq, qamoqxona.
prisoner [ˈprɪznə] *n* mahbus, asir; **to take smb.** ~ asir olmoq.
pristine [ˈprɪsti:n] *a* 1) qadimgi, burungi, uzoq o'tmishdagi, qadimiy; 2) pok, pokiza, toza.
privacy [ˈprɪvəsɪ] *n* yolg'izlik, yolg'iz yashash, yakka turish.
private [ˈpraɪvət] *a* shaxsiy, xususiy; ~ **income** shaxsiy daromad.
privation [praɪˈveɪʃn] *n* muhtojlik, yetishmovchilik, tanqislik, zarurat, ehtiyoj.
privatize [ˈpraɪvətaɪz] *v* xususiylashtirmoq, xususiy mulkka aylantirmoq.
privilege [ˈprɪvəlɪdʒ] *n* 1) imtiyoz, yengillik; 2) ustunlik, ortiqlik, afzallik; 3) obro'-e'tibor, shon-sharaf.
privileged [ˈprɪvəlɪdʒd] *a* imtiyozli, yengillikka ega bo'lgan.
privy [ˈprɪvɪ] *a* 1) xususiy, shaxsiy; 2) yolg'iz, yakka, tanho, alohida ajralib turadigan.
prize [praɪz] **1.** *n* mukofot, sovrin, yutuq; **2.** *v* 1) yuqori baholamoq; 2) qadriga yetmoq, qadr (hurmat) qilmoq, qadrlamoq.
prize-fighter [ˈpraɪzfaɪtə] *n* professional bokschi.
prize-ring [ˈpraɪzrɪŋ] *n sport.* ring (*boks maydonchasi*).
prizewinner [ˈpraɪzˌwɪnə] *n* sovrindor, sovrin egasi, laureat.
pro [prəu] *so'zl.* (**professional** *so'zining qisqartirilgan shakli*) 1) kasbga oid; 2) kasb bilan bog'liq; 3) kasb qilib olgan.
pro- [prəu-] *pref.* quyidagi ma'nolarni beradi: o'rinbosar; **pro-rector** rektor o'rinbosari.
probability [ˌprɔbə ˈbɪlətɪ] *n* ehtimollik, yuz berishi (bo'lishi) mumkinlik; ehtimol.
probable [ˈprɔbəbl] *a* ehtimol, bo'lishi mumkin bo'lgan, taxminiy.
probably [ˈprɔbəblɪ] *adv* mumkin, ehtimol, balki, aftidan.
probation [prəˈbeɪʃn] *n* sinov, sinov muddati, sinash, sinash muddati.
probationary [prəˈbeɪʃnərɪ] *a* 1) sinovga, sinab (tekshirib) ko'rishga oid; sinov...; sinash...; ~ **sentence** shartli hukm.
probe [prəub] *n* 1) *tib.* zond (*ichki a'zolarni tekshirish yoki davolash uchun ishlatiladigan maysimon asbob, naycha*); 2) *amer.* tekshirish, tergov qilish, tergash.
probity [ˈprəubətɪ] *n* vijdonlilik, to'g'rilik, halollik, poklik.
problem [ˈprɔbləm] *n* 1) muammo, chigal, masala; **to solve a** ~ masalani hal etmoq; 2) savol, topshiriq; 3) og'ir (mushkul) ahvol.
rehearse [rɪ´hə:s] *v* tayyorgarlik ko'rmoq; mashq qilmoq.
rehouse [ˌri:´haus] *v* yangi uylarga ko'chirmoq.
reign [reɪn] **1.** *n* 1) podshohlik; 2) hokimiyat, hukmronlik; **2.** *v* hukmronlik qilmoq.
reimburse [ˌri:ɪm´bə:s] *v* pulni qaytarib bermoq.
rein [reɪn] **1.** *v* jilovlamoq; **2.** *n* jilov; **to draw ~** otning jilovini tortmoq.
reincarnation [ˌri:ɪnkɑ:´neɪʃn] *n* boshqa formada ifodalanish, boshqacha shaklga kirish.
reindeer [´reɪndɪə] *n* shimol bug'usi.
reinforce[ˌri:ɪn´fɔ:s] *v* 1) kuchaytirmoq; mustahkamlamoq; 2) *qur.* armaturalamoq (*betonni*).
reinforced concrete [ˌri:ɪnfɔ:st´kɔŋkri:t] *n* temirbeton.
reinforcement [ˌri:ɪn´fɔ:smənt] *n* 1) kuchaytirish, mustahkamlash; 2) *qur.* (*temirbetonning*) armaturasi.
reins [reɪnz] *n* 1) jilov; 2) yugan; 3) tutib (jilovlab) turuvchi kuch.
reinstate [ˌri:ɪn ´steɪt] *v* 1) (*kimsaning huquqlarini*) tiklamoq; 2) (*o'z sog'lig'ini*) tiklamoq; 3) eski holiga ko'tarmoq.
reissue [ˌri:´ɪʃu:] *n* qayta nashr qilingan kitob.
reiterate [rɪ ´ɪtəreɪt] *v* takrorlamoq, qaytarmoq; qaytadan bajarmoq.
reject [rɪ´dʒekt] *v* rad etmoq, yuz o'girmoq.
rejection [rɪ ´dʒekʃn] **1.** *n* voz kechish, rad etish; **2.** *a* tashlandi, qarovsiz.
rejoice [rɪ´dʒɔɪs] *n* 1) sevinmoq; xursand bo'lmoq; 2) bayram qilmoq.
rejoin [rɪ´dʒɔɪn] *v* 1) qaytmoq; 2) qayta qo'shilmoq, birlashmoq.
rejoinder [rɪ´dʒɔɪndə] *n* qarshi harakat, qarshi javob.
rejuvenate [rɪ´dʒu:vəneɪt] *v* yoshartirmoq, yosh qilib ko'rsatmoq.
rejuvenation [rɪˌdʒu:və´neɪʃn] *n* yoshartirish, yosh holiga qaytarish.
re-laid [´ri:leɪd] *past., p. p.* **re-lay** *dan.*
relaid [´ri:leɪd] *past., p.p.* **relay I** *dan.*
relapse [rɪ ´læps] *n tib.* kasalning qo'zishi.
relate [rɪ´leɪt] *v* 1) hikoya qilib bermoq; 2) munosabat o'rnatmoq.

related [rɪ´leɪtɪd] **1.** *p. p.* **relate** *dan*; **2.** *a* bog'liq, aloqador; taalluqli.
relation [rɪ´leɪʃn] *n* 1) qarindosh; tug'ishgan; **near ~** yaqin qarindosh; 2) munosabat, rishta, aloqa.
relations [rɪ ´leɪʃənz] *n* munosabat, aloqa.
relationship [rɪ ´leɪʃnʃɪp] *n* qarindoshlik, yaqinlik, aloqa.
relative [´relətɪv] **1.** *a* nisbiy, qiyosiy, o'zaro; **2.** *n* qarindosh; **a remote ~** uzoq qarindosh.
relax [rɪ´læks] *v* 1) bo'shashtirmoq (*muskullarni*); 2) tanaffus qilmoq, dam olmoq.
relaxed [rɪ ´læksɪd] *a* xotirjam, tinch.
relaxation [ˌri:læk´seɪʃn] *n* 1) bo'shashtirish, (*keskinlikni*) yumshatish; ko'ngil ochish: 2) tanaffus, dam.
relaxing [rɪ´læksɪŋ] *a* pasaytiradigan, kamaytiradigan; yumshoq (muloyim) qiladigan.
re-lay [ˌri: ´leɪ] *v* (**re-laid; re-laid**) 1) boshqatdan (yangidan) qurmoq; 2) uzatmoq, olib bermoq.
relay I [ri: ´leɪ] *v* (**relaid; relaid**) alishmoq, alishtirmoq.
relay II [ri: ´leɪ] *n sport.* estafetali musobaqa.
relay-race [´ri:leɪreɪs] *n* estafeta yugurish.
release [rɪ´li:s] *v* 1) ozod qilmoq; xalos qilmoq (*qamoqdan*); 2) yumshatmoq, yengillashtirmoq (*og'riqni, dardni*); 3) *tex.* ajratmoq, uzib qo'ymoq; 4) chiqarmoq (*ekranga*).
released [rɪ´li:sd] *a* 1) ozod qilingan (*qamoqdan*); 2) yengillashgan (*og'riq, dard*); 3) *tex.* ajratilgan
relegate [´relɪgeɪt] *v* 1) jo'natmoq, yo'llamoq, berib yubormoq; 2) tegishli bo'lmoq (*qandaydir sinfga*).
relent [rɪ´lent] *v* yumshamoq, muloyim (mayin) bo'lmoq.
relentless [rɪ´lentləs] *a* ayamaydigan, shafqatsiz, berahm, qahri qattiq.
relevant [´reləvənt] *a* o'rinli, ahamiyatga ega bo'lgan, muhim o'rin tutgan.
reliable[rɪ´laɪəbl] *a* mustahkam, ishonchli; **~ information** ishonchli ma'lumot; **a ~ friend** ishonchli do'st.
reliance [rɪ´laɪəns] *n* ishonch, ishonish.
relic [´relɪk] *n* 1) iz, qoldiq; 2) sarqit; 3) *pl* chirimay saqlangan murda; 4) *pl* esdalik, yodgorlik.
relief [rɪ´li:f] *n* 1) yengillashish (*og'riq, azob haqida*), taskin, tasalli; 2) ishsizlik nafaqasi; 3) yordam, ko'mak.
relieve [rɪ´li:v] *v* 1) yengillashtirmoq; yengillatmoq, yengil qilmoq, vaznini kamaytirmoq; 2) yordam bermoq, yordamga kelmoq.
relieved [rɪ ´li:vd] *a* xotirjam.
religion [rɪ´lɪdʒən] *n* 1) din; **to get ~** dinga berilmoq; 2) rohiblik; **to enter into ~** rohiblikka o'tmoq.
religious [rɪ´lɪdʒəs] *a* 1) diniy; 2) dinga berilgan. xudojo'y, taqvodor.
relinquish [rɪ´lɪŋkwɪʃ] *v* topshirmoq, bermoq, o'tkazmoq.
relish [´relɪʃ] *n* ta'mni sezish; lazzat, maza.
relive [ˌri:´lɪv] *v* qaytadan hayotga qaytmoq, tirilmoq.
relocate [ˌri:ləu ´keɪt] *v* ko'chmoq, ko'chirmoq.
reluctance [rɪ´lʌktəns] *n* xohlamaslik, istamaslik; **with ~** uncha xohlamasdan.
reluctant [rɪ´lʌktənt] *a* (*nimanidir*) istar-istamas bajaruvchi.
rely [rɪ ´laɪ] *v* suyanmoq, tayanmoq, ishonmoq.
remade [ˌri:´meɪd] *past., p. p.* **remake** *dan.*
remain [rɪ ´meɪn] *v* qolmoq; **~der** qoldiq.
remaining [rɪ ´meɪnɪŋ] **1.** *a* qolgan; **2.** *n* qolish.
remains [rɪ´meɪnz] *n pl* 1) qoldiq; 2) qolgan (ortgan) narsa.
remake [´ri:meɪk] *v* (**remade**) qaytadan qilmoq, yangidan yasamoq.
remark [rɪ´mɑ:k] **1.** *v* ko'rsatib bermoq, ko'rmoq, sezmoq; **2.** *n* fikr, mulohaza; **to pass a ~** o'z fikrini aytmoq.
remarkable [rɪ´mɑ:kəbl] *a* 1) ajoyib, ajablanarli, g'alati, ajib; juda yaxshi; 2) mashhur, atoqli, mislsiz, misli ko'rilmagan.
remarkably [rɪ ´mɑ:kəblɪ] *adv* juda yaxshi, ajoyib, benazir.
remedy [´remədɪ] *v* 1) to'g'rilamoq, tuzatmoq; 2) davolamoq; 3) dori-darmon.
remember [rɪ´membə] *v* yodda tutmoq, eslamoq, xotirlamoq.
remembrance [rɪ´membrəns] *n* esdalik, yodgorlik, xotira.
remind [rɪ´maɪnd] *v* esiga tushirmoq, eslatmoq, esga tushmoq.
reminder [rɪ´maɪndə] *n* eslatish, esga solib qo'yish; ogohlantirish; eslatma; **gentle ~** shama, ishora.
reminisce [ˌremɪ´nɪs] *v* o'tmishni xotirlamoq.
reminiscence [ˌremɪ´nɪsns] *n* esdalik, yodgorlik, xotira.
reminiscent [ˌremɪ´nɪsnt] *a* eslatadigan, esga solib qo'yadigan.
remiss [rɪ´mɪs] *a* beparvo, beg'am; ishyoqmas.
remission [rɪ ´mɪʃn] *n* kechirish, avf etish, gunohidan o'tish.
remit [rɪ´mɪt] *v* kechirmoq, avf etmoq.
remittance [rɪ´mɪtns] *n* 1) jo'natish, yuborish; 2) pulni jo'natish.
remnant [´remnənt] *n* 1) sarqit, qoldiq, qolgan ovqat; 2) eskilik sarqiti (qoldig'i); 3) parcha, bo'lak, kesik, laxtak (*gazlama haqida*).
remonstrance [rɪ´mɔnstrəns] *n* 1) e'tiroz, qarshilik; 2) nasihat (o'git) qilish.
remonstrate [rɪ´mɔnstreɪt] *v* norozilik bildirmoq, qarshilik qilmoq.
remorse [rɪ´mɔ:s] *n* vijdon azobi.
remorseful [rɪ´mɔ:sfl] *a* afsuslanish, pushaymon, afsus.
remorseless [rɪ´mɔ:sləs] *a* rahmsiz, shafqatsiz, berahm.
remorselessly [rɪ´mɔ:sləslɪ] *adv* ayamay, rahmshafqat qilmay, shafqatsizlik bilan, beshafqat.

remote [rɪ´məut] *a* 1) uzoq, olis, yiroq; **the ~ past** uzoq o'tmish; 2) unchalik katta (*yoki* ko'p) bo'lmagan, kam, oz; **~ controller** boshqarish pulti.
remotely [rɪ´məutlɪ] *adv* sira, hech, aslo, hech bir, zarracha ham.
remoteness [rɪ´məutnəs] *adv* olislik, uzoqlik, yiroqlik.
removal [rɪ´mu:vl] *n* 1) ko'chish (*transport vositasida*); 2) olib tashlash, yig'ishtirish, yo'q qilish.
remove [rɪ´mu:v] **1.** *n* 1) qadam, bosqich; uzoqlashish darajasi; **at many ~s** uzoq masofada; 2) o'quvchini keyingi sinfga o'tkazish; **his son has not got his ~** uning o'g'li ikkinchi yilga o'z sinfida qoldi **2.** *v* 1) chetlashtirmoq; 2) ayirmoq; 3) oldini olmoq; 4) bo'shatmoq (*lavozimdan*); 5) yechmoq (*kiyimni*).
removed [rɪ´mu:vd] *a* 1) uzoqlashgan, uzoqlashtirilgan; 2) uzoqdagi, olisdagi.
remuneration [rɪˌmju:nə´reɪʃn] *n* mukofot, haq.
renaissance [rə´neɪsəns] *n* 1) **(the R)** uyg'onish davri; 2) jonlanish, tiklanish; avj olish (*san'at va b.*).
rename [ˌri:´neɪm] *v* boshqa nom qo'ymoq, nomini o'zgartirmoq.
rend [rend] *v* **(rent)** ko'chirmoq, shilmoq, ko'chirib (shilib) olmoq, ko'chirib (shilib) tashlamoq.
render [´rendə] **1.** *n* 1) to'lash; 2) to'lanadigan, olinadigan pul, haq, to'lov; **2.** *v* 1) to'lamoq; 2) bermoq, ko'rsatmoq; **to ~ assistance** yordam bermoq; ifodalamoq, bayon etmoq.
rendering [´rendərɪŋ] **1.** *pres. p.* **render 2.** *dan.* **2.** *v* bermoq, to'lamoq.
rendezvous [´rɔndɪvu:] *n fr.* uchrashuv, ko'rishish, ko'rishuv.
renegade [´renɪgeɪd] *n* xoin, sotqin, xiyonatchi.
renew [rɪ´nju:] *v* yangilamoq, tiklamoq, o'rnatmoq, qayta qurmoq, boshidan boshlamoq.
renewable [rɪ´nju:əbl] *a* tiklanadigan resurslar, boylik resurslari.
renewal [rɪ´nju:əl] *n* 1) qaytadan (yangitdan) tiklash; 2) muddatini uzaytirish.
renounce [rɪ´nauns] *v* 1) voz kechmoq, bahridan o'tmoq (*o'z huquqi, talabi, odati va b.*); 2) kechmoq, yuz o'girmoq (*do'stlaridan*).
renovate [´renəuveɪt] *v* yangilamoq, tuzatib yangiday qilmoq, pardoz berib yangilamoq, ta'mirlamoq.
renovation [ˌrenəu´veɪʃn] *n* tuzatish, yamash, ta'mirlash.
renown [rɪ´naun] *n* shuhrat, dong, nom, mashhurlik.
renowned [rɪ´naund] *a* mashhur, atoqli, nomi chiqqan, dongdorlik.
rent [rent] **1.** *n* ijara puli; **2.** *v* 1) ijaraga olmoq; 2) ijaraga bermoq.
rental [´rentl] *n* ijara haqi.
renunciation [rɪˌnʌnsɪ´eɪʃn] *n* rad etish, voz kechish.
reorganization [ri:ˌɔ:gənaɪ´zeɪʃn] *n* 1) qaytadan tuzish, qayta qurish, qayta(dan) tashkil etish; 2) o'zgartirish, qayta o'zgartirish, o'zgartirib yuborish.
reorganize [ri:´ɔ:gənaɪz] *v* qayta tashkil qilmoq.
rep I [rep] *n* pishiq gazlama.
rep II [rep] *n* buzuq (axloqsiz) kishi, xotinboz.
re-paid [´ri:peɪd] *past., p.p.* **re-pay** *dan.*
repaid [rɪ ´peɪd] *past., p.p.* **repay** *dan.*
repair [rɪ´peə] *v* tuzatmoq, sozlamoq; ta'mirlamoq; **to ~ a house** uyni ta'mirlamoq.
reparation [ˌrepə ´reɪʃn] *n* tovon, badal.
repartee [ˌrepɑ:´ti:] *n* gapga ustalik, piching, o'tkir gap.
repast [rɪ ´pɑ:st] *n* ovqat, ovqatlanish.
repatriate [ˌri:´pætrɪeɪt] **1.** *n* vatanga qaytgan (qaytayotgan) kishi; **2.** *v* o'z vataniga qaytarmoq.
repatriation [ˌri:pæ:trɪ ´eɪʃn] *n* vatanga qaytish.
re-pay [´ri:peɪ] *v* **(re-paid)** takroran to'lamoq.
repay [rɪ´peɪ] *v* **(repaid)** qarzni to'lamoq **(to)**.
repayable [rɪ´peɪəbl] *a* qaytarib to'lanadigan.
repayment [rɪ´peɪmənt] *n* to'lanadigan, olinadigan pul, haq, to'lov.
repeal [rɪ´pi:l] *v* bekor qilmoq, kuchdan qoldirmoq (*qonun va b.*).
repeat [rɪ ´pi:t] *v* takrorlamoq, qaytarmoq.
repeated [rɪ´pi:tɪd] *a* tez-tez bo'ladigan, takroriy, takror.
repeatedly [rɪ´pi:tɪdlɪ] *adv* bir necha marta, qayta, takror-takror, takrorlab.
repeater [rɪ´pi:tə] *n* 1) takrorlaydigan kishi; 2) takror jinoyat qiluvchi kishi.
repel [rɪ´pel] *v* 1) itarib yubormoq, turtib yubormoq, surib qo'ymoq; 2) rad qilmoq, qaytarmoq.
repellent [rɪ´peləntˌ] *a* 1) nafrat uyg'otadigan; 2) kishini achchiqlantiradigan, g'azablantiradigan.
repent [´ri:pənt] *v* achinmoq; pushaymon bo'lmoq; o'kinmoq; **~ance** achinish, o'kinish; **~ant** achinarli, o'kinchli.
repercussion [ˌri:pə: ´kʌʃn] *n* 1) aks sado, uzoqdan eshitilgan (yetib kelgan) ovoz.
repertoire [´repətwɑ:] *n fr.* repertuar (*biror badiiy kollektiv yoki alohida aktyor tomonidan ijro etiladigan pyesalar, musiqa asarlari va boshqa asarlar majmuyi*).
repertory [´repətərɪ] *n* narsalar saqlanadigan (asraladigan) joy.
repetition [ˌrepə ´tɪʃn] *n* takrorlash, qaytarish.
repetitious [ˌrepə ´tɪʃəs] = **repetitive.**
repetitive [rɪ´petətɪv] *a* 1) tinimsiz takrorlanib turadigan; 2) zerikarli, kishini zeriktiradigan.
replace [rɪ´pleɪs] *v* 1) o'z joyiga qo'ymoq; 2) qaytarmoq; 3) o'rnini bosmoq; **to ~ money borrowed** olgan pulni qaytarib bermoq.

replaceable [rɪ´pleɪsəbl] *a* almashtirib (alishtirib) bo'ladigan, almashinuvchi.
replacement [rɪ´pleɪsmənt] *n* 1) o'rnini olish (bosish); 2) vaqtincha o'rniga ishlash.
replay [ˌri:´pleɪ] *v* qaytadan (boshqatdan) o'ynamoq, yangidan o'ynamoq (*chalmoq*).
replenish [rɪ´plenɪʃ] *v* qaytadan (boshqatdan) to'ldirmoq.
replete [rɪ´pli:t] *a* to'ydirilgan, to'ydirib yuborilgan.
repletion [rɪ´pli:ʃn] *n* to'yib ketish, juda to'ydirish.
replica [´replɪkə] *n* ko'chirma, nusxa, qolip, andaza.
reply [rɪ´plaɪ] *v* javob bermoq, javob qaytarmoq, javob qilmoq.
report [rɪ´pɔ:t] **1.** *v* xabar bermoq, hisobot bermoq; **2.** *n* 1) xabar, hisobot; **~er** muxbir; 2) ma'ruza.
reporting [rɪ ´pɔ:tɪŋ] *n* reportaj.
repose [rɪ´pəuz] *n* 1) dam olish, istirohat qilish, orom olish, hordiq chiqarish; 2) nafasni rostlash.
repository [rɪ´pɔzɪtərɪ] *n* narsalar saqlanadigan (asraladigan) joy.
reprehend [ˌreprɪ´hend] *v* tanbeh bermoq, tergab koyimoq.
represent [ˌreprɪ´zent] *v* vakil bo'lmoq, vakil bo'lib qatnashmoq; **~ country** mamlakat vakili bo'lmoq.
representation [ˌreprɪzen´teɪʃn] *n* vakillik, vakolatxona.
representative [ˌreprɪ´zentətɪv] *n* vakil, delegat, vakil qilib jo'natilgan kishi; **accredited ~** muxtor vakil.
repress [rɪ´pres] *v* 1) kuch bilan bosmoq (*qo'zg'olon va b.*); 2) jazolamoq.
repressed [rɪ ´prest] *a* kuch bilan bosilgan, ezilgan.
repression [rɪ ´preʃn] *n* jazo, jazo chorasi.
repressive [rɪ´presɪv] *a* jazo tariqasida (jazolash uchun) qo'llaniladigan.
reprieve [rɪ ´pri:v] *n* (*o'lim jazosi*) hukm ijrosini qoldirish.
reprimand [´reprɪmɑ:nd] *v* tanbeh bermoq, hayfsan e'lon qilmoq, urishmoq.
reprint [´ri:prɪnt] *v* qayta nashr qilmoq.
reprisal [rɪ´praɪzl] *n* jazo, jazo tadbirlari.
reproach [rɪ´prəutʃ] *n* ta'na, malomat, gina qilish, yuziga solish.
reproachful [rɪ´prəutʃfəl] *a* ta'nali, ginali, ta'nani ifodalaydigan.
reproachfully [rɪ´prəutʃfəlɪ] *adv* ta'na bilan, gina qilib, o'pkalab.
reprobate [´reprəubeɪt] *n* 1) buzuq odam, suyuqoyoq; 2) razil (qabih, past) odam, yaramas, ablah, nobakor.
reproduce [ˌri:prə´dju:s] *v* 1) qayta (takror) ishlab chiqarmoq; 2) aks ettirmoq, tasvirlamoq; 3) nusxa olmoq; 4) tiklamoq, asliga keltirmoq; 5) ishlab chiqarmoq.
reproduction [ˌri:prə´dʌkʃn] *n* 1) qayta ishlab chiqarish; 2) ko'paytirish, ko'payish, nusxa olib ko'paytirish.
reproductive [ˌri:prə´dʌktɪv] *a* qayta ishlab chiqaruvchi (chiqaradigan).
reproof [rɪ´pru:f] *n* 1) ogohlantirish, tanbeh; 2) ta'na, malomat.
reprove [rɪ´pru:v] *v* tanbeh bermoq, tergab koyimoq.
reptile [´reptaɪl] *n* sudralib *yoki* o'rmalab yuradigan hayvon.
republic [rɪ´pʌblɪk] *n* respublika; jumhuriyat; **to proclaim a ~** respublika deb e'lon qilmoq.
republican [rɪ´pʌblɪkən] *a* respublikaga oid, jumhuriyatga oid, respublika, jumhuriyat.
repudiate [rɪ´pju:dɪeɪt] *v* 1) rad qilmoq, inkor qilmoq, tonmoq; 2) voz kechmoq, bahridan o'tmoq.
repugnance [rɪ´pʌgnəns] *n* yoqtirmaslik, xush ko'rmaslik; nafrat, jirkanish.
repugnant [rɪ´pʌgnənt] *a* bir-biriga to'g'ri kelmaydigan, yomon, chidab bo'lmaydigan.
repulse [rɪ´pʌls] *n* qarshi zarba, qarshilik; qarshi zarba berish, qaytarish, daf qilish.
repulsion [rɪ´pʌlʃn] *n* yoqtirmaslik, xush ko'rmaslik.
repulsive [rɪ´pʌlsɪv] *a* jirkanch, qabih, razil, manfur, juda yomon, yoqimsiz, sovuq.
reputable [´repjutəbl] *a* hurmatli, izzatli, muhtaram.
reputation [ˌrepju´teɪʃn] *n* obro', shuhrat, e'tibor, dong, yaxshi nom; **to blacken smb.s ~** birovning obro'sini to'kmoq.
repute [rɪ´pju:t] *n* 1) umumiy fikr (g'oya); 2) obro', e'tibor, shuhrat, dong, nom.
reputed [rɪ´pju:tɪd] *a* 1) yaxshi obro'ga ega bo'lgan; 2) mashhur, nom chiqargan.
reputedly [´repjutədlɪ] *adv* umumiy mulohazalarga ko'ra.
request [rɪ´kwest] **1.** *n* iltimos, talab; **2.** *v* iltimos (*talab*) qilmoq; **to grant smb's ~** birovning iltimosini qondirmoq.
require [rɪ´kwaɪə] *v* 1) talab qilmoq; buyurmoq; 2) muhtoj bo'lmoq (*nimagadir*).
requirement [rɪ´kwaɪəmənt] *n* talab, zaruriy sharoit, zarurat, talabnoma.
requisite [´rekwɪzɪt] *a* kerakli, zarur; **the number of votes ~ for election** saylash zarur bo'lgan ovozlar miqdori.
requisition [ˌrekwɪ´zɪʃn] *n* 1) rasmiy talab; 2) ehtiyoj, talab; 3) talabnoma.
rescind [rɪ´sɪnd] *v* bekor qilmoq, yo'q qilmoq, kuchdan qoldirmoq.
rescue [´reskju:] **1.** *n* qutqarish; ozod qilish; **to come to ~** yordamga kelmoq; **2.** *v* qutqarmoq.
rescuer [´reskju:ə] *n* qutqaruvchi, xalos qiluvchi, xaloskor, najotkor.

research [rɪ´sɔ:tʃ] **1.** *n* tadqiqot, o'rganish, ilmiy tekshirish; **2.** *v* ilmiy ish olib bormoq; **to be engaged in** ~ ilmiy ish bilan band bo'lmoq.
researcher [rɪ´sɔ:tʃə] *n* tekshiruvchi, tadqiqotchi.
reseat [ri:´si:t] *v* 1) yana (qayta) o'tirg'izmoq; 2) yangi kreslolarni qo'ymoq (*teatr va b.*).
resemblance [rɪ´zemblәns] *n* o'xshashlik, bir xillik, bir xil bo'lish; **to bear** ~ o'xshamoq; **to have a strong** ~ **to smb.** kimgadir juda o'xshamoq.
resemble [rɪ´zembl] *v* o'xshamoq.
resent [rɪ´zent] *v* qattiq g'azablanmoq, achchiqlanmoq; g'azabi kelmoq.
resentful [rɪ´zentfl] *a* xafa bo'lgan, ranjigan, ko'ngli og'rigan, dilsiyoh, xafa.
resentment [rɪ´zentmәnt] *n* g'azab, nafrat, qahr.
reservation [ˌrezә´veɪʃn] *n* saqlash, olib qo'yish, atab qoldirish, zaxira qilib qo'yish; oldindan joy band qilib qo'yish (*mehmonxonada*).
reserve [rɪ´zə:v] **1.** *v* g'amlab qo'yilgan narsa, zaxira, ehtiyot; **2.** *v* 1) g'amlamoq, g'amlab qo'ymoq; 2) mehmonxonadan joy band qilib qo'ymoq.
reserved [rɪ´zə:vd] *a* 1) kamgap, pismiq; 2) oldindan buyurtirilgan; ~ **seat** a) oldindan buyurtirilgan joy; b) teatrga oldindan olingan bilet.
reservoir [´rezәvwɑ:] *n* suv ombori, hovuz.
reshaped [ˌri:´ʃeɪpt] *a* o'zgargan, o'zgartirilgan, boshqa shaklga o'tkazilgan.
reshuffle [ˌri:´ʃʌfl] *n* o'rnini almashtirib qo'yish, boshqa joyga ko'chirib qo'yish, joylarini almashtirib o'rnatish.
reside [rɪ´zaɪd] *v* istiqomat qilmoq, yashamoq, umr kechirmoq.
residence [´rezɪdәns] *n* istiqomat qiladigan, yashaydigan joy; turar joy, qarorgoh.
resident [´rezɪdәnt] *n* doimiy yashovchi (turuvchi) kishi.
residential [ˌrezɪ´denʃl] *a* 1) yashash uchun mo'ljallangan; 2) yashash joyi bilan bog'liq bo'lgan.
residue [´rezɪdju:] *n* qoldiq, qolgani, ortgani; qolgan narsa.
resign [rɪ´zaɪn] *v* iste'foga chiqmoq, ishdan bo'shamoq.
resignation [ˌrezɪg´neɪʃn] *n* iste'foga chiqish.
resigned [rɪ´zaɪnd] *a* gapga kiradigan, rozi bo'ladigan, ko'ngilchan, yumshoq.
resilience [rɪ ´zɪlɪәns] *n* egiluvchanlik, taranglik, elastiklik.
resilient [rɪ´zɪlɪәnt] *a* 1) egiluvchan, qayishqoq, tarang; 2) xushchaqchaq, quvnoq.
resin [´rezɪn] **1.** *n* smola, yelim (*ba'zi o'simliklarning oqib chiqib qotib qoladigan shirasi*).
resist [rɪ ´zɪst] *v* qarshilik ko'rsatmoq.
resistance [rɪ´zɪstәns] *n* qarshilik, qarshi chiqish, qarshilik ko'rsatish; **to overcome the** ~ **(of)** qarshilikni yengmoq; **to offer** ~ qarshilik qilmoq.
resistant [rɪ´zɪstәnt] *a* chidamli, pishiq, puxta; mahkam, mustahkam.
resolute [´rezәlu:t] *a* barqaror, matonatli, mustahkam, salobatli, qat'iy, dadil.
resolutely [´rezәlu:tlɪ] *adv* qat'iyat bilan, jasurlik bilan, jasurona.
resolution [ˌrezә´lu:ʃn] *n* qaror; **to adopt** ~ qaror chiqarmoq; **joint** ~ qo'shma qaror; **draft** ~ qaror loyihasi.
resolve [rɪ´zɔlv] *n* niyat, maqsad, o'y; qasd, ahd.
resonant [´reznәnt] *a* jarangdor, jarangli, yaxshi eshitiladigan.
resort [rɪ´zɔ:t] *v* 1) himoya, yordam, madad; 2) taskin, tasalli; 3) kurort; 4) murojaat qilish; tayanish.
resound [rɪ´zaund] *v* ovoz (tovush) chiqarmoq, sadolanmoq.
resounding [rɪ´zaudɪŋ] *n* tovushning qaytishi, tovushni qaytarish.
resource [rɪ´sɔ:s] *n* 1) boylik, mablag'; **natural** ~**s** tabiiy boyliklar; 2) manba, vosita.
resourceful [rɪ ´sɔ:sfl] *a* tadbirli, tadbirkor, topqir.
respect [rɪ´spekt] **1.** *n* 1) hurmat, e'tibor; 2) munosabat; **2.** *v* hurmat qilmoq.
respectable [rɪ´spektәbl] *a* hurmatli, izzatli, muhtaram, hurmatga sazovor bo'lgan, hurmatga loyiq; ulug', tartibli.
respectful [rɪ´spektfl] *a* odobli, hurmat (izzat) qiladigan; hurmat bilan; ehtirom bilan.
respecting [rɪ´spektɪŋ] *prep.* to'g'risida, haqida, xususida.
respective [rɪ´spektɪv] *a* mos, muvofiq, tegishli, kerakli, loyiq.
respectively [rɪ´spektɪvlɪ] *adv* 1) mos ravishda, tegishlicha, tegishli ravishda; yarasha; 2) ko'rsatilgan ravishda.
respiration [ˌrespә´reɪʃn] *n* nafas olish, nafas.
respirator [´respәreɪtә] *n* respirator (*nafas olish, ko'rish va eshitish a'zolarini zaharli gaz va changdan saqlaydigan asbob*).
respite [´respaɪt] *n* 1) dam olish, nafasni rostlash; 2) keyinga qoldirish, kechiktirish, keyinga surish.
resplendent [rɪ´splendәnt] *a* yaltiroq, porloq, yorqin, yarqiramoq.
respond [rɪ ´spɔnd] *v* javob bermoq; **to** ~ **with a blow** qarshi zarba bermoq.
response [rɪ´spɔns] *n* 1) javob, **in** ~ **to** ga javoban; 2) sado.
responsibility [rɪˌspɔnsә´bɪlәtɪ] *n* javobgarlik, burch, mas'uliyat; **to take the** ~ javobgarlikni o'z zimmasiga olmoq.
responsible [rɪ´spɔnsәbl] *a* javobgar, mas'ul; **to be** ~ **for smth.** nimagadir mas'ul bo'lmoq.
responsibly [rɪ ´spɔnsәblɪ] *adv* mas'uliyatni (javobgarlikni) o'z bo'yniga olib.
responsive [rɪ´spɔnsɪv] *a* javob tariqasidagi (ma'nosidagi), javoban qilingan.
rest I [rest] **1.** *n* dam, dam olish; **2.** *v* dam olmoq.
rest II [rest] *n* 1) qoldiq; 2) qolganlar, boshqalar;**keep the** ~ **for yourself** qolganini o'zingizga oling.

restaurant [ˈrestərɔŋ] *n* restoran.
restful [ˈrestfl] *a* tinchlantiradigan, yupatadigan, ovutadigan, orom beradigan.
restitution [ˌrestɪˈtju:ʃn] *n* 1) qaytarish, qaytarib berish; 2) tiklash.
restive [ˈrestɪv] *a* 1) o'jar, qaysar, tutgan joyini kesadigan; 2) asov (ters) ot.
restless [ˈrestləs] *a* 1) notinch; beorom, tinib-tinchimaydigan; 2) tinch (tek) tura olmaydigan; 3) tashvishli.
restoration [ˌrestəˈreɪʃn] *n* qayta qurish tiklash, tuzatish, ta'minlash.
restorative [rɪˈstɔrətɪv] **1.** *a* quvvatni oshiradigan, tetiklantiradigan; **2.** *n* quvvat (darmon) beradigan vosita.
restore [rɪˈstɔ:] *v* qayta qurmoq; tiklamoq, tuzatmoq, ta'minlamoq; **to ~ one's health** sog'liqni tiklamoq.
restrain [rɪˈstreɪn] *v* cheklamoq, chek qo'ymoq, chegaralamoq.
restrained [rɪˈstreɪnd] **1.** *p.p.* **restrain** *dan*; **2.** *a* o'zini tuta biladigan, vazmin, og'ir, bosiq.
restraint [rɪˈstreɪnt] *n* o'zini dadil tutish, o'zini tuta bilish, o'zini yo'qotmaslik, dadillik.
restrict [rɪˈstrɪkt] *v* cheklamoq; **~ive** cheklaydigan, cheklovchi, chek qo'yadigan.
restricted [rɪˈstrɪktɪd] **1.** *p. p.* **restrict** *dan*; **2.** *a* cheklangan, chek qo'yilgan, chegaralangan.
restriction [rɪˈstrɪkʃn] *n* cheklash, chek qo'yish; **without ~** cheksiz.
restrictive [rɪˈstrɪktɪv] *a* cheklaydigan, chek qo'yadigan, cheklovchi, chegaralovchi.
result [rɪˈzʌlt] **1.** *n* natija, oqibat, samara; **without ~** natijasiz; **as a ~ of** natijada; **2.** *v* 1) kelib chiqmoq (***for***); 2) biror natija bilan tugamoq.
resume [rɪˈzju:m] *v* yangidan boshlamoq, qaytadan boshlamoq; yana davom ettirmoq; **well, to ~** demak, davom etamiz.
resumé [ˈrezjumeɪ] *n fr.* 1) qisqacha anketa ma'lumotlari; 2) ma'lumot; qisqacha xulosa; konspekt.
resumption [rɪˈzʌmpʃn] *n* yangidan, qaytadan boshlash, davom ettirish.
resurgent [rɪˈsə:dʒənt] *a* 1) (avvalgi) holiga qaytayotgan; 2) tiklanayotgan.
resurrect [ˌrezəˈrekt] *v so'zl.* 1) tirilmoq, hayotga qaytmoq; 2) tiriltirmoq.
resurrection [ˌrezəˈrekʃn] *n* qaytadan vujudga kelish, tug'ilish, jonlanish, tirilish.
resuscitate [rɪˈsʌsɪteɪt] *v* tirilmoq, hayotga qaytarmoq.
retail [ˈri:teɪl] *n* 1) chakana savdo; **at ~** donalab; 2) *attr.* chakana savdoga oid; **~ price** chakana narx.
retailer [ˈri:teɪlə] *n* 1) do'kondor, attor; 2) g'iybatchi odam, gap tashuvchi.
retain [rɪˈteɪn] *v* 1) ushlab (saqlab) qolmoq, tutib qolmoq; 2) saqlamoq, asramoq; 3) esda tutmoq, yodda saqlamoq, eslamoq.
retaliate [rɪˈtælɪeɪt] *v* o'ch olmoq, qasos olmoq, alamini olmoq.
retaliation [rɪˌtælɪˈeɪʃn] *n* 1) ajr, evaz, mukofot; 2) o'ch, qasos.
retard [rɪˈtɑ:d] *v* to'xtatmoq, to'xtatib (tutib, ushlab) qolmoq.
retarded [rɪˈtɑ:dɪd] *a* sekinlashgan, sekinlagan, sekinlatgan.
retch [retʃ] **1.** *n* qusish, qayt qilish; qusuq; **2.** *v* kekirmoq.
retention [rɪˈtenʃn] *n* 1) tutib qolish; 2) saqlab qolish, saqlash.
retentive [rɪˈtentɪv] *a* 1) saqlab qola oladigan, saqlaydigan; 2) yaxshi (*xotira haqida*).
rethink [ˌri:ˈθɪŋk] *v* qaytadan ko'rib chiqmoq; yana bir qarab chiqmoq.
reticence [ˈretɪsəns] *n* 1) o'zini tuta bilish, vazminlik, osoyishtalik; 2) sirini (ichidagini) hech kimga aytmaslik; yashirinlik, maxfiylik.
reticent [ˈretɪsənt] *a* 1) o'zini tuta biladigan, vazmin, og'ir, bosiq; 2) yashirin, maxfiy.
retinue [ˈretɪnju:] *n* tantanali yurish, namoyish.
retire [rɪˈtaɪə] *v* iste'foga chiqmoq; **~d** iste'foga chiqqan.
retirement [rɪˈtaɪəmənt] *n* iste'foga chiqish.
retiring I [rɪˈtaɪərɪŋ] *v* uzoqlashmoq, yiroqlashmoq, uzoqqa ketmoq.
retiring II [rɪˈtaɪərɪŋ] *a* kamtar, oddiy, sipo; uyatchan.
retort I [rɪˈtɔ:t] *n* retorta (*laboratoriyalarda ishlatiladigan bo'g'zi uzun va bir tomonga qaytarilgan idish*).
retouch [ˈri:ˈtʌtʃ] *n* retush, retushlash (*retush – bo'yoq, qalam kabilar bilan negativ yoki suratning kam-ko'stini to'g'rilash, tuzatish*).
retrace [rɪˈtreɪs] *v* iziga (ketiga) tushmoq, orqasidan poylab bormoq, ta'qib qilmoq.
retract [rɪˈtrækt] *v* tortib (sudrab) kiritmoq (yoki chiqarmoq).
retreat [rɪˈtri:t] **1.** *n* chekinish; **2.** *v* chekinmoq, orqaga qaytmoq.
retrench [rɪˈtrentʃ] *v* qisqartirmoq, kamaytirmoq, ozaytirmoq.
retrenchment [rɪˈtrentʃmənt] *n* tejash, kamaytirish (*chiqim va b.*).
retribution [ˌretrɪˈbju:ʃn] *n* qasos, o'ch, jazo.
retrieve [rɪˈtri:v] *v* 1) qayta topib olmoq; 2) o'ziga qaytarib olmoq; 3) oldingi holatiga qaytarmoq.
retrospection [ˌretrəuˈspekʃn] *n* o'tmishga murojaat, o'tmishga nazar tashlash.
retrospective [ˌretrəuˈspektɪv] *a* o'tmishga qaratilgan, o'tmishga nazar solib qilingan.
retrospectively [ˌretrəuˈspektɪvlɪ] *adv* o'tmishga nazar solib, o'tmishni hisobga olgan holda.
return [rɪˈtə:n] **1.** *n* qaytarish, qaytarib berish, qaytib kelish; **in ~** javoban; **2.** *v* qaytib kelmoq, qaytarib bermoq; **3.** *pl* saylov natijalari.
returnable [rɪˈtə:nəbl] *a* qaytarib beradigan.

returns [rɪ ˈtə:nz] *n* 1) xabar, axborot, ma'lumot; 2) saylov natijalari.
reunion [ˌri:ˈju:nɪən] *n* qaytadan birlashtirish, qaytadan qo'shilish (birlashish).
reunite [ˌri:juˈnaɪt] *v* qaytadan qo'shmoq, qaytadan birlashtirmoq.
rev [rev] *so'zl.* **1.** *n* aylanish (*dvigatel, motor haqida*); **2.** *v* aylanmoq.
revanche [rɪˈvæntʃ] *n fr.* qasos olish.
revanchist [rɪˈvæntʃɪst] *n* qasoschi, qasos oluvchi kishi.
reveal [rɪˈvi:l] *v* ko'rsatmoq, ochmoq, fosh etmoq, oshkor qilmoq, ochib tashlamoq; **to ~ plot** fitnani fosh etmoq.
revealing [rɪˈvi:lɪŋ] *a* fosh qiladigan, aybini (kamchiliklarini) ochadigan.
reveille [rɪˈvælɪ] *n harb.* uyg'otish, uyg'otish signali, ertalabki jismoniy mashqlar.
revel [ˈrevl] **1.** *n* quvnoqlik, xushchaqchaqlik, xursandlik; 2) *pl* kichik ziyofat.
revelation [ˌrevəˈleɪʃn] *n* ochish, fosh etish.
revenge [rɪˈvendʒ] **1.** *n* qasos, o'ch, intiqom, qasd; **2.** *v* qasos olmoq, o'ch olmoq; **to ~ oneself (up) on smb.** birovdan o'ch olmoq.
revenger [rɪˈvendʒə] *n* qasos (o'ch) oluvchi; qasoskor.
revenue [ˈrevənju:] *n* yillik daromad.
reverberate [rɪˈvə:bəreɪt] *v* aks etmoq, qaytmoq.
reverberation [rɪˌvə:bəˈreɪʃn] *n* 1) aks, tasvir; 2) aksini (soyasini, tasvirini) ko'rsatmoq.
revere [rɪˈvɪə] *v* izzat-hurmat qilmoq, qadrlamoq, ehtirom qilmoq, ixlos qo'ymoq.
reverence [ˈrevrəns] *n* hurmat, izzat, ehtirom, izzat-ikrom.
reverend [ˈrevrənd] *a* hurmatli, izzatli, muhtaram.
reverent [ˈrevrənt] *a* hurmat (izzat) qiladigan; odobli.
reverie [ˈrevərɪ] *n* xayolchan, orzu-xayollarga berilish, xayol surish.
reversal [rɪˈvə:sl] *n* 1) (*siyosiy*) vaziyatning o'zgarishi; 2) bekor qilish; **the ~ of judgement** sud qarorini (hukmini) bekor qilish.
reverse [rɪˈvə:s] *v* 1) teskari (orqa) tomoni (*tanga pul va b.*); 2) teskarilik, egrilik; 3) muvaffaqiyatsizlik; **to meet with a ~** muvaffaqiyatsizlikka uchramoq.
reversible [rɪˈvə:səbl] *a* asl holiga qayta oladigan; qaytariladigan.
reversion [rɪˈvə:ʃn] *n* 1) qaytish (*oldingi holatga*); 2) *biol.* atavizm (*ajdodlarda bo'lgan belgilarning bir necha bo'g'indan keyingi avlodda takrorlanishi*).
revert [rɪˈvə:t] *v* oldingi holatga qaytmoq.
revet [rɪˈvet] *v* ustini, sirtini qoplamoq.
review [rɪˈvju:] **1.** *n* 1) ko'zdan kechirish, qayta ko'rib chiqish; 2) taqriz, obzor; **to pass in ~** ko'zdan kechirmoq; **2.** *v* ko'zdan kechirmoq, qayta ko'rib chiqmoq.
reviewer [rɪˈvju:ə] *n* sharhlovchi; kuzatib boruvchi.
revise [rɪˈvaɪz] *v* 1) qayta ko'rib chiqmoq, tekshirmoq; 2) tuzatmoq, to'g'rilamoq.
revised [rɪˈvaɪzd] *a* tahrir qilingan, tuzatilgan, to'g'rilangan.
revision [rɪˈvɪʒn] **1.** *p. p.* **revise** *dan*; **2.** *n* qaytadan ko'rish, qaytadan qarab chiqish, takrorlash.
revisionist [rɪ ˈvɪʒnɪst] *n* revizionist (*revizionizm tarafdori*).
revival [rɪˈvaɪvl] *n* uyg'onish, jonlanish, qayta tiklanish, yuksalish.
revive [rɪˈvaɪv] *v* 1) tiklanmoq, jonlanmoq, ruhlanmoq; 2) qaytadan (yangidan, boshidan) boshlamoq; **to ~ a play** tomoshani boshidan boshlamoq.
revoke [rɪˈvəuk] *v* bekor qilmoq (*qonun, buyruq va b.*).
revolt [rɪˈvəult] **1.** *n* qo'zg'olon, isyon; **2.** *v* isyon ko'tarmoq, bosh ko'tarmoq, qo'zg'olon qilmoq.
revolting [rɪˈvəultɪŋ] **1.** *pres. p.* **revolt 2.** *dan*; **2.** *a* jirkantiradigan, juda xunuk, yoqimsiz.
revolution [ˌrevəˈlu:ʃn] *n* 1) inqilob; 2) ijtimoiy-siyosiy tuzumdagi keskin o'zgarish; to'ntarish, to'ntarilish.
revolutionary [ˌrevəˈlu:ʃənrɪ] *a* inqilobiy.
revolutionize [ˌrevəˈlu:ʃənaɪz] *v* revolutsion g'oyalarni tarqatmoq (yoymoq), inqilobiylashtirmoq.
revolve [rɪˈvɔlv] *v* aylanmoq, aylantirmoq, buramoq, buralmoq.
revolver [rɪˈvɔlvə] *n* 1) to'pponcha; 2) *tex.* baraban (*mashina va mexanizmlarning silindr shaklidagi qismi*).
revolving [rɪˈvɔlvɪŋ] **1.** *pres. p.* **revolve** *dan*; **2.** *a* aylanadigan, buriladigan, aylanma.
revue [rɪˈvju:] *v* 1) revyu (*teatrda bir mavzudagi ayrim nomer, epizod va ko'rinishlardan iborat tomosha*); 2) kundalik umumiy mavzudagi bir necha xil nomerdan tuzilgan estrada-teatr tomoshasi.
revulsion [rɪˈvʌlʃn] *n* 1) kutilmaganda yuz bergan o'zgarish; 2) nafrat, jirkanish; 3) *tib.* (*qonning*) kamayishi.
revulsive [rɪˈvʌlsɪv] *a tib.* diqqatni chetga tortadigan, chalg'itadigan.
reward [rɪˈwɔ:d] **1.** *n* mukofot; **2.** *v* mukofotlamoq, taqdirlamoq.
rewind [ˌri:ˈwaɪnd] *v* qaytadan (yangidan) o'ramoq; boshqacha qilib o'ramoq.
rewrite [ˌri:ˈraɪt] *v* qaytadan yozib chiqmoq, ko'chirmoq.
rewritten [ˌri:ˈrɪtn] *p. p.* **rewrite** *dan.*
rewrote [ˌri:ˈrəut] *past.* **rewrite** *dan.*
rhapsodic(al) [ræpˈsɔdɪk(əl)] *a* 1) g'oyat zavqli, quvonchli; 2) shod-xurram.
rhapsody [ˈræpsədɪ] *n mus.* rapsodiya (*xalq qo'shiqlari, dostonlari mavzusidagi musiqa asari*).
rheostat [ˈri:əstæt] *n el.* reostat (*tok kuchini va uning kuchlanishini rostlab, tartibga solib turadigan apparat*).

rhesus [ˈri:səs] *n zool.* rezus (*makakalar urug'iga mansub maymun*).
rhetor [ˈri:tə] *n* nutqi yaxshi shaxs, notiq, gapdon.
rhetoric [ˈretərɪk] *n* notiqlik san'ati.
rhetorical [rɪ ˈtɔrɪkl] *a* 1) dabdabali, ritorik; 2) notiqlik qoidalariga asoslangan.
rhetorician [ˌretə ˈrɪʃn] *n* mahmadona, gapdon.
rheum [ru:m] *n* tumov.
rheumatic [ruˈmætɪk] **1.** *a* revmatizmga (*bod kasalligiga*) oid; **2.** *n* bod kasaliga yo'liqqan odam.
rheumaticky [ruˈmætɪkɪ] *a so'zl.* bod kasalligiga oid.
rheumatism [ˈru:mətɪzm] *n tib.* revmatizm, bod (*kasallik*).
rheumatiz [ˈru:mətɪz] = **rheumatism.**
rhinestone [ˈraɪnstəun] *n* 1) tog' xrustali; 2) soxta brilliant.
Rhine wine [ˌraɪnˈwaɪn] *n* reynveyn (*uzum vinosining bir navi*).
rhino I [ˈraɪnəu] **rhinoceros** *so'zining qisqartirilgan shakli.*
rhino II [ˈraɪnəu] *n sl.* pul, aqcha.
rhinoceros [raɪˈnɔsərəs] *n zool.* 1) shoxli qo'ng'iz; 2) karkidon (*toq tuyoqli sutemizuvchilarga mansub, bitta yoki ikkita shoxi bor, terisi qalin, bahaybat katta hayvon*).
rhododendron [ˌrəudəˈdendrən] *n bot.* alp atirguli.
rhomb [rɔm] *n mat.* romb (*hamma tomonlari teng parallelogramm*).
rhombi [ˈrɔmbaɪ] *pl* **rhombus** *dan.*
rhombic [ˈrɔmbɪk] *a* rombga oid, rombsimon, romb shaklidagi.
rhomboid [ˈrɔmbɔɪd] *n matem.* parallelogramm (*qarama-qarshi tomonlari o'zaro teng va parallel bo'lgan to'rtburchak*).
rhombus [ˈrɔmbəs] *n* romb.
rhubarb [ˈru:bɑ:b] *n bot.* rovoch, rivoch (*yirik bargli, ildizi yo'g'on o'tsimon ko'p yillik o'simlik*).
rhumb [rʌm] *n deng.* rumb (*ufqning 32 dan bir qismiga, ya'ni 11,25 ga teng kompas darajasi*).
rhyme [raɪm] *n* qofiya, qofiyali she'r, **double ~** urg'u she'riy satrning oxiridan ikkinchi bo'g'iniga tushadigan qofiya; **single ~** urg'u she'riy satrning oxirgi bo'g'iniga tushadigan qofiya.
rhymed [raɪmd] *a* qofiyali, qofiyadosh, qofiyaga solingan.
rhymer [ˈraɪmə] = **rhymester.**
rhymester [ˈraɪmstə] *n* qofiyaboz (*no'noq shoir haqida*).
rhythm [ˈrɪðəm] *n* ritm, vazn, marom, maqom.
rhythmic(al) [ˈrɪðmɪk(əl)] *a* ritmli, vaznli, ohangli, bir maqomdagi; uyg'un, bir tekis.
rib [rɪb] *n* 1) qovurg'a; 2) qirra, yon, biqin; 3) o'tkir uch.
ribald [ˈrɪbəld] **1.** *n* og'zi buzuq odam, qo'pol (dag'al, qo'rs, tarbiyasiz) odam; **2.** *a* uyatsiz, adabsiz, yuzsiz, beor.
ribaldry [ˈrɪbldrɪ] *n* beodob gap, behayo ibora, so'kinish, qo'pollik, dag'allik, qo'rslik.
ribbed [rɪbd] *a* 1) qovurg'asi chiqqan; 2) qovurg'ali, qirrali, qovurg'asimon.
ribbon [ˈrɪbən] **1.** *n* lenta, tasma; **typewriter ~** yozuv mashinasining lentasi; **2.** *v* lenta bilan bezamoq.
ribboned [ˈrɪbənd] *a* lenta bilan bezatilgan.
rice [raɪs] *n* 1) sholi; 2) guruch; 3) *attr.* guruchdan qilingan, guruchli; **~ field** sholipoya.
rice-flakes [ˈraɪsˌfleɪks] *n pl* parchalangan (yanchilgan) guruch.
rice-paper [ˈraɪsˌpeɪpə] *n* sholi qog'oz (*sholi poxolidan qilingan yupqa pishiq qog'oz*).
rice-water [ˈraɪsˌwɔ:tə] *n* xo'rda, yovg'on xo'rda; guruch qaynatmasi.
rich [rɪtʃ] *a* 1) boy, badavlat; 2) serhosil, hosildor; **~ harvest** mo'l hosil 2) (diqqat-e'tiborga) arziydigan; qimmatli, loyiq; **a ~ suggestion** e'tibor berishga arziydigan taklif.
Richard Roe [ˌrɪtʃədˈrəu] *n yur.* sud jarayonidagi aybdor (javobgar) shaxs (*asosan, ismi ma'lum bo'lmaganlarga ishlatiladi*).
riches [ˈrɪtʃɪz] *n* boylik, mol-mulk; **the ~ of the soil** yerosti boyliklari.
richly [ˈrɪtʃlɪ] *adv* farovon, boy, to'q, hasham bilan.
richness [ˈrɪtʃnəs] *n* boylik, mol-mulk, dunyo, davlat, bisot.
rick I [rɪk] **1.** *n* g'aram, to'p; **2.** *v* g'aramlamoq, to'plamoq.
rick II [rɪk] = **wrick.**
rickets [ˈrɪkɪts] *n tib.* (*birlik hamda ko'plikda bir xilda yoziladi*) raxit, shirzada, mechkay (*yosh bolalar kasali*).
rickety [ˈrɪkɪtɪ] *a* 1) raxit (mechkay) kasalligiga oid; 2) nozik, nimjon, zaif (*sog'liq haqida*); 3) liqillab (qimirlab, chayqalib) turadigan, shaloq, bo'sh, liqildoq; **~ chair** omonat (shaloq) stul.
ricksha(w) [ˈrɪkʃɔ:] *n yap.* riksha (*Janubiy va Sharqiy Osiyo mamlakatlarida ikki g'ildirakli aravaga qo'shilib, odam va yuk tashiydigan hammol*).
ricochet [ˈrɪkəʃeɪ] *n* rikoshet (*otilgan tosh, o'q kabilarning tekkan joyidan sapchib, nari uchib ketishi*).
rictus [ˈrɪktəs] *n lot.* og'iz bo'shlig'i.
rid [rɪd] *v* **(rid; ridded)** ozod qilmoq, qutqarmoq, qutulmoq, qutqazmoq; **to get ~ of smb., smth.** kimdandir, nimadandir qutulmoq.
ridable [ˈraɪdəbl] *a* otda yurishga yaroqli.
riddance [ˈrɪdns] *n* 1) qutqarish, ozod qilish, xalos etish; 2) yo'qotish, yo'q qilish, bartaraf qilish, barham berish.

riddel [ˈrɪdl] *n* darparda (mehrobda) cherkov ibodatxonasida.
ridden [ˈrɪdn] *p. p.* **ride II** *dan.*
-ridden [-rɪdn] *a* murakkab so'zlar oldida ishlatilib (*nimaningdir*) ixtiyorida, izmida, qo'lida; (*nimagadir*) butun vujudi bilan berilgan degan ma'nolarni anglatadi.
riddle I [ˈrɪdl] **1.** *n* topishmoq; cho'pchak; **2.** *v* muammo qilib gapirmoq.
riddle II [ˈrɪdl] *n* g'alvir, katta simg'alvir.
riddled [ˈrɪdld] *a* 1) sepilgan, sochilgan, ekilgan; 2) elangan, elakdan o'tkazilgan.
ride I [raɪd] *n* safar, sayohat, sayr, tomosha (*otga minib, mashinada, velosipedda va b.*).
ride II [raɪd] *v* **(rid, ridden)** otga minmoq, ot minmoq.
ridel [ˈrɪdl] = **riddel.**
rider [ˈraɪdə] *n* otliq, ot mingan kishi, chavandoz.
riderless [ˈraɪdələs] *a* chavandozsiz (*chavandozini yo'qotgan ot to'g'risida*).
ridge I [rɪdʒ] *n* 1) tog' qirrasi; 2) tog'lar tizmasi.
ridge II [rɪdʒ] *v* 1) dikkaymoq, tikkaymoq; 2) yotmasdan tikka turmoq.
ridged [rɪdʒd] *a* uchi o'tkir, cho'qqili.
ridge-pole [ˈrɪdʒpəul] *n* 1) tortib cho'zish; 2) tirgak (*chodir bo'laklarini mustahkamlab va ma'lum vaziyatda ushlab turadigan to'sin*).
ridgy [ˈrɪdʒɪ] = **ridged.**
ridicule [ˈrɪdɪkju:l] *n* 1) mazaq (masxara) qilish; 2) masxara, istehzo, zaharxanda; **to hold up to** ~ masxara (kalaka) qilmoq.
ridiculous [rɪˈdɪkjuləs] *a* kulgili, kulgidan boshqaga arzimaydigan, qiziq, qovushmagan.
riding [ˈraɪdɪŋ] **1.** *pres. p.* **ride II** *dan*; **2.** *n* ot minish.
riding-habit [ˈraɪdɪŋˌhæbɪt] *n* amazonka (*chavandoz ayollarning maxsus uzun ko'ylagi*).
riding-hag [ˈraɪdɪŋhæg] *n so'zl.* 1) dahshat, tushunib bo'lmaydigan narsa; 2) bosinqirash, yomon tush.
riding hall [ˈraɪdɪŋhɔ:l] *n* usti yopilgan sirk maydoni.
riding master [ˈraɪdɪŋˌmɑ:stə] *n* bereytor (*otni minishga o'rgatuvchi va chavandozlikdan ta'lim beruvchi mutaxassis*).
Riesling [ˈri:slɪŋ] *n* risling (*oq uzumning bir turi*).
rife [raɪf] *a* oddiy, odatdagi; **to be** ~ oddiy bo'lmoq.
riffle [ˈrɪfl] *n* 1) jimirlash, mavj urish, mavjlanish; 2) ostonatosh (*daryo tagida ko'ndalang ko'tarilib turgan tosh do'nglik*).
riff-raff [ˈrɪfræf] **1.** *n* tubanlik (razolatga) tushgan kishilar; **2.** *a* keraksiz, foydasiz, nokerak.
rifle [ˈraɪfl] *n* 1) miltiq, beshotar; 2) *harb.* o'qchilar qismi.
rifle-green [ˌraɪflˈgri:n] *a harb.* to'q-ko'k (*ingliz o'qchi askarlari liboslarining rangi*).
rifle-grenade [ˌraɪflgrɪˈneɪd] *n harb.* miltiq granatasi.
rifleman [ˈraɪflmən] *n harb.* o'q otuvchi, mergan; **expert** ~ juda yaxshi mergan.
rifle-range [ˈraɪflreɪndʒ] *n* 1) tir (*nishonga otishni mashq qilish uchun moslangan bino*); 2) otish maydoni (*otish mashqlari, mashg'ulotlari o'tkaziladigan maydon*).
rift [rɪft] *n* 1) yoriq, darz; 2) tog'ning (*tepaning, yerning yorig'i*).
rig I [rɪg] *n* yelkanli kema jihozlari (*yelkan va arqonlar*).
rig II [rɪg] **1.** *n* 1) qiliq, hiyla-nayrang, makr ishlatish (qilish); 2) muttahamlik, makr, hiyla; **2.** *v* muttahamlik (qalloblik, firibgarlik) qilmoq; firib bermoq, aldamoq, tovlamoq.
rigging I [ˈrɪgɪŋ] *n deng.* takelaj (*kemaning kanop va sim arqonlari*).
rigging II [ˈrɪgɪŋ] *pres. p.* **rig II, 2.** *dan.*
right I [raɪt] **1.** *n* 1) haq, huquq; **equal ~s** teng huquqlar; 2) to'g'ri (haqqoniy) talab (**to**); 3) imtiyoz, yengillik; ~ **to work** mehnat qilish huquqi; **~s and duties** huquq va burchlar; 4) kerakli, zarur; 5) sog'lom, yaxshi holatda; **2.** *a* to'g'ri, haq, haqqoniy, adolatli; **to be** ~ to'g'ri (haqli) bo'lmoq; ~ **use of words** so'zlarni to'g'ri ishlatish; **3.** *adv* to'g'ri; **to get it** ~ to'g'ri tushunmoq; **to do a sum** ~ topshiriqni to'g'ri yechmoq; **4.** *v* tuzatmoq, to'g'rilamoq, kamchiliklarni bartaraf qilmoq.
right II [raɪt] *n* o'ng tomon; **on the** ~ o'ng tomonda.
right-angled [ˈraɪtˌæŋgld] *a* to'g'ri burchakli.
right-down [ˈraɪtdaun] *a* ashaddiy, o'taketgan, uchiga chiqqan, borib turgan, nariyog'i yo'q.
righteous [ˈraɪtʃəs] *a* 1) taqvodor, taqvoli, adolatli; 2) xayrli, ezgu.
righteousness [ˈraɪtʃəsnəs] *n* 1) taqvodorlik; 2) odillik.
rightful [ˈraɪtful] *a* qonuniy, qonunga muvofiq, qonunga asoslangan.
right-hand [ˌraɪtˈhænd] *a* o'ng, o'ng tomondagi.
rightist [ˈraɪtɪst] *n* o'ng, reaksioner.
rightly [ˈraɪtlɪ] *adv* 1) to'g'ri, rost; 2) haqqoniy ravishda.
right-minded [ˌraɪtˈmaɪndɪd] *a* yaxshi niyatli, niyati xolis.
rightwards [ˈraɪtwədz] *adv* o'ngga, o'ng tomonga.
right-wing [ˈraɪtwɪŋ] *a* o'ng, reaksion.
rigid [ˈrɪdʒɪd] *a* qattiq, egilmaydigan.
rigidity [rɪˈdʒɪdətɪ] *n* 1) qattiqlik; 2) mustahkamlik.
rigidly [ˈrɪdʒɪdlɪ] *adv* qat'iyan, keskinlik bilan, keskin, uzil-kesil.
rigmarole [ˈrɪgmərəul] *n* bema'ni gap, safsata.
rigorism [ˈrɪgərɪzm] *n* rigorizm (*axloqiy prinsiplarga, qoidalarga juda ham qattiq amal qilish, yopishib olish*).

rigorous [ˈrɪgərəs] *a* 1) qattiqqo'l, qahri qattiq; 2) sovuq, og'ir; **~ climate** sovuq iqlim.
rigour [ˈrɪgə] *n* talabchanlik, qattiqqo'llik.
rile [raɪl] *v* g'azablantirmoq, jahlini chiqarmoq.
rill [rɪl] **1.** *n* 1) kichkina soy, jilg'a, ariq; 2) buloq, chashma; **2.** *v* sharillab oqmoq.
rim [rɪm] *n* 1) (g'ildirak) to'gini, tegarchigi; 2) (ko'zoynak) gardishi; 3) band, halqa, tutqich, dasta (*chelak, sandiq va h.*).
rime I [raɪm] = **rhyme.**
rime II [raɪm] **1.** *n* 1) qirov; 2) bulduriq; 3) sovuq nam havo; **2.** *v* qirov bosmoq.
rimer [ˈraɪmə] *n tex.* teshikni kengaytirish uchun ishlatiladigan asbob.
rimy [ˈraɪmɪ] *a* qirov bosgan, qirov tushgan.
rind [raɪnd] **1.** *n* po'choq, po'stloq; **2.** *v* po'stloqni shilmoq.
ring I [rɪŋ] **1.** *n* 1) to'da, guruh; 2) uzuk; **2.** *v* 1) halqa qilib o'rab olmoq; 2) uzuk taqmoq.
ring II [rɪŋ] **1.** *n* jarang, jaranglagan ovoz; **2.** *v* jaranglamoq.
ring-dove [ˈrɪŋdʌv] *n zool.* govkaptar.
ringed [rɪŋd] **1.** *p. p.* **ring I, 2.** *dan*; **2.** *a* 1) aylana bilan belgilamoq; 2) halqali; 3) *ko'chm.* (kimgadir) unashtirilgan.
ringer [ˈrɪŋə] *n* qo'ng'iroqchi, qo'ng'iroq chaluvchi (*cherkovda*).
ring-fence [ˈrɪŋfens] *n* devor, panjara (*nimanidir hamma tomonidan qurshab olgan*).
ring-finger [ˈrɪŋˌfɪŋgə] *n* yon barmoq, so'fi barmoq (*jimjiloq yonidagi to'rtinchi barmoq*).
ringing I [ˈrɪŋɪŋ] *pres. p.* **ring I, 2.** *dan.*
ringing II [ˈrɪŋɪŋ] **1.** *pres. p.* **ring II, 2.** *dan*; **2.** *n* jarang, jiring, jaranglash, jaranglagan (jiringlagan) ovoz.
ringleader [ˈrɪŋˌli:də] *n* 1) boshchi, boshliq, sarkor; 2) yetaklab (boshlab) boruvchi, yo'l ko'rsatuvchi, yo'lboshchi, rahbar; 3) sababchi, boshlagan (boshlab bergan) kishi.
ringlet [ˈrɪŋlət] *n* jingalak soch, zulf, gajak.
ringleted [ˈrɪŋlətɪd] *a* jingalak, sochi jingalak.
ring-mail [ˈrɪŋmeɪl] *n* sovut.
ring-master [ˈrɪŋˌmɑ:stə] *n* manej (sirk maydoni) nazoratchisi (inspektori).
ring-net [ˈrɪŋnet] *n* kapalak tutadigan matrap.
ring ouzel [ˈrɪŋˌu:zl] *n zool.* qorayaloq (*oq bo'qoqli*).
ringtail [ˈrɪŋteɪl] *n zool.* bo'ktargi (yirtqich qushlarning bir turi) urg'ochisi.
ringworm [ˈrɪŋwɜ:m] *n tib.* moyxo'rak, qirma temiratki.
rink [rɪŋk] **1.** *n* 1) yaxmalak (*konki uchish uchun yaxlatilgan maydon*); 2) *sport.* sketingring (*rolikli konkida uchish uchun belgilangan maydoncha*); **2.** *v* g'ildirakchali konkida uchmoq.
rinse [rɪns] **1.** *n* 1) og'iz (tomoq) chayqaydigan dori; 2) davolash maqsadida suyuqlik bilan chayish, chayqash; **2.** *v* chayqamoq, chaymoq.
rinsing [ˈrɪnsɪŋ] **1.** *pres.* **rinse 2.** *dan*; **2.** *n* 1) og'iz chayqash; 2) og'iz chayqashdan qolgan suv.
riot [ˈraɪət] **1.** *n* isyon, qo'zg'olon, g'alayon; **2.** *v* isyon (qo'zg'olon, g'alayon) ko'tarmoq.
rioter [ˈraɪətə] *n* isyonchi, g'alayonchi; isyon (g'alayon) qatnashchisi.
riotous [ˈraɪətəs] *a* fe'li tez, battol, to'polonchi.
rip I [rɪp] **1.** *n* 1) yorilish, yorilib ketish; 2) kesik (kesilgan, yorilgan) joy; **2.** *v* qirqmoq, kesmoq, tilmoq, tilimlamoq, qirqib (kesib, tilib) qo'ymoq.
rip II [rɪp] *n* 1) dirdov ot, qirchang'i; 2) *so'zl.* axloqsiz (yomon yo'lga kirgan) odam.
riparian [raɪˈpeərɪən] *a* qirg'oq bo'yidagi (*oldidagi*).
ripe [raɪp] *a* 1) yetilgan, pishgan (*meva*); 2) balog'atga (voyaga) yetgan, yetilgan, yetuk.
ripen [ˈraɪpən] *v* 1) pishmoq, yetilmoq; 2) balog'atga yetmoq.
ripeness [ˈraɪpnəs] *n* 1) pishganlik, yetilganlik; 2) voyaga yetganlik.
ripping [ˈrɪpɪŋ] **1.** *pres. p.* **rip I, 2.** *dan*; **2.** *a* hayratda qoldiradigan, larzaga soladigan.
ripple I [ˈrɪpl] *n* jimirlash, mavj urish.
ripple II [ˈrɪpl] *n* zig'irpoya tozalaydigan taroq.
ripply [ˈrɪplɪ] *a* to'lqinli, mavj urib turgan.
rip-saw [ˈrɪpsɔ:] *n tex.* bo'ylama arra (*yog'ochni uzunasiga tiladigan arra*).
rise [raɪz] **1.** *n* 1) ko'tarish, oshirish, balandroq (yuqoriroq) qilish; **to be on the ~** oshirmoq, ko'tarmoq (*narx-navoni*); 2) ko'tarilgan joy; **2.** *v* (**rose, risen**) ko'tarilmoq, turmoq.
risen [ˈrɪzn] *p. p.* **rise 2.** *dan.*
risibility [ˌrɪzəˈbɪlətɪ] *n* kulong'ichlik, kulag'onlik.
risible [ˈrɪzɪbl] *a* 1) bekorga kulaveradigan, kulong'ich, kulag'on; 2) kulgili, kulgini qistatadigan.
rising [ˈraɪzɪŋ] **1.** *pres. p.* **rise 2.** *dan*; **2.** *a* 1) qo'zg'olon, g'alayon, isyon; 2) turish, o'rnidan turish; 3) chiqish; **the ~ of the sun** quyosh (kun) chiqishi.
risk [rɪsk] **1.** *n* tavakkal, qaltis, xavf-xatar; **2.** *v* jur'at etmoq, tavakkal qilmoq.
risky [ˈrɪskɪ] *a* qaltis, xatarli, xavfli.
risqué [ˈrɪskeɪ] *a fr.* 1) xavfli, xatarli; 2) shubhali, shubha tug'diradigan, ishonib bo'lmaydigan; 3) har xil tushunsa bo'ladigan, ilmoqli (*hazil haqida*).
rissole [ˈrɪsəul] *n* 1) kotlet; 2) tefteli (*yumaloq qilib qovurilgan qiyma go'sht*).
rite [raɪt] *a* marosim, udum.
ritual [ˈrɪtʃuəl] *n* udum, tamil, odat.
ritualism [ˈrɪtʃuəlɪzm] *n* marosimlar, udumlar, rasm-rusumlar.
ritually [ˈrɪtʃuəlɪ] *adv* marosimga (rasm-rusumga, udumga) ko'ra.
rival [ˈraɪvl] **1.** *n* raqib, raqobatchi; **a ~ team** raqib jamoa; **2.** *v* raqobat qilmoq.

rivalry [ˈraɪvlrɪ] *n* raqobat, raqiblik, kurash, bahs, bellashuv; **friendly ~** do'stona bellashuv.
rive [raɪv] **1.** *n* yoriq, darz, kovak, tirqish; **2.** *v* (**rived; rived, riven**) 1) yormoq, maydalamoq, parchalamoq; 2) yorilmoq, maydalanmoq, parchalanmoq.
riven [ˈrɪvən] **1.** *p. p.* **rive 2.** *dan*; **2.** *a* maydalangan, parchalangan, yorilgan.
river [ˈrɪvə] *n* 1) daryo, soy, anhor; **by (near) the ~** daryo yoqasida; 2) oqim; **to cross the ~** daryoning narigi qirg'og'iga o'tmoq.
river-bed [ˈrɪvəbed] *n* daryo o'zani.
river-horse [ˈrɪvəˌhɔːs] *n* begemot, suv oti.
riverine [ˈrɪvəraɪn] *a* 1) qirg'oq bo'yidagi, qirg'oq oldidagi, qirg'oq oldi; qirg'oq bo'yi...; 2) daryoga oid, daryo...; daryoda bo'ladigan; 3) daryoda suzishga mo'ljallangan; daryoda ishlash bilan bog'liq bo'lgan.
riverside [ˈrɪvəsaɪd] *n* 1) qirg'oq bo'yidagi yerlar; 2) daryo qirg'og'i.
rivet [ˈrɪvɪt] **1.** *n* mixparchin, chega; **2.** *v* parchinlamoq, parchinlab qo'ymoq.
riveting [ˈrɪvɪtɪŋ] *a* kishini o'ziga tortadigan, qiziqtiradigan, maroqli, qiziqarli, jozibali, maftunkor.
riviére [ˌrɪvɪˈɛə] *n fr.* marjon, shoda (*bir necha ipli*).
rivulet [ˈrɪvjulət] *n* soy, anhor, ariq, jilg'a, kichkina daryocha.
roach [rəutʃ] *n zool.* qizilko'z (*chuchuk suvda yashaydigan mayda baliq turi*).
road [rəud] *n* yo'l; **country ~** qishloq yo'li, tuproq yo'l.
road-bed [ˈrəudbed] *n* ko'tarma yo'l (*shag'al to'kib ko'tarilgan yo'l*).
Road-Board [ˈrəudbɔːd] *n* shosse yo'llar boshqarmasi.
road-book [ˈrəudbuk] *n* 1) yo'l ma'lumotnomasi; 2) avtomobil yo'llarining atlasi.
road clearance [ˌrəudˈklɪərəns] *n* yoriqdan tushgan shu'la, yorug'lik.
roadless [ˈrəudləs] *a* yo'lsiz, qatnov yo'llari yo'q.
road-metal [ˈrəudˌmetl] *n* shag'al (*maydalangan tosh yoki g'isht*).
road scraper [ˈrəud ˈskreɪpə] *n* tog' ishlari va qurilishlarda ishlatiladigan, tuproq tashiydigan mashina.
road-show [ˈrəudʃəu] *n amer.* teatr *yoki* sirk ijodiy guruhining safardagi tomoshasi.
roadside [ˈrəudsaɪd] **1.** *n* yo'l qirg'og'i (cheti, yoqasi); **2.** *a* yo'l bo'yidagi.
roadstead [ˈrəudsted] *n deng.* reyd (*portga kirish oldida kemalar to'xtab turadigan qulay joy*).
roadster [ˈrəudstə] *n* yo'l (safar) velosipedi.
road-test [ˈrəudtest] *v amer.* mashinani tabiiy sharoitda sinab ko'rmoq.
roadway [ˈrəudweɪ] *n* 1) shosse (*asfalt, beton kabilar yotqizilgan katta yo'l*); 2) to'shama yo'l (*tosh yoki boshqa narsa yotqizilgan yo'l*); 3) transport yuradigan yo'l.
roam [rəum] **1.** *n* darbadarlik, joydan joyga ko'chib yurish, darbadar kezish, ovorayi jahon bo'lib yurish, sargardonlik; **2.** *v* 1) tentiramoq; 2) olamni (elma-el, yurtma-yurt) kezmoq; 3) darbadar kezmoq, sargardon bo'lmoq, aylanmoq; **~ about the world** dunyoni kezmoq.
roan I [rəun] **1.** *a* burul (*ko'kish, xoldor*); **2.** *n* burul ot.
roan II [rəun] *n* yumshoq qo'y terisi (*muqovalar uchun*).
roar [rɔː] **1.** *n* bo'kirish, o'kirish, na'ra; uvillash (*hayvonlar*); **2.** *v* bo'kirmoq, na'ra tortmoq.
roarer [ˈrɔːrə] *n* 1) baqiroq odam, shang'i; baqirib gapiradigan odam; 2) issiqlatilgan ot.
roaring [ˈrɔːrɪŋ] **1.** *pres. p.* **roar 2.** *dan*; **2.** *n* bo'kirish, o'kirish.
roast [rəust] **1.** *n* jarkop, qovurma; **2.** *a* qovurilgan; **3.** *v* qovurmoq, pishirmoq.
roaster [ˈrəustə] *n* 1) manqal, manqaldon, tova; 2) kabob ko'ra.
roasting-jack [ˈrəustɪŋdʒæk] *n* kabob sixi.
rob [rɔb] *v* o'g'irlamoq, bosqinchilik qilmoq, talamoq, shilmoq.
robber [ˈrɔbə] *n* 1) bosqinchi, bosmachi; o'g'ri; 2) qaroqchi, yo'lto'sar.
robbery [ˈrɔbərɪ] *n* 1) o'g'irlik, o'g'irlash; 2) bosqinchilik, talash, talonchilik.
robe [rəub] *n* keng kiyim; chopon.
robin [ˈrɔbɪn] *n* 1) *sl.* penni (*finlarda: mayda pul, chaqa*); 2) *zool.* malinovka (*chumchuqsimonlarga mansub sayroqi qush*).
robot [ˈrəubɔt] *n* robot (*odamsimon harakat qiladigan avtomat*).
robust [rəuˈbʌst] *a* 1) mahkam, qattiq, mustahkam; 2) sog'lom, baquvvat, tetik, chidamli.
robustious [rəuˈbʌstʃəs] *a* 1) kuchli, shiddatli, qattiq; 2) sershovqin, shovqinli.
rock I [rɔk] *n* 1) qoya, jarlik; 2) osilib turgan qoyatosh, tik qoya.
rock II [rɔk] *v* silkinmoq, tebranmoq; **to ~ cradle** beshikni tebratmoq, allalamoq.
rock III [rɔk] *n esk.* charx, ip yigiradigan charx.
rock-crystal [ˌrɔkˈkrɪstl] *n* tog' (billuri) kristali.
rock-drill [ˈrɔkdrɪl] *n tex.* 1) perforator (*tog' jinslarini parmalovchi mashina*); 2) burg'ilash iskanasi.
rocker [ˈrɔkə] *n* tebranma kursi.
rocket [ˈrɔkɪt] **1.** *n* 1) raketa; 2) raketa dvigateli; 3) reaktiv snaryad; **2.** *v* 1) ko'tarilmoq, parvoz qilmoq; 2) raketa uchirmoq.
rocking-chair [ˈrɔkɪŋtʃɛə] *n* tebranma kursi.
rocky [ˈrɔkɪ] *a* qoyalardan iborat, qoyali, serqoya, toshli.
rod [rɔd] *n* xipchin, novda, xivich, chiviq, savag'ich.
rode [rəud] *past.* **ride II** *dan.*

rodent [ˈrəudnt] *n zool.* kemiruvchi.
roe [rəu] *n* ikra, uvuldiriq (*baliq, baqa va h.k. tuxumi, urug'i*).
rogue [rəug] *n* tovlamachi; aldamchi, firibgar, qallob, muttaham; **~ry** muttahamlik, qalloblik, firibgarlik, aldamchilik, tovlamachilik.
roguish [ˈrəugɪʃ] *a* muttahamroq, qallobroq, aldam-qaldam ishlarga moyil.
roister [ˈrɔɪstə] *v* jamoat tartibini buzmoq, o'zboshimchalik (beboshlik) qilmoq.
role [rəul] *n* 1) rol, ahamiyat, xizmat, tutgan o'rin; 2) rol (*sahnada, ekranda ijro etiladigan badiiy obraz*).
roll [rəul] **1.** *n* 1) hushtak; 2) o'ralgan narsa; 3) bog'lam, dasta; 4) gumbur-gumbur, gumburlash; **2.** *v* 1) o'ramoq; 2) dumalamoq; 3) g'ildiramoq.
roll-call [ˈrəulkɔ:l] *n* bir-biriga ovoz (tovush) berib turish, bir-birini chaqirib turish.
roller [ˈrəulə] *n* 1) *tex.* val, silindr; rolik; 2) to'lqin, po'rtana, mavj.
roller-mill [ˈrəuləmɪl] *n* jo'vali tegirmon.
slang [slæŋ] *n* jargon (*faqat ma'lum guruh kishilari tushunadigan shartli til*).
slangy ['slæŋɪ] *a* jargonga xos, jargon... .
slant [slɑ:nt] *n* qiyalik, nishab, yonbag'ir.
slanting ['slɑ:ntɪŋ] *a* qiya, nishab.
slap [slæp] **1.** *n* shapaloq, tarsaki, shappati; **2.** *v* tarsaki *yoki* shapaloq solmoq (tushirmoq).
slapdash ['slæpdæʃ] *a* shoshilinch (tez) qilinadigan, o'ylab-netmay qilingan, pala-partish ish qiladigan.
slapstick ['slæpstɪk] *n* pashsha urgich.
slap-up ['slæpʌp] *a* kelishgan, ko'rkam, zebo, shinam; hashamatli, muhtasham.
slash I [slæʃ] *v* aylantirib (qulochkashlab) urmoq.
slash II [slæʃ] *n amer.* botqoqlik, botqoq.
slat [slæt] *n* 1) uzun taxtacha; yupqa taxta; 2) *pl* qovurg'a.
slate [sleɪt] *n* 1) slanes (*tog' jinsi*); shifer plitasi; 2) toshtaxta (*toshqalam bilan yoziladigan taxta*).
slate-pencil [ˌsleɪt 'pensl] *n* toshqalam.
slattern ['slætn] *n* isqirt odam, iflos.
slatternly ['slætnlɪ] *a* iflos, kir, isqirt.
slaughter ['slɔ:tə] *n* 1) qirg'in, qirpichoq (bo'lish), xunrezlik; 2) mollarni so'yish.
slaughter-house ['slɔ:təhaus] *n* 1) qushxona; 2) qirg'in, xunrezlik.
Slav [slɑ:v] *n* 1) slavyan; 2) slavyan ayol.
slave [sleɪv] *n* qul, asir, bandi, mahbus.
slaver I ['slævə] **1.** *n* 1) so'lakay, tupuk; 2) qo'pol maqtov; **2.** *v* so'lak oqizmoq.
slaver II ['sleɪvə] *n* quldor, qulfurush, qul sotuvchi, qul savdosi bilan shug'ullanuvchi kishi.
slavery ['sleɪvərɪ] *n* qullik, quldorlik.
slavish ['sleɪvɪʃ] *a* ko'r-ko'rona; qullarcha xushomadgo'ylik bilan; ~ **imitation** ko'r-ko'rona taqlid qilish.
slaw [slɔ:] *n amer.* to'g'ralgan karamdan qilingan salat.
slay [sleɪ] *v* (**slew; slain**) o'ldirmoq, so'ymoq.
sleazy ['sli:zɪ] *a* nozik, bo'sh, chidamsiz, pishiq (puxta) emas.
sled [sled] *n* chana.
sledge [sledʒ] *n* chana.
sleek [sli:k] *a* silliq, tekis, tep-tekis.
sleep [sli:p] **1.** *n* 1) uyqu, uxlash; 2) tush, tush ko'rish; **to go to ~** uyquga ketmoq; **to get a ~** biroz uxlab olmoq; **2.** *v* uxlamoq, uyquga ketmoq.
sleeping-bag ['sli:pɪŋbæg] *n* qopko'rpa (*sovuq joylarda ichiga kirib yotiladigan qopsimon ko'rpa*).

sleeping-car [ˈsli:pɪŋkɑ:] *n* uxlab (yotib) ketiladigan vagon.
sleeping-draught [ˈsli:pɪŋdrɑ:ft] *n* uyqu dori.
sleeping-pills [ˈsli:pɪŋpɪlz] *n pl* uyqu dori, uxlatadigan dori.
sleeping-sickness [sli:pɪŋˌsɪknəs] *n tib.* uyqu kasali.
sleepless [ˈsli:pləs] *a* uyqusiz, uyqusi yo'q, uyqusi qochgan, bedor.
sleeplessness [ˈsli:pləsnəs] *n* uyqusizlik, bedorlik; uyqusizlik kasali.
sleep-walker [ˈsli:pˌwɔ:kə] *n* oyparast (*lunatizm kasaliga mubtalo bo'lgan, uyqusida uyg'oqdek yuraveradigan odam*).
sleepy [ˈsli:pɪ] *a* uyquli, seruyqu, uyqudan bosh ko'tarmaydigan; uyqudagi.
sleet [sli:t] *n* qorli yomg'ir; tugmacha qor.
sleety [ˈsli:tɪ] *a* yog'ingarchilik (namgarlik) ko'p bo'lgan, seryog'in, shilta loy.
sleeve [sli:v] *n* yeng; **to turn up one's ~s** yenglarni shimarmoq.
sleigh [sleɪ] *n* chana.
sleigh-bell [ˈsleɪbel] *n* shiqildoq, qo'ng'iroqcha.
slender [ˈslendə] *a* 1) nozik, ozg'in, ingichka; 2) oz, kam, ozgina, kamchil, tanqis; **~ income** arzimagan daromad; **~ hope** unchalik qat'iy bo'lmagan ishonch; ozgina umid.
slept [slept] *past.* **sleep** *dan.*
sleuth-hound [ˈslu:θhaund] *n* iskovuch it.
slew I [slu:] *n* burilish, muyulish.
slew II [slu:] *v* o'ldirmoq, so'ymoq.
slice [slaɪs] *n* burda, kesim, tilim.
slick [slɪk] *a* tekis, tep-tekis, silliq.
slid [slɪd] *past., p.p.* **slide** *dan.*
slide [slaɪd] *v* (**slid**) toymoq, sirpanmoq.
slight [slaɪt] *v* kamsitmoq, mensimay qaramoq.
slightly [ˈslaɪtlɪ] *adv* biroz, andak, yengilgina, sal, sal-pal, xiyol.
slim [slɪm] *a* kelishgan, xushbichim; qomati raso; yupqa, ingichka.
slime [slaɪm] *n* shilimshiq, shilliq.
slimy [ˈslaɪmɪ] *a* shilliqqa (shilimshiqqa) oid, shilimshiq bilan qoplangan.
sling I [slɪŋ] *n* palaqmon; sopqon.
sling II [slɪŋ] *n amer.* muskat (*uzum navi va undan tayyorlangan vino*); muskat yong'og'i shakar va suvdan tayyorlangan ichimlik.
slink I [slɪŋk] *v* yashirincha (bilintirmasdan, sezdirmasdan) bormoq.
slink II [slɪŋk] *n* chala tug'ilgan bola (*hayvonlar haqida*).
slip [slɪp] *v* toymoq, sirpanmoq, sirg'anmoq; **my foot ~ped** mening oyog'im toyib ketdi.
slipper [ˈslɪpə] *n* 1) uybop (uyda kiyiladigan tuflі: tapochka, shippak; 2) tormoz boshmog'i.
slippery [ˈslɪpərɪ] *a* 1) sirg'anchiq, sirpanchiq, silliq; 2) abjir, epchil, chaqqon; 3) ishonib bo'lmaydigan odam, ishonchsiz odam.
slipshod [ˈslɪpʃɔd] *a* beparvo, sovuqqon, e'tiborsiz, pala-partish ish qiladigan.
slit [slɪt] *n* kovak, tirqish, yoriq.
slither [ˈslɪðə] *v* sirg'anmoq, sirpanmoq; toymoq.
sliver [ˈslɪvə] *n* mayda tarasha; paraha, tutantiriq.
slob [slɔb] *n* botqoq, loy, balchiq.
slobber [ˈslɔbə] *n* so'lakay, tupuk.
sloe [sləu] *n bot.* tyorn (*mevali va mayda olxo'riga o'xshagan buta o'simlik hamda shu o'simlik mevasi*).
slog [slɔg] *n* kuchli zarba, qattiq zarba.
slogan [ˈsləugən] *n* shior, chaqiriq, da'vat.
slop I [slɔp] *n* 1) yuvundi; 2) *so'zl.* suyuq ovqat; 3) pivo; 4) ko'lmak, ko'lob, xalqob; 5) shilta loy; 6) erigan qor; 7) isqirt odam, isliqi.
slop II [slɔp] *n* (*odatda pl*) 1) maxsus ish kiyimi, korjoma; 2) tayyor arzon kiyim.
slope [sləup] *n* qiyalik, nishab, yonbag'ir; **~ of a roof** tomning nishabi.
slop-pail [ˈslɔppeɪl] *n* yuvundi chelak.
sloppy [ˈslɔpɪ] *a* 1) serko'lmak; 2) suv bosgan, suv ostida qolgan.
slosh [slɔʃ] = **slush.**
slot I [slɔt] *n* kichkina (torgina) teshikcha, tirqish, kovak.
slot II [slɔt] *n* bug'u izi.
sloth [sləuθ] *n* dangasalik, yalqovlik, tanballik, erinchoqlik.
slot-machine [ˈslɔtməˌʃi:n] *n* savdo avtomati.
slouch [slautʃ] *n* 1) beso'naqay yurish; 2) egilganlik; bukchayganlik; yelkasi chiqqanlik.
sloven [ˈslʌvn] *n* isqirt odam.
slovenly [ˈslʌvnlɪ] *a* isqirt.
slow [sləu] *a* sekin, sust.
slowly [ˈsləulɪ] *adv* sekinlik bilan, shoshilmay, imillab.
slowness [ˈsləunəs] *n* sekinlik, shoshilmaslik, imillash.
slow-witted [ˌsləuˈwɪtɪd] *a* befahm, esi past, anqov.
sludge [slʌdʒ] *n* 1) quyuq loy; 2) muzparda; 3) loyqa, balchiq.
sludgy [ˈslʌdʒɪ] *a* 1) iflos, bulg'anch; loy; 2) serloyqa, serbalchiq, balchiqli.
slug [slʌg] *n zool.* shilliq qurt (*mollusk*).
sluggard [ˈslʌgəd] *n* yalqov, dangasa, tanbal, ishyoqmas.
sluggish [ˈslʌgɪʃ] *a* sekinlik bilan sodir bo'ladigan, sekin, sust.
sluice [slu:s] **1.** *n* shluz (*suv sathi turli bo'lgan bir joydan ikkinchi joyga kemalarni o'tkazish uchun xizmat qiluvchi gidrotexnik inshoot*); **2.** *v* shmozdan o'tkazmoq.
slum [slʌm] *n* kulba, vayrona.
slumber [ˈslʌmbə] *n* uyqu; uxlash; mudroq, pinak, mudrash.

slump [slʌmp] *n* narx-navoning keskin pasayishi (tushishi, kamayishi).
slung [slʌŋ] *n* irg'itish, uloqtirish, otish, otib (itarib) yuborish.
slunk [slʌŋk] *v* bildirmay, sezdirmay (bildirmay) bormoq.
slur [slə:] *n* obro'ga tushirilgan dog'.
slurp [slə:p] *v* chapillatib chaynamoq, chapillatmoq.
slush [slʌʃ] *n* 1) botqoq, loy, balchiq; 2) erigan qor.
slut [slʌt] *n* 1) isqirt xotin; 2) fohisha, buzuq.
sluttish ['slʌtɪʃ] *a* isqirt, palpis.
sly [slaɪ] *a* ayyor, makkor, hiylagar, firibgar, mug'ambir.
slyness ['slaɪnəs] *n* hiyla, makr, shaytonlik, mug'ambirlik, ayyorlik.
smack I [smæk] *n* ta'mni (mazasini) sezish, ta'm sezgisi.
smack II [smæk] *n* chapillatib o'pish, chapillatish.
small [smɔ:l] *a* kichik, katta bo'lmagan, kichkina; ~ **boy** yosh bola, kichkintoy.
small arms ['smɔ:lɑ:mz] *n pl* otish quroli.
small-minded [,smɔ:l 'maɪndɪd] *a* 1) past, pastkash, nazari past, mayda gap; 2) yaqin, yaqindagi, yaqinda bo'lgan.
smallpox ['smɔ:lpɔks] *n tib.* chechak (*kasallik*).
smart [smɑ:t] *a* aqlli, dono, topqir, hozirjavob.
smarten ['smɑ:tn] *v* silliqlamoq, yaxshilamoq, ishlab (ravon, barkamol) qilmoq.
smartness ['smɑ:tnəs] *n* dadillik, epchillik, uddaburonlik.
smash [smæʃ] *n* 1) gumburlash, gumbur-gumbur (taraq-turuq) ovoz; 2) halok (nobud) bo'lish, yo'q bo'lish; 3) halokat, baxtsizlik, fojia; 4) sinish, bankrot (barbod) bo'lish.
smashing ['smæʃɪŋ] *a* yakson qiladigan, yanchib tashlaydigan, qaqshatqich; ~ **blow** qaqshatqich zarba.
smattering ['smætərɪŋ] *n* 1) sayoz bilim; 2) *so'zl.* oz miqdor.
smear [smɪə] **1.** *n* 1) yopishqoq narsa; 2) dog', isnod; 3) tuhmat, bo'hton, g'iybat; 4) sharmandalik, badnomlik; **2.** *v* sharmanda qilmoq, uyatga qoldirmoq, badnom qilmoq.
smell [smel] **1.** *n* hid, is; **2.** *v* hidlamoq; hid taratmoq.
smelling-bottle ['smelɪŋ,bɔ:tl] *n* burunga tortadigan tuzning kichkina shishachasi.
smelling-salts ['smelɪŋsɔ:lts] *n* burunga tortadigan tuz.
smelt I [smelt] *n* eritish; metall eritish.
smelt II [smelt] *past., p. p.* **smell 2.** *dan.*
smile [smaɪl] **1.** tabassum; **2.** *v* tabassum qilmoq.
smirch [smə:tʃ] **1.** *n* dog', qashqa; **2.** *v* dog' tegizmoq, dog' qilmoq.
smirk [smə:k] *n* o'zidan (o'z ishidan) xursand, mag'rur.
smite [smaɪt] *v* (**smote; smitten**) 1) urmoq, tushirmoq, mushtlamoq; 2) chilparchin qilmoq, buzmoq, qulatmoq.
smithereens [,smɪðə'ri:ns] *n pl* parchalar, bo'laklar, siniqlar.
smithy ['smɪðɪ] *n* 1) temirchilik ishxonasi; 2) *amer.* temirchi; taqachi.
smitten ['smɪtn] *p.p.* **smite** *dan.*
smock [smɔk] *n* bolalar korjomasi.
smog [smɔg] *n* chang, yonilg'i bug'i aralashmasidan iborat zaharlangan havo.
smoke [smәuk] **1.** *n* 1) tutun, qurum, qorakuya, is; 2) chekish; **to have a** ~ chekmoq; **2.** *v* chekmoq, tutatmoq.
smoked [smәukt] **1.** *v* tutamoq, tutab yonmoq; **2.** *a* 1) kulrang, ko'kish; 2) is (dud) bosgan; 3) dudlangan, qoq; ~ **fish** dudlangan baliq.
smoker ['smәukə] *n* kashanda odam, chekadigan kishi.
smoke-screen ['smәukskri:n] *n harb.* dud niqob, tutun parda.
smoking ['smәukɪŋ] *n* tutash, tutab yonish.
smoking-carriage ['smәukɪŋ,kærɪdʒ] *n* chekuvchilar uchun belgilangan vagon.
smoky ['smәukɪ] *a* tutayotgan, tutab turgan.
smolder ['smәuldə] *v* tutab yonmoq; miltillab yonmoq.
smooth [smu:ð] *a* tekis, ravon, silliq.
smoothfaced ['smu:ðfeɪst] *a* soch-soqoli olingan, qirilgan.
smoothly ['smu:ðlɪ] *adv* 1) tekislab, silliq qilib, tep-tekis; 2) tutilmasdan, qiynalmasdan, ravon, silliq.
smoothness ['smu:ðnəs] *n* 1) tekislik, silliqlik; 2) ravonlik.
smooth-tongued ['smu:ðtʌŋd] *a* xushtakallum, shirinso'z, gapi shirin, xushomadgo'y.
smote [smәut] *past* **smite** *dan.*
smother ['smʌðə] *v* bo'g'moq, nafasini qaytarmoq; harsillamoq.
smoulder ['smәuldə] *v* tutab yonmoq, lip-lip yonib turmoq, miltillab yonmoq.
smouldering ['smәuldərɪŋ] *v* tutab yonmoq, miltillab yonmoq.
smudge I [smʌdʒ] *v* bulg'amoq, kir (iflos) qilmoq; ifloslanmoq.
smudge II [smʌdʒ] *v amer.* dudlamoq, tutun ushlamoq; tutatmoq.
smug [smʌg] *a* 1) o'z ishidan xursand, mag'rur; 2) o'taketgan rasmiyatchi, qoidaparast, rasmiy, jiddiy.
smuggle ['smʌgl] *v* kontrabanda bilan shug'ullanmoq.
smuggler ['smʌglə] *n* kontrabanda bilan shug'ullanuvchi kishi.
smuggling ['smʌglɪŋ] *n* kontrabanda (*davlat chegarasidan yashirincha, boj to'lamasdan mol o'tkazish*).

smugly [ˈsmʌglɪ] *adv* mag'rurlik bilan, mag'rurlanib, mag'rurona.
smugness [ˈsmʌgnəs] *n* mag'rurlik, o'ziga ishonib ketish.
smut [smʌt] *n* 1) qurum, qorakuya; 2) beadablik, uyatlik, yomonlik; 3) *q.x.* zang kasali, qorakuya.
snack [snæk] *n* gazak; **have a ~** tamaddi qilib olmoq.
snack bar [ˈsnækbɑ:] *n* gazakxona, yemakxona.
snag I [snæg] *n* 1) suvga botgan (cho'kkan) daraxt, to'nka, cho'kindi yog'och; 2) ishkallik, chatoqlik, qiyinchilik, g'ov, to'siq.
snag II [snæg] *v* ilinmoq, ilinib qolmoq, ilashib qolmoq.
snail [sneɪl] *n* 1) shilliq qurt, chig'anoq; 2) *so'zl.* imildoq, sekin yuradigan, sekin yurar; 3) *tex.* spiral, burama sim.
snake [sneɪk] *n* 1) ilon; 2) o'z so'zida turmaydigan kishi, xoin.
snaky [ˈsneɪkɪ] *a* 1) ilonga oid; 2) ilon izi; 3) makkor.
snap [snæp] *v* chaqmoq, tishlamoq, qopmoq, tishlab (qopib, chaqib) olmoq.
snappish [ˈsnæpɪʃ] *a* tez achchiqlanadigan, darrov g'azablanib ketadigan, serjahl.
snapshot [ˈsnæpʃɔt] *n* surat, fotosurat.
snare [sneə] **1.** *n* tuzoq, qopqon, pistirma; **2.** *v* qopqon qo'yib tutmoq.
snarl I [snɑ:l] *n* irillash, bo'kirish, o'kirish, hayqirish.
snarl II [snɑ:l] *n* chigal (chalkash-chulkash) ip.
snatch [snætʃ] *v* ushlamoq, tutmoq, yopishmoq; ilmoq.
snatchy [ˈsnætʃɪ] *a* uzuq-yuluq, qisqa-qisqa, bo'linib-bo'linib chiqqan (eshitilgan); chala-chulpa, uzilgan.
sneak [sni:k] *n so'zl.* qo'rqoq, yuraksiz; yaramas odam, ablah.
sneakers [ˈsni:kəz] *n pl* tapochka, shippak.
sneaking [ˈsni:kɪŋ] **1.** *v* sekin-asta (bekinib) bormoq; **2.** *a* razil, qabih, yaramas, pastkash.
sneer [snɪə] *n* masxara (mazax, mayna) qilish.
sneeze [sni:z] **1.** *n* aksirish; **2.** *v* aksirmoq.
snide [snaɪd] *a* qalbaki, yasama, soxta.
sniff [snɪf] *n* shipillash, shipillagan ovoz, pish-pish.
sniffle [snɪfl] *n* 1) pishillash, pish-pish qilish, pishillagan ovoz, pish-pish; 2) tumov.
snigger [ˈsnɪgə] *v* qiqillab (hingillab) kulmoq, qiqirlamoq, hingillamoq.
snip [snɪp] *n* kertik, kesik, tilingan (kesilgan) joy.
snipe [snaɪp] *n* loyxo'rak (*qush*).
sniper [ˈsnaɪpə] *n* mergan otuvchi.
snippet [ˈsnɪpɪt] *n* parcha, bo'lak, kesik, laxtak.
snivel [ˈsnɪvl] *v* hiqillamoq, hiqillab yig'lamoq.
snob [snɔb] *n* olifta (xudbin) kishi.
snobbery [ˈsnɔbərɪ] *n* quruq, oliftagarchilik.
snobbish [ˈsnɔbɪʃ] *a* quruq oliftagarchilikka oid; xudbinlikka oid.
snook [snu:k] *n* uzun burun.
snooker [ˈsnu:kə] *n* bilyard o'yinining bir turi.
snoop [snu:p] *so'zl.* **1.** *n* doimo birovning ishiga burnini tiqadigan kishi; **2.** *v* birovning ishiga burnini tiqmoq.
snooty [ˈsnu:tɪ] *a so'zl.* nafratli, jirkanch.
snooze [snu:z] *v so'zl.* ko'zi uyquga ketmoq, mudramoq, mijja qoqmoq.
snore [snɔ:] **1.** *n* xurrak; **2.** *v* xurrak otmoq, xurrak otib uxlamoq.
snort [snɔ:t] *n* pishqirish; pishqiriq, xirillash.
snot [snɔt] *n* mishiq, mishiriq.
snout [snaut] *n* aft, angor, turq, bashara, tumshuq.
snow [snəu] *n* qor; **~drop** boychechak; **~man** qor bobo; **~y** qorli; **~storm** qor bo'roni.
snowball [ˈsnəubɔ:l] *n* yumaloqlangan qor.
snow-bound [ˈsnəubaund] *a* qor qoplangan, qor bosgan.
snow-drift [ˈsnəudrɪft] *n* qor uyumi, qortepa.
snowdrop [ˈsnəudrɔp] *n* boychechak.
snow-fall [ˈsnəufɔ:l] *n* qor yog'ish, qor yog'ishi.
snow-flake [ˈsnəufleɪk] *n* qor uchquni.
snow-plough [ˈsnəuplau] *n* qor kuraydigan mashina, qor kuragich, qor tozalagich.
snow-storm [ˈsnəustɔ:m] *n* qor bo'roni, bo'ron, izg'irin, izg'iriq.
snow-white [ˌsnəu´waɪt] *a* qordek (paxtadek) oq, oppoq.
snowy [ˈsnəuɪ] *a* qorli, qordan bo'lgan, serqor.
snub I [snʌb] *n* 1) muvaffaqiyatsizlik; 2) sharmandayi sharmisor bo'lish.
snub II [snʌb] *a* ko'tarilgan, qanqaygan; **~ nose** qanqaygan burun.
snub-nosed [ˌsnʌb´nəuzd] *a* puchuq, qanqaygan; burni puchuq.
snuff I [snʌf] *n* 1) burunaki tamaki; 2) tamaki hidlash.
snuff II [snʌf] *n* shamning so'xtasini olib tashlamoq.
snuff-box [ˈsnʌfbɔks] *n* tamakidon, tamaki quti; nosqovoq.
snuffers [ˈsnʌfəz] *n pl* otashkurak.
snuffle [ˈsnʌfl] *n* pishillash, pish-pish qilish, shipillagan ovoz.
snug [snʌg] *a* o'ng'ay, qulay, orom beradigan, shinam.
snuggle [ˈsnʌgl] *v* qulay joylashmoq.
so [səu] *adv* 1) demak, shunday qilib; 2) shuncha, shunchalik, shu qadar.
so-and-so [ˈsəuənsəu] *n* falonchi, falon kishi, falon narsa, falon ish.
soak [səuk] **1.** *n* ho'llash, namlash, ivitish; **to give a ~** namlamoq; **2.** *v* shimib olmoq, singdirmoq.
soaking [ˈsəukɪŋ] *n* ivish, bo'kish, ho'l (nam) bo'lish.
soap [səup] *n* sovun; **a bar of ~** bir bo'lak sovun.
soap-box [ˈsəupbɔks] *n* sovun quti.

soap-bubble [ˈsəupˌbʌbl] *n* sovun pufagidek asossiz, puch narsa.
soap-suds [ˈsəupsʌdz] *n* 1) sovun ko'pigi; 2) mag'zava, kir yuvundi.
soapy [ˈsəupɪ] *n* 1) sovunga oid; sovunli; sovun...; 2) *so'zl.* tilyog'lama, ayyor.
soar [sɔ:] *v* (*qanotlarini kerib*) uchmoq, parvoz qilmoq.
sob [sɔb] *v* 1) ho'ngrab (o'pkasi to'lib) yig'lamoq, zor-zor yig'lamoq, qattiq bo'zlamoq; 2) xo'rsinib yig'lamoq, hiqillab (hiq-hiq) yig'lamoq.
sober [ˈsəubə] *a* 1) mast emas, hushyor; 2) nafsi tiyiq, sabr-qanoatli; 3) bama'ni, aqlli, mulohazali, andishali, o'ylab (aql bilan) ish qiladigan.
sobriety [səuˈbraɪətɪ] *n* 1) hushyorlik, mast emaslik; 2) o'rtachalik, mo'tadillik.
sobriquet [ˈsɔubrɪkeɪ] *n fr.* laqab, nom.
so-called [ˈsəuˈkɔ:ld] *a* shunday deb nomlanadigan.
soccer [ˈsɔkə] *n* futbol; ~ **player** futbolchi.
sociability [ˌsəuʃɔˈbɪlətɪ] *n* odamga el bo'lish, kirishimlilik, dilkashlik.
sociable [ˈsɔuʃbl] *a* odamga el bo'ladigan, kirishimli, dilkash.
social [ˈsəuʃəl] *a* ijtimoiy, jamiyatga (jamoatga) oid; ~ **science** sotsiologiya, jamiyatshunoslik; ~ **security** ijtimoiy ta'minot.
socialism [ˈsəuʃəlɪzm] *n* sotsializm.
socialist [ˈsɔuʃəlɪst] **1.** *a* sotsialistik; **2.** *n* sotsialist.
socially [ˈsəuʃəlɪ] *adv* ijtimoiy jihatdan, jamiyat nuqtayi nazaridan, jamiyat uchun.
society [səˈsaɪətɪ] *n* jamiyat.
sociological [ˌsəusɪəˈlɔdʒɪkl] *a* sotsiologiyaga oid, sotsiolog.
sociologist [ˌsəusɪˈɔlədʒɪst] *n* sotsiolog, jamiyatshunos.
sock [sɔk] *n* 1) paypoq; 2) patak.
socket [ˈsɔkɪt] *n* cho'nqir yer ichiga botgan (kirgan) joy; chuqurcha, chuqur.
sod [sɔd] *n* chim, chimzor.
soda [ˈsəudə] *n* soda (*karbonat kislotasining natriyli tuzi*).
sodden I [ˈsɔdn] *a* ivigan, nam bo'lgan, ho'l, nam.
sodden II [ˈsɔdn] *p.p.* **seethe** *dan.*
sodium [ˈsəudjəm] *n kim.* natriy.
sofa [ˈsəufə] *n* divan.
soft [sɔft] *a* yumshoq; ~ **palate** yumshoq tanglay.
soft drink [ˈsɔftdrɪŋk] *n* spirtsiz ichimlik.
soften [ˈsɔfn] *v* yumshatmoq, muloyimlashtirmoq, yumshoq (mayin) qilmoq.
soft-headed [ˌsɔftˈhedɪd] *a* tentaksimon, jinnisimon, telbaroq.
soft hearted [ˌsɔftˈhɑ:tɪd] *a* ko'ngli yumshoq, ko'ngilchan, rahmdil.
softly [ˈsɔftlɪ] *adv* yumshoq qilib, muloyimgina, mayingina qilib, muloyimlik bilan.
softness [ˈsɔftnəs] *n* yumshoqlik, bo'shlik, mayinlik.
soft-spoken [ˌsɔftˈspəukən] *a* xushtakallum, shirinso'z, gapi shirin; xushomadgo'y.
software [ˈsɔftweə] *n* dastur bilan ta'minlash.
softy [ˈsɔftɪ] *n so'zl.* 1) esi yo'q odam, ahmoq odam; tentak; 2) qat'iyatsiz odam.
soggy [ˈsɔgɪ] *a* nam, ho'l, zax.
soil [sɔɪl] *n* yer, zamin, tuproq; **one's native** ~ ona yurt, vatan.
sojourn [ˈsɔdʒən] *n* (*vaqtinchalik*) bo'lish, turish.
sol [sɔl] *n mus.* sol (*musiqa gammasining beshinchi notasi*).
solace [ˈsɔləs] **1.** *n* ovunchoq, yupanchiq; taskin, tasalli; **2.** *v* yupatmoq, ovutmoq, tasalli (taskin) bermoq.
solar [ˈsəulə] *a* quyoshga (quyosh nuriga) oid; quyosh nuridan foydalanishga asoslangan.
sold [səuld] *a* sotilgan.
solder [ˈsɔldə] **1.** *n tex.* kavshar (*kavsharlash uchun ishlatiladigan metall, qotishma*); **2.** *v* kavsharlamoq, qalaylamoq.
soldier [ˈsəuldʒə] *n* askar.
sole I [səul] *n* taglik, tagcharm.
sole II [səul] *n* kambala, qalqon baliq.
sole III [səul] *a* birdan-bir, yolg'iz; yakka-yagona.
solely [ˈsəullɪ] *adv* birdan-bir, birgina, yagona.
solemn [ˈsɔləm] *a* tantanali, rasmiy; **to take a** ~ **oath** tantanali qasamyod qilmoq.
solemnity [səˈlemnətɪ] *n* tantana; tantanavorlik, serhashamlik.
solemnize [ˈsɔləmnaɪz] *v* bayram qilmoq; nishonlamoq.
solemnly [ˈsɔləmlɪ] *adv* tantanali ravishda, tantana (dabdaba) bilan.
solicit [səˈlɪsɪt] *v* so'ramoq, iltimos qilmoq, o'tinmoq.
solicitation [səˌlɪsɪˈteɪʃn] *n* qat'iy talab, qattiq iltimos.
solicitor [səˈlɪsɪtə] *n* maslahatchi huquqshunos.
solicitude [səˈlɪsɪtju:d] *n* g'amxo'rlik, mehribonlik, jonkuyarlik, kuyinchaklik.
solid [ˈsɔlɪd] **1.** *a* 1) qotib qolgan, qattiq; 2) aralashtirilmagan, toza, sof, asl; ~ **gold** sof oltin; **2.** *n* 1) *fiz.* qattiq qism; 2) *mat.* jism; **regular** ~ geometrik jism.
solidarity [ˌsɔlɪˈdærətɪ] *n* birdamlik, yakdillik, hamfikrlik, fikrdoshlik.
solidify [səˈlɪdɪfaɪ] *v* qotmoq, qattiqlashmoq, qattiq holga kelmoq.
solidity [səˈlɪdətɪ] *n* qattiqlik, mustahkamlik.
soliloquy [səˈlɪləkwɪ] *n* 1) o'zi bilan o'zi gaplashish (so'zlashish); 2) monolog (*so'zlashuvchining o'ziga yoki tinglovchilarga qaratilgan nutqi*).
solitary [ˈsɔlətərɪ] *a* yakka, yolg'iz, tanho; boshqalardan ajralgan.
solitude [ˈsɔlətju:d] *n* yolg'izlikdagi hayot, yolg'izlik, g'ariblik.
solo [ˈsəuləu] *n mus.* solo (*yakka ovoz yoki yakka soz uchun yozilgan musiqa asari va uning ijrosi*).

soloist ['səuləɪst] *n* yakka ijrochi, yakkaxon ashulachi, yakka sozanda, yakka raqqosa.
soluble ['sɔljubl] *a* eriydigan, erib ketadigan.
solution [sə'lu:ʃn] *n* 1) (*masalani*) yechish, hal etish; 2) eritma, qorishma.
solvable ['sɔlvəbl] *a* hal bo'ladigan, hal qilib (yechib) bo'ladigan.
solve [sɔlv] *v* (*masalani*) yechmoq, hal etmoq.
solvency ['sɔlvənsɪ] *n* to'lashga qodirlik (qurbi yetishlik).
solvent ['sɔlvənt] *n* eritgich, erituvchi (eritadigan suyuqlik).
sombre ['sɔmbə] *a* qorong'i, qorong'ilik (zulmat bosgan), zulmatdagi; zim-ziyo.
some [sʌm] **1.** *pron.* 1) ba'zilar, ba'zi birovlar; ayrim kishilar, kimdir; 2) ozgina, biroz, andak; **2.** *a* allaqanday, qandaydir.
somebody ['sʌmbədɪ] **1.** *pron. indef.* kimdir, birov, allakim; **2.** *n* mo'tabar zot.
somehow ['sʌmhau] *adv* bir amallab, ilojini qilib, yo'lini topib.
someone ['sʌmwʌn] = **somebody.**
someplace ['sʌmpleɪs] *adv so'zl.* biror joyda; biror yerda, qayerdadir, qayergadir, qayerda bo'lmasin.
somesault ['sʌməsɔ:lt] *n* o'mbaloq oshib sakrash.
something ['sʌmθɪŋ] *pron. indef.* nimadir, biror narsa, qandaydir bir narsa.
sometime ['sʌmtaɪm] *adv* bir kunmas, bir kun, qachon bo'lmasin, bir payti kelib.
sometimes ['sʌmtaɪmz] *adv* ba'zan, ba'zida, ba'zi vaqtda, goho, onda-sonda.
somewhat ['sʌmwɔt] *pron. indef.* nimadir, qandaydir bir narsa.
somewhere ['sʌmweə] *adv* allaqayda, qayerdadir, bir joyda.
somnambulist [sɔm'næmbjulɪst] *n* oyparast (*lunatizm kasaliga mubtalo bo'lgan, uyqusida uyg'oqdek yuraveradigan odam*).
somniferous [sɔm 'nɪfərəs] *a* uxlatadigan, uyqu keltiradigan.
somnolence, -cy ['sɔmnələns, -sɪ] *n* uyquchilik, seruyqulik, uyqudan bosh ko'tarmaslik.
son [sʌn] *n* o'g'il; **he is a true ~ of his father** u otasining xuddi o'zi (o'zginasi).
sonata [sə'nɑ:tə] *n mus.* sonata (*turli tipdagi uch-to'rt qismdan iborat musiqa asari*).
song [sɔŋ] *n* ashula, qo'shiq.
songwriter | 'sɔŋraɪtə] *n* qo'shiq yozuvchi shoir.
sonic ['sɔnɪk] *a* 1) akustikaga oid; 2) tovushga oid; tovush...
son-in-law ['sʌnɪnlɔ:] *n* kuyov (*qizining eri*).
sonny ['sʌnɪ] *n so'zl.* (*murojaatda*) o'glim, bolam, bo'tam.
sonority [sə'nɔrətɪ] *n* jarangdorlik, tiniqlik.
sonorous ['sɔnərəs] *a* 1) jaranglagan, jarangdor, tiniq, qo'ng'iroqday; 2) dabdabali uslub, bejama uslub.
soon [su:n] *adv* 1) tezda, yaqinda, tez kunda, hademay, ko'p o'tmay; **as ~ as** bilanoq, zahoti, zamon; 2) erta, barvaqt; **the ~er, the better** qancha erta bo'lsa shuncha yaxshi; **~er or later** ertami kechmi; **it's too ~ to tell what's the matter with him** unga nima bo'lganligini hozir aytish qiyin.
soot [sut] **1.** *n* qorakuya, qurum, dud, is; **2.** *v* qurum bosmoq, qurum bilan qoplanmoq; **~y** is bosgan.
sooth [su:θ] *n* haqiqat, chin, bor narsa, to'g'ri gap.
soothe [su:ð] *v* yupatmoq, ovutmoq, tinchlantirmoq, taskin bermoq.
soothing ['su:ðɪŋ] **1.** *n* tinchitmoq, tinchlantirmoq, yupatmoq, ovutmoq, taskin bermoq; **2.** *a* tinchlantiradigan, yupatadigan.
soothsayer ['su:θ,seɪə] *n* oldindan aytib beruvchi, bashorat qiluvchi, bashoratgo'y; folbin xotin.
sooty ['sutɪ] *a* qurum bosgan, qurum bilan qoplangan.
sop [sɔp] *n* bo'lak, parcha, burda, kesik.
soph [sɔf] *so'zl.* **sophomore** *dan.*
sophism ['sɔfɪzm] *n* safsata (*yuzaki qaraganda to'g'riga o'xshab ko'rinadigan, aslida esa noto'g'ri xulosa, chalg'itadigan fikr*).
sophisticated [sə 'fɪstɪkeɪtɪd] **1.** *v* buzmoq, buzib ko'rsatmoq, noto'g'ri talqin qilmoq; **2.** *a* o'tkir, sezgir; nozik, nafis.
sophistication [sə,fɪstɪ'keɪʃn] *n* nafislik, noziklik, nazokat.
sophomore ['sɔfəmɔ:] *n amer.* ikkinchi kurs talabasi.
soporific [,sɔpə'rɪfɪk] **1.** *a* narkotik, behush (karaxt) qiladigan, uxlatadigan; **2.** *n* narkotik modda, uyqu dori.
soppy ['sɔpɪ] *a* ho'l, nam, zax; nam tortgan.
soprano [sə 'prɑ:nəu] *n* (*pl* **-os** [-əuz], **-ni**) *mus.* soprano (*xotin-qizlarning eng baland ovozi va shunday ovozli xonanda*).
sorcerer ['sɔ:sərə] *n* jodugar, sehrgar, afsungar.
sorceress ['sɔ:sərəs] *n* jodugar ayol.
sordid ['sɔ:dɪd] *a* iflos, bulg'anch, loy.
sore [sɔ:] *n* 1) o'ta ta'sirchan, hissiyotga beriluvchan; 2) xasta, kasal, bemor.
sorely ['sɔlɪ] *adv* shafqatsizlik bilan, beshafqat, ayamasdan, rahm qilmasdan, rahmsizlarcha, zolimlarcha, zolimona.
soreness ['sɔ:nəs] *n* sezuvchanlik, o'ta sezgirlik; ta'sirchanlik.
sorrel ['sɔrəl] *n* otquloq, qo'ziquloq.
sorrow ['sɔrəu] *n* g'am, tashvish.
sorrowful ['sɔrəufl] *a* mahzun, qayg'uli, g'amgin, g'amli, xafa.
sorry ['sɔrɪ] *a* achingan; **to be ~** achinmoq; **I am ~** kechirasiz.
sort [sɔ:t] *n* nav, xil, tur; **of ~s** aralash; **he needs all ~s off things** unga ko'p turli narsalar kerak.
so-so ['səusəu] *a so'zl. pred.* ahamiyatsiz, unchalik ahamiyatga ega bo'lmagan, ahamiyati yo'q.
sot [sɔt] *n* tuzalmaydigan (ashaddiy) piyonista.

souffle [ˈsu:fl] *n tib.* noaniq tovush (gupillash, duk-duk urish, tepish).
soufflé [ˈsu:fleɪ] *n fr.* sufle (*tarkibida ko'pirtirilgan tuxum oqi bo'lgan konditerlik mahsuloti*).
sough I [sau] *n* shitirlash, shildirash, shitir-shitir qilish.
sough II [sau] *n* 1) suv oqadigan kanal; 2) yerning zaxini qochirish maqsadida qurilgan quvurlar tarmog'i.
sought [sɔ:t] *past., p.p.* **seek** *dan.*
soul [səul] *n* yurak, qalb, ko'ngil.
soulful [ˈsəulfl] *a* his-tuyg'uga oid, hayajonli, jo'shqin; his-tuyg'uga to'la.
sound [saund] **1.** *n* tovush, ovoz; **2.** *v* yangramoq, eshitilmoq, ovoz (tovush) chiqarmoq.
sound-film [ˈsaundfɪlm] *n* ovozli film.
soup [su:p] *n* sho'rva.
sour [ˈsauɔ] *a* achigan; ~ **milk** qatiq.
source [sɔ:s] *n* manba, bosh sabab, birinchi sabab; **reliable ~ of information** ma'lumotning ishonchli manbayi.
sourly [ˈsauəlɪ] *adv* achitib, nordon (achchiq) qilib.
sourness [ˈsauənɪs] *n* nordonlik, achchiqlik; nordon (achchiq) ta'm.
south [sauθ] *n* janub; **~ern** janubiy.
south-east [ˌsauθˈi:st] *n* janubi-sharq, janubi-sharq tomon (taraf).
south-eastern [sauθˈi:stən] *a* janubi-sharqiy, janubi-sharqdagi.
southerly [ˈsʌðəlɪ] *a* janubga oid; janubiy.
southern [ˈsʌðn] **1.** *a* janubga oid; janubiy; **2.** *n* janublik.
southernmost [ˈsʌðənməut] *a* eng janubdagi.
southward [ˈsauθwəd] **1.** *adv* janubga; **2.** *a* dan janubga joylashgan; **3.** *n* janubga boradigan yo'l.
southwards [ˈsauθwədz] *adv* janubga.
south-west [sauθ ˈwest] *n* janubi-g'arb, janubi-g'arb tomon.
south-westerly [sauθ ˈwestəlɪ] **1.** *a* 1) dan janubiy-g'arbda joylashgan; 2) janubi-g'arbdan esadigan; **2.** *adv* janubi-g'arb tomonga.
souvenir [ˌsu:vəˈnɪə] *n fr.* esdalik, yodgorlik.
sovereign [ˈsɔvrɪn] **1.** *n* hukmdor; **2.** *a* mustaqil.
sovereignty [ˈsɔvrəntɪ] *n* teng huquqlilik, mustaqillik.
Soviet [ˈsəuvɪet] *n* sovet (*Sobiq Sovet Sotsialistik Respublikalar Ittifoqidagi davlatlar hokimiyati organi*); ~ **Union** Sovet Ittifoqi.
sow [səu] *v* (**sowed** [-d]; **sown, sowed**) ekmoq, sochmoq, sepmoq.
sower [ˈsəuə] *n* urug' sepuvchi, urug' sochuvchi.
sowing-machine [ˈsəuɪŋməˌʃi:n] *n* seyalka.
sown [səun] *p. p.* **sow** *dan.*
spa [spɑ:] *n* 1) mineral suvli kurort; 2) mineral suvlar bulog'i.
space [speɪs] *n* 1) fazo, bo'shliq; 2) olam, koinot.
spacecraft [ˈspeɪskrɑ:ft] *n* kosmik kema.
spaceman [ˈspeɪsmæn] *n* kosmonavt; kosmosda (kosmosga) uchuvchi.
spaceship [ˈspeɪsʃɪp] *n* kosmik kema.
spacious [ˈspeɪʃəs] *a* keng, erkin, bepoyon.
spaciousness [ˈspeɪʃəsnəs] *n* 1) kenglik, yalanglik; 2) erkinlik, imkoniyat, yayrab yashash.
spade [speɪd] **1.** *n* kurak, belkurak; **2.** *v* kurak bilan qazimoq.
span [spæn] *n* 1) yaqin masofa; 2) vaqt oralig'i; 3) qarich (= 9 duym).
spangle [ˈspæŋgl] *n* yaltiroq tangachalar.
Spanish [ˈspænɪʃ] **1.** *n* 1) ispaniyalik; 2) ispan tili; **2.** *a* Ispaniya va ispanlarga oid.
spank [spæŋk] *n* tarsaki, shapaloq.
spanner [ˈspænə] *n* gayka kaliti.
spar I [spɑ:] *n* shpat (*silikatlar jinsiga mansub mineral*).
spar II [spɑ:] *v* boks tushmoq, boks bilan shug'ullanmoq.
spare [speə] **1.** *v* tejamoq; iqtisod qilmoq; **2.** *a* bo'sh; ~ **time** bo'sh vaqt.
sparing [ˈspeərɪŋ] *a* kam, ozgina, yetarli bo'lmagan.
spark [spɑ:k] **1.** *n* uchqun; **2.** *v* chaqnamoq, tovlanmoq.
sparkle [ˈspɑ:kl] *v* 1) uchqunlamoq; 2) porlamoq.
sparklet [ˈspɑ:klət] *n* mayda uchqun, uchquncha, zarracha.
sparkling [ˈspɑ:klɪŋ] **1.** *v* chaqnamoq, tovlanmoq, jilvalanmoq, tovlanib turmoq; **2.** *a* yaltiroq, porloq, yorqin, yarqiragan.
sparrow [ˈspærəu] *n* chumchuq.
sparse [spɑ:s] *a* siyrak, siyraklashib qolgan; sochib tashlangan, yoyib tashlangan.
sparseness [ˈspɑ:snəs] *n* ozlik, kamlik, yetarli emaslik, tanqislik.
Spartan [ˈspɑ:tn] *n* Sparta davlatiga oid.
spasm [ˈspæzm] *n* siqilish, qisilish, qisilib qolish.
spastic [ˈspæstɪk] *n tib.* falaj (shol) bo'lgan kishi.
spat I [spæt] *n* biroz aytishib qolish, oradan gap o'tish, araz, gina.
spat II [spæt] *past., p. p.* **spit** *dan.*
spate [speɪt] *n* (*to'satdan*) daryoning toshishi.
spatial [ˈspeɪʃl] *a* makonga oid; joy, makon.
spatter [ˈspætə] *n* tomchi, qatra.
spawn [spɔ:n] **1.** *n* 1) uvuldiriq (*baliq, baqa va h.k. tuxumi, urug'i*); 2) nasl, avlod, urug'; **2.** *v* urug' tashlamoq.
speak [spi:k] *v* (**spoke, spake; spoken**) gapirmoq, so'zlab aytmoq.
speaker [ˈspi:kə] *n* notiq, gapga usta odam, nutq so'zlovchi.
spear [spɪə] *n* nayza.
spearhead [ˈspɪəhed] *n* o'tkir uch.
spearmint [ˈspɪəmɪnt] *n bot.* sada yalpiz.
special [ˈspeʃəl] *a* maxsus, alohida.
specialist [ˈspeʃəlɪst] *n* mutaxassis.
speciality [ˌspeʃɪˈælətɪ] *n* soha, ixtisos.

specialization [ˌspeʃəlaɪˈzeɪʃn] *n* biror ixtisos (soha) bo'yicha tayyorlash, ixtisos (hunar) olish.
specialize [ˈspeʃəlaɪz] *v* biror soha bo'yicha mutaxassis bo'lib yetishmoq, ixtisoslashmoq; hunar olmoq.
specially [ˈspeʃəlɪ] *adv* 1) ixtisoslashtirib, maxsus, alohida; 2) xususan, ayniqsa, eng avval, avvalo.
specialized [ˈspeʃəlaɪzd] *a* ixtisoslashtirilgan.
specialty [ˈspəʃəltɪ] *n* 1) o'ziga xos xususiyat, fazilat; 2) soha, ixtisos.
species [ˈspi:ʃi:z] *n biol.* tur (*hayvonlar filosofiyasida*).
specific [spəˈsɪfɪk] *a* o'ziga xos, alohida, maxsus, aniq.
specifically [spə ˈsɪfɪkəlɪ] *adv* alohida, maxsus.
specification [ˌspesɪfɪˈkeɪʃn] *n* o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash.
specify [ˈspesəfaɪ] *v* aniq belgilamoq,o'rnatmoq.
specimen [ˈspesəmɪn] *n* nusxa, namuna.
specious [ˈspi:ʃəs] *a* durust, tuzuk, yaxshi, qulay; ~ **excuse** durust bahona; qulay (o'rinli) bahona.
speck I [spek] *n* kichkina dog', dog'cha.
speck II [spek] *n* dengiz hayvonlarining eritilgan moyi.
specs [speks] *n pl so'zl.* ko'zoynak.
spectacle [ˈspektəkl] *n* 1) spektakl, tomosha; 2) *pl* ko'zoynak; 3) manzara, ko'rinish.
spectacled [ˈspektəkld] *a* 1) ko'zoynak taqqan, ko'zoynakli; 2) ko'zoynakli (*ilon haqida*).
spectacles [ˈspektəklz] *n* ko'zoynak.
spectacular [spekˈtækjulə] *a* kuchli taassurot tug'diradigan, ta'sirchan; basavlat, kelishgan.
spectator [spekˈteɪtə] *n* tomoshabin.
spectral [ˈspektrəl] *a* 1) xayolda (tasavvurda) ko'rinadigan, xayoldagi, xayoliy; 2) *fiz.* spektrga oid; spektral.
spectre [ˈspektə] *n* xayoliy sharpa, ko'lanka, arvoh; xayolda ko'rinish.
spectrum [ˈspektrəm] *n* (*pl* **-ra**) *fiz.* 1) spektr; 2) *attr.* spektrga oid; spectral; ~ **analysis** spektral analiz.
speculate [ˈspekjuleɪt] *v* 1) o'ylamoq, fikr qilmoq; 2) olibsotarlik qilmoq, chayqovchilik qilmoq.
speculation [ˌspekjuˈleɪʃn] *n* o'ylash, fikr yuritish, mulohaza qilish.
speculator [ˈspekjuleɪtə] *n* 1) olibsotar, chayqovchi; 2) mutafakkir, chuqur fikr qiluvchi, fikrlovchi.
sped [sped] *v* shoshmoq, shoshilmoq, shoshilishmoq, oshiqmoq, shoshqaloqlik qilmoq.
speech [spi:tʃ] *n* nutq, so'zlash (gapirish) qobiliyati.
speechless [ˈspi:tʃlɪs] *a* soqov, gung, tilsiz; 2) indamas, gapirmas.
speed [spi:d] **1.** *v* tezlatmoq, shoshilmoq; **2.** *n* 1) tezlik, jadallik; 2) ildamlik; chaqqonlik; **with all** ~ shoshma-shosharlik bilan.
speed-boat [ˈspi:dbəut] *n* tezyurar kater.
speeding [ˈspi:dɪŋ] *v* shoshmoq, shoshilmoq, oshiqmoq, shoshqaloqlik qilmoq.
speed-limit [ˈspi:dˌlɪmɪt] *n* ijozat (ruxsat) berilgan tezlik.
speedway [ˈspi:dweɪ] *n* 1) katta tezlikda yursa bo'ladigan yo'l; 2) poyga uchun mo'ljallangan maxsus maydoncha.
speedy [ˈspi:dɪ] *a* tez yuradigan, tezyurar; tezlik bilan bo'ladigan, tez, ildam, jadal.
spell I [spel] *n* 1) afsun, sehr, jodu, duo, kuf-suf; 2) dilrabolik, yoqimlilik, jozibadorlik.
spell II [spel] *v* (**spelt, spelled** [-d]) so'zlarini harflab yozmoq *yoki* talaffuz qilmoq.
spellbound [ˈspelbaund] **1.** *v* sehrlamoq, sehrjodu qilmoq, sehrlab qo'ymoq; **2.** *a* sehrlangan.
spelling [ˈspelɪŋ] *n* imlo, yozish qoidasi; orfografiya.
spelling-book [ˈspelɪŋbuk] *n* imlo ma'lumotnomasi.
spelt [spelt] *past., p.p.* **spell II** *dan.*
spend [spend] *v* 1) sarflamoq; 2) (*vaqtni*) o'tkazmoq.
spendthrift [ˈspendθrɪft] *n* isrofgar, isrof qiluvchi, behuda sarflovchi, sovurib yuboruvchi.
spent [spent] **1.** *a* ozib (oriqlab) ketgan, ozib-to'zgan; **2.** *v* sarflamoq, sarf qilmoq.
sperm [spə:m] *n fiziol.* 1) sperma, maniy; 2) spermatozoid, pusht (*erkak urug'ining hujayrasi*).
sphere [sfɪə] *n* 1) doira; 2) shar; 3) globus; 4) sayyora; 5) soha.
spherical [ˈsferɪkl] *a* shar shaklidagi, sharsimon, dumaloq, yumaloq.
spice [spaɪs] *n* dorivor, ziravor.
spicy [ˈspaɪsɪ] *a* o'tkir; xushta'm, xushbo'y.
spider [ˈspaɪdə] *n* o'rgimchak.
spigot [ˈspɪgət] *n tex.* vtulka.
spike [spaɪk] **1.** *n* 1) o'tkir uch; 2) (*etikning tagiga qoqadigan*) mix; **2.** *v* mix qoqmoq.
spiky [ˈspaɪkɪ] *a* 1) uchi o'tkir, uchli, qirrali, qirra, nayzador; 2) ming'ir-ming'ir, mijg'ov, janjalkash.
spill [spɪl] *v* (**spilt, spilled**) to'kmoq, to'kib yubormoq; **to ~ blood** qon to'kmoq.
spillikin [ˈspɪlɪkɪn] *pl* mayda-chuyda, arzimagan narsalar bilan ovora bo'lish.
spilt [ˈspɪlt] *v* to'kmoq, to'kib yubormoq; to'kilmoq, to'kib ketmoq.
spin [spɪn] *v* o'rmoq, o'ramoq; buramoq; **~e** *anat.* umurtqa; **~ner** yigiruvchi, yigiradigan ishchi.
spinach [ˈspɪnɪdʒ] *n* ismaloq (*o'simlik*).
spinal [ˈspaɪnl] *a ant.* orqadagi, orqa...; ~ **column** umurtqa; ~ **cord** orqa miya; ~ **fluid** orqa miya suyuqligi.
spindle [ˈspɪndl] *v* cho'zmoq, uzaytirmoq, yoymoq.
spine [spaɪn] *n anat.* umurtqa.
spineless [ˈspaɪnləs] *a zool.* umurtqasiz; umurtqa suyagi yo'q.

spinster [ˈspɪnstə] *n* qari qiz.
spiny [ˈspaɪnɪ] *a* 1) tikandek sanchiladigan, botadigan, o'tkir; 2) qiyin, mushkul, og'ir, tang.
spiral [ˈspaɪrəl] *n* spiral, burama chiziq; **heating ~** isitadigan burama chiziq shaklidagi sim.
spire I [ˈspaɪə] *n* gumbaz, minora, tom kabilarning nayzasimon ishlangan usti, uchi.
spire II [ˈspaɪə] *n* 1) spiral; burama chiziq; 2) bir buram, bir o'ram.
spirit [ˈspɪrɪt] **1.** *n* ruh, kayfiyat; **2.** *v* ruhlantirmoq, ilhomlantirmoq, ruhini ko'tarmoq, g'ayratini oshirmoq.
spirited [ˈspɪrɪtɪd] *a* dadil, mardonavor; jasur, yurakli.
spirit-lamp [ˈspɪrɪtlæmp] *n* spirt lampa.
spiritless [ˈspɪrɪtləs] *a* 1) jonsiz, o'lik; 2) so'ligan, so'lib qolgan.
spiritual [ˈspɪrɪtʃuəl] *a* 1) ma'naviy, aqliy, ruhiy; 2) ruhoniy, diniy.
spiritualism [ˈspɪrɪtʃuəlɪzm] *n* spirtualizm (*ruhni voqelikning birinchi asosi, materiyaga bog'liq bo'lmagan holda mavjud deb biluvchi idealistik falsafiy dunyoqarash*).
spirituous [ˈspɪrɪtʃuəs] *a* spirtli ichimlik.
spit [spɪt] *v* tupurmoq, tuflamoq.
spite [spaɪt] *n* adovat, xusumat, gina; g'azab, qahr, achchiq.
spiteful [ˈspaɪtfl] *a* yomon, yovuz; serjahl, badjahl, darg'azab; ichi qora.
spittle [ˈspɪtl] *n* so'lak, so'lakay; tupuk, tupurish.
spittoon [spɪ ˈtu:n] *n* tupdon.
spiv [spɪv] *n* olibsotar, chayqovchi.
splash [splæʃ] *v* sochmoq, sachratmoq, purkamoq, sepmoq.
splatter [ˈsplætə] *v* chayqalmoq, to'lqinlanib urilmoq; shildiramoq.
splay [spleɪ] *n* qiyalik, nishab, yonbag'ir.
spleen [spli:n] *n* 1) *anat.* qorajigar, taloq; 2) adovat, xusumat, gina, qahr.
splendid [ˈsplendɪd] *a* hashamatli; dabdabali.
splendour [ˈsplendə] *a* 1) yaltirash, yarqirash, chaqnash; shu'la; jilva; 2) dabdaba, hashamat, savlat, saltanat, ko'rkamlik.
splenetic [splə ˈnetɪk] *a* 1) qorajigarga (taloqqa) oid; qorajigar, taloq...; 2) tez achchiqlanadigan, serjahl.
splint [splɪnt] *n* 1) parcha, bo'lak, siniq; 2) zirapcha; 3) payraxa, tarasha; 4) parchalanadigan.
split [splɪt] **1.** *n* yorilish, tilinish, tilim-tilim bo'lish; **2.** *v* yorilmoq, tilinmoq.
splitting [ˈsplɪtɪŋ] **1.** *v* yormoq, maydalamoq, parchalamoq; **2.** *a* 1) qattiq, o'tkir, kuchli, quloqni teshadigan, chinqiroq; 2) boshni aylantiradigan, gangitadigan.
splodge [splɔdʒ] = **splotch.**
splutter [ˈsplʌtə] *n* noaniq gapirish.
spoil [spɔɪl] *v* buzmoq, aynitmoq, yomonlashtirmoq.
spoiled [ˈspɔɪlɪd] *a* buzilgan, ishdan chiqqan.
spoils [ˈspɔɪlz] *n* qo'lga kiritilgan narsa.
spoke I [spəuk] *v* (*g'ildirakda*) kegay.
spoke II [spəuk] *past.* **speak** *dan.*
spoken [ˈspəukən] *a* og'zaki; **~ language** og'zaki nutq.
spokesman [ˈspəuksmən] *n* 1) vakil; 2) nutq so'zlovchi, ma'ruzachi.
sponge [spʌndʒ] *n* gubka (*mochalka yoki qozon sochiq vazifasida ishlatiladigan buyum*).
sponger [ˈspʌndʒə] *n* tekinxo'r, haromtovoq.
sponsor [ˈspɔnsə] *n* 1) homiy; 2) kafil, kafil bo'lgan kishi; **~ship** homiylik, kafillik.
spontaneity [ˌspɔntə ˈni:ətɪ] *n* o'z-o'zidan sodir bo'lish, beixtiyor yuz berish; g'ayriixtiyoriylik.
spontaneous [spɔn ˈteɪnɪəs] *a* o'z-o'zidan sodir bo'ladigan, beixtiyor yuz beradigan, g'ayriixtiyoriy, beixtiyor.
spook [spu:k] *n* xayoliy sharpa, ko'lanka, arvoh; xayolda ko'rinish.
spooky [ˈspu:kɪ] *a* dahshatli, vahimali, qo'rqinchli, mudhish, dahshatga (vahimaga) soladigan.
spool [spu:l] **1.** *n* g'altak, kalava; **2.** *v* kalava qilmoq, (g'altakka) o'rab qo'ymoq.
spoon [spu:n] **1.** *n* qoshiq; **2.** *v* qoshiqni botirib olmoq.
spoonful [ˈspu:nful] *n* bir qoshiq to'la narsa.
spoony [ˈspu:nɪ] *a so'zl.* 1) aqli noqis, miyasi yo'q, esi past, kaltafahm; 2) sevib (oshiq bo'lib) qolgan.
spoor [spuə] **1.** *n* iz; **2.** *v* izma-iz bormoq.
sporadic [spə ˈrædɪk] *a* onda-sonda (ahyon-ahyonda) bo'ladigan, tasodifiy.
spore [spɔ:] *n biol.* spora (*gulsiz o'simliklarning va ba'zi bir xujayrali jonivorlarning urchish organi*).
sport [spɔ:t] *n* sport; sport o'yinlari.
sporting [ˈspɔ:tɪŋ] *a* sportga oid; ovga oid.
sportsman [ˈspɔ:tsmən] *n* sportchi.
sportsmanlike [ˈspɔ:tsmənlaɪk] *a* sportchilarga xos bo'lgan.
sportswoman [ˈspɔ:ts,wumən] *n* sportchi ayol.
spot [spɔt] **1.** *n* 1) dog'; 2) qashqa; 3) isnod; 4) joy, nuqta; **2.** *v* 1) dog' qilmoq; 2) isnod keltirmoq, nomini bulg'amoq, obro'sini to'kmoq.
spotless [ˈspɔtləs] *a* toza, beg'ubor.
spotlight [ˈspɔtlaɪt] **1.** *n* 1) *teatr.* yoritish proyektori; 2) siljiydigan fara; **2.** *v* yoritmoq.
spotty [ˈspɔtɪ] *a* 1) xol-xol, olachipor; 2) biroz husnbuzar chiqqan, biroz bo'jama toshgan; 3) bir xil bo'lmagan, turli-tuman.
spouse [spaus] *n* 1) er, rafiq, kuyov; 2) *pl* er-xotin, kelin-kuyov.
spout [spaut] *n* jo'mrak, tumshuq, burun; bo'g'iz, og'iz.
sprain [spreɪn] **1.** *n* paylarning shikastlanishi; **2.** *v* payni cho'zib yubormoq.

sprang [spræŋ] *v* sakramoq, irg'imoq, sapchimoq; **to take a ~** sakramoq.
sprat [spræt] *n* kilka (*seldlar oilasiga mansub mayda baliq*).
sprawl [sprɔ:l] *n* beso'naqay (qo'pol) harakat.
sprawling ['sprɔ:lɪŋ] *v* cho'zmoq, cho'zib kengaytirmoq, katta qilmoq; uzaymoq, cho'zilmoq.
spray I [spreɪ] *n* novda, shox, butoq.
spray II [spreɪ] *n* (*sachragan, changday to'zib yurgan*) suv zarralari.
spread I [spred] *v* (**spread**) avj oldirmoq, tarqatmoq, yoymoq, cho'zmoq.
spread II [spred] *n* tarqatish, yoyish.
spreadsheet ['spredʃi:t] *n* katta formatli jadval.
spree [spri:] *n* quvnoq kayfiyat, quvnoqlik, xushchaqchaqlik.
sprig [sprɪg] *n* shox, novda.
sprightly ['spraɪtlɪ] *a* ruhi ko'tarilgan, kayfi chog', hayajonli, bezovta.
spring I [sprɪŋ] *n* bahor.
spring II [sprɪŋ] **1.** *n* 1) sakrash, irg'ish; 2) boshlanish; **2.** *v* (**sprang, sprung**) 1) sakramoq, irg'imoq; 2) boshlanmoq.
spring-board ['sprɪŋbɔ:d] *n* 1) tramplin (sakrashda balandroq ko'tarilishga yordam beradigan moslama); 2) *harb.* harbiy operatsiyaga tayyorgarlik ko'riladigan maydon.
sprinkle ['sprɪŋkl] *v* sochmoq, sachratmoq, purkamoq, sepmoq.
sprinkler ['sprɪŋklə] *n* sochqich, sochuvchi apparat.
sprint [sprɪnt] **1.** *n sport.* yaqin masofalarga yugurish, suzish sporti; **2.** *v* yaqin masofaga yugurmoq, suzmoq.
sprite [spraɪt] *n* sehrlab qo'yadigan (maftun qiladigan) go'zal ayol; pari (*G'arbiy Yevropa mifologiyasida*).
sprout [spraut] *n* novda, nihol, kurtak; **~s** maysa.
spruce I [spru:s] *a* olifta, bashang, fason; oliftanamo.
spruce II [spru:s] *n* qoraqarag'ay.
sprung I [sprʌŋ] *a* yorilgan, darz ketgan (*raketa haqida*).
sprung II [sprʌŋ] *p. p.* **spring II, 2.** *dan.*
spry [spraɪ] *n* tirik, jonli.
spud [spʌd] *n* 1) ketmonga o'xshagan asbob; 2) *so'zl.* kartoshka donasi; bir dona kartoshka.
spume [spju:m] **1.** *n* ko'pik; **2.** *v* ko'pirtirmoq, ko'piklantirmoq.
spun [spʌn] *v* yigirmoq, eshmoq, pishitmoq, ko'piklantirmoq.
spunk [spʌŋk] *n* 1) *so'zl.* olov, alanga; 2) mardlik, jasurlik; 3) pilik, qovuq (*chaqmoq uchqunidan tutab, o't oladigan paxta kabi narsalar*).
spur [spə:] *n* shpora (*otliqlar etigining poshnasiga taqiladigan temir tepki*).
spurious ['spjuərəs] *a* soxta, qalbaki, yasama, yolg'ondakam.
spurn [spə:n] *v* oyoq bilan itarib yubormoq, turtib yubormoq.
spurt [spə:t] *n* ingichka suyuqlik *yoki* gaz oqimi; jildiragan (tizillagan) oqim.
sputter ['spʌtə] *n* 1) shovqin-suron, shov-shuv, qiy-chuv; 2) vishillash, pishillash, vijillash, vij-vij.
spy [spaɪ] **1.** *n* josus; maxfiy ayg'oqchi; **2.** *v* ayg'oqchilik qilmoq, josuslik qilmoq.
spyglass ['spaɪglɑ:s] *n* kuzatish trubasi (uzun durbin).
squabble ['skwɔbl] *n* o'zaro aytishib qolish, dahanaki jang qilish, bir-birini so'kish, so'kishish.
squad [skwɔd] **1.** *n* 1) *harb.* guruh, to'da; 2) ishchilar brigadasi.
squadron ['skwɔdrən] *n harb.* eskadron (*otliq-askarlar bo'linmasi*).
squalid ['skwɔlɪd] *a* iflos, bulg'anch; qarovsiz (qolgan), tashlandiq.
squall I [skwɔ:l] *n* baqiriq, qichqiriq, chinqiriq, faryod, dod-voy.
squall II [skwɔ:l] *n* 1) qattiq (shiddatli) shamol, bo'ron; 2) *so'zl.* to'lqinlanish, mavj urish, to'lqin.
squalor ['skwɔlə] *n* 1) kir, chang-chung, xas-cho'p; 2) qashshoqlik, kambag'allik.
squander ['skwɔndə] *v* sovurmoq, isrof qilmoq, o'rinsiz sarf qilmoq, behuda ketkizmoq.
square I [skwɛə] *n* 1) kvadrat; 2) to'g'riburchak.
square II [skwɛə] *a* 1) kvadrat shaklidagi; 2) to'g'ri burchakli.
square-built [ˌskwɛə'bɪlt] *a* keng yelkali, yelkasi keng.
squash I [skwɔʃ] *v* ezmoq, ezib yubormoq, pachoq qilmoq.
squash II [skwɔʃ] *n bot.* qovoq, oshqovoq (*o'simlik va mevasi*).
squat [skwɔt] **1.** *n* 1) cho'kka tushib o'tirish; 2) in, uya.
squaw [skwɔ:] *n* indeyeslar (*Amerikaning qadimiy tub aholisi*).
squawk [skwɔ:k] *v* qattiq qichqirmoq, chinqirib baqirmoq, chinqirmoq (*parrandalar haqida*).
squeak [skwi:k] *n* 1) chiyillash, chirqillash; chiyillagan (chirqiragan) ovoz; 2) g'ijirlagan tovush, g'ichir-g'ichir.
squeal [skwi:l] *n* 1) chiyillash, chinqillash; chiyillagan ovoz, chinqiriq; 2) chaqimchi, zimdan xabar (gap) tashuvchi.
squeamish ['skwi:mɪʃ] *a* ko'ngil aynishga duchor bo'lgan.
squeeze [skwi:z] **1.** *n* siqish, qisish; **2.** *v* siqmoq, qismoq; **to ~ smb's hand** kimningdir qo'lini siqmoq.
squelch [skweltʃ] *v* shalop-shulup qilmoq, pilchillamoq; **to ~ through the mud** loyda pilchillatib yurmoq.

squib [skwɪb] *n* 1) mushakbozlikning hazilnamo bir turi; 2) epigramma (*qisqacha hajviy she'r*).
squiggle [ˈskwɪgəl] *n* aji-buji narsa, kirdi-chiqdi belgi; shikast xat; chizma-chiziq.
squint [skwɪnt] *n* g'ilaylik.
squint-eyed [ˌskwɪnt ˈaɪd] *a* g'ilay; ko'zi qisiq.
squire [ˈskwaɪə] *n* zamindor, katta yer egasi.
squirm [skwɔ:m] *v* buralib-buralib ketmoq; to'lg'anmoq.
squirrel [ˈskwɪrəl] *n* olmaxon.
squirt [skwə:t] *n* 1) ingichka suyuqlik *yoki* gaz oqimi; 2) shpris (*badanga dori yuboradigan asbob*).
stab [stæb] **1.** *n* 1) zarba berish (*uchi o'tkir qurol bilan*); 2) to'satdan paydo bo'lgan qattiq og'riq; **2.** *v* 1) sanchmoq, tiqmoq.
stability [stəˈbɪlətɪ] *n* turg'unlik, chidamlilik, bardoshlilik, barqarorlik.
stabilization [ˌsteɪbəlaɪˈzeɪʃn] *n* mustahkamlash, barqaror (mustahkam) qilish.
stabilize [ˈsteɪbəlaɪz] *v* mustahkam (barqaror) qilmoq, mustahkamlamoq; barqaror vaziyat barpo etmoq.
stabilizer [ˈsteɪbəlaɪzə] *n av.* stabilizator (*stabillashtiruvchi – bir xil ishlashni ta'minlovchi qurilmalar, moslamalar, vositalar nomi*).
stable I [ˈsteɪbl] *a* mustahkam, chidamli, bardoshli, pishiq.
stable II [ˈsteɪbl] *n* otxona, og'il, molxona.
stabling [ˈsteɪblɪŋ] *n* iflos joy, otxona; og'ilxona.
stack [stæk] **1.** *n* g'aram, to'p; **2.** *v* g'aramlamoq, to'plamoq.
stacked [stækt] *a* to'plangan, g'aramlangan, bir joyga to'plab qo'yilgan.
stadium [ˈsteɪdɪəm] *n* stadion, sport maydoni, o'yingoh.
staff [stɑ:f] *n* xodim, ishchi xodim; **~ room** xodimlar (ishchilar) xonasi.
stag [stæg] *n* 1) erkak bug'u; 2) ho'kiz.
stage [steɪdʒ] **1.** *n* sahna; **2.** *v* sahnalashtirmoq; **~manager** rejissor.
stager [ˈsteɪdʒə] *n* : **an old ~** tajribali, ko'pni ko'rgan odam.
stagger [ˈstægə] *n* qimirlash, liqillash, silkinish.
stagnant [ˈstægnənt] *a* 1) oqmaydigan; ko'lmak suv; 2) qotib qolgan; nodon; orqada qolgan; 3) faoliyatsiz, sust, harakatsiz.
stagnate [stægˈneɪt] *v* 1) turib qolmoq, turib qolib buzilmoq, aynimoq (*suv haqida*); 2) qotib qolmoq, faoliyatini to'xtatmoq.
stagnation [stægˈneɪʃn] *n* 1) turg'unlik, yurishmay qolish, zavol; 2) chirish, chiriyboshlash.
stag night [ˈstæg,naɪt] = **stag-party.**
stag-party [ˈstæg,pɑ:tɪ] *n* bo'ydoqlar kechasi (oqshomi, o'tirishi).
staid [steɪd] *a* og'ir, vazmin, fe'li yaxshi; ijobiy.
stain [steɪn] **1.** *n* 1) dog'; 2) isnod, bo'yoq; **2.** *v* 1) bulg'amoq; 2) isnod keltirmoq; 3) bo'yamoq.
stair [steə] *n* 1) zinapoya, pog'ona; 2) narvon, shoti; zina, pillapoya.
staircase [ˈsteəkeɪs] *n* 1) zina, pillapoya; 2) zina xonasi (*katta binolarda*).
stake [steɪk] *n* 1) qoziq; 2) stolba, ustun.
stale [steɪl] *a* 1) eskirgan, buzilgan, aynigan; **~ bread** qotgan non; 2) dim, dam, bo'g'iq, nafas qaytaradigan, og'ir; **~ air** nafasni qaytaradigan og'ir havo.
stalemate [ˈsteɪlmeɪt] *n* ilojsiz, mushkul ahvol.
stalk I [stɔ:k] *n* 1) dasta, band, sop; **cabbage ~** karam o'zagi; 2) *bot.* tana, oyoq, poya.
stalk II [stɔ:k] *n* siydik, peshob (*hayvonlarda*).
stalking-horse [ˈstɔ:kɪŋhɔ:s] *n* bahona, vaj.
stall [stɔ:l] *n* 1) otxonadagi (og'il *yoki* molxonadagi) har bir alohida bo'lma, katak; 2) do'kon, do'koncha.
stallion [ˈstælјən] *n* ayg'ir, ayg'ir ot.
stalwart [ˈstɔ:lwət] *n* 1) sodiq izdosh; 2) sog'lig'i mustahkam bo'lgan kishi.
stamen [ˈsteɪmen] *n bot.* changchi, otalik (*o'simlik gulida*).
stamina [ˈstæmɪnə] *n* chidamlilik, bardoshlik, toqatlilik; sabr, bardosh.
stammer [ˈstæmə] **1.** *n* duduqlanish, soqovlanish; **2.** *v* duduqlanmoq, soqovlanmoq.
stamp [stæmp] **1.** *n* 1) tamg'a; muhr; 2) shtamp; 3) marka; **2.** *v* 1) bosmoq (*shtamp, muhr*); 2) marka yopishtirmoq.
stamp-duty [ˈstæmp,dju:tɪ] *n* davlat yig'imi, marka solig'i.
stamped [stæmpt] *a* 1) marka yopishtirilgan; 2) muhrlangan.
stampede [stæmˈpi:d] *n* sarosimaga tushib qochish (chekinish).
stance [stæns] *n* ijtimoiy sharoit, ahvol.
stanch I [stɑ:ntʃ] *v* qonni (qon ketishini) to'xtatmoq.
stanch II [stɑ:ntʃ] *a* sodiq, ishonchli, chin, vafodor, vafoli.
stanchion [ˈstɑ:nʃən] *n* tirgak, poya, ustun, ustuncha.
stand [stænd] **1.** *n* asos; mavqe, o'rin; nuqtayi nazar; **2.** *v* (**stood**) turmoq, tik (tikka) turmoq.
standard [ˈstændəd] *n* 1) qolip, andaza; 2) qat'iy belgilangan o'lcham, me'yor.
standard-bearer [ˈstændəd,beərə] *n* 1) bayroqdor, tug'dor; 2) boshliq, sardor, rahnamo.
standardization [ˌstændədaɪˈzeɪʃn] *n* standartlash, bir standartga solish (keltirish), bir standartda tayyorlash.
standardize [ˈstændədaɪz] *v* standartlamoq, bir standartga solmoq (keltirmoq), bir standartda tayyorlamoq.
stand-by [ˈstændbaɪ] *n* ishonchli (mustahkam) tayanch.
standing [ˈstændɪŋ] **1.** *pres. p.* **stand 2.** *dan*; **2.** *n* davom etish (cho'zilish) muddati, uzunlik, uzoqlik.

standpoint [ˈstændpɔɪnt] *n* fikr, qarash, nuqtayi nazar.
standstill [ˈstændstɪl] *n* to'xtalish, harakatsizlik, faoliyatsizlik, bekor turish.
stand-up [ˈstændʌp] *a* tik turadigan, o'zi turadigan, tik; ~ **collar** tik (turadigan) yoqa.
stank [stæŋk] *v* sasimoq, sassiq hid chiqarmoq; sasitmoq.
staple I [ˈsteɪpl] *n* band, halqa, tutqich, dasta (*chelak, sandiq va h.k. da*).
staple II [ˈsteɪpl] *n* xom mol, xom ashyo.
star [stɑ:] *n* 1) yulduz; 2) *ko'chm.* yulduz (*dong'i ketgan eng mashhur artist, o'yinchi va b.*).
starboard [ˈstɑ:bəd] *n dengiz.* o'ng bort (*kemada*).
starch [stɑ:tʃ] *n* 1) kraxmal, ohor, nishasta; 2) o'taketgan rasmiyatparastlik, rasm-rusumlarga qattiq rioya qilishlik; 3) *amer. so'zl.* tezlik, ildamlik, chaqqonlik.
stare [steə] **1.** *n* tikilib qarash, diqqat bilan qarash; **2.** *v* tikilib qaramoq, diqqat bilan qaramoq.
stark [stɑ:k] *a* 1) muzlab qotib qolgan; 2) to'liq, to'la, butunlay, mutlaqo; ~ **nonsense** g'irt bema'nilik.
starling I [ˈstɑ:lɪŋ] *n* chug'urchiq.
starling II [ˈstɑ:lɪŋ] *n* 1) suv keskich (*kemaning tumshug'i*); 2) muzkesar kema.
starry [ˈstɑ:rɪ] *a* 1) yulduzga oid; yulduzli; 2) yorug', yorqin, charaqlagan.
start [stɑ:t] *n* 1) jo'natish, yuborish; 2) boshi, avvali; **2.** *v* 1) jo'natmoq, yubormoq; 2) boshlamoq.
starter [ˈstɑ:tə] *n sport.* start beruvchi kishi.
startle [ˈstɑ:tl] *n* qo'rqish, cho'chish, hurkish; qo'rquv, vahima.
starvation [stɑ:ˈveɪʃn] *n* 1) ochlik, och qolish; 2) ochlikdan o'lish.
starve [stɑ:v] *v* ochlikdan o'lmoq, och qolmoq.
starveling [ˈstɑ:vlɪŋ] *n* holdan toygan, ozib ketgan, behol, bemajol.
state I [steɪt] **1.** *n* holat, ahvol; vaziyat; **2.** *v* tasdiqlamoq, bildirmoq, bayon etmoq.
state II [steɪt] *n* davlat, shtat.
statement [ˈsteɪtmənt] *n* 1) tasdiqlash, bayonot; 2) rasmiy hisobot.
state-room [ˈsteɪtru:m] *n* 1) asosiy zal; 2) bezatilgan zal; 3) alohida bo'lma.
statesman [ˈsteɪtsmən] *n* davlat arbobi.
static(al) [ˈstætɪk(əl)] *a* statikaga oid; statik; muvozanat (turg'un) holatidagi, ko'chmaydigan.
station [ˈsteɪʃn] *n* 1) stansiya; 2) vokzal.
stationary [ˈsteɪʃnərɪ] *a* 1) ko'chmas; 2) doimiy, o'zgarmas; ~ **temperature** o'zgarmas ob-havo.
stationer [ˈsteɪʃnə] *n* kanselariya buyumlarini sotuvchi kishi.
stationery [ˈsteɪʃnərɪ] *n* 1) kanselariya buyumlari; 2) pochta qog'ozi.
station-master [ˈsteɪʃn,mɑ:stə] *n temir.y.* stansiya boshlig'i.
station-wagon [ˈsteɪʃn,wægən] *n* (*orqadagi borti va o'rindiqlari qaytarib, ko'tarib qo'yiladigan*) bir nechta o'rindiqdan iborat bo'lgan yengil avtomobil.
statist [ˈsteɪtɪst] = **statistician.**
statistic(al) [stə ˈtɪstɪk(əl)] *a* statistikaga oid.
statistician [ˌstætɪˈstɪʃn] *n* statistik (*statistika bo'yicha mutaxassis*).
statistics [stəˈtɪstɪks] *n* 1) statistika, hisobot; 2) *pl* statistik ma'lumotlar.
statuary [ˈstætʃuərɪ] *n* haykaltaroshlik.
statue [ˈstætʃu:] *n* haykal.
statuesque [ˌstætʃuˈesk] *a* sovib qotgan, qotib qolgan.
statuette [ˌstætʃuˈet] *n* haykalcha.
stature [ˈstætʃə] *n* qad-qomat, gavda.
status [ˈsteɪtəs] *n yur.* status, huquqiy holat (*belgili haq-huquq*).
statute [ˈstætʃu:t] *n* nizom, tartibot; qonun.
statutory [ˈstætʃutərɪ] *a* rasmiy, rasmiylashgan, qaror topgan, belgilangan (*qonun asosida*).
staunch I [stɔ:ntʃ] *a* sodiq, ishonchli, chin, vafodor, vafoli.
staunch II [stɔ:ntʃ] *v* qon ketishini to'xtatmoq.
stave [steɪv] *n* 1) bochka taxta; 2) tirab qo'yiladigan narvonning xarisi.
stay [steɪ] **1.** *n* qolish, turish, bo'lish; **2.** *v* qolmoq, ushlanib qolmoq, turmoq; **to ~ at the lyceum** litseyda qolmoq.
stead [sted] *n* 1) joy, o'rin; **in ~ of smb.** kimningdir o'rniga 2) foyda, naf; 3) yer-mulk.
steadfast [ˈstedfɑ:st] *a* mahkam, mustahkam, puxta, qattiq, chidamli, pishiq.
steady [ˈstedɪ] *a* og'ishmaydigan, qat'iy, qattiq, mustahkam, baquvvat.
steak [steɪk] *n* 1) baliq *yoki* go'shtning bo'lagi (*qovurish uchun*); 2) bifshteks.
steal [sti:l] *v* (**stole; stolen**) o'g'irlamoq, o'g'irlik qilmoq.
stealth [stelθ] *n* : **by** ~ yashirincha, bekinib, sezdirmasdan, bildirmasdan.
stealthily [ˈstelθɪlɪ] *adv* bekinib, yashirincha, zimdan, sekin.
stealthy [ˈstelθɪ] *a* yashirin, maxfiy.
steam [sti:m] *n* bug', bug'lanish.
steamboat [ˈsti:mbəut] *n* paroxod.
steam-engine [ˈsti:m,endʒɪn] *n* bug' dvigateli.
steamer [ˈsti:mə] *n* (*bug' dvigateli bilan harakatga keladigan*) kema, paroxod.
steamship [ˈsti:mʃɪp] *n* paroxod (*bug' dvigateli o'rnatilgan kema*).
steed [sti:d] *n she'r.* ot.
steel [sti:l] *n* po'lat.
steel-clad [ˈsti:lklæd] *a* bronli, zirhli, zirh bilan qoplangan.
steelwork [ˈsti:lwə:k] *n pl* po'lat quyish zavodi.
steely [ˈsti:lɪ] *a* po'latdan qilingan.
steelyard [ˈsti:ljɑ:d] *n* qo'l tarozi.

steep I [sti:p] *a* 1) tik, tikka tushgan, tikka ko'tarilgan; 2) *so'zl.* haddan tashqari, ortiq darajadagi, o'ta; 3) mumkin bo'lmagan, ehtimoldan uzoq.
steep II [sti:p] *v* botirmoq, cho'ktirmoq.
steeple ['sti:pl] *n* gumbaz, minora, tom kabilarning nayzasimon ishlangan usti, uchi.
steeplechase ['sti:pltʃeɪs] *n* to'siqlar osha yugurish.
steeplejack ['sti:pldʒæk] *n* yuqorida (baland joylarga chiqib) ishlovchi kishi, mutaxassis.
steer I [stɪə] **1.** *v* rulni boshqarmoq; **2.** *n amer. so'zl.* shama, ishora, luqma.
steer II [stɪə] *n* axtalangan buqacha (novvos).
steerage ['stɪərɪdʒ] *n* rulni boshqarish.
steering ['stɪərɪŋ] *n* 1) boshqarish, idora qilish; 2) boshqaruvchi mexanizm.
steering committee ['stɪərɪŋkə,mɪtɪ] *n* reglamentni (ish tartibini) ishlab chiqaruvchi komissiya, boshqaruv organi.
steersman ['stɪəzmən] *n* 1) rulga oid; 2) rulda turuvchi, rulni boshqaruvchi.
stellar ['stelə] *a* yulduzga oid; yulduz... .
stem [stem] *n* 1) tana; poya; 2) qabila; urug'; 3) *gram.* o'zak, negiz; 3) sop, dasta, tutqich.
stench [stentʃ] *n* sassiq (qo'lansa, badbo'y) hid, badbo'ylik.
stenographer [ste'nɔgrəfə] *n* stenografist, stenografist ayol.
stenography [ste'nɔgrəfɪ] *n* stenografiya (*tekstni shartli belgilar bilan tez yozib olish*).
stentorian [sten'tɔ:rɪən] *a* momaqaldiroq singari, juda qattiq, juda qattiq ovoz.
step [step] **1.** *n* 1) qadam; 2) harakat; **2.** *v* 1) odimlamoq; 2) qadam qo'ymoq, qadam tashlamoq, yurmoq.
stepbrother ['step,brʌðə] *n* o'gay aka, o'gay uka.
stepdaughter ['step,dɔ:tə] *n* o'gay qiz.
stepfather ['step,fɑ:ðə] *n* o'gay ota.
stepmother ['step,mʌðə] *n* o'gay ona.
steppe [step] *n* cho'l, dasht.
stepping-stone ['stepɪŋstoun] *n* ariqdan o'tib ketish uchun uning o'rtasiga tashlangan tosh.
stepsister ['step,sɪstə] *n* o'gay opa, o'gay singil.
stepson ['stepsʌn] *n* o'gay o'g'il.
stereo ['stɪərɪəu] *n so'zl.* 1) stereoskop (*ikkita yassi tasvirni bir-biriga qo'shib bo'rttirib ko'rsatadigan optik asbob*); 2) bosma qolip.
stereotype ['sterɪətaɪp] *n* 1) bosma qolip; 2) bir qolipdalik, bir xildalik, bir taxlitdalik.
sterile ['steraɪl] *a* samarasiz, foydasiz, bekor, behuda, natijasiz.
sterility [ste'rɪlətɪ] *n* 1) naslsiz, tug'maslik; 2) unumsizlik, hosilsizlik.
sterilization [,sterəlaɪ 'zeɪʃn] *n* sterilizatsiya qilish, mikroblardan tozalash.
sterling ['stə:lɪŋ] *n* funt sterling (*Angliya pul birligi*).
stern I [stə:n] *a* talabchan, qattiq talab qiladigan, qattiqqo'l.
stern II [stə:n] *n deng.* quyruq qism, quyruq, dum, orqa.
stethoscope ['steθəskəup] *n tib.* stetoskop (*yurak urishini va o'pkani eshitib ko'radigan asbob*).
stevedore ['sti:vədɔ:] *n* portda yuk ortuvchi va tushiruvchi ishchi.
stew I [stju:] *n* dimlab pishirilgan go'sht.
stew II [stju:] *n* (*pl*) fohishaxona.
steward ['stju:əd] *n* 1) stuard (*samolyot va kemalarda: ofitsiant*); 2) boshqaruvchi (*katta xo'jalikni*).
stewardess [,stju:ə 'des] *n* stuardessa.
stew-pan ['stju:pæn] *n* yonlari tik tova.
stick [stɪk] **1.** *v* (**stuck**) 1) sanchmoq, suqmoq, tiqmoq; 2) yopishtirmoq, yelimlamoq; **2.** *n* tayoq, hassa, kaltak.
sticker ['stɪkə] *n* tikan, tikanak.
stickler ['stɪklə] *n* ashaddiy ishqivoz (muxlis, ixlosmand).
sticky ['stɪkɪ] *a* yopishqoq, yopishadigan, yelimshak.
stiff [stɪf] *n* bukilmaydigan, egilmaydigan, qotib qolgan, qattiq; **~en** qotmoq.
stiffen ['stɪfn] *v* egilmaydigan qilmoq, qotirmoq.
stiffly ['stɪflɪ] *adv* mahkam siqib, zichlab.
stiff-necked [,stɪf 'nekt] *a* o'jar, qaysar.
stiffness ['stɪfnəs] *n* 1) qattiqlik; 2) quruqlik, quriganlik.
stifle ['staɪfl] *v* bo'g'moq, bo'g'ib o'ldirmoq.
stifling ['staɪflɪŋ] *a* kishining ruhiy holati (ichki kayfiyat) bilan bog'langan, ruhiy, ma'naviy; samimiy.
stigma ['stɪgmə] *n* (*pl* **-s** [-z], **-ta**) 1) *tar.* kuydirib bosilgan tamg'a (*jinoyatchida*); 2) dog', isnod; 3) *bot.* tumshuqcha, og'izcha.
stigmatize ['stɪgmətaɪz] *v* tamg'alamoq, tamg'a bosmoq.
stile [staɪl] *n* panjara *yoki* devor orqali otish uchun qilingan zinapoya (pog'ona).
still [stɪl] **1.** *adv* haligacha, hali ham, hanuzgacha; **is your teacher ~ at the lyceum?** o'qituvchingiz hali ham litseydami? **2.** *a* harakatsiz, shovqinsiz, tinch, sokin; **3.** *v* tinchitmoq, tinchlantirmoq, yupatmoq.
still-born ['stɪlbɔ:n] *a* o'lik tug'ilgan.
stillness ['stɪlnəs] *n* 1) jimlik, jimjitlik, sukunat; 2) tinchlik, osoyishtalik.
stilt [stɪlt] *n* yog'och oyoq.
stilted ['stɪltɪd] *a* soxta, yasama, sun'iy, g'ayritabiiy.
stimulant ['stɪmjulənt] *n* 1) badanni uyg'otuvchi dori-darmon; 2) spirtli ichimlik; 3) stimul (*rag'batlantiruvchi omil, qiziqtiradigan narsa, qo'zg'atuvchi sabab*).
stimulate ['stɪmjuleɪt] *v* rag'batlantirmoq; taqdirlamoq.
stimulating ['stɪmjuleɪtɪŋ] *n* rag'batlantirish, qiziqtirish.

stimulation [ˌstɪmjuˈleɪʃn] *n* 1) qo'zg'atish, kuchaytirish; 2) rag'batlantirish.
stimulus ['stɪmjuləs] *n* (*pl* **-li**) 1) rag'batlantiruvchi omil, qiziqtiradigan narsa; 2) ta'sir qiluvchi, qo'zg'ovchi, keltirib chiqaruvchi.
sting [stɪŋ] **1.** *n* tishlash, chaqish (*hasharotlar haqida*); **2.** *v* chaqmoq, tishlamoq (*hasharotlar haqida*).
stingy ['stɪndʒɪ] *a* xasis, baxil, ziqna.
stink [stɪŋk] **1.** *n* hid; **~ly** hidli; **2.** *a* sassiq, badbo'y; **3.** *v* sasimoq.
stint [stɪnt] *n* 1) cheklash, chek qo'yish; chek, chegara; 2) belgilangan (tayinlangan) ish.
stipend ['staɪpend] *n* stipendiya.
stipulate ['stɪpjuleɪt] *v* shart qo'ymoq.
stipulation [ˌstɪpjuˈleɪʃn] *n* 1) shart qo'yish; 2) shart, talab, istak.
stir I [stə:] *n* 1) harakat qilish, qimirlash, qo'zg'ash, qo'zg'atish; 2) aralashtirish.
stir II [stə:] *v* 1) aralashtirmoq; 2) harakat qilmoq, qimirlamoq, qo'zg'amoq.
stirrup ['stɪrəp] *n* 1) uzangi; 2) *tex.* ilgak, ilmoq.
stitch [stɪtʃ] *n* 1) chokning (qoviqning) bir yo'li; 2) *tib.* chok, tikilgan joy; **to put ~es into a wound** yarani tikmoq, choklamoq.
stoat [stəut] *n* oqsichqon (oqsuvsar) va uning terisi, mo'ynasi.
stock I [stɔk] *n* 1) poya; 2) nav, nasl.
stock II [stɔk] *v* ta'minlamoq, yetkazib bermoq; **~-breeder** chorvador.
stockbroker ['stɔkˌbrəukə] *n* birja dalloli.
stockholder ['stɔkˌhəuldə] *n* aksiya egasi, aksiyali jamiyat egasi, aksiyador , aksiyachi.
stockinet [ˌstɔkɪ 'net] *n* 1) trikotaj (*mashinada to'qilgan yumshoq mato*); 2) paypoq to'qish.
stocking ['stɔkɪŋ] *n* paypoq.
stockist ['stɔkɪst] *n* (*ma'lum narsalarni*) donalab sotadigan sotuvchi.
stock-market ['stɔkˌmɑ:kɪt] *n* fond birjasi.
stockpile ['stɔkpaɪl] **1.** *n* 1) ehtiyot qism; 2) zaxira, qo'r-qut; **2.** *v* to'plamoq, g'amlab qo'ymoq.
stock-still [ˌstɔk 'stɪl] *adv* qo'zg'almay, qimirlamay, harakat qilmasdan, qotib.
stock-taking ['stɔkˌteɪkɪŋ] *n* tovarlarni qayta hisoblash.
stocky ['stɔkɪ] *a* pakana, past bo'yli.
stodgy ['stɔdʒɪ] *a* kishini zeriktiradigan, suhbatidan kishi zerikadigan.
stoic ['stəuɪk] **1.** *n* matonatli (bardoshli) odam; **2.** *a* matonatli, bardoshli.
stoically ['stəukəlɪ] *adv* matonat (mardlik, mardonalik, sabot) bilan.
stoke [stəuk] *v* (*o'txonaga, o'choqqa*) kanda qilmay o'tin solib turmoq.
stokehold ['stəukhəuld] *n deng.* kochegarka, go'lax.
stokehole ['stəukhəul] = **stokehold.**
stoker ['stəukə] *n* kochegar, o'qotar.
stole I [stəul] *n* palantin (*xotin-qizlar yelkaga tashlab yuradigan mo'yna yoki duxoba sharf*).
stole II [stəul] *past.* **steal** *dan.*
stolen ['stəulən] *v* o'g'irlamoq, o'g'irlab olmoq.
stolid ['stɔlɪd] *a* pinagini buzmaydigan, tepsatebranmaydigan, sovuqqon, loqayd, beg'am.
stolidity [stə 'lɪdətɪ] *n* sovuqqonlik, loqaydlik, beg'amlik.
stomach ['stʌmək] *n* 1) qorin; 2) oshqozon.
stomach-ache ['stʌməkeɪk] *n* qorin (oshqozon) og'rig'i.
stomp [stɔmp] *v* top-top (*yoki* gurs-gurs) qadam tashlab yurmoq.
stone [stəun] *n* 1) tosh; 2) tarozi toshi.
stone-blind [ˌstəun'blaɪnd] *a* butunlay (tamoman) ko'r.
stoned [stəund] *a* danagi olib tashlangan.
stone-mason ['stəunˌmeɪsn] *n* g'isht teruvchi (quruvchi) usta.
stoneware ['stəunweə] *n* 1) kulolchilik buyumlari; 2) sopol idish.
stony ['stəunɪ] *a* toshloq, sertosh, toshli.
stony-broke [ˌstəunɪ'brəuk] *a* butunlay xarob bo'lgan.
stood [stud] *past.* **stand** *dan.*.
stool [stu:l] *n* 1) kursi; 2) sandal.
stool-pigeon ['stu:lpɪdʒən] *n* 1) kaptar, kabutar; 2) xabarchi, xabar beruvchi, darakchi.
stoop [stu:p] *n* 1) bukchayganlik, egilganlik; yelkasi chiqqanlik; 2) shafqat, ko'ngilchanlik.
stop [stɔp] **1.** *n* to'xtash, to'xtatish; to'xtatish joyi; bekat; **full ~** nuqta; **2.** *v* to'xtamoq, to'xtatmoq.
stoppage ['stɔpɪdʒ] *n* ishni to'xtatish, ish tashlash.
stopper ['stɔpə] *n* 1) tiqin probka, po'kak; 2) *deng.* stopor (*ma'lum vaziyatda to'xtatish, siljimaydigan qilib o'rnatish uchun xizmat qiladigan moslama*).
stopping ['stɔpɪŋ] **1.** *pres. p.* **stop 2.** *dan*; **2.** *n* 1) to'xtash, to'xtalish; dam (tin) olish; to'xtash joyi, bekat; 2) tish plombasi.
stop-watch ['stɔpwɔtʃ] *n* sekundomer.
storage ['stɔ:rɪdʒ] *n* 1) saqlash; 2) ombor, omborxona, narsalar saqlanadigan joy.
store [stɔ:] **1.** *v* omborda saqlamoq, g'amlamoq; **2.** *n* 1) g'amlab qo'yilgan narsalar, zaxira; 2) do'kon.
storehouse ['stɔ:haus] *n* ombor, omborxona.
storekeeper ['stɔ:ˌki:pə] *n* 1) do'kondor, attor; 2) omborchi.
store-room ['stɔ:rum] *n* ombor, omborxona.
storey ['stɔ:rɪ] *n* qavat; **to add a ~ to a house** ustiga qurib binoni yana ko'tarmoq.
stork [stɔ:k] *n* laylak.
storm I [stɔ:m] *n* bo'ron, dovul.
storm II [stɔ:m] *v* mavj urmoq; **~y** bo'ronli, dovulli, kuchli.
stormbound ['stɔ:mbaund] *a* po'rtana (kuchli dengiz to'lqini) bilan ushlanib (sekinlanib, to'xtab, kechikib) qolgan.

stormy [ˈstɔ:mɪ] *a* bo'ronli, dovulli; bo'ron aralash.
story [ˈstɔ:rɪ] *n* 1) hikoya, qissa, ertak, rivoyat; 2) hodisa, voqea.
story-teller [ˈstɔ:rɪˌtelə] *n* hikoyachi, hikoya qiluvchi; ertak aytib beruvchi.
stout [staut] *a* 1) mustahkam; 2) semiz, to'la.
stove [stəuv] *n* pechka, plita.
stow [stəu] *v* taxlamoq, joylamoq, taxlab (terib, joylab) qo'ymoq.
stowage [ˈstəuɪdʒ] *n* joylash, o'rash, saranjomlash.
stowaway [ˈstəuəweɪ] *n* biletsiz passajir (*paroxod, samolyotda*).
straddle [ˈstrædl] *n* 1) katta qo'yilgan qadam; 2) katta (yirik) qadam.
straggle [ˈstrægl] *a* 1) tartibsiz, hurpaygan, paxmaygan, to'zigan; 2) yirtilgan, titilgan, juldur.
straight [streɪt] **1.** *a* 1) to'g'ri; 2) to'ppa-to'g'ri; **2.** *adv* darrov; tezlik bilan; **3.** *v* to'g'rilamoq.
straighten [ˈstreɪtn] *v* tuzatmoq, to'g'rilamoq, yaxshilamoq, to'g'ri yo'lga solmoq, tartibga keltirmoq.
straightforward [ɪstreɪtˈfɔ:wəd] *a* 1) to'ppa-to'g'ri (to'xtamay), bevosita; 2) halol, pok, vijdonli, to'g'ri, sofdil.
straightway [ˈstreɪtweɪ] *adv* darhol, darrov, bir onda, tez, tezda.
strain I [streɪn] *v* tortmoq, cho'zmoq, tarang qilmoq; cho'zib (tortib) kiydirmoq.
strain II [streɪn] *n* zot, nasl, tur (*hayvonlar va o'simliklar haqida*).
strained [streɪnd] **1.** *v* tortmoq, cho'zmoq, tarang qilmoq; **2.** *a* 1) sun'iy, yasama, samimiy emas; 2) buzilgan, buzuq, noto'g'ri.
strait [streɪt] *n* (*pl*) 1) bo'g'oz; 2) *geogr.* bo'yin.
strait jacket [ˈstreɪtˌdʒækɪt] *n* tiydirish ko'ylagi (*jinnilarga jazavasi tutganda kiydiriladigan, qimirlashga yo'l qo'ymaydigan maxsus ko'ylak*).
strand I [strænd] *n* qirg'oq, sohil.
strand II [strænd] *n* mushkul (tang) ahvolga tushib qolmoq.
stranded [ˈstrændɪd] *a* qirg'oqqa chiqarib (irg'itib) tashlangan.
strange [streɪndʒ] *a* 1) ajib; g'alati, qiziq; 2) begona, notanish.
stranger [ˈstreɪndʒə] *n* yot, begona kishi.
strangle [ˈstræŋgl] *v* bo'g'ib o'ldirmoq.
strangulation [ˌstræŋgju ˈleɪʃn] *n* 1) *tib.* birdan nafasi (dami) ichiga tushib ketish, bo'g'ilish.
strap [stræp] **1.** *n* kamar, tasma, qayish; **2.** *v* 1) qayish bilan bog'lamoq; 2) tasma bilan urmoq.
strata [ˈstrɑ:tə] *pl* **stratum** *dan.*
strategic(al) [strəˈti:dʒɪk(əl)] *a* strategiyaga oid; strategiya nuqtayi nazaridan ahamiyatli.
strategics [strəˈti:dʒɪks] *n pl* strategiya (*urush olib borish to'g'risidagi fan; urush olib borish san'ati*).
strategist [ˈstrætədʒɪst] *n* strateg (*strategiyani yaxshi bilgan mohir lashkarboshi*).
strategy [ˈstrætədʒɪ] *n* strategiya (*urush olib borish to'g'risidagi fan; urush olib borish san'ati*).
stratosphere [ˈstrætəsfɪə] *n* stratosfera (*atmosferaning troposferadan 8 – 16 kilometr yuqori joylashgan qatlami*).
stratum [ˈstrɑ:təm] *n* (*pl* **-ta**) qatlam, qavat.
straw [strɔ:] *n* poxol, somon, xashak.
strawberry [ˈstrɔ:bərɪ] *n* 1) qulupnay; 2) yertut, yer tuti; **wild ~** o'rmon yer tuti.
stray [streɪ] **1.** *a* adashib qolgan, adashgan; **2.** *v* yo'ldan adashmoq, yo'lni yo'qotmoq.
streak [stri:k] *n* 1) yo'l-yo'l chiziq, taram-taram yo'l; 2) xususiyat, fazilat, xosiyat, xislat; sifat (*fe'l-atvor*).
streaked [stri:kt] *a* yo'l-yo'l chiziqli, taram-taram yo'lli; **marble ~ with red** taram-taram qizil yo'lli marmar.
streaky [ˈstri:kɪ] *a* yo'l-yo'l, ola-bula, olabayroq.
stream [stri:m] **1.** *n* 1) oqim; oqar suv; 2) ariq, soy; **2.** *v* 1) oqib bormoq; 2) tomchilamoq; 3) tommoq.
streamer [ˈstri:mə:] *n* 1) vimpel (*harbiy kemalarda: uzun, kambar bayroqcha, taniqlik belgisi*); 2) shior, lavha.
streamlet [ˈstri:mlɪt] *n* kichkina soy, jilg'a, ariq.
streamline [ˈstri:mlaɪn] *n* (*havo oqimlarining*) yo'nalishi, tomoni, borayotgan (ketayotgan) tomoni.
streamlined [ˈstri:mlaɪnd] *a* 1) yaxshi yo'lga qo'yilgan; 2) zamonaviylashtirilgan.
street [stri:t] **1.** *n* ko'cha; **2.** *attr.* ko'chaga oid; ko'chada bo'ladigan; **~ fighting** ko'cha janglari.
strength [streŋθ] *n* kuch, quvvat.
strengthen [ˈstreŋθn] *v* kuchaytirmoq, mustahkamlamoq.
strenuous [ˈstrenjuəs] *a* kuchli, quvvatli, baquvvat; zabardast.
stress [stres] **1.** *n* 1) urg'u; 2) ta'kidlash; **2.** *v* 1) urg'u qo'ymoq; 2) ta'kidlamoq.
stressful [ˈstresfl] *a* qattiq hayajon (ruhiy zarba) oqibatidagi.
stretch [stretʃ] **1.** *n* cho'zish, uzaytirish, kengaytirish; **2.** *v* tortmoq, uzaytirmoq, kengaytirmoq.
stretcher [ˈstretʃə] *n* 1) zambil; 2) qolip (*poyabzaldo'zlikda*).
strew [stru:] *v* sochmoq, yoymoq, yoyib qo'ymoq, sochib tashlamoq.
strewn [stru:n] *p. p.* **strew** *dan.*
stricken [ˈstrɪkən] *a* (*nimadandir*) hayratda (lol, qoyil) qolgan.
strict [strɪkt] *a* 1) qat'iy, qattiq, jiddiy; 2) qattiqqo'l, talabchan.
stricture [ˈstrɪktʃə] *n* (*pl*) qattiq tanqid; ayblash.
strictly [ˈstrɪktlɪ] *adv* qat'iyat (qattiqqo'llik, talabchanlik) bilan.

stridden [ˈstrɪdn] *p. p.* **stride 2.** *dan.*
stride [straɪd] **1.** *n* 1) katta qadam; 2) qo'yilgan oyoqlar orasidagi masofa; **2.** *v* (**strode; stridden**) (katta) qadam tashlamoq.
strident [ˈstraɪdnt] *a* qattiq, kuchli, shiddatli, zo'r.
strife [straɪf] *n* kurash, bahs, g'avg'o, nizo, tortishuv, munozara.
strike I [straɪk] **1.** *n* ish tashlash; **2.** *v* ish tashlamoq.
strike II [straɪk] *v* (**struck; struck; strucken**) 1) urmoq; 2) hayron qoldirmoq.
strike-breaker [ˈstraɪkˌbreɪkə] *n* ish tashlash vaqtida ish tashlamay ish tashlovchilarga xiyonat qiluvchi shaxs.
striker [ˈskraɪkə] *n* ish tashlovchi.
striking [ˈstraɪkɪ] *a* hayratda qoldiradigan, ajoyib, juda yaxshi.
string [strɪŋ] **1.** *n* 1) tor; 2) arqon; ip; **2.** *v* bog'lamoq.
stringed [ˈstrɪŋd] *a mus.* torga oid, torli, tor; torli musiqa asboblari.
stringency [ˈstrɪndʒənsɪ] *n* 1) talabchanlik, qattiqqo'llik; 2) ishonchlilik, ishonarlilik, ishontiradigan.
stringent [ˈstrɪndʒənt] *a* talabchan, qattiq talab qiladigan, qattiqqo'l.
stringy [ˈstrɪŋɪ] *a* 1) tolali, sertola; 2) cho'ziluvchan, cho'ziladigan, cho'zilish qobiliyatiga ega.
strip [strɪp] *n* 1) uzun va tor bo'lak; 2) tasma, lenta.
stripe [straɪp] *n* yo'l-yo'l chiziq; hoshiya, jiyak.
striped [straɪpt] *a* yo'l-yo'l, ola-bula.
stripling [ˈstrɪplɪŋ] *n* yosh yigit, o'spirin, yigitcha.
strive [straɪv] *v* (**strove; striven**) 1) intilmoq, harakat qilmoq; 2) da'vo qilmoq.
striven [ˈstrɪvn] *p. p.* **strive** *dan.*
striving [ˈstraɪvɪŋ] *n* intilish, harakat qilish.
strode [strəud] *past.* **stride 2.** *dan.*
stroke [strəuk] *n* 1) urish, turtish; zarb, zarba; 2) *tib.* shol, falaj.
stroll [strəul] **1.** *n* sayr, tomosha; **2.** *v* 1) aylanib yurmoq; 2) sayr qilmoq; 3) eshikma eshik sanqib yurmoq.
strong [strɔŋ] *a* kuchli, qudratli, baquvvat, mustahkam; **~-man** polvon.
stronghold [ˈstrɔŋhəuld] *n* tayanch, suyanchiq, homiy, muhofazachi.
strongly [ˈstrɔŋlɪ] *adv* 1) kuch (zarb, shiddat) bilan; 2) qat'iyat (dadillik, jasurlik) bilan.
stroppy [ˈstrɔpɪ] *a* o'jar, qaysar, injiq.
strove [strəuv] *past* **strive** *dan.*
struck [strʌk] *v* urmoq, tushirmoq, mushtlamoq.
structure [ˈstrʌktʃə] *n* 1) tuzilish; 2) bino, imorat, qurilish.
struggle [ˈstrʌgl] **1.** *v* kurashmoq; **2.** *n* kurash; jang.
strum [strʌm] **1.** *n* jaranglash, ding'illash, ting'illash, tiringlash, diringlash; **2.** *v* jaranglamoq, ding'illamoq, tingillamoq, tiringlamoq, diringlamoq.
strung [strʌŋ] **1.** *past., p.p.* **string 2.** *dan*; **2.** *a* asabiylashgan, hayajonga tushgan; diqqati oshgan, asabi taranglashgan; **a highly ~ person** asabiylashgan kishi.
strut I [strʌt] **1.** *n* savlat to'kib qadam tashlash (yurish); **2.** *v* savlat to'kib qadam tashlamoq (yurmoq).
strut II [strʌt] **1.** *n qur.* kashak, tirgovuch, tirgak; **2.** *v* tiramoq, tirab qo'ymoq, tirgak qo'ymoq.
stub [stʌb] *n* to'nka, kunda.
stubble [ˈstʌbl] *n* ang'iz (*ekin o'rib olingan yer*).
stubborn [ˈstʌbən] *a* o'jar, qaysar, gapga kirmaydigan, ko'nmaydigan, unamaydigan.
stucco [ˈstʌkəu] **1.** *n* suvash, suvab qo'yish, suvab chiqish; **2.** *v* suvamoq, suvoq qilmoq.
stuck [stʌk] *v* tiqmoq, sanchmoq, qadamoq, suqmoq.
stuck-up [ˈstʌkʌp] *a* takabbur, manman, kibrhavosi baland, kalondimog', dimog'dor, kekkaygan.
stud I [stʌd] **1.** *n* 1) katta qalpoqli mix; 2) *tex.* shtift (*metall o'zakcha*); 3) knopka (*bosma mix, tugmacha mix*); **2.** *v* qoqmoq, qoqib tushirmoq.
stud II [stʌd] *n* 1) ot zavodi (*ot zotini yaxshilash va zotli otlar yetishtirish bilan shug'ullanadigan korxona*); 2) otxona.
stud-book [ˈstʌdbuk] *n* otlarning zoti yozilgan kitob.
student [ˈstju:dnt] *n* talaba.
studied [ˈstʌdɪd] *a* puxta o'ylangan, yaxshilab o'ylab ko'rilgan, o'qigan.
studio [ˈstju:dɪəu] *n* (*pl* **-os** [-əuz]) 1) studiya (*rassom yoki haykaltaroshning ishxonasi*); 2) radiostudiya (*radio eshittirish uchun maxsus jihozlangan bino*).
studious [ˈstju:dɪəs] *a* 1) ilm bilan band bo'lgan; 2) tirishqoq, g'ayratchan, serharakat, serhafsala, quntli.
studiously [ˈstju:dɪəslɪ] *adv* tirishib, qunt bilan, hafsala (ishtiyoq) bilan.
study [ˈstʌdɪ] **1.** *n* 1) o'rganish, o'qish; 2) kabinet, darsxona; **2.** *v* 1) o'rganmoq; 2) o'qimoq.
stuff [stʌf] *n* material, gazlama, gazmol, mato, to'qima.
stuffing [ˈstʌfɪŋ] *n* tiqma, to'ldirilgan (tiqilgan) narsa (*vostiq va b.*).
stuffy [ˈstʌfɪ] *a* dim, bo'g'iq.
stultify [ˈstʌltɪfaɪ] *v* birovni kulgili qilib ko'rsatmoq.
stumble [ˈstʌmbl] *v* qoqilmoq, chalinmoq.
stumbling-block [ˈstʌmblɪŋblɔk] *n* qiyin (qiynaydigan, xalaqit beradigan) masala; qiyinchilik, to'sqinlik, xalaqit.
stump [stʌmp] *n* 1) to'nka, kunda; 2) g'o'la, g'o'lacha, kesik; 3) chekib tashlangan papiros; 4) qalam qoldig'i, kalta-kulta qalam.
stun [stʌn] *v* kar (garang) qilmoq, quloqni bitirmoq.
stung [stʌŋ] *v* nayzasini sanchmoq; sanchilib kirmoq (*o't, tikan haqida*).

stunk [stʌŋk] *v* sasimoq, sassiq (qo'lansa, badbo'y) hid chiqarmoq.

stunner ['stʌnə] *n so'zl.* 1) kishini hayron qoldiradigan nusxa (namuna); 2) yoqimli kishi; 3) ajoyib (kishini mahliyo qiladigan) manzara.

stunning ['stʌnɪŋ] **1.** *v* kar (garang) qilmoq, quloqni bitirmoq; **2.** *a* hayratda qoldiradigan, dovdiratib qo'yadigan; hayratomuz.

stunt I [stʌnt] **1.** *n* o'sishdan to'xtash; **2.** *v* o'sishdan to'xtamoq.

stunt II [stʌnt] **1.** *n* muvaffaqiyatli (chiqish) ishtirok etish (*sport musobaqalarida*); **2.** *v* jasorat ko'rsatmoq.

stunted ['stʌntɪd] *a* past bo'yli, pastak, bo'yi past, pakana.

stupefaction [ˌstju:pɪ'fækʃn] *n* dong qotib qolish; murdadek (haykaldek) qotish, murda bo'lib qolish.

stupefy ['stju:pɪfaɪ] *v* hayron (qoyil) qoldirmoq, mahliyo qilib qo'ymoq.

stupendous [stju'pendəs] *a* ulkan ahamiyatli.

stupid ['stju:pɪd] *a* anqov, esi past; aqlsiz, ahmoq, tentak.

stupidity [stju'pɪdətɪ] *n* ahmoqlik, tentaklik, aqlsizlik.

stupor ['stju:pə] *n* dong qotib qolish; haykaldek qotish.

sturdiness ['stə:dnəs] *n* qattiqlik, mahkamlik, mustahkamlik, pishiqlik, puxtalik, chidamlilik.

sturdy ['stə:dɪ] *a* mahkam, mustahkam, qattiq, pishiq, puxta; chidamli; **a ~ child** baquvvat odam.

sturgeon ['stə:dʒən] *n* osyotr, bikri, bakra, bakrabaliq.

stutter ['stʌtə] **1.** *n* duduqlik, soqovlik; **2.** *v* duduqlanmoq, duduqlanib gapirmoq.

sty I [staɪ] *n* cho'chqaxona.

sty II [staɪ] *n tib.* govmichcha.

style [staɪl] *n* 1) uslub; 2) moda, rasm, fason.

stylish ['staɪlɪʃ] *a* biror uslubda ishlangan, biror uslubdagi.

stylistic [staɪ'lɪstɪk] *a* stilistik, uslubiy.

stylus ['staɪləs] *n* grammafon (ignasi) ninasi.

stymie, stymy ['staɪmɪ] *v* qiyin (mushkul) ahvolga solib qo'ymoq.

suave [swɑ:v] *a* boadab, odobli, odobli; nazokatli.

suavity ['swɑ:vətɪ] *n* xushmuomalalik, muloyimlik, sertakallumlik.

sub- [sʌb-] *pref.* biror narsaning ikkinchi narsa ostida ekanligini bildiradi: **subway** 1) yerosti *yoki* tog' ostidan o'tkazilgan yo'l; 2) *amer.* metro.

subaltern ['sʌbltən] *n* 1) *harb.* kichik zobit; 2) bo'ysunadigan, tobe, qaram, qarashli.

subcommittee ['sʌbkəˌmɪtɪ] *n* kichik (yordamchi) komissiya.

subconscious [sʌb'kɔnʃəs] *a* anglab yetmay turib sodir bo'ladigan, ongsiz, beixtiyor, g'ayriixtiyoriy.

subdivide [ˌsʌbdɪ'vaɪd] *v* bo'lmoq, ajratmoq; (*qismlarga*) bo'linmoq, ajratilmoq.

subdivision ['sʌbdɪˌvɪʒn] *n* bo'lish, qismlarga ajratish; bo'linish.

subdue [səb 'dju:] *v* zabt etmoq, ishg'ol qilmoq.

subheading [sʌb'hedɪŋ] *n* ikkinchi sarlavha, qo'shimcha (kichik) sarlavha.

subject I ['sʌbdʒəkt] *a* qaram, qo'l ostidagi, qarashli.

subject II ['sʌbdʒəkt] *n* 1) predmet, fan; 2) masala, mavzu; 3) *gram.*ega.

subject III [səb'dʒekt] *v* duchor qilmoq, bo'ysundirmoq.

subjective [səb 'dʒektɪv] *a* subyektiv; kimsaning (shaxsning) o'zigagina xos (bog'liq) bo'lgan, shaxsiy.

subject-matter ['sʌbdʒɪktˌmætə] *n* 1) mazmun, ma'no, mohiyat (*kitob, maqola, suhbat va b.*); 2) (*muhokama qilinadigan*) mavzu, hodisa, voqea, narsa; o'rganish ob'yekti.

subjoin [ˌsʌb 'dʒɔɪn] *v* qo'shmoq, qo'shib qo'ymoq, qo'shimcha qilmoq, yana qo'shmoq.

subjugate ['sʌbdʒugeɪt] *v* zabt qilmoq, bosib olmoq, o'ziga bo'ysundirmoq.

subjugation [ˌsʌbdʒu 'geɪʃn] *n* zabt etish, bo'ysundirish; bo'ysunish.

subjugator ['sʌbdʒugeɪtə] *n* zabt etuvchi, bosib oluvchi; istilochi.

subjunctive [səb 'dʒʌŋktɪv] *n gram.* istak mayli, istak fe'l.

sublimate ['sʌblɪmət] *n kim.* haydash (*qattiq jismni bevosita bug'ga aylantirish*); **crossive ~** sulema (*zaharli oq kukun, simob xlorid*).

sublime [sə'blaɪm] *a* ulug'vor, hashamatli, dabdabali, mustahkam.

submarine ['sʌbmərɪ:n] **1.** *n* 1) suv osti kemasi; 2) suvosti o'simligi; **2.** *a* suv ostida bo'ladigan, suv ostidagi.

submerge [səb'mə:dʒ] *v* cho'ktirmoq, botirmoq, g'arq qilmoq.

submerged [səb'mə:dʒd] **1.** *p. p.* **submerge** *dan*; **2.** *a* cho'ktirilgan, botirilgan, g'arq qilingan.

submission [səb'mɪʃn] *n* 1) taqdim etish, (*hujjatlar va h.k.ni*) berish; 2) bo'ysundirish; bo'ysunish.

submissive [səb'mɪsɪv] *a* gapga kiradigan, rozi bo'ladigan, yon beradigan, ko'nadigan, ko'ngilchan.

submit [səb'mɪt] *v* 1) ko'rish uchun taqdim qilmoq (*ariza va boshqa*); 2) bo'ysundirmoq; bo'ysunmoq.

subnormal [ˌsʌb'nɔ:ml] **1.** *a* me'yordan past; **2.** *n mat.* podnormal.

subordinate 1. *v* [sə 'bɔ:dɪneɪt] bo'ysundirmoq, qaratmoq; **2.** *n* [sə 'bɔ:dnɪt] tobe, qaram.

subordination [sə,bɔ:dɪ 'neɪʃn] *n* bo'ysundirish; bo'ysunish.

suborn [sə'bɔ:n] *v* pora berib sotib olmoq, o'z tomoniga og'dirmoq.

subpoena [səb´pi:nə] **1.** *n* sudning chaqiriq qog'ozi; **2.** *v* sudga chaqirmoq.
subscribe [səb´skraıb] *v* 1) rozi bo'lmoq, qo'shilmoq; 2) obuna bo'lmoq.
subscription [səb ´skrıpʃn] *n* 1) hujjatlarga qo'l qo'yish; 2) obuna bo'lish, obuna qilish (yozilish).
subsequent [´sʌbsıkwənt] *a* kelgusi, keyingi, so'nggi.
subsequently [´sʌbsıkwəntlı] *adv* keyinchalik, kelgusida, nihoyasida, oqibatida; tegishli ravishda.
subserve [səb´sə:v] *v* ko'maklashmoq, yordamlashmoq, yordam bermoq, yordam ko'rsatmoq.
subservience [səb´sə:vıəns] *n* xushomadgo'ylik, laganbardorlik, yaltoqlik.
subservient [səb ´sə:vıənt] *a* bo'ysunadigan, tobe, qaram; qarashli.
subside [səb´saıd] *v* to'kilmoq; kamaymoq, ozaymoq, kamayib qolmoq.
subsidence [səb´saıdns] *n* pasayish, kamayish, tushish.
subsidiary [səb´sıdjərı] *a* 1) qo'shimcha, yordamchi; 2) ikkinchi darajali.
subsidize [´sʌbsıdaız] *v* pul (mablag') bilan ta'minlamoq, yordam ko'rsatmoq.
subsidy [´sʌbsədı] *n* yordamga beriladigan pul, mablag'.
subsist [səb ´sıst] *v* bor (mavjud) bo'lmoq, yashamoq, umr ko'rmoq.
subsistence [səb´sıstəns] *n* mavjudlik, borliq, bor (mavjud) bo'lish, tiriklik, hayotlik.
subsoil [´sʌbsɔıl] *n* 1) tagzamin (*ishlanadigan tuproq ostidagi yer qatlami*); 2) zamin, asos.
substance [´sʌbstəns] *n* 1) modda; 2) *fals.* materiya (*kishi ongidan tashqarida va unga bog'liq bo'lmagan holda mavjud bo'lgan obyektiv reallik*); 3) mohiyat, tub (asosiy) ma'no, mazmun.
substandard [ˌsʌb´stændəd] *a* standartga mos kelmaydigan; standartdan tashqari.
substantial [səb´stænʃl] *a* 1) muhim, ahamiyatli; 2) ma'noli.
substantially [səb´stænʃlı] *adv* aslini olganda, to'g'risini aytganda, gapning to'g'risi.
substantiate [səb´stænʃıeıt] *v* isbotlamoq, tasdiqlamoq, mustahkamlamoq.
substantiation [səbˌstænʃı´eıʃn] *n* dalil, isbot.
substantive [´sʌbstəntıv] **1.** *a* mustaqil, qaram bo'lmagan; **2.** *n gram.* ot.
substation [´sʌbsteıʃn] *n el.* podstansiya (*asosiy stansiyalar oralig'idagi qo'shimcha telefon yoki elektr stansiya*).
substitute [´sʌbstıtju:t] **1.** *n* o'rinbosar, muovin, o'rnini bosuvchi; **2.** *v* o'rnida ishlamoq, o'rnini bosmoq, o'rnida bo'lmoq.
substitution [ˌsʌbstı´tju:ʃn] *n* 1) o'rnini oluvchi (boruvchi) kimsa, narsa, badal, evaz; 2) *mat.* almashtirish, birining o'rniga ikkinchisini qo'yish.
substratum [´sʌbstrɑ:təm] *n* (*pl* **-ta**) 1) pastki qatlam (qavat); 2) asos, poydevor, zamin.
subterfuge [´sʌbtəfju:dʒ] *n* hiyla, nayrang; vaj, gapni aylantirish.
subterranean [ˌsʌbtə´reınıən] *a* yer ostidagi, yer ostida joylashgan; yer ostida olib boriladigan.
subtitle [´sʌbtaıtl] *n* ikkinchi sarlavha, qo'shimcha (kichik) sarlavha.
subtle [´sʌtl] *a* yupqa, ingichka, nozik, muloyim, yumshoq.
subtlety [´sʌtltı] *n* yupqalik, nafis; ingichkalik, noziklik, xipchalik.
subtract [səb´trækt] *v mat.* ayirmoq, olib tashlamoq; ayiruv amalini bajarmoq.
subtraction [səb ´trækʃn] *n mat.* ayirish, olish, chiqarib tashlash.
subtrahend [´sʌbtrəhend] *n mat.* ayriluvchi.
suburb [´sʌbə:b] *n* shahar atrofidagi joy.
suburban [sə´bə:bən] *a* shahar atrofiga oid; shahar atrofidagi; shahardan tashqaridagi.
suburbia [sə´bə:bıə] *n* 1) qoloqlik, go'llik; 2) tor fikrli kishi, tirikchilikdan boshqani bilmaydigan odam.
subvention [səb´venʃn] *n* yordamga beriladigan pul, mablag'.
subversion [sʌb´və:ʃn] *n* ag'darish, qulatish; vayron qilish, yo'q qilish.
subversive [səb´və:sıv] *a* vayron qiladigan, yemiradigan; vayron qiluvchi; halokatli.
subvert [sʌb´və:t] *v* (*yuqoridan*) tashlamoq, tashlab yubormoq; qo'porib tushirmoq.
subway [´sʌbweı] *n* 1) tunnel, yerosti yo'li; 2) *amer.* metro.
succeed [sək´si:d] *v* 1) kimsa *yoki* narsaning izidan (ketidan, orqasidan) bormoq; 2) birovning vorisi bo'lmoq; 3) maqsadiga erishmoq, niyatiga yetmoq, muvaffaqiyat qozonmoq.
success [sək´ses] *n* muvaffaqiyat, omad.
successful [sək´sesful] *a* muvaffaqiyatli; yaxshi natijali.
successfully [sək´sesfəlı] *adv* muvaffaqiyatli ravishda, muvaffaqiyat bilan.
succession [sək´seʃn] *a* 1) izchillik, ketma-ketlik, birin-ketinlik; 2) uzluksiz, tutash; 3) meros.
successive [sək´sesıv] *a* keyingi, so'nggi; kelgusi.
successor [sək´sesə] *n* voris, davomchi, davom ettiruvchi.
succinct [sək´sıŋkt] *a* qisqa, kalta, lo'nda, qisqacha.
succo(u)r [´sʌkə] *n* yordam, ko'mak, madad.
succulence [´sʌkjuləns] *n* sersuvlik, shiradorlik.
succulent [´sʌkjulənt] *a* sersuv, shirali, shirador.
succumb [sə ´kʌm] *v* 1) yon (tan) bermoq, past kelmoq; 2) o'lmoq, vafot etmoq.
such [sʌtʃ] *pron. demonst.* 1) shunday; 2) bunday, shunaqa.
such-and-such [´sʌtʃənsʌtʃ] *a* falonchi, falon kishi, falon narsa, falon ish.
suchlike [´sʌtʃlaık] *a so'zl.* o'xshash, o'xshagan, singari, kabi, monand, xuddi shunday.
suck [sʌk] *v* emmoq, so'rmoq.

sucker [ˈsʌkə] *n* emadigan, onasidan ayrilmagan hayvon bolasi.

suckle [ˈsʌkl] *v* 1) emizmoq; 2) bolaga emizish uchun emchagini tutmoq (bermoq); 3) boqmoq, boqib katta qilmoq.

suckling [ˈsʌklɪŋ] *n* 1) emadigan (ko'krakdan ajralmagan) bola, chaqaloq; 2) emadigan, onasidan ayrilmagan hayvon bolasi (*toychoq, qo'zichoq, xo'tik, kuchuk va sh.k.*).

suction [ˈsʌkʃn] *n* emish, so'rish, shimish, emib (so'rib) olish.

sudden [ˈsʌdn] *a* kutilmagan; **~ly** qo'qqisdan; birdan, bexosdan, kutilmaganda, to'satdan.

suddenness [ˈsʌdnnəs] *n* to'satdan yuz (ro'y) berish (berganlik), kutilmaganlik, nogahoniylik, tasodifiylik.

suds [sʌdz] *n pl* sovun ko'pigi *yoki* sovunli (sovun ko'pirtirilgan) suv.

sue [sju:] *v* 1) ish ochmoq (*kimgadir qarshi*); 2) so'ramoq, iltimos qilmoq.

suéde [sweɪd] *n fr.* zamsh (*bug'u, qo'y va boshqa mollarning terisidan tayyorlangan yumshoq baxmalsimon charm*).

suet [ˈsu:ɪt] *n* charvi yog', charvi.

suffer [ˈsʌfə] *v* azob tortmoq; talofatga uchramoq; **~ing** *n* azob; kulfat.

sufferer [ˈsʌfərə] *n* jafokash, zahmatkash, alamdiyda; jabr tortgan kishi.

suffice [sə ˈfaɪs] *v* yetarli bo'lmoq, yetmoq.

sufficiency [sə ˈfɪʃnsɪ] *n* mo'llik, yetarlilik, mo'lko'llik, to'kinchilik, seroblik.

sufficient [sə ˈfɪʃnt] *a* yetarli, kifoya.

suffix [ˈsʌfɪks] *n gram.* suffiks (*so'ng qo'shimcha*).

suffocate [ˈsʌfəkeɪt] *v* 1) bo'g'moq, bo'g'ib o'ldirmoq; 2) siqilmoq, ezilmoq, siqilib (ezilib) ketmoq.

suffocation [ˌsʌfəˈkeɪʃn] *n* bo'g'ish, bo'g'ib o'ldirish; gaz bilan zaharlab o'ldirish.

suffrage [ˈsʌfrɪdʒ] *n* ovoz berish huquqi, saylash huquqi.

sugar [ˈʃugə] *n* qand; shakar.

sugar-basin [ˈʃugəbeɪsn] *n* qanddon, shakar idishi.

sugar-beet [ˈʃugəˈbi:t] *n* qand lavlagi.

sugar-cane [ˈʃugəkeɪn] *n* shakarqamish.

sugar-refinery [ˈʃugərɪˌfaɪnərɪ] *n* oq qand zavodi.

sugary [ˈʃugərɪ] *a* qandga, shakarga va uni ishlab chiqarishga oid; qanddan (shakardan) iborat bo'lgan.

suggest [sə ˈdʒest] *v* taklif qilmoq.

suggestion [sə ˈdʒestʃn] *n* taklif, maslahat.

suggestive [sə ˈdʒestɪv] *a* 1) o'ylashga undaydigan; 2) odobdan tashqari, uyat.

suicidal [ˌsu:ɪˈsaɪdl] *a* o'zi uchun halokatli, o'zini halokatga olib boradigan, juda og'ir.

suicide [ˈsu:ɪsaɪd] *n* o'zini-o'zi o'ldirish, o'z joniga qasd qilish.

suit I [sju:t] *n* kastum; **~case** chamadoncha.

suit II [sju:t] *v* mos kelmoq; to'g'ri (loyiq) kelmoq, yarashmoq.

suitability [ˌsju:tə ˈbɪlətɪ] *n* yuqorilik; layoqatlilik; keraklilik; foydalilik.

suitable [ˈsu:təbl] *a* munosib, mos, loyiq, to'g'ri keladigan.

suitcase [ˈsu:tkeɪs] *n* kichik chamadon.

suite [swi:t] *n* to'plam, sidra, komplekt (*bir butunni tashkil qilgan narsalarning to'liq to'plami*).

suitor [ˈsju:tə] *n* 1) muxlis, ixlosmand, ishqiboz; 2) iltimos qiluvchi, so'rovchi, o'tinuvchi; arzgo'y; 3) *yur.* da'vogar, haq talab qiluvchi.

sulk [sʌlk] *v* xafa bo'lmoq, xafa bo'lib qovog'ini osiltirmoq.

sulky I [ˈsʌlkɪ] *a* qayg'uli, g'amgin, ma'yus, xafa, noxush.

sulky II [ˈsʌlkɪ] *n amer.* bir o'rinli (bir kishilik) ikki g'ildirakli yengil arava.

sullen [ˈsʌlən] *a* 1) g'amgin, xafa, ma'yus; 2) yurakni siqadigan, ziq qiladigan, ruhni ezadigan; 3) sekin oqadigan (*daryo haqida*).

sullenly [ˈsʌlənlɪ] *adv* achchiqlanib, jahl (g'azab, zarda) bilan, darg'azab bo'lib.

sully [ˈsʌlɪ] *v* bulg'amoq, kir (iflos) qilmoq; bulg'atmoq; dog' qilmoq.

sulphate [ˈsʌlfeɪt] *n kim.* sulfat (*sulfat kislota tuzi*).

sulphite [ˈsʌlfaɪt] *n kim.* sulfit (*sulfit kislota tuzi*).

sulphur [ˈsʌlfə] *n kim.* oltingugurt; **flowers ~ of** oltingugurt rangi (tusi), och sariq rang.

sultan [ˈsʌltən] *n* sulton.

sultana [sʌlˈtɑ:nə] *n* 1) sultonning qizi, singlisi, xotini *yoki* onasi; 2) sevimli ayol, mahbuba, ma'shuqa; 3) [səlˈtɑ:nə] kishmish.

sultry [ˈsʌltrɪ] *a* 1) jazirama, issiq; 2) jo'shqin, otashin, ehtirosli.

sum [sʌm] **1.** *n* 1) yig'indi; 2) umumiy miqdor; **2.** *v* 1) jamlamoq; yig'indisini chiqazmoq; 2) xulosa chiqarmoq.

summarize [ˈsʌməraɪz] *v* qo'shmoq, jamlamoq, yig'indisini chiqarmoq.

summary [ˈsʌmərɪ] *n* 1) xulosa; 2) qisqacha bayon.

summer [ˈsʌmə] **1.** *n* yoz, yoz fasli; **2.** *a* yozgi.

summer-house [ˈsʌməhaus] *n* shiyponcha.

summit [ˈsʌmɪt] *n* 1) cho'qqi; 2) davlat rahbarlarining uchrashuvlari.

summon [ˈsʌmən] *v* 1) chaqirmoq (*sudga*); 2) (*nimanidir*) bajarishni talab qilmoq.

summons [ˈsʌmənz] *n* chaqirish, chaqiruv (*sudga*).

sump [sʌmp] *n* axlatxona, axlat tashlanadigan (to'kiladigan) joy.

sumptuous [ˈsʌmptʃuəs] *a* dabdabali, hashamatli, ziynatli, bezatilgan, muhtasham.

sun [sʌn] *n* quyosh, oftob; **in the ~** oftobda; **~rise** quyosh chiqishi; **~set** quyosh botishi; **~shine** quyosh yorug'ligi; **~ny** serquyosh; quyoshli.

sun-bath [ˈsʌnbɑ:θ] *n* quyosh vannasi.
sun-beam [ˈsʌnbi:m] *n* quyosh nuri.
sun-blind [ˈsʌnblaɪnd] *n* chodir, soyabon.
sunburn [ˈsʌnbə:n] *n* oftobda qorayish; badanning oftobda qoraygan rangi.
sundae [ˈsʌndeɪ] *n* (*qaymoqli, mevali*) yong'oqli muzqaymoq.
Sunday [ˈsʌndɪ] *n* yakshanba.
sundew [ˈsʌndju:] *n bot.* rosanka (*botqoqlikda o'sadigan hasharotxo'r o'simlik*).
sun-dial [ˈsʌndaɪəl] *n* quyosh soati.
sundown [ˈsʌndaun] *n* botish, quyoshning botishi.
sundries [ˈsʌndrɪz] *n pl* har xil narsalar, istalgan narsalar, olamdagi bor narsalar.
sundry [ˈsʌndrɪ] *a* har xil, turli, bir-biridan farq qiladigan, boshqa-boshqa.
sunflower [ˈsʌnflauə] *n* kungaboqar.
sung [sʌŋ] *v* ashula (qo'shiq) aytmoq, kuylamoq.
sunk [sʌŋk] *v* pasaymoq, pasayib (tushib) bormoq; pasaytirmoq.
sunken [ˈsʌŋkən] *a* 1) cho'kib ketgan, g'arq bo'lgan; 2) cho'kik, ichiga kirib ketgan; botiq, cho'kkan; ~ **cheeks** ichiga kirib ketgan yuz.
sunlight [ˈsʌnlaɪt] *n* quyosh yorug'ligi.
sunlit [ˈsʌnlɪt] *a* quyosh bilan yoritilgan.
sunny [ˈsʌnɪ] *a* quyoshga (quyosh nuriga) oid; quyosh nuridan (energiyasidan) foydalanishga asoslangan.
sun-pot [ˈsʌnpɔt] *n* 1) *astr.* quyoshdagi dog'; 2) sepkil.
sunrise [ˈsʌnraɪz] *n* quyosh (kun, oftob) chiqishi.
sunset [ˈsʌnset] *n* quyosh (kun, oftob) botishi.
sunshade [ˈsʌnʃeɪd] *n* soyabon (*quyoshdan saqlanish uchun*), chodir.
sunshine [ˈsʌnʃaɪn] *n* quyosh yorug'ligi.
sunstroke [ˈsʌnstrəuk] *n* issiqlik ta'sirida odamning isib ketib, kasal holatda bo'lishi, oftob urish.
sup [sʌp] *n* yutum, qultum; ho'plash; yutinish.
super [ˈsju:pə] *a* juda yaxshi, a'lo darajadagi.
super- [ˈsu:pə-] *pref.* biror narsaning ustiga qo'yilib (qo'shilib) orttirilishini bildiradi.
superannuate [ˌsju:pərˈænjueɪt] *v* 1) qariganligi *yoki* ishga yaroqsiz bo'lganligi tufayli nafaqaga chiqmoq; 2) eskirmoq, iste'moldan chiqmoq.
superannuated [ˌsju:pərˈænjueɪtɪd] *a* juda yuqori, kekkaygan, munkillab qolgan.
superannuation [ˌsju:pərænjuˈeɪʃn] *n* 1) qarilik tufayli iste'foga chiqarish; 2) qariyalarga beriladigan nafaqa.
superb [suˈpə:b] *a* dabdabali, serhasham, ajoyib.
supercilious [ˌsu:pəˈsɪlɪəs] *a* takabbur, manman, kalondimog', kekkaygan.
superficial [ˌsu:pəˈfɪʃl] *a* yuza, yuzasi, sirtqi, ustki.
superficiality [ˌsu:pəˌfɪʃɪˈælətɪ] *n* yuzakilik, sayozlik; yengil-yelpilik.
superfine [ˌsu:pəˈfaɪn] *a* 1) juda yupqa (ingichka); 2) yuqori navli.
superfluity [ˌsu:pəˈfluətɪ] *n* mo'llik, ko'plik, seroblik.
superfluous [sjuˈpə:fluəs] *a* ortiqcha, ehtiyojidan ortiq, haddan tashqari.
superhuman [ˌsu:pəˈhju:mən] *a* odamning qo'lidan kelmaydigan, aql bovar qilmaydigan, ajoyib, mislsiz.
superimpose [ˌsu:pərɪmˈpəuz] *v* (bir-birining) ustiga qo'ymoq.
superintend [ˌsu:pərɪnˈtend] *v* boshqarmoq, yurgizmoq; idora qilmoq.
superintendent [ˌsu:pərɪnˈtendənt] *n* (*biror xo'jalik, muassasa va sh.k.larni*) boshqaruvchi.
superior I [suˈpɪərɪə] *a* oliy, yuqori, eng yaxshi.
superior II [suˈpɪərɪə] *n* katta, boshliq.
superiority [suˌpɪərɪˈɔrətɪ] *a* afzallik, ustunlik.
superlative [suˈpə:lətɪv] **1.** *a* eng yuqori, eng yuksak; **2.** *gram.* orttirma daraja.
superman [ˈsu:pəmæn] *n* o'ta qudratli odam.
supermarket [ˈsu:pəˌmɑ:kɪt] *n* supermarket, universam (*turli xil oziq-ovqat va sanoat mollari bo'lgan, xaridorlar o'ziga xizmat qiladigan yirik magazin*).
supernatural [ˌsu:pəˈnætʃrəl] *a* g'ayritabiiy, mo'jizaviy; ilohiy, favqulodda; mislsiz.
supernumerary [ˌsu:pə ˈnju:mərərɪ] *n* 1) shtatda yo'q ishchi; 2) vaqtinchalik o'rinbosar.
supersede [ˌsu:pə ˈsi:d] *v* almashtirmoq, o'zgartirmoq, boshqalamoq, yangilamoq, o'rniga qo'ymoq.
supersonic [ˌsu:pəˈsɔnɪk] *a* tovush tezligidan ham ortiq, tovushdan ham tez (uchadigan).
superstar [ˈsu:pəstɑ:] *n* eng taniqli yulduz.
superstition [ˌsu:pəˈstɪʃn] *n* xurofot, bid'at, irim-chirim.
superstitious [ˌsu:pəˈstɪʃəs] *a* xurofotga berilgan, irim-chirimlarga ishonadigan.
superstructure [ˈsu:pəstrʌktʃə] *n* tayyor bino ustiga solingan ustki qavat.
supertax [ˈsu:pətæks] *n* qo'shimcha foyda uchun to'lanadigan soliq.
supervene [ˌsu:pəˈvi:n] *v* yaqinlashmoq, boshlanmoq, bo'lmoq, kelmoq, kirmoq.
supervise [ˈsu:pəvaɪz] *v* kuzatmoq, nazorat qilmoq.
supervision [ˌsu:pə ˈvɪʒn] *n* kuzatish; nazorat, nazorat qilish, qarab turish.
supervisor [ˈsju:pəvaɪzə] *n* nazoratchi, nazorat qilib (qarab) turuvchi.
supine [ˈsu:paɪn] *a* 1) chalqanchasiga yotgan; 2) faoliyatsiz, harakatsiz, g'ayratsiz, sust.
supper [ˈsʌpə] *n* kechki ovqat.
supplant [səˈplɑ:nt] *n* siqib chiqarmoq, surib chiqarmoq; chiqarib yubormoq.
supple [ˈsʌpl] *a* egiluvchan, bukiluvchan, qayishqoq; ~ **leather** yumshoq teri.
supplement [ˈsʌplɪmənt] **1.** *n* qo'shimcha (ilova) qilib berilgan narsa; **2.** *v* to'ldirmoq, qo'shmoq, ilova qilmoq.

supplementary [ˌsʌplɪ ˈmentərɪ] *a* qo'shimcha.
suppleness [ˈsʌplnəs] *n* 1) egiluvchanlik, bukiluvchanlik, qayishqoqlik; 2) yumshoqlik, mayinlik.
suppliant [ˈsʌplɪənt] *a* yalinadigan, o'tinuvchi, yalinib-yolvorib so'raydigan, yalinuvchi.
supplicate [ˈsʌplɪkeɪt] *v* yolvormoq, o'tinmoq, yalinmoq; iltijo qilmoq.
supplication [ˌsʌplɪ ˈkeɪʃn] *n* iltijo, o'tinch, yolvorish; o'tinib (yolvorib) so'rash.
supply [sə ˈplaɪ] **1.** *n* ta'minlash, yetkazib berish; **2.** *v* ta'minlamoq, yetkazib bermoq.
support [sə ˈpɔ:t] **1.** *n* qo'llab-quvvatlash, madad, yordam; **2.** *v* qo'llab-quvvatlamoq.
supporter [sə ˈpɔ:tə] *n* tarafdor, yoqlovchi, ergashuvchi; muxlis.
supportive [sə ˈpɔ:tɪv] *a* 1) madad (dalda) beruvchi, qo'llab-quvvatlovchi, ko'maklashuvchi, yordam beruvchi; 2) qonun-qoida chegarasidagi.
suppose [sə ˈpəuz] *v* 1) faraz qilmoq; 2) ko'zlamoq, chamalamoq.
supposedly [sə ˈpəuzɪdlɪ] *adv* 1) ko'pchilikning fikriga ko'ra; 2) taxminan, mo'ljallab, chamalab.
supposing [sə ˈpəuzɪŋ] *cj.* agar, agarda, bordi-yu; modomiki; basharti, mabodo.
supposition [ˌsʌpə ˈzɪʃn] *n* faraz, taxmin, ehtimol.
suppress [sə ˈpres] *v* to'xtatmoq, oldini olmoq, barham bermoq, yo'q qilmoq.
suppression [sə ˈpreʃn] *n* kuch bilan bosish, bosib qo'yish, bostirish.
suppurate [ˈsʌpjureɪt] *v* yiringlamoq, yiring (gazak) olmoq, fasod bog'lamoq.
suppuration [ˌsʌpju ˈreɪʃn] *n* yiringlash, yiring (fasod) bog'lash, moddalash.
supremacy [su ˈpreməsɪ] *n* ustunlik; rahbarlik, boshchilik, tepada turish.
supreme [su ˈpri:m] **1.** *n harb.* bosh qo'mondon; **2.** *a* eng yuqori, oliy.
supremely [su: ˈpri:mlɪ] *adv* favqulodda, haddan tashqari, juda ham, o'ta.
surcharge [ˈsɔ:tʃɑ:dʒ] *n* ortiqcha ortilgan yuk; ortiqcha yuklash.
sure [ʃɔ:, ʃuə] *a* 1) ishongan, ishonchli; 2) shubhasiz; albatta.
surely [ˈʃɔ:lɪ, ˈʃuəlɪ] *adv* albatta, turgan gap, shak-shubhasiz, tabiiy.
surf [sɔ:f] *n* qirg'oqqa uriladigan to'lqin, qirg'oq to'lqini.
surface [ˈsə:fɪs] *n* yuza, ust.
surfeit [ˈsə:fɪt] *n* ortiqchalik, keragidan ortiq ishlatish, iste'mol qilish.
surge [sə:dʒ] *n* to'lqin, g'alayon.
surgeon [ˈsə:dʒən] *n* jarroh.
surgery [ˈsə:dʒərɪ] *n* jarrohlik.
surgical [ˈsə:dʒɪkl] *a* xirurgiyaga (jarrohlikka) oid; jarrohlik.
surly [ˈsə:lɪ] *a* badqovoq, badjahl, jahli yomon, serjahl.
surmise [sə ˈmaɪz] *n* taxmin, faraz, gumon; shubha.
surmount [sə ˈmaunt] *v* bardosh bermoq; bardosh bilan yengmoq, yengib chiqmoq, ustun (g'olib) kelmoq.
surname [ˈsə:neɪm] **1.** *n* 1) familiya; 2) laqab; **2.** *v* laqab qo'ymoq.
surpass [sə ˈpɑ:s] *v* ortiq (afzal) bo'lmoq, oshib (ortib) ketmoq, ustun (bo'lib) chiqmoq.
surplus [ˈsə:pləs] *n* keragidan ortiq narsa, ortiqcha narsa.
surprise [sə ˈpraɪz] **1.** *n* 1) ajablanish; 2) hayratda qolish; **2.** *v* 1) hayratda qoldirmoq; 2) ajablantirmoq.
surprised [sə ˈpraɪzd] *a* ajablangan, hayron bo'lgan, hayratda qolgan.
surprising [sə ˈpraɪzɪŋ] **1.** *pres. p.* **surprise 2.** *dan*; **2.** *a* kutilmagan, nogahoniy, tasodifiy.
surrealism [sə ˈrɪəlɪzm] *n tar.* surrealizm (*XX asr burjua adabiyoti va san'atidagi ijodda aql-idrok va tajriba rolini inkor qiladigan o'ta formalistik oqimlardan biri*).
surrender [sə ˈrendə] **1.** *n* taslim bo'lish, tan berish; **2.** *v* taslim bo'lmoq, tan bermoq.
surreptitious [ˌsʌrəp ˈtɪʃəs] *a* yashirin, maxfiy; zimdan, bildirmasdan, sezdirmasdan.
surrogate [ˈsʌrəgət] *n* o'rnini oluvchi (bosuvchi), o'rinbosar.
surround [sə ˈraund] *v* atrofni o'rab olmoq, o'rab turmoq; **~ing** yaqin, qo'shni, atrofdagi; **~ings** atrof, tevarak.
surtax [ˈsə:tæks] *n* qo'shimcha daromad solig'i.
surveillance [sə ˈveɪləns] *n* nazorat, nazorat qilish, qarab turish.
survey [ˈsə:veɪ] *n* 1) so'rash, so'roq qilish; 2) tekshirish; ko'rib chiqish, ko'zdan kechirish.
survival [sə ˈvaɪvl] *n* 1) tirik qolish; 2) qoldiq, sarqit.
survive [sə ˈvaɪv] *v* umr kechirmoq, boshdan kechirmoq, tirik qolmoq, qutulib qolmoq.
susceptibility [sə,septə ˈbɪlətɪ] *n* ta'sirlanuvchanlik, ta'sirchanlik.
susceptible [sə ˈseptəbl] *a* ta'sirlanuvchan, tez ta'sirlanuvchi.
suspect **1.** *n* [ˈsʌspekt] shubhali odam; **2.** *v* [sə ˈspekt] shubha qilmoq, shubhalanmoq.
suspend [sə ˈspend] *v* to'xtatmoq, (*vaqtincha*) bas qilmoq.
suspender [sə ˈspendə] *v* ilmoq, osmoq; ilib (osib) qo'ymoq.
suspenders [sə ˈspendəz] *n pl amer.* (*biror narsani yoki kimsani tortib, tutib turish uchun xizmat qiladigan*) qayish, tasma.
suspense [sə ˈspens] *n* noma'lum, ma'lum (daragi) yo'qlik; majhullik.
suspension [sə ˈspenʃn] *n* birmuncha vaqt to'xtatish, to'xtatib qo'yish, to'xtatib turish; biroz to'xtash, to'xtalish, to'xtab turish.

suspicion [sə ˊspɪʃn] *v* shubha, gumon.
suspicious [sə ˊspɪʃəs] *a* 1) shubhali, shubha tug'diradigan; 2) gumonsiraydigan, xavfsiraydigan.
sustain [sə ˊsteɪn] *v* 1) tutib turmoq, ko'tarib turmoq; 2) tiramoq, tirab qo'ymoq, tirgak qo'ymoq.
sustenance [ˊsʌstənəns] *n* 1) tirikchilik vositalari; tirikchilik uchun zarur narsalar, mablag'lar; 2) ovqat, oziq, taom; 3) madad (dalda) berish, qo'llab-quvvatlash, ko'maklash, yordam berish.
suture [ˊsu:tʃə] *n anat., bot.* chok, hoshiya.
swab [swɔb] *n* 1) shvabra, pol yuvgich; 2) *tib.* tampon (*yara ichiga tiqiladigan, qon va yiringni shimib oladigan dorilangan paxta yoki doka*).
swaddle [ˊswɔdl] *v* yo'rgaklamoq, yo'rgaklab bog'lamoq.
swagger [ˊswægə] *n* 1) savlat to'kib yurish; 2) odobsizlik, betakalluflik, surbetlik.
swallow I [ˊswɔləu] *v* yutmoq, chaynamay yutmoq.
swallow II [ˊswɔləu] *n* qaldirg'och.
swam [swæm] *v* suzmoq, suzib yurmoq; suza olmoq.
swamp [swɔmp] *n* botqoq, botqoqlik, balchiqzor.
swan [swɔn] *n* oqqush.
swank [swæŋk] *n so'zl.* maqtanchoqlik, manmanlik, maqtanish, kerilish.
swap [swɔp] = **swop.**
sward [swɔ:d] *n* maysazor (*park, bog', hovli va sh.k. joylarda*).
swarm I [swɔ:m] *n* gala, to'da, to'p.
swarm II [swɔ:m] *v* tirmashib (o'rmashib) chiqmoq, arang ko'tarilmoq.
swarthy [ˊswɔ:ðɪ] *a* qoracha, qorachadan kelgan, bug'doy rang.
swat [swɔt] *n* tarsaki, shapaloq; urish, turtish, zarb.
swath [swɔθ] *n* chalg'i bilan o'rilganda ochilgan joy.
swathe [sweɪð] **1.** *n* bint; o'raladigan narsa, o'rov; **2.** *v* bint bilan bog'lamoq.
sway [sweɪ] *n* tebranish; silkitish, siltash, qoqish.
swear [sweə] *v* (**swore, sware; sworn**) qasam ichmoq, qasamyod qilmoq, ont ichmoq.
swear-word [ˊsweəwə:d] *n* so'kish; haqorat.
sweat [swet] **1.** *n* ter; **2.** *v* terlamoq.
sweater [ˊsetə] *n* to'r ko'ylak, jemfer, sviter.
swede [swi:d] *n bot.* brukva (*sholg'omsimon sabzavot*).
Swedish [ˊswi:dɪʃ] **1.** *a* shvedlarga va Shvetsiyaga oid; **2.** *n* shved tili.
sweep [swi:p] **1.** *n* 1) supurgi; 2) supurish; **2.** *v* (**swept**) supurmoq; supurib tashlamoq..
sweeper [ˊswi:pə] *n* 1) farrosh, supuruvchi, (*ko'cha*) supuradigan kishi: 2) ko'cha supuradigan mashina.
sweeping [ˊswi:pɪŋ] **1.** *pres. p.* **sweep 2.** *dan*; **2.** *v* supurmoq, supurib tozalamoq.
sweet [swi:t] **1.** *a* shirin, mazali; **2.** *n* shirinlik, konfet; **~en** shakar (*qand*) qo'shmoq.
sweeten [ˊswi:tn] *v* biroz shirin qilmoq, biroz shirinlik (shakar, murabbo) qo'shmoq; shirinroq qilmoq.
sweetener [ˊswi:tnə] *n* 1) shakarning o'rnini bosuvchi narsa; 2) pora, rishta.
sweetheart [ˊswi:thɑ:t] *n* ma'shuq, ma'shuqa, yor.
sweetmeat [ˊswi:tmi:t] *n* obaki, obakidandon (*konfet*).
swell [swel] *v* (**swelled; swollen**) 1) shishmoq, do'mbira bo'lmoq, shishib ketmoq, g'urra bo'lmoq; 2) shishirmoq, do'mbira qilmoq.
swelling [ˊswelɪŋ] **1.** *pres. p.* **swell** *dan*; **2.** *n* 1) shish, g'urra; 2) do'nglik, do'mboqlik.
swelter [ˊseltə] *n* jazirama issiq, kun qizig'i.
swept [swept] *past. p. p.* **sweep 2.** *dan.*
swerve [swə:v] *n* og'ish, chetga chiqish, farq.
swift [swɪft] *a* tez, ildam, jadal.
swig [swɪg] **1.** *n* ho'plam, qultum (*spirtli ichimlik*); **2.** *v* ho'plab ichmoq (*musallasni*).
swill [swɪl] *v* (*suvda*) chaymoq, chayqamoq.
swim [swɪm] **1.** *n* (*suvda*) suzish; **2.** *v* (*suvda*) suzmoq; suzib yurmoq.
swimmer [ˊswɪmə] *n* suzuvchi.
swimming-bath [ˊswɪmɪŋbɑ:θ] *n* usti yopilgan cho'milish hovuzi (basseyni).
swimmingly [ˊswɪmɪŋlɪ] *adv* tekislab, silliq qilib, tep-tekis, sip-silliq.
swimming-pool [ˊswɪmɪŋpu:l] *n* usti ochiq cho'milish hovuzi (basseyni).
swindle [ˊswɪndl] *n* aldamchilik, tovlamachilik, firibgarlik.
swindler [ˊswɪndlə] *n* muttaham, qallob, firibgar; aldamchi, tovlamachi.
swine [swaɪn] *n zool.* xonaki cho'chqa.
swineherd [ˊswaɪnhə:d] *n* cho'chqabon, cho'chqaboqar.
swing [swɪŋ] **1.** *n* tebranish, chayqalish, silkinish; **2.** *v* tebranmoq, chayqalmoq, silkinmoq.
swipe [swaɪp] *v* 1) zarba bermoq, urmoq; 2) o'g'irlab (*o'marib*) ketmoq.
swirl [swə:l] *v* aylanmoq, gir-gir aylanmoq.
swish [swɪʃ] *a so'zl.* kelishgan, ko'rkam, zebo, shinam; hashamatli, muhtasham.
Swiss [swɪs] **1.** *a* shveysariya *yoki* Shveysariyaga oid; shveysariyalik; **2.** *n* shveysariyalik kishi *yoki* ayol.
switch [swɪtʃ] **1.** *n* 1) *el.* vikluchatel; 2) kommutator (*elektr zanjirida tok yo'lini uzib-ulab yoki o'zgartirib turadigan asbob; 2. telefon apparatlarini uzib-ulab turadigan qurilma*); 3) chiviq, xivich, xipchin; **2.** *v* 1) xipchin bilan urmoq, savalamoq; 2) elektr toki yo'nalishini o'zgartirmoq (*yoqmoq yoki o'chirmoq*).
switchboard [ˊswɪtʃbɔ:d] *n el.* kommutator (*1) elektr zanjirida tok yo'lini uzib-ulab yoki o'zgartirib turadigan asbob; 2) telefon apparatlarini uzib-ulab turadigan qurilma*).
switch off [ˊswɪtʃɔf] *v* o'chirmoq.

switch on [ˈswɪtʃɔn] *v* yoqmoq.
swivel [ˈswɪvl] *n tex.* vertlyug (*turli mexanizmlarda birikkan detallarning bir-biriga nisbatan aylanishini ta'minlovchi zveno*).
swollen [ˈswəulən] **1.** *p. p.* **swell** *dan*; **2.** *a* shishgan, kattalashgan, bo'rtgan.
swoon [swu:n] *n* hushdan (o'zidan) ketish, behush bo'lib qolish, behushlik, hushsizlik.
swoop [swu:p] *n* to'satdan hujum qilish.
swop [swɔp] *n so'zl.* alishish, almashish, almashtirish, ayirbosh qilish, ayirboshlash.
sword [sɔ:d] *n* qilich, shamshir.
sword-belt [ˈsɔ:dbelt] *n* kamarband (*belga yoki yelkaga taqib yuriladigan, qurol osish uchun xizmat qiladigan tasma*).
swore [swɔ:] *a* qasamyod qilgan, qasam (ont) ichgan; ~ **friends** ajralmas do'stlar.
sworn [swɔ:n] *p. p.* **swear** *dan.*
swot [swɔt] *n so'zl.* 1) og'ir ish, qiyin ish; 2) tushunmasdan yodlash, yodlab olish; 3) tushunmasdan yodlovchi.
swum [swʌm] *p. p.* **swim 2.** *dan.*
swung [swʌŋ] *past., p. p.* **swing 2.** *dan.*
sycamore [ˈsɪkəmɔ:] *n bot.* 1) oq zarang; 2) chinor.
sycophant [ˈsɪkəfənt] *n* xushomadgo'y odam, laganbardor, tilyog'lamachi.
syllabic [sɪ ˈlæbɪk] *a* bo'g'inli, bo'g'inga oid.
syllable [ˈsɪləbl] **1.** *n* bo'g'in; **2.** *v* bo'g'inlarga bo'lib talaffuz qilmoq.
syllabus [ˈsɪləbəs] *n* 1) (*kurs, leksiyaning*) dasturi; 2) konspekt, reja; 3) jadval.
sylvan [ˈsɪlvən] = **silvan.**
symbol [ˈsɪmbl] *n* belgi, alomat; ramz, timsol.
symbolic(al) [sɪmˈbɔlɪk(əl)] *a* simvollar (ramzlar) orqali ifodalangan, simvolik, ramziy.
symbolically [ˌsɪmˈbɔlɪkəlɪ] *adv* simvolik, ramziy, ramzlar bilan (orqali), ramzlar vositasida.
symbolize [ˈsɪmbəlaɪz] *v* simvol (ramziy ishora) bo'lib xizmat qilmoq, ramzi bo'lmoq.
symmetric(al) [sɪ ˈmetrɪk(əl)] *a* simmetrik.
symmetry [ˈsɪmətrɪ] *n* 1) simmetriya; 2) ...ga moslik, to'g'rilik, mutanosiblik.
sympathetic [ˌsɪmpəˈθetɪk] *a* 1) rahmdillik bilan, (rahmi) kelib qilingan; 2) mehribon, oq ko'ngil, 3) yoqimli, yoqimtoy, istarasi issiq.
sympathize [ˈsɪmpəθaɪz] *v* achinmoq, rahmi kelmoq; rahm qilmoq, hamdard bo'lmoq.
sympathy [ˈsɪmpəθɪ] *n* 1) bir-birini tushunish, hamdardlik; 2) muvofiqlik, uyg'unlik.
symphony [ˈsɪmfənɪ] *n* 1) simfoniya, simfonik musiqa; 2) simfonik; ~ **orchestra** simfonik orkestr.
symposium [sɪmˈpəuzɪəm] *n* simpozium, ilmiy kengash.
symptom [ˈsɪmptəm] *n* alomat, tashqi belgi, nishona.
synagogue [ˈsɪnəgɔg] *n* sinagoga (*yahudiylar ibodatxonasi*).
synchronize [ˈsɪŋkrənaɪz] *v* sinxronlamoq, sinxron qilmoq, bir-biriga moslamoq (to'g'rilamoq).
syncopate [ˈsɪŋkəpeɪt] *v* 1) *mus.* urg'uning kuchli qismdan kuchsiz qismga o'tishi; 2) *gram.* so'zni qisqartirmoq, so'z o'rtasida bo'g'in *yoki* tovushni tushirib qoldirmoq.
syndicate [ˈsɪndɪkət] *n* sindikat (*yirik monopolistik birlashmalarning bir turi*).
synonym [ˈsɪnənɪm] *n gram.* sinonim.
synonymous [sɪ ˈnɔnəməs] *a* sinonimlarga (ma'nodosh so'zlarga) oid; ma'nodosh.
synopsis [sɪˈnɔpsɪs] *n* (*pl* **-ses**) konspekt.
synoptic(al) [sɪˈnɔptɪk(əl)] *a kim.* sintetik, sintez yo'li bilan hosil qilingan.
syntax [ˈsɪntæks] *n gram.* sintaksis, gap tuzilishi.
synthesis [ˈsɪnθɪsɪs] *n* (*pl* **-ses**) sintez (*sodda kimyoviy birikma yoki elementlardan murakkab birikmalar hosil qilish*).
synthesizer [ˈsɪnθəsaɪzə] *n* sintezator.
syphilis [ˈsɪfəlɪs] *n* sifilis, zaxm.
syphon [ˈsaɪfn] = **siphon.**
Syrian [ˈsɪrɪən] **1.** *a* Suriyaga va suriyaliklarga oid; **2.** *n* suriyalik kishi, suriyalik ayol.
syringe [sɪˈrɪndʒ] **1.** *n* 1) shpris (*badanga dori yuboradigan asbob*); 2) *tex.* shpris (*mashina qismlarini moylaydigan asbob*); **2.** *v* bosim ostidagi suv *yoki* suyuq dori purkab yuvmoq.
syrup [ˈsɪrəp] *n* shinni, qiyom, sharbat.
system [ˈsɪstəm] *n* 1) yo'l, tartib, usul; 2) tuzum; **social** ~ ijtimoiy tuzum.
systematic(al) [ˌsɪstəˈmætɪk(əl)] *a* 1) sistemali, muntazam, doimiy, har doimgi; 2) tartibli, batartib.
systematize [ˈsɪstəmətaɪz] *a* sistemalamoq, sistemaga (tartibga) solmoq.
systemic [sɪ ˈstemɪk] *a fiziol.* 1) tartibli, batartib; 2) muntazam, doimiy; 3) barcha organizmga tegishli (taalluqli) bo'lgan; 4) *biol. tib.* somatik, jismoniy.

Tt

T, t [ti:] *n* ingliz tili alifbosining yigirmanchi harfi.
ta [tɑ:] *int. so'zl.* rahmat, tashakkur.
tab [tæb] *n* 1) ilgak (*ustki kiyimga tikilgan yoki qadalgan halqasimon ilgak*); quloqcha, tutqich; 2) etiketka, yorliq, yozuv; 3) *amer.* chek, hisob kitob; 4) quloq (*bosh kiyimda*); 5) pastga tushirib ko'tariladigan kichkina parda (*teatrda*).
tabard [ˈtæbɑ:d] *n tar.* 1) plash; 2) yelkaga tashlanadigan yengsiz keng kiyim.
tabby [ˈtæbɪ] *n* 1) muar, muhayyar (*tovlanadigan qalin shoyi*); 2) ola-bula mushuk; 3) qari qiz.
tabernacle [ˈtæbənækl] *n* 1) chodir; 2) chimildiq, go'shanga; 3) ibodatxona, butxona.

tabes [ˈteɪbi:z] *n tib.* sifilis (zaxm) tufayli orqa miyaning (*nerv sistemasining*) kasallanishi.
tabescence [tə´besns] *n tib.* oriqlash, ozib ketish.
tabetic [tə´betɪk] *a tib.* sifilis kasalligidan azob chekayotgan, sifilis kasaliga chalingan.
table [ˈteɪbl] **1.** *n* 1) stol; 2) ovqat, ovqat tayyorlash joyi; 3) jadval; 4) ro'yxat; **upon the ~** jamoat oldida hal qilinadigan; **2.** *v* 1) stolning ustiga qo'ymoq; 2) jadval tuzmoq.
tableau [ˈtæbləu] *n fr.* chiroyli manzara, chiroyli chizilgan rasm.
tableaux [ˈtæbləuz] *pl* **tableau** *dan.*
table-beer [ˈteɪbl,bɪə] *n* oshxona pivosi (*spirtsiz pivo*).
table-book [ˈteɪblbuk] *n* 1) rasmlar bilan bezatilgan yaxshi kitob; 2) jadvallar to'plami.
table-cloth [ˈteɪblklɔθ] *n* dasturxon.
table-cover [ˈteɪbl,kʌvə] *n* chiroyli dasturxon.
table d'hôte [,tɑ:bl´dəut] *n* tabl-dot *(G'arbiy Yevropada: umumiy ovqat stoli).*
table-flap [ˈteɪblflæp] *n* stolning qaytarma taxtasi.
tableful [ˈteɪblful] *n* 1) narsalar bilan to'ldirilgan stol; 2) ziyofat ahli.
table-knife [ˈteɪblnaɪf] *n* ro'zg'or pichog'i, osh pichoq.
tableland [ˈteɪbllænd] *n geogr.* yassi tog'lik, tepalik
table-leaf [ˈteɪblli:f] = **table-flap.**
table-lifting [ˈteɪbl,lɪftɪŋ] *n* spiritizm (*o'lganlar ruhi narigi dunyoda yashaydigan va ular so'zlashish mumkin deb ishonuvchi mistik oqim*).
table-linen [ˈteɪbl,lɪnɪn] *n* sochiq-dasturxon.
tableman [ˈteɪblmən] *n* tabelchi.
table-money [ˈteɪbl,mʌnɪ] *n harb.* tirikchilik (ro'zg'or) xarajatlari uchun sarflanadigan pul.
table-napkin [ˈteɪbl,næpkɪn] *n* qo'l sochiq, salfetka.
table-spoon [ˈteɪblspu:n] *n* osh qoshiq.
table-stone [ˈteɪblstəun] *n arxeol.* tosh maqbaralar.
tablet [ˈtæblət] *n* 1) (*yozuvli*) kichkina, mayda taxta; 2) bloknot, daftarcha; 3) tabletka, tabletka dori.
table-talk [ˈteɪblt:k] *n* stol (*dasturxon*) atrofidagi suhbat.
table-tennis [ˈteɪbl,tenɪs] *n* stol tennisi.
table-ware [ˈteɪblwɛə] *n* turli idishlar, vilka, qoshiq va b.
table-water [ˈteɪbl,wɔ:tə] *n* mineral suv (*stol uchun*).
table-work [ˈteɪblwə:k] *n* jadvallar to'plami.
tabloid [ˈtæblɔɪd] *n* 1) tuturiqsiz gazeta; 2) qisqartirilgan matnli kichkina hajmdagi gazeta.
taboo [tə´bu:] **1.** *a* man etilgan; **2.** *v* man etmoq, taqiqlamoq.
tabor [ˈteɪbə] *n tar.* kichkina nog'ora.
tabouret [ˈtæbərɪt] *n* kichkina, pastak kursi, kursicha.
tabu [tə´bu:] = **taboo.**
tabular [ˈtæbjulə] *a* jadval shaklidagi, jadvalga oid.
tabulate [ˈtæbjuleɪt] **1.** *a* yassi, yapaloq, tekis; **2.** *v* jadvalga kiritmoq.
tabulation [,tæbju´leɪʃn] *n* 1) jadval tuzish; 2) jadvaldagi ma'lumot.
tabulator [ˈtæbjuleɪtə] *n* 1) jadval tuzuvchi; 2) tabulator *(hisoblash mashinasining bir turi).*
tachometer [tæ´kɔmɪtə] *n tex.* taxometr *(aylanish tezligini o'lchaydigan asbob).*
tacit [ˈtæsɪt] *a* 1) so'z bilan bayon etilmagan; 2) nazarda (ko'zda) tutilgan; 3) so'zsiz, e'tirozsiz; lom-mim demay qilingan.
taciturn [ˈtæsɪtə:n] *a* kamgap, indamas.
taciturnity [,tæsɪ´tə:nətɪ] *n* kamgaplik, indamaslik.
tack I [tæk] *n* 1) keng qalpoqli mix, knopka; 2) chokning (qaviqning) bir yo'li (bitta baxyasi).
tack II [tæk] *n deng.* ovqat, oziq, taom; **soft ~** non.
tackle I [ˈtækl] *n* asbob, buyum, jihoz.
tackle II [ˈtækl] *v amer.* 1) bog'lamoq, bog'lab qo'ymoq; 2) ushlab olmoq, tutib olmoq; 3) hal qilmoq; 4) ushlamoq, tutmoq *(futbolda koptokni).*
tacky [ˈtækɪ] *a* yopishqoq, yopishadigan.
tact [tækt] *n* odob, odoblilik, xushmuomalalik, nazokat.
tactful [ˈtæktfl] *a* odobli, xushmuomala, andishali, nazokatli.
tactical [ˈtæktɪkl] *a* 1) *harb.* taktikaga oid; 2) harbiy, jangovar; **~ efficiency** jangga shaylik; 3) epchil, chaqqon, abjir.
tactician [tæk´tɪʃn] *n* taktik *(taktikani yaxshi biladigan odam).*
tactics [ˈtæktɪks] *n pl* (**sing** *va pl bir xilda ishlatiladi*) taktika *(1. harb. tayyorgarlik ko'rish va jang olib borish san'ati; 2. ko'ch. ko'zlangan maqsadga erishish uchun ishlatiladigan kurash usullari).*
tactile [ˈtæktaɪl] *a* 1) sezadigan, sezuvchi, sezish uchun xizmat qiladigan; 2) sezilarli darajadagi.
tactless [ˈtæktləs] *a* odobsiz, beandisha.
tad [tæd] *n amer.* go'dak, farzand, bola.
Tadjik [ˈtɑ:dʒɪk] **1.** *a* tojiklarga, Tojikistonga oid; **2.** *n* 1) tojik, tojik ayoli, tojik qiz; 2) tojik tili.
tadpole [ˈtædpəul] *n* itbaliq, qurbaqa bolasi.
ta'en [teɪn] *shoir.* **taken** *ga qarang.*
taffeta [ˈtæfɪtə] *n* tafta *(gazlama turi).*
tafia [ˈtæfɪə] *n* arzon romning bir turi *(kuchli spirtli ichimliklarning bir turi).*
tag I [tæg] **1.** *n* 1) yozuv, yorliq; 2) quloqcha, tutqich; 3) ilmoq, sirtmoq, halqa; **2.** *v* 1) biriktirmoq, mahkamlamoq; 2) qo'shmoq, ilova qilmoq *(kitob, xat va b.).*
tag II [tæg] **1.** *n* quvlashmachoq *(bolalar o'yini);* **2.** *v* orqasidan quvib borib urmoq yoki koptok otib tekkizmoq *(bolalar o'yinlarida).*
tag day [ˈtægdeɪ] *n amer.* xayr-ehson (sadaqa, qurbonlik) qilish kuni.
tagged [tægd] *a* belgilangan, belgi solingan *(qo'yilgan, tamg'a bosilgan).*
tagger [ˈtægə] *n pl* bir taxta juda yupqa tunukalar.

taiga [ˈtaɪgə] *n* tayga (*Yevropa va Osiyo qit'alarining shimolidagi g'oyat zich to'qayzor*).

tail I [teɪl] **1.** *n* 1) dum, orqa qism, quyruq; 2) navbat; 3) kuchsiz, zaif qism; 4) tanganing teskari tomoni; **2.** *v* 1) dum hosil qilmoq; 2) oxirini ulamoq; **~ away** cho'zilib ketmoq, uzoqdan yo'q bo'lmoq.

tail II [teɪl] *n yur.* merosga qoldirilgan buyumlarning cheklangan shartlari.

tail-board [ˈteɪlbɔ:d] *n* aravaning qaytarma (*ko'tarma*) orqasi.

tail-coat [ˌteɪl ˈkəut] *n* frak (*oldingi etagi qisqa, orqa etagi uzun erkaklar kiyimi*).

tail-end [ˌteɪlˈend] *n* (*biror narsaning*) yakunlovchi qism (oxiri).

tailings [ˈteɪlɪŋz] *n pl* qoldiq, tashlandiq, chiqit, supurindi.

tail-lamp [ˈteɪllæmp] = **tail-light.**

tailless [ˈteɪlləs] *a* quyruqsiz, dumi yuluq, dumsiz.

tail-light [ˈteɪllaɪt] *n* mashina orqasidagi fonus (fonar).

tailor [ˈteɪlə] **1.** *n* mashinachi, tikuvchi; **2.** *v* tikmoq.

tailored [ˌteɪləd] **1.** *p. p.* **tailor 2.** *dan*; **2.** *a* buyurtma asosida qilingan.

tailoring [ˈteɪlərɪŋ] **1.** *pres. p.* **tailor 2.** *dan*; **2.** *n* 1) tikuvchilik ishi; 2) kiyim (ustbosh) tikish.

tailor-made [ˌteɪlə ˈmeɪd] *a* maxsus buyurtma asosida qilingan.

tailpiece [ˈteɪlpi:s] *n* oxirgi qism.

tail-slide [ˈteɪlslaɪd] *n av.* samolyotning orqa tomonga og'ishi.

tail-spin [ˈteɪlspɪn] *n* 1) boshqarib bo'lmaydigan shtopor (*oliy pilotajda: samolyotning pastga qarab burilib sho'ng'ishi*); 2) iqtisodda inqirozga yuz tutish.

tail-wind [ˈteɪlwɪnd] *n* hamroh shamol.

tain [teɪn] *n* qalaydan qilingan amalgama (*amalgama – simobning biror metall bilan qotishmasi*).

taint I [teɪnt] *n* 1) dog', isnod; 2) axloqi buzuqlik, axloqsizlik, badaxloqlik.

taint II [teɪnt] *v* 1) yuqtirmoq; 2) buzilmoq; **meat ~s readily in hot weather** issiqda go'sht tez buziladi.

tainted [ˈteɪntɪd] **1.** *p. p.* **taint II** *dan*; **2.** *a* buzuq, buzilgan.

taintless [ˈteɪntləs] *a* beayb, benuqson, bekamko'st.

Tajik [ˈtɑ:dʒɪk] = **Tadjik.**

take [teɪk] *v* (**took; taken**) 1) olmoq; 2) foydalanmoq; **~ a bus** avtobusga chiqmoq; 3) ijaraga olmoq; 4) *kino.* kadrga olmoq; **~ part in** qatnashmoq; **~ a holiday** ta'tilga chiqmoq; **~ place** sodir bo'lmoq; **~ in** mehmon kutmoq; **~ on** xizmatga qabul qilmoq; **~ out** chiqarmoq; **~ up** muhokama qilmoq; **~ a meal** ovqatlanmoq.

take-down [ˈteɪkdaun] *n* xo'rlash, yerga urish.

take-home pay [ˈteɪkhəumpeɪ] *n* sof ish haqi.

take-in [ˈteɪkɪn] *n* aldash, firib berish.

taken [ˈteɪkən] *p. p.* **take** *dan.*

take-off [ˈteɪkɔf] *n* 1) *so'zl.* taqlid qilish, o'xshatish; 2) *av.* parvoz qilish, uchish.

take-over [ˈteɪk,əuvə] *n* bosib olish, qo'lga olish.

taker [ˈteɪkə] *n* oluvchi shaxs.

taking [ˈteɪkɪŋ] **1.** *pres. p.* **take** *dan*; 1) bosib olish; zabt qilish, qo'lga olish; 2) qamoqqa (hibsga) olish.

talari [ˈtɑ:lərɪ] *n* talari Efiopiyaning pul birligi.

talc [tælk] **1.** *n min.* talk (*texnika va tibbiyotda ishlatiladigan oq yoki ko'kish rangli mineral*); **2.** *v* talk sepmoq.

talcum [ˈtælkəm] = **talc 1.**

talcum powder [ˈtælkəm,paudə] *n* gigiyenik upa.

tale [teɪl] *n* hikoya; uydirma; ertak, cho'pchak; rivoyat, qissa; to'qima (*asarlar*).

talent [ˈtælənt] *n* iste'dod, layoqat, qobiliyat.

talented [ˈtæləntɪd] *a* iste'dodli, qobiliyatli.

talentless [ˈtæləntləs] *a* lapashang, qobiliyatsiz, iste'dodsiz.

tales [ˈteɪli:z] *n lot. pl* sud maslahatchilari ro'yxati.

talesman [ˈteɪli:zmən] *n* sud maslahatchisi.

taleteller [ˈteɪl,telə] *n* hikoyachi, hikoya qiluvchi.

tali [ˈteɪlaɪ] *pl* **talus** *dan.*

taliped [ˈtælɪped] *a tib.* maymoqlikdan azoblanayotgan.

talipes [ˈtælɪpi:z] *n* maymoqlik.

talipot [ˈtælɪpɔt] *n bot.* hind palmasi (*yelpichsimon palma*).

talisman [ˈtælɪzmən] *n* tumor.

talk [tɔ:k] **1.** *n* 1) muzokara, ma'ruza; suhbat; 2) nutq so'zlash, gaplashish, suhbatlashish; **2.** *v* gaplashmoq; suhbatlashmoq.

talkathon [ˈtɔ:kəθɔn] *n amer.* juda uzun nutq *yoki* munozara (bahs, tortishuv).

talkative [ˈtɔ:kətɪv] *a* sergap, ezma, mahmadona.

talker [ˈtɔ:kə] *n* 1) sergap (ezma) odam; 2) yaxshi notiq.

talkie [ˈtɔ:kɪ] *n so'zl.* ovozli kino.

talking [ˈtɔ:kɪŋ] **1.** *pres. p.* **talk** *dan*; **2.** *a* 1) ifodali, ma'noli; 2) sergap, so'zlashni yaxshi ko'ruvchi; 3) gapiradigan; **~ film** ovozli film.

talking machine [ˈtɔ:kɪŋmə,ʃi:n] *n* 1) grammofon; 2) fonograf (*ovozni yozib oladigan asbob*).

talking-to [ˈtɔ:kɪŋtu:] *n* 1) talaffuz; 2) tanbeh, hayfsan

tall [tɔ:l] *a* baland, novcha, uzun bo'yli, baland bo'yli.

tallboy [ˈtɔ:lbɔɪ] *n* baland komod (*kiyim-kechak turadigan qutili javon*).

tallow [ˈtæləu] *n* 1) moy; yog'; 2) arava (g'ildirak) moyi.

tally-ho [ˌtælɪ ˈhəu] **1.** *int. ov.* yugur, ol, bos (*o'rgatilgan yoki ovchi itga xitob so'zi*); **2.** *v* itlarni olkishlamoq, gij-gijlamoq.

tally-shop [ˈtælɪʃɔp] *n* mollarni bo'lib-bo'lib to'lash sharti bilan sotib oladigan *yoki* sotadigan magazin (do'kon).

tally trade [ˈtælɪtreɪd] *n* bo'lib-bo'lib to'lash sharti bilan sotib olish *yoki* sotish.

talma [ˊtælmə] *n fr.* talma (*ayollarning yelkaga tashlab yuradigan yengsiz uzun kiyimi*).
talon [ˊtælən] *n* 1) tirnoq, changal; 2) uzun tirnoq; 3) talon.
taluk [tɑːˊluːk] *n hind.* 1) soliq okrugi; 2) merosiy mulk.
talus I [ˊteɪləs] *n anat.* to'piq suyagi.
talus II [ˊteɪləs] *n* 1) qiyalik, yonbag'irlik; 2) *geol.* to'kilma (*tog' yonbag'ridagi ko'chib tushgan tosh, xarsang uyumi*).
tamable [ˊteɪməbl] *a* bo'ysunadigan, rom qilingan, rom bo'lgan.
tamarack [ˊtæməræk] *n bot.* Amerika tilog'ochi (*ignabarglilarga mansub daraxt*).
tamarind [ˊtæmərɪnd] *n bot.* tamar hindiy, hind xurmosi.
tamarisk [ˊtæmərɪsk] *n bot.* yulg'un.
tambour I [ˊtæmbuə] *n* do'mbira, nog'ora.
tambour II [ˊtæmbuə] *v* (*matoga gul*) to'qimoq.
tambourine [ˌtæmbəˊriːn] *n* childirma, doira.
tame [teɪm] **1.** *a* 1) qo'lga oid, qo'lga o'rgatilgan; ~ **bear** qo'lga o'rgatilgan ayiq; 2) xonaki (*mushuk*); **2.** *v* qo'lga o'rgatmoq.
tameable [ˊteɪməbl] = **tamable**.
tameless [ˊteɪmləs] *a* 1) yovvoyi, vahshiy; 2) qo'lga o'rgatib (rom qilib) bo'lmaydigan.
tamer [ˊteɪmə] *n* 1) (*hayvonlarni*) bo'ysundiruvchi, bo'ysundirib o'rgatuvchi, rom qiluvchi.
Tamil [ˊtæmɪl] **1.** *n* 1) tamil; 2) tamil tili; **2.** *a* tamilga oid.
Tamilian [təˊmɪlɪən] *a* Tamil va tamilliklarga oid.
Tammany [ˊtæmənɪ] *n amer.* Nyu-Yorkdagi mustaqil demokratik partiya tashkiloti.
Tammany Hall [ˊtæmənɪhɔːl] *n amer.* Nyu-Yorkdagi demokratik partiya shtabi.
tammy I [ˊtæmɪ] = **tam-o'-shanter.**
tammy II [ˊtæmɪ] *n* suzg'ich, elak, g'alvir.
tam-o'-shanter [ˌtæməˊʃæntə] *n* shotlandiya bereti (*movutdan qilingan yoki baxmaldan tikilgan bosh kiyim*).
tamp [tæmp] *v* to'ldirmoq, to'latmoq, tiqishtirmoq, zichlab tiqmoq.
tampan [ˊtæmpæn] *n* Janubiy Afrikaning zaharli kanasi.
tamper I [ˊtæmpə] *v* 1) aralashmoq, tumshug'ini suqmoq; 2) soxtalashtirmoq; 3) birovni pulga sotib olmoq.
tamper II [ˊtæmpə] *n* shibbalagich (*shibbalaydigan, shibbalab zichlaydigan asbob yoki mashina*).
tampion [ˊtæmpɪən] *n* tiqin.
tampon [ˊtæmpɔn] *n tib.* tampon (*yara ichiga tiqiladigan,qon va yiringni shimib oladigan paxta yoki doka*).
tamtam [ˊtæmtæm] = **tomtom.**
tan [tæn] **1.** *n* 1) oshlaydigan teri; 2) oftobda qorayish; **2.** *a* sarg'ish-jigarrang; **3.** *v* 1) teri oshlamoq; 2) oftobda toblanib yotmoq.
tana [ˊtɑːnə] *n hind.* politsiya uchastkasi.
tanadar [ˊtɑːnədɑː] *n hind.* politsiya mahkamasining boshlig'i.
tandem [ˊtændəm] *a* o'rindig'i oldinma-keyin joylashgan ikki o'rinli velosiped.
tang I [tæŋ] *n* 1) achchiq, o'tkir hid; 2) o'ziga xos xususiyat (fazilat).
tang II [tæŋ] **1.** *n* jarang, jiring, jaranglagan (jiringlagan) ovoz, jaranglash; **2.** *v* baland jaranglamoq, jiringlamoq, jingillamoq, jarang-jurung qilmoq.
tangent [ˊtændʒənt] *n* 1) urinma (*egri chiziqning biror nuqtasiga tegib o'tgan to'g'ri chiziq*); 2) *mat.* tangens.
tangential [tænˊdʒenʃl] *a* tangensial (*egri chiziqqa urinma chiziq bo'yicha yo'nalgan*).
Tangerine [ˌtændʒəˊriːn] *n* Tanjer fuqarosi.
tangerine [ˌtændʒəˊriːn] *n* 1) mandarin (*daraxt va mevasi*); 2) to'q sariq rang.
tangibility [ˌtændʒəˊbɪlətɪ] *n* 1) sezilish, sezilishi mumkinlik, seziluvchanlik; 2) haqiqiylik, chinlik.
tangible [ˊtændʒəbl] *v* sezib bo'ladigan, sezish mumkin bo'lgan.
tangle [ˊtæŋgl] **1.** *n* 1) chigallashgan koptok ip; 2) chigal, ishkal; 3) urush; 4) nizo; **2.** *v* 1) chigallashmoq; 2) ovlamoq; 3) aralashib ketmoq.
tangled [ˊtæŋgld] *a* chigal, chalkash, chalkashib (chigallashib) ketgan.
tanglefoot [ˊtæŋglfut] *n* 1) *amer.* viski (*ingliz arag'i*); 2) pashshaga qarshi yopishqoq qog'oz.
tangleleg [ˊtæŋglleg] = **tanglefoot**.
tangly [ˊtæŋglɪ] *a* chigal, chuvalgan, chalkashgan, chigallashib ketgan.
tango [ˊtæŋgəu] *n* tango (*raqsning bir turi va shu raqs musiqasi*).
tank [tæŋk] **1.** *n* 1) sisterna (*1. suyuqliklar saqlanadigan katta metall idish; 2. suyuqlik yoki gaz tashiydigan maxsus vagon*); 2) *harb.* tank; **2.** *v* bochkaga quymoq.
tankage [ˊtæŋkɪdʒ] *n* 1) sisternaning (bakning) sig'imi (hajmi); 2) sisternada saqlash.
tankard [ˊtæŋkəd] *n* uzun pivo krujkasi (*ko'pincha qopqoqli*).
tank-borne [ˊtæŋkbɔːn] *a* sisternada tashiydigan.
tank-car [ˊtæŋkkɑː] *n* 1) sisterna; 2) avtosisterna.
tanked [tæŋkt] *a amer. slang.* mast, mast-alast.
tank engine [ˊtæŋkˌendʒɪn] *n* tank-parovoz.
tanker I [ˊtæŋkə] *n* tanker (*suyuq va yarim suyuq mahsulotlar tashiladigan kema*).
tanker II [ˊtæŋkə] *n amer. harb.* tankchi.
tanner I [ˊtænə] *n* teri ovlovchi, ishchi.
tanner II [ˊtænə] *n* 6 pensli tanga pul.
tannery [ˊtænərɪ] *n* ko'n (ishlangan, pishirilgan teri; charm) zavodi.
tannin [ˊtænɪn] *n* tanin (*tibbiyot va texnikada ishlatiladigan, tishni qamashtiradigan modda*).
tantalize [ˊtæntəlaɪz] *v* yolg'on umid bilan havasini keltirmoq.

tantalizing [ˈtæntəlaɪzɪŋ] *a* yoqimli, jozibali, jozibador, dilbar, ko'rkam, istarasi issiq.
tantalum [ˈtæntələm] *n kim.* tantal (*qiyin eriydigan qattiq kulrang nodir metall*).
Tantalus [ˈtæntələs] *n grek.mif.* Tantal (*Yunon afsonasi qahramoni*).
tantamount [ˈtæntəmaunt] *a* 1) teng kuchli, kuchi baravar; 2) bahosi (qiymati) bir xil bo'lgan.
tantivy [tænˈtɪvɪ] **1.** *a* tezlik bilan bo'ladigan, tez, ildam, tez bo'lib o'tadigan; **2.** *adv* chopib, yugurib, yelib; yelday uchirib.
tantrum [ˈtæntrəm] *n so'zl.* birdaniga achchig'i chiqish, bir onli g'azab, lov etib bosilgan jahl.
tap I [tæp] **1.** *n* 1) po'kak, tiqin; 2) jo'mrak; 3) pivo, vino markasi; **2.** *v* tiqinni tortib (chiqarib) olmoq.
tap II [tæp] *v* urmoq, tepmoq.
tap-dance [ˈtæpdɑ:ns] *n* chechotka (*raqs turi*).
tape [teɪp] *n* 1) to'qilgan tasma, uqa, jiyak; 2) tasma, kasseta; 3) marra (pakka, finish)dagi lentacha.
tape-line [ˈteɪplaɪn] *n* 1) tasmali metr; 2) o'lchov (o'lchash uchun xizmat qiladigan) lenta.
tape-machine [ˈteɪpməˌʃi:n] *n* harf yozadigan telegraf apparati (*asbobi*).
tape-measure [ˈteɪpˌmeʒə] = **tape-line**.
taper [ˈteɪpə] **1.** *n* 1) xira chiroq; 2) asta-sekin pasayish (susayish, zaiflashish); **2.** *v* uchini chiqarmoq; o'tkirlamoq.
tape-record [ˈteɪprɪˌkɔ:d] *v* magnitofon tasmasiga yozib olmoq.
tape-recorder [ˈteɪprɪˌkɔ:də] *n* magnitofon.
tapering [ˈteɪpərɪŋ] *a* 1) ingichka va uzun (*qo'l barmoqlari va b. to'g'risida*); 2) konus shaklidagi.
tapestry [ˈtæpɪstrɪ] *n* 1) devorga osib qo'yiladigan suratli gilam; 2) gul to'qib bezatilgan gazlama (mato).
tapeworm [ˈteɪpwə:m] *n tib.* lentasimon gijja.
tap-hole [ˈtæphəul] *n* ko'z (*metallurgiya pechlarida: erigan metall yoki toshqol oqib chiqadigan teshik*).
taphouse [ˈtæphaus] = **taproom**.
tapir [ˈteɪpə] *n zool.* tapir (*qisqa xartumli sutemizuvchi hayvon*).
tapis [ˈtæpɪ] *n fr.* 1) **to be** (*yoki* **to come**) **on the** ~ muhokamada bo'lmoq, muhokama qilinmoq.
tapper [ˈtæpə] *n* telegraf kaliti.
tappet [ˈtæpɪt] *n tex.* klapanning turtkichi.
taproom [ˈtæpru:m] *n* pivoxona, bar.
tap-root [ˈtæpru:t] *n bot.* asosiy ildiz, o'qildiz.
tapster [ˈtæpstə] *n* bufetchi, bar (mayxona) egasi, bar (mayxona) sotuvchisi.
tar [tɑ:] **1.** *n* qatron; chirkay (*yog'och, torf, tosh-ko'mir kabilardan qizdirib olinadigan qora, quyuq modda*); **2.** *v* qatron surtmoq.
taradiddle [ˈtærədɪdl] *n so'zl.* yolg'on, yolg'on (*noto'g'ri*) gap, yolg'on, yolg'on-yashiq, uydirma.
tarantella [ˌtærənˈtelə] *n* tarantella (*sho'x italyan xalq raqsi hamda shunday raqs musiqasi*).
tarantula [təˈræntjulə] *n zool.* biy, o'rgimchak biyi.
taraxacum [təˈræksəkəm] *n* 1) *bot.* qoqi o't; 2) *tib.* qoqi o'tdan tayyorlangan dori.
tarboosh [ˈtɑ:bu:ʃ] *n* hojido'ppi.
tar-brush [ˈtɑ:brʌʃ] *n* qatron surtish uchun ishlatiladigan kichkina cho'tkacha.
tardigrade [ˈtɑ:dɪgreɪd] *a zool.* imillab yuradigan, sekin harakat qiladigan.
tardy [ˈtɑ:dɪ] *a* 1) sustkash, sust, lanj, kechikish; 2) kech qolgan; 3) orqada qolgan; ~ **arrival** sust kelish, kech kelish; **to be ~ for the lyceum** litseyga kechikmoq.
tare I [teə] *n* tara (*tovar-buyum joylanadigan yoki o'raladigan qog'oz, qop, quti va sh.k.*)ning og'irligi.
tare II [teə] *n bot.* ekiladigan xashaki no'xat.
targe [tɑ:dʒ] *n* kichkina yumaloq qalqon.
target [ˈtɑ:gɪt] *n* mo'ljal, nishon.
Tarheel(er) [ˈtɑ:ˌhi:l(ə)] *n amer. so'zl.* Shimoliy Karolinada yashovchi kishilarning laqabi.
tariff [ˈtærɪf] **1.** *n* 1) tarif (*biror narsaga to'lanadigan qat'iy baholar majmuyi*); 2) narx qo'yish; **2.** *v* 1) tarifga kiritmoq; 2) narx qo'ymoq.
tarlatan [ˈtɑ:lətən] *n* tarlatan (*dokaga o'xshagan mato, gazlama*).
tarmac [ˈtɑ:mæk] = **tar macadam** *so'zining qisqartmasi.*
tar macadam [ˌtɑ:məˈkædəm] *n* shosseni gudronlamoq, shossega gudron yotqizmoq.
tarnation [tɑ:ˈneɪʃn] = **damnation**.
tarnish [ˈtɑ:nɪʃ] **1.** *n* xiralik, shaffof emaslik, nursizlik; **2.** *v* xira bo'lmoq; xiralanmoq, rangi o'chmoq.
tar paper [ˈtɑ:peɪpə] *n* to'l, qora qog'oz (*smolali qalin qog'oz*).
tarpaulin [tɑ:ˈpɔ:lɪn] *n* 1) brezent; 2) matros shapkasi *yoki* kurtkasi; 3) *og'z.* matros, dengizchi.
tarpon [ˈtɑ:pən] *n zool.* tarpon (*yovvoyi ot*).
tarragon [ˈtærəgən] *n bot.* 1) estragon, tarxun (*ko'p yillik o't, ermanning bir turi*); 2) shuvoq, yoshvan.
tarrock [ˈtærək] *n* bir nechta shimoliy dengiz qushlarining nomlari.
tarry I [ˈtærɪ] **1.** *v* 1) sustkashlik qilmoq; 2) *amer.* kutmoq (**for**); 3) yashamoq (**in, at**).
tarry II [ˈtɑ:rɪ] *a* qatron surtilgan, qatronli.
tarsi [ˈtɑ:saɪ] *pl* **tarsus** *dan.*
tarsia [ˈtɑ:sɪə] *n it.* yog'och mozaika (*mozaika – qadama (terma) naqsh va shunday naqsh ishlash san'ati*).
tarsus [ˈtɑ:səs] *n* (*pl* **-si**) 1) *anat.* oyoqning beti, oyoq kaftining orqasi (*oyoq kafti bilan boldir orasi*); 2) *zool.* oyoqning kafti (*qushlarda*).
tart I [tɑ:t] *a* nordon, achchiq, taxir, turush.
tart II [tɑ:t] *n* 1) pirog; 2) uy torti; 3) mevali pirog.

tartan [ˈtɑːtn] *n* katak-katak gazlama.
Tartar [ˈtɑːtə] **1.** *n* 1) tatar (*kishi*); 2) tatar ayol, tatar qiz; **2.** *a* tatarcha; **young ~** injiq bola.
tartar [ˈtɑːtə] *n kim.* tishda paydo bo'ladigan tosh.
Tartarean [tɑːˈteərɪən] *a* do'zaxga (jahannamga) oid, do'zaxda bo'ladigan.
Tartarian [tɑːˈteərɪən] *a* tatarlarga oid.
Tartarus [ˈtɑːtərəs] *n mif.* jahannam, do'zax (*yunon mifologiyasida*).
tartlet [ˈtɑːtlət] *n* kichkina pirog.
task [tɑːsk] **1.** *n* topshiriq, ish, dars, majburiyat, vazifa; **2.** *v* 1) ish bermoq; 2) haddan ortiq yuklamoq; 3) topshirmoq.
taskmaster [ˈtɑːskmɑːstə] *n* 1) brigadir; 2) nazoratchi.
taskwork [ˈtɑːskwəːk] *n* 1) belgilangan (*kelishilgan*) ish; 2) baylashib qilinadigan ish, baylashib ishlash.
tassel [ˈtæsl] *n* popuk, gajim.
taste I [teɪst] **1.** *n* 1) maza, ta'm; 2) did, ta'b; **2.** *v* 1) mazasini tatib ko'rmoq; 2) yemoq, ichmoq.
taste II [teɪst] *v* 1) mazasini tatib ko'rmoq; 2) yemoq, ichmoq.
tasteful [ˈteɪstfl] *a* mazali pishirilgan, did bilan bajarilgan, ta'mi shirin.
tasteless [ˈteɪstləs] *a* mazasiz, ta'mi yo'q, ta'msiz, didsiz, mazasiz, bemaza.
taster [ˈteɪstə] *n* 1) chashnachi (*mazasiga qarab sinovchi*); sinovchi, degustator; 2) nashriyot taqrizchisi.
tasty [ˈteɪstɪ] *a* mazali, lazzatli, shirin.
tat [tæt] *v* to'r to'qimoq.
ta-ta [tæ ˈtɑː] *int.* hozircha (vaqtincha) xayr!
Tatar [ˈtɑːtə] = **Tartar.**
tatter [ˈtætə] **1.** *n* 1) eski-tuski sotib oluvchi, eskifurush, eskichi; 2) eski-tuski; uvada; **2.** *v* yirtilmoq, eskirmoq.
tatterdemalion [ˌtætədɪˈmeɪlɪən] *n* yalangoyoq, juldur (*yirtiq-sirtiq*) kiyimli kishi.
tattered [ˈtætəd] **1.** *p. p.* **tatter 2.** *dan*; **2.** *a* yirtiq, yirtiq-sirtiq, uvadasi chiqqan.
tatting [ˈtætɪŋ] *n* to'qilgan to'r.
tattle [ˈtætl] **1.** *n* bekorchi gap, safsata; **2.** *v* valdiramoq, vaysamoq.
tattler [ˈtætlə] *n* sergap odam, ezma, vaysaqi, safsataboz.
tattoo I [tæˈtuː] **1.** *n* kechki payt yotishga chalinadigan signal; **2.** *v* turishga (*yoki* yotishga) signal chalmoq.
tattoo II [tæˈtuː] **1.** *n* 1) tatuirovka (*badandagi yozuvlar, naqshlar*); 2) tatuirovka qilish (*teri ostiga rang o'tkazib badanga naqsh tushirish*); **2.** *v* tatuirovka qilmoq.
tatty [ˈtætɪ] *n hind.* xushbo'y o'tdan qilingan ho'l bo'yra (*xonaning havosini sovitish uchun eshik yoki derazaga osib qo'yiladi*).
taught [tɔːt] *past., .p. p.* **teach** *dan.*
taunt I [tɔːnt] *v* masxara qilish, birovning ustidan kulish, birovni masxara (mazax, mayna) qilish.
taunt II [tɔːnt] *a* juda baland (*machta haqida*).
tauromachy [tɔːˈrɔməkɪ] *n grek.* ho'kizlar urishi (*jangi*).
taut [tɔːt] *a* 1) tarang, tarang qilib tortilgan; 2) tarang tortilgan, kuchlangan; **~ nerves** tarang tortilgan asablar.
tauten [ˈtɔːtn] *v* tarang qilib tortmoq.
tautologize [tɔːˈtɔlədʒaɪz] *v* takrorlamoq, qaytarmoq, qayta-qayta gapirmoq.
tautology [tɔːˈtɔlədʒɪ] *n* tavtologiya (*bir fikrni boshqa so'zlar bilan takrorlash*).
tavern [ˈtævən] *n* kichik mayxona (*Italiya va ba'zi boshqa mamlakatlarda*).
taw I [tɔː] *n* sharchalar (*bolalar o'yini*).
taw II [tɔː] *v* terini oshlamasdan shilib olmoq.
tawdry [ˈtɔːdrɪ] **1.** *a* 1) usti yaltiroq; 2) savlatli, ko'zga tashlanadigan; 3) didsizlik bilan ishlangan; **2.** *n* arzon bezak (zeb-ziynat).
tawny [ˈtɔːnɪ] *a* to'q-sariq.
tax [tæks] **1.** *n* soliq, o'lpon; **2.** *v* soliq solmoq.
taxable [ˈtæksəbl] *a* soliq solingan; soliq solinadigan.
taxation [tækˈseɪʃn] *n* soliq solish, soliq summasi.
tax-collector [ˈtækskəˌlektə] *n* soliq yig'uvchi kishi.
tax evasion [ˈtæksɪˌveɪʒn] *n* soliq to'lashdan bosh tortish.
tax-exempt [ˈtæksɪgˌzempt] *a* soliq solinmaydigan, soliqdan ozod etilgan.
tax-farmer [ˈtæksˌfɑːmə] *n* sotib olgan kishi, ijarakor.
tax-free [ˌtæksˈfriː] *a* soliq to'lashdan ozod qilingan.
tax-gatherer [ˈtæksˌgæðərə] = **tax-collector.**
taxi [ˈtæksɪ] **1.** *n* taksi; **2.** *v* taksida yurmoq.
taxidermy [ˈtæksɪdəːmɪ] *n* tulumning ichini to'ldirish.
taxi-driver [ˈtæksɪˌdraɪvə] = **taximan.**
taxi-man [ˈtæksɪmən] *n* taksi haydovchisi.
taximeter [ˈtæksɪˌmiːtə] *n* taksometr (*qancha pul to'lashni ko'rsatuvchi moslama*).
taxing [ˈtæksɪŋ] **1.** *n* soliq solish; **2.** *a* 1) soliq yig'adigan (oladigan, oluvchi); 2) soliq yig'ish bilan shug'ullanadigan.
taxing-master [ˈtæksɪŋˌmɑːstə] *n* sud xarajatlarini aniqlaydigan mansabdor kishi.
taxis [ˈtæksɪs] *n biol.* organizmning javobiy reaksiyasi.
taxpayer [ˈtæksˌpeɪə] *n* soliq to'lovchi kishi.
tea [tiː] *n* choy; **~ house** choyxona.
tea-biscuit [ˈtiːˌbɪskɪt] *n* choy bilan yeyiladigan pishiriqlar (*pecheniy*).
tea-board [ˈtiːbɔːd] = **tea-tray.**
tea-bread [ˈtiːbred] *n* choy bilan yeyiladigan bulochka *yoki* non.
tea-caddy [ˈtiːˌkædɪ] *n* choy quti, choy idish, choydon.

tea-cake [ˈti:keɪk] *n* choy bilan yeyiladigan keks (bulochka).
teach [ti:tʃ] *v* (**taught**) o'qitmoq, o'rgatmoq; **to ~ children** bolalarni o'qitmoq.
teachable [ˈti:tʃəbl] *a* 1) o'zlashtirish mumkin bo'lgan (*fan haqida*); 2) o'qishga qobiliyatli bo'lgan; 3) zehni o'tkir, farosatli.
teacher [ˈti:tʃə] *n* o'qituvchi.
teachers college [ˈti:tʃəz,kɔlɪdʒ] *n* pedagogika instituti.
teaching [ˈti:tʃɪŋ] **1.** *pres. p.* **teach** *dan*; **2.** *n* ta'lim berish, o'qitish, o'rgatish; **to take up ~** o'qituvchi bo'lmoq.
tea-cloth [ˈti:klɔθ] *n* choy dasturxon; choy idishni artadigan sochiq.
tea-cosy [ˈti:,kəuzɪ] *n* qavilgan g'ilof, jild (*choynakka*).
teacup [ˈti:kʌp] *n* choy ichadigan piyola.
tea-dealer [ˈti:,di:lə] *n* choyfurush, choy sotuvchi.
tea-fight [ˈti:faɪt] = **tea-party**.
tea-garden [ˈti:,gɑ:dn] *n* ochiq havodagi qahvaxona *yoki* restoran.
tea-house [ˈti:haus] *n* choyxona.
teak [ti:k] *n bot.* tik (*issiq mamlakatlarda o'sadigan kemabop qattiq daraxt*).
tea-kettle [ˈti:,ketl] *n* choy qaynatish uchun ishlatiladigan choynak.
teal [ti:l] *n* churrok (*mayda yovvoyi hayvon*).
tea-leaf [ˈti:li:f] *n* choy bargi.
team I [ti:m] *n* jamoa; **football ~** futbol jamoasi.
team II [ti:m] *v* birlashmoq.
team-mate [ˈti:mmeɪt] *n* bitta jamoa o'yinchisi (*jamoadosh*).
teamster [ˈti:mstə] *n* haydovchi, podachi.
teamwise [ˈti:mwaɪz] *n* birga, birgalikda.
team-work [ˈti:mwə:k] *n* o'zaro ta'sir; kelishilgan ish, birgalikdagi harakat.
tea-party [ˈti:,pɑ:tɪ] *n* choyga taklif qilingan uyushma.
teapot [ˈti:pɔt] *n* choy damlaydigan choynak.
teapoy [ˈti:pɔɪ] *n hind.* uch oyoqli kichkina stol (*asosan, choy uchun*).
tear I [tɪə] *n* ko'z yoshi; **bitter ~s** achchiq ko'z yoshlar.
tear II [teə] *v* (**tore, torn**) yirtmoq, yirtib tashlamoq; **to ~ paper** qog'ozni yirtmoq.
tear-drop [ˈtɪədrɔp] *n* bir qatra yosh (*ko'z yoshi*).
tear-duct [ˈtɪədʌkt] *n anat.* yosh (ko'z yoshi) yo'li.
tearful [ˈtɪəful] *a* 1) g'amli, qayg'uli; 2) ko'z yoshga to'la.
tear-gas [ˈtɪəgæs] *n* ko'zdan yosh oqizadigan gaz.
tearing [ˈteərɪŋ] *a so'zl.* quturgan.
tearless [ˈtɪələs] *a* 1) ko'z yoshsiz; **~ grief** ko'z yoshsiz g'am; 2) sezmaydigan.
tea-room [ˈti:rum] *n* shakarpazlik mahsulotlari sotiladigan qahvaxona.
tea-rose [ˈti:rəuz] *n* choygul (*atirgulning oq-sarg'ish turi*).
tear-shell [ˌtɪəˈʃel] *n* ko'zdan yosh oqizadigan gazlar saqlanadigan asbob.
tear-stained [ˈtɪəsteɪnd] *a* yig'idan qizargan, yig'layverib shishib ketgan.
tease [ti:z] *v* tegajaklik qilmoq, jig'iga tegmoq, jahlini chiqarmoq.
teasel [ˈti:zl] **1.** *n bot.* 1) to'ng'iztaroq; 2) to'ng'iztaroq tikanagi; **2.** *v* paxmoqlamoq, tuk chiqarmoq.
teaseler [ˈti:zlə] *n* tuk chiqaruvchi.
teaser [ˈti:zə] *n* 1) qiyin masala; 2) hammaning jig'iga tegaveradigan (*jangari, urishqoq*).
tea-service [ˈti:,sə:vɪs] *n* choy servizi, choy idishlari.
tea-set [ˈti:set] = **tea-service**.
tea-shop [ˈti:ʃɔt] *n* qahvaxona, gazakxona, yemakxona.
tea-spoon [ˈti:spu:n] *n* choy qoshiq.
tea-strainer [ˈti:,streɪnə] *n* choy suzadigan to'r.
teat [ti:t] *n* 1) emchak uchi; 2) *tex.* biror predmet (detal)ning bo'rtib chiqqan joyi.
tea-table [ˈti:,teɪbl] *n* choy ichadigan stol, choy stoli.
tea-things [ˈti:θɪŋz] *n pl* choy idishlari (*choynak, piyola*).
tea-tray [ˈti:treɪ] *n* choy patnisi.
tea-urn [ˈti:ə:n] *n* samovar (*suv qaynatadigan asbob*).
tea wagon [ˈti:,wægən] *n* choy *yoki* yengil ovqat olib kelish uchun tayyorlangan g'ildirakli stol.
teazel, teazle [ˈti:zl] = **teasel**.
tec [tek] *n so'zl.* **detective** *so'zning qisqartirilgan shakli.*
technical [ˈteknɪkl] *a* 1) texnikaviy; 2) texnikaga oid.
technicality [ˌteknɪˈkælətɪ] *n* 1) ishning texnik tomoni (tarafi); 2) texnik detal.
technician [tekˈnɪʃn] *n* 1) o'z ishini biladigan kishi; 2) mutaxassis.
technics [ˈteknɪks] *n pl* (*ko'plik hamda birlik shakli bir xil yoziladi*) texnika (*mehnat qurollari va vositalari, majmuyi*); 2) texnika fanlari.
technique [tekˈni:k] *n* 1) texnikaviy usullar; 2) metod, uslub.
technologist [tekˈnɔlədʒɪst] *n* texnolog (*texnologiya bo'yicha mutaxassis*).
technology [tekˈnɔlədʒɪ] *n* texnologiya (*materialga ishlov berish usullari va shu usullar tavsifi*) texnika.
techy [ˈtetʃɪ] = **tetchy**.
tectonic [tekˈtɔnɪk] *a* 1) me'morchilikka oid; 2) *geol.* tektonika (geologiyaning yer po'sti tuzilishini va tektonik harakatlar natijasida unda bo'lib turadigan o'zgarishlarni o'rganadigan bo'limi)ga oid.
ted [ted] *v* pichanni ag'darmoq.
tedder [ˈtedə] *n* pichan (*xashak*) ag'daradigan mashina.

teddy-bear [ˈtedɪbeə] *n* ayiqcha (*bolalar o'yinchog'i*).
teddy boy [ˈtedɪbɔɪ] *n so'zl.* o'ta olifta yigit.
tedious [ˈti:dɪəs] *a* zerikarli, charchatadigan, toliqtiradigan, zeriktiradigan, diqqatni oshiradigan.
tedium [ˈti:dɪəm] *n* 1 zerikish, toliqish; 2) charchaganlik, toliqqanlik, horg'inlik.
tee I [ti:] *n* 1) T harfining nomi; 2) uchtalik; 3) T shaklidagi narsa.
tee II [ti:] *n* nishon, mo'ljal (*o'yinda*); ~ **off** birinchi zarba bermoq (*golfda*).
teem I [ti:m] *v* to'lib toshmoq, juda ko'p bo'lmoq.
teem II [ti:m] *v* quymoq, quyib chiqmoq, quyib qo'ymoq (*metall quymasini*).
teeming [ˈti:mɪŋ] *pres. p.* **teem II** *dan.*
teen-age [ˈti:neɪdʒ] *a* 1) 13 dan 19 yoshgacha bo'lgan; 2) voyaga (balog'atga) yetmagan.
teen-ager [ˈti:neɪdʒə] *n* o'spirin, o'smir, 13 yoshdan 19 yoshgacha bo'lgan yoshlar.
teens [ti:nz] *n pl* 13 dan 19 gacha bo'lgan yosh.
teeth [ti:θ] *n pl* tish, dandon.
teetotal [ˌti:ˈtəutl] *a* mast emas, hushyor, ichmagan.
teetotaller [ˌti:ˈtəutlə] *n* (*spirtli ichimliklar*) ichmaydigan odam.
teg [teg] *n* bir yashardan o'tgan sovliq qo'y.
tegular [ˈtegjulə] *a* cherepitsa (tomga yopiladigan sopol)ga oid.
tegument [ˈtegjumənt] *n* po'st, po'stloq, po'choq, to'pon.
tehee [tiˈhi:] **1.** *n* qiqir-qiqir, qiqirlab kulish; **2.** *v* qiqir-qiqir kulmoq.
telautogram [teˈlɔ:təgræm] *n* fototelegramma (*fototelegraf orqali yuborilgan telegramma, xat, hujjat va sh.k.*).
telautograph [teˈlɔ:təgrɑ:f] *n* fototelegraf (*xat, hujjat, rasm va sh.k.ni telegraf yoki radio vositasida uzoq masofaga yuboradigan qurilma*).
tele [ˈtelɪ] *so'zl.* **television** *so'zining qisqartmasi.*
telecast [ˈtelɪkɑ:st] *n* 1) teleko'rsatuv; 2) televizion ko'rsatish va eshittirish.
telecasting [ˈtelɪkɑ:stɪŋ] *attr.* televideniyaga oid; ~ **studio** televizion studiya.
telecommunications [ˌtelɪkəmju:nɪˈkeɪʃn] *n* uzoqdagi aloqa, telefon, telegraf *yoki* radio.
telecontrol [ˈtelɪkənˌtrəul] *n* masofadan boshqarish, uzoqdan (turib) boshqarish.
telecruiser [ˈtelɪˌkru:zə] *n* ko'chma televizion stansiyasi.
telefilm [ˈtelɪfɪlm] *n* televizion film.
telegenic [ˌtelɪˈdʒenɪk] *a* televizor ekranida yaxshi ko'rinadigan.
telegram [ˈtelɪgræm] *n* telegramma; **to receive a** ~ telegramma olmoq; **to send a** ~ telegramma jo'natmoq.
telegraph [ˈtelɪgrɑ:f] *n* telegraf (*1. aloqa turi va apparati; 2. telegraf idorasi va binosi*).
telegrapher [təˈlegrəfə] = **telegraphist.**
telegraphese [ˌtelɪgrɑ:ˈfi:z] *n* «telegrafcha» uslub, qisqa yozish uslubi.
telegraphic [ˌtelɪˈgræfɪk] *a* 1) telegrafga oid; 2) telegraf orqali amalga oshiriladigan.
telegraphist [təˈlegrəfɪst] *n* telegraf xodimi.
telegraph-line [ˈtelɪgrɑ:flaɪn] *n* telegraf liniyasi.
telegraph-pole [ˈtelɪgrɑ:fpəul] *n* telegraf ustuni.
telegraph-post [ˈtelɪgrɑ:fpəust] = **telegraph-pole.**
telegraph-wire [ˈtelɪgrɑ:fwaɪə] *n* telegraf simi.
telegraphy [tɪˈlegrəfɪ] *n* telegramma berish (*telegraf orqali xabar qilish*).
telekinesis [ˌtelɪkaɪˈni:sɪs] *n* telekinez.
telemeter [teˈlɪmɪtə] *n* telemetr (*masofa o'lchagich*).
teleology [ˌti:lɪˈɔlədʒɪ] *n* teleologiya (*tabiatda hamma narsa oldindan belgilangan, maqsadga muvofiq qilib yaratiladigan deb talqin qiluvchi diniy ta'limot*).
telepathy [təˈlepəθɪ] *n* telepatiya (*go'yo uzoqdan turib fikr va tuyg'ularini boshqa kishiga bildira olish*).
telephone [ˈtelɪfəun] **1.** *n* telefon (*aloqa turi*); ~ **booth** telefon budkasi; ~ **call** telefon qo'ng'irog'i; **2.** *v* 1) qo'ng'iroq qilmoq; 2) telefon apparatini o'rnatmoq.
telephone set [ˈtelɪfəunset] **1.** *n* telefon apparati; **2.** *v* telefonlashtirmoq.
telephonic [ˌtelɪˈfɔnɪk] *n* telefonga oid.
telephonist [təˈlefənɪst] *n* telefon simlari o'rnatuvchi mutaxassis.
telephony [təˈlefənɪ] *n* telefoniya (*elektr va radio orqali uzoqqa tovush yuborish texnikasi*).
telephotography [ˌtelɪfəˈtɔgrəfɪ] *n* telefotografiya (*fototelegraf orqali berilgan tasvir*).
teleprinter [ˈtelɪprɪntə] *n* teletayp (*tekstni avtomatik ravishda harflar bilan yozib oladigan apparat*).
telescope I [ˈtelɪskəup] *n* teleskop.
telescope II [ˈtelɪskəup] *v* 1) siljitmoq; 2) qisqartmoq (*matn, hikoya va b.*).
telescreen [ˈtelɪskri:n] *n* televizor ekrani.
telethon [ˈteləθɔn] *n* saylovdan oldin biror nomzodni qo'llash maqsadida o'tqaziladigan bir necha soatli televizion dastur.
teletype [ˈtelɪtaɪp] *n* teletayp (*matnni avtomatik ravishda harflar bilan yozib oladigan apparat*).
televiewer [ˈtelɪvju:ə] *n* teletomoshabin.
televise [ˈtelɪvaɪz] *n* televizion dasturini ko'rsatmoq.
television [ˈtelɪˌvɪʒn] *n* 1) televideniya; 2) *attr.* televideniyaga oid; ~ **set** televizor.
televisional [ˈtelɪˌvɪʒnl] *a* televideniyega oid.
televisor [ˈtelɪvaɪzə] *n* televizor.
televisual [ˌtelɪ ˈvɪʒjuəl] = **televisional.**
telex [ˈteleks] *n* teleks.
tell [tel] *v* (**told**) 1) gapirmoq, aytib bermoq; 2) hikoya qilmoq; **to** ~ **a story** hikoya aytmoq; 3) ko'r-

satmoq, guvoh bo'lmoq; **to ~ the time** vaqtni ko'rsatmoq.

teller ['telə] *n* hikoyachi, hikoya qiluvchi.

telling ['telɪŋ] **1.** *pres. p.* **tell** *dan*; **2.** *a* 1) amaliy natija (foyda) beradigan; ta'sir ko'rsatadigan, kor qiladigan; 2) zo'r taassurot qoldiradigan; 3) ifodali, jonli, ma'noli, ma'nodor.

telling-off [ˌtelɪŋ'ɔf] *n* tanbeh, ogohlantirish, ta'zir.

telltale ['telteɪl] *n* 1) g'iybatchi odam; 2) chaqimchi.

tellurian [te'luərɪən] **1.** *n* yerda yashovchi kishi; **2.** *a* yerga oid, yerda bo'ladigan.

telluric [te'ljuərɪk] *a* yerga (zaminga) oid, yer..., zamin...

tellurium [te'luərɪəm] *n kim.* tellur (*kimyoviy element*).

telly ['telɪ] *n so'zl.* televizor.

telpher ['telfə] **1.** *n tex.* telfer; **2.** *v* osma yo'l orqali bir joydan ikkinchi joyga tashimoq.

temblor [ˌtem'blɔ:] *n amer.* zilzila, yer qimirlash.

temerarious [ˌtemə'reərɪəs] *a* 1) o'ylamay qilingan, muhokama (mulohaza) qilib ko'rilmagan; 2) noilojlikdan qilingan.

temerity [tɪ'merətɪ] *n* o'ylamay ish qilish, shoshqaloqlik.

temp [temp] **1.** *n* vaqtincha yashaydigan kishi; **2.** *v* vaqtincha ishlamoq.

temper ['tempə] *n* 1) fe'l-atvor, xulq; 2) kayfiyat.

tempera ['tempərə] *n* tempera (*tuxum sarig'ida ezib tayyorlangan bo'yoq*).

temperament ['tempərəmənt] *n* serg'ayratlik, jo'shqinlik.

temperamental [ˌtemprə'mentl] *a* jo'shqin, serg'ayrat, otashin, qiziqqan.

temperance ['temprəns] *n* o'zini tuta bilish, vazminlik.

temperate ['tempərət] *a* 1) o'rtacha, o'rtamiyona; 2) o'zini tutib (bosib) olgan.

temperature ['temprətʃə] *n* harorat, isitma; **to take one's ~** haroratni o'lchamoq.

tempest ['tempɪst] **1.** *n* his-tuyg'u g'alayoni, tug'yon; **~ in a teapot** arzimagan sabab bilan bo'lgan g'avg'o (mojaro, iztirob); **2.** *v* hamma yoqni boshiga ko'tarmoq, to's-to'polon qilmoq.

tempestuous [tem 'pestʃuəs] *a* kuchli, shiddatli, qattiq; qizg'in.

tempi ['tempi:] *pl* **tempo** *dan.*

template ['templeɪt] *n tex.* andaza, qolip.

temple I ['templ] *n* ibodatxona, butxona, cherkov.

temple II ['templ] *n* chakka.

temple III ['templ] *n tex.* bosib (*tutib*) turadigan planka (*uzun taxtacha*).

templet ['templət] = **template.**

tempo ['tempəu] *n* (*pl* **-os** [-əuz], **-pi**) 1) *mus.* temp, sur'at, tezlik, marom; 2) (*yashash*) sur'ati.

temporal I ['temprəl] *a* vaqtincha, o'tib ketadigan, muvaqqat.

temporal II ['temprəl] *anat.* **1.** *a* chakkaga oid; **2.** *n* chakka suyagi.

temporarily [ˌtempə 'rərəlɪ] *adv* vaqtincha, muvaqqat.

temporality [ˌtempə'rælətɪ] *n* 1) tez o'zgaradigan (*vaqtinchalik*) fe'l-atvor; 2) ibodatxona kirimlari (daromadlari).

temporary ['temprərɪ] *a* vaqtinchalik, doimiy bo'lmagan, muvaqqat.

temporize ['tempəraɪz] *v* 1) vaqtni cho'zmoq; 2) sustkashlik qilmoq, cho'zmoq, orqaga sudramoq, kechiktirmoq.

tempt [tempt] *v* 1) jalb etmoq; undamoq; qiziqtirmoq; ishontirmoq; 2) aldab qo'ymoq, yo'ldan ozdirmoq; 3) sinab (tajriba qilib) ko'rmoq; **to ~ fate** taqdirni sinamoq, tavakkaliga harakat qilmoq.

temptation [temp'teɪʃn] *n* vasvasa, nafs (balosi), qiziqtirish, aldov.

tempter ['temptə] *n* vasvasa qiluvchi, yo'ldan ozdiruvchi kishi.

tempting ['temptɪŋ] **1.** *pres. p.* **tempt** *dan*; **2.** *a* qiziqtiradigan, jozibador, havasni keltiradigan.

temptress ['temptrəs] *n* vasvasa qiluvchi, yo'ldan ozdiruvchi (*ayol*).

ten [ten] *num. card.* o'n; **~th** *num.ord* o'ninchi.

tenable ['tenəbl] *a* mantiqan to'g'ri, izchil, durust, tuzuk.

tenacious [tɪ'neɪʃəs] *a* tirishqoq, ishga astoydil kirishadigan; **~ memory** yaxshi xotira.

tenacity [tɪ'næsətɪ] *n* tirishqoqlik, o'tkirlik, kuchlilik.

tenancy ['tenənsɪ] *n* 1) bino (imorat, uy, joy)ni ijaraga olish; 2) ijaraning muddati; 3) ijaraga olingan yer; ijaraga olingan uy.

tenant ['tenənt] **1.** *n* ijarador, ijarachi; **2.** *v* ijaraga olmoq.

tenantry ['tenəntrɪ] *n* ijaraga oluvchilar, ijarachilar.

tench [tenʃ] *n* lin (*zog'ora baliqning bir turi*).

tend I [tend] *v* egilmoq, qarab bormoq, yaqinlashmoq.

tend II [tend] *v* g'amini yemoq, g'amxo'rlik qilmoq.

tendency ['tendənsɪ] *n* intilish, niyat, moyillik, mayl, havas, qiziqish; **a ~ to corpulence** semirishga moyillik.

tendentious [ten'denʃəs] *n* muayyan bir g'oyani ilgari suradigan.

tender I ['tendə] *a* nozik, muloyim; xushmuomala, nafis.

tender II ['tendə] *n* 1) (rasmiy) taklif; 2) (qarzga to'lanadigan) pul.

tender III ['tendə] *v* 1) taklif qilmoq; 2) talabnoma bermoq (*savdo-sotiq tashkilotlarida*); 3) (*qarzni*) to'lamoq.

tenderfoot ['tendəfut] *n so'zl.* yangi odam, yangi (endigina) kelgan odam.

tender-hearted [ˌtendə 'hɑ:tɪd] *a* yaxshilikni ayamaydigan, ko'ngli yumshoq (bo'sh), ko'ngilchan, rahmdil.

tenderling [ˈtendəlɪŋ] *n* 1) nozik-nihol odam, nozik; 2) kichkina bola, chaqaloq.
tenderloin [ˈtendəlɔɪn] *n amer.* 1) biqin go'sht; 2) qirqib olingan narsa, parcha.
tendinous [ˈtendɪnəs] *a* 1) chandir; 2) sertomir, serpoya; 3) muskullari rivojlangan, baquvvat.
tendon [ˈtendən] *n anat.* pay, chandir.
tendril [ˈtendrəl] *n bot.* mo'ylovchalar, shox gajagi.
tenebrous [ˈtenɪbrəs] *a* qorong'i, qorong'ilik (zulmat) bosgan, zulmatdagi.
tenement [ˈtenəmənt] *n* ko'p kvartirali bino.
tenement-house [ˌtenəmənt'haus] *n* ijaraga beriladigan ko'p kvartirali uy.
tenet [ˈtenɪt] *n lot.* 1) dogmat, din aqidalari; 2) ta'limot, nazariya.
tenfold [ˈtenfəuld] **1.** *a* o'n marta oshirilgan, o'n karra qaytarilgan; **2.** *adv* o'n marta, o'n karra, o'n baravar.
tenner [ˈtenə] *n* o'nlik, o'ntalik (*pul*).
tennis [ˈtenɪs] *n* tennis (*sport o'yini*).
tennis-ball [ˈtenɪsbɔ:l] *n* tennis koptogi.
tenon [ˈtenən] *n* 1) tikan, tikanak; 2) shpilka; 3) tilcha.
tenor I [ˈtenə] *n* 1) oqish, oqib ketish, oqim; 2) umumiy ma'no; 3) nusxa.
tenor II [ˈtenə] *n mus.* tenor (*erkaklarning eng baland ovozi*).
tense I [tens] *n gram.* zamon; **past ~** o'tgan zamon.
tense II [tens] *a* 1) hayajonli; 2) tarang tortilgan, keskin, murakkab, tang; **the situation is ~** ahvol murakkab; 3) hayajonlangan.
tensely [ˈtenslɪ] *adv* qattiq g'ayrat qilib, zo'r berib, bor kuch (zo'r, g'ayrat) bilan.
tensile [ˈtensaɪl] *a* cho'ziladigan, uzayadigan, cho'ziluvchan.
tensility [ten'sɪlətɪ] *n* cho'ziluvchanlik, kengayuvchanlik.
tension [ˈtenʃn] *n* 1) kuchlanish; kuchanish; 2) keskinlik.
tensity [ˈtensətɪ] *n* 1) qizg'inlik, zo'rlik; 2) jiddiylik, tanglik, keskinlik.
tent I [tent] **1.** *n* palatka, chodir; **2.** *v* chodir qurmoq, palatkada yashamoq.
tent II [tent] **1.** *n* tampon (*yara ichiga tiqiladigan, qon va yiringni shimib oladigan dorilangan paxta yoki doka*); **2.** *v* tampon qo'ymoq.
tent III [tent] *n* kuchsiz qizil ispan vinosi.
tentacle [ˈtentəkl] *n* paypaslagich (*ba'zi hayvon va hasharotlarning mo'ylovsimon qo'llari*).
tentative [ˈtentətɪv] *a* sinashga oid, sinash uchun belgilangan, tajribaga mo'ljallangan.
tent-bed [ˈtentbed] *n* ko'chma karavot.
tenterhooks [ˈtentəhuks] *n pl to'qim.* tarang qilib tortadigan ilgak.
tenth [tenθ] *num. ord.* o'ninchi.
tenuity [te'nju:ətɪ] *n* 1) havoning siyrakligi; 2) yupqalik, nafis; ingichkalik, xipchalik.
tenuous [ˈtenjuəs] *a* 1) uncha ko'p bo'lmagan, ozgina (*farq haqida*); 2) siyrak, siyraklashgan (*havo haqida*).
tenure [ˈtenjə] *n* 1) egalik, egalik qilish; xo'jayinlik; 2) biror mansabda bo'lish (turish).
tepid [ˈtepɪd] *a* iliq, sal issiq.
teratology [ˌterə'tɔlədʒɪ] *n biol.* teratologiya (*odam, hayvon va o'simliklarning rivojlanish nuqsonlari hamda mayib-majruhlikni o'rganadigan fan*).
terbium [ˈtə:bɪəm] *n kim.* terbiy (*lattonoidlar guruhiga mansub metall*).
tercel [ˈtə:sl] *n* lochin (*erkagi*).
tercet [ˈtə:sɪt] *n* 1) *mus.* uch kishilik ansambl; 2) uch misrali she'r *yoki* she'rning uch misrali bir bandi.
teredo [tə'ri:dəu] *n zool.* yog'och qurti.
terete [te'ri:t] *a* silindrsimon, silindr shaklidagi.
tergal [ˈtə:gəl] *a zool. anat.* orqadagi, orqa...
tergiversate [ˈtə:dʒɪvə:seɪt] *v* 1) chalg'itmoq, gapni boshqa yoqqa burib (aylantirib) qutulmoq; 2) sotqinlik (xoinlik) qilmoq, xiyonat qilmoq.
tergiversation [ˌtə:dʒɪvə:'seɪʃn] *n* hiyla, nayrang; vaj, gapni aylantirish.
term [tə:m] **1.** *n* 1) muddat, fursat, vaqt; **~ of office** vakolat muddati; **~ of service** xizmat muddati; 2) semestr, chorak; **university ~** universitet semestri; 3) shart; **~ s of payment** to'lov sharti; 4) termin; **2.** *v* ifoda etmoq, atamoq.
termagant [ˈtə:məgənt] **1.** *n* janjalkash ayol; **2.** *a* janjalkash, mijg'ov.
termer [ˈtə:mə] *n* jazo muddatini o'tayotgan jinoyatchi.
terminable [ˈtə:mɪnəbl] *a* muddati belgilangan (cheklangan).
terminal [ˈtə:mɪnl] *n* 1) bekat; 2) oxirgi bo'g'in *yoki* so'z; **2.** *a* oxirgi; **~ station** oxirgi bekat.
terminate [ˈtə:mɪneɪt] *v* tugatmoq, oxiriga yetkazmoq, bitirmoq, chek qo'ymoq.
termination [ˌtə:mɪ'neɪʃn] *n* oxir, poyon, tamom, natija; 2) muddatning tugashi.
termini [ˈtə:mɪnaɪ] *n* vokzal, so'nggi bekat.
terminology [ˌtə:mɪ'nɔlədʒɪ] *n* terminologiya (*muayyan bir sohaga oid terminlar majmuyi va tilshunoslikning terminlarni tartibga solish haqidagi bo'limi*).
terminus [ˈtə:mɪnəs] *n* (*pl* **-es** [-ɪz], **-ni**) oxirgi stansiya, oxirgi bekat.
termitary [ˈtə:mɪtərɪ] *n* termit (qirchumoli) ini.
tern [tə:n] *n* uchlik, uchta son.
ternary [ˈtə:nərɪ] *n* uch raqami, uchlik.
terra [ˈterə] *n lot.* yer, zamin, tuproq; yer yuzi, olam.
terrace [ˈterəs] *n* ayvon, peshayvon.
terracotta [ˌterə'kɔtə] *n* terrakota (kuydirilgan qizg'ish-jigarrang gil)dan ishlangan buyumlar.
terrain [tə'reɪn] *n* joy, yer, maydon, sahn.
terraneous [tə'reɪnɪəs] *a bot.* yerdagi, yer ustidagi (betidagi, yuzidagi).

terrapin [ˈterəpɪn] *n* 1) suv toshbaqasi; 2) ham suvda, ham quruqlikda yura oladigan avtomobil.

terraqueous [teˈreɪkwɪəs] *a* 1) suv va yerdan iborat bo'lgan; 2) quruqlik va dengiz bo'ylab qilinadigan (*sayohat*); 3) ham suvda ham quruqlikda yashovchi.

terrene [teˈri:n] **1.** *a* 1) yer...; 2) *ko'chm.* dunyoviy; **2.** *n* yerning yuzi (usti, sirti).

terrestrial [təˈrestrɪəl] *a* dunyoviy; quruqlikdagi, yer yuzidagi.

terrible [ˈterəbl] *a* qo'rqinchli, dahshatli; ~ **news** qo'rqinchli xabar.

terribly [ˈterəblɪ] *adv* odam qo'rqadigan (odamni vahimaga soladigan, qo'rqitadigan) darajada.

terrier [ˈteriə] *a* terer (*kichik hayvonlarni ovlaydigan it*).

terrific [təˈrɪfɪk] *a* dahshatli, dahshat soladigan, vahimali, mudhish.

terrifically [təˈrɪfɪkəlɪ] *adv* 1) juda, g'oyat, nihoyat darajada, juda qattiq; 2) do'ndirib, juda yaxshi (soz), ajoyib.

terrified [ˈterɪfaɪd] *a* 1) qo'rqib (cho'chib) qolgan; 2) yurak oldirgan.

terrify [ˈterəfaɪ] *v* qo'rqitib yubormoq, dahshatga solmoq, vahimaga solmoq.

territorial [ˌterɪˈtɔ:rɪəl] *a* territorial, hududiy, mahalliy; ~ **waters** territorial suvlar.

territory [ˈterətərɪ] *n* territoriya, maydon.

terror [ˈterə] *n* 1) qo'rqinch, qo'rquv, vahima, dahshat; 2) terror.

terrorism [ˈterərɪzm] *n* terrorizm (*terrorlik siyosati va taktikasi*).

terrorist [ˈterərɪst] *n* terrorist, terrorchi.

terrorize [ˈterəraɪz] *v* qo'rqitmoq, dahshat solmoq, qo'rqitib o'z hukmini o'tkazmoq.

terry-cloth robe [ˌterɪklɔθˈrəub] *n* cho'milganda kiyiladigan xalat.

terse [tə:s] *a* qisqa, ifodali.

tertian [ˈtə:ʃn] *n tib.* malariya, bezgak.

tertiary [ˈtə:ʃərɪ] *a* 1) *geol.* uchlamchi (*kaynozoy erasining birinchi davriga oid*); 2) *tib.* uchinchi bosqichga *yoki* davrga oid (*kasallik haqida*).

terzetto [tɔ:tˈsetəu] *n mus.* uch kishilik ansambl.

tessellated [ˈtesəleɪtɪd] *a* 1) mozaikaga oid, qadama, koshinkor; 2) turli rangdagi toshtaxta yotqizilgan.

tessellation [ˌtesəˈleɪʃn] *n* shaxmat katagiga o'xshatilgan mozaik (koshinkor) ish.

tessera [ˈtesərə] *n* (*pl* **-rae**) kubik (*bolalar o'yinchog'i*).

tesserae [ˈtesəri:] *pl* **tessera** *dan.*

tessitura [ˌtesɪˈtuərə] *n mus.* tessitura.

test [test] **1.** *n* 1) sinov, tekshirish, sinash; 2) nazorat ishi; 3) imtihon; **2.** *v* tekshirmoq, sinab ko'rmoq, sinovdan o'tkazmoq.

testa [ˈtestə] *n* (*pl* **-ae**) zirh, kosa (*umurtqasiz hayvonlarda*).

testaceous [teˈsteɪʃəs] *a* 1) *zool.* zirhli, sovutli; 2) g'isht rangidagi; qizg'ish (*hayvonlar va o'simliklar haqida*).

testae [ˈtesti:] *pl* **testa** *dan.*

testament [ˈtestəmənt] *n yur.* vasiyat, vasiyatnoma.

testamentary [ˌtestəˈmentərɪ] *a* vasiyat bilan bog'liq bo'lgan.


venae [ˈvi:ni:] *pl* **vena** *dan.*

venal [ˈvi:nl] *a* 1) sotishga (sotilishga) oid, sotiladigan; 2) poraga uchadigan sotqin.

venality [vi:ˈnælətɪ] *n* sotqinlik.

vend [vend] *v* 1) sotmoq, bozorga solmoq; 2) savdo-sotiq bilan shug'ullanmoq, savdo-sotiq qilmoq.

vendee [ˌvenˈdi:] *n yur.* xaridor, sotib oluvchi.

vender [ˈvendə] = **vendor.**

vendetta [venˈdetə] *n it.* xun, qasos, qonga qon bilan o'ch olish, qonga qon olish.

vendor [ˈvendɔ:] *n* uy-uyiga eltib berib savdo qiluvchi savdogar.

veneer [vəˈnɪə] *n* 1) shpon (*bir qavatli yupqa fanera*); 2) (*g'isht*) qoplama.

venerable [ˈvenərəbl] *a* hurmatli, izzatli, muhtaram; hurmatga sazovor bo'lgan; **~ age** tabarruk (ulug') yosh.

venerate [ˈvenəreɪt] *v* ortiq darajada hurmat etmoq, izzat-ikrom qilmoq, aziz ko'rmoq, e'zozlamoq.

veneration [ˌvenəˈreɪʃn] *n* hurmatlash, hurmat qilish, qadrlash, ortiq darajadagi hurmat, izzat-ikrom, aziz ko'rish.

venerator [ˈvenəreɪtə] *n* hurmatlovchi, qadrlovchi, hurmatini o'rniga qo'yuvchi (odam).

venereal [vɪˈnɪərɪəl] *a* 1) tanosil kasalligiga oid, venerik; **~ desease** tanosil kasalligi; 2) shahvatparast.

venereologist [vəˌnɪərɪˈɔlədʒɪst] *n* venerolog.

Venetian [vɪˈni:ʃn] *a* venetsiyaga oid; **~ window** venetsiyancha (italyancha) deraza, uch tabaqali deraza.

Venezuelan [ˌvenəˈzweɪlən] **1.** *a* Venesuelaga va venesuelaliklarga oid; Venesuela...; **2.** *n* venesuelalik, venesuelalik ayol.

vengeance [ˈvendʒəns] *n* qasos, o'ch, intiqom, qasd.

vengeful [ˈvendʒfəl] *a* kek saqlovchi, qasos olmay qo'ymaydigan, kekni unutmaydigan.

venial [ˈvi:nɪəl] *a* kechirarli, uzrli, kechirsa bo'ladigan; **a ~ error** kechirsa bo'ladigan xato.

venire [vɪ'naɪərɪ] *n yur.* maslahatchilarni sudga chaqirish uchun farmoyish.
venison ['venɪsən] *n* bug'u go'shti.
venom ['venəm] *n* 1) zahar, og'u (*asosan, ilonniki*); 2) kek, adovat, xusumat, gina, g'azab, qahr, achchiq.
venomous ['venəməs] *a* 1) zaharli, og'uli; 2) g'azabli, achchiq.
vent [vent] **1.** *n* chiqadigan *yoki* kiradigan teshik (tuynuk); **2.** *v* nimanidir teshmoq.
ventage ['ventɪdʒ] *n* 1) tuynuk, yo'l (*havo, gaz, tutun chiqib turishi uchin*); 2) (*puflab chalinadigan musiqa asboblarining*) klapani.
venter ['ventə] *n* 1) *anat. zool.* qorin; 2) *so'zl.* me'da, oshqozon; 3) uy hayvonlari, mol, tuyoq; 4) *yur.* **by one ~** bir tug'ishgan, bir qorindan talashib tushgan, onasi bir, otasi boshqa (*aka-ukalar, opa-singillar haqida*).
vent-hole ['venthəul] = **vent I.**
ventilate ['ventɪleɪt] *v* shamollatmoq, havosini yangilamoq.
ventilation [,ventɪ'leɪʃn] *n* shamollatish, havosini yangilash.
ventilator ['ventɪleɪtə] *n* ventilator, havo yangilagich.
vent-peg ['ventpeg] *n tex.* 1) vtulka; 2) probka, tiqin.
vent-pipe ['ventpaɪp] *n* tortuvchi (tortish, tortadigan, tortib oladigan) quvur.
ventral ['ventrəl] *a anat. zool.* qoringa oid, qorin.
ventricle ['ventrɪkl] *n anat.* 1) yurak qorinchasi; 2) miya qorinchasi (*bosh miyadagi bo'shliq*).
ventriloquism [ven'trɪləkwɪzm] *n* labini (*og'zini*) qimirlatmay gapirish.
ventriloquist [ven'trɪləkwɪst] *n* labini qimirlatmasdan gapira oladigan odam.
ventriloquize [ven'trɪləkwaɪz] *v* labini (*og'zini*) qimirlatmasdan gapirmoq.
venture ['ventʃə] *a* 1) qaltis ish, avantyura; 2) chayqovchilik; **to run the ~** tavakkal qilmoq; **joint ~** qo'shma korxona.
venturer ['ventʃərə] *n* tavakkalchi (tavakkal qilib qaltis ishga qo'l uruvchi) korxona egasi.
venturesome ['ventʃəsəm] *a* 1) jasur, botir, qo'rqmas, dovyurak, yurakli; 2) tavakkal qiluvchi; 3) xavfli.
venturous ['ventʃərəs] = **venturesome.**
venue ['venju:] *n* yig'ilish (uchrashuv, musobaqa) o'tkaziladigan joy.
Venus ['vi:nəs] *n* 1) *mif.* Venera (*qadimgi Rim afsonalarida: muhabbat va go'zallik xudosi*); 2) *astr.* Zuhra.
veracious [və'reɪʃəs] *a* 1) haqiqatgo'y, rostgo'y, tog'riso'z, haqgo'y, tog'ri; 2) ishonchli, chin, haqiqiy.
veracity [və'ræsətɪ] *n* 1) haqqoniylik, haqqoniyat, rostgo'ylik, to'g'rilik, haqgo'ylik; 2) shubhasiz to'g'rilik, ishonchlilik.
veranda(h) [və'rændə] *n* 1) ayvon, peshayvon; 2) sport maydonidagi bostirma ostida joylashgan tomoshabinlar joyi.
verb [və:b] *n gram.* fe'l.
verbal ['və:bl] **1.** *a* og'zaki; **~ arrangement** og'zaki kelishish; **~ contract** og'zaki shartnoma; **~ communication** og'zaki xabar; **2.** *n* fe'lning shaxssiz (shaxsi topilmas) shakli, shaxsi noma'lum fe'l.
verbalism ['və:bəlɪzm] *n* o'taketgan rasmiyatchilik.
verbalist ['və:bəlɪst] *n* o'taketgan rasmiyatchi.
verbally ['və:bəlɪ] *adv* 1) og'zaki; 2) faqat og'izda.
verbena [və:'bi:nə] *n bot.* tizimgul.
verbiage ['və:bɪɪdʒ] *n* 1) ortiqcha so'zlarning ko'pligi, cho'zilganlik, ezmalik; 2) quruq mahmadonagarchilik, safsatabozlik; quruq (puch) gap.
verbose [və:'bəus] *a* ortiqcha so'zlari ko'p, cho'zilib ketgan, ezma.
verbosity [və:'bɔsətɪ] *n* cho'zilganlik, ezmalik, ortiqcha (keraksiz) so'zlarning ko'pligi.
verdancy ['və:dənsɪ] *n* 1) maysa, o't; 2) yashil rang; 3) tajribasizlik, g'o'rlik, xomlik.
verdant ['və:dənt] *a* 1) yashil, barg rang, ko'mko'k, yam-yashil; 2) tajribasiz, xom, g'o'r.
verdict ['və:dɪkt] *n* hukm, hukmnoma, qaror, fikr, xulosa.
verdigris ['və:dɪgri:s] *n max.* yashil bo'yoq.
verdure ['və:dʒə] *n* 1) yashil (sabza) rang; 2) ko'kat rezavor, sabzavot.
Verey light ['vɪərɪlaɪt] = **Very light.**
verge [və:dʒ] **1.** *n* chegara, qirra; **on the ~ of** ... chegarasida, yoqasida; **2.** *v* yaqinlashmoq, yaqin kelmoq.
verger ['və:dʒə] *n* cherkov xizmatchisi.
veridical [ve'rɪdɪkl] *a* 1) haqiqatgo'y, rostgo'y, to'g'ri so'z; 2) haqqoniy, rost, to'g'ri, chin.
verification [,verɪfɪ'keɪʃn] *n* 1) tekshirish; 2) tasdiqlash; **control and ~ of the fulfilment of adopted decisions** qabul qilingan qarorlarning bajarilishini nazorat qilish va tekshirish; 3) *yur.* tasdiqlash, guvohlik berish.
verify ['verəfaɪ] *v* 1) (*to'g'riligini*) tekshirmoq, tekshirib ko'rmoq; 2) tasdiqlamoq, guvohlik bermoq.
verily ['verɪlɪ] *adv* haqiqatan, chindan ham, darhaqiqat, rosti bilan.
verisimilar [,verɪ'sɪmɪlə] *a* 1) haqiqatnamo, haqiqatga o'xshagan; 2) yuz berishi (bo'lishi) mumkin bo'lgan.
verisimilitude [,verɪsɪ'mɪlɪtju:d] *n* haqiqatnamolik, haqiqatga o'xashlik.
veritable ['verɪtəbl] *a* haqiqiy, chin, rost, to'g'ri.
verity ['verətɪ] *n* 1) haqiqat, chin, bor narsa, to'g'ri gap; 2) haqiqatlik, chinlik, rostlik.
vermeil ['və:meɪl] *n* zarhallangan (tilla suvi yuritilgan) kumush, nuqra, mis.
vermicelli [,və:mɪ'tʃelɪ] *n it.* vermishel.
vermicide ['və:mɪsaɪd] = **vermifuge.**

vermicular [və: ˈmɪkjulə] = **vermiform.**
vermiform [ˈvə:mɪfɔ:m] *a* chuvalchangsimon; ~ **appendix** *anat.* chuvalchangsimon o'simta.
vermifuge [ˈvə:mɪfju:dʒ] *n tib.* gijja tushiradigan dori.
vermillion [vəˈmɪlɪən] *n* kinovar (*qizil rangli mineral, simob sulfid, simob rudasi*).
vermin [ˈvə:mɪn] *n* 1) parazit, tekinxo'r (*bit, kana va b.*); 2) *q-x.* zararkunanda hasharot; 3) yirtqichlar (*hayvonlar va qushlar*).
verminate [ˈvə:mɪneɪt] *v* qurtlamoq, qurt bosmoq (tushmoq), qurtlab qolmoq.
vermination [ˌvə:mɪˈneɪʃn] *n* qurtlaganlik, qurt tushganlik, qurti borlik.
verminosis [ˌvə:mɪˈnəusɪs] *n* (*pl* **-ses**) gijja kasalligi.
verminous [ˈvə:mɪnəs] *a* bitlab ketgan, bit bosgan.
verm(o)uth [ˈvə:məθ] *n* vermut (*vinoning bir turi*).
vernacular [vəˈnækjulə] **1.** *a* xalqqa (oid), mansub, ommaviy, xalq...; **2.** *n* ona tili.
vernal [ˈvə:nl] *a* ko'klamgi, bahorgi, bahoriy, bahor...; **the ~ equinox** bahorgi tengkunlik, bahorda kechasi bilan kunduzi teng bo'ladigan payt (*21 mart*).
veronica [və ˈrɔnɪkə] *n bot.* veronika (*binafsha gulli o'tsimon o'simlik*).
versatile [ˈvə:sətaɪl] *a* 1) egiluvchan, bukiluvchan; 2) serqirra, har taraflama.
versatility [ˌvə:səˈtɪlətɪ] *n* ko'p tomonlamalik; serqirralik, har taraflamalik.
verse [və:s] **1.** *n* 1) band, she'r, bayt, misra; 2) poeziya, she'riyat, nazm; **in ~ or prose** nazmda *yoki* nasrda; **lyrical ~** lirik she'r; **2.** *v* 1) she'r yozmoq; 2) she'r bilan ifoda etmoq.
versed I [və:st] *a* tajribali, tajribakor, omilkor, usta, mohir.
versed II [və:st] *p. p.* **verse 2** *dan.*
verse-monger [ˈvə:sˌmʌŋgə] *n* 1) qofiyaboz (*no'noq shoir haqida*); 2) no'noq shoir.
versicoloured [ˈvə:sɪˌkʌləd] *a* rang-barang, turli tusdagi, har xil rangli.
versification [ˌvə:sɪfɪ ˈkeɪʃn] *n* she'r tuzilishi, she'r tuzish.
versifier [ˈvə:sɪfaɪə] *n* 1) *esk.* she'r texnikasini yaxshi biladigan shoir, nozim; 2) no'noq shoir, qofiyaboz.
versify [ˈvə:sɪfaɪ] *v* 1) she'r yozmoq; 2) she'rga (nazmga) aylantirmoq, she'r (nazm) bilan ifodalamoq.
version [ˈvə:ʃn] *n* 1) rivoyat, naql, taxminiy fikr; 2) variant, boshqacha ko'rinish; 3) tarjima.
verso [ˈvə:səu] *n lot.* (*pl* **-os** [-əuz]) 1) ochiq kitobning chap tomondagi sahifasi; 2) orqa (teskari) tomon (*tanga pul, medal*).
versus [ˈvə:səs] *lot. prep.* 1) qarshi, xilof, zid; 2) bilan solishtirganda.
vert [və:t] *n* yashil rang.
vertebra [ˈvə:tɪbrə] *n* (*pl* **-rae**) 1) umurtqa suyagi, umurtqa pog'onasi (*umurtqaning har bir bo'g'ini*); 2) *pl so'zl.* umurtqa.
vertebrae [ˈvə:tɪbreɪ] *pl* **vertebera** *dan.*
vertebral [ˈvə:tɪbrəl] *a* 1) umurtqaga oid; umurtqali, umurtqasi bor; ~ **column** umurtqa.
vertebration [ˌvə:tɪˈbreɪʃn] *n* umurtqa suyagining paydo bo'lishi (vujudga kelishi).
vertebrate [ˈvə:tɪbrət] **1.** *n* umurtqali hayvonlar; **2.** *a* umurtqali, umurtqasi bor.
vertex [ˈvə:teks] *n* (*pl* **-tices**) tepa, uch, cho'qqi; ~ **of an angle** burchak uchi.
vertical [ˈvə:tɪkl] **1.** *a* vertikal yo'nalishdagi, vertikal, tik; **2.** *n* vertikal (tik) chiziq.
vertices [ˈvə:tɪsi:z] *pl* **vertex** *dan.*
verticil [ˈvə:tɪsɪl] *n bot.* g'ushsha (*g'uj barg, gul, novda*).
vertiginous [və: ˈtɪdʒɪnəs] *a* 1) boshni aylantiradigan, gangitadigan; 2) boshi aylanishda azoblanayotgan; **to feel ~** boshi aylanmoq; 3) aylanadigan; ~ **current** girdob, aylanma.
vertigo [ˈvə:tɪgəu] *n* (*pl* **-os** [-əuz]) bosh aylanish, gangish, esankirash.
vervain [ˈvə:veɪn] *n bot.* tizimgul.
very [ˈverɪ] **1.** *adv* juda, g'oyatda, o'ta; ~ **well** juda ham yaxshi; ~ **much** katta; **thank you ~ much** katta rahmat; **2.** *a* chin, haqiqiy, chinakam, rostakam, ayni, g'irt, qip-qizil; **the ~ truth** chin (ayni) haqiqat.
Very light [ˈvɪərɪlaɪt] *n harb.* signal (*ishora, xabar*) beradigan raketa.
vesicant [ˈvesɪkənt] *a tib.* yiringli yaraga oid, yiringli yara; chipqonga oid.
vesicate [ˈvesɪkeɪt] *v* yiringlamoq, maddalamoq, fasod bog'lamoq.
vesicle [ˈvesɪkl] *n anat. biol.* pufakcha; ko'pikcha.
vesicular [vɪˈsɪkjulə] *a tib.* pufakchali; qavariqli; ~ **desease** qavariq.
vesper [ˈvespə] *n* 1) (**V**) kechki yulduz; 2) *pl cherk.* kechki ibodat (*xristianlarda*).
vesper-bell [ˈvespəbel] *n* kechki ovoz, kechki tovush.
vespertine [ˈvespətaɪn] *a* 1) kechki, kechqurungi, oqshomgi; 2) *bot.* kechki payt so'lib qoladigan; 3) *zool.* tungi, tundagi.
vespiary [ˈvespɪərɪ] *n* gazandalar uyasi.
vessel [ˈvesl] *n* 1) kema; **merchant ~** savdo kemasi; 2) samolyot.
vest [vest] **1.** *n* 1) *amer.* nimcha; **coat ~ and trousers** pidjak, shim va nimchadan iborat kastum; 2) mayka; 3) kiyim, libos; 4) *tar.* kamzul.
vesta [ˈvestə] *n* mum gugurt; **fusee ~** shamolda o'chmaydigan gugurt.
vestal [ˈvestl] **1.** *n* iffatli qiz, ma'suma, bokira; **2.** *a* iffatli, ma'suma, bokira; pok.
vested [ˈvestɪd] *a* qonuniy, qonunga muvofiq, qonunga asoslangan, qonun asosidagi.

vestiary [ˈvestɪərɪ] = **vestry.**

vestibular [ves'tɪbjulə] *a* : ~ **mechanism** vestibular moslama (*ichki quloqda joylashgan, bosh va gavda muvozanatini idora qiladigan a'zo*).

vestibule [ˈvestɪbju:l] *n* 1) vestibul; 2) *anat.* biror teshik (kanal) yo'lining boshlanishi (boshlanish, kirish qismi).

vestibule school [ˈvestɪbju:lsku:l] *n amer.* (*zavod yoki fabrika qoshidagi*) ishlab chiqarish maktabi.

vestige [ˈvestɪdʒ] *n* 1) iz; nishon; pay, asar, qoldiq; alomat; 2) *biol.* rudiment, qoldiq (*organizmning evolutsion taraqqiyoti mobaynida o'z ahamiyatini yo'qotgan qismi*).

vestigia [ve'stɪdʒɪə] *pl* **vestigium** *dan.*

vestigial [ve'stɪdʒɪəl] *a* qoldiq; hozir o'z qiymatini yo'qotgan, o'tmishdan qolgan, eskirgan, qoldiq.

vestigium [ve 'stɪdʒɪəm] *n* iz; nishon; pay, asar, qoldiq; alomat.

vestment [ˈvestmənt] *n* sarpo, libos; kiyim, kiyimbosh, ust-bosh.

vest-pocket [ˌvest'pɔkɪt] *n* nimcha (jilet) cho'ntagi.

vestry [ˈvestrɪ] *n cherk.* rizaxona (*rizalar va cherkov anjomlari saqlanadigan bino, ombor*).

vesture [ˈvestʃə] *n* 1) sarpo, libos; 2) parda, choyshab, ro'mol; 3) xotin-qizlarning yengil (yupqa) libosi.

vet [vet] **1.** *n* 1) mol doktori; 2) doktor, shifokor; 3) *amer.* veteran (*keksa, tajribali harbiy kishi, urush qatnashchisi*); **2.** *v* hayvonlarni davolamoq.

vetch [vetʃ] *n bot.* xashaki no'xat.

veteran [ˈvetərən] *n* veteran (*keksa, tajribali harbiy kishi, urush qatnashchisi*), faxriy kishi.

veterinary [ˈvetrənərɪ] *n* veterinar; mol doktori.

veto [ˈvi:təu] **1.** *n* veto (*man etish, bekor qilish, taqiqlash huquqi*); **2.** *v* biror narsani bekor qilmoq; man etmoq.

vex [veks] *v* o'kintirmoq, o'ksitmoq, xafa qilmoq, ranjitmoq, alam qildirmoq, alam qiladigan ish qilmoq; **to be ~ed** g'azablanmoq.

vexation [vek'seɪʃn] *n* 1) o'kinish, achinish, ranj, alam; 2) g'azablanish, achchiqlanish.

vexatious [vek 'seɪʃəs] *a* kishiga ranj yetkazadigan, alam qiladigan, kishini ranjitadigan, afsuslantiradigan, o'ksitadigan, o'kinchli.

vexed [vekst] *v* g'azablantirmoq, achchiqlantirmoq, g'ashiga tegmoq.

vexing [ˈveksɪŋ] *a* 1) yoqimsiz, yomon, ko'ngilsiz, noxush, sovuq, xunuk; 2) g'azablantiradigan, achchiqlantiradigan, g'ashiga tegadigan.

via [ˈvaɪə] *lot. prep.* ustidan, orqali, bilan.

viable [ˈvaɪəbl] *a* yashashga qobil, yashovchan.

viaduct [ˈvaɪədʌkt] *n* 1) teshik ko'prik (*yo'l ustidan o'tgan ko'prik*); 2) kesishgan yo'l ustidan o'tkazilgan ikkinchi yo'l (*ko'prik yo'l*).

vial [ˈvaɪəl] *n* shishacha, kichkina shishacha; **to pour out ~s of wrath on smb.** g'azabini kimgadir sochmoq.

viands [ˈvaɪəndz] *n pl* 1) oziq-ovqat; 2) taom; noz-ne'mat.

viatic [vaɪ'ætɪk] *a* yo'lga oid, yo'l...

viator [vaɪ'eɪtə] *n* sayohatchi, sayyoh.

vibrant [ˈvaɪbrənt] *a* jo'shqin, zavqli.

vibrate [vaɪ'breɪt] *v* tebranmoq, titramoq, zirillamoq.

vibration [vaɪ 'breɪʃn] *n* tebranish, titrash, zirillash.

vibrator [vaɪ 'breɪtə] *n tex.* tebratkich.

vibrio [ˈvɪbrɪəu] *n biol.* vibrion (*vergul shaklidagi bakteriya*).

viburnum [vaɪ'bə:nəm] *n bot.* kalina, bodrezak (*buta o'simligi va uning mayda, qizil, nordon mevasi*).

vicar [ˈvɪkə] *n* ruhoniy.

vicarage [ˈvɪkərɪdʒ] *n* 1) ruhoniylik mansabi; 2) ruhoniyning uyi.

vicarial [vaɪ 'keərɪəl] *a cherk.* pop yordamchisiga (o'rinbosariga) oid.

vicarious [və'keərɪəs] *a* 1) vaqtincha birovning o'rniga ishlaydigan; ~ **authority** (*yoki* ~ **power**) ishonchnoma, vakolatnoma; 2) birovning o'rniga qilingan; ~ **atonement** birovning gunohini yuvish.

vice I [vaɪs] *n* 1) nuqson, qusur, ayb, kamchilik, illat; 2) buzuqlik, yomonlik, yovuzlik, yomon (yovuz) ish.

vice II [vaɪs] *prep.* o'rniga, badaliga, o'rniga o'rin.

vice III [vaɪs] *n pref.* o'rinbosar; ~ **president** vitse-prezident.

vice IV [vaɪs] **1.** *n tex.* iskanja, taxtakach; **2.** *v* siqmoq, qismoq, siqib qo'ymoq, qisib olmoq.

vice-admiral [ˌvaɪs 'ædmrəl] *n* vitse-admiral.

vice-chairman [ˌvaɪs'tʃeəmən] *n* rais o'rinbosari.

vice-chancellor [ˌvaɪs 'tʃɑ:nsələ] *n* vitse-kansler.

vice-consul [ˌvaɪs 'kɔnsl] *n* vitse-konsul.

vicegerent [ˌvaɪs' dʒerənt] *n* vakil, noib, o'rinbosar.

vice-governor [ˌvaɪs 'gʌvnə] *n* vitse-gubernator.

vice-minister [ˌvaɪs'mɪnɪstə] *n* vazir muovini (*o'rinbosari*).

vicennial [vaɪ'senɪəl] *a* yigirma yillik (*davr, muhlat*); har yigirma yilda bo'ladigan.

vice-president [ˌvaɪs'prezɪdənt] *n* vitse-prezident.

viceregal [ˌvaɪs 'ri:gəl] *a* vitse-qirollik.

vicereine [ˌvaɪs 'reɪn] *n* vitse-qirolning xotini.

viceroy [ˈvaɪsrɔɪ] *n* vitse-qirol, qirol o'rinbosari.

vice squad [ˌvaɪs'skwɔd] *n amer.* davlat tomonidan sotilishi man qilingan narsalarni sotish bilan shug'ullanuvchilarga qarshi kurashuvchi politsiya otradi.

vice versa [ˌvaɪsɪ'və:sə] *adv lot.* aksi, teskarisiga, aksincha, qayta, qaytaga; boshqacha.

vicinage [ˈvɪsɪnɪdʒ] *n* yonma-yonlik, qo'shnilik; yaqinida (yonida) bo'lish.

vicinal [ˈvɪsɪnl] *a* 1) mahalliy, yerli, shu yerli, tub joyli; 2) yonma-yon joylashgan.

vicinity [vɪ´sɪnətɪ] *n* yaqinlik, yonma-yonlik, qo'shnilik, yaqinida (yonida) bo'lish.
vicious [´vɪʃəs] *a* 1) axloqsiz, odobsiz, yomon, buzuq; 2) noto'g'ri, xato, nuqsonli.
vicissitude [vaɪ´sɪsətju:d] *n* teskarilik, noto'g'rilik, egrilik, yolg'onlik; **the ~s of fate** (*yoki* **life**) taqdirning bevafoligi (o'zgaruvchanligi).
victim [´vɪktɪm] *n* 1) qurbon; qurbonlik; 2) sadaqa; hadya.
victimization [ˌvɪktɪmaɪ´zeʃn] *n* siyosiy chiqishlarda, ish tashlashlarda qatnashganlari uchun ishchi va xizmatchilarni ishdan bo'shatish.
victimize [´vɪktɪmaɪz] *v* 1) azoblamoq; (azob, ozor) bermoq; qiynamoq, aziyat chektirmoq; 2) aldamoq, chalg'itmoq, yolg'on gapirmoq, firib bermoq.
victor [´vɪktə] *n* g'olib, muzaffar; yengib chiqqan (yutgan) kishi, g'alaba qozongan kishi.
victoria [vɪk´tɔ:rɪə] *n* ikki kishilik yengil fayton (*yengil arava*).
Victorian [vɪk´tɔ:rɪən] *a* 1) bichimi (modasi) eskirgan, eski modadagi; 2) eskilikni yoqlovchi, eskilikka yopishib olgan.
victoria plum [vɪkˌtɔ:rɪə´plʌm] *n* olxo'ri navi.
victorious [vɪk´tɔ:rɪəs] *a* muzaffar, g'alabaga olib boruvchi, zafarli, g'olib, g'olibona; **~ troops** muzaffar qo'shinlar.
victory [´vɪktərɪ] *n* g'alaba, zafar, yutuq; **to win a convincing ~** ishonchli g'alaba qozonmoq.
victress [´vɪktrəs] *n* yengib chiqqan (yutgan, g'alaba qozongan) ayol.
victual [´vɪtl] **1.** *n* ovqat, oziq, taom; **2.** *v* oziq-ovqat bilan ta'minlamoq.
victualler [´vɪtlə] *n* oziq-ovqat bilan ta'minlovchi, oziq-ovqat yetkazuvchi kishi.
victualling [´vɪtlɪŋ] **1.** *pres. p.* **victual 2.** *dan*; **2.** *n* oziq-ovqat bilan ta'minlash, oziq-ovqat yetkazib berish.
victualling-yard [´vɪtlɪŋjɑ:d] *n* oziq-ovqat ombori.
vicugna, vicuña [vɪ´kju:nə] *n zool.* vigon (*Janubiy Amerikada yashovchi tuyasimon hayvon*).
vide [´vaɪdɪ] *lot. v imp.* qara(moq); **~ supra** yuqoriga qaramoq; **~ infra** pastga qaramoq.
videlicet [vɪ´di:lɪset] *adv lot.* 1) xuddi, naqd, ayni, aniq; 2) chunonchi, masalan, ya'ni.
video [´vɪdɪəu] **1.** *n* 1) video; 2) *amer.* televideniya; **2.** *a* televideniyaga oid, televideniyaga taalluqli bo'lgan; video.
vidimus [´vaɪdɪməs] *n* 1) hujjatlarni rasmiy tekshirish; 2) tasdiqlangan nusxa.
vie [vaɪ] *v* raqib bo'lmoq, raqobat qilmoq, bahslashmoq; **to ~ with smb. for smth.** kim bilandir nimadir haqida bahslashmoq; **to ~ in doing smth.** nimadir haqida bahslashmoq.
Viennese [ˌvi:ə´ni:z] **1.** *a* Venaga oid, Vena; **2.** *n* Vena fuqarosi, venalik kishi.
Viet-Namese, Vietnamese [ˌvjetnə´mi:z] **1.** *a* Vyetnam va vyetnamliklarga oid, Vyetnam...; **2.** *n* Vyetnam, vyetnamlik, vyetnamlik ayol.
view [vju:] **1.** *n* 1) fikr, qarash; 2) ko'rinish, qiyofa, tus, chehra, aft, bashara, **point of ~** nuqtayi nazar; **progressive social ~** ilg'or ijtimoiy qarashlar; **2.** *v* muhokama qilmoq, ko'rib chiqmoq.
viewer [´vju:ə] *n* tomoshabin, tomoshachi, kuzatuvchi.
view-finder [´vju:ˌfaɪndə] *n foto.* vidoiskatel (*foto va kinoapparatlarning suratga oladigan obyekt holatini kuzatish uchun xizmat qiladigan moslamasi*).
viewless [´vju:ləs] *a* ko'rinmaydigan, bilinmaydigan, ko'rinmas.
view-point [´vju:pɔɪnt] *n* nuqtayi nazar, qarash.
viewy [´vju:ɪ] *a so'zl.* 1) (*tabiati*) qiziqroq, g'alatiroq, tentaksimon; 2) hashamatli, muhtasham.
vigil [´vɪdʒɪl] *n* 1) bedorlik, bedor bo'lish, uxlamaslik, uyg'oq turish (*bo'lish*), hushyorlik, sergaklik; 2) navbatchilik.
vigilance [´vɪdʒələns] *n* 1) hushyorlik, ogohlik, ziyraklik, sezgirlik; **to preserve one's ~** hushyorlikni saqlamoq, sergak bo'lmoq; 2) *tib.* uyqusizlik, bedorlik; uyqusizlik kasali.
vigilant [´vɪdʒələnt] *a* hushyor, ziyrak, sergak, sezgir, ogoh.
vigilante [ˌvɪdʒɪ´læntɪ] *n* drujinachi, drujina a'zosi.
vignette [vɪn ´jet] **1.** *n* vinyetka (*kitobning bosh va oxirgi sahifasiga solingan gul*); **2.** *v* vinyetka chizmoq.
vigogne [vɪ ´gəun] *n to'qim.* vigon (*dag'al yung bilan paxta aralashmasidan eshilgan ip*).
vigor [´vɪgə] *amer.* = **vigour.**
vigorous [´vɪgərəs] *a* g'ayratli, dadil, kuchli, zabardast.
vigorously [´vɪgərəslɪ] *adv* kuch (zarb, shiddat) bilan.
vigour [´vɪgə] *n* kuch, quvvat, tinka, mador, majol, darmon.
Viking [´vaɪkɪŋ] *n tar.* viking (*qadimgi Skandinaviyada harbiy dengiz askari*).
vile [vaɪl] *a* razil, qabih, yaramas, pastkash.
vilification [ˌvɪlɪfɪ´keɪʃn] *n* qattiq so'kish, haqorat qilish.
vilify [´vɪlɪfaɪ] *v* qattiq so'kmoq, haqoratlamoq, haqorat qilmoq.
villa [´vɪlə] *n* villa (*bog'li koshona*).
village [´vɪlɪdʒ] *n* qishloq.
villager [´vɪlɪdʒə] *n* qishloqlik, qishloqda yashovchi kishi.
villain [´vɪlən] *n* jinoyatchi, badkor, badkirdor, yaramas, razil (*qabih, past*) odam, ablah, nobakor.
villainous [´vɪlənəs] *a* ablahona, xunuk, iflos, jirkanch, qabih.
villainy [´vɪlənɪ] *n* yaramaslik, razillik, ifloslik, xunuklik.
vim [vɪm] *n so'zl.* energiya, quvvat, kuch, tinka-mador, majol, darmon.
vincible [´vɪnsɪbl] *a* yengib (*yoki yengsa*) bo'ladigan, yengish mumkin bo'lgan.

vindicate [ˈvɪndɪkeɪt] *v* isbotlamoq, isbot qilmoq; **to ~ one's courage** o'zining jasoratini ko'rsatmoq.
vindication [ˌvɪndɪˈkeɪʃn] *n* dalil, isbot.
vindicator [ˈvɪndɪkeɪtə] *n* himoyachi, himoya (mudofaa) qiluvchi, mudofaa...
vindicatory [ˈvɪndɪkətərɪ] *a* himoya qiladigan, yoqlaydigan, yoqlovchi, himoya, yoqlash... .
vindictive [vɪnˈdɪktɪv] *a* kek saqlovchi, qasos olmay qo'ymaydigan, kekni unutmaydigan.
vine [vaɪn] *n* 1) tok novdasi; 2) tok, uzum; **~ culture** uzumchilik; **ground ~** palak.
vinedresser [ˈvaɪnˌdresə] *n* tokchi (*uzumchi*) bog'bon, sohibkor.
vinegar [ˈvɪnɪgə] *n* 1) sirka; 2) yoqimsiz (yomon) fe'l-atvor (xarakter); 3) qo'rs javob.
vinegary [ˈvɪnɪgərɪ] *a* 1) sirkaga oid, sirka...; 2) yoqimsiz, xunuk; **~ smile** yoqimsiz tabassum.
vine-prop [ˈvaɪnprɔp] *n* 1) shpalera (*devorga osilgan tuksiz gilam yoki suratlar tushirilgan gilam-simon mato*); 2) *o'gz.* gulqog'oz.
vinery [ˈvaɪnərɪ] *n* uzum issiqxonasi, tok o'stirish uchun qilingan issiqxona.
vineyard [ˈvɪnjəd] *n* tokzor, uzumzor.
vinIculture [ˈvɪnɪkʌltʃə] = **viticulture.**
vinō [ˈvɪnəu] *n* (*pl* **-oes** [-əuz]) *so'zl.* arzon vino (musallas, may, sharob, boda).
vin-ordinaire [ˌvænɔ:dɪˈneə] *n fr.* arzon qizil musallas.
vinous [ˈvaɪnəs] *a* vinoga oid, vinobop; vinoli, sharobli.
vintage [ˈvɪntɪdʒ] **1.** *n* uzumning hosili; **~ wine** oliy navli musallas; **2.** *v* 1) uzum termoq; 2) uzum vinosi (musallas) tayyorlamoq.
vintager [ˈvɪntɪdʒə] *n* uzum teruvchi (yig'uvchi, yig'ib terib oluvchi) kishi.
viol [ˈvaɪəl] *n mus.* viola (*skripkasimon musiqa asbobi*).
viola I [vɪˈəulə] *n* alt (*past ovozli qilli yoki puflab chalinadigan musiqa asbobi*).
viola II [ˈvaɪələ] *n bot.* binafsha, gunafsha.
violaceous [ˌvaɪəˈleɪʃəs] *a* 1) binafshaga oid, binafsha...; 2) binafsha rang, gunafsha rang.
violate [ˈvaɪəleɪt] *v* buzmoq, chetga chiqmoq; **to ~ the law** qonunni buzmoq.
violation [ˌvaɪəˈleɪʃn] *n* 1) buzish, rioya qilmaslik, bajarmaslik; 2) kuch ishlatish; kuchini ko'rsatish.
violator [ˈvaɪəleɪtə] *n* buzuvchi, buzg'unchi.
violence [ˈvaɪələns] *n* 1) kuch-quvvat; tinka, jazava, hayajon; 2) kuch ishlatish, zo'rlash.
violent [ˈvaɪələnt] *a* 1) jazava (*g'azab, hayajon va shu kabidan o'zini bilmaydigan*), g'azabi oshgan, darg'azab, quturgan; 2) kuchli, quvvatli.
violently [ˈvaɪələntlɪ] *adv* 1) juda, g'oyat, qattiq, nihoyat darajada; 2) kuch (zarb, shiddat) bilan.
violet [ˈvaɪəlɪt] *n* 1) binafsha, gunafsha; 2) binafsha rang.
violin [ˌvaɪəˈlɪn] *n* skripka; g'ijjak; **~ist** skripkachi, g'ijjakchi.
violinist [ˌvaɪə ˈlɪnɪst] *n* skripkachi.
violoncellist [ˌvaɪələn ˈtʃelɪst] = **'cellist.**
violoncello [ˌvaɪələnˈtʃeləu] = **'cello.**
viper [ˈvaɪpə] *n* 1) *zool.* qora ilon (*yapaloq boshli zaharli ilon*); 2) *ko'ch.* makkor, yovuz odam.
viperous [ˈvaɪpərəs] *a* 1) zaharli; 2) yomon, yovuz, serjahl, g'azablangan.
virago [vɪˈrɑ:gəu] *n* (*pl* **-os, -oes** [-əuz]) janjalkash ayol, badjahl ayol.
virgin [ˈvə:dʒɪn] **1.** *n* 1) qiz; iffatli qiz, ma'suma, bokira; 2) qo'riq, bo'z yer; **2.** *a* qizlik davridagi, qizlarga xos bo'lgan.
virginal [ˈvə:dʒɪnl] *a* iffatli, ma'sum, bokira, pok; beayb, aybsiz, gunohsiz.
virginity [və:ˈdʒɪnətɪ] *n* iffatlilik, ma'sumlik, bokiralik; iffat.
Virgo [ˈvə:gəu] *n astr.* sunbula (*burj*).
viridity [vɪˈrɪdətɪ] *n* 1) maysa, o't; o'simliklar, barglar; ko'kalamzor; 2) yangilik, tozalik, soflik.
virile [ˈvɪraɪl] *a* 1) balog'atga (voyaga) yetgan; 2) yetilgan, yetilib pishgan, pishiq.
virility [vɪˈrɪlətɪ] *n* mardlik, botirlik, jasurlik, jasorat.
virology [ˌvaɪˈrɔlədʒɪ] *n* virusologiya (*mikrobiologiyaning viruslar haqidagi bo'limi*).
virtu [və:ˈtu:] *n* : **articles of ~** noyob san'at, *pl* nodir narsalar.
virtual [ˈvə:tʃuəl] *a* haqiqiy, chin; **~ rulers of a country** mamlakatning haqiqiy rahbarlari.
virtually [ˈvə:tʃuəlɪ] *adv* 1) aslida, haqiqatan; 2) aslini (haqiqatni) olganda, to'g'risini aytganda, gapning to'g'risi.
virtue [ˈvə:tʃu:] *n* 1) yaxshi fazilat, yaxshi xislat; 2) saxovat, himmat, ezgu ish; **a man of ~** saxovatli kishi.
virtuosi [ˌvə:tʃu ˈəuzi:] *pl* **virtuoso** *dan.*
virtuosity [ˌvə:tʃuˈɔsətɪ] *n* yuksak mahorat, mohirlik, ustalik.
virtuoso [ˌvə:tʃuˈəuzəu] *it. n* (*pl* **-os** [-əuz], **si**) 1) yuksak mahoratli san'atkor; 2) o'z ishiga mohir odam, usta.
virtuous [ˈvə:tʃuəs] *a* yaxshi fazilatlarga ega bo'lgan saxovatli; himmatli; xayrli, ezgu.
virulence [ˈvɪruləns] *n* 1) zaharlilik, zaharli bo'lish; 2) kek, adovat, xusumat, gina; 3) yomonlik, yovuzlik.
virulent [ˈvɪrulənt] *a* 1) zaharli, og'uli; 2) xavfli, og'ir (*kasallik haqida*); 3) dushmanlik ruhidagi.
virus [ˈvaɪrəs] *n lot.* virus (*yuqumli kasallikni qo'zg'atuvchi, yuqtiruvchi mikroorganizm*).
visa [ˈvi:zə] **1.** *n* viza, ruxsatnoma; **to grant a ~** ruxsatnoma (viza) bermoq; **entrance** (*yoki* **entry**) **~** kirish ruxsatnomasi; **exit ~** chiqish ruxsatnomasi; **2.** *v* ijozat bermoq, viza qo'ymoq.
visage [ˈvɪzɪdʒ] *n* yuz, bet, afti, bashara, chehra.
visard [ˈvɪzəd] = **visor.**

vis-à-vis [ˌviːzɑːˈviː] *n fr.* ro'para, yuzma-yuz, betma-bet, qarama-qarshi.

viscera [ˈvɪsərə] *lot. n pl* ich, qorin, ichak-chovoq.

visceral [ˈvɪsərəl] *a* ich, qorin, ichak-chovoqqa oid, ich...; qorin...; ichak-chovoq... .

viscid [ˈvɪsɪd] = **viscous.**

viscose [ˈvɪskəʊs] *n to'qim.* viskoza (*sun'iy tola va sellofan tayyorlash uchun ishlatiladigan modda*).

viscosity [vɪˈskɔsətɪ] *n* 1) egiluvchanlik, qayishqoqlik; 2) yopishqoqlik, yelimshaklik, qovushqoqlik.

viscount [ˈvaɪkaunt] *n* vikont (*Angliya, Fransiya va ba'zi boshqa mamlakatlarda: baron bilan graf o'rtasidagi dvoryanlik unvoni*).

viscountess [ˌvaɪkauˈntes] *n* vikont xotini *yoki* qizi.

viscous [ˈvɪskəs] *a* 1) egiluvchan, qayishqoq; 2) yopishqoq, qovushqoq, yelimshak.

vise [vaɪz] *amer.* = **vice IV.**

visibility [vɪzəˈbɪlətɪ] *n* 1) ko'rinish, ko'z ilg'ash, sirtdan ko'rinish, zohiriy tomon; 2) ko'rish, ko'ra olish.

visible [ˈvɪzəbl] *a* 1) ko'zga ko'rinadigan, ko'rib bo'ladigan, ko'z ilg'aydigan, ko'rinarli, zohir; 2) oshkor, aniq.

visibly [ˈvɪzəblɪ] *adv* 1) aftidan, chamasi, shekilli; 2) sezilarli darajada, ancha.

vision [ˈvɪʒn] *n* ko'rish qobiliyati, ko'rish, ko'z; **to lose one's** ~ ko'rish qobiliyatini yo'qotmoq, ko'r bo'lmoq.

visional [ˈvɪʒnl] *a* 1) ko'rishga oid; ko'rish...; 2) tasavvurdagi, faraz qilingan, tasavvur qilinadigan.

visionary [ˈvɪʒnərɪ] **1.** *a* xayolda (tasavvurda) ko'rinadigan, xayoldagi, xayoliy; **2.** *n* orzu-xayollarga beriluvchan odam, xayolparast.

visit [ˈvɪzɪt] **1.** *n* tashrif, safar, kelib (borib) ko'rish, borish; **to make** (*yoki* **to pay**) **a** ~ tashrif buyurmoq; **return** ~ javob safari; **mutual reciprocal** ~**s** o'zaro tashrif(lar); **goodwill** ~ yaxshi niyatli tashrif; **2.** *v* kelib (borib) ko'rmoq, tashrif buyurmoq, safar qilmoq.

visitable [ˈvɪzɪtəbl] *a* keluvchilar uchun ochiq.

visitant [ˈvɪzɪtənt] *n* 1) *shoir.* mehmon, mo'tabar (aziz) mehmon; 2) ko'chmanchi qush (*ko'klamda shimol tomonga, kuzda janubga uchib o'tadigan qushlar*).

visitation [ˌvɪzɪˈteɪʃən] *n* 1) rasmiy tashrif; 2) aylanib o'tish, chetlab o'tish.

visitatorial [ˌvɪzɪtəˈtɔːrɪəl] *a* inspektorga (nazoratchiga) oid; inspektor...; inspektorlik.

visiting [ˈvɪzɪtɪŋ] **1.** *pres. p.* **visit 2.** *dan*; **2.** *a* qatnovchi, tashrif buyuruvchi.

visiting-card [ˈvɪzɪtɪŋkɑːd] *n* vizit kartochkasi.

visiting-day [ˈvɪzɪtɪŋdeɪ] *a* qabul kuni; mehmonlarni qabul qilish kuni.

visiting professor [ˌvɪzɪtɪŋprəˈfesə] *n* dorilfununda leksiya o'qish uchun ma'lum fanlardan chaqirilgan mutaxassis.

visiting-round [ˌvɪzɪtɪŋˈraund] *n* (*qorovullarni, kasallarni*) aylanib chiqish, ko'rib chiqish.

visiting teacher [ˌvɪzɪtɪŋˈtiːtʃə] *n amer.* kasal *yoki* nogiron o'quvchilarning o'qitilishini nazorat qilish zimmasiga yuklatilgan maktab o'qituvchisi.

visitor [ˈvɪzɪtə] *n* tashrif etuvchi, mehmon, tashrif buyurgan kishi.

visor [ˈvaɪzə] *n* soyabon (*bosh kiyimida*).

vista [ˈvɪstə] *n* 1) manzara, uzoqdan ko'rinish; 2) xiyobon; 3) o'rmon so'qmog'i; 4) xotiralar silsilasi, bitmas-tuganmas (*xotiralar*).

visual [ˈvɪzuəl] *a* ko'rgazmali; ko'rishga oid, ko'rish...; ~ **nerve** ko'rish nervi (*asabi*); ~ **memory** ko'z xotirasi (*ko'rganni eslab qolish qobiliyati*); ~ **aids** ko'rgazmali qurollar.

visualization [ˌvɪzuəlaɪˈzeɪʃn] *n* aniq (*yaqqol*) ko'rish obrazi.

visualize [ˈvɪzuəlaɪz] *v* xayolida ko'rmoq, xayolan tasavvur qilmoq.

vita [ˈviːtə] *n* qisqacha tarjimayi hol.

vita glass [ˌviːtəˈglɑːs] *n* ultrabinafsha nurlanish o'tqazadigan oyna.

vital [ˈvaɪtl] *a* 1) hayotiy, zaruriy, muhim; 2) hayotda (turmushda) bo'ladigan; hayotdan olingan.

vitalism [ˈvaɪtəlɪzm] *n biol.* vitalizm (*hayotiy jarayonlar moddiy sabablarga emas, balki ilohiy kuchlarga bog'liq deb da'vo qiluvchi idealistik oqim*).

vitality [vaɪˈtælətɪ] *n* yashash qobiliyati, yashovchanlik, yashay olish.

vitals [ˈvaɪtlz] *n pl* 1) hayot uchun kerak bo'lgan a'zolar (organlar); 2) eng muhim (kerakli) qismlar, markazlar va b.

vitamin [ˈvɪtəmɪn] **1.** *n* vitamin; **2.** *attr.* vitaminga oid, vitaminli; ~ **tablets** vitamin tabletkalari; ~ **deficiency** *tib.* avitaminoz (*vitaminlar yetishmasligi natijasida ro'y beradigan kasallik*).

vitiate [ˈvɪʃɪeɪt] *v* buzmoq, buzib qo'ymoq, ishdan chiqarmoq.

vitiation [ˌvɪʃɪˈeɪʃn] *n* buzilish, aynish, ishdan chiqish.

viticulture [ˈvɪtɪkʌltʃə] *n* tokchilik, uzumchilik, sohibkorlik.

vitreous [ˈvɪtrɪəs] *a* shisha ko'rinishidagi, shishaga o'xshash; ~ **body** (*yoki* **humour**) *anat.* shishasimon modda (*ko'zda*).

vitrification [ˌvɪtrɪfɪˈkeɪʃn] *n* oyna *yoki* oynasimon moddaga aylanish.

vitrify [ˈvɪtrɪfaɪ] *v* oynaga *yoki* oynasimon moddaga aylanmoq.

vitriol [ˈvɪtrɪəl] *n* kuporos (*sulfat kislota tuzlarining texnik nomi*).

vitriolic [ˌvɪtrɪˈɔlɪk] *a* kuporosga oid, kuporosli.

vituperate [vaɪˈtjuːpəreɪt] *v* so'kmoq, urishmoq, koyimoq.

vituperation [vaɪˌtjuːpəˈreɪʃn] *n* 1) uyatli so'z, so'kish so'zlari; 2) urush, jang; 3) qattiq so'kish, haqorat qilish.

vituperative [vaɪ ˈtju:pərətɪv] *a* haqoratli, uyatli, haqorat..., uyat..., so'kish..., koyish... .
viva I [ˈvi:və] **1.** *int.* yashasin!; **2.** *n* tabrik, tabriklash.
viva II [ˈvaɪvə] *so'zl.* **viva voce** *dan.*
vivacious [vɪˈveɪʃəs] *a* g'ayratli, jonli, quvnoq, ruhi ko'tarilgan, kayfi chog'.
vivacity [vɪˈvæsətɪ] *n* jonlilik, tezlik, ildamlik, chaqqonlik, qizg'inlik, jo'shqinlik.
vivaria [vaɪ ˈveərɪə] *pl* **vivarium** *dan.*
vivarium [vaɪˈveərɪəm] *n* (*pl* **-ia**) 1) vivariy (*hayvonlar ustida tajriba o'tkaziladigan maxsus joy*); 2) xona, katalak; 3) *ov.* qopqon, dom.
viva voce [ˌvaɪvəˈvəutʃɪ] **1.** *n lot.* og'zaki imtihon; **2.** *a* og'zaki; ~ **examination** og'zaki imtihon.
vivid [ˈvɪvɪd] *a* 1) yorug', yorqin, charaqlagan, qizg'in, jo'shqin, g'ayratli, yuragida o'ti bor; ~ **imagination** jo'shqin xayol.
vivify [ˈvɪvɪfaɪ] *v* 1) tiriltirmoq, jon kiritmoq; 2) tekislashtirmoq, jonlantirmoq, g'ayrat bag'ishlamoq.
viviparous [vɪˈvɪpərəs] *a zool.* bola tug'adigan (*tuxum ochmay bolalaydigan*).
vivisect [ˈvɪvɪsekt] *v* tirik hayvonni *yoki* tirik hayvon organizmini yorib tekshirmoq.
vivisection [ˌvɪvɪˈsekʃn] *n* viveksiya (*tirik hayvonni yoki tirik hayvon organizmini yorib tekshirish*).
vixen [ˈvɪksən] *n* 1) zahar (badjahl) ayol, janjalkash ayol; 2) urg'ochi tulki.
vixenish [ˈvɪksənɪʃ] *a* jahli yomon, battol, badjahl, janjalkash.
viz [vɪz] *adv* 1) xuddi, naq, ayni, aniq; 2) chunonchi, masalan.
vizard [ˈvɪzɑ:d] *n esk.* niqob.
vizor [ˈvaɪzə] = **visor.**
V-J Day [ˌvi:ˈdʒeɪdeɪ] *n* (*ikkinchi jahon urushida*) Yaponiya ustidan qilingan g'alaba kuni.
V-mail [ˈvi:meɪl] *n* ovoz yozib olinadigan lentalar orqali bir-biriga xat-xabar yozib turish (*harbiy xizmatdagilarga yuborish*).
V-neck [ˈvi:nek] *n* (*kiyimda*) burmadan kesib olinadigan qirqim.
vocable [ˈvəukəbl] **1.** *n ling.* chet so'z, chet so'zlar lug'ati; **2.** *a* talaffuz qilinadigan.
vocabulary [vəuˈkæbjulərɪ] **1.** *n* 1) lug'at; 2) so'z boyligi; 3) (*tilning*) lug'at tartibi; **2.** *attr.* lug'atga oid, lug'at...; ~ **entry** lug'at maqolasi.
vocal [ˈvəukl] *a* tovushga (tovush chiqarishga) oid, tovush chiqarish uchun xizmat qiladigan, tovush chiqaradigan.
vocalic [vəu ˈkælɪk] **1.** *a* unli; **2.** *n* unli tovush.
vocalist [ˈvəukəlɪst] *a* ashulachi, qo'shiqchi, hofiz, xonanda.
vocality [vəu ˈkælɪtɪ] *n* so'zlash qobiliyati.
vocalization [ˌvəukəlaɪ ˈzeɪʃn] *n* ifodalash, aytish, ifoda etish, izhor qilish.
vocalize [ˈvəukəlaɪz] *v* ashula (qo'shiq) aytmoq, kuylamoq.
vocally [ˈvəukəlɪ] *adv* 1) og'zaki; 2) qattiq (baland) ovoz bilan, hammaga eshittirib, baralla, oshkora.
vocation [vəu ˈkeɪʃn] *n* moyillik, mayl, rag'bat, qiziqish, havas, iste'dod.
vocational [vəuˈkeɪʃnəl] *a* kasbga oid, kasb bilan bog'liq, kasbiy; ~ **school** hunar maktabi.
vocative [ˈvɔkətɪv] *gram. n* undash (atov) kelishigi (*murojaatni ifodalovchi ot shakli*).
voces [ˈvəusi:z] *pl* **vox** *dan.*
vociferate [vəu ˈsɪfəreɪt] *v* baqirmoq, baqirib gapirmoq, qichqirmoq, qiyqirmoq, bo'kirmoq.
vociferation [vəuˌsɪfəˈreɪʃn] *n* 1) baqirish, qichqirish, bo'kirish; 2) baqiriq, qichqiriq, qiyqiriq, hayqiriq, shovqin, shovqin-suron, dod, doddaryod.
vociferous [vəu ˈsɪfərəs] *a* ovozi baland; shallaqi, shang'i.
vocular [ˈvɔkjulə] *a* 1) *ling.* unli (*tovush haqida*); 2) qattiq, baland (*ovoz, tovush haqida*).
voder [ˈvəudə] *n* elektro apparat.
vodka [ˈvɔdkə] *n* araq.
vogue [vəug] *n* moda, rasm, odat; **all the** ~ eng so'nggi antiqa moda.
voice [vɔɪs] **1.** *n* 1) ovoz, tovush; ~ **of conscience** vijdon amri; 2) *gram.* nisbat; **active** ~ aniqlik nisbati; **passive** ~ majhul nisbat; **2.** *v* (*so'z bilan*) ifodalamoq, izhor etmoq.
voicecast [ˈvɔɪskɑ:st] *n* ovoz yozib olingan magnit lentasi.
voiced [vɔɪst] **1.** *p. p.* **voice 2.** *dan*; **2.** *a* 1) jaranglagan, jaranglaydigan, jaranglovchi; 2) *fon.* jarangli.
voiceless [ˈvɔɪsləs] *a* 1) tili yo'q, tilsiz, ovozini yo'qotgan, ovozga ega bo'lmagan, soqov, gung; 2) *fon.* jarangsiz.
voice vote [ˈvɔɪsvəut] *n* saylovda qatnashganlardan ma'lumot to'plab qaror qabul qilish.
void [vɔɪd] **1.** *n* vakuum, bo'shlik, xolilik; **2.** *a* ichi bo'sh, hech narsasi yo'q, bo'sh, xoli; **3.** *v* bo'shamoq, xoli bo'lmoq.
voidable [ˈvɔɪdəbl] *a* bahslashsa (rad, inkor) qilsa bo'ladigan, munozarali, tortishuvli.
voidance [ˈvɔɪdəns] *n* bekor qilish, yo'q qilish, kuchdan qoldirish.
voidness [ˈvɔɪdnəs] *n* 1) bo'shlik, xolilik; 2) vayronlik, xaroblik.
volant [ˈvəulənt] *a* uchadigan, uchar.
volatile [ˈvɔlətaɪl] *a* 1) *kim.* uchuvchan, tez bug'lanadigan; 2) joyini o'zgartirib turadigan.
volatility [ˌvɔləˈtɪlətɪ] *n* 1) *kim.* uchuvchanlik (*tez bug'lanish*); 2) joyini o'zgartirib turish.
volatilization [vɔˌlætɪlaɪ ˈzeɪʃən] *n* uchib ketish, bug'lanib ketish.
volatilize [vəˈlætɪlaɪz] *v* uchib ketmoq, bug'lanib ketmoq.
volcanic [vɔlˈkænɪk] *a* 1) vulqonga va vulknizmga oid, vulkanizm hodisalari bilan bog'langan;

~ **rock** vulkanik tog' jinsi; 2) to'lqinli, jo'shqin, kuch-g'ayratga to'lib-toshgan.

volcano [vɔl'keɪnəu] *n* vulkan, vulqon (yonar tog'); **active** ~ harakatdagi vulkan.

volition [vəu'lɪʃn] *n* istak, xohish, ixtiyor, niyat, tilak, orzu, xohlash, intilish.

volitional [vəu'lɪʃnəl] *a* 1) irodaga oid; iroda...; 2) irodali, irodasi kuchli.

volley ['vɔlɪ] **1.** *n* zalp, baravariga o'q otish (uzish); **2.** *v* baravariga o'q uzmoq.

volley-ball ['vɔlɪbɔ:l] *n* voleybol.

volplane ['vɔlpleɪn] **1.** *n* (*qo'nish maqsadida*) sekin-asta pastlab uchish; **2.** *v* (*qo'nish maqsadida*) sekin-sekin pastlab uchmoq.

volt [vəult] *n el.* volt (*elektr kuchlanishi o'lchov birligi*).

voltage ['vəultɪdʒ] *n* voltaj (*elektr tarmog'ida voltlar bilan ifodalangan kuchlanish*).

voltaic [vɔl'teɪɪk] *a el.* galvanik; ~ **arc** *fiz.* volta yoyi, elektr yoyi.

Voltairian [vɔl'teərɪən] *n* volterchi, Volter maslakdoshi (*XVIII-XIX asrlarda hurfikrli odamlarga berilgan nom*).

Voltairism [vɔl'teərɪzm] *n* volterizm, Volter ta'limoti.

voltameter [vɔl'tæmɪtə] *n el.* voltametr (*elektr toki kuchini uning kimyoviy ta'siriga qarab o'lchaydigan asbob*).

volte [vɔlt] *n sport.* 1) volt (*otning manej mashqida bir aylanib chiqishi*); 2) raqibning hujumidan o'zini chetga tortish (*qilichbozlikda*).

volte-face [ˌvɔlt'fɑ:s] *n fr.* 1) *harb.* orqaga burilish; 2) keskin o'zgarish (*qarash, siyosat va b.*).

voltmeter ['vəultˌmi:tə] *n* voltmetr (*elektr toki kuchlanishini o'lchaydigan asbob*).

volubility [ˌvɔlju'bɪlətɪ] *n* sergaplik, ezmalik, ko'p gapirishlik, hech kimga gap bermaslik.

voluble ['vɔljubl] *a* sergap, ko'p gapiradigan, ezma, hech kimga gap bermaydigan.

volume ['vɔljum] *n* hajm, ko'lam, miqdor, tom, jild; ~ **of knowledge** bilimlar ko'lami; **the** ~ **of trade** savdo ko'lami.

volumenometer [vɔˌljumɪ'nɔmɪtə] *n* voluminometr (*qattiq jismlarning hajmini o'lchaydigan asbob*).

volumeter [vɔ'lju:mɪtə] *n* volumetr (*suyuqlik va gazsimon narsalarning hajmini o'lchaydigan asbob*).

volumetric [ˌvɔlju'metrɪk] *a* hajmga oid, hajmiy, hajm...; ~ **capacity** sig'im, hajm, kattalik, eltish; ~ **flask** *fiz.* o'lchov kolbasi.

voluminous [və'lu:mɪnəs] *a* 1) ko'p tomli (*nashr to'g'risida*); 2) ishi serunum; sermahsul; mahsuldor (*yozuvchi haqida*).

voluntarism ['vɔləntərɪzm] *n filos.* voluntarizm (*voqelikning negizi irodadir deb biluvchi va obyektiv taraqqiyot qonunlarini rad etuvchi yo'nalish*).

voluntary ['vɔləntərɪ] *a* ixtiyoriy, ko'ngilli.

voluntaryism ['vɔləntərɪɪzm] *n* ixtiyoriylik (ko'ngillilik) prinsipi.

volunteer I [ˌvɔlən'tɪə] *n* ko'ngilli; talabgor.

volunteer II [ˌvɔlən'tɪə] *v* (*o'z yordamini*) taklif qilmoq.

voluptuary [və'lʌptuərɪ] *n* shahvoniy hisga berilgan odam, shahvatparast.

voluptuous [və'lʌptuəs] *a* 1) sezgiga oid; 2) seziladigan, bilinadigan, sezib (bilib) bo'ladigan; 3) shahvoniy hisga berilgan.

volute [və 'lu:t] *n* voluta (*kolonna, ustun va sh. k.da spiral shaklidagi bezak*).

volution [və'lu:ʃn] *n* 1) jingalak, gajak; 2) gajak shaklida o'ralgan narsa, o'ram, gajak.

volvulus ['vɔlvjuləs] *n* ichaklarning buralishi (buralib qolishi).

vomit I ['vɔmɪt] *n* 1) qusish, qayt qilish, qusuq; 2) qayt qildiradigan dori.

vomit II ['vɔmɪt] *v* qusish (qayt qilishdan) azob chekmoq; **he was** ~ **ing blood** u qon qusdi.

vomitive ['vɔmɪtɪv] = **vomitory.**

vomitory ['vɔmɪtərɪ] **1.** *n* qayt qildiradigan dori; **2.** *a* 1) qusishga (qayt qilishga) oid, qayt qilish...; 2) qustiradigan, qayt qildiradigan.

voodoo ['vu:du:] **1.** *n* tabib, emchi, duoxon; **2.** *v* sehrlab qo'ymoq, jodu qilmoq.

voracious [və 'reɪʃəs] *a* 1) yebto'ymas, badnafs, mechkay; 2) ochko'z, suq; xasis, qizg'anchiq.

voracity [vɔ'ræsətɪ] *n* yebto'ymaslik, badnafslik, mechkaylik, sertomoqlik.

vortex ['vɔ:teks] *n* (*pl* **-tices, -es** [-ɪz]) uyurma, quyun, girdob, girvat, aylanma, uyurmali qattiq shamol, bo'ron.

vortical ['vɔ:tɪkl] *a* 1) dovulli, girdobli; 2) uyurmalangan, uyurma; 3) aylanadigan, aylanma, aylantiruvchi.

vortices ['vɔ:tɪsi:z] *pl* **vortex** *dan.*

vorticose ['vɔ:tɪkəus] = **vortical.**

votaress ['vəutərəs] *n* 1) monax ayol, rohiba; 2) hurmatini o'rniga qo'yuvchi (ayol).

votary ['vəutərɪ] *n* 1) monax, rohib; 2) tarafdor, yoqlovchi.

votation [vəu'teɪʃn] *n* ovoz berish; ovozga qo'yish; ovoz.

vote [vəut] **1.** *n* ovoz berish, ovoz; **secret (open)** ~ yashirin (ochiq) ovoz berish; **to put to the** ~ ovozga qo'ymoq; **to take a** ~ **on question** masalani ovozga qo'ymoq; **2.** *v* ovoz bermoq; **to** ~ **for (against)** yo'qlab (qarshi) ovoz bermoq.

voter ['vəutə] *n* 1) saylovchi, ovoz beruvchi; 2) saylov qatnashchisi.

voting ['vəutɪŋ] *n* ovoz berish, saylash.

voting machine ['vəutɪŋməˌʃi:n] *n* saylovda beriladigan ovozlarni hisoblaydigan mashina.

voting paper ['vəutɪŋˌpeɪpə] *n* saylov varaqasi (bulleteni).

votive [ˈvəutɪv] *a* ont ichib qilingan.
vouch [vautʃ] *v* kafil bo'lmoq, kafolat bermoq, kafilligini olmoq, ishontirmoq.
voucher [ˈvautʃə] *n* 1) tilxat, kafil, kafil bo'lgan kishi; 2) tasdiqlovchi hujjat.
vouchsafe [vautʃˈseɪf] *v* sazovor qilmoq, loyiq topmoq, munosib ko'rmoq.
vow [vau] *n* qasam, ont, va'da, so'z.
vowel [ˈvauəl] *n* unli, unli tovush.
vox [vɔks] *lot. n* (*pl* **voces**) ovoz, fikr, mulohaza; **~ populi** jamoat fikri.
voyage [ˈvɔɪɪdʒ] **1.** *n* sayohat, safar; dengiz sayohati; **2.** *v* (*dengizda*) sayohat qilmoq.
voyager [ˈvɔɪədʒə] *n* dengizda sayohat (qilgan) qiluvchi kishi, sayohatchi.
voyeur [vwaˈjɔ:] *n* erotik kinolarni ko'rish orqali lazzatlanadigan kishi.
vug [vʌg] *n geol.* cho'nqir yer, ichiga botgan (*kirgan*) joy.
vulcanic [vʌlˈkænɪk] *a* vulqonga va vulkanizmga oid, vulkanizm hodisalari bilan bog'langan.
vulcanite [ˈvʌlkənaɪt] *n* ebonit (*izolatsion material*).
vulcanization [ˌvʌlkənaɪˈzeɪʃn] *n* vulkanizatsiya (*1. kauchukni rezinkaga aylantirish jarayoni; 2. rezinka buyumlarini xom rezinkadan yamoq solib ta'mirlash*).
vulcanize [ˈvʌlkənaɪz] *v* vulkanizatsiya qilmoq (*rezinani*).
vulgar [ˈvʌlgə] **1.** *a* dag'al, qo'pol, to'ng, to'rs, xunuk; **2.** *n* (**the ~**) *og'z.* avom, oddiy xalq.
vulgarian [vʌlˈgɛərɪən] *n* beadab (tarbiya ko'rmagan) kishi.

Ww

W, w [ˈdʌblju:] *n* ingliz tili alifbosining yigirma uchinchi harfi.
wabble [ˈwɔbl] *n* tebranish, chayqalish, silkinish, qimirlash, likillash.
wabbly [ˈwɔblɪ] *a* liqillab (qimirlab, chayqalib) turadigan.
wack [wæk] *n so'zl.* jinni, telba, savdoyi (ruhiy kasal) odam.
wacko | ˈwækəu] = **wack.**
wacky [ˈwækɪ] *a so'zl.* 1) ahmoqona, ahmoqlarcha, bema'ni (*g'oya*); 2) miyasi biroz aynigan; tentakroq, jinniroq.
wad [wɔd] **1.** *n* 1) bo'lak, parcha, o'ram, kalava (*momiq paxta, jun, yung*); 2) yumaloqlangan narsa; 3) qog'oz pullar bog'lami (dastasi); **2.** *v* 1) ichiga paxta tiqmoq; 2) yumaloq-yassi qilmoq.
wadding [ˈwɔdɪŋ] **1.** *pres. p.* **wad 2.** *dan*; **2.** *n* 1) momiq, paxta, jun; 2) qadash, tikish; 3) astar.
waddle [ˈwɔdl] **1.** *n* lapanglab yurish; **2.** *v* lapanglab yurmoq.
wade [weɪd] *v* sayoz joydan kechib o'tmoq.
vulgarism [ˈvʌlgərɪzm] *n* 1) *ling.* vulgarizm (*adabiy tilda uchraydigan beadab so'z yoki ibora*); 2) beadablik.
vulgarity [vʌlˈgærətɪ] *n* 1) mohiyatini buzib ko'rsatishlik, ma'nosini buzib talaffuz qilish, soxtalashtirish, qo'pollashtirish; 2) beadablik, qo'pollik, tarbiyasi buzuqlik.
vulgarization [ˌvʌlgəraɪˈzeɪʃn] *n* buzish, rasvolashtirish, rasvo qilish, qo'pollashtirish, soxtalashtirish, ma'nosini buzib talaffuz qilish, mohiyatini buzib ko'rsatish.
vulgarize [ˈvʌlgəraɪz] *v* 1) buzmoq, rasvolashtirmoq, rasvo qilmoq, rasvosini chiqarmoq; 2) qo'pollashtirmoq, ma'nosini buzib talqin qilmoq.
vulnerability [ˌvʌlnərəˈbɪlətɪ] *n* darrov shikastlanadiganlik, himoyasi bo'shlik, zaiflik, mo'rtlik.
vulnerable [ˈvʌlnərəbl] *a* gap ko'tara olmaydigan, ko'ngli nozik.
vulnerary [ˈvʌlnərərɪ] *a* shifobaxsh, shifoli da'vo bo'ladigan dorivor; **~ plants** dorivor o'simliklar.
vulpicide [ˈvʌlpɪsaɪd] *n* 1) tulkilarni tozi itsiz ov qilish; 2) tulkilarni tozi itsiz o'ldiradigan ovchi.
vulpine [ˈvʌlpaɪn] *a* 1) makkor, hiylakor; ayyor; 2) tulkiga oid, tulki... .
vulture [ˈvʌltʃə] *n* 1) kalxat; qoraqush; 2) talovchi, qonxo'r, vahshiy, yirtqich, isrofgar (*kishilar haqida*).
vulturous [ˈvʌltʃurəs] *a* 1) shafqatsiz, yovuz; 2) ochko'z, suq.
vulva [ˈvʌlvə] *n* ayollarning tashqi jinsiy a'zolari (organlari).
vying [ˈvaɪɪŋ] *pres. p.* **vie** *dan.*

wader [ˈweɪdə] *n* 1) botqoqlik (to'qay) qushi; 2) *pl* botqoq etigi, botqoqlikda (to'qayzorlarda) kiyiladigan etik.
wading bird [ˈweɪdɪŋˌbə:d] *n* botqoqlik (to'qay) qushi.
wafer [ˈweɪfə] *n* 1) vafli (*katak-katak yupqa pecheniy*); 2) *farm.* kapsula, g'ilof; 3) surg'uchli muhr.
wafery [ˈweɪfərɪ] **1.** *n* vafli ishlab chiqaradigan korxona; **2.** *a* yupqa, ingichka; vaflidek tez sinadigan (mo'rt).
waff [wɔf] *n* (*qo'lni*) silkitish, siltash, qoqish.
waffle I [ˈwɔfl] **1.** *n og'z.* (quruq) safsata, bekor (behuda) gap; **2.** *v* behuda gaplar gapirmoq.
waffle II [ˈwɔfl] *n* vafli.
waffle-iron [ˈwɔflˌaɪən] *n* vafli tayyorlaydigan qolip.
waft [wɑ:ft] **1.** *n* 1) (*qanot*) qoqish; 2) (*shamol*) esish; **2.** *v* 1) tarqalmoq, taralmoq; 2) olib bormoq, eltmoq, tashimoq; 3) haydab bormoq, surmoq.
wag I [wæg] **1.** *n* silkitish, bosh qimirlatish; **2.** *v* qanot qoqmoq, silkitmoq.

wag II [wæg] **1.** *n* 1) qiziqchi, masxaraboz; 2) bekorchi, yalqov, tanbal; **2.** *v* ishga bormay (*yoki* kelmay) qolmoq.
wage I [weɪdʒ] *n* ish haqi, maosh, oylik; **living ~** kun kechirish uchun zarur bo'lgan narsalarning eng oz miqdori.
wage II [weɪdʒ] *v* 1) urush qilmoq; 2) boshlamoq, olib bormoq (*urush*).
wage-cut [weɪdʒkʌt] *n* ish haqini kamaytirish.
wage-earner ['weɪdʒ,ə:nə] *n* 1) yollanma ishchi; 2) boquvchi, qarovchi, tarbiyachi.
wage-freeze ['weɪdʒfri:z] *n* ish haqini to'lamaslik, maoshni o'z vaqtida bermaslik.
wager ['weɪdʒə] **1.** *n* 1) garov, bahs, garov o'ynash; 2) oylik maosh; **2.** *v* 1) garov o'ynamoq; 2) tavakkal qilmoq.
wage-rate ['weɪdʒreɪt] *n* 1) maosh, ish haqi; 2) tarif (*biror narsaga to'lanadigan qat'iy baholar majmuyi*).
wages-fund ['weɪdʒɪzfʌnd] *n* ish haqi fondi.
wage-work ['weɪdʒwə:k] *n* yollanma mehnat.
wage-worker ['weɪdʒwə:kə] *n* yollanma ishchi.
waggery ['wægərɪ] *n* 1) sho'xlik, hazilkashlik, hazil-huzul; 2) (*qo'pol, qaltis*) hazil; 3) hazilkashlik.
waggish ['wægɪʃ] *a* 1) sho'x, o'yinqaroq; shumtaka; 2) qiziq, ajib, g'alati, kulgili.
waggle ['wægl] **1.** *n* 1) silkish; 2) tebratish, chayqatish; **2.** *v* 1) silkitmoq, qimirlatmoq; 2) tebratmoq, chayqatmoq.
waggly ['wæglɪ] *a* liqillab (qimirlab, chayqalib) turadigan, bo'sh, liqildoq.
wag(g)on ['wægən] *n* 1) to'rt g'ildirakli arava; 2) vagon, yuk vagoni.
wag(g)oner ['wægənə] *n* aravakash, yuk tashuvchi, kirakash.
wag(g)onette [,wægə'net] *n* ikki o'rindiqli, bo'yiga uzaytirilgan yengil arava.
wagon-lit [,wægɔn'li:t] *n fr.* uxlab (yotib) ketiladigan vagon.
wagon-train ['wægəntreɪn] *n* karvon.
wagtail ['wægteɪl] *n zool.* jiblajibon (*chumchuqsimonlar turkumiga mansub, ingichka va uzun dumli kichkina qush*).
waif [weɪf] *n* 1) hech kimga tegishli bo'lmagan, tashlandi narsa; 2) boshpanasiz odam; 3) boqimsiz bola.
wail [weɪl] **1.** *n* dod, fig'on, nola, faryod, baqiriq, qichqiriq, chinqiriq; dod-voy, fig'on, o'kirib yig'lash; **2.** *v* baqirmoq, qichqirmoq, dodlamoq, dod-voy qilmoq.
wailful ['weɪlfəl] *a* g'amga botgan, xafa, g'amgin, qayg'uli.
wain [weɪn] *n* 1) *shoir.* to'rt g'ildirakli arava; 2) (**the W**) *astr.* Katta Ayiq, Katta Yetti Og'ayni.
wainscot ['weɪnskət] *n* devorlarning pastki qismini qoplab qo'yilgan yog'och-taxta.
waist [weɪst] *n* bel.
waistband [weɪstbænd] *n* kamar, belbog'.
waist-belt ['weɪstbelt] *n* belga taqiladigan kamar.
waistcoat ['weɪskəut] *n* nimcha, jiletka.
waist-deep [,weɪst'di:p] **1.** *a* belgacha boradigan; **2.** *adv* belgacha; **~ in the water** belgacha suv ichiga kirish.
waistline ['weɪstlaɪn] *n* belning chizig'i, ko'ylakning beli.
wait [weɪt] **1.** *n* kutish, ko'z tutish, intizor bo'lish; **a long ~** uzoq kutish; **2.** *v* kutmoq, muntazir bo'lmoq, ko'z tutmoq (**for**).
wait-a-bit ['weɪtəbɪt] *n so'zl.* tikandek sanchiladigan buta o'simlik.
wait-and-see [,weɪtn'si:] *a* fursat kutadigan, payt poylaydigan.
waiter ['weɪtə] *n* 1) ofitsiant; 2) qabulni kutayotgan kishi.
waiting ['weɪtɪŋ] **1.** *pres. p.* **wait 2.** *dan*; **2.** *n* kutish; **3.** *a* poylovchi, ogoh; intizor.
waiting-list ['weɪtɪŋlɪst] *n* nomzodlar ro'yxati (*mansabga, turar joy olish va b. uchun*).
waiting-room ['weɪtɪŋru:m] *n* 1) qabulga (qabul qilishga) oid, qabul qilish...; 2) *tem. yo'l.* kutish xonasi (zali).
waitress ['weɪtrəs] *n* ofitsiantka, (*oshxonada*) ovqat uzatib turuvchi ayol.
waive [weɪv] **1.** *v* rad etmoq, tonmoq, bosh tortmoq (*huquq, talabdan*); 2) vaqtinchalik chetga surib qo'ymoq.
waiver ['weɪvə] *n yur.* talab, huquqdan bosh tortish.
wake [weɪk] **1.** *v* (**woke, waked** [-t]; **waked, woken, woke**) 1) uyg'onmoq; 2) uyg'otmoq; 3) bedor bo'lmoq, uyg'oq turmoq; **2.** *n shoir.* bedorlik, bedor bo'lish, uxlamaslik, uyg'oq turish (bo'lish), hushyorlik, sergaklik.
wakeful ['weɪkfəl] *a* 1) uyg'otadigan; 2) uxlamaydigan, uyqusiz; 3) hushyor, sezgir.
wakeless ['weɪkləs] *a* uyg'otib bo'lmaydigan, dong qotgan, juda qattiq (*uyqu haqida*).
waken ['weɪkən] *v* 1) uyg'otmoq, uyqudan turg'izmoq; 2) uyg'onmoq, uyqudan turmoq.
wakening ['weɪkənɪŋ] **1.** *pres. p.* **waken** *dan*; **2.** *n* 1) uyg'onish, uyqudan turish; 2) uyg'otish, uyqudan turg'izish.
wakey ['weɪkɪ] *int. so'zl.* o'rningdan tur!
waking ['weɪkɪŋ] **1.** *pres. p.* **wake** *dan*; **2.** *a* uxlamayotgan, bedor, uyg'oq.
wale [weɪl] **1.** *n* 1) chandiq, yamoq (*bitgan yaraning o'rni*); 2) kertik, chuqur chiziq, o'yiq; 3) yo'g'onlashgan chok *yoki* baxya; **2.** *v* tilib yubormoq, urib badanda uzun iz qoldirmoq (*pichoq, qamchi va sh. k. bilan*).
walk [wɔ:k] **1.** *n* 1) (*piyoda*) yurish; 2) masofa, ora, uzoqlik, yo'l; **a mile's ~ from the lyceum** litseydan bir mil uzoqlikda; **2.** *v* 1) yurmoq, bormoq; 2) piyoda yurmoq.
walkaway ['wɔ:kəweɪ] *n* osonlik bilan g'alabaga erishish (*musobaqada*).

